

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 1, 2024

www.buxdu.uz



<https://buxdu.uz>

The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency

According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.

Address:

200117, Bukhara city,
K.Murtazoyev street, 11
Bukhara State University
Editorial and publishing
Department
Phone: +998 (94) 837-18-38

**The journal is published 4
times a year**

Website: www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:

200117, Buxoro shahri,
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy
Buxoro davlat universiteti
"Tahririy-nashriyot" bo'limi
Tel: +998 (94) 837-18-38

**Jurnal 1 yilda 4 marta
chiqadi.**

Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.

Адрес:

город Бухара 200117,
улица М.Икбола, 11
Бухарский государственный
университет
Редакционный отдел
тел: +998 (94) 837-18-38

**Журнал выходит 4 раза в
год.**

Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz



PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL * НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

1-son 2024-yil. * Выпуск 1. 2024 год.

TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

BAROTOV SH. R.

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии психологических наук

MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
SHOUMAROV G'B.

Psixologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston
Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOROBENNIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor
JUMAYEV R.G'.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
NISHONOVA Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor
BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor
MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor
RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor
BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent
AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent
ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

OSTONOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

RUSTAMOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

TILAVOV M.H.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., professor

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. - filologiya fanlari doktori, professor

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

ТЕХНИК МУHARRIRLAR – ТЕХ.

РЕДАКТОРЫ:

Shirinova M.Sh., filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)



PSYCHOLOGY

SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 1: 2024

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF: BAROTOV SH. R.

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

EXECUTIVE SECRETARY: Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,
The rector of Bukhara State University

SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor, Full
member of the Academy of Sciences of the
Republic of Uzbekistan

UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KOROBENNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor

SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor

BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor

KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor

JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor

OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent

NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor

NAZAROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor

IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor

BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor

MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor

RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor

BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent

AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent

ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent

OSTONOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent

RUSTAMOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent

TILAVOV M.H.

PhD of Psychology

EDITORS:

Usmanova M.N. – Candidate of Psychology,
Professor

Mukhtorov E.M. – Candidate of Psychology,
Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of
Philosophy in Philological Sciences
(PhD), Docent

Abuzalova M.K. – Doctor of Philological
Sciences, Professor

Sobirova D.A. Doctor of Psychology,
Professor

TECHNICAL EDITORS:

Shirinova M.Sh., Doctor of
Philosophy in Philological Sciences
(PhD)



Баратов Хумоюн Шарифович,
Психология ва хорижий тиллар институти
доценти, психология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОШИРИШ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА

Аннотация. Ушбу мақолада жисмоний тарбия ўқитувчилари касбий тайёргарлигини оширишнинг педагогик-психологик усуллари, унинг методологияси ва психологик асослари очиб берилган.

Калит сўзлар: компетентлик, мулоқотмандлик, психологик компетентлик, касбий маҳорат, перцептив компетентлик, профессионал позиция.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье раскрываются педагогико-психологические методы совершенствования профессиональной подготовки учителей физического воспитания, ее методология и психологические основы.

Ключевые слова: компетентность, общение, психологическая компетентность, профессиональное мастерство, перцептивная компетентность, профессиональная позиция.

IMPROVING PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Abstract. The article reveals pedagogical and psychological methods for improving the professional training of physical education teachers, its methodology and psychological foundations.

Keywords: competence, communication, psychological competence, professional skill, perceptual competence, professional position.

Кириш. Ҳозирги замон мактаби ўқитувчилик шахси ва касбий фаолияти учун зарурий сифат ва фазилатларни эгаллаган, янгича фикрлайдиган, ижтимоий фаол педагогларни талаб этмоқда. Бу муаммони оқилона ҳал қилишнинг энг муҳим омилларидан бири - бу жисмоний тарбия ўқитувчилари касбий тайёргарлиги жараёнини мақсадга мувофиқ ташкил этишдир. Шунга биноан, мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизими соҳасида амалга оширилаётган ислохотларнинг устувор йўналишларидан бири-кадрлар тайёрлаш сифатини жаҳон стандарти талаблари даражасига етказишдир. Эндиликда олий таълим муассасалари олдида фақатгина ўқимишли инсоннигина эмас, балки воқеаларни олдиндан кўра биладиган, тўғри қарор қабул қила олиш укувиға эга, ўзини ўзи ривожлантириш заруриятини тушуниб етадиган оқил ва баркамол шахсни шакллантириш вазифаси қўйилмоқда. Дарҳақиқат, ўқимишли, руҳан тетик, соғлом ва жисмонан бақувват кишиларгина истиқлол ва тараққиёт йўлини босиб ўта олади. Юқоридаги мулоҳазаларга асосланиб шуни айтиш мумкинки, республикамизда амалга оширилаётган туб ислохотларнинг яратувчиси тарзида шаклланаётган ёш авлодни вояга етказиш, уларнинг замон талаблари даражасида билим олиши, шахс сифатида камол топиши, касб-хунар сирларини ўрганиши ва кундалик турмуш юмушларини ҳал этишга тайёргарлик масаласи асосий муаммолар тариқасида таълим жараёнининг кун тартибида турибди.

Замонавий педагогика ва психология фанларининг амалиётида шу нарса сезилмоқдаки, педагог мутахассисларнинг касбий тайёргарлик мазмунини, шаклланган шахс моделини ва ихтисослик фаолиятини таърифлаш меъёрларини ишлаб чиқиш, фаолият субъектининг касбий тасаввури ва тафаккурини ҳамда ўзини ўқитувчи сифатида англаб етишини тадқиқ қилиш масалаларига илмий жамоатчиликнинг эътибори янада ортмоқда.

Муҳокама. Жисмоний тарбия ўқитувчиларининг замонавий талаблар асосида касбий тайёргарлигини таъминлаш учун мазкур жараённинг негизи ҳисобланган педагог меҳнатининг мазмунини ҳозирги давр талаблари даражасида ташкил этиш зарур. Касбий тайёргарлик жараёнининг ҳар бир қисми ва ҳолатини уйғунлаштириб яхлит тасаввур қилгандагина, унинг ўзига хос

хусусиятлари яққол намоён бўлади, мураккабликларининг таркибини аниқлаш, муаммоларининг ечимларини топиш осонлашади, нозик қирралари ва жиҳатлари англонади, айни пайтда умумпедагогик жараёнининг сифати янада ортади. Ана шу мақсадда ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги жараёнига нисбатан муносабат тизимини ўзгартириш муаммога янгича ёндашиш, жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигининг замонавий жиҳатларини ўрганишни тақозо этади.

Узоқ ва яқин хориж психологларининг илмий тадқиқотларини ўрганар эканмиз, ўқитувчи касбий тайёргарлигининг психологик асослари ва бу жараёнга таъсир этадиган ижтимоий-маданий, миллий-худудий ва педагогик-психологик омилларнинг аҳамиятига доир қимматли илмий натижалар қайд этганлигини кўрамиз.

Жумладан, Г.Жаходанинг таъкидлашича, инсоннинг шахс сифатида шаклланиши ва касбий камолотида маданий омилларнинг таъсири беқиёс. Унинг фикрича, балиқ сувсиз яшай олмаганидек, инсон ҳам маданият маҳсулотларисиз яшай олмайди. Маданият – атроф-олам билан инсон ўртасидаги асосий восита. Инсон ана шу восита ёрдамида ўзлигини намоён этади. Маданият ва турмуш тарзи ўз вакиллари (шу маданиятга мансуб кишиларга) ўзини қандай тутиши (шахс сифатида) ҳамда қандай вазифа ва бурчларни адо этиши (касбий) зарурлигини уқтиради.

В.Х.Дурхамнинг фикрича, инсоний маданиятлар ва инсон биологиясининг эволюцияси бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Одамларнинг хилма-хиллиги генетик омиллар ҳамда маданий омиллар билан белгиланади. Бир-бирдан географик узоқ жойларда яшаб ривожланаётган халқларнинг тафовутлари айнан генетик ва маданий омиллар таъсирига боғлиқдир. Биологик механизм (организм) ларнинг эволюциясида маданий урф-одатлар ва қадриятларнинг роли муҳимдир. Бир неча авлодларнинг маданий муҳитда биргаликда ривожланиш жараёни биологик хусусиятлардаги бугунги тафовутларга олиб келган.

А.Бандура ва Г.В.Капрараларнинг таъкидлашича, жисмоний тарбия ўқитувчисининг касбий тайёргарлигида ўқув-тарбия жараёнларини ташкил этиш ва ўқувчилар психологиясига хос қонуниятларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Жисмоний тарбия ўқитувчисининг шахслилик ва касбий тайёргарлик даражаси (обрў-эътибори, намунаси) қанчалик юқори бўлса, ўқувчилар билан таълим ва тарбиявий муносабатларни яхши йўлга қўйса, ўқитувчининг фикрлари, ўқувчи хулқ-атвори ва меҳнатига бераётган баҳоси унинг ўз ютуқ ва нуқсонларини қандай изохлашларига таъсир этади.

Ўқув-тарбия жараёнида эришилган ютуқни ўқувчининг ўзи изохлаб бериши тасодиф ёки омад келиши деб билишдан кўра кучлироқдир. Ўқувчиларнинг хизмати тан олинмаган, тўғри баҳоланадиган таълимий жараён, ўзи яхши ўқиши мумкинлиги тўғрисида тасаввур ва билим эгаллашга бўлган ижобий муносабатларнинг шаклланишига ёрдам бериши мумкин. Ўқитувчининг шахсий намунаси ва обрў-эътибори таълим-тарбия жараёнида болада қатъий нуқтаи назар шаклланишида муҳим роль ўйнайди.

М.Тален таклиф этган педагогик мулоқот учун зарур бўлган жисмоний тарбия ўқитувчисининг профессионал позицияси (касбий нуқтаи назари) типологияси диққатга сазовордир. Мазкур типологияга кўра:

1. “Сократ” модели – бундай ўқитувчи дарс жараёнини мунозара асосида ташкил этади.
2. “Жамоавий мунозара раҳбари” модели – бундай ўқитувчи таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ўзаро келишув ва ҳамкорлигини демократик асосда олиб боради.
3. “Уста” модели – бундай ўқитувчи ўқувчилар учун ҳамма соҳада андоза объекти ҳисобланади.
4. “Генерал” модели – бундай ўқитувчи ўқувчиларга талабчан бўлиб, ўқувчиларнинг бурч ва вазифаларини тўлиқ адо этишларини таъминлашни бошқаради.
5. “Интилувчи” модели – ўқув-тарбия жараёнида туб ўзгаришлар қилишга йўналган ўқитувчи. У синф жамоаси фаолияти самарадорлигини оширишга, ўқувчиларнинг ташаббускорлиги ва мустақиллигини рағбатлантиради.
6. “Тренер” модели – ўқитувчи ўқувчиларнинг бир мақсад сари, ҳамжиҳат ва ҳамкор фаолиятини таъминлайди ва бошқаради.
7. “Гит” модели – бундай ўқитувчи гўёки жонли энциклопедия. Унинг гап-сўзлари аниқ, жонли, илмий асосланган ва ҳамма саволларга жавоблар олдиндан маълум.

Ўқитувчининг касбий тайёргарлиги ва педагогик фаолиятини ташкил этиш масалаларига гуманизм нуқтаи назаридан ёндашган А.Маслоу, К.Роджерсларнинг тадқиқотлари диққатга сазовордир. Уларнинг фикрича, ўқитувчи энг аввало ўқув-тарбия жараёнида ўқувчилар фаоллигини оширишни эсдан чиқармаслиги, юзага келган муаммоларни мустақил ечишга ўргатиши, ўқувчи

ташаббускорлиги ва ижодкорлиги асосида ўзининг кимлигини намойиш этишига ёрдамлашиши зарур. Бунинг учун ўқитувчи шахслилик ҳамда касбий сифат ва фазилатларни тўлиқ эгаллаган бўлиши лозим.

К.Роджерснинг таъкидлашича, бундай ўқитувчилар ўқувчилар билан кўпроқ дўстона мулоқотда бўладилар, ўзаро фикр алмашадилар, мавзуга доир муаммони таҳлил қиладилар ва бир қарорга келадилар. Ўқитувчи бу ўринда бутун эътиборини мавзу моҳиятини ўқувчиларга сингдиришга қаратиб, улар эътиборини, кечинмаларини ва ўзлаштириш имкониятларини алоҳида эътиборга олади.

А.Маслоунинг фикрича, ўқитувчи шахсига хос бўлган билимдонлик, ижодкорлик, мустақиллик ҳамда педагогик фаолият учун масъулият ва жавобгарликни чуқур ҳис этиши ўқув-тарбия жараёни самарадорлигини таъминлашнинг энг муҳим омилларидир.

Бошқа назарийчи Гизела Лейбоуви-Вифнинг фикрича, талабаларда касбни эгаллашнинг шаклланиши уларда мажбурият ва жавобгарлик ҳиссининг таркиб топиши билан боғлиқдир. Уларда ана шундай сифат ва кечинмалар тўла шаклланган бўлса, билимларни эгаллаш ёки касбий камолот учун ҳеч нарса тўсиқ бўла олмайди.

Бўйсунувчанликни ўрганиш мақсадида психологик тадқиқотлар ўтказилган бўлиб, улардан энг муҳими Саломон Ашнинг изланишларидир. Унинг таъкидлашича, конформизм ва бўйсунувчанлик ўзига-ўзи баҳо бериш психологик ҳодисаси билан чамбарчас боғлиқдир. Ўзига юқори баҳо берадиган одамлар гуруҳ талабаларига бўйсунушга камроқ мойилдирлар. Ўзига-ўзи паст баҳо берадиган, ўз имкониятларига унча ишонмайдиган шахслар эса гуруҳ таъсирига кўпроқ дучор бўлар эканлар.

Натижа. М.Вудсток ва Д.Френсислар ўз тадқиқотларида жисмоний тарбия ўқитувчиси фаолиятида атрофдагиларга муваффақиятли таъсир кўрсатадиган омиллар сирасига қуйдагиларни киритади:

- нуфузлилик – бу ишонч қозона оладиган инсонларнинг хусусиятлари;
- ижобий ўзгаришларни тақдирламоқ (мукофотламоқ) лозим;
- бизнинг орзу-умидларимиз атрофдагиларга таъсир кўрсатади;
- ҳалқ олдида (ошқора) ўз фикрини билдириш янгича муносабатни мустаҳкамлайди;
- ўзимиз ўргатганимизга, аввало ўзимиз риоя қилишимиз керак;

-шахсий ҳамжиҳатлик – бу (ҳал қилувчи) муҳим йўл очиб берадиган омилдир. Уларнинг фикрича, атрофдагиларга самарали таъсир кўрсатувчи одамлар реклама ва муваффақиятли тақдирот кўникмаларига (маҳоратига) эгадирлар. Улар қатъий бирор-бир иш қилишга ундайдиган сабабларни яратишга қодирдирлар.

Америкалик олим, мактабда фалсафа ўқитиш дастурларини яратиш гуруҳининг аъзоси П.Липманнинг таъкидлашича, ўқитиш жараёнида ўқувчиларни мажбурлашга эмас, балки уларга таълим беришда ихтиёрий ва қадриятларга асосланган когнитив (ақлий билиш) ёндашишни таклиф этади. Уларни ўқитишда мажбурлаш ҳолатларининг салбий оқибатларини таҳлил қилиб, уларга таълим беришда ихтиёрийлик ва қадриятларга асосланишнинг афзалликлари ва ўқувчиларни тарбиялашдаги самарасини кўрсатиб ўтади [4].

Дж.Леви ўз тадқиқотларида ўқувчилар жамоасида низоларнинг шаклланиш сабаблари, уларни ўрганиш, олдини олиш йўллари ва жамоада соғлом психологик муҳитни яратиш усулларига доир ижобий фикрларни илгари суради[5]. Унинг фикрича, ўқитувчининг касбий тайёргарлиги даврида ўқув-тарбия жараёнларига хос низоларни тушуниш кўникмасини ўстириш, шунингдек, можароларнинг сабабларини ўрганиш ва бартараф этиш ёки бошқаришнинг самарали воситаларини топа билиш маҳоратларини ривожлантириш муҳим ҳисобланади. Унинг таъкидлашича, ўқув дастурларида, бир томондан, низоларнинг келиб чиқиши ва сабаблари билан боғлиқ, иккинчи томондан, можароларнинг олдини олиш, ҳал этиш ва уларни бошқариш билан боғлиқ масалаларни (саволларни) ақс эттириш зарур.

Муаллифларнинг фикрича, жисмоний тарбия дарсларида ўқувчилар жамоасида ҳамкорликни шакллантиришнинг учта шарт мавжуд: кооператив таълим; ўқув-мунозарали таълим; медиация (ҳолис хизмат муҳити устувор) таълими.

1. Кооператив таълим низоларни конструктив ҳал этишга шарт-шароит яратади. Ўқув машғулотларини кооператив шаклда ташкил этиш йўли билан қулай вазиятлар ҳосил қилинади. Мазкур таълимда мусобақалашиб ҳамкорлик асосида юқори натижаларга эришилади, ўқувчилар орасида дўстона муносабатлар, яхшироқ психологик муҳит ва мослашув шаклланади.

2. Ўқув-мунозарали таълимнинг афзаллиги шундаки, синф ўқувчилари жуфт-жуфтларга ёки гуруҳчаларга бўлиниб, ҳар бир жуфт ёки гуруҳ мавзу моҳиятига доир ўз

нуктаи назарини химоя қилиш учун далиллар ҳозирлайди.

Хулоса. Жисмоний тарбия ўқитувчи шахси, фаолияти ва унинг касбий тайёргарлигига дахлдор муҳим муаммолар, айниқса, унинг касбий тайёргарлигининг ўзига хос психологик хусусиятлари ҳамда касбий тайёргарлик жараёнига таъсир этувчи муҳим омилларни назарий ва эмпирик жиҳатдан ўрганиш, таҳлил қилиш бизни қуйидаги хулосаларни чиқаришга олиб келди.

1. Жисмоний тарбия ўқитувчиси тўғрисида ижтимоий-тарихий таълимотларда (ўзбек халқ оғзаки ижоди, миллий психология ва педагогика, миллий ва диний қадриятлар ақс этган ноёб манбалар, буюк аждодларимиз асарлари) мужассамлашган ўқитувчи касбий тайёргарлигининг ўзига хос психологик томонларига хос қимматли маълумотлар ҳозирги даврда ҳам бўлгуси педагоглар касбий тайёргарлигини такомиллаштиришда, ўқув-тарбия жараёнлари самарадорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

2. Узоқ ва яқин хориж психологларининг илмий тадқиқотларида жисмоний тарбия ўқитувчиси касбий тайёргарлигининг психологик асослари ва бу жараёнга таъсир этадиган ижтимоий-маданий, миллий-худудий ва педагогик-психологик омилларнинг аҳамиятига доир қимматли илмий натижалар кайд этилганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ.

3. Мазкур илмий тадқиқотлар анча салмоқли ва кенг қамровли бўлишига қарамасдан, илмий изланиш натижалари, улардаги илмий тавсия ва хулосалар маълум даражада чекланганлик характерига эгадир. Чунки, жисмоний тарбия ўқитувчисининг касбий тайёргарлиги ҳамда таълим ва тарбия жараёнини ташкил этиш ва уни бошқариш билан боғлиқ муаммолар, ёхуд уларнинг ечими ҳар бир халқнинг миллий-маданий, ўзига хос психологик ва худудий хусусиятлари мавжудлиги билан уйғунликда намоён бўлади.

4. Ватанимиз психолог олимлари томонидан олиб борилган илмий тадқиқотларда жисмоний тарбия ўқитувчисининг касбий тайёргарлигига доир муаммоларнинг жуда кўп жиҳатлари тадқиқ этилган бўлса-да, бироқ педагогнинг миллий-маданий муҳитга хос кенг имкониятларини аниқловчи, шахсий ва касбий баркамоллигини таъминловчи муҳим механизм – педагог касбий тайёргарлигининг ўзига хос психологик хусусиятлари масаласи изланишларнинг вазифалари қаторига кирмаган. Шу боис, жисмоний тарбия ўқитувчилари касбий тайёргарлигининг ўзига хос психологик хусусиятларига доир баъзи бир муаммолар ҳали ҳам ўз долзарблигини сақлаб келмоқда. Шу мақсадда махсус психологик тадқиқотлар ўтказиш ва унинг ютуқларини кечиктирмай амалиётга қўллаш зарур.

Адабиётлар:

1. Баратов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. (Автореф.дисс.докт.псих.наук). – Т., 1998. - 37 с.
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. - Т.: «Ўқитувчи», 1994. - 95 б.
3. Новиков А.М. Профессиональное образование. – М., 1997.
4. Кудрявцев Т.В., Сухарев А.В. Влияние характерологических особенностей личности на динамику профессионального самоопределения. // «Вопросы психологии», 1985, №1.
5. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности и преподавателя и мастера производственного обучения. – М., 1990.
6. Орлов А.Б. Склонность и профессия. - М.: «Знание», 1981. – 96 с.

*Abdurahmonova Zuhra Abdurahmon qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti psixologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SHAXS SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHINI O'RGANISH NATIJALARI

Annotatsiya. Maqolada ilk o'spirinlarning sanogen tafakkur va sanogen xulq-atvor muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqotlarimizda olingan natijalar, sanogen tafakkurning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar hamda sanogen tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositalar keltirilgan. Shaxs xususiyatlarini o'rganish so'rovnomalari umumiy o'rtacha ko'rsatkichlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ilk o'spirinlar, pedagog, ta'lim-tarbiya, muloqot, ota-ona, tafakkur, sanogen tafakkur, ma'naviyat, estetika, sog'lom fikr, fazilat, xususiyat, ommaviy axborot vositalari.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОЯВЛЕНИЯ ХАРАКТЕРИСТИК САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье рассмотрена проблема саногенного мышления и саногенного поведения подростков, её актуальность, результаты, полученные в нашем исследовании, факторы, влияющие на развитие саногенного мышления, социальные привычки в регулировании и управлении социальным поведением личности, а также в статье рассматриваются инструменты, служащие развитию саногенного мышления. Освещены социально-психологические аспекты общих средних показателей опросников исследования особенностей личности.

Ключевые слова: личность, подросток, педагог, образование, общение, родители, мышление, саногенное мышление, духовность, эстетика, здравый смысл, добродетель, характеристика, средства массовой информации.

THE RESULTS OF STUDYING THE APPEARANCE OF CHARACTERISTICS OF PERSONAL SANOGENIC THINKING

Abstract. In the article, the problem of sanogenic thinking and sanogenic behavior of early adolescents, its relevance, the results obtained in our research, factors affecting the development of sanogenic thinking, social habits in regulating and managing the social behavior of an individual, and tools that serve to develop sanogenic thinking are discussed in the article given. The socio-psychological aspects of the general average indicators of the questionnaires for the study of personality characteristics are covered.

Keywords: personality, early adolescents, pedagogue, education, communication, parents, thinking, sanogenic thinking, spirituality, aesthetics, common sense, virtue, characteristic, mass media.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son Qarori Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 19-martda ilgari surilgan «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim besh tashabbus» [1.2.] hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamlil strategik chora-tadbirlarni asosiy vazifasi aqlan yetuk va ruhan sog'lom yoshlarni yetishtirish va ularni sog'lom rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashni va o'rganishni talab etadi.

Asosiy qism. Yoshlarda sanogen tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muammosi bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanar ekan, tadqiqot ishimizning obyekti bo'lgan ilk o'spirinlar o'rganildi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi shaxsda sanogen tafakkurning tarkibiy komponentlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'lganligi sababli, biz asosiy e'tiborni umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim olayotgan ilk o'spirinlik yoshidagi yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida empirik hamda tadbqiqiy ishlarni amalga oshirishga qaratdik. Ushbu jarayon qariyb to'rt yilni o'z ichiga qamrab oldi.

Ushbu muammoni ko‘tarishimizdan maqsad insoniyat qayerga bormasin, birgalikdagi faoliyat, shaxslararo munosabatlar doirasining ishtirokchisiga aylanadi va sanogen tafakkur ushbu hamkorlikni samarali va sermahsul natija berishini ta‘minlab beradi. Shunday ekan, ilk o‘spirinlarda sanogen tafakkur qay daraja rivojlanganligini eksperimental tekshirib ko‘rish tadqiqotimiz maqsadini belgilab berdi.

Birinchi bosqich: Ilk o‘spirinlarda sanogen tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlash va o‘rganish maqsadida “Ijtimoiy tafakkurni aniqlash” (mualliflik) metodikasi va “Sanogen fikrlash” bo‘yicha kognitiv xissiy testi metodikasidan foydalanib so‘rovnoma o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnoma sanogen tafakkurga aloqador xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, jinsi, ya‘ni gender tafovutlar, turar joy, ya‘ni shaharda yoki qishloq sharoitida o‘sganlik omillari inobatga olindi. Bundan tashqari ularning qaysi hududda yashashi, oilaviy ahvoldagi ta‘sir o‘rganildi.

Ikkinchi bosqich: Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarning real guruh a‘zosi sifatida xavotirlanish darajasi, hissiy holati, xulq-atvori nechog‘lik guruh faoliyati natijasiga va sanogen tafakkuriga aloqasi borligini aniqlash maqsadida Reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini baholovchi shkala (Ch.Spilberger, Yu.Xanin) so‘rovnomasi va Stefanson tomonidan ishlab chiqilgan “Q-sortirovka ya‘ni shaxs xulq-atvorini aniqlash” kabi metodikalardan foydalandik. Ushbu bosqich asosan trening dasturlari uchun muhim g‘oyalar bankini yaratish maqsadida amalga oshirildi.

Shaxs ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xulq namunalari ko‘p marta takrorlanishi odat tusiga kiradi. Shaxs ijtimoiy xulqi, odobini tartibga solishda sanogen tafakkurni rivojlantirish bilan birgalikda milliy urf-odatlar ham xizmati katta bo‘lib, ular ongni ortiqcha zo‘riqishdan holi qiladi va kishilardagi istak va maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Tashqi stimullar hisoblangan milliy urf-odatlar, an‘analari ijtimoiy xulqni barqarorlashtiradi, barkamol shaxs qiyofani shakllantirishga asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsning axloqiy normalari, albatta, muayyan oila muhitida tarkib topadi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda quyidagi vositalar muhim o‘rin egallashi aniqlandi (1-jadval):

1-jadval.

Oilada va ta‘lim maskanlarida ilk o‘spirinlarda sanogen tafakkurni rivojlantirish vositalari

№	Sanogen tafakkurni rivojlantirish vositalari	Kutiladigan natijalar
1	Tarbiya	xulq atvorni ijobiy yo‘naltirish
2	Adabiyotlar (badiiy, ilmiy-texnik, siyosiy, maxsus).	sog‘lom fikr va mulohazalarni tarkib toptirish
3	Ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, axborot tizimlari, internet).	Manipulyatorli turli xurujlardan saqlash
4	San‘at (musiqqa, kino, tasviriy san‘at, teatr va h.k.).	Estetik, badiiy didni rivojlantirish
5	Ota-onalar, bobolar, buvilar o‘giti	Deontologik qadriyatlarga, shaxsiy ustanovkalariga ega bo‘lish
6	Muloqot	Kommunikativlik, kirishimlilik, empatiyaga moyillikni rivojlantirish
7	Ta‘lim	Dunyoqarashni kengaytirish orqali hissiy olam sohasini rivojlantirish, kognitiv bilimlar doirasini o‘stirish. Kelajakda jamiyat uchun foyda keltiruvchi shaxsni shakllantirish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilar muayyan ta‘sirlarga berilishi mumkin, shu sababli oilada ota-onalar bolalariga umumiy ijtimoiy va xarakterologik xususiyatlarga ega bo‘lgan ustanovkalarni to‘g‘ri quyishlari kerak. Psixologlarning ta‘kidlashicha, ruhiy azoblanuvchi, paranoyal kayfiyatdagi, ruhan ojiz, tobe tipdagi shaxslar, vasiylar tarbiyasida bo‘lgan kishilar, noto‘liq va asosial oilalar vakillari, imkoniyati cheklangan, kuchli ruhiy siqilishni boshdan kechirgan shaxslar, rivojlangan eydetik idrok egalari, gallyusinatsiyani boshidan kechiruvchilar turli destruktiv oqimlarga kirib ketish ehtimoli kuchli. Shu sababli, ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilar tarbiyasida ota-onalar, o‘qituvchilar, ijtimoiy institutlar uning tashqi ta‘sirlarga berilish ehtimolini o‘rganishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy munosabatlar, tashqi muhit va ilk o‘spirinlik yoshidagi shaxsning ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning xulq-atvori xarakterini belgilovchi asosiy omildir.

Ilk o‘spirinlarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda ota-onalar bilan o‘tkaziladigan psixotrening mashg‘ulotlarida quyidagilarga ahamiyat qaratildi:

1. Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati.
2. Er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot.
3. Ota-onalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish.
4. Farzandlar bilan muomala jarayonini qiyinlashtiruvchi ustanovkalar.
5. Farzand hayotidagi qiyinchilik va muammolar borasida ota-onalar bilan ish olib borish.
6. Ota-onaning farzandiga nisbatan pozitsiyasi, munosabatini korreksiyalash va h.k.

Tadqiqot jarayonida ilk o‘spirinlik yoshidagi shaxsda sanogen tafakkur darajasining ijtimoiy-psixologik jihati bilan bir qatorda, ularning yosh, individual va psixologik xususiyatlari ham inobatga olingan. Tadqiqotimizda ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun Spilberger va Xanin tomonidan ishlab chiqilgan “Xavotirlanish darajasi” metodikasi, Elersning “Muvaffaqiyat motivini o‘rganish” so‘rovnomasi, Morozukning “Sanogen tafakkur” so‘rovnomasi, mualliflik “Ijtimoiy fikr” so‘rovnomasi va Stefanson tomonidan ishlab chiqilgan “Q-sortirovka ya’ni shaxs xulq-atvorini aniqlash” kabi metodikalardan foydalandik. Bular o‘rtasida faktorli tahlil, regression tahlil va korrelyatsion aloqadorlik jihatlari ham aniqlandi.

Quyida tadqiqot natijalari tahlili haqida so‘z boradi. Birinchi jadvalda umumiy o‘rta ta’lim maktabi 10-11-sinf o‘quvchilarining shaxs xususiyatlari so‘rovnomalarining umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari keltirilgan. (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Shaxs xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomalari umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (Styudentning t-mezeni bo‘yicha)

Shkalalar	M (n=80)	Standart og‘ish (n=80)	t-statistika (p≤0,05);(p≤0,01)
xavotirlanish	36,85	5,49	0,85
muvaffaqiyat motivi	17,23	4,16	0,22
sanogen tafakkur	17,95	4,98	0,95
ijtimoiy fikr	18,48	5,05	0,47

Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va uni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilishning natijalari shuni ko‘rsatadiki, 10-11 sinf o‘quvchilarining shaxs xususiyatlari darajasi so‘rovnomalarining umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari birinchi so‘rovnoma bo‘yicha ya’ni xavotirlanish ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘rta darajadagi natijani qayd etgani, matkab ta’lim tizimida o‘quvchilarda xavotirlanish darajasining o‘rtacha ekanligi, dars mashg‘ulotlari va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mavjudligini anglatadi. Xavotirlanish shkalasiga ko‘ra, ilk o‘spirinlarning natijalari o‘rta qiymatni tashkil qilganligi va bu ularda subyektiv lokal nazoratning mavjudligi va o‘rnatilganligidan dalolat beradi. Xavotirlanish darajasining ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘rtacha chiqishi ta’lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va bu bosqichda har xil atrofdagi noqulay vaziyatlarning ularga ta’siri bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyat motivi shkalasi bo‘yicha olingan natijalar o‘rta darajadagi qiymatni tashkil etgan. Bu motivga ko‘ra, ilk o‘spirinlarda natijalar boshqalarning natijalaridan muvaffaqiyatliroq kelish istagini bildiradi. Muvaffaqiyat motivi shkalasi o‘rta nisbatni ko‘rsatganligi va bu ularda o‘quv faoliyatidan qoniqish hissi paydo qiluvchi xususiyat bor ekanligini bildiradi. Muvaffaqiyat motivi shkalasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda bu qiymat o‘rtacha ekanligi va ko‘zlangan maqsadga qat’iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalarni qo‘yishi va amalga oshirishga intilishini anglatadi. Muvaffaqiyat motivi ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘rta darajada kechishi maktab ta’lim tizimida o‘quv jarayonida yuklatiladigan mashg‘ulotlarni sidqidildan bajarishi, atrofdagi shaxslar bilan shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi va muvaffaqiyatsizlikka uchrashi kamroq ekanligini anglatadi. Muvaffaqiyat motivi shkalasi ilk o‘spirinlarda o‘rtacha natijani ko‘rsatganligi va bu vazifalarning murakkab darajada o‘rta ekanligini namoyon qiladi.

Sanogen tafakkur so‘rovnomasiga ko‘ra, ilk o‘spirinlarda o‘rtacha miqdorni namoyon qilganligi va bu o‘quvchilarda sog‘lom psixik tafakkur rivojlanish darajasi yuqori ekanligi bilan belgilanadi. Sanogen tafakkur darajasining bahosi shkalasiga ko‘ra, ilk o‘spirinlarda bu shkala yuqori natijani tashkil qilishi va emotsional xulq-atvor holatining yuqoriligi baholanishidan darak beradi. Sanogen tafakkur shkalasining ilk

o'spirinlarda yuqoriligi ta'lim jarayonida konstruktiv bilimlarning to'g'ri darajada shakllanganligi, ularda emotsional bilimdonlikning yuqoriligidan darak beradi. Sanogen tafakkur darajasi ilk o'spirinlarda yuqorini aks ettirganligi va natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishini anglatadi. Ilk o'spirinlarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining psixologik omillariga ko'ra o'quvchilarda sanogen tafakkur darajasining barqarorligi, oilaviy munosabatlardagi ta'lim-tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ta'lim muassasalarida kuchli bilimlarning berilganligi va ustoz-shogird tizimining rasional ravishda kechishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Oxirgi shkala, ya'ni ijtimoiy fikr shkalasiga ko'ra ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda yuqori natijani tashkil qilishi, ular bevosita o'zlari bilan boshqalarning fikrlarini ham inobatga olishi, jamiyatda belgilangan talablarga mos tarzda harakat qilishi, ijtimoiy me'yorlarga amal qilishi va sotsial persepsiya shakllanganligini belgilab beradi. Shaxs xususiyatlari so'rovnomasiga ko'ra, Student-t mezoni bo'yicha xavotirlanish, sanogen tafakkur va ijtimoiy fikr shkalalari o'zaro ahamiyatli korrelyatsiyalarni, muvaffaqiyat motivi esa, past darajani tashkil qilgan. Keyingi jadvalda Stefanson so'rovnomasi bo'yicha o'quvchilardan olingan natijalar tadqiq qilingan. (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Shaxs xulq-atvori so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Studentning t-mezoni bo'yicha)

Shkalalar	M (n=80)	Standart og'ish (n=80)	t-statistika ($p \leq 0,05$); ($p \leq 0,01$)
tobe	6,60	1,336	0,60
mustaqil	6,93	1,421	0,92
kirishimli	6,45	1,339	0,45
odamovi	6,95	1,176	0,95
kurashuvchi	6,58	1,196	0,57
kurashdan qochuvchi	6,55	1,218	0,55

Ilk o'spirinlarda Q-sortirovka so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi "tobelik" shkalasi bo'yicha o'quvchilarda 6,60 ni tashkil etadi. Bu esa standart ko'rsatkich bo'yicha o'rtachani tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlik yoshidagi shaxs qadriyatlarini, ijtimoiy va axloqiy etik normalarini to'g'ri qabul qila oladi. Guruh bilan hamkorlikda ishlashga moyil bo'lishadi, lekin ko'pincha o'quvchilar guruhdami yoki boshqalar bilan bo'lgan munosabatida ishonchi sustligi tufayli ular hamkorlikda ishlashga biroz qiynalishadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlar tashqi ta'sirlarga berilishmaydi, ularda agressivlik holatlari kam kuzatiladi, boshqalarga qaram bo'lishni ham xohlashmaydi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar sanogen tafakkuri rivojlanishida ota-onasiga, do'stlarining fikr-mulohazalariga tayanishadi.

"Mustaqil" shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda 6,93 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Lekin, ular yetarli darajada mustaqil emas, hayotiy bilimlarining kamligi tufayli ular ma'lum qarorlarni mustaqil qabul qilishga, o'z fikrlarida qat'iy turishga va mustaqil bayon qilishga qiynalishadi.

"Kirishimlilik" shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich ilk o'spirinlarda 6,45 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlik yoshidagi ilk o'spirinlarning hissiyotlari beqaror bo'lgani uchun ularning kayfiyatlarini tez-tez o'zgarib turadi, muloqotga tez kirishishadi, kichik guruhda emotsional aloqalarni o'rnatishga va o'z fikrlarini ochiq oydin aytishga qiynalishadi. O'z hissiyotlarini ko'rsatmaslikka va boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otishga harakat qilishadi.

"Odamovi" shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda 6,95 ni namoyon qilgan. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar o'z hissiyotlarini ifodalashga, tashabbus ko'rsatishga qiynalishadi. Tanimagan insonlari bilan munosabatga kirishishga qiynaladi, lekin ular qaror qabul qilishda juda ehtiyotkor bo'lishadi.

"Kurashuvchi" shkalasi bo'yicha o'rtacha shkala o'quvchilarda 6,58 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar guruh hayotida faol qatnashishadi, guruh a'zolari bilan kurashishga moyilligi bor. Ular shaxslararo munosabatda yuqori o'rin egallashga, do'stlariga, tengdoshlariga nisbatan yuqori natijalarga erishishga harakat qilishadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar hamisha o'z maqsadi sari doim olg'a intilishadi, o'z kuchiga va aqliga tayanib ish ko'rish natijasida tafakkur xususiyatlari shakllanadi.

"Kurashdan qochuvchi" shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda 6,55 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar o'zaro munosabatga kirishishga qiynalishadi,

guruhda yuzaga keladigan janjallarda betaraf bo‘lishga harakat qilishadi. Ko‘pincha guruhda nizoli vaziyatlar yuzaga kelganida ular birinchi bo‘lib o‘zlarini chetga olib qochishga yoki bo‘lmasam guruh a‘zolari bilan murosa qilishga moyil bo‘lishadi. Shuningdek, ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilar do‘stlarini tanqid qilishdan qochishadi, o‘z his-tuyg‘ularini boshqalarga ko‘rsatmaslikka harakat qilishadi. Keyingi jadvalda ilk o‘spirinlarning shaxs xususiyatlari va xulq-atvor so‘rovnomalari o‘rtasidagi Xi-kvadrat mezoni bo‘yicha natijalari keltirilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Shaxs xususiyatlari va xulq-atvor tuzilmasi so‘rovnomalari ko‘rsatkichlari (Xi-kvadrat-mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Xi-kvadrat-statistika ($p \leq 0,05$); ($p \leq 0,01$)
xavotirlanish	0,75
muvaffaqiyat motivi	0,97
sanogen tafakkur	0,53
ijtimoiy fikr	0,69
tobe	0,06
mustaqil	1
kirishimli	0,02
odamovi	0,02
kurashuvchi	0,05
kurashdan qochuvchi	0,07

Xulosa. İlk o‘spirinlarining yuqorida keltirilgan so‘rovnomalari bo‘yicha o‘zaro aniqlik darajasi Xi-kvadrat mezoni bo‘yicha quyidagicha natijani namoyon qilgan. İlk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari shuni ko‘rsatdiki, sanogen tafakkur, xavotirlanish va ijtimoiy fikr kabi shkalalar o‘zaro o‘rta darajadagi ahamiyatli birliklarni tashkil qilishi, muvaffaqiyat motivi, tobe, mustaqil, kirishimli, odamovi, kurashuvchi va kurashdan qochuvchi kabi psixologik xususiyatlar esa yuqori psixologik faktorlarni tashkil qilayotganligini ko‘rish mumkin.

Ilk o‘spirinlarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan psixodiagnostik tadqiqotimizning asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari shaxs xususiyatlarini o‘lchash bo‘yicha so‘rovnomalari darajalari xavotirlanish va sanogen tafakkur shkalalari o‘quvchilarda o‘rtachadan yuqoriroq natijani tashkil qilganligi, muvaffaqiyat motivi va ijtimoiy fikr shkalalari esa, standart me‘yor bo‘yicha yuqori natijani namoyon qilganligini ko‘rish mumkin. Stefanson uslubi yordamida ishlab chiqilgan Q-sortirovka so‘rovnomasi ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda har uchta hududlar bo‘yicha oz farq bilan bir hil natijani aks ettirgan. Q-sortirovka so‘rovnomasi shkalalari: tobe, mustaqil, kirishimli, odamovi, kurashuvchi va kurashdan qochuvchi kabi psixologik omillar ilk o‘spirinliklarning kelgusida o‘quv faoliyatini mustahkamlashga va sanogen tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi asosiy psixologik xususiyatlarni belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL: <https://lex.uz/pdfs/3107036> (мурожаат санаси: 24.06.2020 йил)
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори 1-илоvasи. // Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.
3. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек oilаси тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар: псих. фан. док. ... дис. – Т.: ТошДУ, 1994. – Б.309.
4. Zukhra, A. (2023). The Significance of Library Culture and Islamic Doctrine in the Development of Personal Sanogenic Thinking. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 51-56.

5. Abdurahmonova, Z. (2023). Psixologiyada sanogen tafakkur shakllanganligining ilmiy jihatdan tadqiq etish masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 201-206.
6. Abduraxma'nova, Z. (2022). Nauchno-praktichyeskoye znacheniye sanogennoy vosstanovleniya v povыsheniі pravovoy gramotnosti studentov v prosesse obuchyeniya. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 53-58.
7. Zuhra, A. (2022). The scientific-theoretical research of the features of personality thinking by oriental scholars. *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 47-52.
8. Zuhra, A. (2022). Experience of Psychological Interpretation of the Influence of Sanogenic Thinking on Personal Social Behavior Development. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 1(3), 53-58.
9. Zuhra, A. (2021). Experience of scientific and theoretical interpretation of socio-psychological aspects of industrial thinking in russia and foreign countries. *information technology in industry*, 9(3), 926-938.
10. Zuhra, A. (2021). Scientific and theoretical interpretation of socio-psychological aspects of sanogenic thinking. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 165-172.



*Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna,
Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Shaxnozaabduraximova93@mail.ru*

TALABALARNING O'QUV FAOLIYATIDA STRESSGA BARDOSHLILIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

***Annotatsiya.** Maqolada talabalarning o'quv faoliyatida stressga bardoshlilikning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash asosida psixologik usul va vositalari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Talabalarni o'quv faoliyatida stressga bardoshlilikni psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy vaziyat, stressga bardoshlilik, bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash, stressga chidamlilik, eustress va distress, jismoniy va tabiiy stressorlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

***Аннотация.** В статье рассмотрены психологические методы и средства, специфика на основе выявления социально-психологических факторов стрессоустойчивости в учебной деятельности учащихся. Исследованы методы и средства, которые могут быть использованы в процессе психологического сопровождения стрессоустойчивости учащихся в учебной деятельности, приведены эффективные рекомендации.*

***Ключевые слова:** социальная ситуация, стрессоустойчивость, определение проявлений уровня устойчивости, стрессоустойчивости, эустресса и дистресса, а также физических и природных стрессоров.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF STRESS RESISTANCE IN STUDENTS' EDUCATIONAL ACTIVITY

***Abstract.** The article explores psychological methods and tools, specific features based on the identification of socio-psychological factors of stress tolerance in the educational activities of students. Methods and tools that can be used in the process of psychological support of stress tolerance in the educational activities of students have been researched and effective recommendations are presented.*

***Keywords:** social situation, stress stability, determination of the manifestation of the level of stability, stress resistance, eustress and distress and physical and natural stressors.*

Kirish. Davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan biri millat salomatligini ta'minlash hisoblanadi. Hayot sur'atining sezilarli darajada o'sishi, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, ekologik, hissiy va axborot yuklamalarining ortishi psixologik stress muammosining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirda jahon miqyosida talabalarning o'quv faoliyatida stress va ularda stressga bardoshlilikni oshirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish dolzarb muammo ekanligi qayd etilmoqda. Amerika psixologlar assotsiatsiyasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, aholining yosh avlodlari salomatligi uchun stress katta zarar ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, psixologlarning ta'kidlashicha, agar yoshlar hozirgi stresslarni boshqarishning sog'lom usullarini o'rganmasalar, bu ularning sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[1].

Mamlakatimizda yoshlarning faolligini oshirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasining yangi tizimini belgilab berdi va shu jumladan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik. "Farzandlarimiz tarbiyasida nuroniylarimizning bilimlari va hayotiy tajribasidan keng foydalanishimiz zarur"[2], dedi. Bu vazifa yoshlarni har tomonlama sog'lom o'stirish bilan birgalikda ularning psixologik savodxonligini oshirish va aynan stressga nisbatan bardoshlilikini oshirish chora- tadbirlarini ishlab chiqishni

taqozo etadi. Bundan tashqari davlatimiz Prezidenti ham o‘z nutqida shunday deydi: «Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi.

Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman»[3]

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalarning o‘quv faoliyatida uchraydigan stress holatlarining salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida, ularning stressga bardoshlilikini taminlash masalasi bugungi kun uchun dolzarbdir.

Stressga bardoshlilikni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari xorij va rus tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan bo‘lib, xorij tadqiqotchilari orasida stressga bardoshlilik borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar qatorida bir qancha olimlarni sanab o‘tish mumkin. Xususan, xorij tadqiqotchilaridan S.Folkman, R.Mak Kray, R.Kosta, S.R.Maddi, R.Lyuis, R.Moos, P.Toys hayotiy qiyin vaziyatlarda paydo bo‘ladigan shaxs reaksiyalariga ta‘sir etuvchi shaxs xulq-atvoridagi o‘ziga xos jihatlari, xususan koping-strategiya koping xulq kabi jihatlarni ham alohida qiziqish bilan o‘rganilganlar. Stressga bardoshlilik muammosi rus tadqiqotchilari tomonidan ham katta qiziqish bilan o‘rganilgan bo‘lib, bu borada ish olib borgan olimlardan: L.M.Abolin, A.A.Andreeva, A.L.Juravlev, P.B.Zilberman, A.P.Katunin, T.L.Kryukova, A.V.Libina, Sh.E.Melnik, A.A.Rean, S.V.Subbotin, K.V.Sudakov, Yu.V.Sherbatix va boshqalarni sanash mumkin.

Stressga bardoshlilik muammosi o‘zbek psixolog olimlari ham bir qancha ishlar olib borgan bo‘lib bularga, xususan, M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.Z.Ismoilova, D.S.Qarshiyeva, N.A.Sog‘inov, S.A.Axunjanova, Z.F.Kamalitdinova, B.M.Umarov, Z.Nishonova, E.Z.Usma‘nova, E.Usma‘nov, R.Sunnatova, R.Samarov, B.Sirliev, N.Kamilova, L.Nazirova, F.E.Gaziyeva, J.Sh.Ostonov, D.U.Mamadiyarova, F.T.Shermatov, G.D.Teshabayevalarning o‘ziga xos tarzda o‘rganilib, ayrim tadqiqot ishlarida bu mavzuga qisman murojaat qilinganligini va yoritilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, B.M.Umarov, E.Usmonov, V.M.Karimovning, R.S.Samarovning ishlarida ham stress bilan bog‘liq bir qancha ma‘lumotlar tahlil qilinganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Stress va stressga bardoshlilik muammosining xorij psixologiyasida o‘rganilganligini tahlil qilish. O‘zbek olimlari tomonidan stressga bardoshlilik borasida olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish. Talabalarning o‘quv faoliyatida stressga bardoshlilik darajasining namoyon bo‘lishini aniqlash. Talabalarning o‘quv faoliyatida stressga bardoshlilik va o‘ziga baho o‘zaro aloqadorligini aniqlash. Talabalarning o‘quv faoliyatining stressga chidamlilik sifatlarini shakllantirishda psixologik trening dasturlari tuzish.

Tadqiqotning metodologik asosi yondashuv hisoblanadi shunday ekan R.Lazarus [4] stressni fiziologik va psixologik tushunchalar sifatida turlarga ajratishga birinchi bor uringan olimligini ko‘rishimiz mumkun. U ilgari surgan konsepsiyadagi g‘oyaga ko‘ra, “Fiziologik stress real qo‘zg‘atuvchilar ta‘sirida yuzaga keladi, psixologik stress esa mavjud vaziyatni inson o‘z individual bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda xavfli va qiyin deb baholashi natijasida kelib chiqadi” degan g‘oyani ilgari suradi. Bundan tashqari B.X.Vardanyanning [5] fikriga ko‘ra, “Stressga bardoshlilik – emotsiogen vaziyatlarda shaxsning barcha psixik komponentlari o‘rtasida garmonik munosabatni saqlab turuvchi va faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beruvchi shaxs xususiyatidir” deydi.

“Stress” tushunchasining qo‘llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, V.I.Petrushinning ma‘lumotiga ko‘ra, mazkur atama ilk marotaba 1303-yilda shoir R.Man tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u bu atamani o‘z she‘rida ishlatgan. She‘rda ushbu atama “Bu uqubat olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o‘tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan” tarzida ifodalangan.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bor o‘rganilishi esa kanadalik olim G.Selega tegishlidir. O‘sha vaqtlarda nashr etiladigan “Nature” jurnalining 1936-yil 4-iyuldagi sonida G.Selening “Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom” deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi omillar ta‘sirida yuzaga keladigan standart reaksiyalar haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu ma‘lumotlar stress haqidagi ta‘limotning boshlanishiga asos bo‘lgan. Stress muammosi dastlab G.Sele tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kungacha bo‘lgan davrda ushbu muammo yuzasidan juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, stress tushunchasi, uning turlari, rivojlanish bosqichlari va unga nisbatan bardoshli munosabatda bo‘lish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar uchun izlanish manbasiga aylangan. Mazkur muammo doirasida xorij olimlaridan G.Sele, D.Richardson, F.Milman, R.Lazarus, S.Folkman, V.S.Merlin, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman, rus psixologiyasida L.M.Abolin, A.Yu.Malenova, L.V.Kulikov, A.V.Libina, Yu.G.Chirkov, Dj.Vyatkin, L.A.Kitaev-Smysk, L.I.Bojovich, V.V.Suvorova, Yu.M.Gubcheva, A.A.Rean,

S.V.Subbotin kabi juda ko‘plab tadqiqotchilar ish olib borganlar, shuningdek o‘zbek ilmiy jamoatchiligi ham ushbu muammoga yaqin masalalar ustida M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G.Goziyev, V.M.Karimova, N.Z.Ismoilova, D.S.Qarshiyeva, Z.T.Nishonova J.Sh.Ostonov, D.U.Mamadiyarova, F.T.Shermatov, G.D.Teshabayeva kabi yetuk olimlar va ularning shogirdlari bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Agar bugun psixologik adabiyotlar tahliliga nazar tashlansa, “stress” va “stressga bardoshlilik” tushunchalarining juda ko‘p va turli xil izohlari uchraydi.

Empirik tadqiqot natijalari. Ma‘lumki, ko‘pchilik odamlar har kuni stress omillarining ta‘siriga uchrab turadi. Masalan, ishga yoki o‘qishga kechikish, pul yoqotib qo‘yish, imtihonlardan past baho olish, kishilarning jismoniy va aqliy tabiatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi stress omillardan bo‘lib hisoblanadi. Agar odam har kuni shu ahvolda hayot kechirsa aytilgan stress omillarning kuchli ta‘sirdan boshqa stress omillarga ham tez beriluvchan bo‘lib qoladi. Stress omillar uzoq yillar davomida tibbiyotchilar, biolog va psixolog olimlar tomonidan har tomonlama o‘rganilib kelindi va bugungi kunda mehnat qilish sharoitining noqulayliklari havo harorati, shovqin, vibrasiya-tebranish, turli-tuman hidlar va boshqalar, shaxsiy, ruhiy kechinmalar maqsadning noaniq bo‘lishi, ertangi kunga ishonchsizlik, istiqbolning yo‘qligi va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, jamoa ichida shaxslararo kelishmovchiliklar, o‘zaro janjal, uyushqoqlikning yo‘qligi, jamoadan ajralib qolish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning sustligi yoki butunlay bo‘lmasligi tez-tez stress holatlariga olib keladi. Qayd qilingan holatlar baxtga qarshi juda ko‘pchilik jamoalarda uchrab turadi.

Bundan tashqari bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda informatsiya oqimi buning natijasida turli xil qarama-qarshi fikrlarning ota-ona, ustozlar, yoshi katta insonlar va talabalarning o‘quv faoliyati bilan birga bo‘ladigan munosabatda shu darajada jadallashib ketdiki, bu o‘z navbatida har bir inson uchun ko‘plab qulayliklar yaratishi bilan birgalikda ularning psixologiyasiga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aynan shunday psixologik muammolardan biri sifatida talabalarning o‘quv faoliyatida gi stress holati va uning kelib chiqish sababini ko‘rishimiz mumkin. Informatsiya oqimining uzoq vaqt mobaynida davom etishi, shuningdek yoshdagi talabalarning o‘quv faoliyatining o‘ziga bo‘lgan bahosining pastligi, do‘stlari bilan yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlarning paydo bo‘lishi, turli xil fizologik va psixologik o‘zgarishlar ham yoshidagi talabalarning o‘quv faoliyatini stressga tushishiga sabab bo‘lishga olib kelmoqda. Mazkur tadqiqot ishi aynan yoshilardagi talabalarning stress holatiga nisbatan chidamli bo‘lishi, boshqacha aytganda stressga bardoshlilik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lganligi bois unda talabalarning o‘quv faoliyati o‘rtasida muayyan tajriba, empirik tadqiqotlar o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi. Shaxsning stressga bardoshlilik qanchalik yuqori bo‘lsa, faoliyat samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi, aksincha, stressga bardoshlilik ko‘rsatkichining pastligi esa shaxsning stress vaqtida o‘z energiya va zaxiralarini salbiy psixologik holatlarni bartaraf etishga sarflashi bilan belgilanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyatida stressga chidamlilik holatini o‘rganish maqsadida Andijon shahar Andijon davlat universitetining 1-kurslar jami 60 nafar talabalarda tadqiqot olib bordik. Tadqiqot metodikasi sifatida dastlab N.P.Fetiskinning «Stressga barqarorlik» metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikada 38 ta ta‘kiddan iborat bo‘lib, talabalar mazkur ta‘kidlar ya‘ni holatlar o‘zlarida qay darajada kuzatilishiga qarab “tez-tez”, «ba‘zan” va «hech qachon» javoblaridan birini tanlagan holda ta‘kidga munosabatlarini bildirishlari lozim bo‘ladi. Tadqiqotimizning mazkur metodikasidan olingan ma‘lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadval va diagramma shaklida keltirildi:

1-jadval.

“Stressga barqarorlik” metodikasi

Stressga barqarorlik darajasi	Foiz ko‘rsatkichida	Sinaluvchilar soni
Yuqori	30.1 %	18 nafar
O‘rtacha darajadan yuqori	18.3%	11 nafar
O‘rta	21.6%	13 nafar
O‘rtacha darajadan past	15%	9 nafar
Past	15 %	9 nafar
Jami	100%	60 ta

Jadvalda ko‘rsatilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan talabalarining 30.1%ida stressga bardoshlilik darajasi yuqori ekanligi namoyon bo‘ldi. 18.3% sinaluvchilarda stressga nisbatan bardoshlilik darajasi o‘rtacha darajadan yuqori ekanligi aniqlandi. Bunda tashqari sinaluvchilarning 21.6%ida stress ga bardoshlilikning o‘rta darajasi qayd etildi. Stressga bardoshlilikning 15%ida o‘rtacha darajadan past darajasi aniqlandi. Sinaluvchilarimizning 15%ida stressga bardoshlilikning

past darajasi namoyon bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki sinaluvchilarimiz orasida stressga nisbatan bardoshlilik ko'rsatkichi past bo'lgan talabalarda qo'zg'alishga nisbatan nospetsifik reaksiyasi hisoblanishini ko'rib chiqdik. Qo'zg'alish biologik, kimyoviy, fizikaviy, psixologik va boshqa ta'sir etuvchilar natijasida chaqirilishi mumkin. Stressning kelib chiqishi atrof-muhitning uzoq vaqt ta'siri bo'lib, talabalar uchun hissiy organizmning boshqariluvchi tizimida va markaziy nerv sistemasida unga mos reaksiyalarni vujudga keltiradi. Atrof-muhitning stressni kelib chiqishiga ta'sirlari har xil bo'lib, qo'zg'ovchining ko'pligi ta'sirida bo'lishi mumkin (masalan shovqin, shoshilinch, ishni bajarish muddatining qisqaligi, ota-onasi, ustozlari va do'stlari bilan orasidagi munosabatlarning yaxshi emasligi, yuqori talabchanlik) yoki qo'zg'atuvchilarning yetishmasligi oqibatida (bir xillik, talabning yengilligi, ijtimoiy izolyatsiya, aloqalarning yetishmasligi), nizolar ko'rinishida (qaror qabul qilishi bilan bog'liq jarayonlarning buzilishi, aqliy va hissiy jarayonlarning o'zaro ta'sirida buzilish, irodaning kuchsizligi, ehtiyojlar va ularning qondirilishi orasida muvofiqlikning yo'qligi, shubhalanish) yoki vaqtinchalik boshqaruvning buzilishi sifatida (samolyotda sayr qilish natijasida vaqtni ajrata olmaslik, hayotda va o'qish jarayonida qat'iy kun tartibining yo'qligi, hayotning tartibsizligi, dars mashg'ulotlariga vaqtida qatnash olmaslik, ota-ona tomonidan nazoratning kuchliligi yoki be'tiborsizligi) kabi jarayonlar yoshdagi talabalarda stress kelib chiqishiga asosiy sabab bo'lib kelmoqda.

Stressga nisbatan bardoshlilik yuqori bo'lgan sinaluvchilarimizda ko'rib chiqildiki, ularning kundalik hayotda ota-onasi, ustozlari va do'stlari bilan munosabati yaxshi ekanligi. Kundalik hayotidagi kun tartibini, rejaralarini aniqligi, dars mashg'ulotlaridan keyin boshqa qo'shimcha mashg'ulotlar band bo'lishi aniqlandi.

Bundan tashqari stressni baholashda hududlar bo'yicha ham tahlili olib borilishi natijasida ikkita hududning ham alohida alohida tahlili ko'rib chiqildi va uning natijalari quyidagi jadval shakliga keltirildi:

2-jadval.

Stressga barqarorlik darajasining hududlar bo'yicha ko'rsatkichi

Hudud	Stressga barqarorlik darajasi				
	Yuqori	O'rtacha darajadan yuqori	O'rta	O'rtacha darajadan past	Past
Andijon davlat universiteti	19.9%	13.4%	26.6%	16.7%	23.4%
Andijon mashinasozlik instituti	36.6%	26.7%	16.7%	13.3%	6.7%

Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik institutidagi talabalarining stressga nisbatan bardoshlilik yuqori darajasi Andijon mashinasozlik instituti da 36.6%ni tashkil etib Andijon davlat universitetida esa 19.9% darajasi namoyon bo'ldi. Bunda tashqari sinaluvchilarning stressga barqarorligi o'rtacha darajadan yuqori bo'lganlar Andijon mashinasozlik institutida 26.7%ni tashkil etsa, Andijon davlat universitetida 13.4%ni tashkil etdi. O'rta darajasi Andijon mashinasozlik institutida 30%ni tashkil etdi, Andijon davlat universitetida esa 43.3% darajasi qayd etildi. Stressga nisbatan bardoshlilik o'rtacha darajadan past ko'rsatkichi Andijon mashinasozlik institutida 13.3%ni, Andijon davlat universitetida 16.7%ni tashkil qildi. Sinaluvchilarning stressni baholashning past darajasi Andijon mashinasozlik institutida 6.7%ni tashkil etib, Andijon davlat universitetida esa 23.4% darajasi namoyon bo'ldi.

Har ikkala sinf o'quvchilarida ham stressni baholashning yuqori darajasi ularning o'quv faoliyati jarayonida yuzaga kelayotgan bir qancha stressogen omillar va sabablar bilan bog'liq. Tadqiqot jarayonida sinaluvchi talabalarni kuzatish hamda ular bilan olib borilgan suhbat jarayonida o'quvchilar uchun stressni keltirib chiqaruvchi omillar qatori ham tahlil qilindi. Bunda quydagilarni alohida ajratib ko'rsatish muhim stressning asosiy alomatlarini ko'rib chiqamiz:

❖ Doimiy bezovtalik, tushkun holatda yurish, ba'zida bu holatlar hech qanday sabablarsiz yuzaga keladi.

❖ Yomon, notinch uyqu.

❖ Depressiya, jismoniy zaiflik, bosh og'rig'i, charchoq, biron narsa qilish yoqmasligi.

❖ Diqqatni kamayishi, bu o'qish yoki ishlashni qiyinlashtiradi. Xotiradagi muammolar va fikrlash jarayonining sekinlashishi.

❖ Boshqalarga, hatto eng yaxshi do'stlarga, oila va yaqin kishilarga qiziqishning yo'qligi. Doimiy paydo bo'ladigan yig'lash, ko'z yosh to'kish, xafagarchilik, umidsizlik, o'z-o'ziga achinish hissi.

❖ Ishtahaning pasayishi-ba’zida esa aksincha: oziq-ovqatni ortiqcha yeb yuborish.

❖ Ko’pincha asabiy odatlar rivojlanadi: kishi labini tishlaydi, tirnoqlarini tishlaydi va hokazo. Kishida befarqlik, odamlarga ishonchsizlik paydo bo’ladi.

Demak, empirik tadqiqot natijalar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, o’quv faoliyati jarayonida bir qator stressogen omillar mavjud bo’lib, ularning barchasi ham talabalar tomonidan jiddiy qabul qilinavermaydi. Ularning salbiy ta’siri o’quvchi talabalarning individual va shaxs psixologik xususiyatlari hamda stressogen vaziyatni qay tarzda qabul qilishi bilan bog’liqdir. Stressogen vaziyatlar esa talabalarning nafaqat o’quv faoliyatlarida, balki jismoniy va ruhiy holatlarida ham o’z aksini topadi.

Respondentlarning 30.1%ida stressga bardoshlilik ko’rsatkichi yuqori bo’lib, bu ularda stressogen vaziyatdan chiqishni bilmaslik bilan izohlanadi. Buni sinaluvchilarda stressli vaziyatlarga tushganda undan chiqib ketish ko’nikmasining mavjud emasligi yoki past ekanligi bilan izohlash mumkin. Bugungi yoshdagi talabalarning aksariyati kundalik va o’quv faoliyati jarayonida stress vaziyatlariga tushganida bu vaziyatni yengib o’tish uchun o’zlarida ko’nikma va malakaning yo’qligi bois stressga beriladilar va o’quv faoliyati jarayonida sust natijalarni ko’rsatadilar.

Stressni baholash ko’rsatkichi yuqori bo’lgan talabalarga xos bo’lgan xulq-atvor shakllarini kuzatganimizda quyidagilar namoyon bo’lganligi diqqatimizni tortdi: bunday talabalar o’quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressli vaziyatlardan chiqib keta olmaydilar, bu esa o’z-o’zidan ularning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta’sir etishi natijasida o’quv faoliyati jarayonida berilayotgan topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishiga ham o’ziga xos holda ta’sir etadi. Ya’ni stressga bardoshlilik past bo’lgan talabalar stressogen omillar ta’siri ostida bo’lganida berilayotgan topshiriqlarni bajarish uchun o’zida kuch ham, ishtiyoq ham topa olmaydi, bu esa uning uchun yana boshqa stressogen omillar qatorining ko’payishiga olib keladi.

2-metodika yoshidagi talabalarda stressga bardoshlilikning psixologik omillarini o’rganish maqsadida Toshkent shahar Andijon mashinasozlik institutidagi hamda Andijon davlat universiteti talabalarda tadqiqot ishini olib bordik. Tadqiqotning metodikasi sifatida “O’z-o’ziga baho” metodikasidan foydalanildi.

Mazkur metodika jami 60 nafarlik davridagi talabalarda o’tkazildi. Har bir sinaluvchiga metodikalar to’plangan tayyor tarqatma banki berildi.

O’z-o’ziga baho metodikasi 33 ta ta’kiddan iborat bo’lib, talabalar mazkur ta’kidlar ya’ni holatlar o’zlarida qay darajada kuzatilishiga qarab “har doim”, “ba’zan” va “hech qachon” javoblaridan birini tanlagan holda ta’kidga munosabatlarini bildiradilar.

Ushbu metodika orqali olingan ma’lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadval va diagramma shaklida keltirildi:

3-jadval.

O’z-o’ziga baho metodikasining ko’rsatkichlari

<i>O’z-o’ziga baho darajalari:</i>	<i>Foiz ko’rsatkichida</i>
Yuqori	70%
O’rta	17%
Past	13%

Jadvalda ko’rsatilgan ma’lumotlardan ko’rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan talabalarimizning 17%ida o’z-o’ziga bahoning o’rta, ya’ni adekvar baholash darajada ekanligi namoyon bo’ldi. O’z-o’ziga bahoning past darajasi bo’yicha natija 13% qayd etildi.

Bundan tashqari, o’smir talabalarning 70%ida o’ziga bahoning yuqori darajasi aniqlandi.

Shaxsning o’zini baholash darajasi o’z imkoniyatlarini tezkor baholash uchun qo’llaniladi. Inson o’zida mavjud bo’lgan o’z-o’ziga baho asosida har kuni o’zini qanday tutish kerakligini tanlaydi, demak, o’ziga baho shaxsning nisbiy bardoshlilikini ta’minlaydi va shaxsning rivojlanishiga turtki bo’lishi mumkin. O’ziga nisbatan adekvat baho (munosabat) shaxsning o’ziga nisbatan oqilona ishonchni ta’minlovchi ruhning uyg’unligiga olib kelsa, aksincha o’ziga nisbatan noto’g’ri (yuqori yoki past) baho esa doimiy ravishda ichki yoki shaxslararo ziddiyatga olib keladi.

Bundan tashqari o’zini baholashda hududlar bo’yicha ham tahlili olib borilishi natijasida ikkita hududning ham alohida alohida tahlili ko’rib chiqildi va uning natijalari quyidagi jadval shakliga keltirildi:

O‘z-o‘ziga baho metodikasining hududlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Hudud	O‘z-o‘ziga baho darajasi			
	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
Olmalik	56.7% (17 ta)	23.3 % (7 ta)	20 % (6 ta)	100%
Chilonzor	83.3 % (25 ta)	10 % (3 ta)	6.7 % (2 ta)	100%

Jadvalda ko‘rsatilgan ma’lumotlardan ko‘rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan Olmalik shahar va Andijon mashinasozlik institutidagi talabalarimizning o‘zini yuqori baholash darajasi Andijon mashinasozlik institutida 83.3%ni tashkil etdi, Andijon davlat universitetida esa 56.7% darajasi namoyon bo‘ldi. Bunda tashqari sinaluvchilarning o‘zini baholashning o‘rta darajasi Andijon mashinasozlik institutida 10%ni tashkil etsa, Andijon davlat universitetida esa 23.3% darajasi qayd etildi. Sinaluvchilarning o‘zini baholashning past darajasi Andijon mashinasozlik institutida 6.7%ni tashkil etdi, Andijon davlat universitetida esa 20% darajasi namoyon bo‘ldi. Natijalardan ko‘rishimiz mumkinki, Andijon mashinasozlik institutidagi talabalarining o‘z-o‘ziga bahosiga nisbatan Andijon davlat universitetidagi talabalarining bahosi past ekanligi asosiy sabablaridan biri sifatida shuni ko‘rishimiz mumkinki odamlarni zich joylashgani, bundan tashqari yoshdagi talabalarni ta’sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo‘lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli payo bo‘lgan bezovtalikni kiritisa bo‘ladi (o‘qish joyining o‘zgartirish, qarindoshning yoki yaqin kishining o‘limi).

O‘z-o‘ziga bahoning tushib ketishining ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e’tiqodlarni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘ziga baho yoshdagi talabalarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o‘z xususiyatlariga ega. Agar ular o‘zlarida o‘ziga nisbatan bahosining pastligi haqida alomatlarni sezsa, birinchi navbatda holat sabablarini aniqlash kerak. O‘z-o‘ziga bahoning oqibatlaridan ko‘ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. Insonning psixologik holatini tadqiq qilish ustida ish olib borgan olimlar ko‘pincha o‘ziga xos uslubiy ko‘rsatmaga amal qilinishi lozimligini ta’kidlaydilar. Jumladan, S.V.Ma’noylov [6] insonning funksional holatini diagnostika qilish juda keng ko‘lamdagi metodikalar to‘plami orqali amalga oshirilishi lozimligini alohida qayd etadi va bunday diagnostikaning maqsadi olinadigan natijalarning o‘zaro umumlashmasi shaxsning holatini umumiy integral baholashga olib kelishi lozimligini uqtiradi. Muallifning o‘zi o‘tkazgan tadqiqotlarining natijalarini 49 ta guruhga ajratgan va ularni alohida-alohida tahlil qilgan. Uning bunday yondashuviga nisbatan Y.E.Sosnovikova[7] “bunday yo‘nalish to‘g‘ri bo‘lishiga qaramasdan, iqtisodiy jihatdan chiqimlarga ham sabab bo‘ladi”, deya unga qarshi munosabat bildirgan va u ushbu muammoni yorituvchi hamda uning yechimiga mansub o‘ziga xos yana ikki xil fikrni ham ilgari suradi. Unga ko‘ra, birinchidan, inson psixik holatini balki kam sonli metodikalar bilan ham aniqlashning imkoni bor bo‘lishi mumkinligini o‘ylab ko‘rishga undasa, ikkinchidan, ko‘p sonli metodikalarning natijalarini umumlashtirgan holda integral baholash qanday amalga oshiriladi?-degan savolni ham o‘rtaga tashlaydi. Adabiyotlar tahlili jarayonida shuni guvohi bo‘lish mumkin, psixologik holatlarni o‘rganishga kompleks yondoshuv g‘oyasi yangi g‘oya emas. Bu sohada faoliyat olib borgan rus olimi A.P.Nechayev [8] 1929-yildayoq xuddi shunday g‘oyani ilgari surgan. Hatto u o‘z tadqiqotida charchoq holatini tadqiq qilish maqsadida 30 dan ortiq metodikalar to‘plamini tahlil qilgan va bu metodikalardan hech biri alohida holda qo‘llanilganda, nafaqat charchoq holatining chegaralari haqida, balki uning mavjud ekanligi haqida ham xulosa qilishga imkon bera olmasligini ta’kidlaydi. Bu masalani chuqur o‘rganishlar asosida u “Nahotki psixologiya, alohida olingan bir paytdagi psixologik charchoq holatini qayd qila olishga imkon beradigan metod yoki metodikaga ega bo‘la olmaydi?!”, degan muammoli savolni qo‘yadi va uning savoliga javob izlash keyingi yillarda shaxsning psixologik holatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda uslubiy ko‘rsatma sifatida xizmat qilmoqdaligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. O‘rganilgan adabiyotlar va o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Stressga bardoshlilik hodisasi xorij psixologiyasida, rus psixologiyasi va o‘zbek olimlarini asarlarida stressga bardoshlilikka yondosh bo‘lgan bir qancha sifatlar, jumladan, insonni har qanday qiyin vaziyatlarda ham aql bilan ish tutish, o‘z hissiyotlarini boshqara olish, g‘azabini bosish, stressli vaziyatda o‘ziga nisbatan ishonchni yo‘qotmasligi, o‘ziga nisbatan bahoning tushib ketmasligi kabi sifatlar talqinida bayon qilingan.

2. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida stressga bardoshlilikni oshirish uchun yoshdagi talabalarining o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosini adekvat bo‘lishiga yordam beruvchi va stressga nisbatan bardoshlilikni yuroqi bo‘lishiga yordam beruvchi bir qancha mashqlar bilan ta’sir o‘tkazish muhim ahamiyatga ega ekanligini

tahlil qilindi.

3. Yoshdagi talabalarni stressga bardoshlilikning namoyon bo‘lishida hududlar kesimida o‘ziga xos farqlar kuzatiladi, bu farq Andijon mashinasozlik institutida yuqoriroq ko‘rsatkichga egaligi ularning ota-onasi bilan ishlamasligi, atrofidagi do‘stlari bilan munosabatini yaxshi emasligi va kun tartibini rejalashtirishni hamda yuzaga kelgan muammolarni hal etishni bilmasligi bilan izohlanadi, aksincha Andijon davlat universitetida esa bunday holatlarga nisbatan stabil ko‘nikmaning paydo bo‘lganligi ularda stressli vaziyatlarda bardoshli munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

4. O‘ziga nisbatan bahosi past bo‘lgan talabalar tomonidan stressogen va holatlarda o‘zini tez yo‘qotib qo‘yish va bu holatdan chiqib ketish yo‘llarini izlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yish, atrofidagi do‘stlarining fikriga tayanib qolishi kabi holatlari qayd etildi. O‘ziga bahosi va ishonchi past bo‘lgan yoshdagi talabalarda stressga bardoshlilik ham past bo‘lishi aniqlandi.

Tavsiyalar.

Olingan natijalar, tahlillar va xulosalarga tayangan holda talabalar uchun stressga bardoshlilikini oshirish yuzasidan quyidagicha tavsiyalar beriladi:

- dastlabki kunlardan o‘q talabalar stressga nisbatan bardoshlilikni oshirish uchun o‘z ustilarida ishlab, o‘ziga nisbatan adekvat baholash darajasini shakllantirib borishlari va kun tartibiga rioya qilish;
- kun davomida bir necha marotaba stressdan chiqib ketuvchi nafas mashqlardan foydalanish;
- kun tartibini to‘g‘ri rejalashtirish va dars mashg‘ulotlaridan so‘ng o‘z ustida ishlash;
- bir kunlik aqliy mehnatdan so‘ng albatta jismoniy mashqlar bilan organizmdagi charchoq hissidan xalos bo‘lish;
- do‘stlari va ota-onasi bilan munosabatini yaxshilash;
- talabalarning o‘zi haqida yomon o‘ylashiga yo‘l qo‘ymaslik;
- oilaning turli xil sayrlar uyushtirish, dam olishga borish vazifalaridan unumli foydalanish.

Adabiyotlar:

1. American Psychological Association. www.unicef.org - YUNISEFning sayti ma’lumotlari (murojaat holati 29.10.2019).
2. [https://review.uz/uz/post/shavkat - mirziyoyev - raisligida – xotin – talabalarni – qollab – quvvatlashga – bagishlangan – yigilishda – ayollar – uchun – qanday – engilliklar - kiritildi](https://review.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-talabalarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi).
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/forum/>
4. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, appraisal, and coping. New York. Springer, 2004.
5. Варданын Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. – 194.
7. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
8. [https://cyberleninka.ru/article/n/kasbiy-kompetentlikning-asosiy-tarkibiy- ismlari-loyi-aviy/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/kasbiy-kompetentlikning-asosiy-tarkibiy-ismlari-loyi-aviy/viewer).



Abdurazzaqov Shuxratbek Zafarjon o'g'li,
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi
abdurazzaqovshuxrat@mail.ru

TALABALAR KREATIV KOMPETENSIYASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Maqolada kreativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish muammosi yoritib berilgan. Talabalarda kreativ kompetensiyaning ijtimoiy tamoyillarini aniqlash yuzasidan olimlarning tadqiqotlari tahlil etilgan. Talabalarning standart tafakkuri va kreativ fikrlashini turli xil usullaridan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotlar, bolalarda kreativlik paydo bo'ladigan davr haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: kreativlik, standart tafakkur, qobiliyat, intellekt, ijtimoiy muhit, tasavvur, kreativ kompetensiya, psixologik determinantlar, konstruktiv, regulatsiya.

ЧУВСТВITELЬНЫЙ ПЕРИОД ТВОРЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. В статье описывается проблема формирования и развития творческой компетентности. Анализируются исследования ученых по определению социальных принципов творческой компетентности студентов. Представлены исследования, проведенные с использованием различных методов нормативного и творческого мышления учащихся, сведения о периоде появления творческих способностей у детей. Выражены социально-психологические детерминанты, влияющие на развитие характеристик творчества.

Ключевые слова: Креативность, стандартное мышление, способности, интеллект, социальное окружение, воображение, творческая компетентность, психологические детерминанты, конструктив, регуляция.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS

Abstract. The article describes the problem of formation and development of creative competence. The researches of scientists on determining the social principles of creative competence in students are analyzed. Researches conducted using different methods of standard thinking and creative thinking of students, information about the period when creativity appears in children are presented. The socio-psychological determinants affecting the development of creativity characteristics are expressed.

Keywords: creativity, standard thinking, abilities, sensitive period, heredity, social environment, imagination, motive, preschool age, primary school age.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda tobora bilimga bo'lgan ehtiyoj insonning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, uning asosida shaxs ko'p asrlik insoniyat tajribasini o'zlashtiradi. Inson hayotining turli davrlarida uning qiziqishi obyektlari, bilim olish shakllari va usullari o'zgaradi, lekin bilimga bo'lgan ehtiyoj insonning ajralmas mulki sifatida nafaqat yillar davomida zerikarli bo'lib qolmaydi, balki uning keyingi xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Psixologik ilmiy adabiyotlarda o'quv faoliyatini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [1]. Bu tasodifiy emas, chunki o'quv jarayoni kreativ masalasi asosan o'quv faoliyati sifati masalasidir. Tashqi, utilitar motivlarning ustunligi o'qitishning rasmiy tus olishiga, ijodiy yondashuvning, ta'lim maqsadlarini mustaqil belgilashga olib keladi. Ma'lumki, bu o'quvchining o'zlashtirishi pastligi yoki muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ta'limga salbiy yoki befarq munosabatdir.

Asosiy qism. Universitet talabalarining kreativ fikrlashini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud. Ammo kreativ kompetensiya omillari va ta'lim faoliyati muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlik yetarlicha


o‘rganilmagan. So‘nggi yillarda inter gemisferik assimetriyaning kichik maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar soni ortib bormoqda. Shu bilan birga, intergemisferik assimetriyaning talabalarni o‘rganishdagi roli ham yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bilan birga, yosh talabalarining kreativ kompetensiyasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy psixologik qonuniyatlarini, sababiyatlarni va ularning kreativ kompetensiyasini oshirish bo‘yicha izlanishlar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Empirik tadqiqot natijalari. Bizning tadqiqotimizda tadqiqotda D.A.Leontevning Hayot mazmunini belgilovchi yo‘nalishlar testi, B.Basning oriyentatsiya so‘rovnomasi, R.Armtauxerning intellekt tuzilishi testi, N.P.Fetiskin, V.V.Kozlov, G.M.Manuilovlarning ijodkorlikni baholash testi, hamda matematik statistika metodlari (Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodlari)dan tadqiqotda olingan empirik materiallarni qayta ishlash va ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon davlat universiteti talabalaridan 341 nafar (128 ta erkak, 213 ta ayol) Andijon davlat chet tillari institutidan 26 nafar (94 ta erkak, 166 ta ayol) Andijon davlat pedagogika instituti 143 nafar (27 ta erkak, 116 ta ayol) jami 744 nafar (249 ta erkak, 495 ta ayol) jalb qilindi.

Tadqiqot 2023 yildan 2025 yilgacha olib borildi. Gipotezaning maqsad va vazifalari va metodologik asosiga muvofiq, bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olgan tadqiqot dasturi ishlab chiqildi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar shaxsning intellektual rivojlanishida universitet bosqichining muhimligini ta‘kidlaydilar, bu davrning qadriyat yo‘nalishlari shakllanish bosqichi, ijtimoiy munosabatlarda yangi davr ekanligi, shaxsiy xususiyatlarning kamol topishi, motivatsiya, kasbiy yo‘nalish va ko‘plab boshqa psixologik jarayonlarning akmeologik nuqtasi ekanligiga e‘tibor berishadi. Biz dastlab yuqoridagi keltirilgan xulosalar asosida intellektual salohiyatning psixologik modelini yaratishga harakat qildik.



1-rasm. Intellektual salohiyatning psixologik modeli

Biz talabalarda intellektual salohiyatni namoyon bo‘lishini psixologiya fanida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘rganish asosida chiqarilgan xulosalardan tashqari bugungi kunda ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali professor-o‘qituvchilar o‘rtasida kichik so‘rovnoma o‘tkazdik. Bunda Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan 8 ta davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Andijon davlat universiteti 241 nafar, Andijon tibbiyot instituti 190 nafar, Andijon qishloq xo‘jaligi instituti 174 nafar, Andijon mashinasozlik instituti 178 nafar, Andijon davlat chet tillari


instituti 148 nafar, Andijon davlat pedagogika instituti 126 nafar, Andijon qurilish-iqtisodiyoti instituti 76 nafar, Andijon pedagogika va iqtisodiyot instituti 48 nafar, jami 1181 nafar professor-o‘qituvchilari ishtirok etib ular ish tajribasi asosida guruhlashtirildi.

1-jadval.

Talabalar intellektual salohiyatini aniqlashda qatnashgan ishtirokchilar ish tajribasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Jinsi	Mehnat staji				
	5 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilar	5 yildan 10 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilar	10 yildan 15 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilar	15 yildan 20 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilar	20 yildan ortiq ish tajribasiga ega o‘qituvchilar
Erkak	84	57	128	74	39
Ayol	132	241	246	122	58
Jami	216	298	374	196	97


Dastlab biz ishtirokchi-respondentlarga “Intellektual salohiyat deganda nimani tushunasiz?” savol bilan murojaat etdik. Olingan natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarni keltirib chiqardi.



2-rasm. So‘rovnomamizning natijalari

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, professor-o‘qituvchilarning 321 (28,97 %) nafari intellektual salohiyat deganda nimani tushunasiz savoliga “Bilimdonlik” tushunchasini, 214 (19,31 %) nafari “Aql-zakovat”, 173 (15,61) nafari “Kompetensiya”, 151 (13,63 %) nafari “Xabardorlik”, 58 (5,23 %) nafari “O‘z ustida ishlash”, 51 (4,60 %) nafari “Ijodkorlik”, 39 (3,52 %) nafari “Tafakkur”, 34 (3,07 %) nafari “Mustaqil fikrlash”, 30 (2,71 %) nafari “Izlanuvchanlik”, 14 (1,26 %) nafari “Aql-idrok”, 9 (0,81 %) nafari “Ta‘minlanganlik”, 14 (1,26 %) nafari “Boshqa javoblar” deb javob berdilar.


So‘rovnomamizning keyingi “Hozirgi kun talabasining intellektual salohiyatini qanday baholaysiz?” savoliga respondenlar quyidagicha javob berdilar.



3-rasm. So'rovnoma natijalari


Natijalar asosida shunday xulosalarga kelish mumkin, professor-o'qituvchilar bugungi kun talabalarining intellektual salohiyatini baholashda ijobiy natijalar qo'lga kiritilmadi. 1108 nafar respondentlardan 454 nafari talabalarining intellektual salohiyatini past darajada shakllangan deb baholagan bo'lsa, 321 nafari o'rtacha darajada shakllangan deb baholashgan. 254 nafar respondent esa bugungi kun talabasining intellektual salohiyatidan qoniqish hosil qilgan. 79 nafar professor-o'qituvchilar esa intellektual salohiyatni baholay olmaganliklarini ko'rishimiz mumkin.

“Sizning fikringizcha talabalarining intellektual salohiyati shakllanishiga qaysi omillar ta'siri kuchliroq ko'rinishda sabab bo'ladi deb o'ylaysiz?”



4-rasm. So'rovnoma natijalari


“Tashqi obyektiv omillarni 5 balli ko'rinishda baholashingizni iltimos qilamiz” savoliga javoblar



5-rasm. So'rovnoma natijalari

So'rovnomamizda intellektual salohiyat shakllanishida tashqi omillarni yetakchi deb hisoblagan respondentlarimiz 698 nafar, ulardan tashqi omillarni baho ko'rinishida darajalangan ko'rsatmasiga ko'ra maksimal 5 ball ko'rinish natijalarida eng ko'p 5 ballik bilan belgilanganlari “Talabanning ta'lim yo'nalishini o'zi tanlaganligi” hamda “Professor-o'qituvchilarning malaka darajasi” bo'ldi.

1108 nafar respondentdan ichki omillarni ma'qul ko'rgan 409 nafari yuqoridagi berilgan savolga munosabati quyidagi jadvalda aks etgan.



6-rasm. So'rovnoma natijalari

Biz tomonimizdan mualliflik asosida shakllantirilib oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari bilan o'tkazgan so'rovnomamizdan olingan natijalar tadqiqotimiz jarayonida talabalarning intellektual salohiyatini aniqlashda qaysi jihatlarga to'xtalishimiz kerakligini yana bir karra dalilladi. Tadqiqotni tashkil etishda viloyatdagi uchta oliy ta'lim muassasasi talabalari tanlab olindi.

Tadqiqotga jalb etilgan talabalarning taqsimoti

Ta'lim muassasasi	Ta'lim olayotgan boshqichi			Umumiy soni Er/ayol	Umumiy soni
	1-bosqich Er/ayol	2-bosqich Er/ayol	3-bosqich Er/ayol		
Andijon davlat universiteti	64/105	35/67	29/41	128/213	341
Andijon davlat chet tillari instituti	41/70	32/51	21/45	94/166	260
Andijon davlat pedagogika instituti	15/67	11/49	-	27/116	143
Tadqiqotga jalb etilganlarning umumiy soni Er/ayol	120 /242	78/167	50/86	249/495	598
Jami	362	245	136	744	744

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijasida statistik jihatdan tekshiriluvchilarimizni intellektual salohiyati shaxsning intellektual faoliyati faoliyat turi sifatida umumiy (har qanday boshqa faoliyat turi bilan bir xil) va o'ziga xos (faqat ushbu faoliyat turiga xos) namoyon bo'lish xususiyatlariga ega ekanligi dalillandi. Umumiy xususiyatlari quyidagi baholash parametrlari orqali aniqlanishi:

a) kognitiv komponentda:

- subyekt (axborotni tahlil qilish va qayta ishlash; mavzuning ideal g'oyasi bilan bog'liq bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni qo'llash;
- mavjud muammoni tushunish va muammoni hal qilish;
- operatsiya (faoliyat mazmuniga qarab individual operatsiyalarni ishlab chiqish; o'rganilayotgan subyektning qandaydir umumiy munosabatini aniqlash maqsadida kuzatish).

b) motivatsion komponentda:

- motiv (ehtiyoblarni, qiziqishlarni, e'tiqodlarni amalga oshirish, shaxsga bo'lgan munosabat, stereotiplar va qadriyatlar, uning kognitiv faoliyati, faoliyat obyektining mavjudligi);
- vazifa (o'rganilayotgan obyektning belgilarini aniqlash va uning atrofdagi dunyoning boshqa obyektlari bilan aloqalarini aniqlash);
- faoliyatning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda harakatlar va operatsiyalarni bajarish);

c) Emotsional komponentda:

- pozitsiyasi (hissiy holatning vazifaga munosabati);

d) Boshqaruvchanlik komponentida:

- vositalar (ma'naviy, moddiy, texnik, instrumental vositalar, tushunchalar va potensial energiyadan foydalangan holda harakat dasturining mavjudligi)

e) Natijalar komponenti:

- natija va uni baholash (predmet-amaliy harakatlarni bajarish, mavzuni modellashtirish va o'zgartirish, uning yangiligi bilan faoliyat maqsadiga muvofiq belgilanadi).

O'ziga xos intellektual salohiyat namoyon bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi parametrlar orqali aniqlanishi:

a) Kognitiv komponentda:

- predmet (atrofdagi olamning o'ziga xos hodisalarini bilish; fanlararo aloqalar va munosabatlarni aks ettirish; ko'p funkcionallikni yaratish; dolzarb vazifani aniqlash; harakatni, o'tkazishni boshqaradigan intellektual faoliyatning obyektiv mazmunini aniqlash va intellektual harakat maqsadi):

- operatsiya (tegishli operatsiyani tanlashni aniqlash)

b) Motivatsion komponentda:

- motiv (intellektual harakatlar va operatsiyalarni aktuallashtirish shaxsning maqsadi va individual psixologik fazilatlarini, uning o'zini o'zi rag'batlantirishi va nazorat qilish joyiga muvofiqligi);
- vazifa (intellektual harakatlar va operatsiyalarni tanlash, ma'no va maqsadni shakllantirishni faollashtirish, refleksiyaning rivojlanishi);

c) Emotsional komponentda:

- pozitsiya (bilim va tajribaga qarab intellektual harakatlarni amalga oshirish)

d) Boshqaruvchanlik komponentida:

- psixologik vositalar (individning bilimi va individual psixologik)

e) Natijalar komponenti: - natija va uni baholash (baholash tizimining muvofiqligi shaxsning intellektual yutuqlari; naqshlarni chiqarish qobiliyati; mustaqil muammoni hal qilish haqidagi tasavvuri, test topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarish) kabilar aniqlandi. Tadqiqotda D.A.Leontevning Hayot mazmunini belgilovchi yo‘nalishlar testi, B.Basning oriyentatsiya so‘rovnomasi, R.Armtauxerning intellekt tuzilishi testi, Fetiskin N. P., Kozlov V. V., Manuilov G. M.larning ijodkorlikni baholash testlaridan foydalanildi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalar kreativ kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlari shakllantirishda quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Intellekt - mavjud aqliy tuzilmalar, ular tomonidan yaratilgan va qurilgan aks ettirishning aqliy maydoni shaklida individual aqliy tajribani tashkil etish shakli. Intellekt individning ma‘lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir. Zamonaviy ilm-fanda, jumladan, falsafa fanida intellektning mohiyati to‘g‘risida ilmiy izlanishlar talaygina. Intellektning tushunchasining aks ettirish qobiliyati, umumiy tabiati, tafakkur qonuniyatlari, intellektning til bilan aloqasi xususiyatlari yetarlicha o‘rganilgan.

2. Aql-idrokning psixologik asosini esa intellekt tashkil etadi. Umuman olganda, intellekt - bu shaxsning «ichida» sodir bo‘layotgan jarayonlarning subyektiv tasvirini qurish imkoniyatini belgilovchi aqliy mexanizmlar tizimi. Psixologik nuqtayi nazardan, intellektning maqsadi - individual ehtiyojlarni voqelikning obyektiv talablariga muvofiqlashtirish asosida tartibsizlikdan tartib yaratishdir.

3. Hozirgi davrga kelib esa insoning aqliy taraqqiyotini o‘rganish uchun hech vaqt kechiktirib bo‘lmaydigan qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Intellekt muammosi rus psixologiyasida ham, chet el psixologiyasida ham eng ko‘p o‘rganilayotgan mavzulardan biriga aylanib qolmoqda. O‘zbekistonda, rus psixologiyasida va chet elda intellekt mohiyatini talqin qilishda turlicha yondashilsa ham lekin umumiy maqsad bitta bo‘lib, u ham bo‘lsa, insoning intellektual taraqqiyoti, uning xususiyatlari, o‘ziga xosligini ochib berishdan iboratdir.

4. Ko‘p o‘n yillar davom etgan va intellektning tabiati haqida ma‘lum bir tushunchani o‘rnatishga urinish bilan bog‘liq bo‘lgan munozaralar oxir-oqibat paradoksal natijaga olib keldi. O‘z navbatida, qobiliyatlar to‘plami sifatida intellekt g‘oyasining vakillari ham intellektual faoliyatning turli turlarida ifodalangan qandaydir umumiy tamoyilning ta’siri bor degan xulosaga kelishga majbur bo‘ldilar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, testologik tadqiqotlar inson aqlining ishlab chiqarish xususiyatlari haqidagi g‘oyalimizni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan juda ko‘p empirik materiallarni berdi.

Adabiyotlar:

1. Abramova G.S. O‘smirlarning o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishning axloqiy jihati // Psixologiya savollari. 1985 yil. 6-son. 38-45-betlar.
2. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии / Л.В. Щерба. Избранные труды по языкознанию и фонетике. - Л., 1974.
3. Любарт Т. Творчество психологии / Т. Любарт, К. Муциру С. Торджман, Ф. Зенас. - М.: Когито-Центр, 2009. – 215 с.
4. Степанов С.Ю. Рефлексивная практика творческого развития. Человеческое и организационное / С.Ю. Степанов. - М.: Наука, 2000. – 174 с.
5. И.Икс. Дворецкий. [Электронный ресурс] – Режим доступен по адресу: <http://linguaeterna.com/vocabula/index.php>.
6. Ожиганова Г.В. Пролонгированный метод диагностики Формирование творчества в младшем школьном возрасте / Г.В. Ожиганова. – М.: Институт психологии РАН, 2005. – 135с.

Жумаев Улуғбек Сатторович,

*Бухоро давлат университети Психология ва социология кафедраси доценти,
психология фанлари номзоди*

ШАХС ПСИХОЛОГИЯСИДА "ДЕТЕРМИНАЦИЯ" КАТЕГОРИЯСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Аннотация. Ушбу мақолада шахс психологиясида детерминация категориясининг ўрганилиши ҳамда шахс таркиб топишида қандай роль ўйнаши ҳақида фикр юритилади. Шунингдек, объект-субъект муносабатларида шахс ўзини намоён қилишидаги категория сифатида детерминациянинг ўрни талқин қилинган. Замонавий психология ва бошқа ижтимоий гуманитар фанлар тизимида айнан детерминация категориясининг илмий мушоҳадаси ҳам келтирилган.

Калит сўзлар: шахс, позиция, муносабат, детерминация, ижтимоий, социология, фалсафа, категория, позитив, психология, психика, мулоқот, дифференциал, эксперимент, муносабат.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАТЕГОРИИ «ДЕТЕРМИНАЦИЯ» В ПСИХОЛОГИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование категории детерминации в психологии личности и её роль в формировании личности. Также интерпретируется роль детерминации как категории в самовыражении личности в объектно-субъектных отношениях. В системе современной психологии и других социальных гуманитарных наук представлено научное наблюдение категории детерминации.

Ключевые слова: личность, позиция, установка, детерминация, социальное, социология, философия, категория, позитив, психология, психика, общение, дифференциал, эксперимент, установка.

THE ROLE AND MEANING OF THE CATEGORY "DETERMINATION" IN PERSONALITY PSYCHOLOGY

Abstract. This article discusses the study of the category of determination in personality psychology and its role in the formation of personality. The role of determination as a category in the self-expression of personality in object-subject relations is also interpreted. In the system of modern psychology and other social humanities, scientific observation of the category of determination are presented.

Keywords: personality, position, attitude, determination, social, sociology, philosophy, category, positive, psychology, psyche, communication, differential, experiment, attitude.

Кириш. "Детерминация" категориясини умумий илмий ва фалсафий жиҳатдан ўрганиш (сабаб-оқибат боғлиқлиги сифатида), Лапласнинг ижтимоий жиҳатдаги механик детерминизм концепцияси (каузал мақсадларни детерминация) асосий мақсадни – сабаб занжирларини танлашни кўзлаган. Замонавий Ғарб социологиясида фан ва техниканинг жадал ривожланиши натижасида инсоният таракқиётини ифодаловчи "технологик детерминизм" тушунчалари етакчи ўринлардан бирини эгаллайди.

Илмий изланишлар жараёнида детерминация ҳақидаги бундай умумлаштирилган ва шунинг учун соддалаштирилган ғояларнинг етарли эмаслиги қачонлардир аниқланган эди. Файласуф олим Д.С. Милл (1806-1873) детерминациянинг кўп факторли хусусиятини тақлиф қилди. Ушбу фикрни ривожлантиришда кўплаб воситачиликларни четлаб ўтиб, дарҳол аниқланишни ўрганиш жараёнида сабаб ҳақидаги дастлабки ғоялар чизикли сабаб ҳақидаги ғоялар бўлган деган тахминга ўтиш мумкин ва фақат бу тадқиқотларнинг ривожланиши билан тузилган боғланишларнинг мумкинлиги, бу боғланишларнинг структуравий табиати ҳақидаги фикр пайдо бўлди. Тўғриси айтганда, бундай фикрлаш динамикаси ҳар қандай тадқиқотга хос бўлиб, у чизикли боғланишлар ғоясидан янада мураккаб ташкил этилган алоқаларни ўрганишга, яъни тузилган алоқаларни ўрганишга ўтганда зарур бўлади.

Структуравий муносабатлар ҳақидаги ғояларни ривожлантиришда муҳим ўринни тизимли ғоялар эгаллайди. Тизим тасвирлари, қоида тариқасида, маълум бир алоқаларни назарда тутувчи маълум тушунчалар тизимига асосланади. Ривожланишнинг дастлабки босқичидаги тизимли

тасвирлар тизимли ёндашув деб аталади, унинг моҳияти ўрганилаётган объект тизим сифатида қаралади. Гап шундаки, тизимли ёндашув билимнинг турли соҳаларида ривожланиб, ўнлаб алоҳида назариялар, билимнинг турли соҳаларида намоён бўладиган алоҳида фундаментал тамойиллар, турли соҳаларда “киритилган” алоҳида жуда машҳур тушунчалардан иборат кенг доирага айланди. Шунинг учун ҳозирги вақтда тизимли ёндашув деганда мавжуд тизимли тушунчалар ёки тамойиллар ёки назарияларнинг ҳар қандайини тушуниш мумкин ва уларнинг танлови ўрганилаётган объектга ҳал қилувчи таъсир кўрсатади.

Ушбу мақолада тизимларнинг категорик умумий назарияси [1] эмас, балки унинг тизимли асоси сифатида ақлий детерминация муаммоси муҳокама қилинадиган психологик назариядан фойдаланилади - бу шахснинг ажралмас назарий психологиясидир [2].

Асосий қисм. Агар биз ташқи дунё алоқаларининг структуравий табиати ҳақидаги ғояларни ривожлантириш мантиқини давом эттирадиган бўлсак, унда биз турли хил объектларнинг ўзига хослиги ҳақидаги тахминга келамиз. Шубҳасиз, бу ерда объектлар детерминацияси бошланади, яъни объектни детерминациянинг умумий контурлари, агар назария мавжуд бўлса, уни тавсифлаш учун назарияни танлашга ёки тегишли назарияни ишлаб чиқишга боғлиқлиги намоён бўлади. Бундай умумий психологик назария сифатида, юқорида айтиб ўтилганидек шахснинг интеграл назарий психологиясини ёритишга асос бўлади.

Шундай қилиб, ҳар қандай объектни детерминацияси унинг турли даражаларида ва кўп ёки камроқ умумлаштирилган шаклда кўриб чиқилиши мумкин. объектнинг аниқланиши сабабий боғлиқликни ёки умумий методологик тамойилларни ёки, ниҳоят, у ёки бу назарияни аниқлаши мумкин. Маълумки, шахсиятнинг психологик назариялари кўплиги шароитида шахсият муаммосини детерминацияси уларнинг ҳар қандайига асосланиши мумкин ва кейин ҳар бир ҳолатда турли хил намуна олинади.

Ушбу мақолада биз шахснинг ички психик детерминацияси ҳақида фикр юритамиз, бу ҳақда ғоялар шахснинг интеграл психологиясининг бир қисми сифатида ишлаб чиқилган.

Шахснинг интеграл психологияси қоидаларига кўра, инсон психикаси иккита компонент - объектив ва субъектив равишда ифодаланиши мумкин. Иккала компонент ҳам аниқловчи функцияга эга, аммо уларда детерминация жараёнлари бошқача кўринади. Ақлий детерминация муаммоси унинг субъектив томонида кўриб чиқилади. Детерминация тушунчаси индивидуаллик психологияси, дифференциал психология, субъект психологияси учун катта аҳамиятга эга. Муҳокаманинг бошидан бошлаб биз илгари сурган умумий фикр шундан иборатки, одамлар ўртасидаги фарқ, биринчи навбатда, уларнинг турлича детерминациясидан иборат. Ушбу мақоланинг назарий ғояси шундан иборатки, детерминизм принципи шахс психологиясини ўрганишда алоҳида ўрин эгаллаши намоён бўлади. Ушбу рол нимадан иборат, у қандай тушунчаларда ифодаланган, қайси муаммоларни ҳал қилишда ўзининг конструктив қўлланилишини топади ва ҳоказолар ҳақида сўз боради.

Детерминация тушунчасини турли билим соҳаларида учратиш мумкин. Масалан социология соҳасига тўхталиб ўтамиз, чунки ушбу муаммо мавзусига энг яқин бўлган нарса бу концепциянинг социология фанлари соҳасидаги ишланмаларидир. Шунинг таъкидлаш керакки, социологияда бу тушунча психологияга қараганда анча катта рол ўйнайди, шунинг учун социология соҳасида детерминация концепциясини ишлаб чиқиш тажрибаси психология соҳасида қўлланилиши мумкин.

Замонавий психологияда детерминация тушунчаси қўлланилмайди, деб айтиш мумкин эмас. Детерминация сабабийлик тамойили сифатида, назарий характердаги баёнотлар сифатида ва ҳоказо. Аммо бу тушунча замонавий психологияда энг умумий маънода қўлланилади.

1. O'z bilimini mustaqil oshirish, pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi va axborot resurs markazi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, o'quv xonasi, ustaxona va amaliyot shart-sharoitlari ta'lim oluvchilariga moslashtirish kerak.

2. Bo'lajak o'qituvchilar o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- o‘quvchilarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish;
 - o‘quvchilar bilan emotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyatining turli jabhalariga faol ta’sir etish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi va obyektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak.


4. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma’lum maqsadga yo‘naltirish zarur. Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik-psixologik va texnik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.


Olimlarning ta’kidlashicha, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan, uning sifat darajasini orttiradigan zarur shart-sharoitlarni besh jabhaga ajratish mumkin.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan, uning sifat darajasini orttiradigan zarur shart-sharoitlar

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlari ishtirokchilari uchun kutilayotgan zamonaviy talablar pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va subyektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda uzluksiz ta’lim tizimi komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, integrativ tabiati kabi qator o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bo‘yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi

Adabiyotlar tahlili asosida ma’lum bo’ldiki, shaxsning o’zini namoyon etishi kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lgan bo’lajak pedagog uchun ham to’la taalluqli bo’lib, u asosan uch bosqichda: tayyorgarlik bosqichi, asosiy bosqich va yakunlovchi bosqichlarda amalga oshadi (2-rasm).



2-rasm. Pedagogning kasbiy tayyorgarligi takomillashtirish bosqichlari

Tayyorgarlik bosqichida shaxs o’zligini aniqlaydi, ya’ni o’zini namoyon qilish ehtiyojini anglaydi, o’z nuqtai nazarini, atrof-borliqqa munosabatini belgilaydi, faoliyati maqsadlarini oydinlashtiradi, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilmalarida o’zining o’rni va rolini aniqlaydi, o’z xatti-harakatlari, xulq-odobi, ko’zlagan maqsadlarini ro’yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi. Asosiy bosqich shaxsning o’zini namoyon qilish maqsadlarini amalga oshirish jarayonidir. Yakunlovchi bosqichda-shaxs o’zini namoyon etish sohasida erishgan natijalar baholanadi, qiyinchiliklarning sabablari aniqlanadi. O’z o’rnini to’g’ri belgilab olish – o’zini namoyon etishning muhim bosqichi hisoblanib, uning mazmuni va xarakterini belgilaydi, erishilgan natija ham shunga yarasha bo’ladi [6].

Pedagogika fanining asosiy vazifasi shaxsni barkamol inson qilib tarbiyalash, kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish, aqliy, amaliy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish hamda intellektual jihatdan rivojlanishini ta’minlash, o’z tanlangan mutaxassisligi bo’yicha faoliyat ko’rsatishi uchun tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iborat [5].

Xulosa. Bo’lajak o’qituvchilarda rivojlantiriladigan ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar tizimi atrof-muhit va o’z-o’ziga nisbatan munosabat tavsifini aks ettiruvchi va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida namoyon bo’ladigan, pedagogik tayyorgarlikning o’zaro aloqador aksiologik komponentlarida sifat o’zgarishlarini hosil qilishga yo’naltirilgan obyektiv jarayon ekanligi aniqlashtirildi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4623-son Qarori.
2. Артюхина М.С. Интерактивные средства обучения: теория и практика применения. Монография. Барнаул: ИГ «Си-пресс», 2014. – 168 с
3. Балина Т.Н., Егорова И.А. Психолого-акмеологические критерии профотбора сотрудников финансовых организаций. Финансовая экономика. 2019. № 1. С. 143-148.
4. Ahmedova N. “Integrativ yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish” Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasii olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2020. – 54 b.
5. Деркач А., Михайлов Г. Методология Акмеологии // Прикладная психология и психоанализ., №3. -1997.- С. 4.
6. To’rayev B. Fanda tolerantlik va intolerantlik. “Yangi O’zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari”. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. 41-48-б.
7. Файрушина С.М. Научно-методическая исследовательская деятельность студентов педагогических вузов при изучении естественнонаучных дисциплин. // Вестник ТГПУ. 2010. Выпуск 12 (102). 41-45-бет.

*Baxronova Dildora Esanovna,
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti*

BOLALARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISH USULLARINI O‘RGANISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda o‘quvchilarning intellektual rivojlantirish muammosini hal qilishning psixologik-pedagogik yondashuvlari ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual kompetensiyasini rivojlantirishda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari maqolada o‘quv jarayonlarida muammoli ta‘lim texnologiyalarini tashkil etish va boshqarish, muammoli ta‘lim usullari o‘quvchilarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish, ularni hal eta olishga o‘rgatish, ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: ijodiy tafakkur, kreativlik, ijodiy jarayon, ijodiy salohiyat, masofaviy ta‘lim, intellektual faoliyat, kognitiv tuzilma, intellektual rivojlanish, metakognitiv ta‘lim.

МЕХАНИЗМЫ ИЗУЧЕНИЯ МЕТОДОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье показаны психолого-педагогические подходы к решению проблемы интеллектуального развития учащихся, а также указаны аспекты, на которые необходимо обратить внимание при развитии интеллектуальной компетентности учащихся. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы организации и управления проблемными образовательными технологиями в образовательном процессе, методами проблемного обучения – для достижения полного понимания проблемы, обучения её решению, развития творческого мышления и творческих способностей.

Ключевые слова: творческое мышление, креативность, творческий процесс, творческий потенциал, дистанционное образование, интеллектуальная деятельность, когнитивная структура, интеллектуальное развитие, метакогнитивное образование.

MECHANISMS OF LEARNING METHODS OF CHILDREN’S INTELLECTUAL DEVELOPMENT

Abstract. This article shows the psychological-pedagogical approaches to solving the problem of intellectual development of students, and points out the aspects that need to be paid attention to in the development of intellectual competence of students. In addition, the article deals with the organization and management of problem-based educational technologies in educational processes, problem-based learning methods - to achieve full understanding of the problem, teach them to solve it, and develop their creative thinking and creative abilities.

Keywords: creative thinking, creativity, creative process, creative potential, distance education, intellectual activity, cognitive structure, intellectual development, metacognitive education.

Kirish. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etish tendensiyasi kuchayib borayotgan hozirgi davrda umumiy o‘rta ta‘lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimlilik va izchillik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim berishning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, o‘quv jarayonini loyihalash va axborot muhitiga ta‘lim oluvchilarni to‘g‘ri yo‘naltira olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali jamiyatning intellektual manbalarini yaratish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha: yangi ta‘lim konsepsiyasida “Ta‘lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” deb e‘tirof etilgan. Sifatli ta‘limni tashkil etish, pedagog va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirish, ta‘lim jarayonini modellashtirishning muvaffaqiyatli yo‘nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda “Insoniyat tarixidagi tosh asri toshlar tugaganligi uchun emas, balki yangi texnologiyalar kirib kelganligi natijasida barham topgan”. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli xil ma‘lumotlardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, u “raqamli jamiyat” deb nomlangan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. “Raqqamli jamiyat”

tushunchasi bugungi kunga kelib eng muhim tushunchalar qatoridan joy oldi. Raqamli jamiyatning barqarorligi inson taraqqiyotini ragʻbatlantiruvchi demokratik qadriyatlarga asoslanadi, masalan maʼlumotlar, bilimlarning erkin almashinuvi, oʻzaro bagʻrikenglik va boshqalarning xususiyatlariga hurmat munosabatlarini taʼminlaydi. Ijtimoiy guruhlarning sifat koʻrsatkichlari maʼlumot darajasi, intellektual qobiliyat kabi parametrlar nuqtayi nazaridan yaxshilanadi. Taʼlimni axborotlashtirish bu birinchi navbatda, global zarurat boʻlib, uning maqsadi global tizimlar orqali maʼlumot yigʻadigan, ishlaydigan, ishlab chiqaradigan va tarqatadigan mikroelektronika, mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda taʼlim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Bunday texnologiyalardan foydalanishning jadal rivojlanishi, taʼlim sifatini oshirishga qoʻllanilishi va innovatsion yondashuvlarning taʼlimga taʼsiri natijasida taʼlim tizimi boʻgʻinlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash imkoniyatlari yuzaga keldi. Shundan kelib chiqib, “taʼlim tizimining barcha bosqichlarida qogʻoz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qoʻllabquvvatlash hamda huddi shunday yondashuvga koʻra mavjud oʻquv jarayonini raqamlashtirish doirasini muttasil kengaytirib borish lozim”. Bugun hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yoʻliga oʻtgan jamiyat hayotiga ham katta oʻzgarishlar olib kirmoqda. Zero, bu oʻzgarishlarning asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. Hozirgi kunda umuman ishlab chiqarish, taʼlim va boshqa sohalarning rivojlanishini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Axborot texnologiyalar maydoni esa jamiyat hayoti hamda faoliyatiga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shuning uchun axborot texnologiyalari fan-taʼlim, sanoat hamda ijtimoiy hayotning eng muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Axborot texnologiyalardan samarali foydalanish yoʻllari hamda imkoniyatlarini topish jamiyat taraqqiyotining barcha sohalari, ayniqsa taʼlim sohasining zaruriy asosini tashkil qiladi. U inson tafakkuriga turli hil yoʻnalishlarda taʼsir etadi, insoniyatning hayoti va taqdirida goh ijobiy, goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylanib ulgurdi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan A.A.Abduqodirov, R.R.Boqiyev, U.Sh.Begimqulov, S.S.Gʻulomov, M.H.Lutfillayev, D.Toshtemirov, D.X.Narziqulova va boshqalarning tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron axborot-taʼlim resurslarini yaratish shuningdek taʼlim jarayoniga joriy etish imkoniyatlari, Sh.Barotov, E.Gʻoziyev, M.Davletshin, I.M.Karimova, Z.Nishonova, F.Roʻziyev, N.Safayev, G.Fayzullayevalar tomonidan shaxsning pedagogik-psixologik xususiyatlari, oʻquvchi shaxsida turli qobiliyat va sifatlarni, intellektual salohiyatni shakllantirish hamda rivojlantirish mexanizmlarining oʻziga xos jihatlari ochib berilgan. Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi mamlakatlari olimlaridan A.V.Bolotov, M.V.Goryainov, L.P.Grishenko, T.A.Dyujeva, M.A.Ivanova, Z.V.Semenova, E.E.Sivokon kabilarning tadqiqotlarida axborot texnologiya xususiyatlarini oʻrganish, fanlarning metodik taʼminotini ishlab chiqish, turli sohalarda axborot texnologiyalardan foydalanish jihatlari, Sh.K.Amonashvili, D.B.Bogoyavlenskaya, L.N.Buxareva, L.V.Zankov, V.P.Zinchenko, E.P.Ilin, L.L.Kalyagin, L.N.Kotrutsa, A.H.Leontev, N.I.Sardjveladze, K.S.Stanislavskiy taʼlim jarayonida oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini oʻstirish omillari ilmiy jihatdan bayon etilgan. Xorijlik olimlardan B.Atrostik, E.Brynjolfsson, L.Varshavskik, A.Mcafee, S.Nyugen va boshqalar tomonidan axborotlashgan taʼlim va jamiyat, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bilan bogʻliq bir qator muammolar oʻrganilgan boʻlsa, F.Barrom, J.Guilford, D.Harrington, J.Piaget ilmiy tadqiqotlarida shaxsning rivojlanishi, shuningdek, bolalarda ijodiylik hamda intellektuallik xususiyatlari, oʻquvchilarni intellektual rivojlantirishning pedagogik-psixologik masalalari keng yoritilgan. Biroq amalga oshirilgan tadqiqotlarda taʼlim muhitini axborotlashtirish, oʻquvchilarning intellektual xususiyatlarini shakllantirish masalalari oʻrganilgan boʻlsa-da, taʼlim tizimining maʼlum bosqichida oʻquvchilarda axborot texnologiyalari asosida intellektual salohiyatni rivojlantirish muammosi yetarli oʻrganilmaganligi aniqlandi. Bu esa, taʼlimni axborotlashtirish sharoitida oʻquvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish zarurati sifatida tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Muhokama. Mamlakatimizning dunyo miqyosida oʻzining yuqori oʻringa ega boʻlishi, bugungi kun yoshlari, xususan umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning yuqori darajadagi bilim va malakalarni egallashlari, taʼlim-tarbiya tizimining kelajakdagi strategik maqsadlarga asosan tashkil etilishiga bevosita bogʻliq jarayondir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas boʻgʻini boʻlgan taʼlim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar uzluksiz taʼlim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilgʻor axborot texnologiyalarini tatbiq etish hamda taʼlim berish jarayonini sifat va samardorligini oshirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi bejizga emas. Xususan, bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli

bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar qilamiz”, – degan shijoatli ta’kidlari tadqiqotimiz mavzusini yanada dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Maktab ta’limida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanish darajasi asosan yuqori sinflarda amalga oshiriladi, negaki, o‘quvchilarda intellektual faoliyat ko‘nikmalari bir qadar shakllangan bo‘ladi. Ular muntazam holatda nimanidir qurish, yaratish, loyihalashga intiladilar. Ma’lumki, har bir o‘quvchi kelajakda qaysi soha vakili bo‘lmasin o‘zining intellektual salohiyati va o‘z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat, jamiyat rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsata olishi lozim. Intellektual salohiyat, o‘quvchiyoshlarni bilimdonligi, kreativlik, yuksak ong asosida jamiyat hayotiga tayyorgarlik darajasini ta’minlovchi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual rivojlanishining mezoni vazifasini o‘taydi. Intellektual salohiyat, uni shakllantirish va rivojlantirish muammosi bir qator izlanuvchilarning tadqiqot obyektiga aylangan. Bu muammo jahon olimlari tomonidan turli yo‘nalishlarda tadqiq etilganligini quyidagi tahlillarimizda asoslashimiz mumkin: Intellekt (lotincha “intellectus” – tushunish, bilish) – bilish, tushunish va muammolarni hal qilishning umumiy qobiliyati. Intellekt tushunchasi shaxsning barcha bilim qobiliyatlarini: sezgi, idrok, xotira, vakillik, fikrlash, tasavvur kabilarni yig‘indisidir. Intellekt – bu shaxs aqliy qobiliyatlarining barqaror tuzilishi, uning bilim qobiliyatlari darajasi, shaxsning hayotiy vaziyatlarga aqliy moslashuvi mexanizmi. Intellekt yoki ong – bu yangi holatlarga moslashish, mavhum tushunchalarni tushunish va qo‘llash, tajribaga asoslangan o‘rganish va yodlash qobiliyatidan, bilim orqali insoniy muhitni boshqarish uchun ishlatishdan iborat. Intellekt faqat ongning bir qismidir: hamma insonlarda intellekt mujassam va u insonlarni birbiridan ajratib turadi, bu inson shaxsiyatining bir qismidir. Tadqiqot davomida aniqlandiki, intellekt haqida bahs ketganda ko‘pchilik “nimadir”ni bajarishga harakat qilish, biror narsani bir-biridan qanday farq qilishni, aqlning qayerda yashiringanligini, ota-onadan meros bo‘lib o‘tishi yoki uni rivojlantirish tushuniladi. Bizningcha, intellekt – bu mulk emas, balki xususiyatlar yig‘indisi, ya’ni: o‘quvchining tushunishi, o‘ylashi, eslab qolishi, tahlil etishi, xulosa chiqarishi, amaliyotga tatbiq qilishi yoki umuman boshqa narsa bilan bog‘lanish masalalaridan iborat jarayondir. Hozirgi kunda ilm-fan foydalanadigan intellekt nazariyasi 100 yil oldin paydo bo‘lgan. Intellektual ko‘nikmalarga bugungi davrda samarali fikrlash va ma’lumot bilan ishlash qobiliyati sifatida qaralmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida halqaro baholash tadqiqotlarining konsepsiyalarini keltirishimiz mumkin. Tadqiqotlarda asosan o‘quvchilarning ma’lum bir fan bo‘yicha bilimi emas, balki kompleks tahlil qilish kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini tekshirishga ustuvorlik berilmoqda. O‘zbekiston respublikasining mazkur tadqiqotlarda ishtirok etishi ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantirishning yangi intellekt nazariyasiga muvofiq tashkil etilishi sifatida baholanadi. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda fanga doir ma’lumotlarni bir shakldan boshqasiga (matn, jadval, diagramma, grafik, rasm va hk.) o‘zgartira olish va eng qulay shaklni tanlash, axborot bilan ishlash, uning tarkibini ixchamlashtirilgan yoki kengaytirilgan shaklda yetkazish (matn rejasini tuzish, tezislari, eslatmalar va boshqalar) kabilarni qo‘llanilishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Intellektual salohiyatni rivojlantirish o‘z navbatida intellektual qobiliyatlar tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Ilmiy manbalarda intellektual qobiliyat quyidagicha tasnif etilgan: intellektual qobiliyatlar – bu shaxsning ta’sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to‘g‘risida keng ma’lumotlarga ega bo‘lish, tafakkur o‘zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o‘ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o‘z fikriga ega bo‘lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o‘z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo‘lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

Natijalar. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga mazkur intellectual digital o‘yinlar ijobiy ta’sir ko‘rsatdi hamda ularning intellektual salohiyatini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. O‘quvchilar mazkur intellektual-digital o‘yinlarni o‘zlarining motivatsiyalarini oshirishiga, o‘rganishga qiziqishni ortishiga, o‘z ustida mustaqil ishlashga yo‘naltiruvchi sifatida baholashdi. O‘qituvchilar tomonidan intellektual-digital o‘yinlar odatdagi kompyuter o‘yinlaridan didaktik imkoniyatlarining kengligi, metodik-didaktik yondashuvchining puxta ishlab chiqilganligi kabi jihatlari e’tirof etildi. Tadqiqotimiz ishi doirasida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida kompleks topshiriqlar, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi, xalqaro baholash tadqiqotlarida qo‘llanilgan topshiriqlarga o‘xshash variativ topshiriqlar shakllantirish keng ommalashib bormoqda. Bunday topshiriqlardan maqsad o‘quvchilarni faqat bilim egallashi emas, balki bilimlarni qo‘llash, o‘z munosabatini shakllantirish, qaror qabul qilishdan iborat. O‘quvchining kelajakdagi muvaffaqiyatini uning intellektual salohiyati, shu salohiyat bilan turli muammo va masalalarni yechish qobiliyati tushuniladi.


Umumta’lim maktab o’quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonida qo’lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko’ra, o’quvchilarning ta’limni axborotlashtirish sharoitida intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashning muhim shartlaridan biri – ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarining to’g’ri tashkil etilishidir. Nazariy fikrlarning amaliy natijalar bilan uyg’unlashtirilganligi, mavjud pedagogik jarayonning har tomonlama tahlil etilganligi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarni boyitish ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlari davomida belgilab olindi. Shunga ko’ra, amalga oshirilgan ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko’rsatkichlar tizimini o’z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur dastur asosida o’quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta’minlovchi ko’rsatkichlar, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritildi. Ushbu dasturni tuzishdan ko’zda tutilgan asosiy maqsad – tadqiqot konsepsiyasi, obyekt, predmeti, vazifalari va ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda, tajriba-sinov ishlari samaradorligini oshirishning amaliy jihatlari aniqlash va puxta o’rganish orqali, eng maqbul shakl, metod va didaktik ta’minoti, vositalarni belgilashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, o’quvchi shaxsiga insonparvar yondashuv, ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo’lishi, ilmiy-metodik maslahatning ko’p tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish kabi umummilliy va xususiy-metodik tamoyillar asosida amalga oshirildi.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o’quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanganligini o’rganishda umumta’lim maktablarida o’tkazilgan tajriba-sinov jarayonida darslikdagi har bir mavzuning DTSga mosligi, o’quv materialining o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishidagi sifat ko’rsatkichlar, mavzularining tadrijiyligi, mavzularni bayon etishda uzviylik va uzluksizlikning ta’minlanish va boshqa fanlar bilan aloqadorlik darajasi tajribachi-o’qituvchilar tomonidan kuzatildi. Tajriba-sinov maydonlari sifatida belgilangan maktablardan olingan natijalar ilmiy-metodik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’tkazilgan.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko’ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba so’ngidagi o’quvchilarida tajriba avvalidagi o’quvchilariga nisbatan bilim, ko’nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Ushbu jarayonni to’liq baholash maqsadida statistik analiz amalga oshiriladi, olingan xulosalargina tajriba ishlarining ilmiy, texnologik, pedagogik va metodik jihatdan to’g’ri samarali olib borilganligini tasdiqlaydi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko’rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko’ra dastlabki bosqichda tajriba avvalidagi va tajriba so’ngida qayd etilgan statistik ko’rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko’rsatkichlari bo’yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo’ldi. Bu diagrammada quyidagi ko’rinishni oldi.

1-diagramma.



Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba so‘ngidagi yuqori va o‘rtacha ko‘rsatkichlar tajriba so‘ngidagi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan. Chizilgan diagrammalarning har biri statistik jadval normal taqsimotga ega bo‘lgan bosh to‘plamlardan olinganligi haqidagi faraz-gipotezani oldinga surish mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Muammoni nazariy metodologik asoslarini o‘rganish jarayonida biz quyidagilarni aniqladik: Dunyoda umumiy o‘rta ta‘lim jarayonida o‘quv fanlarini o‘rganishda uzviylik va tizimlilikni amalga oshirish, ta‘lim muhitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, uni amalga oshirishning infratuzilmasini ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda. Ta‘limni axborotlashtirish jarayonida o‘quvchi shaxsini aqliy-intellektual jihatdan rivojlantirishning samarali parametrlarini tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Tadqiqot jarayonida turli soha vakillarining “axborot”, “axborotlashtirish”, “intellekt” tushunchalarini mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan fikr mulohazalarini tahlil etish, ta‘limni axborotlashtirish muhitiga qaratilgan va o‘quvchilarning intellektual salohiyatni yuzaga chiqarish muammosiga oid turli yondashuvlarni o‘rganish, aynan axborotlashgan ta‘lim sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik ilmiy tadqiqot ishlariga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Tadqiqotda intellektual salohiyat tushunchasi va uning o‘quvchi shaxsiga qaratilgan jihatlari jahon miqyosida o‘rganildi, respublika olimlarining yondashuvlari tahlil etildi, chet el tajribalari asosida ushbu tushunchaning mohiyati yoritildi va mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi. O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda yuzaga kelgan ijtimoiy-pedagogik va psixologik salbiy omillar aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida umumiy o‘rta ta‘limda axborot texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari, intellektual muhitning ko‘rsatkichlari, komponentlari (hissiy, tarbiyaviy, kognitiv, informatsion), o‘quvchilarda ushbu sifatni rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalari (hamkorlik, sabrlik, kreativlik, entuziazm, ishonch, fidoyilik, nizolarni hal qilish, tashkilotchilik, liderlik, moslashuvchanlik) keltirildi. Maktab tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida ta‘limni intellektual isloh qilishga qaratilgan konsepsiya va o‘quvme‘yoriy hujjatlar tahlil etildi. Shunga asosan, ta‘limni axborotlashtirish sharoitida umumiy o‘rta ta‘limning o‘quvchilari intellektual salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliyotdagi mavjud imkoniyatlar o‘rganildi hamda mazkur muammoning yechimini topishga qaratilgan tizimli vazifalar belgilab olindi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-con “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313- sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712- sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son. <https://lex.uz/docs/4312785>
5. Abduqodirov A.A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. -145-b. 117
6. Barotov A.S. O‘zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari: Psix.fan.dok. ...dis. – T.: 1997. – B. 13-15.
7. Barron F., Harrington D. Creativity, intelligence and personality // Ann.Rev of Psychol. – 1981. – Vol 32. – P. 439-476.
8. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.doktori diss. – T.: TDPU, 2007. -250-b.
9. Boqiyev R.R., Mamajonova M.E. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2003. - №2, - B. 73-77.



Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
xafiz1068@gmail.com

O'SMIRLARNI KASBGA YO'NALTIRISH JARAYONIDA MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETILISHINING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada o'smirlar kasb tanlash jarayoniga mahallada psixologik xizmatning tashkil etilishi o'smirlarni kasbga yo'naltirishdagi muayyan psixologik muammolarini bartaraf etish haqida so'z boradi. Mahalladagi qadriyatlarni o'rganish va shu qadriyatlarning ta'sirchanligiga tayanib uch avlod uchrashuvini tashkil etish asosida o'smirlarga psixologik ta'sir ko'rsatish doirasini kengaytirish. O'smirlardagi kasb tanlashga oid u yoki bu muammolarni bartaraf etish va o'z tajribalari hamda bilimlari asosida yoshlarga kasblar haqida tushunchalar berish, ularni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish va kasb tanlashga o'rgatish, o'smirlarning ijtimoiy mobilligi va kasbiy o'sishini ta'minlash, kasbiy motivlarning shakllanish omillari to'g'risida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, kasb, shaxs, mahalla, ta'lim, tarbiya, oila, kasb tanlash, motiv, qiziqish, qobiliyat, iroda, barqarorlik, muhit, avlod, faoliyat, aholi, psixologik xizmat.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В МАХАЛЛЕ В ПРОЦЕССЕ ПРОФИОРИЕНТАЦИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье говорится об организации психологической службы по месту жительства для процесса выбора профессии подростками, а также о способах устранения некоторых психологических проблем при направлении подростков в профессию. Анализируются расширение сферы психологического воздействия на подростков на основе изучения ценностей соседства и организации встречи трех поколений на основе эффективности этих ценностей, устранение тех или иных проблем, связанных с выбором профессии среди подростков и предоставление молодым людям представлений о профессиях на основе собственного опыта и знаний, направление их к правильной профессии и обучение выбору профессии, социальная мобильность подростков и обеспечение профессионального роста. Приводятся научные выводы о факторах формирования профессиональных мотивов.

Ключевые слова: подросток, профессия, личность, махалля, образование, воспитание, семья, выбор профессии, мотив, интерес, способности, воля, стабильность, среда, поколение, деятельность, население, психологическая служба.

PRACTICAL BASES OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICE IN MAKHALLA IN THE PROCESS OF CAREER GUIDANCE OF ADOLESCENTS

Abstract. The article talks about the organization of psychological service in the neighborhood for the process of choosing a profession by adolescents, as well as about the ways of eliminating some psychological problems in directing adolescents to a profession. The expansion of the sphere of psychological influence on adolescents on the basis of studying the values of neighborhood and organizing the meeting of three generations on the basis of the effectiveness of these values, elimination of some problems related to the choice of profession among adolescents and providing young people with ideas about professions on the basis of their own experience and knowledge, directing them to the right profession and teaching them to choose a profession, social mobility of adolescents and ensuring professional growth are analyzed. Scientific conclusions about the factors of formation of professional motives are given.

Keywords: adolescent, occupation, person, neighborhood, education, upbringing, family, career choice, motive, interest, ability, will, stability, environment, generation, activity, population, psychological service.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va o'rgatish, bunda ularning qiziqishi va qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratish, o'zlari tanlagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, buning uchun o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni professional mutaxassislar bilan ta'minlash

dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yoshlarning jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish kechiktirib bo'lmas vazifalardan bo'lib, bunda yoshlarni kasb-hunarga yo'llovchi ta'lim muassasalarining roli har qachongidan ham ahamiyatli bo'lmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaga oid islohatlarning asosida yoshlarga ilm-fan asoslarini puxta o'rgatish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, farzandlarimizni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash va ularga samarali ta'lim-tarbiya berish kabi muhim vazifalar tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ko'p tarmoqli va keng ko'lamli jarayon ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Qolaversa, har bir ijtimoiy tizimda psixologik xizmatning joriy etilishi shu tizimda faoliyat yuritayotgan shaxs va ijtimoiy taraqqiyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'ylaymizki, ushbu "ta'minot" ning qanchalik mukammal va ilmiy tarzda tashkil etilishi shu hududda istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning alohida shaxs sifatidagi ijtimoiy-psixologik istiqbollarni belgilab berishga xizmat qiladi. Bugungi kunda psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti barcha davlatlarda turlicha ko'rinishlarda amalga oshirilmoqda. Aynan mahalla hayoti bilan bog'liq psixologik tadbirlarning olib borilishi ushbu tizimda o'ziga xos ijtimoiy omillarning yaqqol namoyon etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, mahalla tizimi va bu tizimga hukumat tomonidan yuksak e'tiborning qaratilishi faqatgina bizning mamlakatimizda va bizning ming yillik qadriyatlarimizga xos va mosdir.

Asosiy qism. Mahallada uch avlod uchrashuvini tashkil etish asosida yoshlarga psixologik ta'sir etish doirasini kengaytirish kabi samarali tadbirlarni o'tkazilishi ayni paytda, mahallalar qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i bo'lgan, milliy urf-odat an'analar shakllangan maskan hisoblanishi va bu odamlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, bag'rikenglik va hamjihatlik qaror topishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ham bizdagi mahallalar mamlakatimizda davlat boshqaruvining birlamchi bo'g'ini, asosiy ustuni sifatida e'tirof etilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda respublikamizda mahalla instituti taraqqiyoti uchun juda ko'plab ishlar qilinmoqda. Ayni paytda mahallada yashovchi fuqarolarning o'zaro munosabati, muloqoti, ulardagi ma'naviy-psixologik jihatlarning tadqiq qilinishi orqali har bir mahallada psixologik xizmat ko'rsatish bo'limlari ochilmoqda. Ayniqsa, mahalladagi uyushmagan yoshlar bilan ishlash, notinch oilalar va nogironlar bilan ishlashdagi psixologik muammolar asta-sekin yechilib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Ilm-fanda xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladigan o'z yo'limizni topmasak, ertaga yoshlarimiz bizni kechirmaydi"- deb ta'kidlaganlaridek, xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladigan, ular "tushunadigan", qabul qiladigan ma'lumotlarni tayyorlab, ular e'tiboriga havola etish lozim.

Mahallada o'ziga xos tartibda uyushgan va uyushmagan yoshlar guruhi nisbatan ko'pchilikni tashkil etishini hisobga olib mahalla profilaktika nozirlari, ta'lim muassasa rahbarlari hamda, ota-onalar hamda boshqa ijtimoiy tashkilotlar rahbarlar bilan doimiy hamkorlikda ish ko'lamini belgilash va shu asosda bugungi yoshlarning o'ziga xos muammolarini yechishga qaratilgan manzilli chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mahallada voyaga yetmagan o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikning sodir etilishi va suidsid holatlariga olib keluvchi omillarni muayyan psixologik tamoyillar asosida tahlil qilib, ushbu holati moyilligi bor shaxslarni aniqlashga qaratilgan usullar majmuasini qo'llash orqali tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish mahalla psixologlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i hamda mahallada tashkil etilgan psixologik xizmatni bugungi ijtimoiy-psixologik nazariy-metodologik jihatdan tadqiq qilish bilan birga uning amaliy asoslariga daxldor tadqiqot metodikalari hamda ushbu metodikalarning amaliyotda qo'llash tartiblari haqida batafsil fikr va mulohazalarni chuqurroq tahlil qilishni taqozo etadi.

Jumladan, Samarqand, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarida olib borilgan kontent-tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat ota-onalarning xolisona javoblarida mahallada o'smirlarni kasbga yo'naltiradigan psixologik xizmatning nihoyatda zarurligi haqida e'tirof etilgan. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Kasb tanlash, kasbiy jihatdan o'zini anglash va kasb tanlashning yoshga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha mamlakatimiz psixologiyasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham bu sohada muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda olimlarimiz E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, A.Abdullayev, Z.Abdurahmonova, N.Axmedov, R.Asomova, B.Jo'raev, U.Jumayev, N.Zaretdinova, K.Qodirov, G.Ochilova, U.Sultonov, O.To'ychiyev, N.Xalilova, N.Xolyigitova, N.Qosimova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari

juda muhim bo‘lib, mazkur izlanishlarda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish va o‘qitish, o‘quv va kasbiy faoliyat motivatsiyalari haqida muhim ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Psixologiya fanlari doktori professor V.M. Karimova mazkur muammoni samarali o‘rgangan olimlardan biri bo‘lib, o‘z ilmiy izlanishlarida kasb tanlash tizimida oila ijtimoiy institutiga alohida urg‘u beradi. Jamiyatda takrorlanmas qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib boruvchi meroslar ko‘p bo‘lib, uzoq asrlar davomida oilalar sulolasida davom etib kelayotgan kasblar bunga misol bo‘ladi. Hunarmandchilik, kosiblik, kulolchilik, gulchilik, rassomchilik, tikuvchilik va boshqa bir qator kasblar uzoq asrlar davomida saqlangan kasblar qatoriga kiradi. [41] Asrlar davomida saqlanib kelgan bunday kasblar bugungi kunda ham keng qo‘llanilishi ahamiyatli hisoblanadi.

S.U.Abdullayev esa o‘z ilmiy izlanishlarida aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlarini o‘rganish borasida tadqiqot olib bordi. Tadqiqotchining tahliliga ko‘ra, ijtimoiy raqobat tobora o‘sib borayotgan sharoitda malakali kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirishda pedagog shaxsining mustaqil ravishda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini takomillashtirish zamon talabiga aylanib borayotganligi, “ta’lim ishlab chiqarish kasbiy malaka oshirish qayta kasbga tayyorlash ishlab chiqarish” kabi ijtimoiy tizimni amalda tatbiq etishni taqozo etadi. Aholini ish bilan ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish huquqiy, tibbiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarga ega bo‘lishi bilan birga, belgilangan meyor va taqiqlarga amal qilishni taqozo etadi. Shuning uchun “mahalla ishlab chiqarish bandlik markazi oila kasbga tayyorlash kurslari ishlab chiqarish ishchi ta’lim muassasasi” kabi munosabatlar konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir [5]

Kasbiy faoliyatga xos shaxs kompetentligi shakllanishi asoslari O.E. Hayitov tadqiqotida yoritilib kasbga xos kompetentlik shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. [108] Ushbu jihatni inobatga olgan holda yoshlarni qobiliyati bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish ularda tanlangan kasbga kompetentlik shakllanishi asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz boshqalardan biroz farqli ravishda o‘smirlarni kasbga yo‘naltirishda mahalla tizimida psixolog xizmatini Respublikamizdagi barcha mahallalarga, oilalarga, ota-onalarga hamda o‘smirlarga psixologik xizmat ko‘rsatish ishlarini yuqori darajada yo‘lga qo‘yish. Har bir mahalladagi nosog‘lom muhitning psixologik ildizlarini aniqlash va uni korreksiyalashning muayyan imkoniyatlarini ochib berish va ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri natijasida «moddiy qiziqish», «shaxsiy qaror qabul qilish», «oilaviy qadriyatlar» kabi kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi va chidamliligini aniqlashga qaratilgan.

1-jadval.

Tadqiqotning umumiy ishtirokchilar soni

Hudud	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			jami
	O‘g‘il	Qiz	jami	O‘g‘il	Qiz	jami	
Samarqand viloyati	35	31	66	23	22	45	111
Qashqadaryo viloyati	47	35	82	34	31	65	147
Surxondaryo viloyati	39	37	76	28	25	53	129
Jami	121	103	224	85	78	163	387


Mahallalar kesimida o‘smirlarni kasb tanlashiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishi Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida olib borilgan. Tadqiqot obyekti sifatida o‘smir yoshidagi maktab o‘quvchilarining jami 387 nafari ishtirok etgan. Jami ishtirokchilar o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari borasidagi dastlabki so‘rov natijalariga asosan, tajriba guruhida (TG) 224 nafar va nazorat guruhida (NG) 163 nafar ishtirokchi qatnashgan.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida o‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar, kasbiy qiziqish sohalari, kasbiy tiplari, kasbiy yo‘nalganligi, tanlangan kasbda chidamliligi va barqarorligini o‘rganishga mo‘ljallangan psixodiagnostik testlar qo‘llanilgan. Diagnostika jarayonida olingan ma’lumotlarni matematik statistik va korrelyatsion tahlil qilingan. Statistik tahlil G belgi mezoni, F-Fisher mezoni, t-student mezoni orqali, korrelyatsion tahlil Pirson mezoni orqali amalga oshirilgan hamda tahlil natijalarining ishonchlilik darajalari aniqlangan.

O’smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar
n=387 / Tajriba guruhida n=224/ Nazorat guruhida n=163

№	Omillar	Tajriba guruhi	%	Nazorat guruhi	%	jami	%
1.	Shaxsiy qaror	21	9,4	18	11,0	39	10,1
2.	Moddiy holat	47	21,0	36	22,1	83	21,4
3.	Oilaviy qadriyat	29	12,9	16	9,8	45	11,6
4.	Ota-ona fikri	36	16,1	29	17,8	65	16,8
5.	Do’stlar	19	8,5	15	9,2	34	8,8
6.	Orzudagi shaxs	27	12,1	17	10,4	44	11,4
7.	Pedagog yoki mas’ullar	21	9,4	16	9,8	37	9,6
8.	Boshqa sabablar	24	10,7	16	9,8	40	10,3
	Jami	224		163		387	

O’smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash bo’yicha anketa so’rovnoma natijalari 1-rasmda diagramma shaklida berilgan.




1-rasm. O’smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar

Anketa so’rovnoma yordamida jami ishtirokchilardan olingan natijaga ko’ra o’smirlarda kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko’rsatkichiga ko’ra moddiy holat, ota-ona fikri va oilaviy qadriyat ketma-ketligidan iborat bo’lgan. Moddiy holat omili o’smirlar o’rtasida bugungi kunda asosiy ehtiyojga aylanib qolayotganligi ifodalangan. O’smirlar kasb tanlashda mas’uliyat bilan yondashish o’rniga moddiy holatga qiziqish bilan yondashmoqda. Ularda yoshlik davridan ko’p mablag’ orttirish va tez boy bo’lish kabi vaqtinchalik havas ustunlik qilayotganligi namoyon bo’lgan. Ota-ona fikri yoki oilaviy qadriyat bilan kasb tanlashga harakat qilayotgan o’smirlarda kasbning mohiyatini to’liq anglamasdan, shunchaki kattalarning fikri asosida ish tutayotganligi, biror kasbga o’zining shaxsiy qiziqishi yo’qligini, kasb tanlashga to’liq tayyor emasligini ifodalaydi.

O’smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo’yicha barcha viloyat ishtirokchilari natijalari moddiy holatni asosiy omilini sifatida ko’rsatdi. Yoshlar o’rtasida negadir yoshlikdan tez boy bo’lishga intilishni ko’rsatadi. Bu esa ularning kelajakda yanada taraqqiy etadigan kasbni tanlash va unga zaruriy bilimlarni egallashga intilishdan ko’ra vaqtini o’tib ketuvchi havaslarga sarflashiga sabab bo’ladi. Demak, o’smirlar kasblarning mohiyatini anglashi, o’zining qobiliyatiga mos bo’lgan hamda kelajakda yanada taraqqiy etadigan kasblarni shaxsiy qaror omili asosida tanlashi kerak. Faqat shunday holatda ular o’z kelajagida kasbiy taraqqiyotga erishadi.

Anketa so’rovnoma yordamida o’smirlarning asosiy kasbiy qiziqishlari o’rganildi. So’rovnoma natijasiga asosan ayni o’smirlar davridagi shaxslar qiziqishi yuqori bo’lgan 7 ta asosiy kasb turlari aniqlandi: o’qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor, iqtisodchi, san’atkor kasblari. So’rovnoma natijalari hududlar kesimida va umumiy ishtirokchilar soni bo’yicha diagramma shaklida keltirilgan.


Samarqand viloyati o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar 2-rasmda diagramma shaklida berilgan.



2-rasm. O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari (Samarqand viloyati misolida)

Samarqand viloyati ishtirokchilaridan olingan so‘rovnomada o‘smirlar ijtimoiy hayotda ko‘proq ko‘zga tashlanuvchi, ya’ni o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor kabi kasblarni tanlashni ma’qul ko‘rishmoqda. O‘smirlar kasblar professiogrammasi bilan to‘liq tanishmaganligi sababli yana qanday kasblar borligini to‘liq bilishmaydi. Ularda ota-ona, qadriyat yoki taniqli shaxslarga havas qilish hamda ijtimoiy hayotda ko‘p qo‘llanilishiga asosan an’anaga aylangan kasblarni tanlashga harakat qilmoqda. Ularga boshqa zamonaviy va dunyoviy kasblar professiogrammasi tanishtirilsa, albatta, an’anaga aylangan kasblar bilan cheklanmasdan boshqa kasblarga ham intilish paydo bo‘ladi. Bu esa boshqa sohalarining ham yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Qashqadaryo viloyati o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar 3-rasmda diagramma shaklida berilgan.




3-rasm. O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari (Qashqadaryo viloyati misolida)

Qashqadaryo viloyati ishtirokchilarining so‘rovnoma natijalariga asosan ushbu viloyat o‘smirlari ham hozirgi ijtimoiy hayot tarzida ko‘p uchraydigan o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor kabi kasblarni tanlashni maqsad qilgan. O‘smirlar kasblar professiogrammasi bilan to‘liq tanishmaganligi sababli yana qanday kasblar borligini to‘liq bilishmaydi. Ularga boshqa zamonaviy va dunyoviy kasblar professiogrammasi tanishtirilsa, albatta, an’anaga aylangan kasblar bilan cheklanmasdan boshqa kasblarga


ham intilish paydo bo‘ladi. Bu esa boshqa sohalarning ham yanada rivojlanishiga yordam beradi. Ular an’anaga aylangan kasblarni ota-ona, qadriyat yoki taniqli shaxslarga havas qilish natijasida tanlashga harakat qilmoqda.

Surxondaryo viloyati ishtirokchilaridan olingan so‘rovnomada o‘smirlar ijtimoiy hayotda an’anaga ko‘proq aylangan o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor kabi kasblarni tanlashni ma’qul ko‘rishmoqda. O‘smirlar kasblar professiogrammasi bilan to‘liq tanishmaganligi sababli yana qanday kasblar borligini to‘liq bilishmaydi. Ularda ota-ona, qadriyat yoki taniqli shaxslarga havas qilish hamda ijtimoiy hayotda ko‘p qo‘llanilishiga asosan an’anaga aylangan kasblarni tanlashga harakat qilmoqda. Ularga boshqa zamonaviy va dunyoviy kasblar professiogrammasi tanishtirilsa, albatta, an’anaga aylangan kasblar bilan cheklanmasdan boshqa kasblarga ham intilish paydo bo‘ladi. Bu esa boshqa sohalarning ham yanada rivojlanishiga yordam beradi. Surxondaryo viloyati o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar 4-rasmda diagramma shaklida berilgan.



4-rasm. O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari (Surxondaryo viloyati misolida)

Surxondaryo viloyati ishtirokchilaridan olingan so‘rovnomada o‘smirlar ijtimoiy hayotda an’anaga ko‘proq aylangan o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor kabi kasblarni tanlashni ma’qul ko‘rishmoqda. O‘smirlar kasblar professiogrammasi bilan to‘liq tanishmaganligi sababli yana qanday kasblar borligini to‘liq bilishmaydi. Ularda ota-ona, qadriyat yoki taniqli shaxslarga havas qilish hamda ijtimoiy hayotda ko‘p qo‘llanilishiga asosan an’anaga aylangan kasblarni tanlashga harakat qilmoqda. Ularga boshqa zamonaviy va dunyoviy kasblar professiogrammasi tanishtirilsa, albatta, an’anaga aylangan kasblar bilan cheklanmasdan boshqa kasblarga ham intilish paydo bo‘ladi. Bu esa boshqa sohalarning ham yanada rivojlanishiga yordam beradi. Umumiy ishtirokchi soni asosida o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar 5-rasmda diagramma shaklida berilgan.



5-rasm. O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari (Umumiy ishtirokchilar soni)

Umumiy ishtirokchi soni asosida o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor, iqtisodchi, san’atkor kasblari ketma-ketligida namoyon bo‘lgan. Barcha viloyatlar ishtirokchilari so‘rovnoma natijalari o‘smirlar an’anaga aylangan kasblarni tanlashni ma’qul ko‘rishmoqda. O‘smirlar kasblar professiogrammasi bilan to‘liq tanishmaganligi sababli yana qanday kasblar borligini to‘liq bilishmaydi. Ularda ota-ona, qadriyat yoki taniqli shaxslarga havas qilish hamda ijtimoiy hayotda ko‘p qo‘llanilishiga asosan an’anaga aylangan kasblarni tanlashga harakat qilmoqda. Ularga boshqa zamonaviy va dunyoviy kasblar professiogrammasi tanishtirilsa, albatta, an’anaga aylangan kasblar bilan cheklanmasdan boshqa kasblarga ham intilish paydo bo‘ladi. Bu esa boshqa sohalarning ham yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Viloyatlar bo‘yicha mahallalar kesimida o‘smirlarni kasbga yo‘naltirishda psixologik xizmatni o‘rni anketa so‘rovnomasi yordamida o‘rganildi. Tahlil natijasiga asosan, o‘smirlarda kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar va o‘smirlar shaxsining kasbiy qiziqish sohalari moddiy holat, ota-ona fikri va oilaviy qadriyat ketma-ketligidan iborat ekanligi aniqlandi. Mahalla tizimida aholining psixologik savodxonligini oshirish uchun xududlardagi kompetentli psixologlar salohiyatidan foydalangan holda tizimli ravishda psixologik suhbatlar, maslahatlar va trening mashg‘ulotlarini olib borish lozim. Mahallada psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini muvaffaqiyatli darajada tashkil etish uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan psixoprofilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion metodikalarning muayyan imkoniyatlaridan o‘rni bilan foydalanish talab qilinadi. Shuningdek, mahalla psixologi tomonidan, unda istiqomat qiluvchi har bir oiladagi shaxslar va shaxslararo munosabatlar shakllangan bo‘lishi lozim bo‘ladi. Bu esa har bir shaxsga nisbatan individual-psixologik yondashuv usulini qo‘llash uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PF-6208-son “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 170 b.
5. Abdullayev S.U. Aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 22.00.02. – T., 2021.
6. Hayitov O.E. Oliy ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fanlari doktori (DSc) diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: TDPU, 2020.
7. Батырева М.В. Процесс профессионального самоопределения городской молодежи. авторефер. дисс. канд. социол. наук.: 22.00.04. – Тюм.: 2003.
8. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень. – СПб.: Питер, 2011.-224 с.



Bilolova Zamira Baxtiyarovna,
*Alfraganus university Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
zamira.bilolova@gmail.com*

YOSHLARNI OTA-ONALIK MAS'ULIYATIGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda ota-onalik mas'uliyatini oshirish, ularni ota-onalikka tayyorlash bo'yicha G'arb va Sharq olimlarining ilmiy qarashlari, O'zbekistonda yoshlarni ota-onalik mas'uliyatiga tayyorlashga oid olib borilgan tadqiqot natijalari, shuningdek, muallif xulosalari va tavsiyalari berilgan.

Kalit so'zlar: ota - onalik mas'uliyati, ota-onalikka tayyorlash, oilaning tarbiyaviy funksiyasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЁЖИ К РОДИТЕЛЬСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье представлены научные взгляды западных и восточных учёных на повышение у молодёжи родительской ответственности, подготовку её к отцовству и материнству, результаты исследований по подготовке молодёжи к родительской ответственности в Узбекистане, а также выводы и рекомендации автора.

Ключевые слова: родительская ответственность, подготовка к отцовству и материнству, воспитательная функция семьи.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR PARENTAL RESPONSIBILITY

Abstract. In this article, the scientific views of Western and Eastern scientists on increasing parental responsibility in young people, preparing them for parenthood, the results of research on preparing young people for parental responsibility in Uzbekistan, as well as the author's conclusions and recommendations are given.

Keywords: parental responsibility, preparation for parenthood, educational function of the family.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriridagi 2023-yil 30-aprelda umumxalq Referendumi orqali qabul qilingan variantida ota-onalar zimmasiga bolaning ta'limi, sog'lom va to'laqonli kamol topishi haqida qayg'urish qo'shilganligi bu mamlakat kelajagini o'ylashning oliy namunasi etib baholash o'rinlidir [1].

Jahonda otalik yoki onalik maqomiga ega bo'lishning noan'anaviy ko'rinishlarining ko'payishi, oilanikoh munosabatlarining transformatsiyasi, yoshlarning quradigan oilalarida tarbiyaviy funktsiya rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizlik holatlarining jamiyatga salbiy ta'sir etishi sababli oilani mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. «...Bunday tendensiyalar, jumladan, oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqaradi...» Bu borada ota-ona mas'uliyati va farzandlar tarbiyasi masalalarining o'zaro aloqalarini saqlab qolish, oila muhitida kelajak avlod shakllanishini inobatga olish, turmush qurmagan yigit-qizlarda oila muqaddasligi va oila munosabatlariga mas'uliyat bilan yondashish psixologiyasini shakllantirishda ularning nikohgacha ijtimoiy tasavvurlarini prognozlash masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Bo'lajak onalarimiz - hozirgi kunimizning yosh qizlaridir.

Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning "Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating", - degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyasi hamda aqlli bo'lsa, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladagi muhit ham sog'lom bo'ladi, farzandlar yetuk inson bo'lib tarbiyalanadilar. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga va onalikka ma'naviy-psixologik tayyorgarlik holati, psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir [2,7].

Ma'lumki, o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyati oilada otaning yetakchiligini belgilaydi. Oilada o'g'il bola tarbiyasida otaning o'rni ustuvordir. O'g'il bolada erkaklik (maskulinlik), yigitlikka xos

jihatlar ota timsoli orqali shakllanib boradi. O‘g‘il otadan munosabat ko‘rinishlarini, yurish-turishni, muomalani, o‘zini tutishni o‘rganadi. Bola xarakterida u yoki bu salbiy illatlar shakllanishida ham ota-onaning o‘zaro munosabatlari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga nisbatan munosabatlari, yurish-turishi, ma‘naviyati, axloqi, uy-ro‘zg‘or tutumidagi pala-partishligi albatta o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Ota-onaning bir-biriga nisbatan munosabatini ko‘rgan, undan namuna olgan o‘g‘il bola kelgusida oila qurganda o‘z turmush o‘rtog‘i bilan shunday yashashga tayyor bo‘lib boradi. [2,8,9,10]

Oilani mustahkamlashda yigitlar ongida oila munosabatlariga adekvat munosabatni shakllantirish borasida muammolarimiz bisyor. Yil sayin oila ajrimlari soni ortib borayotganligi, har bir yetim qolayotgan farzand, yolg‘iz ona tarbiyalayotgan bolalarning ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, yigitlar o‘rtasidagi jinoyatchilik kabi muammolar yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muayyan kamchiliklar borligini ko‘rsatib turibdi. Afsuski, bugungi kunda erkaklarning oila, umuman, jamiyatdagi rolga nisbatan munosabat asta-sekinlik bilan o‘zgardi. Yosh oilalar o‘rtasida ajrashishlardagi mavjud tendensiyaning o‘sishi o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda muammolar paydo bo‘lganini ko‘rsatdi. Oilalar, avvalo, erkak kishining o‘z oilasi, rafiqasi va farzandlari oldida mas‘uliyatni his qilmasligi oqibatida barbod bo‘lmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, ajrashishdan so‘ng 86 foiz bola o‘z onasi qaramog‘ida qoladi. Otasiz o‘sgan bolalar, odatda, agressiv bo‘ladi (tajovuzkor), doim o‘zini kamsitilgandek his qiladi. Natijada o‘smirlar orasida jinoyatchilik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy ijtimoiy xodisalar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. [3]

Xorij psixologiyasida bola shaxsining shakllanishi, unda biologik va ijtimoiy omillarning nisbati borasidagi tortishuvlarning avj olishi munosabati bilan, ya‘ni «tabiat» (irsiyat, tug‘ma layoqatlar va boshqa individ dunyoga kelishida unda bo‘ladigan jamiki narsalar) va «tarbiya» (odam tug‘ilganidan so‘ng u tashqaridan oladigan barcha ta‘sirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi) o‘rtasidagi nisbatlar masalalariga oid qarashlarning o‘zaro munosabatlari borasida Z.Freyd ta‘limotlari asosida yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Z.Freyd jamiyatda sodir bo‘layotgan jinoyatlarning aksariyati bolaligida ota-onasi bilan o‘zaro uyg‘un munosabatda bo‘lmagan, nosog‘lom psixologik muhit hukm surgan oilalarda tarbiyalangan, ota-ona mehri qonmay o‘sgan shaxslar tomonidan sodir etilishini asoslab berdi. Bu bilan u ota-ona va farzandlarning o‘zaro munosabatlarini maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinishi nafaqat shaxsning shakllanishida, balki jamiyat taraqqiyoti, odamlarning dahlsizligining ta‘minlanishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi [3].

Z.Freyd ta‘limotining davomchilaridan biri neofreydist E.Fromm ota-ona va bola munosabatlarining ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan turli tirlarini tadqiq etib, bu munosabatlar rivojlanishining madaniy-ijtimoiy qonuniyatlarini, bolaning ijtimoiylashuvi mexanizmlarini asoslab berdi [4]. Ota-ona va bolaning o‘zaro munosabati muammolariga neofreydistik yondashuvning ijobiy jihati shundan iboratki, unda bola tarbiyasi, avlodlararo munosabatlar masalalariga differensial yondashish masalasi ilgari surildi va tadqiqotlar natijalari ilk bor proektiv testlar, turmush tarixini o‘rganish, tushlar va fantaziyani mazmuniy-psixologik talqin etish psixologik metodlari bilan boyitildi.

O‘zbek oilalarining jamiyat oldidagi asosiy vazifalaridan biri bu - farzandni tarbiyalash bo‘lib, ushbu vazifani bajarish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. G‘.B.Shoumarovning ishlarida oila, uning turi, oilaviy munosabatalarda er va xotin, qaynona va kelin, ota ona va farzandlar orasida yuzaga keladigan muammolar yuzasidan o‘rganish olib borilganligi kuzatiladi. Uning oila psixologiyasida ahamiyatga molik ishlaridan yana biri nikoh oldi va yosh oilani shakllanishida nomutanosiblikni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Olimning ta‘kidlashicha, ziddiyatlarning asosiy sababi, ularning ota-ona oilasida qabul qilingan noto‘g‘ri er-xotin rolli xatti-harakatlari hisoblanadi [6].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston yoshlarini mustahkam oilaviy munosabatlarga va ota-onalikka tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq qilish maqsadida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada O‘zbekistondagi barcha viloyatlar bo‘yicha 1400 nafarga yaqin 16 yoshdan oshgan qizlar va 18-24 yoshdagi yigitlar qatnashdi. So‘rovnomada qatnashgan qizlarga “Siz o‘zingizni oila qurgandan so‘ng onalik mas‘uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?”-degan savol bilan murojaat etildi. 88 % qizlar onalik mas‘uliyati katta ekanligini anglagan holda, bunga tayyor bo‘lish uchun bilimlari va tasavvurlari kamlik qilayotganligini, o‘zlarida onalik mas‘uliyatiga nisbatan to‘liq ishonch bo‘lishi uchun yanada ko‘p izlanishlari va aniq bilimlarni olishga nisbatan yuqori istaklari borligini ko‘rsatadi. Bu esa birinchidan, qizlarning tasavvurlarida reproduktiv salomatlik; homiladorlik va tug‘ruq; onalik mas‘uliyati; komil insonni tarbiyalashda oilaning va onaning o‘rni; farzand tarbiyalashda yosh xususiyatlarini inobatga olish; onalikka tayyorlashda ma‘naviy-psixologik bilimlarini shakllantirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimligini, ikkinchidan, erta tug‘ruqni oldini olish zarurati o‘z isbotini toradi. 44 foiz sinaluvchi-yigitlar tasavvurlarida oilaning tarbiyalash vazifasiga faqatgina ayollarni mas‘ul deb biladilar. Yigitlarning 44% da esa tarbiyada otaning o‘rnini, otalik mas‘uliyatini anglamasligini ko‘rsatadi Lekin, tarbiyada er-xotin

birgalikda mas’uldir. Milliy qadriyatlarimizga ko’ra, bola tarbiyasining asosi otaning qattiqqo’lligi, onaning mehribonligidadir. Bola ota-onaning butun faoliyatidagi harakatlarini ibrat bilib ongiga joylab, ulg’aygach, ularning hayotiga joriy etadi. Mutaxassislarning fikriga ko’ra, oilada ota rolining kuchsizlanishi bu katta ijtimoiy fojidadir. Boisi, bu holatda oilaning barcha ichki va tashqi tizimi, o’zini idora qila bilish va mukammal intizomga bo’lgan intilish ham yo’qoladi. Demak, olingan natijalardan yigitlarimizga oilada otaning mas’uliyati, tarbiyada otaning o’rni, komil va barkamol avlodni tarbiyalashda erkaklar rolini oshirishga qaratilgan choralarni ko’rish zarurati ko’rinadi.

O’zbek oilalarida ota-onalarning ota-onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabatlari xususiyatlarini o’rganish va o’ziga xos jihatlarini aniqlash orqali turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashda etibor berish kerak bo’lgan yo’nalishlarni belgilab olish maqsadida nemis olimi YE.Shefer tomonidan taklif etilgan “Ota-onalik ustanovka va munosabatlarini aniqlash” (PARY) metodikasidan foydalandik. Quyida shu ma’lumotlardan alohida e’tiborga loyiq jihatlarini 1-jadvalda berilgan bo’lib, izohlab o’tamiz.

Natijalardan ko’rinadiki, bugungi kun o’zbek ota-onalarining ota-onalik roliga oid ustanovkalari va munosabatlari ota-onalarning farzandlarga nisbatan o’ta g’amxo’rliqi, ularga ziyon yetkazib qo’yishdan qo’rqish, bolalardagi tobelikni rag’batlantirish, tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarining kuchliligi bilan tavsiflanadi; farzandlar bilan do’stona munosabatlar o’rnatish kabi xususiyatlar bilan birga bola bilan bo’ladigan muloqotdan qochish holatlari, tarbiyadagi diktat, xohish-istagini bosish, ularga nisbatan qattiqqo’l, talabchan bo’lish kabi xususiyatlar, otalarning erlik vazifalariga ustanovkalarining pastligi, bola tarbiyasida ko’proq qayg’urish onalarda otalarga nisbatan kuchliroq ifodalanganligi bilan izohlanadi.

1-jadval.

Ota-onalarning farzandiga nisbatan munosabatlari ko’rsatkichlari, Y.Sheferning PARU metodikasi bo’yicha, n=300

№	Shkalalar	ota	ona	t
1.	Bolaga fikrini gapirib olishga imkon berish	17.87	18.58	4.31**
2.	Bolani qiyinchiliklardan saqlash	17.89	18.84	2.43*
3.	Uy bekasi rolidagi ona	16.32	17.38	3.63**
4.	Bolaning (iroda) xohish-istagini bosish	17.34	17.54	3.64**
5.	Ota-onalar “o’zini qurbon qilishi”	17.32	18.68	3.88**
6.	Bolaga ziyon yetkazib qo’yishdan qo’rqish	17.81	18.8	3.41**
7.	Er-xotinlik nizolari	17.7	18.5	2.75**
8.	Ota-onalarning qattiqqo’lligi	17.98	17.92	0.61
9.	Ota-onalarning serjahlligi	16.21	17.8	4.18**
10.	Bolalarni ona boshqarishligi	17.96	18.9	4.27**
11.	Bola ota-onaga tobeligini rag’batlantirish	18.43	18.94	0.86
12.	Boladagi tajovuzkorlikni bosish	16.7	17.28	1.44
13.	Ota-onaning “jabrlanuvchanligi”	15.89	16.96	1.77
14.	Ota-onalar va bolalarning tengligi	18.57	17.94	5.25**
15.	Bola faolligini rag’barlantirish	18.24	19.2	3.9**
16.	Bola bilan muloqotdan qochish	17.11	17.24	0.52
17.	Erning xotinga e’tiborsizligi	16.68	18.94	2.96**
18.	Boladagi shahvoniylikni bosish	17.23	18.54	4.44**
19.	Onaning hukmronligi	17.06	18.28	4.2**
20.	Ota-onaning bola hayotiga aralashishi	17.43	18.44	3.48**
21.	Ota-ona-bola o’rtasidagi do’stona munosabat	17.64	19.12	5.92**
22.	Bola rivojlanishini tezlashtirish	17.47	16.68	0.45
23.	Bolani tarbiyasida boshqalar yordami	17.91	19.26	5.62**
	Umumiy o’rtacha ko’rsatkich	17.38	17.83	2.25*

Bunday natijalar kelgusida oiladagi o’zaro munosabatlarga salbiy ta’sir etishi, nizolarni yuzaga kelishiga zamin yaratishi nuqtayi nazaridan bo’lg’usi ota-onalarni farzand tarbiyasi va psixologiyasiga doir bilimlarini kengaytirishga ahamiyat berish kerakligini ko’rsatadi.

Turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarda ota-onalik mas’uliyatini oshirish, ularni ota-onalikka tayyorlash bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni **tavsiya** qilishimiz mumkin bo’ladi:

Yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashda eng muhim andoza ularning ota-onalari ekanligini inobatga olib, ajrashishlarni oldini olish, noqonuniy va noto'liq oilalar sonining ko'rayishiga yo'l qo'ymaslik, oilada farzand tarbiyasi va ota-onalik mas'uliyatini anglab yetishlarida oilalar mustahkamligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amaliy qo'llash zarurdir.

Yigitlarni oilada otaning o'rni va mas'uliyati, komil va barkamol avlodni tarbiyalashda erkaklar rolini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rishda asosan shaxsiy irodaviy sifatlarni rivojlantirish, rollarning ongli ravishda anglanganligiga etiborni qaratish, sabr-toqat, iroda va mas'uliyatni his etishni tarkib tortirish uchun jismoniy va ta'limiy jarayonning bevosita hamkorligini ta'minlash lozim;

Amaliy psixologlar va oila psixologlari faoliyatida foydalanishlari uchun ota-onalik mas'uliyati mavzusiga bag'ishlangan zarur ilmiy-metodik qo'llanmalarni chop etish va targ'ibotini olib borish maqsadlidir;

O'zbekiston oilalarini mustahkamlash, barqarorligini saqlash davlat siyosati darajasidagi muhim ustuvor vazifa sifatida ko'rilgan va kun tartibidagi aktual bo'lgan bir vaqtda, oilalar bilan ish olib borishning yangi innovatsion modellarini, jumladan, AKT - axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, muammoga bag'ishlangan axborot saytlari, portal, badiiy va xujjatli filmlar, ijtimoiy rolklar, video darsliklar va mobil ilovalar yaratishga oid loyihalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

2. Bilolova Z.B. Turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari: Psix.fan.falsafa doktori(RhD) dissertatsiyasi: – T.: TDPU, 2023.– 152 b.

3. Tashmuxeimova D.G., Karimova D.M. O'zbekistonda yosh oila. (Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida). Ilmiy-uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. – T.: “Yurist-media markazi”, 2019. – 128 b.

4. Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции.- СПб.: Питер, 2007. – 384 с.

5. Freud A. Research at the Hlamsted child therapy clinic and other papers. 1956 – 1965. – London, 1970.

6. Фромм Э. Искусство любви. Исслед. природы любви Пер. с англ. Л.А.Чернышевой. - Минск: Полифакт;1990. – 79 с.

7. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. G'.B. Shoumarov tahriri ostida. - Toshkent: “Sharq”, 2008. - 296 b.

8. Bilolova Z.B. Socio-psychological aspects of preparing youth of marriage age for parentity. // Central Asian Journal of mathematical theory and computer Sciences, <https://cajmtcs.centralasianstudies.org>

9. Bilolova Z.B. Socio-Psychological Representations of Youth on Parental Role in the Family American // Journal of Science and Learning for Development Volume 1 | No 2 | Dec-2022 <https://inter-publishing.com/index.php/IJISE> Published.

10.Билолова З.Б. Турмуш куриш ёшидаги қизларни оналикка тайёрлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. 2022/8-son. B.456-463.

11.Билолова З.Б. Турмуш куриш ёшидаги йигитларни оталикка тайёрлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. 2022/9-son. B.237-244.

Boltayev Sardor Ibodovich,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası tadqiqotchisi

KEKSALIK DAVRIDA EMPATIYANING NAMOYON BO'LIH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Psixologiya fanida "empatiya" tushunchasi ijtimoiy-ijobiy sifat tariqasida talqin qilinadi, shuningdek, u hayotning ijtimoiy qonun-qoidalari, mezonlari orqali qo'llab-quvvatlanadi, ammo u individual, tanlovchanlik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Xuddi shu bois, u har qanday boshqa odamlarning ruhiy, ichki kechinmalariga munosabat bildirmaydi, balki faqat muayyan qadr-qiyamat, mavqe birlamchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.*

Maqolada keksalik davrida insonlardagi empatik qobiliyatlarning namoyon bo'lish darajalari va uning psixologik xususiyatlari tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: *empatiya, idrok etish, moslashish, global, egosentrik, prosotsial, ratsional, emotsional, intuitiv empatiya.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМПАТИИ В СТАРЧЕСКОМ ПЕРИОДЕ

Аннотация. *В психологии понятие «эмпатия» трактуется социально-позитивным качеством, а также поддерживается через социальные законы и критерии жизни, но оно может носить индивидуальный, выборочный характер. Поэтому оно не реагирует на психологические, внутренние переживания любых других людей, а является только определённым показателем достоинства, положения.*

В статье анализируется уровень проявления эмпатических способностей у людей в период старения и их психологические особенности.

Ключевые слова: *эмпатия, восприятие, адаптация, глобальная, эгоцентрическая, просоциальная, рациональная, эмоциональная, интуитивная эмпатия.*

FEATURES OF EMPATHY IN OLD AGE

Abstract. *In psychology, the concept of «empathy» is interpreted by a socially positive quality, and is also supported through social laws and criteria of life, but it can be individual, selective. Therefore, he does not respond to the psychological, internal delays of any other people, but is only a certain indicator of dignity, position.*

The article analyzes the level of manifestation of empathic abilities in people during aging and their psychological characteristics.

Keywords: *empathy, perception, adaptation, global, egocentric, prosocial, rational, emotional, intuitive empathy.*

Kirish. 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida turli etik va estetik nazariyalarda odamning boshqa bir odamni bilish va tushunishga ko'mak beruvchi hamda uning odamlar bilan bo'lgan munosabatlarini aks ettiruvchi xususiyatlari tavsifi berilgan.

Mazkur nazariyalar psixologiyada empatiya fenomenini o'rganishga turtki bo'lgan. Psixologiya ilmiga empatiya terminini birinchi bo'lib E.Titchener kiritgan. Psixologik lug'atda empatiya bironing kechinmalariga kirishish emotsional holatni anglash sifatida talqin qilinadi. Empatiya fenomenini talqin etuvchi yo'nalishlar uning qanchalar ko'p qirraliligini va murakkabligini ko'rsatadi. Empatiya birinchidan idrok etilayotgan odamning kechinmalari ichki olamini modellashtirishga yo'naltirilgan psixik jarayon sifatida tushuniladi. Empatiyaga bo'lgan bunday yondashuvda uning dinamik protsessual xarakteri e'tirof etiladi. G. Barret-Lennard, V.Aykes psixik jarayon sifatidagi empatiyaga xos quyidagi 3 ta bosqichlarni farqlashadi:

Tinglovchini idrok etish va unga moslashish, empatik tushunish bosqichi, bunda subyekt boshqa odamning o'y-fikrlari va hissiyotlariga nisbatan aniq xulosalar chiqaradi.

Ushbu holatning vujudga kelishi to'g'risidagi ekspressiv ma'lumot berish, bunda subyekt bironing kechinmalari xususidagi o'z mulohazalarini ifoda etadi.

Empatik kommunikatsiya bosqichi bunda empatik tushunish dialogik yo'nalishdagi o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi va tekshiriladi.

A.P.Sopikov va T.P.Gavrilovalar empatik jarayonning quyidagi bosqichlarini farqlashgan:

Empatiya obyektining turfa oshkora o'zgaruvchilarini idrok etish, uning kechinmalari mazmuni va sifatleri to'g'risida ma'lumot olish;

Ichki loyihada empatiya obyektining oshkora va latent faoliyati modelini qurish va o'zining xususiy qadriyatleri va ehtiyojlariga qiyoslash;

Ikkinchidan, empatiya stimulg nisbatan vujudga kelgan psixik, empatik reaksiya sifatida ko'zdan kechiriladi. Empatik reaksiyalarning bir nechta ko'rinishlari mavjud:

Guruh xulq-atvoriga javoban empatiyalar;

Aniq shaxsga nisbatan empatik reaksiyalar;

Uchinchidan, empatiya murakkab affektiv-kognitiv-xulqiy tabiatga ega shaxs xususiyati yoki qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu qobiliyat birovning kechinmalariga javoban bevositalashgan emotsional reaksiyani bera olishda namoyon bo'ladi va o'z ichiga empatiya subyekting ichki holatlari, fikrlari va hissiyotlari refleksiyasini qamrab oladi. Ba'zi bir tadqiqotchilar empatiya bu birovning emotsional tajribasini o'tkazuvchi signallarga emotsional reaksiya bera olish qobiliyati deb hisoblashadi. Boshqa bir tadqiqotchilar esa empatiyani birovning kechinmalariga javoban altruistik xulq-atvorda namoyon bo'ladigan xulqiy qobiliyat deb tushunishadi.

Umuman olganda, empatiya bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o'z ichiga empatiyaning ham obyektini ham subyektinga namoyon bo'ladigan individning ijtimoiy psixologik qobiliyatleri yig'indisidir. Bunday qobiliyatlarga: boshqa birovning kechinmalariga emotsional reaksiya bera olish qobiliyatini. Birovning emotsional holatlarini anglash qobiliyati va birovning xatti-harakatlari, o'ylari hissiyotlariga xayolan o'zini ko'chira olish, boshqa odamning dardlarini yengillatish va o'zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatleri kiradi.

Empatiya shakllarini farqlashni turli mezonlari mavjud:

Empatiya tuzilmasidagi yetakchi komponent modalligi. Ushbu mezonga ko'ra, emotsional, kognitiv va xulqiy empatiyalar farqlanadi;

Empatiya genezisi. Ushbu mezonga ko'ra, global, egotsentrik va prosotsial empatiya farqlanadi.

Empatiya dispozitsionalligi mezoni. Bunga shaxsga doir va situativ empatiyalar kiradi.

Empatiyaning rivojlanganlik darajasi mezoni. Bunga elementar reflektor va shaxsga doir empatiyalar kiradi.

A.P.Sopikov empatiyaning uch ko'rinishini farqlaydi:

Emotsional, agar empatiya obyektini modellashtirish jarayonida subyektda emotsionallik ustuvorlik qilsa;

Bilishga doir (kognitiv), agar empatiya obyektini modellashtirish jarayonida subyektda informativlik ustuvorlik qilsa.

Xulqiy, agar empatiya obyektini modellashtirish jarayonida subyektda irodaviy jihatlar ustuvorlik qilsa bu hol empatiya obyektini nimagadir majburlashda va o'z navbatida uning javoban qiladigan empatiyasini kutishda ifodalanadi.

V.V.Boyko empatiyaning yetakchi tarkibiy qismi modal bo'lgan mezon bo'yicha quyidagi empatiya shakllarini farqlaydi:

- Ratsional empatiya.
- Emotsional empatiya.
- Intuitiv empatiya.

Empatiya shakllarini aniqlashni yana bir mezoni mavjud – empatik kechinmalar yo'nalganligi. Empatiyaning mazkur ko'rsatkichi shaxsning umumiy yo'nalganligi va uning qadriyatlar tizimi bilan bog'liq. Ushbu mezonga ko'ra empatiya hamdardlik va qayg'uga sherik bo'lish shakllariga bo'linadi. Ular o'rtasidagi farq namoyon bo'layotgan emotsional holatlar refleksiyasi va empatiya obyektini bilan identifikatsiyalanish darajalaridadir.

Zamonaviy psixologiyada empatiya shaxsning o'ziga ham boshqa birovga yo'nalgan bo'lishi aniqlangan. O'ziga yo'naltirilgan empatiya shakli ichki disstress yoki diskomfort hissi sifatida belgilanadi. U idrok etilayotgan obyekt holati empatiya subyekting xususiy shaxslararo ehtiyojlarini taranglashuvi vaziyatida vujudga keladi. Bunda individ empatiya obyektinikiga monand kechinmalarini his qiladi. Faqat ular o'ziga qaratilgan bo'ladi.

O'ziga yo'nalganlik uning mazmunida aks etadi:

Individ o'zining boshidan o'tganini yoki kelajakda sodir bo'lishi mumkinligini his qiladi. O'ziga yo'naltirilgan kechinmalar shaxsga doir distressning pasayishiga yordam beradi va individning psixologik barqarorligini tiklaydi. Ular himoyaviy vazifani bajaradi.

Boshqalarga yo‘naltirilgan empatiya shaklini hamdardlik yoki empatik g‘amxo‘rlik sifatida belgilashadi. Hamdardlikda individ bironing dardini o‘zirikiga bog‘lamagan holda his qiladi. U obyekt holati empatiya subyektida axloqiy motivlarni dolzarblashtirgan vaziyatda vujudga keladi.

Metodika. Aynan keksalik davrida empatiya xususiyatini namoyon bo‘lishini o‘rganish muammoning xarakterli jihatini tashkil qiladi. Biz tadqiqotimizda ushbu jihatni inobatga olgan holda keksalarning o‘zaro munosabatlari atrof dagilarga, voqea-hodisalarga, narsalarga va jonivorlarga hissiy munosabatlaridagi uyg‘unlikni aniqlash maqsadida “Empatiyaning ekspressiv diagnostika metodikasi” dan foydalandik. Metodikada empatiyaning oltita yo‘nalishi: “Ota-onaga empatiya”, “Hayvonlarga empatiya”, “Keksa kishilarga empatiya”, “Bolalarga empatiya”, “Badiiy asar qahramonlariga empatiya”, “Notanish va kam tanish kishilarga empatiya” bo‘yicha ekspressiv diagnostika o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Biz tadqiqotdan olingan natijalarni keksalardagi empatiyaga qobiliyatlik orasidagi ichki qonuniyatlarni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlilga tayanishni lozim topdik. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettirildi.

1-jadval.

Keksalik davrida empatiya darajalari o‘rtasidagi interkorrelatsion aloqadorlik

Keksalarning empatiyaga moyillik natijalari						
	Ota-onaga empatiya	Hayvonlarga empatiya	Keksalarga empatiya	Bolalarga empatiya	Badiiy asar qahramonlariga empatiya	Notanish va kam tanish kishilarga empatiya
Ota-onaga empatiya	0.451**	0.277*	0.378*	0.461**	0.245*	0.323*
Hayvonlarga empatiya	0.228	0.199	0.211	0.164	0.162	0.162
Keksalarga empatiya	0.613**	0.208	0.456*	0.361	0.227	0.245*
Bolalarga empatiya	0.425**	0.327*	0.406**	0.541**	0.268*	0.271*
Badiiy asar qahramonlariga empatiya	0.177	0.242*	0.301*	0.158	0.147	0.207
Notanish va kam tanish kishilarga empatiya	0.266*	0.174	0.278*	0.243	0.219	0.283*

Empatiya shakli shaxsning qadriyatlar tizimi munosabatlar va dunyoqarash xususiyatlari bilan belgilanadi. Egotsentrik motivatsiya, qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan individ boshqa bironing dardini ko‘rganda ichki distressni boshdan kechiradi. Prosotsial motivatsiyaga ega individlar boshqa bironlar bilan sodir bo‘lgan nohushliklarga guvoh bo‘lganda hamdardlik hissini boshdan kechiradi.

Shunday qilib, empatiya - bu murakkab, ko‘pqirrali fenomen bo‘lib, strukturasi emotsional, kognitiv va xulqiy ko‘nikma, malaka, qobiliyatlar kiradi. Empatiya tuzilishiga kiruvchi emotsional, kognitiv, xulqiy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir (garmonik-disgarmonik) kishining odamlar bilan bo‘lgan ijtimoiy-psixologik munosabatlari va muloqot tajribasi bilan belgilanadi. Aniq shaxs empatiyani o‘zgalar harakatlariga javob reaksiyalarida yoki empatiya obyekt holati bilan ro‘y bergan refleksiya qilingan kechinmalarda yoki o‘zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi malaka va ko‘nikmalarda namoyon qiladi.

Natija va muhokamalar. Keksalik davrida o‘zga insonlarga nisbatan rahmdillik, mehribonlik, qadr-qimmat kabi xislatlarning ulug‘lanishi kuzatiladi. Chunki, ijtimoiy-persepsiyaning tavsifiga ko‘ra hamda tadqiqot metodikasining mazmuniga ko‘ra ham shaxsning emotsional holati, uning tuyg‘u va kechinmalari atrof olamni idrok etish, u bilan birga o‘zini his eta olishi, atrof dagi kishilarning tuyg‘ularini o‘zida kechirishi, ularning ruhiyatini o‘zida aks ettira olishi va ularga murojaat etish shubhasiz empatiyaning mazmunida aks etadi. Empatiya shaxsning o‘zga kishilarni chuqurroq tushunishiga, olamni kengroq idrok qilishiga imkon beradi. Empatiya shaxsning o‘zga insonlardagi hissiy kechinmalarini anglash, ularni o‘zida his qilishi, ularning dardlariga sherik va hamdard bo‘la olish tuyg‘ulari bilan izohlanadi.

Tadqiqotimizda keksalar oʻrtasidagi munosabatlar oʻrtasida yigirmaga yaqin ishonchlik korrelyatsion bogʻlanishlar mavjudligi kuzatildi. Ota-onalarning empatiyaga moyillik koʻrsatkichlari “Ota-onaga empatiya” shkalasi keksalarning barcha shkalalari bilan ijobiy bogʻlanish hosil qila olgan ($r=0.451$, $p<0.01$; $r=0.271$, $p<0.05$; $r=0.378$, $p<0.05$; $r=0.461$, $p<0.01$; $r=0.245$, $p<0.05$). Bundan koʻrinadiki, ota-onalar farzandlari bilan munosabatlari sharoitida ularning atrofdagi kishilarga, voqea-hodisalarga, narsalarga befarq boʻlmasligini talab etar ekan va shunga oʻrgatishni istaganliklari maʼlum boʻldi. Ammo farzandlarning bunga munosabatlarida ota-onalari ular bilan munosabatlarida ijobiy korrelyatsion bogʻlanish bilan bir qatorda eʼtibordan chetda qoldirilgan holatlar mavjudligini qayd etganlar, yaʼni keksa ota-onalar farzandlarida hayvonlarga va badiiy qahramonlarga empatiyani yaqqolroq namoyon qilmaganliklari ($r=0.228$, p-ahamiyatsiz; $r=0.177$, p-ahamiyatsiz) va aksincha keksa kishilarga ($r=0.271$, $p<0.01$), bolalarga ($r=0.271$, $p<0.01$) kuzatildi. Qolgan shkalalar boʻyicha ota-onalar bilan farzandlar munosabatida yetakchi oʻrin bu insonlarga empatiyaning yaqqolroq namoyon boʻlishi (keksalarga empatiya - $r=0.456$, $p<0.01$, $r=0.406$, $p<0.01$ bolalarga empatiya- $r=0.361$, $p<0.01$, $r=0.541$, $p<0.01$, notanish kishilarga empatiya - $r=0.266$, $p<0.05$, $r=0.245$, $p<0.05$, $r=0.271$, $p<0.05$, $r=0.283$, $p<0.05$) koʻzga tashlanadi.

Bundan koʻrinadiki, keksa insonlar farzandlariga pand-oʻgit berayotganlarida birinchi oʻrinda diqqat-eʼtiborlarini inson qadr-qimmatini, atrofdagilarga hurmat tuygʻusi, insonlar boshiga muammolar tushganda yordam berish, ularni yaxshi tushunish va dardlariga sherik boʻlishni eʼtirof etar ekanlar. Chunki milliy va madaniy anʼanalarimizda ham inson qadr-qimmatini eʼzozlash, “Kattalarga hurmat va kichiklarga izzat koʻzi bilan qarash kerak”- degan naql doimo uqtirib kelinadi.

Ammo keksalar oʻz empatiyalarida badiiy asar qahramonlari bilan hayvonlarga empatiyada ($r=0.242$, $p<0.05$), badiiy asar qahramonlari bilan bolalarga empatiya ($r=0.268$, $p<0.05$) da bogʻlanish hosil qila olganlar. Keksalarning dastlabki tajribamizdagi singari farzandlari bilan munosabatida hayvonlarga, badiiy asar qahramonlariga nisbatan empatiyalarni namoyon qilish bir meʼyorda emasligini inobatga olishimizga toʻgʻri keladi. Bu bilan ota-onalar farzandlarining ijtimoiylashuvida tabiatdagi narsa va hodisalarga, ijtimoiy munosabatlarni real jarayonlaridan tashqari boʻlgan badiiy timsollar orqali ifodalanishini ham tarbiya muhiti uchun foydalanishlari lozim degan mulohazaga olib keladi. Ular oldingi tajribamizdagi tasviriy sanʼat asarlari orqali farzandlari bilan oʻzaro hamsuhbat boʻlishlari xususidagi tahlilimizda ham toʻkis yondashmasliklarining guvohi boʻlgan edi. Chunki oʻzbek oilasida kattaga hurmat va kichikka izzat tuygʻusini shakllantirish anʼanasi avloddan-avlodga oʻtib, shakllanib kelayotgan ijtimoiy psixologik tajriba deb bilish mumkin. Bu esa farzandni har ikki toifa insonlarni hayotiy masalalarda yordamga muhtojligi tufayli yordam berish lozim degan anʼanaviy nuqtayi nazarga tayanishni talab etadi.

Xulosa. Keksalar oʻzlarining hissiy munosabatlari sharoitida, albatta, farzandlarining qanday badiiy asarlar, kinofilmlarga qiziqishlari bilan ham qiziqib turishlari, imkon topganda ular bilan bu yuzasidan suhbatlar tashkil etishlari muhim ekan. Metodika natijalaridan shuni koʻrish mumkinki, keksalik davri shaxs taraqqiyotining yakunlovchi davri sifatida koʻrsatiladi. Shu bois, ularda oʻz farzandlariga nisbatan hamdardlik, ularning kelajagidan qaygʻurish kabilar yaqqol namoyon boʻlishi tadqiqot natijalaridan aniqlandi. Shuning bilan birga ularda yakka qolishga nisbatan qoʻrquvning mujassamligi atrofdagilarni doimiy ravishda eʼtiborini sezishlari bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Абрамова Т.С. Возрастная психология. Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Академический проект, 2001.
2. Gʻoziyev E. Psixologiya. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1994.
3. Собирова А.Б. Субъектность и особенности эмоциональной сферы на поздних этапах онтогенеза. Автореферат дисс.канд. пс. наук. Т., 2008. – 18 с.
4. Крайг Г. Психология развития. 7-изд. СПб., 2002. – Б. 745.
5. Курпатов А.В. Индивидуальные отношения. Теория и практика эмпатии / А.В. Курпатов. - Москва, 2013. – 640 с.
6. Martin L.G., Preston S.H. Demography of Aging. – Washington, D.C.: National Academy Press, 1994. p.2-3.



Djalalova Mohinur Abdusattor qizi,
Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchisi
mdjalolova@gmail.com

MAKTABGACHA YOSH DAVRI BOLALARI RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI VA PSIXODIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. Maqolada bolalarning ruhiy salomatligi muammosi va uni psixodiagnostikasi borasida fikrlar, ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarning ijtimoiy-madaniy tabiati zamonaviy hayot sur'atining tezlashishi, vaqt yetishmasligi, hissiy stressni bartaraf etish va dam olish uchun sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog'liq ekanligi, buning oqibati ota-onalarning haddan tashqari ish yuki, ularning nevrotizmi, ko'plab shaxsiy muammolarning paydo bo'lishi, shaxsiy ichki nizolarni hal qilish yo'llari, psixologik va psixoterapevtik yordam imkoniyatlari to'g'risida yetarli darajada xabardor bo'lmashliklari, ota-onalarning bunday shaxsiy nomutanosibligi bolalarning rivojlanishida namoyon bo'lishi va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: psixodiagnostika, hissiy farovonlik, ong, salomatlik, agressivlik, gipperaktivlik, fikrlar, mushohada, ta'sir, mutanosiblik, psixoterapevtik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ПСИХОДИАГНОСТИКА ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье изложены размышления по проблеме психического здоровья детей и её психодиагностике. Социокультурная природа факторов, негативно влияющих на психическое здоровье, связана с ускорением темпа современной жизни, нехваткой времени, недостаточными условиями для эмоционального развития, снятия стресса и релаксации, последствиями этого являются чрезмерная рабочая нагрузка родителей, их невротизм, возникновение многих личностных проблем, способы решения личностных внутренних конфликтов и возможности психологической и психотерапевтической помощи при личностной диспропорции родителей, которая проявляется в развитии детей и отрицательно влияет на их психику.

Ключевые слова: психодиагностика, эмоциональное благополучие, сознание, здоровье, агрессивность, гиперактивность, мысли, наблюдение, влияние, равновесие, психотерапевтический.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AND PSYCHODIAGNOSTICS OF MENTAL HEALTH OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. The article contains thoughts on the problem of children's mental health and its psychodiagnosics, the socio-cultural nature of the factors that negatively affect mental health is related to the acceleration of the pace of modern life, lack of time, insufficient conditions for emotional stress relief and relaxation. The fact that the consequences of this are the excessive work load of parents, their neuroticism, the emergence of many personal problems, the ways of solving personal internal conflicts and the possibilities of psychological and psychotherapeutic help opinions are expressed about such personal disproportion of parents, which is manifested in the development of children and has a negative effect on their psyche.

Keywords: psychodiagnosics, emotional well-being, consciousness, health, aggressiveness, hyperactivity, thoughts, observation, influence, balance, psychotherapeutic.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti M.Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 16-iyundagi «Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-196-sonli Qarori qabul qilinishi yurtimizda ruhiy salomatlik muammosiga yetarlicha e'tibor qaratilayotganligi va bu muammo bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqdaligini yorqin misoli ekanligini anglash qiyin emas, sababi hozirgi vaqtda ayniqsa pandemiya davridan so'nggi 3 yillikda aholining ruhiy salomatligiga katta e'tibor berish zarurati yuzaga keldi. Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo'yish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash sifatini oshirish, sohada samarali boshqaruv tizimini joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va psixiatriya muassasalarining moddiy-texnika bazasini

mustahkamlash, aholiga o'z vaqtida psixiatriya yordami ko'rsatilishini tashkil etish uchun aynan ushbu qaror qabul qilindi [1].

Kattalar bilan birga bolalarning ruhiy salomatligi muammosi ham ko'ndalang qo'yilmoqda, chunki dunyoda bolalarning kun sayin ruhiy salomatligida buzilish holatlari uchramoqda.

Jahonda bolalarning rivojlanishi, ularning ruhiy salomatligi doimo muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan, zotan ular ertangi kelajagimiz vorislari sifatida e'tirof etiladi. Bolaning sog'lig'iga bo'lgan munosabati bolalikdan boshlanishi shart. Shaxsni kamol topishi, yetuk inson bo'lishining dastabki poydevori oila bo'lsa undan keyingisi bu maktabgacha ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Dunyo bo'yicha 2017-yilga kelib, 792 million ruhiy kasallikka chalingan odam ro'yxatga olingan - bu sayyoramiz aholisining 10,7 foizini tashkil qiladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 970 million kishiga o'sdi, dunyodagi har sakkizinchi kishi ruhiy kasallikka chalingan. Ming afsuski ular orasida bolalar ham bor. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yaqinda so'nggi 15 yil ichida dunyodagi ruhiy salomatlik holatining eng keng qamrovli sharhini e'lon qildi. Hozirgi vaqtda ruhiy salomatlik barcha mamlakatlar oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi, chunki bunday muammolar kamida to'rt kishidan birida uchraydi. Yevropa mintaqasida ruhiy kasalliklarning tarqalish darajasi juda yuqori. JSST (jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra (2016), Yevropa mintaqasida yashovchi 870 million kishining taxminan 100 millioni tashvish va depressiyani boshdan kechirganliklari qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson ruhiy salomatligiga shaxslararo munosabatlar ta'siri ijtimoiy, psixologik, pedagogik, huquqiy, ma'naviy, diniy-falsafiy jihatdan muhim omil sifatida zardushtiylikning qadimgi manbai «Avesto»da va Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Al Kindi, Ali ibn Sahl Rabbon at-Tabariy, Abu Zayd al-Balxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Zikriyo ar-Roziy, Abu Hamid Muhammad al-G'azzoliy, Mahmud Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida inson salomatligining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, oila muhitining o'rni, depressiya va ruhiy salomatlikning o'zaro bog'liqligi, qo'rquv va xavotirlanish, g'azab, agressiya va nosog'lom fikrning tanani tanazzulga yetaklashi, jismoniy va psixik kasalliklarning o'zaro ta'siri psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkinligi kabi g'oyalar ilgari surilgan.[3.214 b] Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimdan, jamiyat taraqqiyotida inson salomatligi, uning mukammalligi bevosita ijtimoiy-psixologik omillarga bog'liqligi e'tirof etilgan. Inson salomatligini ta'minlashda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy guruhlar va mehnat jamoalaridagi holatlar, turli psixosotsial buzilishlar, uning kelib chiqish sabablari, psixosomatik kasalliklarni yengishning ijtimoiy-psixologik jihatlari mamlakatimiz olimlaridan F.A.Akramova, S.X.Jalilova, Z.R.Ibodullayev, N.G.Kamilova, M.Karamyan, V.M.Karimova, O.Musurmanova, Z.T.Nishonova, Z.A.Rasulova, K.Risqulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov, M.T.Isakova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Natijalar. Tahlillar ko'rsatadiki, respublikamizda ruhiy salomatlik muammosini ilmiy-amaliy o'rganish dastavval ta'lim tizimi uchun amalga oshirilgan, keyinchalik ijtimoiy maskanlardan mahalla, sog'liqni saqlash tizimi uchun tadqiq etilgan, lekin inson ruhiy salomatligining omillari alohida ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Demak, inson sog'lom turmush tarziga amal qilsa, o'z kasbiy malakalarini muttasil oshirib borsa, to'g'ri ovqatlanishga e'tiborli bo'lsa, oqilona dam olishni tashkil eta olsa, munosabatlarga kirishimli, sharoitga moslashuvchan bo'lsa, u ijtimoiy faol bo'lishi, faollik esa ruhiy salomatlikni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi isbotlangan. Shuningdek, ruhiy salomatlik orqali jismoniy, ijtimoiy salomatlikni saqlash va boshqarish mumkinligi hamda ruhiy salomatlik eng avvalo insonning tashqi muhit va u bilan o'zaro munosabatlar tizimi bilan bog'liqligi tasdiqlandi.


Ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarning ijtimoiy-madaniy tabiati zamonaviy hayot sur'atining tezlashishi, vaqt yetishmasligi, hissiy stressni bartaraf etish va dam olish uchun sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ruhiy salomatligini aniqlash maqsadida biz Farg'ona shahar 5-sonli DMTTning 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarida I.P. Podlasiyning "O'zingni angla" deb nomlanuvchi 10 ta savoldan iborat bolaning tajavuzkorligini aniqlovchi metodikasini 28 nafar bolalarda o'tkazdik. Ularning 13 nafari qiz bolalar bo'lishsa, 15 nafari o'g'il bolalarni tashkil etadi. Quyida jadval va diagrammalarda ularning natijalari qayd etilgan. Qizlarning umumiy sonidan kelib chiqib ularning 30 %larida yuqori agressivlik holati, 56 % me'yoriy holat 14%da tajavuzkorlikning o'rtachadan past darajasi qayd etilgan. O'g'il bolalarda bu holat quyidagicha ekanligi aniqlandi: 38% da yuqori darajagi tajavuzkorlik, 42% tajavuzkorlikning o'rtacha darajasi, 20 % tajavuzkorlikning o'rtachadan past darajasi aniqlandi.

1-jadval.

№	Jinsi	Soni	Tajavuzkorlikning eng yuqori natijasi %
1	O'g'il bolalar	15	30
2	Qiz bolalar	13	38

1-diagramma.



Ushbu jadval va diagrammalardan ham ko'rinib turibdiki, olib borilgan tadqiqot natijalarida o'g'il bolalarning tajavuzkorligi qiz bolalarga qaraganda biroz ustunroq ekanligi buning asl sababi ota-onalari va tarbiyachilari tomonidan ularga nisbatan yoshlarini inobatga olmagan xolda ko'p yuklamalarni topshirishlari va qizlarga nisbatan munosabatda biroz yumshoqroq, o'g'il bolalarga nisbatan qattiqqo'llik bilan munosabat bildirishlari sababli ekanligi aniqlandi. Bunda ota-onalarning bolalarga nisbatan munosabati juda katta ahamiyat kasb etadi. Buning oqibati ota-onalarning haddan tashqari ish yuki, ularning nevrotizmi, ko'plab shaxsiy muammolarning paydo bo'lishi, shaxsiy ichki nizolarni hal qilish yo'llari va psixologik va psixoterapevtik yordam imkoniyatlari to'g'risida yetarli darajada xabardor bo'lmaslikdir. Ota-onalarning bunday shaxsiy nomutanosibligi bolalarning rivojlanishida namoyon bo'ladi va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Oiladagi hissiy muhit va uning a'zolarining ruhiy holatiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta'sir qiladi, ular orasida A.I.Zaxarov qoniqarsiz turmush sharoiti, ota-onalarning ish bilan ta'minlanishi, onaning ishga erta ketishi va bolani ishga joylashtirish kabi omillarni ajratib ko'rsatadi.[4. 221b] Aksariyat psixologlarning fikricha, bolaning ruhiy salomatligi yoki sog'lig'ining yomonlashishi ham ota-ona tarbiyasi uslubi bilan uzviy bog'liq va ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga bog'liq. Adabiyotda tarbiyalash uslublari va turlarining turli tasniflarini, ma'lum bir ta'lim uslubi amaliyotidan kelib chiqadigan oqibatlarni tahlil qilishni topish mumkin (tahlil ko'pincha klinik xarakterga ega). Maktabgacha yoshda hissiy farovonlik ayniqsa dolzarbdir, chunki uning atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyati va shuning uchun uning ijtimoiy rivojlanishining muvaffaqiyati bola ko'pincha boshdan kechiradigan va namoyon qiladigan his-tuyg'ularga bog'liq. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy farovonligi, bu shaxsning resurs namoyon bo'lishi, uning o'zini o'zi ta'minlashi, o'zini va boshqalarni yetarli darajada idrok etish qobiliyatini ochib beradi. Shunday qilib, bolalarning hissiy farovonligi quyidagilar asosida shakllanadi:

- oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning hissiy xatti-harakati;
- bolaning oilaga, tarbiyachiga, tengdoshlariga hissiy munosabati;
- ota-onalari, kattalari va tengdoshlarini hissiy qabul qilish.

Oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik salomatligining asosi sifatida ularning hissiy farovonligini nazarda tutiladi. Masalan, televizor yoki kompyuterni uzoq vaqt tomosha qilganda, o'g'il bolalar va qizlar kattalar va tengdoshlari bilan kamroq muloqot qila boshladilar. Ammo bu aloqa hissiy sohani sezilarli darajada boyitadi. Shu sababli, bolalar ko'proq xudbin, hissiy jihatdan yakkalanib, ortiqcha ishlamoqda va boshqalarning his-tuyg'ulariga kamroq munosabatda bo'lishadi. Bundan tashqari, kattalar ham har doim bolaning kayfiyati va his-tuyg'ulariga

e'tibor berishmaydi. Ota-onalar ko'pincha «bolalarcha» muammolarga vaqt sarflash uchun juda band. Shu bilan birga, salbiy his-tuyg'ular va his-tuyg'ularning o'sishi eng istalmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, hozirda ota-onalar, tarbiyachilar va barcha bolalar bog'chasi mutaxassislarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularni bolalarning hissiy sohasini rivojlantirishga yo'naltirish va oilada ham, bolalar bog'chasida ham qulay hissiy mikroiklimni ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bola xursandchilik bilan bolalar bog'chasiga boradi, u yerda ular uni kutadilar, u yerda unga samimiy qiziqish ko'rsatadilar, muvaffaqiyatsizlikni yengishga yordam beradilar va muvaffaqiyatlaridan quvonadilar.

Muhokama. «Oilaviy tarbiya eng muhim masala», deb yozgan edi A.I.Gersen. Shu bilan birga, u yozuvchining so'zlariga ko'ra, «boshlang'ich ta'limning eng katta vazifasi» ga tegishli bo'lgan onaning rolini alohida ta'kidladi.[5. 256b] Bolaning ehtiyojlariga o'z vaqtida javob beradigan, qabul qiluvchi, mehribon, empatik ona xavfsiz bog'lanish deb ataladi. Xavfsiz bog'langan bolalar ishonchli xatti-harakatlari bilan ajralib turadi, ular yangi vaziyatlardan qo'rqmaydilar, ular dunyoga asosiy ishonchni rivojlantiradilar, bu ularning odamlarga keyingi munosabatini belgilaydi. Oilaning psixologik iqlimi oila ichidagi munosabatlarning barqarorligini belgilaydi va bolalarning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. U oila a'zolari tomonidan yaratilgan va bu ijobiy yoki noqulay bo'ladimi, ularning harakatlariga bog'liq. Qulay iqlimi bo'lgan oilada hayotning birinchi kunlaridanoq bolalar kechirimlilik, itoatkorlik, sajda qilish, yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash, yaqinlari tomonidan e'tibor, hayrat va sadoqat kabi qimmatli tajribaga ega bo'ladilar va bu ularning psixologik holatiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlar yosh avlodning psixologik salomatligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarda to'rt jihat - nazorat qilish, ijtimoiy yetuklikka bo'lgan talablar, muloqot va hissiy qo'llab-quvvatlash mavjudligi, boshqacha aytganda, tarbiyaning eng maqbul sharti - bu kombinatsiyadir. Bolalarning psixologik sog'lig'iga ko'plab omillar ta'sir qilishi mumkin, ulardan biri ota-onalarning farzandini hissiy jihatdan rad etishidir. Ota-ona va bola o'rtasida hissiy aloqaning yo'qligi yoki ota-onaning bolaning ehtiyojlariga befarqligida namoyon bo'ladigan munosabatida yaqqolroq ko'rinadi. Bu aniq va yashirin bo'lishi mumkin va bu orqali maktabgacha yosh davri bolalarida ruhiy salomatligida agressivlik, tajavuzkorlik holatlari nomoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolaning tajribasi juda boshqacha bo'lishi mumkin. Odatda, ota-onalar va bolalar chuqur mas'uliyat va o'zaro bog'liqlik munosabatlari bilan bog'langan bo'lishadi. Bunday oilalarda tasdiqlangan qadriyatlar doirasi juda keng, ammo ularda asosiy o'rinni shaxs va unga bo'lgan munosabat egallaydi. To'liq bo'lmagan oiladagi bolada (ota-onalardan biri yo'qligida) yoki aka-uka va opa-singillar yo'qligida hissiy tajriba sezilarli darajada cheklanishi mumkin. G'amxo'rlik qilish kerak bo'lgan boshqa bolalar, qariyalar hayotida ishtirok etishning haqiqiy tajribasi yetarli emasligi hissiy tajriba doirasini toraytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Rus olimlari A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy fikrlaricha, eng muhim vazifa jamiyatni ruhiy salomatligini mustahkamlashdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-sonli «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil, 16-iyundagi PQ-196-sonli «Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
3. Isakova M.T. Inson ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari. Monografiya . 2021-214 b.
4. Никитин Б. Резервы здоровья наших детей. – М., 2010. - 221 с .
5. Никифоров Г. С. Психология здоровья. Учеб. пособие.: - СПб., “Речь” 2002. – 256 с.

*Dosjanova Yulduzkhan Rahatovna,
Xalqaro islom akademiyasi Din psixologiyasi va
pedagogikasi kafedrasida o'qituvchisi*

“DINIY QADRIYATLARGA YO‘NALGANLIK” SO‘ROV NOMASINING METODOLOGIK ASOSI VA BIRLAMCHI TAHLIL NATIJALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Y. Dosjanovaning shaxsning diniy qadriyatlarini aniqlashga qaratilgan “Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomasining metodologik asoslari keltirilib o‘tilgan. Shuningdek, “Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomasining ishonchliligi va validliligi mezonlariga mosligi tekshirilgan. Ushbu so‘rovnomaning jinsiy tafovutlarga sezgirligi aniqlangan. O‘spirin yoshlar diniy qadriyatlarining jinslararo tafovutli jihatlari aniqlanib natijalar jadval va diagramma ko‘rinishlarida aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: diniy qadriyat, ishonchlilik, validlik, metodologiya, fiqh, aqida, mezon.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО АНАЛИЗА АНКЕТЫ «ОРИЕНТАЦИЯ НА РЕЛИГИОЗНЫЕ ЦЕННОСТИ»

Аннотация. В данной статье представлены методические основы анкеты Ю. Досжановой «Ориентация на религиозные ценности», направленной на определение религиозных ценностей человека. Также были проверены критерии достоверности и валидности опросника «Ориентация на религиозные ценности». Определена чувствительность опросника «Ориентация на религиозные ценности» к гендерным различиям. Определены гендерные различия в религиозных ценностях подростков, результаты представлены в таблицах и диаграммах.

Ключевые слова: религиозная ценность, надёжность, обоснованность, методология, юриспруденция, вероучение, критерий.

METHODOLOGICAL BASIS AND PRIMARY ANALYSIS RESULTS OF THE “ORIENTATION TO RELIGIOUS VALUES” QUESTIONNAIRE

Abstract. This article presents the methodological foundations of Y. Doszhanova’s questionnaire «Orientation to Religious Values» aimed at determining the religious values of a person. Also, the reliability and validity criteria of the «Orientation to Religious Values» questionnaire were checked. The sensitivity of the questionnaire «Orientation to religious values» to gender differences was determined. Gender differences in the religious values of teenagers were determined and the results were presented in tables and diagrams.


Key words: religious value, reliability, validity, methodology, jurisprudence, creed, criterion.

Kirish. Dunyoda kechayotgan global ma’naviy-axloqiy inqiroz va qadriyatlar tizimining o‘zgarishi bugungi kun yoshlarini yangi mafkuraviy g‘oyalarni izlash kabi qiyin ahvolga solib qo‘ymoqda. Albatta, bu holat yoshlarni din va diniy e‘tiqod masalalariga qiziqishlari ortib borishiga motiv berib boradi. Bizning jamiyatimiz ham global ma’naviy-axloqiy inqiroz davrini boshdan kechirishi davomida diniy e‘tiqod va diniy qadriyatlarni turli xil qarashlar tizimini bilan almashtirishmoqda. Biroq shunday bo‘lsa-da, din ham o‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy umuminsoniy mafkurani shakllantirishga hissa qo‘shadigan va ta’lim, tarbiya, qadriyatlarga yo‘naltirilgan vazifalarga ega bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

Bolalik va o‘smirlik davrida qabul qilingan diniy me‘yorlar jamiyat hayotiga moslashish jarayoniga sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir oqibatida esa shaxsda diniy qadriyatlarni shakllanishi ham yuzaga keladi. Shuning uchun dinning yoshlar diniy qadriyatlariga ta’siri jihatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etgan holda empirik metodikalar orqali o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek din ta’siri orqali shakllanuvchi diniy qadriyatlar shaxsning inqiroz yosh davrlariga to‘g‘ri keladi va uning ta’sir kuchi ham kuchayib boradi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi jami 58 nafar talaba tanlab olingan. Tadqiqot ishida Y. Dosjanova tomonidan ishlab chiqilgan “Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomasi tanlab olingan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Empirik metodlar eksperimental ma’lumotlar yig’ishning turli yo’llari va usullari bilan tavsiflanuvchi psixologik tadqiqot usullar hisoblanadi. Empirik metodlarning ham bir nechta turlari bor (1-rasmga qarang).



1-rasm. Empirik metod turlari

Psixologiyada yoshlar diniy qadriyatlarini empirik jihatdan tadqiq etuvchi metodlardan psixodiagnostik metodlar sirasiga kiruvchi subyektiv metodikalar keng qo’llaniladi, ammo bular juda ozchilikni tashkil etadi. Ilmiy izlanishlarimiz davomida shaxs diniy qadriyatlarini aniqlashga qaratiluvchi I.F.Myagkov, Y.V.Shcherbatix, M.S.Kravsovlarning “Individual diniy qadriyat tiplari” testi, G.Allport, E. Roslarning “Ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo’nalganlik” so’rovnomasi, D.O.Smirnovning “Diniy faollik qadriyatlari” so’rovnomalari borligiga guvoh bo’ldik. Yuqorida qayd etilib o’tilgan metodikalarning barchasi xorij metodikalari bo’lib, afsuski mahalliy metodikalarni topa olmadik. Aynan shu sababli ilmiy tadqiqot ishimizda foydalanishimiz uchun shaxs diniy qadriyatlarini aniqlovchi “Diniy qadriyatlarga yo’nalganlik” nomli subyektiv metodika tarkibiga kiruvchi so’rovnoma yaratdik. So’rovnomamiz jami 22 ta savoldan iborat bo’lib, “aqidaviy qadriyatlar” va “fiqhiiy qadriyatlar” deb nomlanuvchi mezonlarni o’z ichiga qamrab oladi. Shundan 11 ta savollar aqidaviy qadriyatlarga qolgan 11 tasi esa fiqhiiy qadriyatlarga tegishli hisoblanadi.

Metodikamizni metodologik asosi islom aqidasi va fiqhi (Ahli sunna val jamoa aqidasi va fiqhi) hisoblanadi. Shuningdek G.Olportning [1, c. 68] ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo’nalganlik, U.Djeymnsning dinning ichki va tashqi jihatlari va E.Fromning avtoritar va gumanistik dindorlik nazariyalari hisoblanadi. Qolaversa I.F. Myagkov, Y.V. Shcherbatix, M.S. Kravsovlarning “Individual diniy qadriyat tiplari” metodikasi va D.O. Smirnov tomonidan tuzilgan “Diniy qadriyatlar faolligi” metodikasi nazariyalari ham metodikamiz uchun metodologik asos bo’lib xizmat qildi.

Aqida so’zi bir narsani ikkinchisiga bog’lash ma’nosini anglatadi. Bu so’zning ko’pli shakli aqoiddir. Payg’ambarimiz olib kelgan barcha narsalar rostligini tasdiqlab, ko’ngil bog’lab ishonish lozim narsalar aqida deyiladi [7, b. 33].

Fiqh shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug’ullanuvchi islom ta’limotining bir sohasidir. Islom huquqshunoslari o’zlariga taqdim etilgan savollar bo’yicha Qur’on va sunnatni tafsir qilish orqali shariatni kengaytiradi, rivojlantiradi va hukmlar bilan amalga oshiriladi [5]. Majoziy ma’noda fiqh islomiy huquqiy hukmlarni ularning manbalaridan olishni bildiradi. Ammo faqih faqat zohiriy ma’no bilan qanoatlanmasligi kerak, tashqi ko’rinishini biladigan kishi faqih bo’lmaydi [3].

Psixodiagnostikada har bir bitta metodika yaratilgandan albatta uning ishonchliligi, validligi va reprezentativligi sinovdan o’tkazilib tekshiriladi. Chunki test yoki so’rovnoma yuqoridagi talablarga javob bermasa undan chiqqan natijalar ham haqiqiy hisoblanmaydi. Natijada metodika yaroqsiz ko’rinishga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda ishonchlilik atamasi test natijalarining nisbiy doimiyliigi, barqarorligi va izchilligini anglatadi. Ishonchlilik uchta psixometrik xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ishonchlilik test natijalarini barcha turdagi tasodifiy omillar ta’siridan mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi [2, c. 103].

Testning validligi tushuncha bizga testni qay darajada yahshi ishlayotgani haqida ma’lumot beradi. Har qanday testning validligi bizga olingan natijalar orqali chiqarilgan xulosalar haqiqatdan ham huddi o’shanday ekanligi borasida habar beradi [4, c. 181].

Tadqiqot ishimizning obykti sifatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 58 nafar talaba ishtirok etishdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Diniy qadriyatlarga yo’nalganlik” metodikamizning ishonchliligi va validligini aniqlash hamda ushbu mezon talablariga javob bersa testning jinslararo tafovutlarga bardoshligini aniqlashdan iborat.

Dastlab tadqiqot ishimizdan olingan natijalar asosida testimizning ishonchlilik ko'rsatkichi darajasini ko'rib o'tdik. Testning ishonchlilik ko'rsatkichi darajasini SPSS 26.0 dasturi Alfa Krombax mezonini orqali aniqladik. Barchaga ma'lumki ishonchlilik ko'rsatkichi darajasi testlarning har bir mezonini orqali ko'rib chiqiladi. Shu boisdan biz ham dastlab testimizning “aqidaviy qadriyatlar” deb nomlanuvchi mezonining ishonchlilik darajasini aniqladik (1-jadvalga qarang). Xuddi shu kabi testimizning “fiqhiy qadriyatlar” deb nomlanuvchi mezonining ishonchlilik darajasini ham aniqladik (2-jadvalga qarang).

1-jadval.

“Aqidaviy qadriyatlar” mezonining ishonchlilik ko'rsatkichi

Aqidaviy qadriyatlar mezonining ishonchlilik ko'rsatkichi	N
0,96	11

Yuqoridagi keltirilib o'tilgan jadvaldagi ishonchlilik ko'rsatkichidan shuni anglash mumkinki, “Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik” so'rovnomamizning “aqidaviy qadriyatlar” mezonini 0,96 ishonchlilik ko'rsatkichi darajasini keltirib chiqardi. Ushbu son juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, respondentlar mazkur mezon tarkibiga kiruvchi savollarni juda yaxshi tushunib ishlaganliklaridan dalolat beradi. Mazkur omillar esa test mezonini tarkibiga kiruvchi savollarni hech qanday o'zgartirishsiz amaliyotda qo'llayverishidan darak beradi.

2-jadval.

“Fiqhiy qadriyatlar” mezonining ishonchlilik ko'rsatkichi

Aqidaviy qadriyatlar mezonining ishonchlilik ko'rsatkichi	N
0,80	11

Yuqoridagi keltirilib o'tilgan jadvaldagi ishonchlilik ko'rsatkichidan ham shuni anglash mumkinki, “Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik” so'rovnomamizning “fiqhiy qadriyatlar” mezonini 0,80 ishonchlilik ko'rsatkichi darajasini keltirib chiqardi. Ushbu son “aqidaviy qadriyatlar” mezonini ko'rsatkichiga nisbatan past ko'rsatkichni keltirib chiqargan bo'lsa ham “fiqhiy qadriyatlar” mezonini ishonchlilik darajasi yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida respondentlar mazkur mezon tarkibiga kiruvchi savollarni ham juda yaxshi tushunib ishlaganliklaridan dalolat beradi. Mazkur omillar esa so'rovnomamizning “fiqhiy qadriyatlar” mezonini tarkibiga kiruvchi savollarni ham hech qanday o'zgartirishsiz amaliyotda qo'llayverishidan darak beradi.

Tadqiqot ishimiz davomida “Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik” so'rovnomamizdan chiqariladigan xulosalar valid ekanligini tasdiqlovchi ilmiy dalillar keltirish maqsadida validatsiya jarayonini ham amalga oshirdik.

Testologiyada validlikning uch turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Mezoniy validlik – testning biror-bor mezon bilan mosligi;
2. Mazmuniy validlik – testning o'lchanishi lozim bo'lgan domen mazmuni bilan mosligi;
3. Konstruktiv validlik – testning o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyatning to'g'ri o'lchashi [6, b. 39].

Biz so'rovnomamizni validligini yuqorida keltirilib o'tilgan validlik turlaridan biri bo'lgan konstruktiv validlik orqali tekshirib o'tdik. Buning uchun biz testimiz orqali olingan natijalarni haqiqatdan o'sha mezoninaluvchilar xususiyatlariga mos yoki mos emasligini ular bilan suhbat orqali aniqlab oldik. Suhbatdan so'ng konstruktiv natijalari aniqlangan mezonlar haqiqatdan ham sinaluvchilar xususiyatlariga mos ekanliklari aniqlandi.


Olib borgan tadqiqot ishimiz davomida respondentlarning “Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik” so'rovnomamizning jinslararo tafovutlarga sezgirligi orqali tafovutli jihatlarini ham aniqladik (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

O'spirin yoshlar diniy qadriyatlari namoyon bo'lishining jinsiy tafovutlari (Mann-Uitni U mezonini asosida)

Diniy qadriyatlar	Guruhlar		U	P
	Yigitlar N=33	Qizlar N=25		
Aqidaviy qadriyatlar	32,7	25,2	307,0	0,09*
Fiqhiy qadriyatlar	32,3	25,6	317,0	0,13

Ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili natijasida o‘spirin yoshlarning kreativ tafakkuri jinslararo tafovutlar bo‘yicha quyidagicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (1-rasmga qarang).



2-rasm. O‘spirin yoshlarning diniy qadriyatlari bo‘yicha aniqlangan jinslararo tafovutlar

“Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomamizning “aqidaviy qadriyatlar” mezonini bo‘yicha (o‘rtacha ranglar: 32,7, 25,2) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=32,7$; $p\leq 0,01$). “Aqidaviy qadriyatlar” mezonini bo‘yicha o‘spirin yigitlarning natijalari o‘spirin qizlarning natijalariga qaraganda yuqoriroq ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bunga aksincha “fiqhiy qadriyatlar” mezonini bo‘yicha (o‘rtacha ranglar: 32,3, 25,6) ishonch darajasidagi farqlar aniqlanmadi ($U=32,3$; $p\leq 0,13$). “Fiqhiy qadriyatlar” mezonini bo‘yicha o‘spirin yigitlarning natijalari o‘spirin qizlarning natijalari bilan bir xil ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Xulosa. “Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomasining metodologik asosi va birlamchi tahlil natijalari deb nomlanuvchi ilmiy maqolamizdan quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. “Diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik” so‘rovnomamizning metodologik Asosi asosi islom aqidasi va fiqhi (Ahli sunna val jamoa aqidasi va fiqhi) hisoblanadi. Shuningdek G.Olportning ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo‘nalganlik, U.Djeymning dinning ichki va tashqi jihatlar va E.Fromning avtoritar va gumanistik dindorlik nazariyalari hisoblanadi.

2. So‘rovnomamizning tuzilish shaklining asosi D.O. Smirnovning “Diniy qadriyatlar faolligi” metodikasi hisoblanadi.

3. O‘spirin yigitlarning aqidaviy qadriyatlarga moyillik darajasi o‘spirin qizlarga nisbatan yuqoriroq ekan.

Adabiyotlar:

1. Анциферова Л.И. К психологии личности как развивающейся системы//Психология формирования и развития личности. – М.: Изд-во МГУ, 1981г. – 368 с.
2. Анастаси А., Урбина С. Психологическое тестирование. 7-изд. – СПб.: Питер, 2007. – 688 с
3. Abdul Vahhob Xalloy, Usul ul-fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari), 1—2 qism, T., 1997; 3—4 qism, T., - 1999 b.
4. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: учебник для вузов. 2-изд. – СПб Питер, 2011. – 384 с.
5. Burhoniddin Marg‘inoniy Hidoya. – T.: Hilol, 2022. – 894 b.
6. Jalilov K. Baholash nazariyasiga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – 256 b.
7. Ziyovuddin Rahim Islom aqidasi. – T.: “Sharq”, 2020. – 384 b.

Dursunov Sardor Axmat o'g'li,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi,
sardor-dursunov@hotmail.com

IPOXONDRIAL SHAXSLARNING KLINIK PSIXOLOGIK VA NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi ipoxondrial buzilishlarga chalingan odamlarning klinik psixologik va neyropsixologik xususiyatlarining tadqiqotini o'z ichiga oladi. Innovatsion neyroskrining va klinik psixodiagnostika usullaridan foydalangan holda, psixologik buzilishlarning etiologik va patogen dinamikasi natijalarini obyektiv bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ipoxondrial buzilish, klinik va psixologik diagnostika, neyropsixologik xususiyatlar, ta'sir mexanizmi.

КЛИНИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИПОХОНДРИАЛЬНЫХ ЛИЦ

Аннотация. В данном научном исследовании включено определение клинико-психологические и нейропсихологические особенности лиц с ипохондрическими расстройствами. Используя инновационно-нейроскринговые и клинико-психодиагностические методы можно объективно рассмотреть результаты этиологической и патогенической динамики психологических болезней.

Ключевые слова: ипохондрическое расстройство, клинико-психологическое диагностика, нейропсихологические особенности, механизм действий.

CLINICAL-PSYCHOLOGICAL AND NEUROPSYCHOLOGICAL CHARACTERIZATION OF HYPOCHONDRIACS

Abstract. This scientific study includes a definition of clinical, psychological and neuropsychological characteristics of persons with hypochondriacal disorders. Using innovative neuroscreening and clinical psychodiagnostic methods, it is possible to objectively examine the results of the etiologial and pathogenic dynamics of psychological diseases.

Keywords: hypochondriacal disorder, clinical and psychological diagnosis, neuropsychological features, mechanism of action.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi paytlarda psixologiya va psixosomatik tibbiyotda tadqiqotchilarning ipoxondrial buzilishlar (IB) etiologiyasi va patogenezida ishtirok etadigan psixologik va xulq-atvor omillariga qiziqishi ortib bormoqda. Ipoxondrial buzilish va psixosomatik tibbiyotning hozirgi tadqiqot obyektlaridan biri, kasallik hodisalarining inson psixikasidagi subyektiv aksini o'rganish yoki kasallikning ichki ko'rinishini yoki munosabat fenomenini o'rganishdir. (KIK) Bundan tashqari, kasallikka munosabat turlarini shakllantirishda bemorlarning shaxsiy xususiyatlarining rolini o'rganishga katta e'tibor beriladi (L.A.Temmoeva, 2010; N.V.Vinichuk 2012; N.N.Malyarchuk 2010). Shaxsiy xususiyatlar qoida tariqasida talqin qiladi. Bu nafaqat xarakterli xususiyatlarni, balki shaxsning yo'nalishini, insonning qadriyat yo'nalishlarini, uning dunyoqarashini va hayotning ma'nosi haqidagi falsafiy pozitsiyasini anglatadi. Biroq psixosomatik va ipoxondrial buzilishlardan aziyat chekadigan odamlarning vaziyatga semantik sohasini har tomonlama o'rganish kamdan-kam uchraydi. Ishonamizki, bunday yondashuv ushbu guruh buzilishlarini davolash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu ish IB ga zamonaviy psixologik va neyropsixologik yondashuvlarini umumlashtirishga bag'ishlangan. Tashxis va terapiya tizimiga psixologik komponentlarni aniqlash va kiritish kasallikning rivojlanish va surunkali shakllanish qonuniyatlarini, shuningdek, davolash samaradorligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi (Andryushchenko, 2011).

Adabiyotlar tahlili. Neyropsixologiyada klinik ma'lumotlar tahlili asosida aqliy faoliyat substrati sifatida miyaning umumiy strukturaviy va funksional modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model A. R. Luriya tomonidan taklif qilingan va butun miya faoliyatining eng umumiy qonuniyatlarini tavsiflash uchun asosdir. Uning integratsion faoliyatini tushuntirish modelga ko'ra butun miyani 3 ta asosiy strukturaviy va funksional bloklarga bo'lish mumkin: I energiya bloki. Miya faoliyati darajasini tartibga solish; II blok - eksterotseptiv (ya'ni, tashqaridan keladigan) ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash; III blok -aqliy faoliyatning borishini dasturlash, tartibga solish va nazorat qilish. Har biri amalga oshirishga hissa

qo‘shadigan barcha 3 ta miya bloklari ishtirokida amalga oshiriladi. Miya bloklari ma‘lum strukturaviy xususiyatlar, ularning ishiga asoslangan fiziologik tamoyillar va aqliy funksiyalarni amalga oshirishdagi roli bilan tavsiflanadi.

DSM-4 ning eski nashrida (The Diagnostic and Statistical Manual., 1994) IR somatoform buzilishlar guruhiga tegishli edi. Bundan tashqari, ushbu guruhga kiradigan ko‘pgina buzilishlardan farqli o‘laroq (masalan, somatizatsiya buzilishi, ajratilmagan somatoforma buzilishi, doimiy somatoform og‘riq buzilishi), asosiy diagnostika me‘zoni organik tushuntirishga ega bo‘lmagan ba‘zi somatik belgilarning mavjudligi emas, balki hissiy xususiyatlar, masalan, salomatlik bilan bog‘liq tashvish, bemorlarning xatti-harakatlarini aniqlash (Hiller, Janca, 2003) ham inobatga olinadi.

O‘tgan davrdagi mahalliy mualliflarning tadqiqotlarida psixosomatik buzilishlar, tibbiy va psixologik holati nevrozning (F40-F48) somatik buzilishlariga, klinik psixologik jihatdan kengroq funksional tadqiqot doirasida olimlar diqqat markazida edi. Karvasarskiy, Gubachev va Stabrovskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, nevrozlarda somatik buzilishlar turli xil etiologiyasi mavjud. Ko‘pincha (yurak-qon tomir kasalligida) ular ma‘lum bir somatik tizim funksiyasining buzilishi va psixogenetik o‘rtasidagi ma‘zmunli bog‘liqlik kashf etilgan bemorlarda mavjud bo‘lgan hissiy buzilishlarning psixofiziologik hamrohligini ifodalaydi. Boshqa bemorlarda bu visseral tizimlar faoliyatidagi paroksizmal buzilishlar bo‘lib, ular nevrozga xos bo‘lgan avtonom tartibga solishning parchalanishining ifodasidir (Vein, Rodstat). Nevrozning klinik ko‘rinishida ustunlik qiladigan individual anatomik va fiziologik tizimlar faoliyatidagi buzilishlar ilgari yashirin somatik buzilishlarning namoyon bo‘lishi yoki muayyan funksiyaning dekompensatsiyasining ifodasi bo‘lishi mumkin. Bunday dekompensatsiyaning rivojlanishi tizimning ortiqcha ishlashi sharoitida yoki psixogen (nevrotik) parchalanish sharoitida adaptiv jarayonlar ritmining buzilishi bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Nihoyat, aniq somatik buzilishlarni nevrotik qayta tashxislash hollari alohida ko‘rib chiqilishi mumkin.

1) Kundalik hayotga jiddiy aralashadigan yoki odamga noqulaylik tug‘diradigan bir yoki bir nechta jismoniy alomatlar.

2) Haddan tashqari tashvish, odam o‘z vaqtini va kuchini tana haqida qayg‘urishga sarflaydi;

3) Bu alomatlar kamida 6 oy davom etadi.

Tana belgilari har qanday to‘qnashuv yoki stressli vaziyatdan keyin boshlanishi mumkin yoki kuchayishi mumkin. (Abnormal psychology -2015)


Tadqiqot usullari va natijalari. Diagnostik tadqiqotlarning birinchi yo‘nalishi doirasida ID‘ga xos bo‘lgan eng mashhur psixologik omillardan biri MMPI-2 deb ataladigan qayta tuzilgan klinik shkalasini ishlab chiqishda amalga oshirildi (Minnesota Multiphasic ning ikkinchi versiyasi- Shaxsiyatni ko‘p omilli o‘rganish). Yondashuv oddiy sharoitlarda va ruhiy buzilishlarda shaxsiyat xususiyatlarini statistik tahlil qilishga asoslangan. Uning maqsadi turli buzilishlardan ma‘lum bloklardagi buzilishini aniqlashdir. Lekin umuman psixopatologiya uchun emas. (Tellegen va boshqalar, 2008). Klinik ipoxondriya shkalasiga (Hs) kiritilgan obyektning bir qator omilli tahlillari asosida yaratilgan IR ning asosiy komponenti turli xil somatik shikoyatlar edi. Ushbu natija simptomlarni shakllantirish omillari nuqtayi nazaridan unchalik ma‘lumotga boy emas. Boshqa somatoform buzilishlarga nisbatan IR ning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yetarlicha imkon bermaganligi sababli, tadqiqotning muqobil yo‘nalishi diagnostika mezonlarini statistik identifikatsiyalashdan ko‘ra klinik kuzatuv natijalariga asosli bog‘liq edi.

Somatik alomatlar haqida xabardorlikni oshiradigan neyropsixologik model. Har bir inson vaqti-vaqti bilan tana alomatlarini sezishi mumkin. Misol uchun, ishda mashaqqatli kundan so‘ng mushak og‘rig‘i paydo bo‘lishi mumkin; odamda sovuq alomatlari yoki tanamiz jismoniy stressni boshdan kechirganda, masalan, mashg‘ulotdan keyin bo‘lishi mumkin.

Somatik simptom buzilishlarini tushinishda asosiy muammo, tanadagi har qanday his-tuyg‘ular emas, balki nima uchun ba‘zi odamlar bu hislarni boshqa odamlarga qaraganda ko‘proq his etadilar. Neyropsixologik tadqiqotlardan ma‘lumki, obyektiv testlar (batareyalar) Ipoxondrial profil arning e‘tiborini his qilish (tuyg‘u) ga qanday yo‘naltirilganligini o‘lchaydi. Tadqiqotchilar salomatlik belgilarini o‘rganish uchun emotsional Stroop testining versiyasidan foydalanganlar. Somatoform buzilish, katta depressiv buzuqlik yoki vahima buzilishi («DSM-4») tashxisi qo‘yilgan bemorlardan so‘zlarning aslida nima ekanligini hisobga olmasdan, iloji boricha tezroq ranglarini nomlashlari so‘ralgan. Shunday qilib, sog‘lik va kasallik bilan bog‘liq ma‘lumotlar IR bo‘lmaganlarga qaraganda miyaga tezroq uzatiladi (Lim ve Kim, 2005). Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ID bo‘lgan odam fobiya, qo‘rquv va boshqa sog‘liq tajribalariga nisbatan ko‘proq og‘ishgan. (Rief va Auer, 2001).

Somatik simptom buzilishlarining neyroskrining modeli. Istalmagan tana hissiyotlari bilan bog‘liq. U miyaning kontraktilligi kuchaygan sohalarini o‘rganadi. Og‘riq va isitma kabi noqulayliklar miyadagi jismoniy tuyg‘ulardir. Faoliyatni fMRI (foncsionel magnetic recocence image) da, ham oldingi insulaning,


ham oldingi singulatning lokalizatsiyasi orqali aniqlash mumkin. Bunday holda, (1.0-rasmda) bu ushbu hududga qon oqimining oshishiga olib keladi. Tanani idrok etish tananing hissiy korteksi bilan yaqin aloqada bo‘lib, uni qayta ishlashda ishtirok etadi (Price, Craggs, Zhou va boshq., 2009). (1.0-rasmda)



1-rasm.

Ushbu sohalarda faollikning oshishi tanadagi ko‘rinishlarga moyillikning oshishiga olib keladi (Landgrebe, Barta, Rosengart va boshqalar, 2008). Og‘riq qo‘zg‘atuvchisini bezovta qiluvchi sifatida qabul qilish uning kuchini belgilaydi (Mayer, Berman, Suyenobu va boshqalar., 2005). Sizning his-tuyg‘ularingizni noqulay deb qabul qilishga olib keladigan bu holat, tana bilan bog‘liq haddan tashqari miya va genlarga ega bo‘lgan odamlar tana alomatlarini qanday sezishlari va his kechirishlari mumkinligini ajratadi va bundan tashqari, ular nima uchun sezgirroq ekanligini tushuntiradi.

Ushbu neyrobiologik tadqiqotdan biz og‘riq va tana belgilari kortizol gormonlari tomonidan kuchayganini bilib oldik. Ushbu gormonning ko‘payishi xavotir, depressiya va stressning kuchayishiga yordam beradi. (Gatchel, Peng, Peters va boshqalar, 2007). Depressiya va tashvish ham oldingi singulat faoliyati bilan bevosita bog‘liq.



2-rasm. Somatik alomatlar va mavjud buzilishlarning ta‘sir mexanizmi

Tadqiqot natijalari. Neyropsixologik modellarda tana belgilari bilan bog‘liq bo‘lgan IR buzilishining xatti-harakatlar omillari, qanday bo‘lmasin, kognitiv-xatti-harakat modellari salomatlik holatiga ham e‘tibor qaratadi va u tashvishlanishga hissa qo‘shadigan mexanizmga qaratilgan. Ta‘sirning kognitiv va xulq-atvor mexanizmini subyektiv hamda obyektiv tomonini ko‘rib chiqish mumkin (Rasm 2.0). (Looper va Kirmayer 2002).

Xulosa. Ushbu ilmiy ish IR bilan kasallangan bemorlarga yanada kengroq va obyektiv tashxis qo‘yish imkonini beradi. Nevrotik buzilishlarning turli etiologiyasi va prognozi. IR ga og‘ishning ilmiy konsepsiyasi va ish mexanizmlarining patogenezi berilgan. Kognitiv-emotsional va xulq-atvor darajasida har qanday holat shaxsga qanday ta‘sir qilishi, qolaversa, psixosomatik munosabatlarning ko‘plab tadqiqotlari orasida ularning ba‘zilarini ta‘kidlash, funktsional buzilishlarning ichki organlar tomonidan organik o‘zgarishlarga aylanish mexanizmlarini tushunish uchun Gubachev, Karvasarskiy, Ababkov va boshqalarning ishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bemorlar uzoq muddatli (25 yoshgacha) kuzatish (prolong davr), nevrozlar (F45.3) yurak-qon tomir, nafas olish va oshqozon-ichak buzilishlari, ular nomidagi institutning nevrozlar va psixoterapiya klinikasida tekshirilgan va davolangan. V.M.Bexterev ko‘rsatdiki, qoida tariqasida, ichki organlarning nevroitik buzilishlari tegishli asosiy psixosomatik buzilishlarga - yurak ishemik kasalligi (I20-I25), gipertenziya (I10), bronxial astma (F54) va peptik buzilishlarga aylantirilmaydi. oshqozon yarasi kasalligi (K25). Ushbu ma‘lumotlar funktsional psixogen bo‘lmagan va funktsional psixogen (nevroitik) tushunchalarini aniq ajratish zarurati haqidagi savolni tug‘diradi. Bundan tashqari, nevroitik somatik buzilishlarning mavjudligi asosiy psixosomatik buzilishlarga nisbatan prognostik jihatdan qulay belgi sifatida qaralishi mumkin. Nima uchun bu sodir bo‘ladi degan savolga hozircha yetarlicha asosli javob yo‘q.

Nevroz (F40-F48) nevroitik buzilishlar bilan og‘rigan bemorlarning kasallikning dastlabki bosqichida shifokorga tez-tez tashrif buyurishi va o‘z vaqtida (ma‘lum darajada profilaktik) davolanishi tufayli «hayot sug‘urtasi» vazifasini bajaradimi yoki muayyan psixologik kompensatsiya choralarini ko‘radimi? Patogen emotsional va affektiv kuchlanishning pasayishiga olib keladigan nevroz mexanizmlarida profilaktika ahamiyatiga ega bo‘ladi. Ushbu faktlarni tushunishga Solozhenkinning ko‘p tomonlama (somatik, biokimyoviy, psixofiziologik va psixologik) tadqiqotlar orqali gipertoniya, yurak-qon tomir buzilishlari va nevrozlarning boshlang‘ich shakllari bilan og‘rigan bemorlarda psixologik himoya mexanizmlarining tipologiyasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlari yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu mexanizm va sxemadan mutaxassislar IR bilan kasallangan bemorlarning o‘ziga xos buzilishini tez va samarali aniqlashlari mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib psixoterapevtik usullar, ham simptomatik hamda shaxsiyatga yo‘naltirilgan usullar bilan davolash imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar:

1. Рассказова Е.И., Психологические и поведенческие факторы ипохондрических расстройств // Вестн. Моск. Ун-Та. Сер. 14. Психология. 2013. № 3
2. Psikopatoloji 12. Basim-DSM-5 Guncellemesi ile / Muzaffer Shahin 2013y.
3. Никифорова Г.С. «Психология здоровья» СПб: Питер, 2006.
4. Пирог, Г. В. (2021). Психологические особенности жизненных перспектив современной молодежи. // Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги, 4-6.
5. Карвасарский Б.Д., Клиническая психология, Учебник. - 2004г.
6. Тухтарова И.В., Биктимиров Т.З. Соматопсихология, Хрестоматия-2006.
7. Франц Александер, Психосоматическая медицина: принципы и практическое применение, перевод с английского С. Могилевского, 2001 г.
8. Dursunov S., Ergashev M. Nevroz buzilishi va davolashda umumiy qonuniyatlar // Academic research in educational sciences 4 (TMA Conference), 1046-1051.
9. Axmat o‘g‘li, D. S., & Sevinch, A. (2023). Bemorlarda nevroitik holatlar tahlili. // Scientific Impulse, 1(8), 716-719.
10. Dursunov, S. (2023). Оилавий инкирозлар ва психотерапия йўналишининг асослари.

Ikramov Amirbek Aminovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA O'QITUVCHI-MURABBIY FAOLIYATINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy sport turlarining keskin rivojlanishi, sport yutuqlarining izchil tarzda yuqorilab, o'sib borishi hamda sportning jamiyat hayotiga tobora jadallik bilan keng miqyosda singib borishi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha o'qituvchi-murabbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mukammalroq o'rganishga zamin yaratayotganligi, sportchining psixikasi jiddiy o'rganilmasdan, zamonaviy sport yutuqlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati yo'qligi, sport murabbiysi sportchining psixik funksiyalari, psixologik sifatlarini bilmagan holda, uning oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishga qodir emasligi, sportda yuksak yutuqlarni qo'lga kiritish uchun murabbiy sportchini har tomonlama mukammal bilishi va psixologik bilimlarga ega bo'lishi lozimligi, ruhiy psixologik tahlil mashg'ulotlar va musobaqalar paytida jismoniy tarbiya va sport ishtirokchilarining ruhiy holati, inson temperamentining sport natijalarini belgilovchi omillar, sportchilarning hissiy va ruhiy holati, murabbiylar shaxsiyatining ta'siri va o'quv jarayonini boshqarish faoliyati va ko'nikmalarini o'z ichiga olishi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, psixika, mashg'ulot, pedagogik amaliyot, pedagogik ko'nikma, jismoniy sifatlar, baholash tizimi, pedagogik tajriba, sezgilar, tasavvurlar, diqqat, xotira hamda tafakkur, taxistoskopik usuli, sport psixologiyasining integratsiyalashuvi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ-ТРЕНЕРА ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ

Аннотация. В данной статье отмечается, что сегодня бурное развитие современных видов спорта, последовательный рост спортивных достижений, а также всё более интенсивное внедрение спорта в жизнь общества создают почву для более совершенного изучения социально-психологических особенностей деятельности учителя-тренера по физической культуре и спорту, без серьёзного изучения психики спортсмена невозможно всесторонне развивать современные спортивные достижения., спортивный тренер без знания психических функций, психологических качеств спортсмена, для достижения высоких результатов в спорте тренер должен знать спортсмена в совершенстве и обладать психологическими знаниями, проводить психологический анализ психического состояния участников физической культуры и спорта во время тренировок и соревнований, факторов, определяющих спортивные результаты темперамента человека, эмоционально-психического состояния спортсменов, влияния личности тренеров и т.д. Изложены соображения о том, что управление процессом обучения включает в себя деятельность и навыки.

Ключевые слова: интеграция физического воспитания, спортивная психология, психика, тренировки, педагогическая практика, педагогические навыки, физические качества, системы оценок, педагогический опыт, ощущения, воображение, внимание, память и мышление, тахistosкопический метод, спортивная психология.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE ACTIVITIES OF A TEACHER-COACH IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Abstract. In this article, the sharp development of modern sports today, the consistent rise and growth of sports achievements and the large-scale absorption of sports into the life of society on an ever-increasing scale provide the basis for a more perfect study of the socio-psychological characteristics of the activity of a physical education and sports teacher-coach, the inability of an athlete to comprehensively develop, thoughts on the inability to solve the tasks set before him, the fact that in order to achieve high achievements in sports, the coach must know the athlete perfectly in every possible way and have psychological knowledge, mental psychological analysis includes the mental state of physical education and sports participants during classes and competitions, determining the sports results of human temperament, emotional and mental state of students.

Keywords: *physical education, sports psychology, psyche, training, pedagogical practice, pedagogical skills, physical qualities, assessment system, pedagogical experience, sensations, imagination, attention, memory and thinking, taxistoscopic method, integration of sports psychology.*

Kirish. Zamonaviy sport turlarining keskin rivojlanishi, sport yutuqlarining izchil tarzda yuqorilab, o‘tib borishi hamda sportning jamiyat hayotiga tobora jadallik bilan keng miqyosda singib borishi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha o‘qituvchi-murabbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mukammalroq o‘rganishga zamin yaratadi. Sportchining psixikasi jiddiy o‘rganilmasdan, zamonaviy sport yutuqlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati yo‘qligi barchaga ma‘lum bo‘lib qoldi. Sport murabbiysi sportchining psixik funksiyalari, psixologik sifatlarini bilmagan holda, uning oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etishga qodir emas. Sportda yuksak yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun murabbiy sportchini har tomonlama mukammal bilishi va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Ma‘lumki, inson faoliyati jismoniy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq ongli ravishda qo‘yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan. Harakat faoliyati - inson faoliyatining bir turi bo‘lib, u ushbu faoliyat subyekting o‘ziga, uning jismoniy va aqliy fazilatlarini, harakatlarini yaxshilashga qaratilgan. U asosan jismoniy tarbiya yoki sport tizimi doirasida amalga oshiriladi. Jismoniy madaniyat sohasidagi faoliyatning asosiy maqsadi jismoniy va aqliy kamolotdir, ya‘ni tizimli tayyorgarlik va maxsus jismoniy faoliyat orqali shaxsni rivojlantirish jarayonida uyg‘unlikka erishish.

Asosiy qism. Mashg‘ulotlarning samaradorligi va tizimliliigi jismoniy sifatlar va harakat ko‘nikmalarining ma‘lum darajada rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Inson hayotidagi harakat faolligi faol biologik stimulyatsiya omili, moslashish mexanizmlarini takomillashtirish omili, nafaqat jismoniy, balki intellektual rivojlanish omilidir. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi madaniyatning barcha tarkibiy qismlarini: vosita (harakat madaniyati) va hissiy (his-tuyg‘ular madaniyati), nutq va til, mehnat va erkin faoliyat madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili jismoniy tarbiya tizimining asosiy tamoyillaridan biridir. Biroq ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, har tomonlama jismoniy rivojlanish, birinchi navbatda, insonning intellektual rivojlanishiga foydali ta‘sir ko‘rsatishi kerak. Talabning o‘zi, bu holda, jismoniy tarbiya jarayonida o‘z qobiliyatlarini (jismoniy, psixologik, axloqiy) namoyon qilish va rivojlantirishga harakat qilishi zarur. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi talabada kechadigan barcha psixik jarayonlarni tushungan holda munosabatga kirishishi lozim.

Psixik jarayonlar bu - obyektiv borliqning turli-tuman subyektiv ifoda shakllaridir. Odatda ular tarkibiga sezgilar, tasavvurlar, diqqat, xotira hamda tafakkur kabilar kiradi. Sportda sezgini o‘rganish asosan ikkita maqsadni ko‘zlaydi: sportchining sport qobiliyatlarini tekshiruvdan o‘tkazish va uning funksional holatiga baho berish. O‘z mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi sport turlari sportchining ko‘rish, kinestetik va boshqa sezgilariga nisbatan turlicha talablarni qo‘yadi. Shuning uchun ham ulardagi ichki individual farqlar sportdagi saralashga xizmat qiladi. Ayni paytda ichki farqlar, masalan, bir odamga xos bo‘lgan sezgilarning xilma-xilligi funksional holatning xarakteristikasi, ya‘ni tavsifi bo‘lib xizmat qilishi mumkin (charchash, mashq holatining pasayishi, start oldi lixoradkasi va hokazolar).

Diqqatni tadqiq etish usullari. Diqqatni tadqiq etish jarayonida uning sportchi funksional holatiga, u bajarayotgan faoliyatga, atrof muhitdagi sharoitga hamda sportchining o‘tkazilayotgan tadqiqotlarga nisbatan munosabatiga va hokazolarga bog‘liq ekanligini hisobga olish zarur. Shu sababli sportchilarning o‘z diqqat-e‘tiborlarining buzilishi: diqqatni to‘plashdagi qiyinchiliklar, tez-tez chalg‘ishlari, parishonxotirliklari va hokazolar haqidagi shikoyatlariga alohida ahamiyat qaratish kerak. O‘ta charchoqlik, mashqdagi holatlarni unutish, startoldi lixoradkasi aksariyat hollarda diqqatning buzilishi oldidan yuz beradi.

Psixologiyada diqqatni tadqiq etish uchun maxsus tajribaviy usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosan diqqatning alohida xususiyatlarini (diqqat hajmini, to‘planganligini, barqarorligini va ko‘chuvchanligini) tadqiq etishga yo‘naltirilgandir. Diqqatning hajmi odatda taxistoskopik usuli bilan tadqiq etiladi: sinovga jalb etilgan shaxsga qisqa muddatga (1 soniyaga qadar) katakchalariga oddiy tarzda tushirilgan rasmlari bor jadvallar ko‘rsatiladi (ular aylana, uchburchak, to‘rtburchak belgilar va hokazolar bo‘lishi mumkin). Diqqatning hajmi javoblar varaqasidan o‘rin olgan va to‘g‘ri joylashtirilgan eng ko‘p rasmlar soniga ko‘ra aniqlanadi. Diqqatning to‘planganligini, barqarorligini, jadalligini hamda ko‘chuvchanligini baholash uchun maxsus korrekturali testlar qo‘llanilib, ular odatda, tasodifan bir qatorga tushib qolgan harflar, raqamlar yoki shakllar qatoridan iborat bo‘ladi. Sinovga jalb etilgan shaxs ular bilan oddiy aqliy amallarni bajaradi (ularni sanaydi, o‘chiradi, kodlashtiradi va hokazo). Xatolar soni va amallarni bajarish tezligi sinovga jalb etilgan shaxs diqqatining miqdoriy xarakteristikasini chiqarish uchun xizmat qiladi. Buning uchun turli-tuman refleksometrlar yoki maxsus kompyuter dasturlari qo‘llaniladi. Quyida kompyuter psixodiagnostikani variantlaridan birini keltiramiz. Bunda sinalayotgan shaxs kompyuter klaviaturasining tugmachasini bosish orqali monitoring ko‘k ekranida hosil bo‘lgan shartli signal (yashil

to‘g‘ri to‘rtburchak) ga reaksiya bildirishi lozim. Bunda ikki signal oralig‘idagi vaqt intervallari 2 dan 5 soniyagacha bo‘lishi hamda kompyuter orqali tasodifiy raqamlar jadvali bo‘yicha aniqlanishi kerak.

Xotirani tadqiq etish usullari. Xotirani tadqiq etish sportchilarni tanlab olish va ularning psixik holatlarini diagnostika etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Sport psixodiagnostikasida talaba xotirasiga juda katta etibor beriladi, chunki aynan shunday xotira sportchilardagi harakat malakalarining shakllanish tezligini belgilab beradi. Sport faoliyatining muvaffaqiyati uchun nihoyatda zarur bo‘lgan mnemik sifatlar xotiraning ikkita turi bilan bog‘liqdir: uzoq muddatli va qisqa muddatli (operativ) xotira bilan. Sport mashg‘ulotlari jarayonida va musobaqalarda to‘plangan tajriba uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Operativ xotira yangi qabul qilingan ma‘lumotni qisqa vaqtda saqlash uchun yoki uzoq muddatli xotiradan ajratib olingan ma‘lumotni saqlash uchun joriy faoliyatda qo‘llaniladi. Masalan, o‘yin vaziyatlari tezkorlik bilan o‘zgarib turadi va ularning izchilligi sportchi tomonidan tezda baholanishi va vaqtincha uning xotirasiga joylanishi kerak, Chunki sportchi ushbu harakatlarga nisbatan muayyan operativ harakatlarni amalga oshirishi (to‘pni uzatishi) lozim.

Tafakkurni tadqiq etish usullari. Tafakkurning turli tomonlarini tadqiq etish uchun psixodiagnostikaning juda ko‘plab testlari mavjuddir. Sport psixodiagnostikasi uchun operativ tafakkurni tadqiq etish alohida e‘tiborga molikdir. Odatda buning uchun «Beshlik o‘yini»dan foydalaniladi. Mazkur o‘yin keng ommalashgan «O‘n beshlik o‘yini»ning soddalashtirilgan variantidir. Ushbu o‘yin 2x3 hajmdagi maydonda o‘tkazilib undagi katakchalarga birdan beshgacha bo‘lgan sonlar yozilgan fishkalar erkin tartibda qo‘yilgan, bitta katak esa bo‘sh bo‘ladi. Bunda fishkalami dastlabki holatdan boshqacha holatga, ya‘ni topshiriq bo‘yicha o‘zgartirish talab etiladi (masalan, barcha fishkalar tartib bilan turishi, o‘ng tomondagi pastki maydon ochiq turishi kerak bo‘lgan holatga keltirish) bunda operativ tafakkurning, ya‘ni tezkorlik bilan fikrlash samaradorligining darajasi va foydalanilgan strategiyalar baholanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport murabbiylarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda sport psixologiyasi fanining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Jismoniy tarbiya va sportda inson faoliyatini, ya‘ni shaxsni ijtimoiy, ongli, amaliy, idrok etuvchi, umumlashtiruvchi, yaratuvchan qilib tarbiyalash, o‘zini va boshqa odamlarni boshqara oladigan murabbiylar, pedagoglar talab etiladi.

Sport psixologiyasining quyidagi asosiy oltita vazifasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Sport faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganish.

• Ushbu vazifaning ahamiyati ijtimoiy sport psixologiyasining paydo bo‘lishi hamda uning o‘z nazariy bazasiga, fenomenologiyasiga, uslublariga ega maxsus sohaga aylanishi bilan izohlanadi. Umumiy tarzda aytganda, bu sportchi xatti-harakatlarini uni qurshab turgan ijtimoiy muhit bilan aloqadorlikda o‘rganishdan iboratdir.

2. Sportchi, sport murabbiysi, sport hakami shaxsini shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish.

• Sportdagi shaxs psixologiyasi tushunchasi bilan inson xatti-harakatlarining betakrorligini, individual va o‘ziga xosligini o‘rganish va ikkinchi tarafdin aynan shunga o‘xshash holatlarda yuz beradigan psixik holatlar asosida yotuvchi farqlarni o‘rganish o‘zaro bog‘liqdir.

3. Harakat malakalarini va sifatlarini takomillashtirishning psixologik asoslarini o‘rganish.

• Ko‘pincha sportda muvaffaqiyat qozonishning asosi sifatida - doimiy takomillashuvchi maxsus harakatlar va harakat sifatleri namoyon bo‘ladi. Harakat malakalarini shakllantirish, ularni avtomatlashtirish zaruriyati, shuningdek, jismoniy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi azal-azaldan ham sport psixologlarining e‘tibor markazida bo‘lib kelgan.

4. Musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillarni o‘rganish.

• Sport musobaqalari - sport faoliyatining avj nuqtasi va hal qiluvchi omildir, zero ular sportchilar psixikasiga yuqori talablarni qo‘yadi. Shu sababli ham musobaqa sharoitlarida psixikaning namoyon bo‘lishi va rivojlantirilishini nazoratga olish va o‘rganish lozim.

5. Sport faoliyatini psixologik ta‘minlashning asoslarini o‘rganish.

• Sport psixologlari tadqiqotlarining aksariyati amaliy vazifalarini hal etish bilan bog‘liqdir. Ya‘ni ular o‘z ilmiy ishlarida sportda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ishlanmalarni sport murabbiylari va amaliy psixologlar uchun qoniqari darajaga yetkazishga intiladilar.

6. Fanlar tizimiga sport psixologiyasining integratsiyalashuvi yo‘llarini o‘rganish va uning yutuqlarini sport faoliyati amaliyotida qo‘llash.

• Ushbu vazifaning bajarilishiga sport psixologiyasi taraqqiyoti istiqbollarini o‘zida aks ettiruvchi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning keng miqyosli javob berishi mumkin.

Jismoniy tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi jismoniy tarbiyadagi faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish asosida umumiy sog'lomlashtiruvchi, ta'limiy va tarbiyaviy xarakterdagi amaliy masalalarni oqilona hal etishga yordam berishdir. Jismoniy tarbiya va sportning xususiyatlari jismoniy tarbiya va sport psixologiyasining o'ziga xos va bog'lovchi xususiyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Ruhiy psixologik tahlil mashg'ulotlar va musobaqalar paytida jismoniy tarbiya va sport ishtirokchilarining ruhiy holati, inson temperamentining sport natijalarini belgilovchi omillar, sportchilarning hissiy va ruhiy holati, murabbiylar shaxsiyatining ta'siri va o'quv jarayonini boshqarish faoliyati va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Psixologik tahlilning yana bir mohiyati shundaki, u sport natijalarini sportchilarning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga muvofiq rejalashtiradi va aksincha, sportga qodir bo'lmagan va qobiliyatsizlarni aniqlaydi. Shuningdek, psixologik tahlil jarayoni bolalarni tanlash va sportga yo'naltirish bo'yicha tadbirlarning asosini tashkil etadi. Chunki boshlang'ich sport mashg'ulotlari guruhlarining asosiy mazmuni bolalar tomonidan erkin harakatlar orqali sport mashg'ulotlarining dastlabki shakllarini egallashdir. Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya va sportda ko'plab yangi ilmiy tadqiqot usullari qo'llanilmoqda, bu usullarning maqsadi va vazifasi jismoniy tarbiya va sport jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat.

Jismoniy tarbiya va sportning psixologik o'ziga xosligi quyidagi holatlar bilan bog'liq:

- jismoniy madaniyat va sport odamdan turli xil shakllarda mushaklarning maksimal faolligini talab qiladi va bu faollik har doim raqobatbardosh bo'lib, g'alaba qozonish istagi bilan harakat qiladi;

- jismoniy madaniyat va sport, inson faoliyatining boshqa turlari kabi, turli xil hissiy holatlarga singib ketgan.

Ko'pgina sport turlarida hissiy stressni og'ir jismoniy mashqlar bilan birlashtirish tanaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu uning moslashish qobiliyatining jiddiy sinovidir. O'qituvchi-murabbiy markaziy shaxs hisoblanadi. Unda o'quvchilar yetuk shaxsni ko'rishga intilishadi, chunki o'qituvchi-murabbiyning faoliyat sohasi oddiy fan o'qituvchisi yoki shunchaki rahbarning funksiyalariga qaraganda ancha kengroq. O'qituvchi-murabbiy, birinchi navbatda, o'quv va tarbiya jarayonini muntazam ravishda amalga oshiradigan pedagog, o'qituvchidir. U talabaning funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, ularda ma'lum jismoniy fazilatlar, harakat qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantiradi, mashqlarni bajarishning eng oqilona texnikasini o'rgatadi. Noto'g'ri rejalashtirilgan va yomon tashkil etilgan o'quv jarayoni istalmagan oqibatlariga olib keladi. Shunday qilib, talabalar o'qituvchi-trener tomonidan ularga yetkazilgan ma'lumotlarning mazmunini yoki kerakli miqdorini sezmasliklari, zaruriy jismoniy faollikni olmasliklari mumkin.

5. Ardila A. There are Two Different Language Systems in the Brain // Journal of Behavioral and Brain Science Vol.1 No.2, May 2011.
6. Bonita R. Epidemiology of stroke. 1992. Lancet 339: 342–344.
7. Eric J. Engstrom, Matthias M. Weber. The Directions of Psychiatric Research by Emil Kraepelin.// History of Psychiatry, SAGE Publications, 2005, 16 (3), p.345-349.
8. Heilman KM. Anosognosia and anosodiaphoria of weakness In Study of Anosognosia/ K.M.Heilman, M. Harciarek // Ed. G.P. Prigatano., Oxford univercity press - 2010 – p. 89-112.
9. Hughlings Jackson J (1915). On affection of speech from disease of the brain. Brain 2: 323–356. 1915. <https://doi.org/10.1093/brain/2.3.323>.
10. Jiann-Jy Chen Anton–Babinski syndrome in an old patient: a case report and literature review // Psychogeriatrics 2015; 15: 58-61.
11. Meyer A. The anatomical facts and clinical varieties of traumatic insanity. Am J Psychiatry 60: 1904. 373–441. <https://doi.org/10.1176/ajp.60.3.373>.
12. Weinstein E.A. Syndrome of Anosognosia / E.A. Weinstein, R.L. Kahn // Archives of Neurology and Psychiatry - 1950 – Vol. 64 –N 6 – p. 772-91.

Kalandarova Madina Baxadirovna,
Ma'mun universiteti, psixologiya kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLAR BILAN PSIXOKORREKSION ISH OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tug'ruqdan keyingi davrda ayollar bilan psixokorreksion ish olib borishning psixologik asoslari tahlil qilingan. Ayollarning emotsional sohasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari korreksion dastur asosida amalga oshishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: perinatal psixologiya, psixika, homiladorlik, tug'ruq, tug'ruqdan keyingi davr, emotsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОКОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ЖЕНЩИНАМИ В ПОСЛЕРОДОВОМ ПЕРИОДЕ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические основы психокоррекционной работы с женщинами в послеродовом периоде. Предусмотрено, что механизмы воздействия на эмоциональную сферу женщин будут реализованы на основе коррекционной программы.

Ключевые слова: перинатальная психология, психика, беременность, роды, послеродовой период, эмоции.

PSYCHOLOGICAL BASIS OF PSYCHOCORRECTION WORK WITH WOMEN IN THE POSTPARTUM PERIOD

Abstract. This article analyzes the psychological basis of psychocorrective work with women in the postpartum period. It is envisaged that the mechanisms of influencing the emotional sphere of women will be implemented on the basis of a correctional program.

Keywords: perinatal psychology, psyche, pregnancy, childbirth, postpartum period, emotion.

Kirish. Perinatal psixologiya rivojlanish psixologiyasining alohida sohasi sifatida XX asrning oxirgi choragida shakllana boshlagan. Mazkur soha homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrning psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Atamaga kelsak, «perinatal» tushunchasi yunoncha old qo'shimcha «peri» - atrofida, tevaragida, latincha «natal» – tug'ruqqa munosabat ma'nolarini beradi [6].

Ayollarda tug'ruqdan keyingi davrdagi hissiy holatlarning o'zgarishini o'rganish ayolni va uning oilasini butun perinatal davr davomida tug'ruqqa psixofiziologik jihatdan tayyorlikni shakllantirish, tug'ruqdan keyingi davrda ro'y berishi mumkin bo'lgan affektiv buzilishlar va psixologik tanglikning oldini olish maqsadida har bir ayolni individual tibbiy-ijtimoiy-psixologik kuzatish muhimligini ko'rsatdi. Ayollarga perinatal davr fiziologiyasi haqida ma'lumotlarning berilishi, tug'ruq jarayoni va tug'ruqdan keyingi davr jarayonlariga psixologik moslashuviga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu muammoli vaziyatdan kelib chiqib, ayollarga va ularning oilalariga taqdim qilinayotgan axborot ilmiy jihatdan asoslangan, aniq amaliy xarakterga ega bo'lishi va yagona maqsadga – ota-onalik qobiliyatligini oshirishga va farzand dunyoga kelishiga tayyorlikning shakllanishiga muvofiq kelishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi zamonaviy psixologiya amaliyotida tug'ruqdan keyingi hissiy-emotsional holatlarni korreksiyalashda psixoterapiyani qo'llash, psixologiya sohasidagi emotsiyalar haqidagi tadqiqotlarning chuqur nazariy tahlilini talab qiladi. Chunki tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda mustahkam nazariy asosga ega bo'lgan psixologik xizmat ko'rsatish lozim. Ayollar tabiatan emotsiyaga beriluvchan bo'lganligidan emotsiya psixologiyasiga doir tadqiqotlar muayyan ilmiy muammolar va amaliy vazifalar yechimiga qaratilgan bo'lib, o'z o'rnida qimmatlidir. Emotsiyalar shaxsning ichki regulyasion funksiyasini boshqarish bilan birga fiziologik holatga ta'sir ko'rsatib, salomatlik va kasallik chegarasida turadi. Emotsiya psixologiyasini chuqur tadqiq etgan Ye.Ilin va K.Izart psixologiya sohasida emotsiya va hissiyot insonning hayoti va salomatligidagi o'rning muhimligini ta'kidlaydilar [4].

Ayolning homiladorlik davrini qanday boshidan kechirishi uning ona bo'lganidan keyingi xulq-atvorini belgilaydi. Tug'ish bilan bog'liq tashvishlr psixoanalitik yo'l bilan O.Rank va S.Grofflar tomonidan batafsil o'rganilgan. Tug'ruqdan keyingi davr psixologik jihatdan alohida davr hisoblanib, bu ikki tomonning farzand tug'ilishiga bo'lgan hissiy munosabati asosida belgilanadi.

Perinatal psixologiya sohasida bir qator tadqiqotlar olib borgan rus olimi I.V.Dobryakov tomonidan «Homilador ayol munosabatlarini aniqlash» testi ishlab chiqildi. Mazkur test homilador ayollarning shu davr bilan bog'liq o'z-o'ziga munosabati, «ona-bola» tuzilishiga munosabatlari, atrofdagi odamlarning fikriga va qarashlariga munosabatini aniqlash imkonini beradi [1].

Rus olimasi M.A.Korgoja tadqiqotlarida tug'ruqdan keyingi davrda ayollar emotsional holatlari dinamikasini o'rganib, prenatal davrda ayollarda kuzatiladigan xavotirlanish, asteniya, isteriya, obsessiv-fobiya va depressiv emotsional holatlarga ega bo'lgan ayollar tug'ruqdan keyin bu holatlarning yomonlashishiga moyilligi, shuningdek, tug'ruqdan keyingi depressiya va boshqa affektiv kasalliklar rivojlanishi uchun yuqori xavf guruhini tashkil etishini o'rgangan [5].

Bolalar psixoanalizi asoschilaridan Anna Freyd bola psixikasining ona munosabatlari tuzilmasida rivojlanishini ta'kidlab, uning psixik rivojlanishidagi hal qiluvchi ahamiyatni ona qiyofasiga qaratadi. Ona bola uchun mehr beruvchi birinchi obyekt, aynan onaning kayfiyati bolaga hal qiluvchi ta'sirni ko'rsatuvchi asos bo'lsa, adolatsizlik va yoqtirmasligi uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Onaga yoqqan narsa tez rivojlanadi, onaning befarqligi boladagi rivojlanishni sekinlashtiradi. Ona va bolaning emotsional munosabatiga bola shaxsining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik model sifatida qarash mumkin [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullarning metodologik asosi sifatida V.Frankl tomonidan yaratilgan ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi ham tanlangan. V.Frankl nazariyasi mohiyatida, inson tabiatiga, shaxs rivojlanishi me'yorining mexanizmlari, shaxs rivojlanishidagi anomaliyalarni tuzatish yo'llari va usullariga bo'lgan psixologik, tibbiy va falsafiy qarashlarning tizimi tahlil qilinadi.

V.Frankl nazariyasi uch asosiy qismga bo'linib, bular:

ma'noga intilish haqidagi ta'limot;

hayot ma'nosi haqidagi ta'limot;

iroda erkinligi haqidagi ta'limot [2].

Ta'limotga ko'ra, insonlar hayot ma'nosiga intilishda, harakat qilishda o'z ehtiyojlarini qondirar ekan, shu ehtiyojlardan qandaydir mazmun izlaydi va aynan o'sha mazmuni topsagina, ehtiyot to'liq qondirilgan hisoblanadi. Hayot mazmuni haqidagi ta'limotga asosan, har bir inson o'z hayoti davomida bolaligidan ongida «men» konsepsiyasi shakllangan davrdan o'z hayotining mazmunini izlashdan iborat hisoblanadi. Insonlar hayot mazmunini izlash uchun o'qiydi, izlanadi, kasb, turmush o'rtoq tanlaydi, farzand tarbiyalaydi. Inson hayot mazmunini o'z harakatlarida, munosabatlarida topadigan, aniqlaydigan bo'lsa, u to'liq o'zining mavjudligini, ekzistensial ekanligini anglaydi. Aks holda ekzistensial vakumga tushib qoladi. U bu hayotdan mazmun topolmay qoladi. Bunday davrda iroda erkinligi vakumdan chiqib ketishga yordam beradi. Tadqiqot usullarini tanlashda, ayniqsa, korreksion metodlarni o'tkazishda ayollarni hayot ma'nosini anglashga yo'naltirilgan mazmunga ega mashqlardan foydalanishga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, «Psixologik tarbiya» mavzusidagi mini ma'ruza, «Mening hayotdagi shiorim» mashqi shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Tug'ruqdan keyingi birlamchi uch kun ichida ayol organizmi hayot faoliyatining yangi jarayonlariga moslashuvining muhim fiziologik jarayonlari ro'y beradiki, ularning o'ziga xosligi laktatsiyaning paydo bo'lishi, yo'ldosh maydoni o'rnida jarohat yuzasining mavjudligi, ayol organizmining himoya kuchlarining pasayishi bo'ladi. Tug'ruqdan keyingi kech davr, ayol organizmining qayta tiklanish jarayoniga yakun yasab, tug'ruqdan olti hafta o'tganidan keyin tugaydi. Tizimlarning qayta rivojlanishi organizmni bo'yida bo'lishgacha bo'lgan fiziologik holatga qaytaradi. Bu jarayondan sut bezlari mustasno, ularning faoliyati tug'ruqdan keyingi davrda laktatsiya jarayonining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda o'zining eng yuqori nuqtasiga yetadi. Laktatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati tug'ruqdan keyingi erta davrda onaning endokrin tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan neyroqumoral sozlashning murakkab mexanizmi bilan bog'liq. Tug'ruqdan keyingi birinchi haftalarda pasaygan arteriya qon bosimi asosida moddalar almashinuvi tezligi ortadi va o'zining me'yoriy ko'rsatkichlariga tug'ruqdan keyingi davr oxiriga borib yetadi. Tug'ruq jarayonida jiddiy fiziologik o'zgarishlar asosida zo'riqish holatlarini boshdan kechirish, organizmning yangi holatiga, farzand tug'ulishiga va uni parvarishlashga xos psixologik moslashish yuz beradi.

Tadqiqotimizning tashxis bosqichida tug'ruqdan keyingi kech davr, ayol organizmining qayta tiklanish jarayoniga yakun yasab, tug'ruqdan olti hafta o'tganidan keyin tugashi va ayolning bola bilan turg'un konstruktiv diadik munosabatlarining o'rnatilishi bilan birgalikda emotsional holatlarning nisbatan barqarorlashini kuzatdik. Shu bilan birgalikda, ayrim toifadagi ayollarda tug'ruqdan keyingi birinchi oyda bolani parvarishlashga tez moslashish va kuchlarni safarbar etish bilan bog'liq bo'lgan o'zining ahvolini va sog'lig'ini subyektiv past baholash, psixofizik toliqish, ichki zo'riqishning kuchayishi, uyqu va uyg'oqlik tartibining tuzilishi ayolga sifatli kasbiy psixologik yordam ko'rsatish va uni perinatal davr oxirigacha

kuzatish zaruratini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan mazkur toifadagi ayollar bilan psixokorreksion ish olib borishning dasturiy asoslari, ayollarga psixokorreksion yordam berish samaradorligi amaliy ishlar yordamida aniqlandi.

Psixologik-korreksion dasturning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- 1) tugʻruqdan keyingi davrda ekzistensial voqelikka nisbatan ayollarning subyektiv munosabat va tajribani oshirishda psixologik bilimlarni mustahkamlash;
- 2) ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish orqali ijtimoiy rollarning shaxsga qoʻyadigan talablarini aniqlashtirish;
- 3) «ota-ona-bola» triadasida konstruktiv munosabatni oʻrnatish;
- 4) farzandiga, oʻz-oʻziga, turmushiga, hayotga nisbatan munosabat tizimida emotsional intellektni shakllantirish;
- 5) ona tomonidan bola harakatlarini anglash va tushunishning murakkabligi va bolani toʻgʻri parvarishlashda oʻzining tajribasizligi va oʻzligini sezish hissini bartaraf qilishga yoʻnaltirish;
- 6) ayollar uchun oʻz oʻrnida emotsional qoʻllab-quvvatlashni tashkil etish.

Tugʻruqdan keyingi davrda ayollarni psixologik qoʻllab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan psixologik korreksion trening ahamiyatli tomoni shundan iboratki, insonparvarlik amaliyoti asosida onalikka ijtimoiy moslashuv markaziy oʻrinni egallaydi.


Tadqiqotimiz davomida tugʻruqdan keyingi davrda salbiy emotsional holatlar aniqlangan ayollarga psixokorreksion mashgʻulotda qatnashish taklif qilindi va psixologik xizmat haqida maʼlumot berildi. Psixokorreksion trening guruhiga tadqiqotda qatnashgan va mazkur davrda salbiy emotsional holatlar kuzatilayotgan ayollar jalb qilindi. Psixokorreksion tadbir ishtirokchilari «yosh onalar» ekanligini inobatga olgan holda, trening oʻtkaziladigan joyda bolalar xonasini tashkil qilish va tarbiyachilarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Ayollar bilan guruh va individual tarzda ish olib borildi.

Tadqiqotda biz tomonimizdan tuzilgan tugʻruqdan keyingi davrda ayollar emotsional holatlarini barqarorlashtirishga qaratilgan maxsus korreksion dasturdan foydalanildi. Psixologik-korreksion trening dasturi 6 ta mashgʻulotdan iborat boʻlib, ishtirokchilar uchun mini maʼruza, psixogimnastik mashq, zarur qoida, uy vazifasidan tashkil topgan «Baxtli hayot sari» deb nomlangan dasturda koʻzda tutilgan. Maqsad aynan ayollarning emotsional sohasiga psixologik taʼsir koʻrsatish ekanligini hisobga olgan holda, mashgʻulotlar davomida sinaluvchilarning roli emotsional faoliyati, psixologik salomatlik, oʻz-oʻzini his qilish, kayfiyat koʻtarish, depressiya darajasini pasaytirish, emotsiyalarni nazorat qilish asosida voqelikka munosabatlarni oʻzgartirish asosida qabul qilishga qaratilgan. Mashgʻulotlarning ketma-ketlilik, tizimlilik, integrativlik va yaxlitlik tamoyillari asosida olib borilishi mazkur modelning joriy qilinishi va samara berishida ahamiyatli rol oʻynadi.

Ayollarning emotsional sohasiga taʼsir koʻrsatish mexanizmlari korreksion dastur qamrab olgan maqsadli mashqlar asosida quyidagi bosqichlarda amalga oshishi koʻzda tutildi.

1. Ayollar oʻzlarining emotsional holatiga mutaxassis tomonidan qiziqishni sezadi (shaxsiy soha).
2. Ularda oʻz kechinmalarini anglab yetish va yuzaga chiqarish ehtiyoji paydo boʻladi (ijtimoiy soha).
3. Psixolog bilan suhbat ularning shaxslararo munosabatlar sohasidagi muammolarini yuzaga chiqaradi va ularni tushunish imkoniyatini yaratadi (ijtimoiy soha).
4. Ijtimoiy rollar tahliliga qaratilgan («Men va mening bolam» proyektiv metodikalari, «Chalkash rollar» mashqi, psixodramma) mashqlari ayollarda yuzaga keladigan ijtimoiy rollar muammosini aniqlashtirishga, yaʼni, onalik, uy bekasi, ayollik, kelin ijtimoiy rollarining shaxsga qoʻyadigan talablarini aniqlashtirishga yordam beradi (emotsional va ijtimoiy soha).
5. Sinaluvchilarning muammolari guruh aʼzolari tomonidan tahlil qilinishi va emotsional qoʻllab-quvvatlanishi asosida, ishtirokchilarda ijtimoiy va emotsional barqarorlik holati mustahkamlanadi, kayfiyatni koʻtaradi (ijtimoiy va emotsional soha).
6. Dasturda keltirilgan maʼruza mashgʻuloti («Psixologik tarbiya» mini maʼruzasi) psixologik bilimlarni mustahkamlashga, shukronalik hissini oshirishga qaratilib, ishtirokchilarning kognitiv, emotsional va irodaviy sohasida ijobiy oʻzgarishlarni vujudga keltiradi.
7. Onaning chaqaloq bilan psixologik munosabatlar oʻrnatishiga koʻmaklashiladi va uning bilan bevosita munosabat ragʻbatlantiriladi («Men va mening bolam» proyektiv metodikalari) va ijtimoiy koʻnikmalari oʻstiriladi (ijtimoiy soha).

Ayollarda emotsional, irodaviy, shaxsiy, ijtimoiy, kognitiv sohalardagi ijobiy oʻzgarishlar oʻz-oʻziga, farzandiga, hayotga, turmushiga nisbatan munosabatlar tizimini optimallashtiradi, ijtimoiy koʻnikmalarini oʻstiradi, salbiy kechinmalar bilan kurashish hissini rivojlantiradi natijada salbiy emotsiyalar kamayadi.



1-rasm. “Baxtli hayot sari” nomli korreksion dastur ta’sir yo‘nalishlari

Xulosa va takliflar. Demak, ayollarning tug‘ruqdan keyingi davrdagi shaxsiy emotsional sohasiga psixoterapevtik ta’sir ko‘rsatishda irodaviy, shaxsiy, kognitiv, ijtimoiy jihatdan kompleks ravishda ta’sir qilish psixokorreksion dasturning bosh konsepsiyasini tashkil qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tug‘ruqdan keyingi davrda ayollar bilan psixokorreksion tadbirlarni olib borishda zamonaviy psixoterapevtik yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

2. Psixokorreksion dasturni tuzish va o‘tkazishda ayollarning yosh, individual va milliy etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurdir.

3. Psixokorreksion tadbirlarni olib borishda ayollarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, guruhiy va individual tarzda psixoterapiyani amalga oshirish zarur.

4. Ishtirokchilar «yosh onalar» ekanligini hisobga olgan holda, trening o‘tkaziladigan joyda bolalar xonasini tashkil qilish va tarbiyachilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Добряков И.В. Перинатальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2010, - 271 б.
2. Франкл В. Логотерапия и экзистенциальный анализ: Статьи и лекции. Пер. с нем. – М.: Альпина нон-фикшн, 2016. – 344 с.
3. Фрейд А. Психопатологи и детства. М.: Издательский дом NOTA BENE, 2000 – 224 с.
4. Ильин Е.П. Психофизиология состояний человека. - Санкт-Петербург: Питер, 2005. - 412 с.
5. Коргожа М.А. Динамика эмоциональных состояний у женщин в послеродовом периоде: дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 2019. – 143 с.
6. Сидоров П.И., Чумакова Г.Н., Щукина Е.Г. Перинатальная психология: учебное пособие. – Санкт-Петербург.: СпецЛит, 2015. – 234 с.

*Mamatova Nazira Djurakulovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

NIKOH VA OILA MUNOSABATLARINING PSIXOTERAPEVTIK USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada nikoh va oila munosabatlarining psixoterapevtik usullari, oilaviy terapiya profilaktika, kasalliklarni davolash hamda shundan keyingi ijtimoiy mehnat reabilitatsiyasi maqsadida uni o'rganishni va unga ta'sir ko'rsatishni qamraydigan psixoterapiyaning bir sohasi ekanligi, er-xotinning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabati masalalari, oiladagi shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan salbiy-axloqiy sifatlar xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, psixoterapeya, salbiy-axloqiy sifatlar, mehnat reabilitatsiyasi, oilaviy terapiya profilaktika, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila inqirozi, zamonaviy oila.

ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ БРАКА И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье изложены психотерапевтические методы супружеских и семейных отношений, семейная терапия как отрасль психотерапии, охватывающая её изучение и воздействие в целях профилактики, лечения заболеваний и последующей социальной трудовой реабилитации, рассмотрены вопросы взаимоотношений супругов с родителями и близкими родственниками, рассмотрены особенности негативно-нравственных качеств, наблюдаемых в межличностных отношениях в семье.

Ключевые слова: брак, психотерапия, негативно-нравственные качества, трудовая реабилитация, семейная терапия профилактика, межличностные отношения в семье, семейный кризис, современная семья.

PSYCHOTHERAPEUTIC METHODS OF MARRIAGE AND FAMILY RELATIONS

Abstract. This article describes psychotherapeutic methods of marital and family relations, family therapy as a branch of psychotherapy, covering its study and impact for the prevention, treatment of diseases and subsequent social labor rehabilitation, examines the issues of relationships between spouses with parents and close relatives, examines the features of negative moral qualities observed in interpersonal relationships in the family.

Keywords: marriage, psychotherapy, negative moral qualities, labor rehabilitation, family therapy prevention, interpersonal relationships in the family, family crisis, modern family.

Kirish. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, so'nggi yillarda ajralishlar miqdori ancha ko'paygan, biroq ularni qoralash nisbatan kamaygan. Ana shunday holatlarning oldini olishning muhim vositalaridan biri-oilaviy psixoterapevtik usullardan foydalanishdir. Oilaviy psixoterapiya psixoterapiyaning mustaqil ilmiy-amaliy sohasi sifatida XX asrning o'rtalarida shakllandi. Uning yuzaga kelishi ayni bir vaqtda oila inqirozining (ko'proq g'arb mamlakatlarida) namoyon bo'lishi va unga yordam ko'rsatishning yangi, noan'anaviy usullarini topishga urinish edi: aynan oilaning barbod bo'lishi aniq xavfga aylangan o'sha davrda oilaviy terapeya uni davolashning o'ziga xos uslubi sifatida yangi bir ichki imkoniyat sifatida namoyon bo'ldi. Taraqqiyot psixologiyasi ijtimoiy psixologiya bilan birgalikda oilaviy psixoterapiyani, ya'ni oilani tushunish uchun yangi psixologik asosni yuzaga keltirishga harakat qiladi.

Oilaviy psixoterapiyaga doir eng mukammal qo'llanmalarda bu ilmiy-amaliy fanga shunday ta'rif berilgan: Oilaviy terapiya profilaktika, kasalliklarni davolash hamda shundan keyingi ijtimoiy mehnat reabilitatsiyasi maqsadida uni o'rganishni va unga ta'sir ko'rsatishni qamraydigan psixoterapiyaning bir sohasi hisoblanadi.

Asosiy qism. Oilaviy psixoterapiya usullari eng avvalo, psixozga xos bo'lmagan psixogen buzilishlarda, alkogolizm, giyohvandlikda, psixatriya, psixoz va psixosomatik kasalliklari davomida qo'llaniladi. Eng muhimi oilaviy psixoterapiyada psixoterapiyaning boshqa sohalari tomonidan o'rganilmaydigan bir qator qo'shimcha jihatlari ham mavjudki, bular-oilaning meyorida faoliyat ko'rsatishi, undagi buzilishlarning turlari, ularning profilaktikasi, oila a'zolarining psixik va somatik salomatligi, oila hayoti va faoliyati nuqsonining diagnostikasidir.

Bunday «tibbiy yondashuv doirasida oilaga o'z mantiqiga ko'ra, rivojlanuvchi shaxslararo

munosabatlar tizimi tarzida emas, balki, eng avvalo, ijtimoiy muhitda alohida yo‘sinda faoliyat olib boruvchi insonlar guruhi sifatida qaraladi. Bu yerda oilaning «normal», «buzilgan» vazifalari, tarkibiy tuzilishi va dinamikasi ta‘rifi bilan bog‘liq masalalar birinchi o‘ringa chiqadi. Shuning bilan birga V.Y.Kaganning ta‘kidlaganidek, psixoterapiyaning (shu jumladan, oilaviy psixoterapiyaning) vujudga kelayotgan yangi usullari tobora ko‘proq insonparvarlik yo‘nalishlari sari intiladi.

Oilaviy psixoterapiya nima bilan shug‘ullanadi? Uning predmeti va pirovard maqsadi nimalardan iborat? N.Pezeshkian shu savollarga javob berar ekan, quyidagi qadimiy sharq maqolini keltiradi: Agar sen o‘z mamlakatingni tartibga keltirishni xohlasang, dastlab viloyatni tartibga keltir. Agar sen viloyatni tartibga keltirishni istasang, avvaliga shaharlarda tartib o‘rnat. Shaharlarda tartib o‘rnatish uchun oilalarni batartib qilmog‘ing lozim. Agar sen oilalarda tartib o‘rnatishni xohlasang, avvalo o‘z oilangda tartib o‘rnatishing kerak. Sen o‘z oilangda tartib o‘rnatishni istar ekansan, dastlab o‘zingni tartibga solmog‘ing joiz .

Xullas, «oilalarda tartib o‘rnatish»ga da‘vat etilgan oilaviy terapiya pirovard natijada insonparvar psixologik amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, u o‘zining bu xususiyati bilan zamonaviy oila rivojlanishida, uning bazaviy ijtimoiy yo‘nalishi markazida inson turishi tufayli uni o‘zgartiradigan insonparvarlik mayllariga yordam berishga da‘vat etilgan.

Agar kishilar shaxsiy masalalar bo‘yicha psixologlar va psixoterapevtlar maslahatiga olib keladigan muammolarini tahlil qiladigan bo‘lsak, gap har doim shaxslararo munosabatlar: Er-xotinlik, bolalar, ota-onalar, jinsiy, amaliy munosabatlar, yo shaxsning ichki munosabatlari, ya‘ni insonning o‘ziga nisbatan munosabatlari haqida boradi. Aynan munosabatlar (V. N. Myasishchev) insonning ruhiy hayotida har doim taranglik, to‘qnashuvlar, ziddiyatlar, ba‘zan esa haqiqiy mojarolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan sohani tashkil qiladi.

Munosabatlar xilma-xilligi, ularga kirishuvchi inson turli-tumanligi singari, chindan ham cheksiz holatdir. Shaxslararo va shaxsning ichki munosabatlari mutlaqo noyob va betakror bo‘lganida edi, bu sohada ixtisoslashuv bo‘lmasdi, binobarin, umumlashtirilgan bilimlarni to‘plash va kishilar bilan hamkorlikning maxsus usullarini ishlab chiqish mumkin bo‘lmas edi.

Haqiqatda esa aniq vaziyatlar va muammolarning ko‘zga ko‘rinib turgan xilma-xilligi orqasida umumiy psixologik mexanizmlar yotadi.

o‘zbek oilalarida er-xotinning ota-onasi (qaynота-qaynonasi) va yaqin qarindoshlari bilan munosabati qanday o‘rin tutadi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotimizning ushbu bosqichida, biz er-xotinning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabatlari jarayoniga murojaat qildik. Izlanishimiz nafaqat er-xotinning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabatlarini baholash uchun, balki ana shunday real munosabatlarni o‘rganish orqali oilaviy munosabatlar barqarorligini zarurat tarzida yo‘lga qo‘yishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Kelin-kuyovning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabati (foiz hisobida) n=300

№	Oila a‘zolari	Juda yaxshi	Yaxshi	Qanoatlanarli	Deyarli yomon	Yomon
I	Kelin n=150					
1.	Qaynona	17,0	53,0	17,3	10,0	2,7
2.	Qaynота	22,3	50,7	7,0	12,0	8,0
3.	Qayn opa singil	18,7	49,3	8,0	14,0	10,0
4.	Qayn aka-uka	16,0	55,0	10,7	13,3	5,0
II	Kuyov n-150					
1.	Qaynота	20,0	53,7	16,3	8,0	2,0
2.	Qaynona	26,7	40,3	14,0	13,0	6,0
3.	Qayn opa-singil	18,7	58,0	14,3	8,0	2,0
4.	Qayn aka-uka	20	54,7	12,0	11,0	2,7

Eng avvalo, oilaning yangi a‘zosi kelin (xotin)ning qaynота, qaynona, qayn opa-singil, qayn aka-ukalar bilan munosabatlari haqida fikr bildirish o‘rinlidir. Tadqiqotlarimizning natijalariga ko‘ra, kelinlarning qaynotalari bilan munosabatlari 17% oilalarda juda yaxshi, 53% ida yaxshi, 17,3% ida qanoatlanarli, 10% ida deyarli yomon, 2,7% ida esa yomon ekanligiga qayd etildi. Oilalarda kelin-qaynота munosabatlarining yaxshi va juda yaxshi ekanligi ko‘rsatkichi 70% ni tashkil etsa-da, lekin ularda kelin-qaynота o‘rtasida sovuq-ziddiyatli munosabatlar hali ham (deyarli yomon 10%, yomon 2,7%) saqlanib kelayotganligi o‘zaro munosabatlar barqarorligiga muayyan darajada salbiy ta‘sir etadi.

Qaynata-kelin o'rtasida vujudga keladigan kelishmovchilik va ziddiyatlar ko'pincha ular fe'l-atvorining nomutanosibli, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, oila budjetini oqilona boshqara olmaslik, ota-onaning aralashuvi, rashk va ishonchsizlik, uyning saranjom-sarishta va orasta emasligi, ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat, yashash sharoitining noqulayligi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi oilaning manfaatiga mos ishda ishlamaslik sababli yuzaga kelishi qayd etildi.

Biz tadqiqotlarimizning maqsadidan kelib chiqqan holda oiladagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini asosi bo'lgan er-xotin munosabatlarida nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish undagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini saqlashning zarur shart-sharoitlarini ta'minlash imkoniyatini yaratadi, degan qarorga keldik. Ushbu sohadagi tadqiqotlarimiz natijalari 2-jadvalda o'z ifodasini topgan.

2-jadval.

Quyidagi omillarning oiladagi shaxslararo (kelin kuyov misolida) munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida namoyon bo'lishi (foiz hisobida) n=300

№	Omillar	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Uchra- maydi
1.	Fe'l-atvorning mos kelmasligi	14	18	15	53
2.	Bolalar tarbiyasiga munosabat	8	12	35	45
3.	Iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar	22	16	14	48
4.	Oila budjetini ratsional boshqara olmaslik	14	17	12	57
5.	Uy ishlarining taqsimoti sababli	7	8	25	60
6.	Ota-onalarning aralashuvi	8	14	16	62
7.	Boshqa birovlarining aralashuvi	2	10	20	68
8.	Rashk va ishonchsizlik	23	15	10	62
9.	Sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi	6	19	11	64
10.	Uy ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi	9	6	37	48
11.	Ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat	12	10	18	60
12.	Farzandsizlik	4	2	-	94
13.	Yashash sharoitining noqulayligi	14	16	6	64
14.	Dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi	16	4	38	42
15.	Gap olmaslik, kelishmovchilik	6	17	19	58
16.	Oila manfaatiga mos ishga ishlamasliklari	3	3	44	50
17.	Ichish, chekish va boshqa qusurlar	11	5	12	72
18.	Jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik	7	16	11	66
19.	Muvaqqat noxush kayfiyatlar	-	5	55	40
20.	Boshqa arzimagan sabablar	-	8	24	68

Endi kelinlarning qaynonalari bilan munosabatlari holatiga e'tibor beradigan bo'lsak, u holda ular o'rtasidagi munosabatlar 23,3% oilalarda juda yaxshi, 50,7% ida yaxshi, 7% ida qanoatlanarli, 12% ida deyarli yomon va 8% ida yomon ekanligi qayd etildi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qaynona-kelin munosabatlari oilaviy munosabatlarning eng muhim qismini tashkil etadi, - desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki kelin-qaynona munosabatlarining juda yaxshi va yaxshi ekanligi 73% ni tashkil etsa-da, lekin ular o'rtasidagi deyarli yomon va yomon holatlar hali ham 20% oilalarda saqlanib kelayotganligi oilaviy turmush barqarorligi uchun xavfli omildir. Bunga ko'pincha qaynona kelin fe'l-atvorining, dunyoqarash va maslaklarining mos kelmasligi, bolalar tarbiyasiga munosabat, uning budjetini oqilona boshqara olmaslik, rashk va ishonchsizlik, ro'zg'or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, ota-ona yoki qarindosh-urug'larga munosabat, yashash sharoitining noqulayligi, gap olmaslik va kelishmovchiliklar sabab bo'lishi kuzatildi.

Kelinning qayn opa-singillar bilan munosabatlari 18,7% oilalarda juda yaxshi, 49,3% ida yaxshi, 8% ida qanoatlanarli, 14% ida deyarli yomon, 10% ida esa yomon ekanligi qayd etildi. Yoki buni kelin bilan qayn opa-singillarning o'zaro munosabatlari 68% oilalarda yaxshi holatda, 24% ida tashvishli deyish mumkin. o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga fe'l-atvorning mos kelmasligi, ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, kelinning oila budjetini oqilona, omilkorlik bilan boshqara olmasligi, yashash sharoitining noqulayligi dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, uyning saranjom-sarishta va orasta emasligi kabi omillar ta'sir etishi tadqiqotlarimizda isbotlandi.

Kelinning qayn aka-ukalar bilan munosabatlari 16% oilalarda juda yaxshi, 55% ida yaxshi, 10,7% ida

qanoatlanarli holatda, 13,3% ida deyarli yomon, 5% ida esa yomon ekanligi qayd etildi. Yoki bu holatni kelin bilan qayn aka-ukalarning o'zaro munosabatlari 71% oilalarda yaxshi, 18,3% ida yomon holatda degan xulosaga kelish mumkin. Kelin bilan qayn aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keluvchi sabablar fe'l-atvor, dunyoqarash va maslamlarning mos kelmasligi, ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat, yashash sharoitining noqulayligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, oila budjetini oqilona boshqara olmaslik, ichish, chekish va boshqa qusurlar ekanligi aniqlandi.

Endi kuyov (er) ning qaynота, qaynona, qayn opa-singil, qayn aka-ukalar bilan munosabatlarining holati to'g'risida to'xtalsak, u holda quyidagi natijalarni guvohi bo'lamiz. Tadqiqotlarimizga ko'ra, kuyovlarning qaynotalari bilan munosabati 20% oilalarda juda yaxshi, 53,7% ida yaxshi, 16,3% ida qanoatlanarli, 8% ida deyarli yomon, 2% ida esa yomon ekanligi qayd etildi. Kuyov bilan qaynота munosabatlari ham 70% oilalarda yaxshi ekanligi tasdiqlandi.

Biroq, 10% oilalarda kuyov bilan qaynота munosabatlari yomon ekanligi kuzatildi. Buning asosiy sabablari fe'l-atvorning mos kelmasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, oila budjetini oqilona boshqara olmaslik, ota-onalarning aralashuvi, ota-ona va qarindoshlarga munosabat, dunyoqarash va maslamlarning nomuvofiqligi, ichish, chekish va boshqa qusurlar ekanligi namoyon bo'ldi.

Kuyov-qaynona munosabatlari ham 26,7% oilalarda juda yaxshi, 40,3% ida yaxshi, 14% ida qanoatlanarli holatda, 13% ida deyarli yomon va 6% ida esa yomon holatda ekanligi aniqlandi. Kuyov-qaynona munosabatlari 67% oilalarda yaxshi ekanligi shu bilan birga 19% ida kuyov-qaynona munosabatlari yomon ekanligi kuzatildi. Bunga asosiy sabab ular fe'l-atvorining mos kelmasligi, oila budjetini oqilona boshqara olmaslik, uy ishlarining a'zolar o'rtasida taqsimoti, ota-onalarning aralashuvi, rashk va ishonchsizlik, ota-onalar va qarindosh-urug'larga munosabat, yashash sharoitining noqulayligi, maslamlarning nomuvofiqligi, ichish-chekish va boshqa qusurlar ekanligi isbotlandi.

Kuyovning qayn opa-singillar bilan munosabatlari o'rganilgan oilalarning 18,7% ida juda yaxshi, 58% ida yaxshi, 14,3% ida qanoatlanarli, 8% ida deyarli yomon va 2% ida yomon ekanligi aniqlandi. Umumiy holat kuyovning qayn opa-singillar bilan munosabati 76,7% oilalarda yaxshi, 10% ida yomon ekanligini tasdiqlaydi. Buning sabablariga ko'pincha yuqorida kuyov bilan qaynona munosabatlari yomon ahvoldagi oilalarda uchraydigan omillar ekanligi kuzatildi.

Kuyovning qayn aka-ukalar bilan munosabatlari o'rganilganda 20% oilalarda juda yaxshi, 54,7% ida yaxshi, 12% ida qanoatlanarli holatda, 11% ida deyarli yomon, 2,7% ida esa yomon ekanligi qayd etildi. Umumiy holatga e'tibor berilganda kuyovning qayn aka-ukalar bilan munosabati 74,7% oilalarda yaxshi, 13,7% ida esa yomon holatdaliq aniqlandi. Bunga asosiy sabab yuqorida bayon etilgan kuyov-qaynота munosabatlari yomonlashgan oilalarda uchraydigan omillar (aksariyat) ekanligi ta'kidlandi.

Kelinning qaynота (17,3%), qaynona (7%), qayn opa-singil (8%), qayn aka-uka (10,7%) lar bilan yoki kuyovning qaynота (16,3%), qaynona (14%), qayn opa-singil (14,3%), qayn aka-uka (12%) lar bilan o'zaro munosabatlari qanoatlanarli (yaxshi ham, yomon ham emas) darajada ekanligi oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining yo'ijobiy, yo salbiy tomonga siljishi (ta'sir ko'rsatishi) ehtimol.

Shunday qilib, er-xotinning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabatlaridagi (2-jadvalga qarang) kelinning qaynота bilan munosabatlari (10% oilalarda deyarli yomon, 2,7% ida yomon), qaynona bilan munosabatlari (12% oilalarda deyarli yomon, 8% ida yomon), qayn opa-singillar bilan munosabatlari (14% oilalarda deyarli yomon, 10% ida yomon), qayn aka-ukalar bilan munosabati (13,3% oilalarda deyarli yomon, 5% ida yomon) yoki kuyovning qaynота bilan munosabatlari (8% oilalarda deyarli yomon, 2% ida yomon), qaynona bilan munosabatlari (13% oilalarda deyarli yomon, 2% ida yomon) qayn opa-singillar bilan munosabati (8% oilalarda deyarli yomon, 2% ida yomon), qayn aka-ukalar bilan munosabatlari (11% oilalarda deyarli yomon, 2,7% ida yomon) shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning psixoterapevtik vositalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi (mazkur paragrafning so'nggida bu haqida kengroq to'xtalamiz).

Oiladagi shaxslararo munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar er yoinki xotinning xarakter xususiyatlari, ularning o'zaro munosabatlariga xos madaniyati bilan xuddi shu kabi oilaning boshqa a'zolari va yaqin qarindoshlarning xulq-atvor xususiyatlari va ularda o'zaro munosabatlarga mos ravishda shakllangan muomala-munosabat madaniyati darajalari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish va shunga xos psixoterapevtik vositalardan o'rinli foydalanish orqaligina ularni bartaraf qilish mumkin.

Biz tadqiqotlarimiz davomida oiladagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi 50 dan ziyod omillar ta'sirini o'rgangan bo'lsak-da, lekin ulardan eng muhimlari deb baholangan 20 ta omil to'g'risida fikr yuritishga qaror qildik, xolos.

Respondentlarga «Quyidagi omillarni sizning oilangizdagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida namoyon bo'lishini baholango'« («kuchli», «o'rtacha», «kuchsiz», «uchramaydi») ko'rinishida) deb bergan savolimizga ular quyidagicha javob berdilar (6-jadvalga qarang).

Respondentlarning 23% i er-xotin o‘rtasidagi rashk va ishonchsizlik, 22% iqtisodiy ta‘minotdagi kamchiliklar, 16% i dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, 14% i fe‘l-atvorning mos kelmasligi, 14% i oila budjetini oqilona, omilkorlik bilan boshqara olmaslik, 14% i yashash sharoitining noqulayligi, 12% i ota-ona va qarindosh-urug‘larga munosabatning kutilganidek darajada emasligi, 11% i ichish, chekish va boshqa qusurlar sababli, 9% i uy ishlarining saranjom, sarishta va orasta emasligi oiladagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni kelib chiqishiga kuchli omil sifatida ta‘sir etadi, deb e‘tirof etadilar.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda nizolar kelib chiqishida er-xotinning munosabatlariga otionalarning aralashuvi (8%), bolalar tarbiyasiga munosabat (8%), uy ishlarining taqsimoti (7%), jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik (7%), sevgi-muhabbatning yetarli emasligi (6%), gap olmaslik, kelishmovchilik (6%) ham ba‘zan oilaviy ziddiyatlar uchun kuchli omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlarga boshqa birovlarining aralashuvi (2%), oila a‘zolarining uning manfaatiga mos sohada ishlamasligi (3%), farzandsizlik (4%) omillari tufayli ularda kuchli nizolar kelib chiqishi deyarli kuzatilmaydi.

Aynan mazkur omillar juda kam sonli oilalardagina oilaviy nizolar uchun «o‘rtacha kuchli» va «kuchsiz» sabablar sifatida umumiy qayd etilmadi.

O‘zbek oilalaridagi oilaviy nizolar va kelishmovchiliklar ko‘pincha kuchsiz harakterda bo‘lib, bularning kelib chiqishida uning a‘zolarida muvaqqat noxush kayfiyatlarining yuzaga kelishi (55%), oila manfaatiga mos sohada ishlamaslik (44%), dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi (38%), uy ishlarida ba‘zan saranjom-sarishta va orastalikning buzilishi (37%), bolalar tarbiyasiga munosabat (35%), uy ishlarining taqsimoti (25%) ta‘sirchan sababdir.

Eng muhimi, tadqiqot o‘tkazilgan oilalarning aksariyat ko‘pchiligida uning barqarorligi o‘zgarishiga va undagi ziddiyatlar kuchayish tufayli oilalarning buzilishiga olib keluvchi omillar kuzatilmadi.

Jumladan, o‘zbek oilalarining 94% ida farzandsizlik, 72% ida ichish, chekish va boshqa qusurlar, 68% ida boshqa birovlarining aralashuvi, 66% ida jinsiy nomutanosiblik, 64% ida sevgi va mehr muhabbatning yetarli emasligi, 64% ida yashash sharoitining noqulayligi, 62% ida rashk va ishonchsizlik, 62% ida otionalarning aralashuvi, 60% ida ota-onalar va qarindoshlarga munosabat, 58% ida gap olmaslik, kelishmovchilik, 57% ida oila budjetini oqilona boshqara olmaslik, 53% ida fe‘l-atvorning mos kelmasligi sababli nizolar vujudga kelmasligi qayd etildi.

3-jadval.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan salbiy-axloqiy sifatlar (foiz hisobida) n=300

№	Salbiy sifatlar	Doimo	Ba‘zan	Javob berish qiyin	Yo‘q Uchramaydi	Umuman yo‘q
1.	Qo‘pol muomala	6	14	17	35	28
2.	Jizzakilik	11	12	10	36	31
3.	O‘zgani tushunmaslik	12	14	12	37	25
4.	Betakalluflik	7	12	16	40	25
5.	Uquvsizlik	9	11	11	42	27
6.	Bilimsizlik	8	11	12	45	24
7.	Didsizlik	6	8	13	44	29
8.	Beparvolik	8	11	13	37	31
9.	Loqaydlik	7	9	12	42	30
10.	E‘tiborsizlik	12	15	16	33	24
11.	Besabrlilik	16	22	8	32	22
12.	Qizg‘anchilik	12	14	17	31	26
13.	Munofiqlik	4	6	11	42	37
14.	Uyatsizlik	5	11	14	34	36
15.	Buzuqlik	1,3	2,7	9	31	56

Aslida insonlarda uchraydigan axloqiy illatlar ko‘pincha inson tarbiyaviy jarayonlariga e‘tiborsizlik oqibatida, uning jamoasidagi (oila, bog‘cha, maktab, mahalla) nosog‘lom psixologik muhit ta‘sirida, shuningdek, uning yashash jarayonida uning ko‘z o‘ngida yuzaga keladigan turli muammolar, qiyinchiliklar, kamchiliklar va boshqa sabablar asosida shakllanadi. Keyinchalik uning jamiyatda shaxslararo munosabatlari jarayonida unda yetarli darajada shakllanmagan imkoniyatlar, turlicha muammolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sababdir.

Afsuski, ana shunday salbiy sifatlarini (illatlarni) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila

quradilar. Buning natijasida o‘z hayot yo‘lini bir umrga bog‘lagan er-xotinlarning yoki er-xotin bilan uning boshqa a‘zolari o‘zaro munosabatlarida ularda avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o‘zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga va hatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Insonlarda shakllangan salbiy-axloqiy sifatlarni ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish unda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning oldini olishga, uni buzilishlardan saqlab qolishga, uning barqarorligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda oiladagi shaxslararo munosabatlarda uchraydigan salbiy-axloqiy illatlarni ham o‘rganishga harakat qildik.

Respondentlarga «Sizning oilangizda shaxslararo munosabatlarda ko‘proq qanday sabablar asosida ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuzaga keladi» degan savol bilan murojaat qilganimizda, ular besabrlik, o‘zgani tushunmaslik, e‘tiborsizlik, qizg‘anchilik, jizzakilik, uquvsizlik, bilimsizlik, beparvolik, loqaydlik, qo‘pol muomala sababli yuzaga kelishini, ba‘zi oilalarda betakalluflik, didsizlik, uyatsizlik, munofqlik va hatto buzuqlik tufayli namoyon bo‘lishini e‘tirof etdilar.

Tadqiqotda foydalangan anketalarimiz (IPS) bevosita kuzatishlarimizga qo‘shimchalar sifatida xizmat qildi (7, 8, 9 jadvallar). Ularning yordami bilan to‘plangan empirik natijalarimiz oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta‘sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga asoslangan holda undagi shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning psixoterapevtik imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Oila psixoterapiyasi sohasida mazkur muammolar yuzasidan yordam so‘rab, psixologga murojaat qilgan mijoz unga o‘z muammosinagina emas, balki ana shu muammo yechimini ham topishga umid qiladi. o‘z kasbining mohir ustasi amaliy maslahatchining vazifasi mijozga shu yechimni topish va uni anglab yetishda yordamlashishdan iborat. Psixolog nima bilan va qanday yordam bera oladio? Psixologiyada bir nechta sof kasbiy sirlar mavjud bo‘lib, ular haqida biz quyida to‘xtalamiz:

1. Mijozga so‘zsiz ijobiy munosabatda bo‘lish - samarali psixologik yordam ko‘rsatishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda eng oddiy vosita-mijozga shu paytda muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan, lekin o‘z muammolarini hal qilishga imkoniyatlari bo‘lgan inson sifatida munosabatga kirishish lozim.

2. Psixolog o‘z mijozini shunchaki tushunibgina qolmasdan, balki alohida bir tarzda unga hamdardlik qilgan holdagina yordam beradi. Psixolog so‘zlardan ko‘ra, ular orqasida yashiringan his-tuyg‘ularga e‘tibor beradi. Majoziy ma‘noda aytganda, u aql bilangina emas, balki yurakdan muomala qiladi. Bunday munosabat uslubi mijozga o‘zining ko‘pincha ziddiyatli, chalkash va siqib chiqarilgan his-tuyg‘ularini anglab yetish, o‘zini va o‘zining hayotiy holatini yaxshiroq hamda to‘liqroq tushunishga imkon beradi.

3. Psixolog o‘zi muammolardan xoli, muloqot uchun ochiq, uning «bu yerda va endi» vaziyatida kelib chiqadigan o‘z fikrlari va tuyg‘ulari mijozdan muloyim tabassum orqasida yoki hamma narsani bilguchi ekspert niqobi bilan yashirinmagan (ochiq) bo‘lsagina unga yordam bera oladi. Psixologning samimiyligi mijozda ham samimiyat uyg‘otadi, uning suhbatdoshga umuman, maslahat olib borilayotgan vaziyatga, oxir oqibatda esa o‘ziga-o‘zi ishonchni oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, psixolog mijoz uchun o‘ziga xos jonli ko‘zguga aylangan taqdiridagina unga yordam bera oladi. Bu ko‘zgu mijozga to‘liq ochilgan bo‘lishi, maslahat berilayotgan vaziyatda mijoz ichki dunyosining turli tomonlarini aks ettirishi va nihoyat mijozga uning ruhiy olamining aniq va qalbakilashtirilmagan in‘ikosini berish uchun toza, xiralashmagan, pok, rostgo‘y bo‘lishi joiz. Bunday jonli ko‘zgu - mijoz o‘zini-o‘zi tadqiq etish jarayonini yuzaga keltirishi, demakki, dastlabki muammoning yechimini izlashning asosiy harakatlantiruvchisi, mexanizmi va shartidir. Bu holda avval boshdanoq mijozda muammoga yechim allaqachon borligiga ishongan psixolog-bu qanday yechim ekanligini bilmaydi. Mijoz esa uni ham, boshqasini ham bilmaydi, lekin u o‘zi sezmaganda yechimni topishi mumkin, chunki u allaqachon bu yechimga egadir.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva D.U. Ona va o‘smir farzand munosabatlarida ijobiy muhitni ta‘minlashda tasavvurlar psixokorreksiyasidan foydalanish. Psixol. fan. b-cha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. –T.:TDPU, 2019. – 26 b.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi //O‘quv qo‘llanma. – T., 2006. – 142 b.
3. Umarov B.M. Oilaviy tarbiya saboqlari. –T.: “TASVIR NASHRIYOT UYI”, 2019. - 52 b.
4. Fayziyeva M.X. Oila psixologiyasi .Uslubiy qo‘llanma. “Nasaf”nashriyoti- 2020 yil. 137 bet.
5. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. Samarqand, 2023.-360 b.
6. Shoumarov G‘ B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma.-T.:, 2007-294 b.



Mirashirova Nargiza Anvarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasida dotsenti
psixol. f. f. d. (PhD)

PSIXOLOGNING KASBIY SHAKLLANISHIDA “MEN” KONSEPSIYASI MUAMMOSINING NAZARIY YONDASHUHLARI

Annotatsiya. Maqolada psixologning kasbiy shakllanishida “men” konsepsiyasi muammosining nazariy o‘rganilganligi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, psixologning kasbiy shakllanish jarayonida mutaxassisga aylanish sifatida insonning o‘zi haqidagi, kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mavqeyi haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi, kasbiy sifatlarni o‘zida tarkib toptirish jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy shakllanish, “men” konsepsiyasi, kasb, ijtimoiy ko‘zgu, ijtimoiy kamolot.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРОБЛЕМЕ КОНЦЕПЦИИ «Я» В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ФОРМИРОВАНИИ ПСИХОЛОГА

Аннотация. В статье высказываются мнения о теоретической проработке проблем изучения проблемы концепта «Я» в профессиональном становлении психолога. Также в процессе профессионального становления психолога как специалиста описаны изменения представлений человека о себе, своём положении в профессиональной и социальной среде, аспекты формирования профессиональных качеств.

Ключевые слова: профессиональное становление, концепция «Я», профессия, социальное зеркало, социальная зрелость.

THEORETICAL APPROACHES TO THE PROBLEM OF THE CONCEPT “I” IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF A PSYCHOLOGIST

Abstract. The article expresses opinions on the theoretical study of the problems of studying the problem of the concept “I” in the professional development of a psychologist. Also, in the process of professional development of a psychologist as a specialist, changes in a person’s ideas about himself, his position in the professional and social environment, and aspects of the formation of professional qualities are described.

Keywords: professional development, concept of “I”, profession, social mirror, social maturity.

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish xizmati masalalarining huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi. «Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, degan g‘oya...» ta‘lim sohasidagi islohotlarning strategik vazifalarini belgilab berilganligi va ta‘limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish asosida jamiyat taraqqiyoti uchun fanning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga e‘tibor ko‘rsatish orqali ularni ilmiy tadqiq etishda yetarli asos bo‘la oladi [1].

Psixolog kasbini tanlashning asosiy motivlaridan biri-bu kishilarga yordam berish istagi, bironing g‘am qayg‘usiga, his-tuyg‘usini qalbdan his etishdir. Psixolog faoliyatida yana muhim shaxsiy sifatlardan biri – halollik va pokligidir. Mijozga nisbatan g‘araz maqsadlarning yo‘qligi, undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik, uning kamchilik va nuqsonlarini bahosiz qabul qilish psixolog uchun muhim sifatlardan hisoblanadi. Ayniqsa, ojiz, kuchsiz, irodasiz, o‘ziga ishonchsiz va boshqa shaxsiy nuqsonli kishilarga nisbatan munosabatda bo‘lish psixolog uchun asosiy vazifasidir.

Asosiy qism. Kasbiy shakllanish individning mutaxassisga aylanish sifatida insonning o‘zi haqidagi, kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mavqeyi haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi, qolaversa, yangi kasbiy sifatlarni o‘zida tarkib tortirishi, keng ma‘noda aytadigan bo‘lsak – shaxsning kasbiy o‘z-o‘zini anglashi bilan hamohanglikda kechadigan jarayondir. Kasbiy shakllanish inqirozlari davrida kasbiy sifatlardan yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy sifatlardan muammosiga qiziqishlarning ortishiga qaramasdan, bu fenomenning tabiati, tuzilishi, dinamikasi va funksiyalari haqidagi savollar bir qancha chalkashliklarga egadir. Bunga asosiy sabab bu muammoning, ayniqsa, shaxs umumiy tuzilishida kasbiy sifatlardan o‘rnida qo‘llaniluvchi ijtimoiy sifatlarni kam o‘rganilganligi bilan bog‘liqdir. Kasbiy sifatlardan muammosini tadqiq qilish uchun eng

avvalo bu voqelik shaxs sifatlarini tizimida qanday o‘rin egallashini, qolaversa, shaxsning kasbiy va ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashida qanday rol o‘ynashini tushunib olish lozim. Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy taraqqiyotni tahlil qilishda asosiy e‘tibor qaror qabul qilishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda asosiy urg‘u insonning kasbiy taraqqiyotdagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va hamda ularni bartaraf etish usullarini bilishni tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, real imkoniyatlarni aniqlash, o‘zidagi qobiliyatlarini qator mezonlar yordamida baholash (omad va omadsizlik tizimini baholash; mashhurlikni yoqtirmaslik, rag‘batlantirish yoki qanoatlantirish; kasbiy karreradagi o‘shish, ishlab chiqarish faoliyatidagi qiyinchiliklar, ta‘lim va ish joyidagi mavqe), adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, qarorlarning ijtimoiy dinamika bilan muvofiqligi.

Kasbiy sifatlar muammosini tadqiq qilishda kasbiy muhit ta‘sirida inson o‘zining verbal va noverbal xatti-harakatini qayta qurish vaziyatlari batafsil yoritilgan adabiyotlarga e‘tibor qaratish lozim. Shunday qilib, inson xulq-atvorining faoliyatva mehnat jamoasi talablari bilan muvofiqligini tadqiq qilish Dj.Xollandning tipologik nazariyasi, faoliyatga yaroqlilik nazariyalarida o‘z aksini topdi. Bu yondashuvlar doirasida faoliyat va ijtimoiy muhitning mehnat natijasi va mehnatdan qoniqqanlikka, individual salomatlik va boshqalarga ta‘sirining turli aspektlari o‘rganilgan.

Tadqiqotlarda individning o‘zaro hamkorligi va mehnat jamoasi dinamikasida kim faoliyat va mehnat jamoasi talablari asosida shakllangan bo‘lsagina ma‘lum bir muvoffaqiyatga erishishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Bu jarayonda kasbiy sifatlar insonning faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun u qanday bo‘lishi, nima qila olishi va mehnat jamoasida o‘zini qanday tutishi haqidagi tasavvurlarini o‘zida aks ettiruvchi ichki tuzilmasifatida namoyon bo‘ladi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog‘likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insoning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida kasbga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Kasb-kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. ...Kasb, odatda shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi” [2]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa “Kasb – (arabcha biror narsani o‘rganish, egallash, foyda; hunar, mashg‘ulot) ish faoliyatning ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar” sifatida ta‘riflanadi [3].

Bu haqida O‘.Shamsiev va D.Muxammedovalar Y.A.Klimov tomonidan “kasb” tushunchasiga bergan sharhlariga quyidagicha munosabat bildirilgan [9, B. 51-52]:

1. Kasb – bir-biriga yaqin bo‘lgan muammolar ustida ishlovchi va deyarli bir xil hayot tarzini olib boruvchi shaxslar birligi.
2. Kasb kuchni ishlatish doirasi sifatida psixologning faoliyatida obyekt va predmetni ajratish bilan bog‘liq.
3. Kasbga shaxsning faoliyati va namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi.
4. Kasb – tarixan rivojlanuvchi tizim.
5. Kasb voqelik sifatida mehnat subyekting o‘zi tomonidan ijodiy shakllantiriladi, deb ko‘rsatilgan [6].

Ta‘kidlash lozimki, kasb (hunar) oldiga qo‘yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, umumiy hamda xususiy ko‘rinishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Kasb va uning ixtisosliklarining psixologik tavsifi.
2. Kasb(hunar)ning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati.
3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi.
4. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, chora-tadbirlar umumiy tavsifi .

Shu sababli ilm-fan yutuqlaridan kasb egallashga nomzodlarni tanlashda foydalanish qator afzalliklarga ega bo‘lib, kasbiy moslashuv jarayonining rozitiv kechishi, kasbiy jamoaga moslashish, kasbiy “Men”ni to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratib beradi [5].

Bu borada R.Samarov talaba-psixolog shaxsi va kasbiy sifatlarini shakllantirishda “etnik xarakter, etnik temperament, etnik urf-odat, etnik qiziqish hamda etnik ong masalalari”ga alohida e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan[4].

Psixologni ijtimoiy psixologiyaning obyektlaridan biri ijtimoiy munosabatlarning obyekt, ham subyekti sifatida faoliyat yurituvchi shaxsdir. Rus psixologiya fani shaxsning ijtimoiy psixologiyasi

muammosiga bir qator nazariy yondashuvlarni ishlab chiqdi. Biz ushbu maktab vakillari L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, V.N.Myasishev, K.K.Rlatonovlarning shaxs xususidagi ta’riflarini taqdim etishimiz o’rinli. Bu esa o’rganilayotgan muammo doirasidagi masalaning nazariy-metodologiyasi bilan bog’liq tushuncha, metodika va tuzilmalarni aniqlashtirish imkonini beradi [7].

Sobiq ittifoq psixologiyasi vakili S.L.Rubinshteyn: “shaxs faoliyatda namoyon bo’ladi va shakllanadi, shuning uchun xulq-atvorning turli jihatlari shaxsning namoyon bo’lishi va uning shakllanishiga hissa qo’shadi” deb izohlaydi [12, B.18].

V.N.Myasishevning fikriga ko’ra, shaxsning birligi va xilma-xilligi munosabatlarning o’zaro bog’liqligi va xilma-xilligi orqali aniqlanadi. U o’zining yo’nalishini (odamlarga, o’ziga, tashqi dunyo obyektlariga bo’lgan munosabatini) tavsiflovchi shaxs tuzilishidagi ustuvor munosabatlarni tanlaydi.

A.N.Leontevning fikricha, shaxs faoliyat bilan bog’liq bo’lib, uning holati va mahsuloti sifatida harakat qilishi mumkin. Shaxsning faoliyatini tahlil qilish uni ko’r bosqichli tizim sifatida yoritishga olib keladi. Ta’lim shaxsning rivojlanishi va faoliyatini belgilaydigan tizimning asosi subyektiv faoliyatdir [12, B.29].

B.G.Ananev esa, shaxsning ijtimoiy munosabatlar va funksiyalar orqali namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Olimning g’oyasiga ko’ra, shaxs axloq va huquq normalari, xulq-atvor standartlari, ijro etiladigan rollar bilan bog’liq motivlar va ijtimoiy xususiyatlariga ko’ra yoritiladi.

O’zini baholash – bu shaxs tomonidan o’z-o’zini, o’z imkoniyatlari, sifatlarini va odamlar orasidagi o’rnini baholashi. Bu psixologiyada o’zini anglashning mohiyatliroq bo’lgan va eng ko’p o’rganilgan tomonidir.

Shaxs asosiga tegishli bo’lgan holda o’zini baholash xulq-atvorining muhim boshqaruvchisi bo’lib xizmat qiladi. Odamning atrofdagilar bilan o’zaro munosabatlari, uning o’ziga nisbatan tanqidiyligi, talabchanligi, yutuq va kamchiliklarga munosabati o’zini baholashga bog’liqdir. O’zini baholash qanday tarkib topadi? Boshqa odamning sifatlarini o’rgangan sayin, shaxs xususiy bahoni ishlab chiqish imkonini yaratuvchi zarur ma’lumotlarga ega bo’ladi. Shaxsiy «Men» haqida tarkib topgan baholanish shaxsning boshqa odamlarda ko’radiganlari va o’zidagi kuzatishlar bilan muntazam ravishda solishtirib borishning natijasidir. Odam o’zidagi ba’zi bir narsalarni bilgan holda o’zini u bilan solishtiradi, boshqaning ham uning shaxsiy sifatleri, harakatlari, ifodalariga befarq emasligini taxmin qiladi; bularning barchasi shaxsni o’zini baholashga tegishli bo’lib, uning ruhiy kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxs doimo referent guruh (real yoki ideal)ga egadir, shaxs unda o’z qadriyatlarini o’zlashtirgani uchun bu guruh bilan hisoblashadi, uning ideallari va qiziqishlari va h.k.lar, shuningdek, shaxsning ham ideallari va qiziqishlari bo’lib hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyaning yetuk vakillaridan biri amerikalik psixolog va sosiolog Ch. Kulining fikricha, “Men” konsepsiyasini ishlab chiqish uzoq jarayon davomida amalga oshiriladi va boshqa shaxslarning ishtirokisiz, ya’ni ijtimoiy muhimsiz, guruh tajribasisiz amalga oshirilmaydi. Ch. Kulining taxminiga ko’ra, inson “Men”ni o’zi tomonidan qabul qilingan boshqa odamlarning reaksiyalariga asoslangan holda shakllantiradi. “Men”ning bu yondashuvi “Men ko’zgu” deb ataldi Ch.Kulining “Men ko’zgu”si uch bosqichdan iborat tuzilmaga ega:

- boshqalarni idrok etishimiz;
- boshqalarning fikrlarini idrok etishimiz;
- bu fikrimiz haqidagi hissiyotlarimiz.

“Ijtimoiy ko’zgu” doimo oldimizda va doimo o’zgarib turadi. Turli shaxslar inson haqida o’z fikrlarini bildiradilar, ularning reaksiyalarini kashf etadilar. Vaqt o’tishi bilan, natijada, bu uning qobiliyatini his qilishining o’zgarishiga olib keladi. Rivojlanayotgan shaxs, “ijtimoiy oyna” rolini bajaradigan shaxslar guruhini tanlashda yanada talabchan bo’ladi, uning fikri qadrlanadi. Shu bilan birga, agar shaxs bir yoki bir nechta fikrni noto’g’ri talqin qilsa, “ko’zgu” buziladi [10].

Ch.Kulining nazariyasini rivojlantirgan holda J.Mid “muhim kishi” konsepsiyasini ishlab chiqdi. “Muhim kishi” konsepsiyasiga ko’ra atrofdagilar tomonidan boshqa bir shaxsning idrok etish mohiyatini tushuntiradi. “Umumlashgan boshqa” – bu mazkur guruh a’zolari o’rtasida shaxs “men”ining shakllanishiga yordam beruvchi muayyan guruh xulq-atvorining umuminsoniy qadriyatlari va me’yorlarini ifodalaydi. Shunday qilib inson o’z xulq-atvorini boshqalarga nisbatan ko’rishni va ularning reaksiyalarini his qilishni o’rganadi. Shu boisdan talabalar ijtimoiy-psixologik roretretini ustida izlanish olib borishda J.Midning konsepsiyasiga tayanamiz. Bunda talabalarning guruhidagi jirslilik, ularning qadriyatlari va psixologik qiyofalarining ahamiyatini o’rganishga to’g’ri keladi.

L.D.Gorbova ijtimoiylashuvning besh bosqichini belgilaydi, jumladan:

- tug’ilishdan to o’smirlik davrigacha davom etadigan birlamchi ijtimoiylashuv bosqichi yoki moslashish bosqichi;

- o'smirda boshqalardan ajralib turish istagi paydo bo'lgan individuallashtirish bosqichi [10].

G.M.Andreeva ijtimoiylashuvning uch bosqichini aniqlaydi: mehnatdan oldingi, mehnat va mehnatdan keyingi. Ushbu yondashuv ijtimoiylashuv ijtimoiy tajribani, birinchi navbatda, ish jarayonida o'zlashtirishni nazarda tutishini hisobga oladi.

Mehnatdan oldingi bosqich inson hayotining mehnat faoliyati boshlanishigacha bo'lgan davrini qamrab oladi va o'z navbatida ikki davrga bo'linadi:

- erta ijtimoiylashuv davri: bolaning tug'ilishidan maktabga qabul qilinishigacha;
- o'qish davri: maktab, universitet yoki boshqa ta'lim muassasasida o'qishning barcha vaqti.

Ijtimoiylashuvning mehnat bosqichi insonning kamolot davrini, mehnat faoliyatining butun davrini qamrab oladi. Mehnat faoliyati ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va takror ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmaydi [4].

Shaxs ijtimoiy kamolotga erishsa, ijtimoiylashuv jarayoni ma'lum darajadagina tugallanadi. Ko'pgina psixologlarning ta'kidlashicha, ijtimoiylashuv jarayoni insonning butun hayoti davomida davom etadi, lekin kattalarning ijtimoiylashuvi bolalarning ijtimoiylashuvidan farq qiladi. Kattalar ijtimoiylashuvi tashqi xatti-harakatni o'zgartiradi va insonga ma'lum ko'nikmalarni egallashga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bolalarning ijtimoiylashuvi qadriyat yo'nalishlarini shakllantiradi va xatti-harakatlarning motivatsiyasi bilan shug'ullanadi. Ularning ijtimoiylashuvi jarayonida deviant xulq-atvorda namoyon bo'ladigan muvaffaqiyatsizliklar bo'lishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, kasbiy sifatlarning shakllanishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy taraqqiyoti jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu ulardagi ijtimoiylashuv, muloqot malakalarini egallaganlik darajasi hamda kasbiy kamoloti bilan belgilanadi. Kasbiy sifatlarning mutaxassisning kasbiy shakllanishi kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mavqeyi hamda shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mutaxassis shaxsida kasbiy sifatlarni shakllanishi shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, ustanovkalar, ishonch va kasbiy motivatsiya hamda bilish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida men konsepsiyasining o'rganilishi shaxs nazariyalari, shaxs turlari, shaxs tuzilishi, shaxsning individual va ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlariga asoslaniladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь. / “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 30 декабрь.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 4 жилд. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.491.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд./ А.Мадвалиев тахрир остида. – Тошкент: О'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.. – Б. 328. (Ум. 672 б.)
4. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник / Г.М. Андреева. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект-Пресс, 2014. – 365 с.
5. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания. – М. : Издательство «Институт практической психологии». Воронеж: НПО «МОДЕК», 1996. – 384 с. 18.
6. Mirashirova N.A., Raximova I.G., Muxamedjanova D.K. Kasb etikasi va kommunikatsiyasi. – Toshkent:Faylasuflar, 2014. 85 b.
7. Samarov R. Shaxsda milliy xususiyatlarni kamol toptirishda “Homo ethnicos” fenomeni: ijtimoiy va etnopsixologik talqin // Shaxsda ilmiy dunyoqarash rivojlanishining psixologik imkoniyatlari va tarbiyaviy jihatlari. // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – B.23-25.
8. Семёнова И.Н. Акмеология – новое направление междисциплинарных исследований человека // Общественные науки и современность, № 3, 1998. – С. 134-142.
9. Шамсиев Ў., Мухаммедова Д. Меҳнат психологияси ва менежмент. – Тошкент: Университет, 2017. – Б. 51-52.
10. Психология личности в трудах отечественных психологов / Составитель Л.В. Куликов. - СПб.: Питер, 2000. – 283 с.

Narbasheva Mexri Achilovna,

*Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi
mnarbasheva@mail.ru*

XALQ O'YINLARINING RIVOJLANTIRUVCHI FUNKSIYALARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada xalq o'yinlarining etnopsixologik xususiyatlari, uning rivojlantiruvchi funksiyalari, tarbiyaviy imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bolaning jismoniy, ma'naviy, ruhiy, kognitiv, intellektual, shaxsiy rivojlanishida xalq o'yinlarining bolada milliy ong va milliy madaniyatni shakllantirishga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq o'yinlari, milliy ong, milliy madaniyat, rivojlantiruvchi funksiyalar, pedagogik ta'sir, milliy idrok, tasavvur, so'z o'yinlar,

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПОВЫШЕНИЯ РАЗВИВАЮЩИХ ФУНКЦИЙ НАРОДНЫХ ИГР

Аннотация. В статье рассматриваются этнопсихологические особенности народных игр, их развивающие функции и воспитательные возможности. Также выявлено влияние народных игр на формирование национального самосознания и национальной культуры ребёнка в физическом, духовном, умственном, познавательном, интеллектуальном и личностном развитии ребёнка.

Ключевые слова: народные игры, национальное сознание, национальная культура, развивающие функции, педагогический эффект, национальное восприятие, воображение, словесные игры,

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF ENHANCING THE DEVELOPMENTAL FUNCTIONS OF FOLK GAMES

Abstract. The article discusses the ethnopsychological features of folk games, their developmental functions, and educational possibilities. Also, the impact of folk games on the formation of national consciousness and national culture in the child in the physical, spiritual, mental, cognitive, intellectual, and personal development of the child are revealed.

Keywords: folk games, national consciousness, national culture, developmental functions, pedagogical effect, national perception, imagination, word games.

Kirish. Har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari bo'lib unda millat ruhi, millat tafakkuri, millat psixologiyasi, millat ma'naviyati ko'rinib turadi. Ana shunday qadriyatlaridan biri bu milliy o'yinlardir. Asrlar osha yashab kelayotgan shunday o'yinlari borki, uni kattayu-kichik sevib o'ynaydilar, bolaligimizni eslashimiz bilan shu o'yinlar ko'z oldimizga keladi. Milliy o'yinlar turli-tumanligi bilan ham jozibador sanaladi.

Psixologiyada o'yin inson faoliyatining bir turi sifatida ko'p tadqiq qilingan masalalardan biridir. Chunki, inson bolasi o'yin orqali olamni, tabiatni, odamlarni va o'zini anglaydi. O'yinning turli vazifalari bir qator psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, V.S.Muxina, S.L.Novoselova tadqiqotlarida ochib berilganidek, inson(bola) psixik xususiyatlarni rivojlantirishni amalga oshiradi.

O'yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o'zi, o'yin harakatlari bilan bog'liq kechinmalar jarayonini muhimdir. Bola o'ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo'lsa ham, ular boshidan kechiradigan tuyg'ular realdir.

Asosiy qism. O'yinning bu o'ziga xos xususiyati o'zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarni mujassamlashtirgan, chunki o'yin mazmunini boshqarib, o'yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o'ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg'ularini dasturlashtirishi mumkin. Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg'ularni boshidan kechirish tajribasining o'zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyatga ijobiy munosabatni tarbiyalash mumkin. O'yin noo'yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, bola u yoki bu rolni o'ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko'chmaydi; rolga kirar ekan, u o'z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi [5;485].

Jumladan, milliy o‘yinlar mazmuni shu millatning kundalik turmush tarzi, avlodlan-avlodga o‘tib kelayotgan an‘analar, urf-odatlar hamda qadriyatlarining aksi sifatida dunyoga kelgan. Milliy o‘yinlarning mazmunida millat ruhiyati bilan sug‘orilgan, millatning o‘zigagina xos va mos bo‘lgan jihatlari, millat madaniyati va san‘ati namoyon bo‘lib, bola shu millat vakili sifatida atrofida kattalar hayotini o‘z o‘yinlariga ko‘chiradilar. Milliy o‘yinlar juda boy psixologiyaga egaligi bolada milliy ong va milliy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bola o‘yin jarayonida avvalo millatga xos bo‘lgan tushuncha va bilimlarga ega bo‘lib, turli-tuman xalq o‘yinlarini o‘ynayotib hayot uchun zarur bo‘ladigan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib boradi. Ayniqsa, inson psixik taraqqiyoti rivojida muhim o‘rin tutadigan sezgi, nutq, tafakkur, xotira, diqqat, hayol, idrok kabi bilish jarayonlari rivojlanishida milliy o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir

Boshqa xalqlardan, millatlardan farqli o‘laroq, o‘zbek milliy o‘yinlarning va o‘yin faoliyatini uyushtirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O‘yinda yoki o‘yin faoliyatida o‘zbek xalqining (hududiy xususiyatidan qat’i nazar) yashash tarzi, intilishi, xohishi, istagi, ezgu niyati, uning mavsumiyliigi, kasb-korga taalluqli jihatlari, holatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Emotsiya, hissiyot, xarakter, milliy qiyofa, didi, bilish jarayonlari, xulq-atvor, ularni namoyon bo‘lish tezligi (sur‘ati), davomiyligi, kechishi milliy xususiyatga egadir. Nafaqat milliy o‘yinlar, balki xalqning (millatning, elatning) raqslari; ularning syujeti, tezligi, osoyishtaligi; uning qo‘shiqchiligi, chastotasi, tembri, amplitudasi, badiiy ijodiyoti xususiyatlari umumiy milliy koloriti bilan uyg‘unlashgandir.

Milliy harakatli va sport o‘yinlarining mohiyati, mazmuni, ma‘no ifodalashi, manbai, negizi, ularning in‘ikosi, ularda aks ettiriluvchi kechinmalari, syujetda o‘z aksini topgan shaxslararo munosabat, muomala, xarakterologik va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omil (sabab, faktor) lardan tashqari milliy o‘yin faoliyati tabiiy, geografik qonuniyatlarga (iqlim, yog‘ingarchilik, joylashish sathi, qulay va noqulayligi, shamol, ofatlar ehtimolligi), xossalari, ularga nisbatan xayrixohlik, qat’iy yoki beayov kurash yoki sajda, yolvorish, iltijo qilish milliy idrok, tasavvur, irodaviy kuchga asoslanadi.

Psixolog olim, professor E.G‘oziyevning fikricha, milliy o‘yinlar ijtimoiy tajriba va uni egallash, shakllangan etnik stereotiplarga asoslanish natijasidan kelib chiquvchi milliylik, umumiylik, xususiylik, alohidalik, yakkahollik, guruhiylik, jamoaviylik, tabiatga va jamiyatga munosabatni aks ettirish tarzida o‘yin vujudga kelishi mumkin [7;54].

Shundan kelib chiqib milliy o‘yinlarni quyidagi tartibda tiplarga ajratish mumkin:

- tabiat mo‘jizalari, ilohiy kuchlarga e‘tiqod, aql-zakovatdan hayratlanishni ifodalovchi syujet va mazmundan iborat bo‘lgan milliy o‘yinlar.
- kasbni tasvirlovchi, uni takomillashtirishga olib boruvchi imkoniyat, intilishni harakat va his-tuyg‘u yordamida namoyon etuvchi, qadriyat, ma‘naviyat, ruhiyatga asoslanuvchi milliy o‘yinlar.
- millatlararo ta‘sir natijasida yaraluvchi, lekin milliylikning u yoki bu qirralarini saqlab qoluvchi baynalminal xususiyatli o‘yinlar.
- ijtimoiy uyg‘unlik ta‘siri, ijtimoiy ong rivoji, madaniyat, fan va texnika mahsulati sifatida tug‘iluvchi yangi toifaga xos milliy o‘yinlar.

Milliy o‘yinlar hududiy ko‘rinishlari, takomillashish imkoniyati, yosh davrlari xususiyati, jinsiy tafovuti, mavsumiyliigi, mavsumbopligi, rasm-rusumga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Milliy o‘yinlar muayyan syujet, mazmun, qoida, muddatga asoslanadi. Ular unutilish, yangilanish, takomillashish xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘nikma, malaka va odatlarni mashqlantirishni taqozo qiladi. Bu narsa ijtimoiy tajribani avlodlar tomonidan o‘zlashtirish tariqasida yuzaga kelib turadi. Oqibat natijada mangulik xususiyatni kasb etadi, shaxsni u yoki bu yo‘sinda kamol topishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazuvchi o‘yinlar tug‘iladi.

Jahon psixologiyasi fanida o‘yinlar yuzasidan mulohaza yuritilganda aksariyat hollarda ularni oilaviy turmushga, dehqonchilikka, qurilishga, sanoat sohasiga, siyosatga, harbiy sohaga, kasbga taalluqli ekanligiga qarab guruhlariga ajratiladi. Eng qadimiy milliy o‘yinlar qatoriga harakatli va sport o‘yinlari kiritiladi hamda xalqning keng tarqalgan, sevimli o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Ular o‘zining syujeti, mazmuni, roli bilan birlaridan keskin tafovutlanib turadi. Ba‘zi hollarda harakatli o‘yinlar bir davrning o‘zida ham sport o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Yoinki sport o‘yinlari harakatli o‘yinlar qatoriga kiritilishi mumkin.

O‘yinlar xalq ijodining mahsuli bo‘lib, sog‘lom va ma‘nan barkamol kishilarning ruhiy olamda o‘z mavqe va o‘rnini bilishi, go‘zal hayot barpo eta olishi xalq o‘yinlarining etnografik elementlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Xalq o‘yinlari milliy va ma‘naviy qadriyatlarni asrab-avaylashning eng an‘anaviy tarkibiy qismidir. Bolalar tomonidan o‘ynab kelinayotgan o‘yinlar ma‘naviy va milliy o‘zlikka xos jihatlarni hamda xalq ruhiyatini uning tarixiy genetik asoslarini ijtimoiy xodisasi sifatida yorqinlashtiradi.

Tadqiqotda xalq o‘yinlari orasida bolalar o‘yinlari tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unligini, ekologik muammolar keskinlashgan bir paytda tabiatga ehtiyotkorlik va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalashning muhim omili ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir. O‘yin va uni o‘ynayotgan ishtirokchilardan aql-zakovat, mohirlik, tadbirkorlik, epcillik va chaqqonlik, jasurlik va shijoatilik, hushyorlik va favqulodda qat’iy qarorga kela olish kabi sifatlarni bolalardan talab qiladi. Bu sifatlarda esa bolalarda o‘ziga ishonch, tarbiyaning axloqiy, estetik, ruhiy komponentlarni o‘yinlar orqali tarbiyalash imkoniyati kengligidan dalolat beradi. O‘yin orqali bolalarda ma’naviy sifatlarda shakllanibgina qolmay, bosqichma-bosqich komillik sari yuksaladi. Tashqi olamga taqlid va ularni hayotga tadbiiq qilishga intilayotgan bolani ko‘rsangiz, bilingki, u zavqlanyapti, murakkab olamning eng sodda vakili nimagadir talpinayapti. Aslida bolalarni tetapoya qilishlaridagi mohiyat bioasosga tayanadi, ulg‘ayish, voyaga yetish, o‘sib-unish, faqat bir millatning yosh avlodi bu yo‘lni o‘ziga xos, boshqalardan farqli ravishda bosib o‘tadi. Milliy xalq o‘yinlari, shubhasiz, tarbiyalaydi, odamlarga ham jismonan bardamlik, ham intellektual ozuqa beradi. Asosan bolalarning barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladigan o‘yinlar yosh avlodda, avvalo, millatiga bo‘lgan hurmati, ota-bobolardan qolgan boy merosga nisbatan sadoqatni oshiradi. Bundan tashqari o‘g‘il-qizda jamoa bo‘lib ishlash malakasi, halollik, menatsevarlik, burch va mas’uliyatni his qilish, o‘z o‘rnida aql bilan ish tutish, aniqlik kabi xususiyatlari shakllanadi. Bolalarcha beg‘ubor raqobatga bardosh berishga intilgan o‘g‘il yoki qiz kelajakda hayot qiyinchiliklarini, albatta, yengib o‘tadi.

Xalq o‘yinlari taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘z davri odamlarining xayoti, turmush tarzi, mehnat sharoiti, millati, dini va boshqa o‘ziga xos belgilarini o‘zida mujassam etib kelgan va ishtirokchilarda chaqqonlik, chidamlilik, ijodiy topag‘onlik, g‘ayratlilik, kuchlilik sifatlarini tarbiyalashga xizmat qilgan. Bolalar o‘yinlarida shu bilan bir qatorda yengil hazil, musobaqa, jamoaviy birlikka yo‘naltiruvchi sifatlarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalq o‘yinlarini turlicha tasniflash mumkin. Masalan, o‘yin ishtirokchilarning yoshiga nisbatan (bolalar, o‘smirlar, kattalar), jinsga nisbatan (o‘g‘il va qiz bolalar yoki erkak va ayollar), mavsumga nisbatan (bahorgi, qishki, yozgi, kuzgi), o‘ynaladigan joyga nisbatan (maydon, suv, xona), kasbga nisbatan (dehqon, hunarmand, chorvador va boshqa), hududga nisbatan (shimoliy, janubiy, sharqiy yoki shimoliy).

O‘yinlarni paydo bo‘lish jarayoniga nisbatan quyidagilarga bo‘linadi:

- ovchilik o‘yinlari (Gang, Jambil, Lappak, Oshiq, Xappak, Chirgizak va boshqa);
- cho‘pon o‘yinlari (To‘ptosh, Ko‘tarma tosh, Echki o‘yin, Cho‘pon va shoqol, Qadama tayoq, Chillik, Podachi, Chanta, Chuv-chuv va boshqa);
- hunarmandlik o‘yinlari (Dandarak, Charxpalak, Besh barmoq, Paqilloq, Lanka, Chig‘iriy, Uruk soldi, Varrak, Sartarosh, Ko‘z bog‘lar va boshqa);
- dehqonchilik o‘yinlari (Palaxmon, Jon burgam, Somon sepdii, Chanoq o‘yin, Shaftoli shakar, Qo‘riqchi va boshqa);
- taqlidii o‘yinlar (Xola-xola, Topaloq, Kim oladi-yo, Ayiq o‘yin, Xo‘roz urishtirish, Oqsoq turna, Bosari, Asalari, G‘ozlar va boshqa);
- harakatli o‘yinlar (Cho‘nka shuvoq, Chim otish, Kim tez, Xurkach, Tufaloq, Chori chambar, Mushuk-sichqon, Yog‘och oyoq, Durra solish, Halinchak va boshqa);
- so‘z o‘yinlari (Kim chaqqon, Bolqon-bolqon, Botmon-botmon, Juftmi-toq, Oq quyonim alomat, Oq terakmi, ko‘k terak, Pirr etdi va boshqa);
- yig‘in o‘yinlari (Gap-gashtak, To‘piq o‘yin, Podsho-vazir, Podsho-o‘g‘ri, Arshi a‘lo va boshqa);
- kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlar (Milliy kurash, Polvonbozlik, Yelkada kurash, Bel olish kurashi va boshqa);
- chavandozlik o‘yinlari (Chavgon, Uloq-ko‘pkari, Piyoda poyga, Oltin qoboq, Shog‘uloq, Qiz quvish, Eshak mindi va boshqalar)

Pedagogika fanlari doktori, professor Muxammadjon Quronov ustozning adiba va olimi Guljaxon Mardonovaning “O‘zbek milliy o‘yinlari” nomli kitobiga yozgan “Bolalar o‘yinlari – hayot mashqlari” nomli so‘zboshisida “Odam umri davomida qiladigan xatti-harakatlar, tirikchilik tashvishi, chetdan bo‘ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o‘yinlarga mavzu bo‘lgan” -deydilar. Yana, ustoz yozadilar: “O‘yinlarda yosh organizmning talab va ehtiyojlari qondirilib, ijodiy faollik yaratiladi. Topqirlik, tezkorlik, shijoat tarbiyalanadi. Qolaversa, o‘yin orqali bolalar juda ko‘p narsalarni bilib oladi. Demak, bilishga bo‘lgan kognitiv talab ham o‘yin orqali ado etiladi. O‘yinlar rang-barang. Ularning mazmuni, tashkil etilishi, qo‘llaniladigan buyumlari turlicha. Ular orasida kreativ (ijodiy) va qoidali o‘yinlar mavjud. Ijodiy o‘yinlarni bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Unda ko‘proq obrazlar ishtirok etadi. Bir qarasangiz sahna ko‘rinishining sodda variantiga o‘xshab ketadi. Bu albatta ehtiyojga quriladi. Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi”[2;5].

Psixolog D.B.Elkonin o‘z ilmiy-psixologik asarlarida bolalar o‘yinlarining kelib chiqishini psixologik jihatdan o‘rganib, - “...ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘ynash - ular yo‘l qo‘ygan holatlarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan”, - deb xulosa chiqaradi[6; 23].

Xalq dahosi yaratgan bolalar o‘yinlari asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini o‘tab kelmoqda. Ularda xalqning an‘anaviy turmush tarzida sinalgan, o‘zbekona milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma‘naviy-axloqiy qarashlar o‘z aksini topib, bolalarning ijodkorlik salohiyatlari namoyon bo‘ladi. Zero, bola “...o‘ynab zavq oladi, o‘ynab kurashga tushadi, o‘ynab mag‘lubiyat alamini tortadi, o‘ynab g‘oliblik nashidasini suradi, o‘ynab o‘rganadi, o‘ynab kashf etish va ijod qilish ilmini o‘zlashtiradi, o‘ynab kuylaydi, o‘ynab hamdardlik va hamkorlik tuyg‘usini tuyadi, o‘ynab birlashadi va birlashmoq manfaatdorligini his qiladi, hatto o‘ynab judo bo‘ladi, yolg‘izlanadi va yakkalik iztirobini tortadi...” [4;278]. O‘ynab harakat qiladi, fikrlaydi. Ham jismonan, ham ma‘nan sog‘lom bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda xalq o‘yinlari – bolalar uchun hayot maktabi. Ular sabab hayotga tayyor bo‘ladi, irodali, o‘z yo‘lini topadigan shaxs bo‘lib yetishadi.

O‘zbek bolalar o‘yinlari qatorida qo‘shiq hamrohligidagi o‘yinlar butun bir to‘plamni tashkil etadi... “Yashiranimni top”, “Chopa turib o‘tirish”, “Yoshlam-yoshlam”, “Oltin darvoza”, “Xurmacha bog‘i”, “Mehmon-mehmon”, “Moy kulcha”, “Chap berish”, “Besh tosh”, “To‘y-to‘y”, “Sakra-sakra”, “Otish-otish”, “Urush-urush”, “Jik-jik”, “O‘y-o‘ylash”, “Bozor-bozor”, “Quvlashmachoq”, “Otilgan do‘ppini kim oldin olib keladi?”, “Tez qaytish”, “Kim chopag‘on”, “Zum-zum”, “Mushuk-sichqon”, “Pishakvoy”, “Quyoni” va boshqalar ana shunday xarakterga ega. “Xurmacha bog‘i”, “Mushuk-sichqon”, “Yoshlam-yoshlam” ko‘p variantli o‘yinlar sifatida o‘tgan asrlardanoq bolalar repertuarini muzayyan etib kelmoqda[8;123]. Ular davr ruhiga yo‘g‘rilib, yangi motivlarni ifodalab, hamon bolalarning sevimli o‘yini bo‘lib qolmoqda. Bolalar o‘ylashni o‘yinga aylantirganlarida ham Vatan dushmanlariga qasoslari borligini yashirishmaydi.

“O‘y o‘ylash” o‘yinidagi qo‘shiqda shu motiv ifodalangan:

O‘u o‘ylasang,
O‘ying o‘ngisin,
Tog‘ bagrida yotib olsa,
Qo‘ychi o‘ngisin.
Qo‘ychi bo‘lsang,
Qo‘ylaringni birga boqaylik.
Dushmanlarning ko‘kragiga
O‘tlar yoqaylik.

O‘ylay bilish — katta san‘at, uning vositasida voqelikni idrok qilish yo‘li ochiladi. Bu o‘yinda ham shunday bo‘layotir. O‘yinchi shunchaki o‘ylamaydi, balki o‘yinga parvoz berganidan yuksak tog‘ xayolini chulg‘agan. Tog‘ bag‘ridagi qo‘ychi va qo‘ylar — mehnatkash inson va el boyligi unga muqaddas tuyulmaganidan, ular bir ipda tizilganday, pirovard-oqibatda shularga zavol keltirmoqchi bo‘lgan dushmanga nafarat va qasos o‘yinga aylangan. Bu o‘yinlarning barchasida vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak darajasiga ko‘tarilgan.

“Kim chopag‘on”, “Zum-zum”, “Tez qaytish”, “Quvlashmachoq”, “Ushlama” va boshqa shunga o‘xshash o‘yinlar bolalarning jismoniy chiniqishlariga ma‘naviy ko‘rk bag‘ishlaydi; ularni chaqqon, epchil, sezgir bo‘lishga, aniq mo‘ljal olishga, vaziyatni baholay bilishga o‘rgatadi. “Kim chopag‘on”da tez chopish musobaqasining mohiyati o‘yin onaboshi qo‘shig‘ida shunday ifodalanadi:

Karim kamonga ketdi,
Sobir somonga ketdi.
Tolib, Tessa — ikkovi
Ikki tomonga ketdi.
Qaysisi kelsa oldin
Ma‘nov sovg‘ani olsin, Husht!


“Zum-zum” o‘yin chillak o‘yining bir ko‘rinishi bo‘lib, yutqizgan tomon zum chopib dovni bermog‘i lozim. Bunda yutgan tomon chillakni yerga tushirmay, muallaqligicha chillakdasta bilan necha marta ura olsa, shu sanoq darajasigacha uni uzoq masofaga yo‘naltirib zarb bilan uradi. Yutqizgan shu masofaga bir nafasda “zum” deganicha chopib kelmog‘i shart. Albatta, avvalo, u shu masofaning uzoq-yaqinligini chamalab, uning qancha qismigacha nafasi yetishini inobatga olmog‘i, so‘ngra, o‘sha masofaning ma‘lum qismini quyidagi qo‘shiqni aytish hisobiga chopib o‘tmog‘i kerak:

Shoyi ko‘ylak kiymayman,
Hilpillatib yurmayman.
Kalish-mahsi kiymayman,

G'irchillatib yurmayman.

O'yinning psixologik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi: masalan, «Besh tosh» o'yini:

O'yin jarayonida toshlar bilan bo'ladigan manipulyatsiya harakatlari ya'ni, barmoqlar bilan toshlarni paypaslash, his etish, havoga otish vaqtidagi orientirovka harakatlari bolaning sensomotor koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolaning o'yin vaqtidagi o'tirish holati gavdasini oldinga, orqaga, chapga va o'ngga egishi esa qon aylanish tizimi faoliyatini jadallashtiradi, bu esa bolani umumiy holatini tetiklashtiradi [3;138].



O'yindagi mashqlarning nomlanishi va uni esda saqlab qolish topshiriqlarning ketma-ketligini esga tushirish bolaning xotirasini charxlasa, har bir topshiriqni o'zi va sherigi bajarayotgan vaqtdagi kuzatuvchanlik diqqatni barqarorlashtiradi, mashqlarning «ot», «qaychi», «kelin», «kapa», «quduq» kabi nomlanishi va ularning o'ziga xos timsoliy ma'nosi ijtimoiy muhitdagi tafakkur tarzi haqida bilim beradi. Shuningdek, o'yin jarayoni bolaning umumiy psixik taraqqiyoti uchun ahamiyatligi shundaki, o'yinni dastlabki o'zlashtirish jarayoni bolaga juda katta psixofiziologik rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Chunki, tosh mayda predmet sifatida bolaning sensor taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatsa, o'yin jarayonidagi bolaning tana va gavda harakatlari muvozanat saqlash va o'ziga qulay bo'lgan holatlarni tanlay olish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashqda nomlarni to'g'ri talaffuz etish, o'yin qoidasini ishtirokchilarga tushuntirib berish bola nutqini rivojlantiradi. Bundan tashqari o'yinni 2-4 kishi bo'lib o'ynash bolalarda o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Bu o'yinni 4 yoshdan boshlab elementar variantlarini o'rgatish tavsiya etiladi. 6-7 yoshlilarda esa, 8-12 tagacha mashqlarni to'liq bajartirish mumkin. Pedagoglar o'yin jarayonini kuzatib bolalar egallayotgan malakalarni sifatiga e'tibor qaratib, ba'zi mashqlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalarga individual tarzda oson yo'llarini ko'rsatib berish tavsiya etiladi. Xullas, milliy o'yinlarning har birini xuddi shu tartibda psixologik tahlilini amalga oshirib, pedagog bolalarning umumetuklik darajasidan kelib chiqib o'z guruhi uchun o'yinlarni tanlaydi va tashkil etadi. Bu esa bolalarning psixik taraqqiyoti uchun eng zarur vosita hisoblanadi.

“Besh tosh” juda murakkab o'yinlar sirasiga kirib ko'proq qiz bolalar tomonidan o'ynaladi. O'yinda ishtirokchilar 5 ta do'lanadek (ozroq katta yoki kichik bo'lishi mumkin) keladigan toshlar bilan turli mashqlarni bajarishadi, har bir mashqning o'ziga xos nomlanishi bo'lib, bu mashqdagi harakatlarni ifoda etadi. Ushbu o'yinni 2 kishidan 5-6 kishigacha birgalikda, juftliklarda o'ynashi mumkin. Ishtirokchilar o'yin qoidalarini o'zaro kelishib oladilar. Boshlanishda kim birinchi boshlashini aniqlash maqsadida “boshlar” (boshlamoq so'zidan kelib chiqqan -M.N.) deb nom olgan mashq bilan boshlaydilar.

O'yin boshida toshlarni qo'l kaftiga olib havoga otib kaftning orqa tomoniga tushiradi (1-rasm) va shu mashq bilan o'yin boshlanadi. Agar, qaysi o'yinchida beshta tosh ham kaftning orqa tomoniga tushsa shu o'yinni birinchi bo'lib boshlaydi. Bu yerda boladan diqqatni jamlash, muvozanatni to'g'ri saqlash, toshlarning og'irligini his etish, kaftni mashqlantirish talab etiladi. Ba'zan o'yin ishtirokchilari shu mashqni bir necha bor tezlikda bajarish va kimda har safar 5 toshni ham kaftda to'g'ri tuta olsa, unga 1- bo'lib boshlashga izn beriladi. Keyingi mashqlar ketma-ketligi quyidagicha davom etadi.




2) “Birlar” – toshlar yerga yoki polga yoyib tashlanadi va bittasini olib havoga otiladi, yerdan bitta toshni olib havodan qaytayotgan toshni ham chaqqonlik bilan ilib olish kerak. Uning elementlari quyidagi tartibda bayon qilingan: 1) boshlar; 2) birlar 3) ikkilar 4) uchlar 5) do'p etar (do'ppos); 6) qapchiq; 7) qaychi; 8) quduq; 9) 10) chiq etar; 11) chiq etmas; 12) chandiq.

O'yin elementlarining bunday nomlanishi tosh bilan bajariladigan o'yin amallarining xarakteridan kelib chiqadi. Yuqorida keltirilgan atamalarni “Besh tosh ” yoki “To'p tosh” nomi bilan o'ynaladigan o'yinlar turli shakllari bo'lishiga qaramasdan o'yin jarayoni qiz bolalarni epchil, ziyarak, zukko qilib tarbiyalash vazifasini bajaradi. Agar e'tibor berilsa, o'yin mukammal syujet tizimiga ega bo'lib, an'anaviy boshlama (ishtirokchining o'yindagi o'rni aniqlanishi), asosiy elementlar (“Besh tosh” bilan turli xil amallarni qo'llab o'ynash) va yakunlanma (“o'yin oxiri” g'olibni aniqlash) bosqichlari borki, bu o'yin mazmunini va yashovchanligini oshirib kelmoqda. Shuningdek, etnohududiy, etnolokal xususiyatga ko'ra, o'yindagi umumiylikdan tashqari atamalarda, harakatning takrorlanish ketma-ketligida farqlar ko'zga tashlanadi.

O'yin jarayonida toshlar bilan bo'ladigan manipulyatsiya harakatlari ya'ni, barmoqlar bilan toshlarni paypaslash, his etish, havoga otish vaqtidagi oriyentirovka harakatlari bolaning sensomotor

koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolaning o‘yin vaqtidagi o‘tirish holati gavdasini oldinga, orqaga, chapga va o‘ngga egishi esa qon aylanish tizimi faoliyatini jadallashtiradi, bu esa bolani umumiy holatini tetiklashtiradi.

O‘yindagi mashqlarning nomlanishi va uni esda saqlab qolish topshiriqlarning ketma-ketligini esga tushirish bolaning xotirasini charxlasa, har bir topshiriqni o‘zi va sherigi bajarayotgan vaqtdagi kuzatuvchanlik diqqatni barqarorlashtiradi, mashqlarning «ot», «qaychi», «kelin», «kapa», «quduq» kabi nomlanishi va ularning o‘ziga xos timsoliy ma‘nosi ijtimoiy muhitdagi tafakkur tarzi haqida bilim beradi.



Shuningdek, o‘yin jarayoni bolaning umumiy psixik taraqqiyoti uchun ahamiyatligi shundaki, o‘yinni dastlabki o‘zlashtirish jarayoni bolaga juda katta psixofiziologik rivojlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, tosh mayda predmet sifatida bolaning sensor taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatsa, o‘yin jarayonidagi bolaning tana va gavda harakatlari muvozanat saqlash va o‘ziga qulay bo‘lgan holatlarni tanlay olish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashqda nomlarni to‘g‘ri talaffuz etish, o‘yin qoidasini ishtirokchilarga tushuntirib berish bola nutqini rivojlantiradi. Bundan tashqari o‘yinni 2-4 kishi bo‘lib o‘ynash bolalarda o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Bu o‘yinni 4 yoshdan boshlab elementar variantlarini o‘rgatish tavsiya etiladi. 6-7 yoshlilarda esa, 8-12 tagacha mashqlarni to‘liq bajartirish mumkin. Pedagoglar o‘yin jarayonini kuzatib bolalar egallayotgan malakalarni sifatiga e‘tibor qaratib, ba‘zi mashqlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan bolalarga individual tarzda oson yo‘llarini ko‘rsatib berish tavsiya etiladi.

Xulosa. Milliy o‘yinlarning afzalliklari shundaki, bu o‘yinlar joy yoki anjomlar talab etmaydi. Ko‘pgina o‘yinlarni turli yoshdagi bolalar birgalikda o‘ynashlari mumkin. Shu sababli, bolalar uchun bunday o‘yinlar sevimli sanaladi. Demak, ta‘lim tashkilotlarida dasturga kiritilgan va kiritilmagan xalq o‘yinlaridan keng foydalanib, bolalarning psixik taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatadigan omil sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun pedagoglar va psixologlar avvalo har bir o‘yinning psixologik tahlilini ya‘ni, o‘yinda bolaning bilish jarayonlari, hissiy irodaviy sifatleri va individual xususiyatlari rivojiga qay darajada ta‘sir etishini tahlil etishlari kerak bo‘ladi. Shu maqsadda o‘yinlarning psixologik xaritasini tayyorlash va kun davomida bolalar bilan shug‘ullanishni rejalashtirmoq zarur. Xullas, milliy o‘yinlardan amaliyotchi psixologlar psixokorreksion dasturlarda, psixodiagnostik vosita sifatida, sinf jamoasini jiplashtirishda, artterapiya mashg‘ulotlarda keng foydalanishlari mumkin. Buning uchun esa psixologlar har bir xalq o‘yinlarining psixologik tahlilini bilishi lozim, shu orqali bolalarning umumiyetuklik darajasidan kelib chiqib yoshiga mos xalq o‘yinlarni tanlaydi va tashkil etadi. Bu esa bolalarning psixik taraqqiyoti uchun eng zarur vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. М-изд-во Смысл, 2004
2. Мардонова Г.А. Ўзбек миллий ўйинлари: Оммабоп-адабий нашр – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 158 б
3. Нарбашева М.А., Бобокелдиева А.А. Народные игры в контексте проблемы обогащения психического развития ребенка. Педагогическое образование и наука, 2020, № 1 с.137-141
4. Норбошева М.А. Из истории детских народных игр Узбекистана // ESLSS международная конференция – 2 – 03, 2021. - Косово, С. 275-280.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер Ком, 1999.
6. Эльконин Д.Б. Психология игры. М., 1999
7. Ғозиев Э., Анарметова Ш. Ўйин назариялари. Тошкент, 1995.
8. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаева Ф. Минг бир ўйин. – Тошкент: Ибн Сино, 1990. –157-163 б.
9. Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. — T.: «Sharq», 2013. — 176 b.

*Narmuradova Rayhon Uktamovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

OILAVIY NIZOLAR: KELIB CHIQISH SABABLARI HAMDA BARTARAF ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Oilaning barqarorligi asosan er va xotinga bog'liq. Er va xotin o'rtasidagi o'zaro tushunish, eshitish oilani mustahkam bo'lishiga olib keladi. Oiladagi psixologik muhit er-xotin qiziqishlarining umumiylik bilan xarakterlanadi, eng muhimi ularning ikkalasi ham qiziqish bilan hisoblasha bilishlarida va e'tibor bera bilishlaridadir. Shuningdek, har bir oilalarda er-xotin munosabatlaridagi ijtimoiy psixologik xususiyatlar bugungi kunning o'rganilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir. Ushbu ilmiy maqolada oilaviy nizolarning mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda uni bartaraf etish metodologiyasi muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: oila, metod, o'zaro munosabatlar, psixologiya, er-xotin munosabatlari, xususiyatlar.

СЕМЕЙНЫЕ КОНФЛИКТЫ: ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация. Стабильность семьи во многом зависит от мужа и жены. Взаимопонимание между мужем и женой делает семью крепкой. Психологическая среда в семье характеризуется общностью интересов супругов, самое главное, что они оба умеют с интересом рассчитывать и проявлять внимание. Также социально-психологические особенности супругов в семьях военнослужащих являются одним из вопросов, требующих изучения сегодня. В данной научной статье рассматривается природа семейных конфликтов, их причины и методика их устранения.

Ключевые слова: семья, метод, взаимоотношения, психология, парные отношения, характеристики.

FAMILY CONFLICTS: CAUSES OF ORIGIN AND PROBLEMS OF ELIMINATION

Abstract. The stability of the family mainly depends on the husband and wife. Mutual understanding between husband and wife makes the family strong. The psychological environment in the family is characterized by the common interests of the spouses, the most important thing is that both of them are able to calculate with interest and pay attention. Also, the socio-psychological characteristics of spouses in military families are one of the issues that need to be studied today. This scientific article discusses the nature of family conflicts, their causes, and the methodology for their elimination.

Keywords: family, method, mutual relations, psychology, couple relations, characteristics.

Kirish. Mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lida borayotgan O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasida ko'tarilgan oilaviy munosabatlar zahirida, albatta, er-xotinning o'zaro oilaga munosabatlari turadi. Jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'li o'zini oqlagani kabi kuchli, barqaror hamda farovon davlat tizimi negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishini bugun tobora chuqur anglab yetmoqdamiz. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas.

Oila qurish ulkan voqea. Bu nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyat. Bo'lajak kelin va kuyovning dastlabki oilaga qadami, o'zaro munosabatga kirishishi, qiziqishlarining uyg'unligi hisoblangan, keyinchalik oila qurgan kelin-kuyov o'zlarining hayotiy sikllarini bosqichma-bosqich bosib o'tishadi. Yangi oilaviy juftlikning tashkil topishi uning a'zolaridan o'zlarida nikohgacha mavjud bo'lmagan integrativ sifatlarni shakllantirishlarini taqozo etadi. Bir vaqtning o'zida oila qurish kelin-kuyovlarning anglagan holda nimalardandir o'zlarini chegaralashga roziliklari hamdir. Yosh oila tizim sifatida ma'lum sharoitlarda uning elementlarini qo'llab-quvvatlovchi o'zini-o'zi boshqarish mexanizmlarini ham shakllantiradi. Mazkur mexanizmlar oilaviy hayotning turli sohalaridagi xulq – atvor normalari hisoblanib, olim Kuzlena inqirozlarni alohida ko'rsatib, er-xotinning oilada normativ inqirozlarini kechirishlarini ta'riflaydi:

➤ er-xotinning er-xotinlik majburiyatlarini qabul etishi. Bunda er-xotinning oila muqaddas dargohligini anglagan holda, shunchaki birga yashash emas, balki er-xotinning ko'nglining tubidan oila barpoetganliklarini, undagi munosabatda er-xotinning qanday vazifa va majburiyatlari borligini chuqur his etishlari lozimligidir. Majburiyatlarni qabul etishda qaysi tomondan yuzaki munosabat paydo bo'lsa, oilaning dastlabki normativ inqirozlarida muommoli vaziyatlar ko'zga ko'rina boshlaydi;

- er-xotinning ota-onalik rolini anglashi va yangi oila a'zosining paydo bo'lganligini qabul qilishi;
- farzandning tashqi ijtimoiy muhitga qo'shilishi;
- bolani o'smirlik davriga kirganligini er-xotin tomonidan qabul qilinishi;
- voyaga yetgan farzandning uyini tark etishi.

Yangi tuzilgan oilada bir qator moddiy, psixologik, ijtimoiy-psixologik xarakterdagi qiyinchiliklar va muammolarni yengishga to'g'ri keladi. Oila-nikoh moslashuv jarayoni qanchalik samaraliligiga qarab yosh oilaning barqaror yoki beqarorligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Oilaga moslashuv vaqti bir qancha omillar- ijtimoiy muhit sharoitlari va talablari, insonning muloqotmandlik, o'zgalar bilan hamkorlik va kooperatsiyaga intilish, hamdard va hamnafas bo'la olish qobiliyatlariga, o'z hissiyotlari va emotsiyalarini nazorat qila olish hamda kundalik tushkunliklarni yenga olish malakasiga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Ijtimoiy-tarixiy va ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o'zbek oilasining hayoti, undagi o'zaro munosabatlar, uning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlari jiddiy ilmiy muammolar sifatida XX asrning 60-70 yillaridan e'tiboran o'rganila boshlandi. Ana shu yillardagi dastlabki tadqiqotlar ko'proq falsafiy, tarixiy, etnografik yo'nalishdagi va oilaning tarbiyaviy va mehnat shart-sharoitlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar o'z xarakteriga ko'ra, oilaning madaniy, huquqiy, tibbiy, uning turmush tarzi, undagi tarbiya muhitining ahamiyati, o'zaro munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillar hisoblangan.

Mazkur tadqiqotlar sirasiga quyidagilarni keltirib o'tish o'rinlidir. Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlarini keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov (1986, 1990, 1994, 2001), Y.A.Morshinina(1986), E.G'oziyev (1994, 2002). V.M.Karimova (1987, 1994, 1999), M.G.Davletshin (1993,1994), N.A.Sog'inov (1990), S.A.Oxunjonova (1991), A.Shojalilov (1994), T.M.Adizova (1994), E.Usmonov (1993), X.Karimov (1994), Sh.Sh.Jo'rayeva (1994), R.S.Samarov (1997), O.Shamiyeva (2000) N.Salayeva (2001), F.R.Ro'ziqulov, (2002) M.Fayziyeva (2005) va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir [1-7].

F.A. Akramovning fikricha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoki yangi oilalar qurishda ana shu muhim asoslarga e'tibor berish va ba'zi bir narsalardan ogoh bo'lish zarur. «Oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerak. Ikki yosh, ya'ni bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko'z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni yengishga, o'zgacha shart-sharoitga ko'nikishga bolalikdan o'rgatib borish lozim. Eng muhimi ular o'rtasida chin muhabbat bo'lishi darkor. Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish ayni muddaodir» [4].

P.S.Ergashev tadqiqotlari natijalariga tayanib, hozirgi o'zbek xalqining oilaviy munosabatlarida etnopsixologik xususiyatlarga amal qilinishiga qarab quyidagicha oila toifalarini farqlashni taklif etadi [6]:

1. Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda qonun darajasida qabul qilingan oilalar.
2. Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda hayotiy me'yor darajasida qabul qilingan oilalar.
3. Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda o'z aksini topmagan oilalar.

Shuningdek, o'zbek oilalaridagi ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda, shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida muammoli va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, er-xotin va ularning yaqinlari orasida nizolar hamda ziddiyatli holatlarning keskinlashuvi saqlanib qolishi, ajralish tufayli yuzaga kelgan, noto'liq oilalar bolalari shaxsiga, ularning ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'siri ilmiy asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Er-xotin munosabatlarining rivojlanishi o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Shunday xususiyatlardan biri er-xotin munosabatlari rivojlanishida chuqur nonormativ inqirozlarning yuzaga kelishidir. Er-xotin munosabatlari, muloqotida ro'y beradigan inqirozli bosqichlar quyidagilardan iborat.

Birinchi inqiroz oilaviy hayotning birinchi uch yili davomida namoyon bo'lib, ya'ni yosh er-xotinlar bir-birlariga va o'zlari uchun hali yangi bo'lgan birgalikdagi er-xotinlik hayotiga moslashishi, o'rganish

davriga to‘g‘ri keladi. Bu inqiroz aksariyat hollarda oilaviy hayotning birinchi yillarida ro‘y beradi.

Ikkinchi inqiroz oilaviy hayotning 4-7 yillariga to‘g‘ri keladi. Bu inqiroz nisbatan og‘irroq kechuvchi inqiroz bo‘lib, bunda er-xotinlarning bir-birlariga mos tushishi aniqlanadi. Shuning uchun ham aksariyat muvaffaqiyatsiz oilalarning nonormativ inqirozlari ko‘proq shu davrga to‘g‘ri keladi.

Uchinchi inqiroz er-xotin munosabatlari rivojlanishida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan navbatdagi, ya‘ni birgalikdagi hayotning yigirmanchi yillaridan so‘ng, aniqrog‘i, farzandlar voyaga yetib, ular oila qurib, o‘zlari mustaqil bo‘lib ota-ona oilasidan ajralib ketganlaridan so‘ng ro‘y beradi. Albatta, bu bosqich Yevropa xalqlariga mansub millat oilalarida kuchliroq seziladi. O‘zbek oilalarida esa uning etnik xususiyatlari, ko‘p farzandlilik, oilalarning bo‘linmaganligi, ko‘p tabaqaliligi, yosh oilaning ota-onasidan mustaqil emasligi va shu kabi xususiyatlardan kelib chiqqan holda uchinchi inqiroz bosqichi nisbatan yashirin kechadi. Yurtimizda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, uchinchi bosqichni boshdan kechirayotgan o‘zbek oilalarida er-xotinlarni birlashtirib turuvchi maqsadlar, to‘y qilish, quda-andali bo‘lish kabilar ularni bir-birlariga kuchliroq bog‘lab qo‘yadi, lekin bu davrdagi inqiroz farzandlarga, kelinga bo‘lgan munosabatlarni belgilashda, yo‘lga solishda, oiladagi yirik masalalarni hal etishdagi fikrlar qarama-qarshiligida albatta namoyon bo‘ladi.

Nikohdagi hamkorlar, qoida tariqasida, aniq va yoki yozilmagan qoidalar asosida harakat qilishadi. Ko‘pincha er-xotinlarning o‘zlari o‘zaro mas‘uliyatlari, oilada mehnat taqsimoti, maishiy budjet taqsimoti to‘g‘risida kelishib oladilar. Manbalarda keltirilishicha, “oilada o‘zaro hamkorlik va hamkorlik tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Tabiiyki, er va xotinning harakatlari oilaviy hayotning asosiy maqsad va vazifalarini qanday tushunishlari bilan belgilanadi. Er-xotinning har biri oila hamkorligiga hissa qo‘shadi. Er yoki xotinning xulq-atvori nikoh qoidalari orqali qilgan talablariga javoban tashkil etiladi. Agar xatti-harakatlar bu taxminlar va talablarga javob bermasa, unda mojaroli vaziyatlar, majburiyatlar bajarilmaganligi haqida o‘zaro ayblovlar vujudga keladi” [7].

Birgalikda yashash har bir oila a‘zosidan o‘z harakatlarini boshqalar qanday baholashlari nuqtayi nazaridan doimo baholashni talab qiladi.

Yillar davomida, er-xotinlar boshqa juftliklarning yashash tarzlarini kuzatib oila haqida juda aniq tasavvurga ega bo‘lishadi. Oilada kelishuv uning har bir a‘zosi boshqa oila a‘zolarining xulq-atvori, niyatlari va istaklariga qarab asta-sekin o‘z xulq-atvorini o‘zgartirishi mumkin. Muvaffaqiyatli oilaviy hayot yuqori sabrlik, moslashuvchanlik va eng muhimi, yuqori darajada rivojlangan adaptiv qobiliyatlarni talab qiladi. Er va xotin o‘z harakatlarini faqat ular o‘rtasida kelishuv mavjud bo‘lgan darajada muvofiqlashtira oladilar. Kelishuv boshqa asoslanadigan umumiy taxminlarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, nikohning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan er-xotinning muayyan minimal umumiy fikrlarga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Er-xotinlar farzandlarini qiyinchiliklarida ayblashlari va ularga qarshi g‘azablanishlari mumkin. Juda tez-tez, er va xotin o‘rtasidagi nizo faqat o‘zaro xudbin pozitsiyadan olib boriladi; har bir hamkor manfaatlari hisobidan o‘z yo‘lini oladi va bir butun sifatida oila umumiy manfaatlariga muvofiq masalani hal qilishga harakat qilmaydi.

Er-xotinlar bir vaqtning o‘zida barcha sohalarida o‘zlarini o‘zi yetarli darajada mukammal qilishga harakat qilishadi: oilaviy munosabatda, ota-ona rovida, madaniy, fuqarolik rollarida ham. Ammo jinsiy tamoyiliga ko‘ra mas‘uliyatlarning taqsimlanishi rad etiladi, bu yerda «hamma teng» tamoyili hukm suradi. Muloqot paytida, hamkorlar o‘z his-tuyg‘ular va manfaatlarini keng ochishmaydi. Har ikki er-xotin umumiy qarorlar qabul qilish uchun belgilangan bo‘lsa, eng munosibini qabul qilishi mumkin bo‘ladi: nima bugun ularga mos yoki mos emas qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o‘rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko‘ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin o‘rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o‘rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o‘rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o‘rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar.


Albatta, bu ro‘yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin biz hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilan kifoyalani, oilaviy hayotda ro‘y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo‘lgan nizolarning eng asosiysi bo‘lmish er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ajrashishlar ko‘paymoqda, ko‘pincha ajrashayotganlardan ajralish sababini so‘ralsa, ular qandaydir hamma uchun standart bo‘lib qolgan sabablarni ko‘rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o‘zga shaxsning aralashuvi», «qo‘pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noo‘rin aralashuvi» va h. k. Agar tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, vaziyatga qarab, bunday ko‘rsatkichlar ba‘zilarda sabab, ba‘zilar uchun esa bahona vazifasini o‘taydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, oiladagi ma’naviy-ruhiy psixologik iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo‘la olmaydi.

Bularning barchasi o‘zbek oilasida ajralish masalasiga jiddiyroq e’tibor berish lozimligini va uning oldini olish, salbiy asoratlarni kamaytirish chora- tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Har bir yosh uylanishdan yoki turmushga chiqishdan avval bir birini tanlashda shoshilmasligi lozimligi, nikohning naqadar ulug‘ ahamiyat kasb etishini anglashlari lozim.

Natijalar. Statistika ko‘ra, O‘zbekistonda o‘rtacha ajrashishlar soni kuniga 137 tani tashkil etmoqda. Yanvar-sentabr oralig‘ida jami 184 ming 461 ta nikoh qayd etilgan. Ularning o‘rtacha yoshi ayollarda 22,5 bo‘lsa, erkaklarda 27,3 yoshni tashkil etgan (1-shakl).



1-shakl. O‘zbekistonda o‘rtacha nikoh yoshi (2023-yil holatiga)

Afsuski, shu vaqt oralig‘ida ajrashishlar soni ham kam emas. 37 ming 654 ta. Bu viloyatlar va Qoraqolpog‘iston Respublikasi miqyosida hisoblaydigan bo‘lsak, har bir hududga o‘rtacha 10 ta oilaning ajrashishi to‘g‘ri kelmoqda. Ajrashganlarning o‘rtacha yoshi erkaklarda 37 yosh, ayollarda 33 yoshni tashkil etgan. Ajrashganlarning yarmidan ko‘pida farzand bo‘lmagan (2-shakl).

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O‘zbekistonda ham ajralish muammosini o‘rganishga keng ilmiy jamoatchilik e’tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o‘rganmoqdalar. Ularning e’tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarni kamaytirish masalalariga qaratilgan.



2-shakl. O'zbekistonda o'rtacha ajrashish yoshi (2023-yil holatiga)

Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa va munozara. Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi, unda millat, xalq yashaydi. Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi bo'lgan oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-psixologik nizo va muammolarni oldini olish uchun ota-ona o'z farzandlariga yoshligidan boshlab fikrini to'g'ri shakllantirishi kerak. Oilaning har bir kishisi o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashsa, avvalo oila mustahkamligiga, oxir-oqibatda esa jamiyat farovonligiga erishishning muhim omilidir. Har qanday muammoni hal qilishda erkak kishiga ko'proq vazifa yuklatiladi. Afsuski, ko'pchilik erkaklar bu masalalarning yechimini topishda juda qiynaladilar.

Adabiyotlar:

1. Shoumarov G.B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2008. – 294 b.
2. Burieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T., 2017.
3. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. Tuzuvchilar: N.A.Sog'inov, F./Habibullaev. –T., 2016.
4. Akramova F.A. Oilada ma'naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. – T.: «Nixol Print», 2016. – 42 b.
5. Yo'ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. – T., 2014. – 99 b.
6. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. – T.: TDP, 2013.

*Narzulloeva Salomatbonu Sunnatulloeva,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi*

TIBBIYOT HAMSHIRALARI FAOLIYATIDA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARI NAMOYON ETILISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot hamshiralarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir qiluvchi shaxslilik xususiyatlari va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan. Shuningdek, tibbiyot hamshiralari shaxslilik xususiyatlarini va uni tadqiq qilish uslubi aniqlangan. Ayni paytda, sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot hamshiralarining shaxslilik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan metodikalarni tanlanishi va ularni tadqiqot maqsadiga mos ravishda modifikatsiya qilinishi va muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolari hamda ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda tibbiyot hamshiralarini kasbiy faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashni hamda ushbu omillarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologik kompetentlik, «Men-konsepsiyasi», agressiya, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik muloqot.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДСЕСТЁР

Аннотация. В данной статье выражены личностные качества, влияющие на профессиональную деятельность медицинской сестры, и их научный анализ. Также определены особенности личности медицинской сестры и метод её исследования. На данный момент осуществляется выбор методов, направленных на изучение особенностей личности медицинских сестер, работающих в системе здравоохранения, и их модификация в соответствии с целью исследования, а также актуальные проблемы и научно-теоретические анализы, выявление социально-психологические факторы, влияющие на профессиональную деятельность медицинских сестер сегодня, и речь идет о развитии психологических механизмов, влияющих на формирование этих факторов.

Ключевые слова: психологическая компетентность, Я-концепция, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, общение.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF PERSONALITY IN THE ACTIVITY OF A NURSE

Abstract. In this article, the personality traits affecting the professional performance of medical nurses and their scientific analysis are expressed. Also, the characteristics of the personality of medical nurses and the method of its research are determined. At the moment, the selection of methods aimed at studying the personality traits of nurses working in the health care system and their modification in accordance with the purpose of the research, as well as important problems and scientific-theoretical analyses, the identification of social-psychological factors affecting the professional activity of nurses today, and it is about the development of psychological mechanisms influencing the formation of these factors.

Keywords: psychological competence, self-concept, aggression, social courage, social maturity, communication.

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tibbiyot hamshiralari professional kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tibbiyot xodimlarining psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, tibbiyot xodimlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi: «Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish», ustuvor vazifa sifatida qaralishi e‘tiborga molik. Bu borada tibbiyot xodimlarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tibbiyot hamshiralarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari Sharqning buyuk mutafakkirlarini asrlar davomida qiziqtirib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy o‘z asarlarida, insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini «yuqori darajadagi axloqiy sifatlar» deb ta’riflaganlar. Mashhur mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy o‘z davrida bemorlarni davolashda ularga ruhiy ta’sir qilish muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, Ismoil Jurjoniy, Masixiy Al Karvakiy, Chag‘miniy kabi tabiblar ham kasallikni davolashda tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentlik omillari roli va ahamiyati muhimligi e’tirof etilgan.

O‘zbekistonda sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy kompetentlikka ta’siri, o‘rni va ahamiyati Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishonova, Sh.J.Usmonova, B.R.Qodirov, E.G’oziev, G‘.B.Shoumarovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini tashkil etuvchi psixologik mexanizmlar, kasalliklarga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, tibbiyot xodimlarining shaxsiy sifatlarini ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari Z.Abidova, Z.R.Ibodullaev, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan, Y.K.Narmetovlar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan I.F.Bashirov (harbiy psixologlar faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlikning roli), I.A.Egorov (korxonah rahbari emotsional intellektning xodimlariga ta’siri), V.V.Boyko (rahbar kommunikativ kompetentligi shakllanishining kasbiy kompetentlikka ta’siri) sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan. Professional kompetentlikning tuzilishi va shakllanishiga qaratilgan masalalar A.A.Bodalev, Y.P.Ermalaeva, N.A.Kuz’mina, A.K.Markova, L.M.Mitina, Y.A.Mileryan, L.E.Panin, L.A.Petrovskaya, P.A.Shavir tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. V.S.Ageev, M.I.Bobneva, I.F.Demidova, N.F.Efremova, Yu.M.Jukov, I.L.Zimnyaya, V.Kunitsina, Y.Makarov, A.P.Panfilova va boshqalar sotsial-psixologik kompetentlik fenomenining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan G.Gardner, Daniel Goulman, Robert Torndayk, P.Selov va J.Mayerlar o‘z tadqiqotlarida sotsial-psixologik kompetentlikka ta’sir qiluvchi omillar va komponentlarni ilmiy asoslab berishgan.

Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, aynan, tibbiyot hamshiralari sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot hamshiralari kasbiy faoliyatini samaradorligini rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining o‘rni va ahamiyatini belgilashda biz R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayandik. Ma’lumki, R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kettell so‘rovnomasi ijtimoiy psixologiya sohasida eng ko‘p tarqalgan hamda o‘zining ishonchligiga va validligiga ega bo‘lgan metodikalardan biri hisoblanadi. R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» testini tadqiqotimizda foydalangan shaklini professor A.M.Jabborov o‘zining “O‘zbek maktab o‘qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida modifikatsiya qilgan. Tadqiqotimizda so‘rovnoma tarkibidagi omillarning oltitasi kliniik xarakterga ega ekanligi bois, faqat o‘n omilidan foydalanishni lozim topdik. Biz foydalangan omillar esa, aynan shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu o‘nta omil ko‘rsatkichlarini baholash orqali, tibbiyot xodimlari shakllangan shaxslilik xususiyatlarga baho berish mumkinligi nuqtayi nazardan tadqiqot umumiy maqsadiga moslashtirildi Bizning izlanishimizga qadar olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu metodikadan keng foydalanilgan. Bu esa bizning amaliyot uchun obyektiv ilmiy ma’lumotlar berishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodika sifatida tatbiq etishimizda qo‘l keldi.

R.Kettell so‘rovnomasi 16 ta asosiy shaxs faktorlari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. U faktorlar shaxsning emotsional, bilish, xulq tomonlarini qabul qilgan umumiy psixologik tuzilishiga ega. So‘rovnoma yordamida quyidagi tafsilotlarni bilish imkoniyati tug‘iladi: A – yopiq (odamovilik) -

muloqotchanlik, V – past intellekt - yuqori intellekt, S – emotsional beqarorlik - emotsional turg'unlik, Ye – itoatkorlik - mustaqillik, F – mulohazalilik – ekspressivlik, G – his-tuyg'uga beriluvchanlik - yuqori normativ xulq, H – tortinchoqlik - botirlik, I – shafqatsizlik - yumshoq ko'ngillilik, J – ishonuvchanlik - shubhalanuvchanlik, M – amaliylik - xayolparastlik (rivojlangan tasavvur), N – tabiiy oddiylik - diplomatilik, O – o'ziga ishonish – aybdorlik hissiga moyillik, Q1 – rigidlik - o'zgaruvchanlik, Q2 – konformizm (guruhga tobelik) - mustaqillik, Q3 – o'zini-o'zi nazorat qilishining past darajasi – o'z xulqini nazorat qilishning yuqori darajasi, Q4 – kuchsizlik - frustratsiya, MD - o'ziga bahoning adkevatliligi - o'zini baholashning noadekvatliligi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metodika oldingi metodikalar singari tadqiqot ob'ektiga tatbiq etildi. So'rovnomaning umumiy va xususiy hollardagi natijalarini quyida batafsil tahlil etib o'tamiz

Tibbiyot xodimlarining R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasiga tayanib olgan natijalarimizda shaxslilik xususiyatlari quyidagi psixologik tavsiflarga ega ekan. Deyarli barcha omillar bo'yicha tibbiyot xodimlarining ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqori zonadan o'rin oldi (1-jadval).

Ularning ushbu shaxslilik xususiyatlari ko'rsatkichini omillar bo'yicha xususiy hollarda talqin etiladi:

Muloqotga moyillik (A) shkalasi (5,28). Bu qiymat shu bosqichdagi tibbiyot xodimlarini boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat-e'tiborli, qattiq g'azablanish yoki xursand bo'lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmasliklari, o'z xulqini boshqara olish qobiliyatiga ega ekanliklari, ayni paytda rahmdil va samimiy, shu bilan birga o'zgacha uslubda talabchanliklarini anglatadi.

Hissiy barqarorlik (S) (5,20±1,76). Bu ko'rsatkichda pedagoglarga xos o'z hislarini va kayfiyatini boshqara oladigan, «Men timsoli» kuchi yuqoriroq ekanligi, «Men» konsepsiyasini ijobiy bo'lishiga intiluvchanligi, kasbiy faoliyatda ma'lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkinligini bildiradi. Agarda tibbiyot xodimlarida hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deyish mumkin.

1-jadval.

Tibbiyot hamshiralari shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining umumiy ko'rsatkichlari

	Omillar	X	Y
«Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasi (R.B.Kettell)	Muloqotga moyillik (A)	5,28	1,61
	Hissiy barqarorlik (S)	5,20	1,76
	Hukmronlikka intilish (E)	5,34	1,57
	Ijtimoiy yetuklik (Qr)	5,31	1,52
	Ijtimoiy dadillik (H)	5,56	1,61
	Ishonuvchanlik (J)	5,06	1,68
	O'ziga ishonish (Q)	5,11	1,58
	Mustaqillik (Q ₂)	5,66	1,74
	O'zini nazorat qilish (Q ₃)	5,58	1,67
	Xotirjamlik (Q ₄)	5,25	2,01

Hukmronlikka intilish (E) (5,34±1,57). Omilning bu darajasi tibbiyot hamshiralari atrofidagi odamlar ta'siriga beriluvchanligi, atrofda talabini ham hisobga olishi, mustaqilligini belgilovchi huquqingizni himoya qilishda agressiv emasliklari, shu bilan birga ularda kollej rahbariyati bilan erkin munosabatda bo'lishga moyilligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy yetuklik (Qr) (5,31±1,52). Mazkur omilning ushbu darajasi tibbiyot xodimlarining hayotga va ishga yengil qarashlari, javobgarlikni his qilmasliklari, tejamisizlik kabi hislatlardan to'la ozod emasliklari, biroq bunday holat ularning «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini anglatmaydi, balki o'z xulqini boshqara olish va qa'tiylikni yetarli emasligi oqibati bo'lib hisoblanadi. Ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va ahloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxslar sifatida mavqega egadirlar.

Ijtimoiy dadillik (N) (5,56±1,61). Bunday qiymat tibbiyot hamshiralari yetarli darajada botirliklari, odamlar bilan aloqaga erkin kira olishi, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga olishi, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o'zini yo'qotmasligidan dalolat bermoqda.

Ishonuvchanlik (J) (5,06±1,68). Ishonuvchanlik omilining ushbu ko'rsatkichi tibbiyot hamshiralari kasbiy faoliyat va hayotiy masalalarni hal etishda aqlga asoslanib ishonishlari va shu orqali faoliyatda samaraga erishishla-ri mumkin.

O‘ziga ishonish (Q) ($5,11 \pm 1,58$). Omilning ushbu darajasi tibbiyot hamshiralarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri baholash va ularga munosib javobni bera olishini, o‘z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o‘zini kamsitishga moyillik bo‘lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo‘lish, ta’sirchanlik bor. Ular o‘zilariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiq.

Mustaqillik (Q2.) ($5,66 \pm 1,74$). Tibbiyot hamshiralari hamma narsani o‘zlari bajarishni ma’qul ko‘rsalarda, atrofidaqilar tavsiyasi va takliflarini ham quloq soladilar. Ular mustaqil bo‘lishni ham, atrofidaqilarga tayanishni ham, ularni qo‘llab-quvvatlashlarini ham hohlaydilar. Ulardagi mustaqillik faoliyatlarini samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zini nazorat qilish (Q3.) ($5,58 \pm 1,67$). Ko‘rsatkich tibbiyot hamshiralarning ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat’iyatli ekanligi, ko‘pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishlari. Ammo ular har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazavermas ekanlar. O‘z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o‘zlarini nazorat qilishga ko‘proq e’tibor berganlari ma’qul.

Xotirjamlik (Q4.) ($5,25 \pm 2,01$). Ushbu omil ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi, tibbiyot hamshiralari ehtiyojlar miqdorining ko‘pligi tufayli ularda bir muncha zo‘riqish borligidan va nisbatan ko‘proq asabiylikka moyillikdan dalolat beradi.

Murakkab maqsadlardan o‘zini olib qochish va zo‘riqish, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat natijasi bo‘lib, bunga o‘z navbatida, temperament tiplarining o‘ziga xos xususiyatlari ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tibbiyot hamshiralarning shaxslilik xususiyatlarini umumiy holati sharhida ham ijobiy, ham mo‘tadil va ayrim o‘rinlarda kasbiy faoliyat uchun teskari xarakterni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligini ko‘rdik

Demak, R.B. Kettel uslubi natijalariga ko‘ra barcha tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlarining yetakchilik qilishi aniqlandi.

Tibbiyot hamshiralarning shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik ularni shaxslararo munosabatlarda hissiy barqaror bo‘lishlarini, hukmronlikka intilmasliklarini va ruhiy toliqish, qo‘zg‘alish va zo‘riqishlarni kamaytirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, tibbiyot hamshiralari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg‘unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi psixologik ko‘rsatkichlariga baho berishda har bir tibbiyot hamshiralarning shaxslilik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali ularning kasbiy faoliyat kompetentligini ta’minlash mumkinligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – №6 (766). – 70 modda. – Toshkent: Adolat, 2017. – B. 38.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: “Аспект пресс”, 1996. – 178 с.
3. Маерс Д. Социальная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс». - С.Петербург – Москва, 2002. – 188 с.
4. Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция // Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991. – С. 75—84.
5. Куницына В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение / Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
6. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslari. Monografiya. – Buxoro: “Durdona”, 2020. – 248 b.

*Niyazova Nilufar Farhadovna,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

SOS O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLALARI O'SMIR YOSHIDAGI TARBIYALANUVCHILARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya. Maqolada SOS O'zbekiston Bolalar Mahallalari o'smir yoshdagi tarbiyalanuvchilarida gender identiklikning boshqa xususiyatlar bilan o'zaro bog'liqligi tahlili va o'smir yoshdagi tarbiyalanuvchilarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan majmuaviy tadqiqot ishi natijalari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, deprivatsiya, tibbiy anamnez, bilish jarayonlari, xarakter aksentuatsiyasi, o'smir shaxsi xususiyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ВОСПИТУЕМЫХ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА ДЕТСКИХ МАХАЛЛЕЙ В SOS УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье представлены результаты коллективного научного исследования, посвящённого анализу корреляции гендерной идентичности с другими характеристиками и изучению психологических особенностей подростков детских махаллей SOS.

Ключевые слова: сироты и дети, лишившиеся родительской опеки, депривация, медицинский анамнез, когнитивные процессы, акцентуация характера, особенности личности подростка.

PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF ADOLESCENTS BROUGHT UP IN CHILDREN'S MAHALLAS IN SOS UZBEKISTAN

Abstract. The article presents the results of a collective scientific research devoted to analyzing the correlation of gender identity with other characteristics and studying the psychological characteristics of adolescents of SOS children's mahallas.

Keywords: orphans and children without parental care, deprivation, medical history, cognitive processes, character accentuation, adolescent personality traits.

Kirish. Jahonda jadal taraqqiyot va insonning ehtiyojlari o'sib borayotgan sharoida oilaviy munosabatlar tizimida ham katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Tarbiyalanuvchi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda ularning rivojlanishining ijtimoiy shartlari muhim ro'l o'ynaydi: hissiy, ijtimoiy va ruhiy tushkunlik. Ushbu psixologik jihatdan noqulay sharoitlarda ijtimoiy va shaxsiy identifikatsiyani shakllantirish muammosi katta ahamiyatga ega. Identifikatsiya qilishning maxsus yoshi o'smirlik davri hisoblanadi. Bu davr axloqiy e'tiqodlarni shakllantirish jarayoni bo'lib, identifikatsiya namunalari o'zgarish yuz beradi. SOS O'zbekiston Bolalar Mahallalari Uyushmasi O'zbekiston Respublikasi hududidagi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati va SOS Kinderdorf International (Avstriya) tomonidan 1997-yilda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida SOS bolalar mahallalarini va ular bilan bog'liq loyihalarni tashkil etish, qurish, jihozlash va ularning faoliyat ko'rsatishi to'g'risida"gi shartnomaga hamda Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-dekabrda 585-sonli "O'zbekistonda SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasini tashkil etish to'g'risida"gi[1] Qaroriga muvofiq amalga oshirib kelgan. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrda 738-sonli "SOS O'zbekiston Bolalar mahallalari Uyushmasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[2] Qarori bilan faoliyati yangi pog'onaga ko'tarilgan.

Hozirgi kunda SOS bolalar mahallalarida uch bo'linma o'z faoliyatini olib bormoqda. Ular: bolalar mahallalari - muqobil parvarish qilish xizmatlari; yoshlar uylari - yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari va ijtimoiy markazlar - ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'limlari. Ularda asosan ota-onasining qaramog'isiz qolgan yoki ijtimoiy yetimlik havfi ostida bo'lgan bolalar va yoshlar, shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan 280dan ortiq oilalar qo'llab-quvvatlanib, 620 nafar bola tarbiyalanmoqda, ushbu bolalardan 32 nafari imkoniyati cheklangan bolalardir. Mehribonlik uylaridagi bolalarining o'ziga xos xususiyatlari-tajovuzkorlikning yuqori darajasi, qurbonlik, nevrologiya, himoya xatti-harakatlarning noto'g'ri shakllari, ta'sirchan javob berish tendensiyalari, xafa qilish, boshqalarga javobgarlikni yuklashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Turli yosh davrlarida gender identifikatorining rivojlanish xususiyatlari rus mualliflari Abramenkova (2000), N.P. Kovaleva (2011), T.A. Krilova (2002), L.V.Mishchenko (2015),

A.E.Sima'novskiy (2017), L.B.Shnayder (2007, 2019) va boshqalar Xorijiy psixologiyada gender identifikatori, gender stereotiplari va gender xulq-atvori muammosi bo'yicha S.M.Lindberg (2008), T.Lobel, N.Nov-Krispin (2004), E.S.Watterson (2012) va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlariga e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, muammoni yetarli darajada o'rganilmaganligi, uni katta ahamiyatga ega ekanligi, uning dolzarbligini belgilaydi.

“Gender” atamasi nisbatan yangi tushuncha bo'lsa-da (1975), fanga unga bog'liq fikr va qarashlar anchadan buyon ma'lum. Gender psixologiyasi tarixida 5 bosqichni ajratish mumkin:

1. Falsafa zaminida genderni xos fikrlarning shakllanishi (qadimgi (antik) davrdan XIX asr oxirigacha);

2. Gender psixologiyasi predmeti va bo'limlarining ajratilishi (XIX asr oxiri XX asr boshlari);

3. “Freyd davri”, ya'ni Z.Freyd va psixoanaliz bilan bog'liq davr (XX asr boshlari – 1930-yillar);

4. Keng eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo'lishi;

5. Gender psixologiyasining barq urib rivojlanishi davri (1990-yillardan hozirga qadar).

Gender tadqiqotlarining qadimgi davrlari haqida gapirganda Aflotun va Aristotel tilga olinadi. Afinalik Aflotun (mil.avv. 427-347 yy.) o'zining “Bazm” (“Pir”), “Davlat” (“Gosudarstvo”), “Qonunlar” (“Zakono”) asarlarida oila do'stlikni “Samoviy Afrodita” deb ataydi. Uning fikricha erkak qo'rqoq badbaxt umr kechirsa, o'limidan so'ng uning ruhi ayolga o'tadi. Aflotunning ayollarga ijobiy munosabati uning ideal davlat haqidagi ta'limotida aks etadi. Bu davlatda ayollar barcha sohada erkaklar bilan tengdirlar, bundan tashqari uyro'zg'or ishlaridan holi, davlat ishlarida faoldir, farzand tarbiyasi uchun esa erkak va ayollar birday mas'uldir.

Natijalar. Biz olib borgan tadqiqotimizda SOS bolalar mahallalari tarbiyalanuvchilari va oddiy oila farzandlaridan jami 60 nafar sinaluvchi qatnashdi. Tadqiqotda “Men kimman” metodikasidan va “Jins rolli” so'rovnoma metodikasidan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash uchun tasiflovchi statistik tahlil amalga oshirildi. Natijalar tahlili bo'yicha quyidagilar kuzatildi. “Men kimman” metodikasida Oilaviy rol shkalasidagi natijalar tahlilida quyidagilar holatlar aniqlandi. Sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 7 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 1.9 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 1.66 dan iborat ekan Oilaviy rol uchun 1 dan 3,6 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A=0,780$) va eksstes ($E=0,032$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksstes kuzatildi.

Kasbiy rol shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda Sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 7 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 1 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 1.41 dan iborat ekan Kasbiy rol uchun 0,5dan 2,4 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A= 1,982$) va eksstes ($E=4,906$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksstes kuzatildi.

Ijtimoiy rol shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 10 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 3,31 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 2.32 dan iborat ekan Ijtimoiy rol uchun 1 dan 5,6 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A= 0,631$) va eksstes ($E=-0,167$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksstes kuzatildi.

Jinsiy rol shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 11 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 1,51 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 1.98 dan iborat ekan Jinsiy rol uchun 0,39 dan 3,41 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A= 3,016$) va eksstes ($E=10,791$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchli o'ng tomonlama assimetriya va kuchli musbat eksstes kuzatildi.

O'zligi shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 19 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 9,31 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 5.01 dan iborat ekan O'zligi uchun 4,3 dan 14,32 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A= 0,168$) va eksstes ($E=-0,921$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksstes kuzatildi.

Boshqalar shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda Sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 1 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 20 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 1,461 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og'ishning ko'rsatgichi 3.83 dan iborat ekan Boshqalar uchun 0,50 dan 3,41 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A= 3,225$) va eksstes ($E=11,161$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchli o'ng tomonlama assimetriya va kuchli musbat eksstes kuzatildi.

Maskullik shkalasi natijasiga ko'ra moslik o'rganganimizda sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 7 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 18 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 13,50

tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og‘ishning ko‘rsatgichi 2,63 dan iborat ekan Maskullik uchun 10,87 dan 16,13 ballgacha me‘yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A = -0,366$) va eksstes ($E = -0,399$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksstes kuzatildi.

1-jadval.

Jins roli so‘rovnoma bo‘yicha tavsiflovchi statistika (n=60)

Jins roli so‘rovnoma	N	Minimal	Maksimal	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Asimmetriya	Eks tsess
Maskullik	60	7,00	18,00	13,50	2,63	-0,366	-0,399
Feminlik	60	8,00	19,00	15,08	2,68	-0,702	-0,031

Feminlik shkalasi natijasiga ko‘ra, moslik o‘rganganimizda Sinaluvchilar tomonidan olingan minimal ball 8 balni tashkil qilib. Maksimal ball esa 19 ball bo‘ldi. Mazkur shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat 15,08 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart og‘ishning ko‘rsatgichi 2,68 dan iborat ekan. Feminlik uchun 12,4 dan 17,76 ballgacha me‘yor hisoblanar ekan. Assmetriya ($A = -0,702$) va eksstes ($E = -0,031$) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksstes kuzatildi.

Muhokama. Bizga ma‘lumki, bola dastlab ota-onasining xulqidagi jinsiy tafovutlarni, so‘ngra boshqa kattalar, o‘qituvchilar, tanish-bilishlarning xulqiga nazar solib, erkak va ayolga xos sifatlarni idrok qiladi va o‘zini u yoki bu jins vakiliga identifikatsiya qiladi. Ya‘ni jinsiy identifikatsiyaning ilk muhiti – bu oila va undagi er-xotin munosabatlaridir. Bola shakllanadigan dastlabki ijtimoiy tasavvurlardan biri – “agar jinsimga mos ravishda harakat qilmasam, meni boshqalar qoralashadi”, degan fikrdir. Shaxsning o‘zgalarga va o‘zga jins vakiliga bo‘lgan munosabatlarining yo‘nalishini belgilovchi g‘oya ham aynan shunday ijtimoiy tasavvurga asoslanadi. Ma‘lumki, ota-onalar identifikatsiyasi ota-onalar shaxsidagi muhim shaxsiy fazilatlariga qaratilgan bo‘ladi, ya‘ni ular o‘z navbatida bola tomonidan anglanmagan taqlid qilish orqali ro‘yobga chiqishini e‘tirof etishadi. Bolalar o‘z o‘yinlarida ota-onalarining xatti-harakatlarini va fe‘l-atvorlarini yaqqol aks ettiradilar. Qo‘g‘irchoqni qo‘liga olib o‘ynayotgan qiz bolani kuzatganda uning qo‘g‘irchoqni shirin so‘zlar aytib erkalayotganini, avaylab tizzasiga yotqizib alla aytayotganini ko‘rish mumkin. Bu holatda qizaloqning onasiga, uning xatti-harakatlariga taqlidini ko‘rish mumkin. Oila muhiti yigit va qizlarda o‘z jinsi to‘g‘risida muayyan bilim va tasavvurlarning shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy makon ekan, aynan jinsi to‘g‘risidagi adekvat tasavvurlar eng avvalo ota yoki onaning o‘z jinsiga mos va xos ijtimoiy xulq andozalarini namoyon etishga qanchalik darajada tayyorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni, qiz boladagi aynan feminin sifatlari va ularning shaxsan anglanish darajasi onasining jinsiy sifatlari va ular orqali otaning ona ijtimoiy rollarini to‘g‘ri baholashi, munosabat bildirishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham biz o‘smirlardagi jinsiy identifikatsiyaning mazmunini belgilashda o‘smirlarning jinsiy tasavvurlardan ham kelib chiqib o‘rgandik. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan raqamlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, o‘smirlarda jinsidan qat‘iy nazar, ijtimoiy rollarga nisbatan shaxsiy identifikatsiyasi brasida ular ijtimoiy tasavvurlarida yaqinlik mavjud. Masalan, qizlar ham, o‘g‘il bolalar ham o‘zlariga ta‘rif berganlarida shaxsiy o‘rinlari va maqomlarini oilaviy rollar va kasbiy rollardan ko‘ra boshqa turli ijtimoiy rollar doirasida tasavvur qiladilar. Bundan tashqari, olingan natijalar o‘smirlar ijtimoiy ustanovkalarida baribir jinsiy o‘ziga xoslik borligini ham ko‘rsatdi. Masalan, o‘smir qizlarda oilaviy ustanovkalar yigitlarga nisbatan yaqqolroq ifodalangan. Deyarli 29 foiz qizlar uchun gender identifikatsiya oilaviy rollar maqomidan kelib chiqqani holda, 21,5 foiz yigitlarda uning oilada tutgan maqomi ustun ifodalangan yoki boshqa ijtimoiy rollar ham qizlar tomonidan teranroq aks etgan (mos ravishda 51,8% va 46,2%). Bu ham ijobiy fakt bo‘lib, yigitlarning o‘smirlik davridayoq kelajakka intilishi va o‘zini ijtimoiy rollar doirasida tasavvur qilishidan dalolat beradi.

Bu zamonaviy o‘zbek ayolining har sohada o‘zining munosib o‘rnini egallashga intilayotganligi, faqat uy doirasida cheklanmasdan, undan tashqari ham o‘z shaxsini munosib rollarda ko‘rishga intilayotganligining yorqin ifodasidir. E‘tiborli jihati shundaki, tadqiqotimiz oilada ota-onalarning o‘zaro munosabatlari ta‘sirida tarbiyalanayotgan qiz bolaning avvalo onasining otasiga munosabatiga e‘tibor qarotishini, onaning oilada bajarayotgan gender roliga qarab o‘zini kelajakda aynan ayollik va onalik roliga tayyorlab borishini isbotladi. Otaning onaga munosabatiga qarab esa, qizlar odatda o‘zini kelajakda turmush o‘rtog‘iga nisbatan qanday tutishini o‘rganib boradi. O‘g‘il bolalardagi jinsiy tarbiyasida ham shunga o‘xshash tamoyil ustivor bo‘ladi, ya‘ni, u ham ota onalar o‘zaro munosabatlariga mos tarzda o‘zini kelajakda oila boshlig‘i, er roliga hamda onasining yurish-turishi va farzandlarga munosabatiga qarab, otalik roliga ruhan tayyorlab boradi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kattalarning oilaviy munosabatlari xarakteri ularning o‘z farzandlaridagi gender o‘ziga xoslikni tarbiyalash, jinsiy identifikatsiyaning shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy psixologik muhit rolini o‘ynaydi. Chunki davr taqozosi bilan xotin-qizlarda shakllanayotgan yangi, demokratik, faol sifatlari qizlar psixologiyasiga qanchalik ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa, shu

oilada kamol topayotgan o‘g‘il bolaning tasavvurlarida jinslararo muloqotning samarali shakllari to‘g‘risida bilimlar bo‘lishiga ham imkon beradi. To‘liq oila muhitida hamkorlik va sherikchilikka asoslangan er-xotin munosabatlaridagi erkakning o‘rni va roli ham o‘g‘il bolada erkak jinsiga oid identifikatsion sifatlarning namoyon bo‘lishi va shakllanishiga maqbul shart-sharoit yaratishi o‘z isbotini topdi. Erkakning faol va yetakchi mavqeyi, undagi liderlikning sifati va turidan qat‘iy nazar, qiz bolada istiqboldagi oilaviy munosabatlarda zamonaviy ayol-ona obraziga ega bo‘lish va gender muomala maromlarini aniq tasavvur etishga imkon beradi. Zamonaviy o‘zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o‘zaro munosabatlarida ayollar mavqeyining mustahkamlanib borayotganligi, ularning liderlik pozitsiyalarida aks etadi, bunda liderlikning hamkorlik va sherikchilikka asoslangan uslubi o‘smir yoshlarda jinsiy identifikatsiyadagi ijobiy jarayonlarni ta‘minlaydi. Chunki oilaviy munosabatlardagi sherikchilik hamda gender tenglik ayollik va erkaklik obrazlarida femininlik sifatlarining maskulinlik va androgenlik sifatlari bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlaydi. Bugungi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga boy davrda xotin-qizlarda shakllanayotgan yangi, demokratik, faol sifatlari ko‘plab gender tadqiqotlar istiqbolini belgilamoqda. O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini samarali tashkil etishda gender-menejment dasturlaridan foydalanish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi izohlarimizdan kelib chiqqan holda, bizning nazarimizda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tashkilotida tashkillashtiriladigan pedagogik va psixologik tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligiga erishish uchun quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganda olib boriladigan pedagogik-psixologik va ijtimoiy tadbirlarning uzviyligi davom ettirilgan holda o‘smirlarning shaxsi xususiyatlarining barqaror pozitsiyasini shakllantirish hamda sinaluvchilarning kelajak perspektivalarini rejalashtirishga yo‘naltiruvchi trening mashg‘ulotlarni tashkillashtirilishi;

- tarbiyalanuvchilarning noverbal intellekti rivojlanishidagi orqada qolish bilan tavsiflanuvchi ko‘rsatkichning mavjudligini inobatga olgan holda psixologik-pedagogik tadbirlarning mazmuni va mohiyati chuqurlashtirilgan va konkretlashtirilgan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar bilan to‘ldirilib borilishi zarur;

- oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga xos bo‘lgan atrofdagilarga nisbatan emotsional bog‘lanishning yuzaki xarakterga ega bo‘lgan sifatlari ustida ishlash zarur. Atrofdagilarga samimiy munosabat, kichiklar haqida qayg‘urish o‘smirlarning shaxslararo munosabatlari xarakteriga aylanib borishi zarur. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ba‘zi bir kontingentiga xos bo‘lgan shaxslararo munosabatlarda duch kelinadigan qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashish bilan bog‘liq muammolarning oldini olish maqsadida ularning motivatsion sohasiga xos bo‘lgan xususiyatlari ustida ham chuqur sistemalashtirilgan tadbirlar tashkillashtirilishi lozim;

- kishilar bilan muloqotga kirishish, ularning ichki muammolariga altruistik munosabatni shakllantirish respondentlarimizga xos bo‘lgan mas‘uliyatdan qochish kabi impulsiv harakatlarning ixtiyoriylashuvini (irodaviylashuvini) ta‘minlashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-dekabrda 585-sonli “SOS — O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrda 738-sonli “SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Афанасенко Е.И, Каиров И.А. Мактаб-интернатдаги беш йил. – М., 1961.
4. Бернс Р. Развитие Я-Конвенции и воспитание. – М., 1986.
5. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. 2-нашр. Питер, 1999.
6. Дубровина И.В, Ружская А.Г. «Психическое развитие воспитанников детских домов». – М. 1990.
7. Изард К. Эмоции человека. – М., 1980.
8. Лангмейер Л., Матейчек З. Типы депривационной личности ребенка в учреждении. - Прага, 1984.
9. Прихожан А.М. Дети без семьи. – М., 1990.
10. Радина Н.К. Изучение самопринятия у детей воспитывающихся в закрытых учреждениях и в семье // Вопросы психологии 2001/3.

Nurmatov G'ayrat Mustofoqulovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Gumanitar va axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY PROGNOSTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Maqolada pedagogik prognostika tushunchasi ko'rib chiqildi va uning qaysi sohalarda qo'llash mumkinligi aytib o'tildi. Pedagogik prognozlashda qo'llaniladigan nazariy va amaliy ko'rsatkichlar o'rganildi. Bundan tashqari maqolada yangi davlat ta'lim standartlari g'oyalari amalga oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyatini rivojlantirish muammosi ochib berildi. Pedagogik prognozlash muammosining yuqori dolzarbligi va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, o'quv amaliyoti ehtiyojlarini prognozlash va kelajakdagi rivojlanish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi va pedagogika fanining yangi, o'ta dolzarb sohasi sifatida o'quv-pedagogik prognozlashning mohiyati, mazmuni va funksiyalari ochib berildi.

Kalit so'zlar: ta'lim faoliyat, modernizatsiya, prognostika, pedagogik faoliyat, ta'lim standarti, innovatsion faoliyat, kompetensiya.

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассмотрено понятие педагогической prognostiki и указано, в каких сферах она может быть использована. Рассмотрены теоретические и практические показатели, используемые в педагогическом прогнозировании. Кроме того, в статье раскрыта проблема развития педагогической деятельности учителя начальных классов в процессе реализации идей новых государственных образовательных стандартов. Высокая актуальность и социально-педагогическая значимость проблемы педагогического прогнозирования послужили основой для прогнозирования потребностей образовательной практики и согласования её с ориентирами перспективного развития, а учебно-педагогического как новой, чрезвычайно актуальной области педагогической науки. Раскрыты сущность, содержание и функции прогнозирования.

Ключевые слова: образовательная деятельность, модернизация, прогнозирование, педагогическая деятельность, образовательный стандарт, инновационная активность, компетентность.

CONDITIONS FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PROGNOSTIC COMPETENCES OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Abstract. The concept of pedagogical prognostics was considered in the article and it was mentioned in which areas it can be used. Theoretical and practical indicators used in pedagogical forecasting were considered. In addition, the article revealed the problem of developing the pedagogical activity of the primary school teacher in the process of implementing the ideas of the new state educational standards. The high relevance and socio-pedagogical importance of the problem of pedagogical forecasting served as a basis for forecasting the needs of educational practice and aligning it with guidelines for future development, and educational-pedagogical as a new, extremely relevant field of pedagogical science. The essence, content and functions of forecasting were revealed.

Keywords: educational activity, modernization, prognosis, pedagogical activity, educational standard, innovative activity, competence.

Kirish. Ta'lim tizimini isloh qilish, sohada qabul qilingan qarorlar, rivojlanishning bevosita keyingi taraqqiyotini bashorat qilmay turib, konseptual nuqtayi nazaridan tez-tez o'zgarib turadigan xususiyatga ega, ta'lim sohasidagi qarorlar, tegishli hujjatlar ta'lim muassasalari sifatini yaxshilash, ta'limni integratsiyalashuni kuchaytirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlanlashga bo'lgan munosabatlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim tizimi jamiyat ehtiyojlarini qondirmaydi, chunki u davlat va jamiyatning ijtimoiy muhitidagi o'zgarishlar dinamikasini hisobga olmaydi. Zero, ta'lim tizimi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra kelajak uchun

ishlashi kerak, demak, ta'lim o'sish sur'atlari bo'yicha yangi texnika va texnologiyalarni rivojlantirishdan oldinda borishga majburdir. Boshqacha aytganda, ta'lim tizimining vazifalarini belgilashda ishlab chiqarish, fan va madaniyatning hozirgi ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, balki kelajak, jadal o'sib borayotgan ehtiyojlarni prognozlashdan kelib chiqish zarur. Ijtimoiy rivojlanish sur'atlari tezlashgani sari ta'lim sohasidagi ayrim boshqaruv qarorlarining nafaqat bevosita, balki uzoq muddatli oqibatlarini ham oldindan ko'rish zarurligi ayon bo'ladi. Shu sababli, pedagogikada prognozlarni ishlab chiqish jarayonining qonuniyatlarini o'rganadigan yangi ilmiy soha sifatida O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib keldiki, o'quv-pedagogik prognoz tobora faollashmoqda. Pedagogik prognozlash muammosining dolzarbligi va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, o'quv amaliyoti ehtiyojlarini prognozlash va kelajakdagi rivojlanish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Pedagogika fanlar tizimidagi yangi, o'ta dolzarb sohasi sifatida o'quvpedagogik prognozning mohiyati, mazmuni va funksiyalarini ochib berishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Pedagogik bashorat qilish pedagogik jarayonlar, hodisalar bilan ishlaydi yoki xulq-atvor natijalarini, umuman pedagogik tizimning yoki uning alohida qismlarining rivojlanishini bashorat qilishga qaratib ta'limda yuksak natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili. Rossiyada prognozlashni rivojlantirish jarayonida prognozlash asoslari ko'rib chiqilgan va uning ilmiy yo'nalishlari shakllangan. Prognozlash jarayonida ko'plab tadqiqotchi olimlar V.I. Bestujev-Lada, B.S.Gershunskiy, V.I.Zagvyazinskiy, E.G.Kostyashkin, V.O.Kutiev, A.M.Gendin, E.P. Nikitin, P.K.Anoxin, A.V.Brushlinskiy, G.M.Dobrov, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Prognozlashning falsafiy asoslari I.V. Bestujev-Lada, E.A. Arab-Ogli, E.P. Nikitin, G.M. Dobrova, L.P.Rychkova, Y.N.Rubinshtein, J.Brunerning asarlarida yoritilgan. Ijtimoiy-pedagogik prognozlash obyektidan tashqarida bo'lgan jarayonlarga taaluqli bo'lib, uning maqsadi ijtimoiy sharoit va shart-sharoitlardan kelib chiqib, mamlakat ta'lim tizimining rivojlanish yo'llarini bashorat qilish, o'tmish va hozirgi tendensiyalarning kelajakka ekstrapolyatsiya qilishdan asosiy metod sifatida foydalanadi. Nazariy va uslubiy prognozlashning roli bashorat qilish obyektidir, ya'ni uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida qo'llaniladi. Bundan tashqari, B.S.Gershunskiy, J.Pruxining asarlari prognostik metodologiyani batafsil ko'rib chiqadi. Nazariy va uslubiy prognozlashda tasvirlangan umumiy prognozlash usullari prognostik mavzular tadqiqotchisidan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, chunki B.S.Gershunskiy tashqi prognozni xam ko'rib chiqadi. Eksperimental prognozlash deb ataladigan uchinchi yo'nalish E.G.Kostyashkinaning tadqiqotida batafsil tavsiflangan. U empirik tadqiqotlarni o'z ichiga oladi va kelajak maktabi xamda ta'limini yaratishga qaratilgan. Ushbu eksperimental tadqiqot talabalarining mexnat ta'limini to'garak ishlari, maktab talabalarining texnik ijodiyoti bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekologik tarbiya ishlari va boshqalar shaklida o'rganadi. Faoliyatning tavsiflangan variantlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, eksperimental prognozlashning asosini tashqi prognoz ham tashkil etadi.

Muhokama. Prognoz - bu ilmiy ma'lumotlar va kashfiyotlarga asoslangan jarayon bo'lib, u “kelajakni ilg'or usul va vositalar yordamida o'rganishni maqsad qilib qiluvchi fan” deb ham ta'riflanadi. Prognoz mazmunan aniqroq, qisqa muddatli, ilmiy ma'lumotlarga asoslanadi va uni hisoblashda matematik usullar qo'llaniladi. Prognozlash, shuningdek, turli xil bilim sohaslarida qo'llaniladigan faoliyatni bashorat qilish maqsadi sifatida aniqlanadi.

Prognozlash (bashorat qilish) pedagogikada mustahkam o'rnashganligi sababli, keling, ushbu konsepsiya va bir qator bog'liq atamalarni pedagogik nazariya va amaliyot bilan bog'liq holda aniqlab beramiz. Konseptual doirada asosiy tushuncha «o'qituvchi faoliyatida bashorat qilish» dir. Ushbu konsepsiyani aniqlash uchun G'arb prognoztikasida va ta'lim-pedagogik bashorat qilishdan «bashorat qilish» atamasining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish, shuningdek, o'qituvchi faoliyatiga xos xususiyatlarni aniqlash kerak. Ta'lim va pedagogik bashorat qilish sohasidagi tadqiqotlarni tahlil qilib, bashorat qilish nimani anglatishini aniqladik:

- ta'lim tajribasi natijasini oldindan bilish qobiliyati, hodisaning dinamik modelini yaratish; - kelajak haqida ma'lumotni birlashtirgan maxsus prognoz turi;

-ilmiy asoslangan kompleks qoidalar va usullarga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar majmuasiga asoslangan holda bu hodisa to'g'risida ilg'or ma'lumotlarni olish jarayoni.

- B.S.Gershunskiyning fikricha, ta'lim va o'qitishning mazmuni, uslublarini optimallashtirish maqsadida obyektlarning rivojlanishi to'g'risida ishonchli oldindan ma'lumot beradigan ilmiy tadqiqotlar kompleksi;

- prognozlarni ishlab chiqish kelajakdagi obyekt yoki hodisaning holati to'g'risida mumkin bo'lgan xulosalarni keltirib chiqaradi;

- pedagogik prognoz nazariyasiga asoslangan predmetlarni rivojlantirish va o'zgartirilishining mumkin bo'lgan tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan faoliyat usuli.

Ushbu ta’riflarni ko’rib chiqish, ulardagi ba’zi nomuvofiqliklar mavjudligini ko’rsatadi, bu esa pedagogik faoliyatda bashorat qilishni har xil talqin qilishga imkon beradi. Buning sababi, birinchi navbatda, ushbu ta’riflar, garchi ular pedagogika bilan bog’liq bo’lsa-da, bashorat qilishning turli subyektlari bilan bog’liq bo’lib, ushbu jarayonda tadqiqot institutlari, tadqiqotchilar, o’qituvchilar, talabalar faoliyatning subyekti sifatida qatnashadilar. Bundan tashqari, bashorat qiluvchi faoliyat obyektlari bilan farqlanadi. Bashorat qilish obyekti butun ta’lim tizimidan, o’quv jarayonidan tortib, pedagogning ishiga, ularning kasbiy va shaxsiy shakllanishi va rivojlanishiga, talabalarning o’z vakolatlari va malakalariga va boshqalarga bog’liq. Bashorat qilishning predmet-obyektiv xususiyatlarining bunday keng tarqalishini hisobga olgan holda, o’qituvchining kasbiy funksiyasi sifatida prognozlash bo’yicha ta’rifimizni ishlab chiqish uchun biz sotsiologiya va ta’lim sharoitida bashorat qilishning umumiy va o’ziga xos xususiyatlarini ta’kidlaymiz. Prognozlashning ajralib turadigan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Bashorat qilish ma’lum bir ehtimollik bilan tavsiflanadi, ammo uning yetarliligi va aniqligi juda muhimdir. O’qituvchi funksiyasi sifatida tashqi va ichki bashorat qilishni amalga oshirishda bashorat qilishning aniqligi boshqacha ahamiyatga ega. Tashqi prognozlashda talabalarning faoliyatiga taalluqli bo’lganligi sababli aniqlikni oshirish talab etiladi. Ichki prognozlashning aniqligi birinchi darajali ahamiyatga ega emas, chunki u kasbiy va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan va ta’limiy xarakterga ega. Uning maqsadi - o’z faoliyatini doimiy takomillashtirish ko’nikmalarini, odatlarini shakllantirish.

2. Ta’lim tizimini sotsiologik bashorat qilish va prognozlashni amalga oshirish usullari ko’proq obyektivlik va mantiq bilan ajralib turadi. O’qituvchi faoliyatida bashorat qilish ko’proq subyektivdir, chunki u ko’pincha «insonning o’zi bilan og’riqli kurashini, hal qiluvchi so’zni kutilayotgan tashqi holatlarning o’zaro bog’liqligiga emas, balki shaxsiyatning» o’ziga, uning ichki qismiga tegishli bo’lganligini anglatadi.

3. O’qituvchi faoliyatida bashorat qilish katta va xilma-xil fanlarga ta’sir qiladi: pedagogika, psixologiya, muayyan fanni o’qitish usullari, ijtimoiy fanlar kompleksi, menejment va hk.


4. Ijtimoiy prognozlash mutaxassislarining imtiyozidir, o’qituvchining bashorat qiluvchi faoliyatida esa ushbu funktsiyani talabaga topshirish, ya’ni faoliyat mavzusini o’zgartirish mumkin. Shunga qaramay, ijtimoiy va ta’limni bashorat qilish o’qituvchining prognozlash funksiyasi bilan o’xshashliklarga ega. Prognozlashning ikkala turi ham voqelik predmetini oldindan sezishni o’z ichiga oladi. Bashorat qilishdan maqsad voqelik obyektini takomillashtirish, uning o’zgarishini rejalashtirishdir. Bashoratning barcha turlari tekshirish va tuzatishni o’z ichiga oladi. Bashorat qilish ehtimolliklidir. O’qituvchi faoliyatida bashorat qilish konsepsiyasini va u bilan bog’liq tushunchalarni aniqlash uchun biz uni ko’rib chiqishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini, prinsiplarini, protsessual asoslarini, tipologiyasini, bog’liq tushunchalarini, usullarini, darajalarini tahlil qilamiz.

Natijalar. Bo’lajak o’qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarini kuzatish, ularning pedagogik amaliyot davrida kompetentlikka xos vazifalarini bajarishlarini, dars jarayonlari natijalarini tahlil qilish, tajriba davomida o’rganilayotgan obyekt holatiga kirib borish, shu vaziyatlarning shaxsiy kechinmalar tahlili singari yangi pedagogik texnologiya, turli o’quv fanlariga tegishli ma’lumotlarga jalb etish bilan bilimlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi. Bo’lajak o’qituvchilar kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida an’anaviy metodlar bilan yangi pedagogik texnologiyalarni uyg’unlashtirgan holda o’z imkoniyatlari darajasida ular bilan quyidagi yo’nalishlarda tadbirlar o’tkazildi: “Kompetensiya nima?”, “Zamonaviy o’qituvchining kompetentlik modelini tashkil etuvchi elementlar”, “Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish vositalari”, “Zamonaviy sharoitda ta’limni tashkil etish”, “Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari”. Bu jarayonda har bir talaba faollik ko’rsatdi. Bo’lajak o’qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida amaliyot davomida olib borilgan ishlar natijasida talabalar an’anaviy metodlar bilan yangi pedagogik texnologiyalarni uyg’unlashtirgan holda o’z imkoniyatlari darajasida tashkil etdilar. Ular har bir mashg’ulotni aniq maqsad asosida tashkil etish, o’qitish samaradorligiga erishish uchun uning eng qulay yo’llarini tanlagan holda erishdilar. Bunda “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs- 74 munozara”, “Rolli o’yinlar”, “Muammoli vaziyatlarni hosil qilish”, “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Klaster metodi”, Guruxli bahs”, “Blits-so’rov”, “Sinkveyn” kabi metodlardan keng foydalandilar. Kuzatishlarning ko’rsatishicha, tajriba guruhida bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish sohasida sezilarli ijobiy o’zgarishlar bo’ldi. Tajriba-sinov jarayonida respondentlarning pedagogik kompetentlikka oid bilimlari aniqlanib, tahlil qilindi. Mazkur tarbiyalanganlik shaklini takomillashtirishning pedagogik vositalari belgilandi hamda amalda sinab ko’rildi.

Olib borilgan tajribalardan so’ng natijalar tahlil qilindi. Respondentlar tomonidan o’zlashtirilgan bilimlar quyidagi mezonlar yordamida aniqlanib, yuqori, o’rta va quyi darajalar sifatida guruhlandi. Ya’ni: Yuqori daraja – «5», O’rta daraja – «4», Quyi daraja – «3». Yuqori daraja – zamonaviy o’qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni teran anglaydilar, nazariy zamonaviy bilimlarni puxta

o‘zlashtirganlar, pedagogik kompetentlikni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga rag‘bat bildirib, bu yo‘lda amaliy faoliyat olib boradilar, shuningdek, mavjud pedagogik kompetentlikni amaliyotda qo‘llay oladilar. O‘rta daraja – zamonaviy o‘qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni teran anglaydilar, nazariy zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirganlar, ammo bu yo‘lda izchil ravishda amaliy faoliyat olib bormaydilar, shuningdek, amaliyotda bu bilimlardan samarali foydalana olmaydilar. Quyi daraja – zamonaviy o‘qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni qisman anglaydilar, pedagogik kompetentlikka oid bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqishga ega emaslar, pedagogik kompetentlikka oid bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga rag‘bat bildirmaydilar hamda ulardan amaliyotda qo‘llay olmaydilar.

Tajriba-sinov xulosalari sifat darajalariga ko‘ra umumlashtirildi. Ushbu umumlashtirishning ko‘rsatishicha, talabalarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar quyidagicha bo‘ldi: Bo‘lajak o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida rejalashtirish, shunga doir asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniqlashga; Bo‘lajak o‘qituvchilarning mazkur tushuncha va tamoyillarni qay darajada o‘zlashtirib olganligi natijasini aniqlashga yordam berdi. Tajriba-sinov natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishlari oshdi. Chunki ular bu faoliyat turlarida o‘z ijtimoiy, fuqarolik, individual, mustaqil va ijodiy-qayta yaratuvchilik ehtiyojlarining qondirilishini kashf etishdi. Tajriba so‘ngida bo‘lajak o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish darajasi diagrammada quyidagicha ifodalanadi.



Shunday qilib, tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijasi respondent-talabalar faoliyatining kompetentlikka oid bilimlar bilan boyitilganligi va bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasidagi fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Buni biz dastlab 86 talabalarning o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan munosabatlarining o‘zganganligida, ularning darslarda ko‘tarilgan muammolarni mustaqil hal etishda, turli vaziyatlarda to‘g‘ri fikr yuritish, tahlil etish, muhokama yuritish, o‘z fikrini ma‘lum tizimda ifodalay olish ko‘nikmalarini hosil qilishga o‘rganganligida ko‘rdik.

Xulosa. Jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik ta‘lim inovatsion klasteri ta‘limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta‘minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to‘plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta‘lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda ta‘lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o‘zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta‘minlash, ta‘lim jarayonining pirovard mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma‘naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va jamiyatning boshqa sohalarini taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir. Boshlagan har bir ishimizdagi sifat va samara aynan shu masala bilan chambarchas bog‘liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Yangi taraqqiyot sari odimlar ekanmiz, maktab ta‘limining drayveri - o‘qituvchilarni tayyorlashga mas‘ul pedagogika oliy ta‘lim muassasalari uchun Prezidentimiz tomonidan olg‘a surilgan “Najot - ta‘limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda” g‘oyasi dasturulamal bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Adabiyotlar:

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T., 2001.
2. Agzamov A., Yusupov A. O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. — Toshkent, 2004.
3. Golish L.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspres qo‘llanma. – T.: TESIS, 2001. – 59 bet.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2009.
5. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent, 2006.
6. Iskandarov K.A. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirishga munosabat: izlanishlar, muammolar, yechimlar// Molodoy ucheniy. 2016. v29.3. S.13-17. URL <https://moluch.ru/archive/133/37854/>
7. Yo‘ldashev J.G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 2004.
8. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi /Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfunun talabalari uchun darslik. – T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. – 320 b.



Olimov Laziz Yarashovich

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası professorı,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ДЕМОНСТРАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование её конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компонентов судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

DEMONSTRATION OF COMPETENCE OF FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

Abstract. This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Keywords: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish. “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Sud doimiy ham real voqelikni adekvat aks ettiruvchi u yoki bu shaxslar tomonidan yetkaziladigan ish uchun muhim bo‘lgan faktlar haqida ma‘lumotlarga to‘liq ega bo‘la olmaydi. Bu esa turli sabablar va odatda subyektiv sabablar bilan izohlanadi (masalan, qabul qilish sharoitlarning xususiyatlari va subyektning shaxsiy fazilatlarini, umuman xulq-atvor vaziyatining psixologik spesifikasi bilan). Ushbu sabablarni aniqlash ob‘ektiv haqiqatga erishish uchun o‘ta muhimdir. Bundan tashqari, bir qator psixologik omillar mavjud bo‘lib, ularni bilish sudning ish ko‘rish predmetiga to‘g‘ri huquqiy baho berish uchun zarurdir. Va bunday holatlarni aniqlash uchun psixologiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Odatda bunday bilimlarga psixologik ekspertizani o‘tkazadigan mutaxassislar ega bo‘ladilar.

Agar psixik sog‘lom inson avval kelishib, keyinchalik sudda o‘z harakatlarini boshqara olmaganligini (ongli tarzda amalga oshirmaganligi) va ularning mazmunini tushunmaganligini ta’kidlab tursa, chunki bunga qattiq ruhiy iztirob sabab bo‘lgan va u hammasini oqilona o‘ylab chiqmagan bo‘lsa – bu vaziyatda nima qilish kerak? kabi savollarni yechimini topish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi va bu borada bir necha yillik tajribaga ega bo‘lgan sud psixolog ekspert(lar)i holatga adekvat baho bera olishadi.

Bunday arzni e’tiborsiz qoldirish mumkinmi yoki sud uni tekshirish chiqishga majburmi? “Ha”, – degan taqdirda ham, – qanday dalillar eng samarali bo‘lishi mumkin? Aynan ana shu yerda maxsus psixologik bilimlar sud ekspertizasining jarayon shaklida bo‘lishi zarurdir.

Psixologik tadqiqotning umumiy usullariga asosan: eksperiment, psixodiagnostika, taxmin qilish, modullashtirish, ta’sir o‘tkazish usullarini kiritish mumkin. O‘z navbatida, umumiy usullarning har bittasi maxsus usullar majmuidan iborat bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya rivojlanishining zamonaviy ko‘rinishlaridan biri bu - sud psixologik ekspertizaning katta imkoniyatlarga ega bo‘layotganligi hisoblanadi. Albatta, bu imkoniyatlar chegarasiz degani emas. Bu borada O‘zbekistonda yechilmagan muammolar hali juda ham ko‘p. Masalan, ayrim ishlarda psixologik sababni aniqlash imkoniyati yetarli emas, ammo shaxsning asosiy sabab chiziqlari iyerarxiyasini va mazmunini aniqlash real holatdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko‘pgina chet el va mahalliy psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, xodim kasbiy kompetentligining turlicha xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda ochib berilgan kasbiy kompetentlik metodologiyasiga oid pedagogik psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Jahon va respublikamizdagi ko‘pgina psixologiya maktablarida inson omilini tahlil qilish, ularni kasbiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan kamol toptirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chet el va mahalliy pedagogik-psixologik adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta’riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotinchadan olingan bo‘lib, «competo» «erishayapman, munosibman» degan ma’nolarni anglatadi, hamda ma’lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo‘ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma’lum bir tizim bo‘yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog‘lanadi.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikning amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nugust); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’minotchisi (A.A.Blaginin, G.Birkgoff), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo‘llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o‘rganishgan.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko‘rsatmalar haqiqiylikliginiga tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs xatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo‘lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o‘zib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o‘rinlidir.

Ta’kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo‘llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko‘rsatmalarining haqiqiylikligini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo‘llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan bu qonunbuzar shaxsini o‘rganib chiqishga e’tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o‘zini o‘rganilishida to‘xtalgan), bu esa o‘z navbatida, ob’ektiv va subyektiv tomonlarni inobatga olgan holda, sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to‘g‘ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan, jarayon ishtirokchilarining ko‘rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, sud psixolog eksperti sud yoki tergov jarayonida berilgan ma’lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo‘yicha vazifani o‘z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnova yondashuvlarning tipik misollarini keltiradi, ular haqiqatni aniqlash ekspertizasi doirasida shaxsga tashxis qo‘yish uchun qo‘llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o‘zi bilan sodir bo‘lgan holat yoki hodisa to‘g‘risida bildirgan fikrlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob’ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg‘onchilik belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi)

haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odam oldindan uy lab qo'ygan yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy, deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: subyekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, tilaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan [3].

O'rganish jarayonida keltirilgan vajrlarning haqiqiylikni aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi bundan iborat bo'lmagan. Ko'rsatmalarning haqiqiylik haqida savolga javob berayotganda, sud psixolog eksperti o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud psixologik ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ochiq-oydin orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vakolati berilib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiylikni tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammalashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rinlidir.

Hozirgi vaqtda sud psixologik ekspertiza nazariyasida, mavjud bo'lgan hal etilmagan muammolarga qaramay, yetarli darajada ilmiy vositalar mavjud. Ular yuridik faoliyatning turli sohalarida amaliy vazifalarni hal etish uchun psixologiya fanining yutuqlaridan foydalanish imkonini beradi.

Kriminalistik ekspertizasining jinoyatni tekshirishda, tergov qilishda va sud jarayoni muhokamasi davrida o'tkazilish zaruriyati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 172-moddasida ko'rsatilishicha, "Ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo'lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi [99].

Ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

Ekspertizani ushbu Kodeksda belgilangan tartibga xilof ravishda o'tkaziladigan tekshiruv bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar maslahati ekspertiza o'tkazish zaruratini istisno etmaydi", - deyilgan. Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to'g'risidagi yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o'tkazish uchun juda muhimdir.

Natijalar. Endi bevosita nazorat tajribadan keyin sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

1-jadval.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=41, nazorat tajribadan keyin)

	Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
kompetentlik (Kunitsina metodikasi)	Insonlarni tushunish	0,638**	-0,080	0,304	0,482*	0,639**
	Vaziyatlarni tushunish	0,692**	0,507*	0,263	-0,103	0,706**
	Uddaburonlik	0,220	0,049	0,098	0,203	0,276
	Axloqiy ustanovkalar	0,259	0,604*	0,502	0,703**	0,091
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,572*	-0,036	0,508*	0,402	0,506*
	Emotsional barqarorlik	0,302	-0,123	0,096	0,208	0,341
	Imidj	0,403*	0,635*	0,506*	0,108	0,631*

Sotsial psixologik kompetentlik	0,603**	0,528*	0,654*	0,100	0,709**
Verbal kompetentlik	0,489*	-0,032	0,482	0,282	0,509*
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,422	0,573*	0,681**	0,512*	0,444
Ego kompetentlik	-0,090	0,353*	-0,098	0,622	-0,068
Kommunikativ kompetentlik	-0,108	0,516*	0,621*	-0,011	-0,091
Ishonchlilik	-0,101	0,262	0,013	0,746**	-0,101
Barqaror insoniy munosabatlar	0,009	-0,024	-0,063	0,712**	0,012
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,603*	0,082	0,096	0,701*	0,625*

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg'uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo'lg'a kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma'lumotardan ko'rinib turibdiki, sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

Yuqoridagi jadvaldan bilishimiz mumkinki, besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,639$, $p \leq 0,01$) va emotsional bilimdonlik ($r=0,638$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya bergan bo'lsa, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,080$, $p \leq 0,01$) shkalasi bilan salbiy, vaziyatlarni tushunish o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,706$, $p \leq 0,01$), emotsional bilimdonlik ($r=0,692$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy, empatiya ($r=-0,103$, $p \leq 0,01$) bilan salbiy, axloqiy ustanovkalar empatiya ($r=0,703$, $p \leq 0,01$) o'z emotsiyasini boshqarish ($r=0,604$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi emotsional bilimdonlik ($r=0,572$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,036$) bilan salbiy, emotsional barqarorlik o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,019$) bilan salbiy, verbal kompetentlik o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,509$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,032$) bilan salbiy, ego kompetentlik, kommunikativ kompetentlik uchta, ishonchlilik va barqaror insoniy munosabatlar ikkita shkala bilan salbiy korrelyatsiya namoyon qilgan bo'sa, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, imidj, sotsial psixologik kompetentlik, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik va shaxslilik kommunikativ imkoniyati barcha emotsional intellekt shkalalari bilan ijobiy korrelyatsion bog'liklik kuzatilganligi qo'llanilgan psixotexnikalarning samarali ta'siri ostida rivojlanganligidan dalolat beradi va bu holat sifati sud psixologik ekspertizalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

2-jadval.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=61, nazorat tajribadan keyin)

	Shklalar	Emotsionla intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
kompetentlik (Kunitsina)	Insonlarni tushunish	0,473	0,304	0,509	0,267	0,701**
	Vaziyatlarni tushunish	0,036	0,772**	0,207	0,441	0,532
	Uddaburonlik	0,098	0,252	0,336	0,328	0,551
	Axloqiy ustanovkalar	0,761**	0,203	0,098	0,346	0,208
	Muvaffaqiyatga	0,395	-0,029	0,556	0,509	0,289

erishganlik motivatsiyasi					
Emotsional barqarorlik	0,226	0,046	0,408	0,509	0,391
Imidj	0,395	0,406	0,189	0,503	0,449
Sotsial psixologik kompetentlik	0,075	0,523	0,332	0,749**	0,276
Verbal kompetentlik	0,236	0,541	0,493	0,285	0,208
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,773**	0,099	0,031	0,231	0,523
Ego kompetentlik	0,405	0,472	0,432	0,375	0,289
Kommunikativ kompetentlik	0,017	0,316	0,792*	0,472	0,413
Ishonchlilik	0,079	0,486	0,475	0,489	0,318
Barqaror insoniy munosabatlar	0,341	0,789**	0,483	0,494	0,699*
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,123	0,503	0,789**	0,276	0,371

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$

Navbatdagi tahlil esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti o'rtasidagi bog'liqliklarga qaratilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ko'rsatkichlarida ham emotsional intellekt bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlikni ifodalovchi koeffitsientlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog kasbiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tajriba va tasavvurlariga yaqqol tayanishlarini ko'rsatmoqda (2-jadval).

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan emotsional intellekt, kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

3-jadval.

Sud psixolog ekspertlar emotsional intellektning qiyosiy ko'rsatkichlari tahlili (N.Xoll usuli bo'yicha)

	Shkalalar	Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan ekspertlar n_1-41				Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan ekspertlar n_2-61			
		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
		M	S	M	S	M	S	M	S
Emotsional intellektni o'rganish testi (N.Xoll metodikasi)	Emotsional bilimdonlik	10,02	2,18	13,68	1,99	11,26	2,20	15,38	1,38
	O'z emotsiyasini boshqarish	9,09	1,26	15,49	2,13	12,18	1,31	16,25	1,36
	O'zini-o'zi rag'batlantirish	9,73	1,47	15,73	1,53	12,39	1,45	15,80	1,51
	Empatiya	9,80	1,56	15,54	1,94	11,29	2,18	16,46	1,18
	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish	7,27	2,48	15,87	2,21	12,24	2,04	16,67	0,68

Izoh:

M – o'rtacha qiymat

S – standart xatolik

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, trening dasturi qo'llanilgandan keyin besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining emotsional intellektning umumiy natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rtacha ko'rsatkich emotsional bilimdonlik 3,66, o'z emotsiyasini boshqarish 6,40, o'zini-o'zi

rag‘batlantirish 6,00, empatiya 5,74, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 8,60 ball doirasida o‘shishga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Besh yildan ortiq faoliyat yuritayotgan sud psixolog ekspertlari emotsional intellektining umumiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, emotsional bilimdonlik 4,12, empatiya 5,17, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 4,43, o‘z emotsiyasini boshqarish 4,07, o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish 3,41 ball yuqorilaganligi sud psixologik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida o‘rganilayotgan respondentni yuqori validlik va ishonchli baholash imkonini berishi bilan ahamiyat kasb etib, emotsional kechinma chegaralari, emotsional intellektning ikki tomoni, ya‘ni o‘zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy impuls va intuisiyalarni ta‘minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, ekspertiza qilinayotgan shaxs emotsiyasining vazifalari to‘g‘risidagi bilimlarga, ekspertiza jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, salbiy emotsional holatlar, xususan: affekt, stress, frustratsiya, depressiya va ulardan chiqish yo‘llarini izlash to‘g‘risidagi psixologik tomonlari va hayotiy tajribadan yetarli darajada boxabar ekanligidan dalolat beradi (3-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik, sud psixologik ekspertizasiga doir ijtimoiy-psixologik bilimlar diapazoni va emotsional intellekt ko‘rsatkichlarining muhimligiga ko‘ra muammolar yechimini izlashda hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o‘quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta‘siri natijasini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta‘sirchan mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratildi.

2. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo‘lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o‘ziga xos tarzda o‘zgarganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta‘minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

4. Sud psixologik ekspertisasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A.H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘g‘ishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

10. Olimov L.Ya., Rasulova M.B. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
13. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологически механизми девиантного поведения. Психология ХХИ века. Ярославл., 2020. –С. 125-127.
14. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.
15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
16. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions // Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. – P. 229-257.
17. Pratt L.A. Ford D.E., Crum R.M., et al. Depression, psychotropic medication, and risk of myocardial infarction: prospective data from Baltimore ECA follow-up. Circulation 1996; 94:3123-3129.
18. Reynolds C.K., Gutkin T.B. School Psychology: Essentials of theory and Practice – IV.V., 1984.
19. Satir V. The new peoplemaking. – California: Science and Behavior Books, Inc., Mountain View, 2003. - 400 p.



Qodirova Odina Djurabaevna,
Andijon davlat universiteti,
umumiy psixologiya kafedrasida v.b dotsenti
qodirova-84@mail.ru

TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANISHIGA OILA VA TA'LIMNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, emotsional intellektni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning umumiy xususiyatlari tahlil qilingan. Oiladagi psixologik iqlim, oila muhiti, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning bolalarga munosabati, xavfsizlik hissi va mas'uliyati yoritilgan. Emotsional intellektning ta'lim jarayonida rivojlantirishning psixologik asoslari va talabalar hissiy emotsional sohasi xarakteristikasi, hissiyotlarning inson psixikasi va xatti – harakatlariga ta'siri, emotsional intellektning tayanch mezonlari va ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi psixologik omillar ilmiy izoxlangan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, hissiy aloqa, his-tuyg'ularini boshqarish, hayotiy tajriba, ta'lim – tarbiya, ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ И ОБРАЗОВАНИЯ НА РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются общие особенности факторов, влияющих на развитие эмоционального интеллекта. Освещены психологический климат в семье, семейная атмосфера, отношения между членами семьи, отношение родителей к детям, чувство безопасности и ответственности. Психологические основы развития эмоционального интеллекта в образовательном процессе и особенности эмоционально-эмоциональной сферы учащихся, влияние эмоций на психику и поведение человека, основные критерии эмоционального интеллекта и психологические факторы, положительно влияющие на развитие эмоционального интеллекта в образовательном процессе получили научное объяснение.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, эмоциональное общение, управление эмоциями, жизненный опыт, образование - воспитание, социальная среда, процесс обучения, учебная деятельность.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF FAMILY AND EDUCATION ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE

Abstract. This article analyzes the general features of factors influencing the development of emotional intelligence. The psychological climate in the family, the family atmosphere, relationships between family members, the attitude of parents towards children, a sense of security and responsibility are covered. The psychological foundations of the development of emotional intelligence in the educational process and the characteristics of the emotional sphere of students, the influence of emotions on the psyche and behavior of a person, the main criteria of emotional intelligence and psychological factors that positively influence the development of emotional intelligence in the educational process have received a scientific explanation.

Keywords: emotional intelligence, emotional communication, emotion management, life experience, education - upbringing, social environment, learning process, learning activities.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun bilimli, zehnli, iqtidorli va yuksak intellektual salohiyatli kadrlarlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlar shaxs psixik holatlariga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi, natijada, stress, qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik va emotsional tizimni boshqarishda bir qancha muammolar yuzaga keladi. SHaxsdagi ushbu holatlarni to'g'ri tushunish va boshqarish emotsional intellekt qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shaxs barkamoligini ta'minlovchi asosiy bo'g'in oila va ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmiy tadqiqotning maqsadi talabarining emotsional intellektini rivojlantirish orqali shaxsiy va kasbiy faoliyati mazmundorligiga, samaradorligiga erishish. Har bir oliy ta'lim dargohiga kelgan talaba o'ziga xos tizimiga ega bo'lgan oilaning farzadidir. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda biz emotsional

intellektni oila muhitida rivojlantirish omillarini to‘liq, noto‘liq, ko‘p farzandli, yakka farzandli oilalar kesimida tahlil qildik.

Oila muhitida bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir etuvchi ommillar mahalliy va xorijiy psixologlarning (V.Karimova, B.Shoumarov, N.Safoyev, F.Akromova, L.S.Vigotskiy, A.Y.Varga, O.A.Karabanova, K.M.Bouen, K.Uitaker va boshqalar) asarlarida alohida ta’kidlangan. Oiladagi muhit bolaning shaxsiy fazilatlarini, o‘ziga va boshqalarga munosabatini, boshqalarning hissiy holatini boshqarish va o‘zini tushunish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Oila tarkibi iyerarxiyasida hissiy va shaxsiy komponent alohida rol o‘ynaydi, bu oiladagi psixologik iqlim, oila muhiti, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning bolalarga munosabati, xavfsizlik hissini yaratadi.

Psixikaga madaniy-tarixiy yondashuv nuqtayi nazaridan, shaxsning rivojlanishi boshqa shaxs bilan dialogik hissiy aloqada sodir bo‘ladi, deb ta’kidlash mumkin.

O.V.Xuxlayevaning tadqiqotlariga ko‘ra. Oilada ko‘proq tajribali kattalar o‘z his-tuyg‘ulariga dosh bera olishlari, ulardan xabardor bo‘lishlari, ochiq va samimiy ko‘rsatishlari kerak: bunday xatti-harakatlar bolalar tomonidan hurmat bilan qabul qilinadi, ular o‘zlarini xavfsiz his qiladilar. [1]. Shunday qilib, bolalar fikrlarini his-tuyg‘ulardan ajratishni o‘rganadilar, bunday jarayon emotsional intellekt kabi psixologik qobiliyatni rivojlantirish uchun asosiy omildir.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyati bilan bog‘liq hissiy sohasida o‘ziga xos tajribalar paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Bunday foydali hissiy tajribalar organizmdagi fiziologik jarayonlarga ham ijobiy ta’sir etadi. Demak, hissiy soha insonning intellektual rivojlanishi uchun ham psixologik asos sifatida ahamiyatli sanaladi.

Tadqiqotchi V.N.Kolesnikovning ilmiy tadqiqotlari xulosalardan shu narsa ayon bo‘ldiki, imtihonlar bilan bog‘liq sharoitlar talabalarda katta ruhiy stress va emotsional zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. Talabalar o‘z intilish darajalariga ko‘ra hamda individual xususiyatlariga qarab yengillik, norozilik, tushkunlik, chorasizlik kabi his – tuyg‘ularni boshdan kechiradilar [2].

Biz tadqiqotimiz doirasida to‘liq, noto‘liq, ko‘p farzandli, yakka farzandli oilalarda talaba farzandlarining emotsional intellektini N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi orqali tahlil qildik.

Natijada, turli darajadagi emotsional intellektga ega bo‘lgan talabalarning ota-onalari, oilalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan gipoteza ilgari surildi.

Biz tadqiqotimiz davomida ikkinchi valid hisoblangan metod ya’ni, N.Xoll tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional intellektni o‘rganish” metodikasi orqali talabalardagi emotsional intellektning “o‘z emotsiyasini bilish”, “o‘z emotsiyasini boshqarish”, “shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish”, “boshqa insonlarning emotsiyasini aniqlash” va “o‘zaro munosabatlar bilan boshqarish” kabi tayanch mezonlarini shakllanganlik darajalarini aniqlashni maqsad qilgandik. Mazkur maqsadni amalga oshirishda biz nazorat va tajriba guruhlari saralab olingan 610 nafar talabalar orasida mazkur metodni jins, kurs va oila kesimida o‘tkazdik va quyidagicha qiziqarli empirik natijalarni qo‘lga kiritdi.

1-jadval.

To‘liq, noto‘liq, ko‘p farzandli, yakka farzandli oilalardagi talabalarning N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi orqali olingan natijalari n=610

Omillar	To‘liq oila	%	Noto‘liq oila	%	ko‘p farzandli	%	yakka farzandli	%
O‘z emotsiyasini bilish	82	28,4	14	16,3	26	16,1	15	20,1
O‘z emotsiyasini boshqarish	55	18,2	28	33,1	20	12,5	11	14,6
Shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish	48	16,2	21	25,2	48	29,8	17	22,5
Boshqa insonlarning emotsiyasini aniqlash (empatiya)	69	26,1	10	11,1	27	16,9	9	12,2
O‘zaro munosabatlar bilan boshqarish	36	11,1	12	14,3	39	24,7	23	30,6
Jami:	290	100	85	100	160	100	75	100

Xollning “Emotsional intellektni baholash” metodika natijalarini psixologik tahliliga e’tibor qaratamiz.

Dastavval “O‘z emotsiyasini bilish” mezonini bo‘yicha to‘liq oilalarda 28,4%, noto‘liq oila 16,3%, ko‘p farzandli 16,1%, yakka farzandli oilalarda esa 20,0% ko‘rsatkichni berdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, to‘liq oilalardagi talabalarda o‘z hissiyotlarini anglash va tushunish ancha yuqori ekan. Ular o‘z hissiyotlarini nazoratda ushlab, hissiy kechinmalarini analiz qila olish qobiliyati hamda shaxslararo munosabatlarni adekvat idrok qila olish malakasi shakllangan ekan.

“O‘z emotsiyasini boshqarish” mezonini bo‘yicha to‘liq oilalarda 18,2%, noto‘liq oila 33,1%, ko‘p farzandli 12,5%, yakka farzandli oilalarda esa 14,6% ko‘rsatkichni berdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, noto‘liq oilalardagi talabalarda o‘z hissiyotlarini tushunish va boshqarish ancha yuqori ekan. Asosiy sabab, otaning yoki onaning yo‘qligi tufayli farzand uchun nechog‘lik qiyin bo‘lsa-da, emotsiyalarini katta irodaviy zo‘r berish bilan boshqarishi mumkinligi asoslandi.

“Shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish” qobiliyati bo‘yicha to‘liq oilalarda o‘sayotgan talabalarda 16,2%, noto‘liq oilalarda 25%, ko‘p farzandli 29,8%, yakka farzandli oilalarda esa 22,5% natijani berdi. Demak, bu mezon bo‘yicha ko‘p farzandli oilalarida eng yuqori (29,8%,) natijani aks etirdi. Bu oila farzandlarida o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari yaxshi shakllangan bo‘lib, ularning ota-onalari farzandlar fikrini eshitadi va ularni qo‘llab quvvatlaydi. Bu esa emotsional intellektni ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

“Boshqa insonlarning emotsiyasini aniqlash” (empatiya) omili bo‘yicha, to‘liq oilalarda o‘sayotgan talabalarda 26,1%, noto‘liq oilalarda 11,1%, ko‘p farzandli 16,9%, yakka farzandli oilalarda esa 12,2% natijani berdi. Demak, bu mezon bo‘yicha to‘liq oilalarida eng yuqori (26,1%,) natijani aks etirdi. Chunki empatiya bolalik rivojlanishida chuqur ildiz otgan va tarbiyaga bog‘liq. Otalik va onalik psixologiyasi to‘liq oilalarning munosabatlari asosini tashkil etganligi bois empatiya darajasi yuqoriligi aniqlandi.

“O‘zaro munosabatlar bilan boshqarish” omili bo‘yicha to‘liq oilalarda 11,1%, noto‘liq oilalarda 14,3%, farzandli ko‘p farzandli oilalarda 24,7%, yakka farzandli oilalarda esa 30,6%, natijani aks etdi. Demak, bu mezon bo‘yicha Yakka oila farzandlarida eng yuqori (30,6%,) natijani aks etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki bu oiladagi talabalarda o‘zaro tushunish, o‘zga insonlarni kechinmalarini his etish, ularga o‘z munosabatini bildira olishi, verbal va noverbal xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni baholashga qobiliyati shakllanganini ko‘rish mumkin. Oila tizimining xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlar muammosining ishlab chiqilishi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Demak, oila muhitida shakllangan emotsional intellekt determinantlari har bir shaxsni muvaffaqiyatli faoliyatiga undaydi. Ushbu nuqtayi nazardan, bizning tadqiqotimiz obyekt bo‘lgan talabalarning emotsional intellektini shakllanishi oila muhitiga, rivojlanishi darajasi esa ta‘lim jarayoniga bevosita bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz.

Sohada mazkur masalaga daxldor ko‘plab tadqiqotlar emotsional soha turli kechinmalarga asoslangan murakkab regulatsion jarayon sanalib, u hayotiy tajriba, ta‘lim – tarbiya, ijtimoiy muhit va ayrim irsiy omillar orqali takomillasha borishligi ma‘lum bo‘ldi. Jumladan tadqiqotchi G.V.Bulanovning fikricha, talabalar faoliyatida hissiy-emotsional intellekt quyidagi funksiyalarni bajaradi [3]:

- Har qanday muvaffaqiyatli harakatlarni rag‘batlantirish;
- Xulq – atvorni tartiblash va boshqarish;
- Ongni axborotlar oqimi bilan ta‘minlash;
- Kutilmagan vaziyatlarni baholash.

Tadqiqotchi B.G.Ananyevning aytishicha, hayot va mehnat sharoitlari faqat insonning intellektual rivojlanishi uchun emas, balki hissiy emotsional sohasi uchun ham yaratilgan [4].

Tadqiqotchi Y.D.Kolominskiy o‘quv faoliyatida emotsional intellekti yaqqol namoyon bo‘ladigan, ya‘ni muvaffaqiyat qozonishga moyil bo‘lgan talabalarni quyidagicha ta‘riflaydi: “bunday tipdagi yoshlar odatda faol va izlanuvchandirlar. Agar, biror maqsadlari yo‘lida to‘siqlar paydo bo‘lsa, ularni yengish yo‘llarini tez topadilar. Ushbu talabalar boshqa talabalardan, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qat‘iyatligi bilan bilan ajralib turadilar shuningdek, ular o‘z kelajaklarini uzoq vaqt davomida rejalashtirishga moyildirlar”[5]. Mualifning mazkur ilmiy izohlaridan ko‘rinib turibdiki, demak emotsional intellektning samaradorligi aynan insonlarning irodaviy sifatlarini barqarorligiga ham bog‘liq ekan.

Demak, talabalarda emotsional-intellektual soha va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari muammosini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. O‘quv faoliyati natijasida hosil bo‘lgan his-tuyg‘ular nafaqat shaxsning emotsional-intellektual sohasiga, balki irodaviy sohasiga ham ko‘plab o‘zgarishlar olib keladi. Bundan tashqari, salbiy his – tuyg‘ular motivatsiyalarni noaniqlashtirish bilan birga, talabalar o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatini kamaytiradi hamda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlariga ta‘sir qiladi.

Yuqoridagi masalaga daxldor barcha tadqiqotlarning ilmiy xulosalarini umumlashtirib, bir xulosa chiqarib ilmiy mushohada qiladigan bo‘lsak, talabalar shaxsida rivojlangan barqaror emotsional-intellektning tayanch mezonlari, jumladan, empatiya, tolereantlik, hissiy barqarorlik, o‘z – o‘zini anglash va

yuksak hislar keyinchalik, ularning shaxs sifatida barkamollikka erishishida hamda hayotiy, kasbiy oliy maqsadlarini amalga oshirishda o'ta muhim fundamental omil bo'lib xizmat qiladi deyish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Пономаренко Л.П. Последствия когнитивно-эмоциональной недифференцированности семейных отношений для развития личностной автономии // Психология и жизнь: психологические проблемы современной семьи: материалы 5-ой Международной научной конференции, Минск, 4-25 ноября 2011 г. - Минск, 2011. -С. 226-230.
2. Буланова Г.В. Эмоциональное состояние студентов как фактор их учебной успешности: Автореф. ...канд. пед. наук. Л. – 1989. – 16 с.
3. Васильев И.А. Роль интеллектуальных эмоций в регуляции мыслительной деятельности Психологич. журнал. 1998.Том 19. 4 – С.49 – 60.
4. Вундт В. Основы физиологической психологии. Естествознание и психология. Вып. 1. С. – Пб.: Типогр. П.П. Сойкина, 2007. – С. 44-82.
5. Колесников В.Н. Эмоциональный фактор в структуре личности и учебной деятельности студентов: Автореф. дис. канд. псих. наук. – СПб., 1997. – 16 с.

Qoryog'diyev Sherzod Shuxrat o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

SHAXS EHTIYOJLARIDA KASBIY YO'NALGANLIK NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK PREDIKTORLARI

Annotatsiya. Shaxsning kasbiy rivojlanishga yo'naltirilganligi, birinchi navbatda, kognitiv faoliyat bilan va kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan bog'liq manfaatlarda namoyon bo'ladi. Shaxsiy xususiyatlar turli ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida yosh shaxs qiziqish bildiradigan faoliyat turiga mos kelishi ham muhimdir. Kelajakda kasbiy muvaffaqiyatning muhim sharti bo'lgan kasbiy ta'lim jarayonida kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun shaxsga o'z tanlovi va xarakter xususiyatlarini bosqichda o'zgartirish imkoniyatini ta'minlash uchun sharoit yaratish kerak. Maqolada shaxs ehtiyojlar tizimida kasbiy yo'nalganlik namoyon bo'lishidagi psixologik prediktorlarni aniqlash yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shaxs, shaxsning yo'nalganligi, faollik, motivatsiya, xulq-atvor, individual-psixologik xususiyatlar, qadriyat yo'nalishlari.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ В ЛИЧНЫХ ПОТРЕБНОСТЯХ

Аннотация. Направленность личности в профессиональном становлении связана, прежде всего, с познавательной деятельностью и проявляется в интересах, связанных с развитием профессионализма. Немаловажным является и соответствие черт характера личности тому виду деятельности, интерес к которой в силу влияния различных социальных и культурных факторов, проявляет молодой человек. Для успешного освоения профессиональных знаний и навыков в ходе профессионального образования, что является важным условием профессионального успеха в дальнейшем, необходимо создать студенту условия для обеспечения возможности скорректировать свой выбор и черты характера на этапе профессиональной подготовки к практической деятельности. В статье анализируются результаты эмпирического исследования по выявлению психологических предикторов проявления профессиональной направленности в системе личностных потребностей.

Ключевые слова: личность, направленность личности, деятельность, мотивация, поведение, индивидуально-психологические характеристики, ценностные ориентации.

PSYCHOLOGICAL PREDICTORS OF VOCATIONAL ORIENTATION IN PERSONAL NEEDS

Abstract. A person's orientation to professional development is manifested primarily in interests related to cognitive activity and the development of professional skills. It is also important that personal characteristics match the type of activity that the young person is interested in under the influence of various social and cultural factors. In the process of professional education, which is an important condition for professional success in the future, in order to successfully acquire professional knowledge and skills, it is necessary to create conditions to provide the opportunity for a person to change his choice and character traits in stages. The article analyzes the results of empirical research on the identification of psychological predictors of the manifestation of professional orientation in the system of personal needs.

Keywords: personality, personality orientation, activity, motivation, behavior, individual-psychological characteristics, value orientations.

Kirish. So'nggi yillarda yoshlarga kasb-hunar o'rgatishning ko'plab xilma-xil shakl va uslublari, shuningdek, kasb-hunarga o'rgatish va mutaxassisliklarning qator yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda ilgari mavjud bo'lgan faoliyat turlarining tez yangilanishi mavjud. Ko'pincha ta'lim tizimi odamlarning amaliy faoliyatidagi bunday o'zgarishlarga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan yangi mehnat sharoitlariga tez moslasha oladigan va mehnat bozorida talab qilinadigan yangi kasblarni tez o'zlashtira oladigan bo'lajak kadrlarni tanlash muammosi yuzaga keladi. Yoshlarning kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonining muvaffaqiyati mezonlarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni

tushunishni chuqurlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda, bu esa ushbu jarayonni samarali boshqarishning asosiy shartidir. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning to‘liq emasligi, uning vaqt o‘tishi bilan kengayishi ko‘p hollarda odamlarning tanlagan kasbidan qoniqishning pastligining sababi bo‘lib, bu faoliyat samaradorligining pasayishiga olib keladi va insonning ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir qiladi.

Shaxsning yo‘nalganligi deganda shaxs faoliyatini yo‘naltiruvchi va mavjud vaziyatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan barqaror motivlar to‘plami tushuniladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, shaxsning yo‘nalganligi doimo ijtimoiy jihatdan shartlangan va ta‘lim jarayonida shakllanadi. Yo‘nalganlik - bu shaxs xususiyatlariga aylangan va joziba, istak, intilish, qiziqish, mayl, ideal, dunyoqarash, e‘tiqod kabi shakllarda namoyon bo‘ladigan munosabatlar tizimidir. Bundan tashqari, shaxs yo‘nalganligidagi barcha shakllarining asosini faoliyat motivlari tashkil qiladi. Yo‘nalganlik - bu insonning ijtimoiy va ma‘naviy mavjudot sifatida rivojlanish dinamikasini, uning xatti-harakatlarining asosiy tendensiyalarini ifodalovchi eng muhim xususiyati hisoblanadi. Shaxsning yo‘nalganligi insonning yetakchi psixologik xususiyati bo‘lib, u uning hayot va faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasi tizimini ifodalaydi.

Psixologiyada shaxsning talqini qanchalik xilma-xil bo‘lishidan qat‘iy nazar, deyarli barcha tadqiqotchilar shaxs tuzilishining yetakchi komponenti, uning tizimni tashkil etuvchi xususiyati shaxsning yo‘nalganligi deb hisoblashadi. Aynan shu xususiyatda inson nomidan harakat qiladigan maqsadlar, uning motivlari, voqelikning turli tomonlariga subyektiv munosabatlari ifodalanadi. Yo‘nalganlik nafaqat shaxs tuzilishining tarkibiy qismlariga (masalan, temperamentning namoyon bo‘lishiga yoki qobiliyatlarning rivojlanishiga), balki intellektual holatlarga (masalan, stressni yengish) ham ta‘sir ko‘rsatadi. Yo‘nalganlik turli ko‘rinishlarda - qadriyat yo‘nalishlari, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, didlar, moyilliklar, bog‘lanishlar bilan ifodalanadi va inson hayotining turli sohalarida: kasbiy, oilaviy, siyosiy va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Aynan shu yo‘nalishda inson nomidan harakat qiladigan maqsadlar, uning motivlari, voqelikning turli tomonlariga subyektiv munosabatlari, ya‘ni xususiyatlarning butun tizimi ifodalanadi. Umuman olganda, psixologiyada shaxsning yo‘nalishi barqaror ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar tizimi sifatida belgilanadi. Yo‘nalganlik xatti-harakatlarning asosiy tendensiyalarini belgilaydi. Aniq ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lgan shaxs mehnatsevar, maqsadli va yuqori ijtimoiy faol hisoblanadi [4].

Shaxsni talqin qilishdagi farqlarga qaramay, barcha yondashuvlar uning yo‘nalganligini yetakchi xususiyat sifatida ta‘kidlaydi. Turli xil tushunchalarda bu xususiyat turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi: “dinamik tendensiya” (S.L.Rubinshteyn), “ma‘no yaratuvchi motiv” (A.N.Leontev), “hukmron munosabat” (V.N.Myasishev), “asosiy hayot yo‘nalishi” (B.G.Ananyev), “inson muhim kuchlarining dinamik birlashmasi” (A.S.Prangishvili). Shunday qilib, yo‘nalganlik shaxsning umumiy xususiyati bo‘lib, uning psixologik tuzilishini belgilaydi. Shaxs faoliyatini boshqaradigan va berilgan vaziyatlardan nisbatan mustaqil bo‘lgan barqaror motivlar majmui shaxsning yo‘nalganligi deb ataladi. U doimo ijtimoiy jihatdan shartlanadi va ta‘lim orqali shakllanadi [5].

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Shaxslarning hayot rejalari va qadriyat yo‘nalishlariga hayot istiqbollarning ma‘lum noaniqligi (ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va hayotning individual ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lgan kelajakdagi voqealarning yaxlit tasviri sifatida) va uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligi kasbiy o‘zini o‘zi belgilash jarayonida salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, M.R.Ginzburg o‘z taqdirini o‘zi belgilash muammosini vaqt nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi: shaxsning psixologik hozirgi va psixologik kelajagiga munosabati. Uning fikricha, muvaffaqiyatli o‘z taqdirini belgilash quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) o‘z-o‘zini rivojlantirish (o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi anglash) funksiyasini bajaradigan psixologik hozirgi tarkibiy qismlarning mavjudligi, shu jumladan:

- shakllangan qadriyat-semantik yadro (shaxsiy muhim ijobiy qadriyatlarning keng doirasi, o‘z hayotining mazmunlilik tajribasi, ekzistensial yo‘nalish);

- ijodiy xarakterga ega bo‘lishi va keng doiraga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘z-o‘zini amalga oshirish;

2) semantik va vaqt istiqbolini ta‘minlaydigan psixologik kelajak tarkibiy qismlarining mavjudligi, shu jumladan:

- kelajakka bo‘lgan shaxsiy prognozi, yosh odam asosan o‘zining kuchli tomonlariga tayanib, kelajakdagi qadriyatlarning keng doirasini hissiy jihatdan jozibali ko‘rinishda ko‘radi. Kasb tanlash (uning barqarorligi, ma‘lum bir kasbda aniqligi, kasbga qo‘yiladigan kasbiy talablarning mavjudligi) semantik kelajakni va o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi belgilash muvaffaqiyatini sezilarli darajada tavsiflaydi;

- rejalashtirishning o‘zi, birinchi navbatda, rejalashtirishga ijobiy munosabat va rejalarning mavjudligi, maqsadlarga erishish usullari va vaqt o‘tishi bilan davom etishi bilan tavsiflanadi [2]. Muallif kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning shaxsiy, bog‘langan qiymat-semantik va fazo-vaqt aspektlariga kiritilishi haqida yozadi, bu kelajak muammosiga olib keladi, bu g‘oyani hayot rejasini tuzmasdan amalga oshirish mumkin emas.

I.S.Konning soʻzlariga koʻra, hayot rejasi, soʻzning aniq maʼnosida, mulohaza yuritish mavzusi nafaqat yakuniy natijaga, balki unga erishish yoʻllariga, inson borishni maqsad qilgan yoʻlga, obyektiv va maqsadlarga aylanganda paydo boʻladi. Buning uchun unga ega boʻlgan subyektiv resurslar kerak boʻladi [1]. S.L.Rubinshteyn tomonidan kiritilgan “shaxs yoʻnalganligi” tushunchasini, birinchi navbatda, turli xil yoʻnalishlarni aniqlashda ishlab chiqilgan. Xususan, psixologik adabiyotlarda shaxsiy, kollektivistik, ishbilarmonlik, gumanistik, egoistik, depressiv va suitsidual yoʻnalishlari taqdim etiladi va tavsiflanadi. Shaxsning kasbiy yoʻnalishini oʻrganish alohida oʻrin tutadi. Kasbiy yoʻnalganlik deganda, birinchi navbatda, shaxsning kasbiy faoliyati bilan bogʻliq va, xususan, kasb tanlash, unda ishlash istagiga taʼsir qiluvchi motivatsion shakllanishlar (qiziqishlar, ehtiyojlar, moyilliklar, intilishlar va boshqalar) majmui va kasbiy faoliyatdan qoniqish tushuniladi. Kasb-hunarga yoʻnaltirilganlik uzviy taʼlim boʻlib, u afzal koʻrgan kasb (faoliyat turi) boʻlgan kasbiy yoʻnaltirilganlik subyektini bilan tavsiflanadi; kasbiy faoliyat motivlarining turlari; kasbni egallash va unda ishlash istagini ifodalash darajasida namoyon boʻladigan yoʻnaltirilganlik kuchi (darajasi); shaxsning oʻz kasbidan mamnunligi yoki noroziligida ifodalangan belgi kabilarda ifodalanadi [3].


Olingan natijalar va ularning tahlili. Istiqboldan xabardor boʻlgan shaxsga xos boʻlgan tajribalarga qarama-qarshi boʻlgan umidsizlik, tushkunlik holati frustratsiya deb ataladi. Bu inson maqsadga erishish yoʻlida haqiqatan ham yengib boʻlmaydigan toʻsiqlarga, baryerlarga duch kelgan yoki ular shunday qabul qilingan hollarda yuzaga keladi. Shaxsning yoʻnalganligi - bu shaxsni muayyan xatti-harakatlar va faoliyatga, nisbatan murakkab hayotiy maqsadlarga erishishga yoʻnaltiradigan barqaror motivlar, qarashlar, eʼtiqodlar, ehtiyojlar va intilishlar toʻplami. Yoʻnalganlik har doim ijtimoiy jihatdan shartlangan, taʼlim va tarbiya jarayonida shakllanadi, shaxsiy xususiyat sifatida namoyon boʻladi, gʻoyaviy, kasbiy yoʻnalishda, shaxsiy sevimli mashgʻulotlari bilan bogʻliq faoliyatda, asosiy faoliyatdan boʻsh vaqtlarida biror narsa qilishda (baliq ovlash, toʻqish, suratga olish) namoyon boʻladi. Shaxs faoliyatining barcha turlarida yoʻnalganlik shaxs manfaatlarining xususiyatlarida namoyon boʻladi. Shaxs ehtiyojlari murakkab aqliy xususiyat sifatida shaxsning yoʻnalishi tizimida markaziy oʻrinni egallaydi va shaxsning faolligini, uning voqelikka munosabatining tanlanganligini belgilaydigan motivlar tizimida ham yetakchi rol oʻynaydi.

1-jadval.

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning foiz va son taqsimoti

Kurs		
№	Son (ta)	Foiz (%)
I kurs	70 ta	56%
III kurs	55 ta	44%
Jami:	125 ta	100%

Yuqorida keltirgan jadvaldan maʼlum boʻladiki, empirik tadqiqotimizda jami 125 nafar respondentlar ishtirok etgan boʻlib, ularning kurs kategoriyasi boʻyicha nisbatini tahlil qilganimizda 1-bosqich talabalari 70 ta (56%), 3-bosqich talabalari 55 ta (44%) tashkil etgan.



1-rasm. T.Elersning «Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi» soʻrovnomasining % ulushidagi taqsimoti

Tadqiqotimizdan oʻrin olgan T.Elersning «Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi» soʻrovnomasining talabalar miqyosida tahlilini amalga oshirganimizda 56% talabalarda muvaffaqiyatga boʻlgan munosabat bilan bogʻliq motivatsion qutb yaqqol namoyon boʻlmaganini

ko'rishimiz mumkin. 17,6% talabalarda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi ustunlik qayd etgan. 26,4% talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi yuqori ekanligi ma'lum bo'ladi. Ushbu qayd etilgan natijalar bizga talabalik davrida motivatsion soha kasbiy yo'nalganlikni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Zamonaviy talabalar motivatsiyasining tuzilishi va xususiyatlari oliy o'quv yurtida o'qishning dastlabki bosqichida ularning kasbiy tayyorgarligi muvaffaqiyatining o'zaro bog'liqligi sifatida puxta va keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi. Talabalarda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani tarbiyalash, ularda o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishish zarurligini rivojlantirish kerak. Buning natijasi talabalarining birinchi yillarda universitetdagi o'qishlaridan qoniqish holati bo'ladi. Bu o'quv jarayonini osonlashtiradi, ta'lim maqsadlariga erishish va ta'lim dasturini o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, affilyatsiya motivi va kognitiv motiv talabalarining kasbiy tayyorgarligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarda ijtimoiy hamda o'quv-ilmiy omillar ta'siri tufayli ham muvaffaqiyatga intilish hamda muvaffaqiyatsizlikdan qochish o'rta darajada shakllanganligi ko'rinadi. Muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyojning qarama-qarshi tomoni - muvaffaqiyatsizlikdan qochish zarurati. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, agar talaba shaxsining motivatsion tuzilishi muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan bo'lsa, unda erishilgan natijalarni yaxshilashga ehtiyoj kam bo'ladi. Bunday talabalar o'z qarorlarida o'ziga xoslikka emas, balki odatdagi faoliyat usullariga ko'proq e'tibor berishadi. Ular shunchaki ijodkorlikdan qo'rqishadi va ta'lim faoliyati bilan bog'liq holda ma'lum bir himoya mexanizmi ishga tushiriladi. Ular tashvishning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ularda kasbiy tayyorgarlik jarayoni o'quv jarayonidagi muvaffaqiyat va yutuqlardan qoniqish uchun emas, balki muvaffaqiyatsizlik va u bilan birga keladigan muammolardan qochishga qaratilgan.

Oliy ta'limda o'quv jarayoni ko'p darajada guruhlarda amalga oshiriladi. Talabalar o'rtasidagi muloqot katta ahamiyatga ega. Muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar o'quvchida psixo-emotsional stress, tashvish, hatto umidsizlik va tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Talabalik davri - bu o'z-o'zini tasdiqlash va hukmronlik qilish zarurati faol rivojlanishda davom etadigan shaxs rivojlanishidagi davr hisoblanadi. Bu o'zini boshqa odamlarga ta'sir qilish, hokimiyatga ega bo'lish, ishonchli bo'lish va boshqalarni nazorat qila olish istagida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'z didi va qarashlarini, turli muammolarni hal qilish haqidagi qarashlarini o'z ijtimoiy guruhining boshqa a'zolariga yuklash imkoniyatida bo'ladi. Kasbiy tayyorgarlik holatida bu ehtiyoj o'qishdan qoniqishni oshiradi va o'rganishga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, raqobat elementi va yutuqlarda mos keladigan motiv mavjud bo'lganda, o'quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

2-jadval.

Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» testining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish natijalari (N-125)

Ko'rsatkichlar	Min	Max	M	σ	Z	p
Ichki motiv	5,00	18,00	11,59	2,98	1,905	0,001**
Kognitiv motiv	7,00	18,00	12,56	2,80	1,691	0,007**
Qochish motivi	5,00	18,00	11,56	3,02	1,586	0,013*
Raqobat motivi	5,00	17,00	10,57	3,23	1,323	0,060
Faoliyatni o'zgartirish uchun sabab	5,00	16,00	11,35	3,15	1,402	0,039*
O'z-o'zini hurmat qilish motivi	7,00	18,00	13,23	2,34	1,387	0,043*
Natijalarning ahamiyati	5,00	18,00	11,64	3,26	1,307	0,066
Vazifaning qiyinligi	6,00	19,00	11,88	2,78	1,370	0,047*
Iroda kuchi	5,00	18,00	12,91	2,50	1,316	0,063
Natijalarni erishilganlik darajasini baholash	6,00	18,00	11,84	2,73	1,378	0,045*
O'z imkoniyatlarini baholash	6,00	18,00	13,22	2,47	1,459	0,028*
Quvvatni safarbar eta olganlik darajasi	5,00	18,00	12,61	2,89	1,243	0,091
Kutilayotgan natijalar darajasi	5,00	19,00	12,12	2,63	1,698	0,006**
Natijalar namunasi	5,00	18,00	11,80	3,00	1,362	0,049*
Tashabbuskorlik	5,00	18,00	11,59	2,98	1,135	0,152

* statistik tavofutlar mavjud

Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» testining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish natijalariga muvofiq ichki motiv ($Z=1,905$; $p<0,01$), kognitiv motiv ($Z=1,691$; $p<0,01$),

qochish motivi ($Z=1,586$; $p<0,05$), raqobat motivi ($Z=1,323$; $p>0,05$), faoliyatni o'zgartirish uchun sabab ($Z=1,402$; $p<0,05$), o'z-o'zini hurmat qilish motivi ($Z=1,387$; $p<0,05$), natijalarning ahamiyati ($Z=1,307$; $p>0,05$), vazifaning qiyinligi ($Z=1,370$; $p<0,05$), iroda kuchi ($Z=1,316$; $p>0,05$), natijalarni erishganlik darajasini baholash ($Z=1,378$; $p<0,05$), o'z imkoniyatlarini baholash ($Z=1,459$; $p<0,05$), quvvatni safarbar eta olganlik darajasi ($Z=1,243$; $p>0,05$), kutilayotgan natijalar darajasi ($Z=1,698$; $p<0,01$), natijalar namunasi ($Z=1,362$; $p<0,05$), tashabbuskorlik ($Z=1,135$; $p>0,05$) ko'rsatkichlaridan vazifaning qiyinligi hamda kutilayotgan natijalar darajasi shkalasida ustun ballar (19) qayd etilganini biz ko'proq talabalar faoliyatida ushbu intilish motivlari kasbiy yo'nalganlikda namoyon bo'lishi mumkinligini bildiradi.

3-jadval.

K.B.Qodirovning «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» testining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish natijalari (N-125)

Ko'rsatkichlar	Min	Max	M	σ	Z	p
O'ziga yo'nalganlik	7,00	49,00	26,62	13,54	1,899	0,001**
Shaxsga yo'nalganlik	11,00	50,00	32,56	11,80	1,183	0,122
Faoliyatga yo'nalganlik	10,00	55,00	34,56	11,81	0,753	0,622

* statistik tafovutlar mavjud

K.B.Qodirovning «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» testining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, o'ziga yo'nalganlik ($Z=1,899$; $p<0,01$), shaxsga yo'nalganlik ($Z=1,183$; $p>0,05$), faoliyatga yo'nalganlik ($Z=0,753$; $p>0,05$) ko'rsatkichlarining eng yuqorisi talabalarda faoliyatga yo'nalganlik shkalasida qayd etildi ($M=55$). Bundan talabalarda o'quv faoliyati yetakchi motivatsion sohani shakllantiruvchi mexanizm bo'lib rol o'ynashi oydinlashadi. Tabiiy ravishda shaxsda namoyon bo'ladigan ehtiyojlar ham asosan o'quv faoliyati nuqtayi nazaridan yuzaga chiqadi.


Shaxsning yo'nalganligi inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Shaxsning kasbiy rivojlanishga yo'naltirilganligi, birinchi navbatda, kognitiv faoliyat va kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan bog'liq manfaatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, shaxsiy xususiyatlar yosh shaxsning, xususan, abituriyentning turli ijtimoiy va madaniy omillar ta'siri tufayli qiziqish bildiradigan faoliyat turiga mos kelishi ham muhimdir. Inson psixikasida faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'ladigan barqaror muhim xususiyatlar majmui mavjud. Har bir insonning o'ziga xos xususiyati uning yo'nalishi bilan belgilanadi. Shuning uchun xarakter xususiyatlari, birinchi navbatda, shaxsning yo'nalishiga, shaxsning turli xil voqelik hodisalariga barqaror munosabatlar tizimiga qarab belgilanadi va tasniflanadi. Shaxsning bu sohasi ma'lum bir shaxsning ustun ehtiyojlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari, harakatlari, qiziqishlari, istaklari, ideallari, e'tiqodlari va dunyoqarashini birlashtiradi. Shaxsning munosabatlar tizimi uning asosiy sifati hisoblanadi. Insonning munosabatlar tizimi quriladigan poydevor ehtiyojlardir. Shaxs munosabatlarining butun tizimi, uning yo'nalishi shaxsiyatning motivatsion-tartibga soluvchi tuzilishi bo'lib, uning xatti-harakatlarining umumiy xususiyatlarini belgilaydi.

Kasbiy motivatsiyaning o'zgaruvchanligi va dinamikligi talabalarning universitetda o'qishga bo'lgan munosabatiga, shuningdek, keyingi kasbiy faoliyatiga ta'sir qiladi. Muayyan ehtiyoj bilan bog'liq bo'lgan motivlar to'plami rus psixologiyasida «motivatsiya sindromi» sifatida belgilangan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bilish ehtiyoji motivlarini erishish, mansublik va hukmronlik motivlari bilan kesish bir motivni rag'batlantirish orqali boshqa ehtiyojlarining motivlariga ta'sir qilish imkonini beradi. Biz A.A.Verbitskiyning motivatsion sindrom fenomenini tushunishdagi pozitsiyasiga qo'shilamiz - bu ma'lum bir talabaning motivatsion tuzilishidagi motivlar, maqsadlar, qiziqishlar, harakatlarning munosabatlari va o'zaro bog'liqligini tushunish mexanizmi, ham motivatsion sohaning o'zini ushbu motivatsion omillar komponentlar bilan o'zaro ta'sir qiladigan tizim sifatida tushunish imkoniyatini yaratadi.

Motivatsion sindrom turli yo'llar bilan o'zini namoyon qilishi mumkin. Masalan, bu kasbiy yoki ta'lim motivlari bo'lishi mumkin. Ikkala shakl ham kengroq bir butunlikni - motivlarning o'zaro o'zgarishi dinamikasini ko'rsatadigan ta'lim faoliyatining motivatsion sindromini tashkil etad. Kognitiv motivatsion sindrom va professional motivlar o'rtasida faqat yetakchi motivlarning (kognitiv va kasbiy) ifodasi sezilarli farq qiladi. Shunday qilib, kasbiy yo'nalganlik kasbiy o'zini o'zi belgilash bilan birgalikda, asosan, talabaning hayot yo'lini tanlashni belgilaydi. O'quv va kasbiy faoliyatning mahsuldorligi, samaradorligi, subyektning o'z ishidan qoniqishi, oliy o'quv yurtida yuqori kasbiy tayyorgarlikka va kelajakda malaka oshirishga e'tibor qaratish - bularning barchasi inson hayotidagi eng muhim muammoni hal qilishga bog'liq.

Navbatdagi tahlilni kurs kesimidagi talabalarning intilish darajasi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashga qaratganimizda yuqorida keltirilgan qochish motivi ($U=1366,5$; $p<0,01$), raqobat motivi ($U=1466,5$; $p<0,01$), natijalarning ahamiyati ($U=1003$; $p<0,01$), vazifaning qiyinligi ($U=1037,5$; $p<0,01$), kutilayotgan natijalar darajasi ($U=1477$; $p<0,01$) va tashabbuskorlik ($U=1522$; $p<0,01$) shkalalarida ahamiyatli farqlar qayd

etilganini ko‘rish mumkin. Natijalarning ahamiyati, vazifaning qiyinligi, kutilayotgan natijalar darajasi va raqobat motivi ko‘rsatkishlarida I kurs talabalari ustunlik qayd etgan. Bu ularning o‘quv faoliyatga moslashuv jarayoni ketayotgani hamda kutilmalarning realizatsiyasi amalga oshishda davom etgani bilan izohlash mumkin.



2-rasm. Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» testining kurs bo‘yicha farqlari

Qochish motivining 3-kurslarda balandligi esa ko‘pincha ularda muammodan, kasbiy muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intilish mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zamonaviy ilm-fanda insonning muvaffaqiyati, unumdorligi va yuqori hayot sifatiga hissa qo‘shadigan psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ishlar juda dolzarb bo‘lib bormoqda. Ko‘pgina mualliflar o‘z asarlarini ushbu mavzuga bag‘ishlab, muvaffaqiyat motivatsiyasini muvaffaqiyatning ichki omillaridan biri sifatida aniqladilar. Jamiyat yuksak darajada rivojlangan shaxslarga, tashabbuskor mutaxassislarga, ijodkor odamlarga muhtoj. Ushbu o‘rnatish ba’zi ijtimoiy tizimlarni, shu jumladan ta’lim tizimini qayta qurishni talab qiladi. Ta’lim doirasida motivatsion jihat alohida ahamiyatga ega. Motivatsiya - bu subyektning faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilaydigan turtkilar jamlanmasidir. Bu psixologik hodisa inson faoliyati, xatti-harakati va faoliyatini tartibga soluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun motivatsiya ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilarning qiziqish markazidir. Motivatsiya - bu psixofiziologik xarakterdagi dinamik jarayon va shu bilan birga subyektning faoliyatini boshlaydigan va uning faoliyati yo‘nalishini belgilovchi omillar majmuasidir. Shu bilan birga, ta’lim motivatsiyasi talaba subyektining faoliyatini boshlaydigan, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni egallash yo‘nalishini belgilovchi omillar majmuasidir. Bu ta’lim motivatsiyasi subyektning aqliy hayotining elementi sifatida o‘z aql-idrokini rivojlantirish, o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi kashf qilish imkonini beradi.

Shaxs yo‘nalganligining asosiy roli ongli motivlarga tegishli. Motivning vazifasi esa bajarilayotgan faoliyatga yo‘nalish berishdir. Faqat faoliyatni boshlash va doimiy ravishda “oziqlantirish” yetarli emas. Uni amalga oshirish kerak. Motivning yana bir vazifasi ma’noni shakllantirish bo‘lib, uning yordamida motiv tushunchasi shaxsiy darajaga yetadi. Ma’nosi savolga javob: nima uchun? Nima uchun inson o‘z ehtiyojlari va faoliyati obyektiga muhtoj? Inson ma’noga yo‘naltirilgan mavjudotdir. Agar ishonchli shaxsiy ma’no bo‘lmasa, unda rag‘batlantiruvchi motiv ishlamaydi. Hech qanday faoliyat bo‘lmaydi va amalga oshirilmagan motiv qoladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ehtiyoj-motivatsion soha shaxsning yo‘nalishini qisman tavsiflaydi, uning asosi hisoblanadi. Shu asosda shaxsning hayotiy maqsadlari shakllanadi. Shularni hisobga olib, faoliyat maqsadi va hayot maqsadini farqlash kerak. Inson hayoti davomida juda ko‘p turli xil faoliyatni amalga oshiradi, ularning har biri o‘z maqsadini amalga oshiradi. Hayotiy maqsad individual faoliyat bilan bog‘liq barcha shaxsiy maqsadlarning kombinatsiyasi sifatida ishlaydi. Shaxsning erishish darajasi hayotiy maqsadlar bilan bog‘liq. Nafaqat maqsadni, balki haqiqatni ham anglash inson tomonidan shaxsiy nuqtayi nazar sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Волжина Ж.А. Влияние «Образа тела» на формирование личности подростка: Сб. ст. междунар. науч.-практ. конф. «Проблемы и перспективы развития современной науки: экономика, политика и право». М., 2014.

2. Гинзбург М.Р. Психологическое содержание личностного самоопределения // Вопросы психологии. 1994. № 3.
3. Ермолаева Е.П. Психология профессионального маргинала в социально значимых видах труда (статья вторая) // Психологический журнал. 2001. № 5.
4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб., 2003.
5. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. М., 2007.
6. Ковалев С.В. Подготовка старшеклассников к семейной жизни: тесты, опросники, ролевые игры. М., 1991.
7. Кон И.С. Психология ранней юности: Книга для учителя. М., 1989.
8. Кудрявцев Т.В., Шегурова В.Ю. Психологический анализ динамики профессионального самоопределения личности // Вопросы психологии. 1983. № 2.
9. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность; 2-е изд. М., 1977.

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
psixologiya kafedrasida dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
azimbek_qurbonboyev@mail.ru

TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH DINAMIKASI

Annotatsiya. Maqolada talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish xususiyatining mohiyatini hamda o'quv faoliyatida mazkur fenomenning zaruriy jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talaba shaxsida o'zini o'zi faollashtirish xususiyatini rivojlantirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi trening mashg'ulotining psixologik samaradorligini baholash doirasida olib borilgan tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, shaxs faolligi, o'quv faoliyati, qadriyatlar, bilish ehtiyoji, ijodkorlik, mustaqillik, o'z-o'zini tushunish, intiluvchanlik qobiliyati.

ДИНАМИКА САМОАКТИВИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В статье описывается природа самоактивации в студенческой жизни и необходимые стороны этого явления в образовательной деятельности. Также представлен количественный и качественный анализ исследовательской работы, проведенной в рамках оценки психологической эффективности коррекционно-развивающей тренировки, направленной на развитие самоактивационной характеристики студента.

Ключевые слова: самоактивация личности, личная активность, образовательная деятельность, ценности, потребность в знаниях, творчество, самостоятельность, самопонимание, амбициозные способности.

DYNAMICS OF STUDENTS' SELF-ACTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. The article describes the nature of self-activation during student life and the necessary aspects of this phenomenon in educational activities. Also, the quantitative and qualitative analysis of the research work conducted within the framework of the assessment of the psychological effectiveness of the corrective and developmental training aimed at developing the self-activation characteristic of the student are presented.

Keywords: self-activation of a person, personal activity, educational activity, values, need for knowledge, creativity, independence, self-understanding, aspirational ability.

Kirish. Psixologiyada o'zini o'zi faollashtirish fenomeni gumanistik yo'nalishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O'zini o'zi faollashtirish tushunchasi va tabiati, uning inson hayoti va faoliyati davomida namoyon bo'lish xususiyatlariga doir qarashlar turli xorijiy falsafiy va psixologik yo'nalishlar vakillarining qarashlariga amaliy jihatdan mos keladi (K.Goldshteyn, A.Maslou, K.Rodjers, J.P.Sartr, V.Frankl, G.Olport va boshqalar). Xorij psixologiyasidagi shaxsning o'zini o'zi faollashtirish g'oyalari asosida quyidagi holatlar mavjud. Har bir inson alohida holda yagonadir. Yagona (betakror)lik vaqtning har onida o'zining o'ziga xosligini anglash qobiliyati bilan belgilanadi. Inson hech qachon barqaror emas, u doimiy ravishda shakllanish jarayonida bo'ladi. Insonni o'rganish va tushunish asosi – bu subyektiv tajriba, ya'ni nazariy tuzilish va tashqi xulq-atvor bevosita tajriba va uning yagona mohiyatiga nisbatan uni kechirayotgan kishi uchun ikkilamchi hisoblanadi. Inson mohiyatining o'zi uni doimiy ravishda shaxsiy rivojlanish, ijodkorlik va o'zidan qoniqish tomon harakatlantiradi. Insonlar o'z hayotlarining faol yaratuvchilari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. "O'zini o'zi faollashtirish" atamasi ilk bor ilmiy kategoriya sifatida K.Goldshteyn (1939) tomonidan kiritilgan. U o'zining kognitiv rehabilitatsiya nazariyasiga asoslanib, patsiyent (bemor) shaxsi mazmunida simptomlarni ko'rib chiqishni taklif etgan. U miya jarohatlari bilan og'riqan bemorlar xulqidagi bir qator o'zgarishlarni "o'zini o'zi faollashtirish" va "o'z-o'zini namoyon qilish" tushunchalari bilan tushuntirgan. K.Goldshteynga ko'ra, "o'zini o'zi faollashtirish tananing jarohat ta'siri ostida qayta qurishga qobilligini ifodalaydi". Uning ta'kidlashicha, o'zini o'zi faollashtirish tananing yagona va asosiy

motivi bo‘lib, butun organizm o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi, rivojlanishi, o‘z-o‘zini kamol toptirishi, shaxsning ijodiy intilishi uchun yetakchi xususiyati sifatida xizmat qiladi.

Boshqa motivlar tomonidan chaqirilgan harakatlarga ilk bor yaqin kelganda – hayotning asosiy kuchi – o‘zini o‘zi faollashtirishday tuyulishi mumkin. O‘zini o‘zi faollashtirish – bu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan harakatlardir. Ehtiyojlar - insonni uni to‘ldirishga, qondirishga undovchi tanqislik holatidir. K.Goldshteyn fikricha, me‘yordagi sog‘lom tana – bu “o‘zini o‘zi faollashtirishga intilishi ichkaridan harakat qilib, xavotir asosida emas, biroq g‘alaba nashidasi tufayli tashqi olam bilan to‘qnashish natijasida yuzaga keladigan qiyinchilikni yengadigan” tanadir [2]. K.Goldshteyn uchun o‘zini o‘zi faollashtirish muammo va qiyinchiliklarning yakunini anglatmaydi, aksincha, rivojlanish ko‘pincha azob chekish va og‘riqlarga olib keladi.

O‘zini o‘zi faollashtirish nazariyalarining rivojlanishi Abraxam Maslou va Karl Rodjers nomlari bilan bog‘liqdir. K.Goldshteyn shogirdi A.Maslou (1954), “o‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasini insonni yagona, bir butun, ochiq va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida o‘rganish asosida qo‘llagan. [2] O‘zini o‘zi faollashtirish konsepsiyasi markazida insonning individual tajribasiga ishonish, o‘zida yagona shaxsga xos imkoniyatlarni topish va ochish, shaxsiy rivojlanish usullari va yo‘nalishini, mustaqil belgilash qobiliyati yotadi. O‘zini o‘zi faollashtirishni uyg‘otuvchi sabab ziddiyat emas, balki insonning ichki tabiati va faoliyat egasi sifatida qabul qiluvchi qarorlarining o‘zaro hamohangligi yuzaga chiqadi. O‘z tadqiqotlarining debochasida: “Bu atama ilk bor K.Goldshteynda uchraydi hamda biz tomonimizdan ancha o‘ziga xos ma‘noda qo‘llanilib, o‘zini o‘zi ruyobga chiqarishga intilish, aniqrog‘i, ichki yashirin imkoniyat sifatida mavjud bo‘lganini yuzaga chiqarish, qaror toptirish intilishini anglatadi” [2].

A.Maslou o‘zini o‘zi faollashtirishni “shaxsning tanqislik, rivojlanish muammosi va hayotning nevrotik (yoki infantil, yoki o‘ylab topilgan, yoki “keraksiz”, yoki “haqiqiy emas”) muammolaridan kishini xalos etadigan rivojlanishi” sifatida ta‘riflaydi. Shunday qilib, u “haqiqiy” hayot muammolari (ahamiyatli, o‘ta insoniy muammolar, oxirgi yechimi yo‘q, chetlab bo‘lmas “ekzistensial” muammolar)ga murojaat etishi, nafaqat murojaat etishi, balki ular qarshisida tura olishi va ularni hal etishga kirishishi mumkin. Ya‘ni o‘zini o‘zi faollashtirish – bu muammolarning yo‘qligi emas, balki o‘tib ketgan yoki haqiqiy bo‘lmagan muammolardan haqiqiy muammolarga tomon harakatlanishdir.

“O‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasi insonda qaror topishi lozim bo‘lgan qandaydir “o‘zlik” mavjudligini nazarda tutadi. A.Maslou fikricha, o‘zlik inson hayoti mazmunini tashkil etuvchi shaxsiy mohiyat va qadriyatlar bilan ifodalanadi. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, shaxsning mohiyati va qadriyatlari turmushning u yoki bu tashqi ijtimoiy baholari bilan to‘siladi. Kelgusida kishi tomonidan assimilyasiyalanuvchi o‘zgalar bahosi uning shaxsiy fikriga soya soladi va uni o‘zini o‘zi faollashtirish yo‘lidan chetga uloqtiradi. Shu sababli o‘zini o‘zi faollashtirishga eng birinchi qadam insonning o‘zgalarga emas, balki o‘z bahosi va fikrlariga ishonishga, “o‘z o‘zligining ichki ovozigaga quloq tutish”ga qobilligi hisoblanadi.

O‘zini o‘zi faollashtirish inson nimani so‘zlayotgani va qanday yo‘l tutayotgani uchun mas‘uliyatni nazarda tutadi. A.Maslou ta‘kidlaydiki, faoliyat natijalari (oqibati) uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish o‘zini o‘zi faollashtirishning muhim sharti hisoblanadi. “Har safar mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, inson o‘z-o‘zini qaror toptiradi” [2]. A.Maslou ta‘kidlaydiki, o‘zini o‘zi faollashtirishni anglangan xatti-harakatlar maqsadiga aylantirish mumkin emas.

Metodlar. O‘quv faoliyatida talabalar o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlarini aniqlash maqsadida A.V.Lazukinning “Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish” (N.F.Kalina moslashuvida) metodikasi o‘tkazildi. Mazkur metodika bo‘yicha past ko‘rsatkichlarni qayd etgan sinaluvchilar bilan o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan trening dasturi asosida mashqlar o‘tkazildi.

Natijalar. Olib borilgan korreksion ishlar yakunida ushbu metodikada past ko‘rsatkichlarni qayd etgan talabalarda qayta diagnostika ishlari amalga oshirildi hamda uning natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilinib, quyidagi jadval shaklida aks ettirildi:

Tajriba guruhida o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan trening dasturi o‘tkazilganidan so‘ng, qayta diagnostika natijalarida tajriba va nazorat guruhlaridagi sinaluvchilarning ko‘rsatkichlari ortganligi kuzatildi.

Metodika natijalariga ko‘ra, birinchi shkala “Vaqtini mo‘ljalga olish” bo‘yicha nazorat guruhida dastlab $M_1=16,4$, keyin esa $M_2=17,2$ ko‘rsatkichi aniqlangan bo‘lsa, tajriba guruhida esa trening mashg‘ulotidan oldin $M_1=15,3$, treningdan keyin $M_1=18,4$ ko‘rsatkichi qayd etildi. Ushbu natija tajriba guruhidagi sinaluvchilarning vaqtini mo‘ljalga olish bo‘yicha qarashlari biroz o‘zgarganligini bildiradi. Ularda hozirgi vaqti bilan yashash hamda o‘tmish xotiralaridan uzoqlashib, “shu yerda va hozir” yashashga moslashish holatlari kuzatildi.

1-jadval.

Shakllantiruvchi eksperiment ta’sirida o’quv faoliyatida talabalarning o’zini o’zi faollashtirish xususiyatlarining rivojlanish ko’rsatkichlari

Sinaluvchilar guruhlari	O’zini o’zi faollashtirish xususiyatlari	Treningdan oldingi ko’rsatkichlar		Treningdan keyingi ko’rsatkichlar		Tafovut-ning statistik ahamiyati (t-mezoni bo’yicha)
		M ₁	S ² ₁	M ₂	S ² ₂	
Tajriba guruhi	Vaqtni mo’ljalga olish	15,3	8,2	18,4	3,9	P≤0,05
	Qadriyatlar	18,2	13,9	21,5	11,6	P≤0,05
	Inson tabiatiga nazar	15,7	9,1	18,6	6,3	P≤0,05
	Bilish ehtiyojlari	21,9	15,7	25,6	12,2	P≤0,05
	Ijodkorlikka intilish	8,7	3,4	10,1	1,9	P≤0,05
	Avtonomlik	1,9	0,09	3,2	0,05	P≤0,05
	Spontanlik	1,8	0,1	2,7	0,08	P≤0,05
	O’z-o’zini tushunish	15,1	8,4	17,6	4,1	P≤0,05
	Autosimpatiya	1,9	0,2	3,1	0,09	P≤0,05
	Aloqa o’rnatish	3,4	1,5	5,9	0,3	P≤0,05
Muloqotdagi egiluvchanlik	6,8	2,9	8,8	1,1	P≤0,05	
Nazorat guruhi	Vaqtni mo’ljalga olish	16,4	8,7	17,2	3,7	P>0,05
	Qadriyatlar	18,9	14,0	20,4	10,3	P>0,05
	Inson tabiatiga nazar	16,3	9,2	17,5	6,9	P>0,05
	Bilish ehtiyojlari	23,7	16,8	25,8	12,4	P>0,05
	Ijodkorlikka intilish	9,3	4,2	10,7	2,1	P>0,05
	Avtonomlik	2,1	1,2	3,9	0,3	P>0,05
	Spontanlik	2,0	1,1	3,6	0,9	P>0,05
	O’z-o’zini tushunish	16,3	9,2	17,8	4,7	P>0,05
	Autosimpatiya	2,2	1,3	3,6	0,5	P>0,05
	Aloqa o’rnatish	4,5	2,2	6,4	1,7	P>0,05
Muloqotdagi egiluvchanlik	7,1	3,3	9,7	1,9	P>0,05	

Nazorat guruhida M₁=18,9, M₂=20,4, tajriba guruhida esa M₁=18,2 va M₂=21,5 ko’rsatkichi ikkinchi shkala – “Qadriyatlar”da qayd etildi. Olib borilgan trening mashg’ulotlari natijasida tajriba guruhida ijobiy o’zgarishlarga, ya’ni sinaluvchilarning o’z qadriyatlarini to’la anglay olishiga hamda bu qadriyatlar o’zlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etishini tushunishiga katta ta’sir ko’rsatdi. Shu bilan bir qatorda, ularning odamlar bilan uyg’un bo’lishiga va sog’lom munosabatlarga bo’lgan intilishining ortishiga sabab bo’ldi.

“Inson tabiatiga nazar” shkalasi bo’yicha nazorat guruhida M₁=16,3, M₂=17,5, tajriba guruhida esa M₁=15,7 va M₂=18,6 ko’rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda ushbu shkala bo’yicha nazorat guruhiga qaraganda yuqori ko’rsatkichlar namoyon bo’ldi. Bu esa ularda o’z qobiliyati imkoniyatlarining kuchiga ishonishiga, shaxslararo munosabatlarda samimiy, faol va kirishuvchan bo’lishiga ta’sir ko’rsatganligini anglatadi.

Nazorat guruhida M₁=23,7 va M₂=25,8, tajriba guruhida M₁=21,9 va M₂=25,6 ko’rsatkichlari “Bilish ehtiyojlari” shkalasi bo’yicha qayd qilindi. Tajriba guruhidagi ishtirokchilarda yangilikka intilish hamda o’z talab va qiziqishlarining mohiyatini yetarli darajada anglay olish kabi xususiyatlarining rivojlanganligi namoyon bo’ldi.

Beshinchi shkala, ya’ni “Ijodkorlikka intilish”da M₁=9,3 va M₂=10,7 ko’rsatkichi nazorat guruhida aniqlangan bo’lsa, tajriba guruhida esa M₁=8,7 va M₂=10,1 ko’rsatkichi qayd qilindi. Mazkur shkalada boshqa shkalalarga qaraganda yuqoriroq natijalar kuzatilib, o’tkazilgan mashg’ulotlar tajriba guruhidagi sinaluvchilarda hayotda o’z ustida ishlash, yangilikka intilish, doimiy ravishda o’zgacha narsalarni yaratishga moyil bo’lish kabi xususiyatlarning rivojlanishiga sabab bo’ldi.

“Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha nazorat guruhi a‘zolari $M_1=2,1$ va $M_2=3,9$ natijalarni ko‘rsatishdi, tajriba guruhida esa bu ko‘rsatkich $M_1=1,9$ va $M_2=3,2$ ni tashkil etdi. Ushbu shkala bo‘yicha tajriba guruhidagi sinaluvchilarda muayyan o‘zgarishlar kuzatildi, ya‘ni ularda mustaqillikka intilish hamda mustaqil fikr yuritish kabi xususiyatlarning biroz ortganligi aniqlandi. Bundan tashqari ularning o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlash xususiyatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar namoyon bo‘ldi.

Yettinchi shkala, ya‘ni “Spontanlik”da $M_1=2,0$ va $M_2=3,6$ ko‘rsatkichi nazorat guruhida, $M_1=1,8$ va $M_2=2,7$ ko‘rsatkichi esa tajriba guruhida qayd etildi. Ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan tajriba guruhidagi sinaluvchilar hayotda o‘ziga nisbatan ishonchi ortib, o‘z maqsadlariga yetishda faqatgina xayolga tayanib qolmasdan, real holatda intilish lozimligini anglab yetishdi. Shu bilan bir qatorda, ularda erkinlik, tabiiylik va o‘yin o‘ynash kabi qadriyatlarining rivojlanganligi kuzatildi.

“O‘z-o‘zini tushunish” shkalasi bo‘yicha $M_1=16,3$ va $M_2=17,8$ ko‘rsatkichi nazorat guruhida, tajriba guruhida esa $M_1=15,1$ va $M_2=17,6$ ko‘rsatkichi aniqlandi. Olib borilgan korresion ishlar tajriba guruhidagi sinaluvchilarda o‘z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini va istaklarini yaxshiroq tushunishiga yordam berdi. Bundan tashqari, ularda hissiyotlilik, o‘z istak va ehtiyojlariga nisbatan sezgirlik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ldi.

To‘qqizinchi shkala – “Autosimpatiya” natijalari bo‘yicha nazorat guruhida $M_1=2,2$ va $M_2=3,6$, tajriba guruhida esa $M_1=1,9$ va $M_2=3,1$ ko‘rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ijobiy munosabati biroz ortib, ular o‘zlariga adekvat baho berishlari kuzatildi. Shuningdek, o‘z imkoniyatlaridan xavotirlanish hissi nisbatan kamaydi va o‘ziga bo‘lgan hurmat hissi biroz rivojlandi.

Nazorat guruhida “Aloqa o‘rnatish” shkalasi bo‘yicha $M_1=4,5$ va $M_2=6,4$, tajriba guruhida esa mazkur shkala bo‘yicha $M_1=3,4$ va $M_2=5,9$ ko‘rsatkichi aniqlandi. Mazkur shkala bo‘yicha tajriba guruhidagi sinaluvchilarda hayotda o‘zgalar bilan muloqot qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalari muayyan darjada rivojlandi. Shu bilan bir qatorda, ulardagi boshqalar bilan uyg‘un, kuchli va xayrli munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari ortganligi kuzatiladi.

Metodikaning so‘nggi shkalasi, ya‘ni “Muloqotdagi egiluvchanlik” natijalari bo‘yicha nazorat guruhida $M_1=7,1$ va $M_2=9,7$, tajriba guruhida $M_1=6,8$ va $M_2=8,8$ ko‘rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarning o‘zgalar bilan munosabatga kirishishidagi egiluvchanlik xususiyatlari ortib, yangi sharoitlarga moslashib keta olish ko‘nikmalari rivojlandi. Shu bilan bir qatorda, ularda o‘zgalar bilan muloqot jarayonida o‘z fikrlarini yetarli darajada ifoda qilish qobiliyatining namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Xulosa. O‘tkazilgan qayta diagnostika natijalariga tayanib, shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, o‘zini o‘zi faollashtirish darajasi past bo‘lgan insonlar bilan mazkur xususiyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish orqali shaxsdagi o‘zini o‘zi faollashtirish, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, layoqat va qobiliyatlarini takomillashtirish darajasini oshirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. /А.Н Леонтьев. – М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Маслоу А. Мотивация и личность. – М., 1954. – электронный ресурс сайта http://www.koob.ru/age_psychology/.
3. Олпорт Г. Становление личности: избранные труды/Г. Олпорт. – М: Смысл, 2002. - 464 с
4. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека/ К. Роджерс- М.: Прогресс, 1998. – 480 с.
5. Хьелл Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с.

Raxmanova Dilnoza Farmanovna,

Renessans ta'lim universiteti Pedagogika va filologiya kafedrasida o'qituvchisi

INSPEKTOR-PSIXOLOG FAOLIYATI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK MANBALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inspektor-psixolog faoliyatida kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, inspektor-psixolog ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, inspektor-psixologdagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; inspektor-psixologning sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning ijtimoiy-huquqiy tizim bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inspektor-psixolog, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ИНСПЕКТОРА-ПСИХОЛОГА

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов компетентности в деятельности инспектора психолога и совершенствование его конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компонентов судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности инспектора-психолога выявляется их связь с социально-правовой системой.

Ключевые слова: инспектор-психолог, социально-психологическая компетентность, психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

METHODOLOGICAL SOURCES FOR INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF INSPECTOR-PSYCHOLOGIST

Abstract. This article discusses the study of the manifestation and development of factors of competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of the socio-psychological competence of the inspector-psychologist, their connection with the socio-legal system is revealed.

Keywords: inspector-psychologist, socio-psychological competence, psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish. Bir qancha chet el va mahalliy psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, xodim kasbiy kompetentligining turlicha xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda ochib berilgan kasbiy kompetentlik metodologiyasiga oid pedagogik psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon va respublikamizdagi ko'pgina psixologiya maktablarida inson omilini tahlil qilish, ularni kasbiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan kamol toptirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chet el va mahalliy pedagogik-psixologik adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta'riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so'zining lug'aviy ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «competo» «erishayapman, munosibman» degan ma'nolarni anglatadi, hamda ma'lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo'ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma'lum bir tizim bo'yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog'lanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nazariy manbalarning tahliliga ko'ra qo'riqlash xizmati xodimlarining «kompetensiya» va «kompetentligi» bo'yicha aniq talqin juda kam uchraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o'rganishda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

«Kompetentlik» tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo'llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko'ra ko'proq bog'liqligini bildiradi.

Deyarli barcha lug'atlarda «kompetentlik» va «kompetensiya» muammolari alohida bir kategoriya sifatida o'rganiladi. Kompetentlik ta'riflari bir-biriga juda o'xshash va bir-birini takrorlaydi, «kompetentlik» uchun yagona talqin bo'lmasa-da, bu konsepsiya «har qanday tashkilot yoki mutaxassisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig'indisi» deb talqin qilinadi. Shunday qilib, «kompetensiya» – bu «kompetentlik» so'zidan olingan termin bo'lib, insonning bilim, ko'nikma va malakalarni to'g'ri anglay olishiga, «kompetentlik» esa semantik tomondan birlamchi yo'nalish bo'lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma'lum bir tajribalari «jamlanmasi» ni bildiradi [4].

I.A.Zimnyaya «kompetentlik»ni uch guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekt sifatida qarashligi;

- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;

- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi[4].

Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kasbiy mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan (E.F.Zeer, A.K.Markova va boshqalar).

Shaxsning professional kompetentlik muammosi bo'yicha K.K.Platonova, N.S.Ribakov tadqiqotlarida mutaxassislarning kasbiy faoliyati bo'yicha o'zini-o'zi anglaganligi, kasbiy yutuqlari, o'z kasbining ustasi ekanligi, kasbiy malaka kabi asosiy psixologik kategoriyalarning mazmunini anglashga yordam beradi. Ushbu yo'nalish doirasida professional yondashuv usullari ham takomillashtirilgan.

Yana bir yo'nalish vakillari asarlarida (B.G.Ananyev, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlarida individual-psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlarini bevosita o'rganilgan.

Kasbiy mahorat yo'nalishi doirasida kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish, malaka oshirish, kasbiy kompetentlik, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari o'rganiladi (A.K.Markova [4]).

Navbatdagi yo'nalish - akmeologik bo'lib, kasbiy mahoratni rivojlantirishning akmeologik muntazamlik va determinantlarini o'rganishga va yetuk shaxsning rivojlanishini belgilaydigan qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan (A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina va boshqalar).

L.A.Petrovskaya birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab chiqdi.

«Kasbiy kompetentlik» tushunchasi ko'plab psixolog olimlar (B.S.Gershunskiy, E.F.Zeer, Yu.V.Kainova, V.A.Kalney, B.N.Komissarov, J.K.Latishev, N.V Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin va hokazo) o'z ilmiy ishlarida tahlil qilishgan.

E.F.Zeer «Professional kompetentlikni» shaxsining ma'lum bir xususiyatlari integratsiyasi, ya'ni kasbiy faoliyatning ma'lum bir turini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar iyerarxiyasi» deb ta'kidlaydi [5].

Shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish ijtimoiy kontekstining muvofiqligi muammosi kasbiy sifatlarini tadqiq qiluvchi jahon olimlarining ishlarida ham o'z aksini topgan.

L.B.Shneyder asos solgan kasbiy sifatlarini tadqiq qilishning zamonaviy yo'nalishida ushbu fenomen kasbiy o'zini-o'zi anglash sifatida ko'rib chiqiladi, bunda shaxs o'zini muayyan bir kasb va mehnat jamoasining vakili sifatida angelaydi, o'z «Men»ini kognitiv, emotsional xulq-atvor jihatdan tavsiflashda o'zini va boshqalardan farqli ekanligini aniqlaydi. Kasbiy sifatlarini tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni tuzilmaviylik va tizimlilik tamoyili, sifatarning genetik o'zaro bog'liqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni o'zlashtirish va amalga oshirish jarayonida sifatarning shakllanishini tadqiq qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining an'anaviy va konseptual metodologik bazasi

bo'lib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenez, shaxsning kasbiy shakllanishi, mehnat faoliyati va boshqalar.

Kasbiy sifatlarning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, yo'nalishlar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshiluvchi shaxsning motivatsion sohasining boshqa tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Kasbiy sifatlarga erishish uchun shaxs faolligini ta'minlovchi zaruriy bilim va qobiliyatlarga ega bo'lish lozim [6].

Y.N.Kiryanova kasbiy sifatlarni o'zgaruvchan kasbiy sharoitlarda ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasi va keyinchalik kasbiy o'sish bilan shartlangan, muayyan bir bosqichda subyektning kasbiy mahorat darajasiga erishishni ta'minlovchi individual belgi, kasbiy shartlar va kasb mazmunining barqaror muvofiqligi sifatida tavsiflaydi [4]. U tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy sifatlarning integral xarakterga ega va mutaxassislarining kasbiy faoliyatga moslashishlarining universal asosi hisoblanadi. Bu sifatlarning juda ko'p tarkibiy qismlarga ega ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Kasbiy mahoratning yuqori darajasi bilan bir qatorda yangi sharoitdagi ish joyida ko'nikma va malakalarni qo'llash qobiliyati tarkibiga kommunikativ qobiliyatlar, emotsional-irodaviy sohaning shakllanganligi, faollik, sobitqadamlik, keskinlik, stressga barqarorlik, qolaversa, mehnat jamoasining axloqiy me'yorlariga amal qilishi kiradi.

L.V.Mishenko ishlarida kasbiy sifatlarning kasbiy faoliyat kontekstiga nisbatan ko'rib chiqiladi. Uning fikricha, subyekt ijtimoiy muhit bilan kasbiy o'zaro ta'sirga kirishib, uning o'z-o'ziga nisbatan hurmati oshadi. Muallif kasblar olamiga yo'naltirishni ta'minlovchi shaxs xarakterlariga, faoliyatda shaxs potentsialining to'la namoyon bo'lish shartiga, qolaversa, kasb tanlashning mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga alohida e'tibor qaratadi. Kasbiy sifatlarning insonning o'z kasbini bilishi, o'zini mutaxassis sifatida qabul qilishi, kasbiy vazifalarini a'lo darajada va boshqalar uchun foydali tarzda amalga oshirishi bilan belgilanadi [6].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kasbiy sifatlarning – ijtimoiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish mahsulidir. Bu professiogenez konsepsiyasining muallifi Ye.P.Yermolayeva hisoblanadi. Muallif kasbiy sifatlarning faqatgina kasbni yuqori darajadagi mahorat bilan boshqarish orqali shakllanadi va faoliyat jarayonining asosiy elementlarini barqaror muvofiqligi sifatida namoyon bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Kasbni egallash bosqichi va shunga muvofiq kasbiy sifatlarning darajasini tahlil qilish subyektning o'zi bilan kasbni identifikatsiya qilish darajasi kasbiy sifatlarning funksiyasini amalga oshirish imkonini aniqlashi mumkinligini ko'rsatdi. Kasbiy sifatlarning muvofiqlashtiruvchi va qayta tashkil qiluvchi funksiyalarini boshqaradi, ijro etadi: bu funksiyalarning o'zaro muvofiqligi kasbiy o'zini-o'zi anglashga olib keladi va kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. Kasbiy sifatlarning muvofiqlashtiruvchi funksiyasi kasbiy sentrizm va barqaror kasbiy-mintaqaviy pozitsiyaning zaruriy darajasini ta'minlash bilan belgilanib, u quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi: konstantlik (o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati), moslashuvchanlik (noadekvat kasbiy stereotiplarni yengib o'tishga qodirlik), distantlik (ish joyi haqidagi semantik, informatsion, madaniy tasavvurlarga ega bo'lish). Qayta tashkil qiluvchi funksiya kasbiy pozitsiyani rivojlantirish va o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular:

- kasbiy sifatlarning va shaxsning kasb bilan identifikatsiyasi diapazonining o'zgarishiga;
- o'z kasbini boshqa kasblardan ajratish;
- kasbiy sifatlarning tizimidagi tartiblilik yoki «tarqoqlik». Professiogenez negizida qayta quruvchi, muvofiqlashtiruvchi va amalga oshiruvchi tarkibiy qismlarning davriy dinamikasi yotadi.

Ushbu yondashuvda kasbiy sifatlarning shaxs komponenti, ya'ni muvaffaqiyatli kasbiy moslashishini ta'minlovchi va kompetentlik, kasbiy egiluvchanlik, ishga qiziqish va muhitga moslashishga asoslangan kasbiy kar'eradagi ustuvor omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan hayot yo'li tuzilishi (hayotiy pozitsiya, hayotiy chiziq, hayot mazmuni)ga asoslangan murakkab kasbiy sifatlarning tipologiyasi ishlab chiqildi. Muallif shaxsning kasbiy faoliyatida o'zini namoyon qilish xususiyatlariga muvofiq quyidagi kasbiy sifatlarning tipologiyasini ajratib ko'rsatadi:

- shaxsning o'z xarakteriga maksimal darajada mos bo'lgan kasbni tanlash orqali o'zligini namoyon etadi. Bu holda hayotiy tajribalarda shaxs o'zining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga sharoit yaratuvchi vaziyatlarni takrorlash bilan bog'liq.

- shaxsning kasbiy mahorat pillapoyalaridan ko'tarilish imkonini beruvchi kasb tanlanadi. Bu holatda kasbiy pozitsiyaning sifatli o'zgarishi bilan bir qatorda imkoniyatlarning ortishiga olib keluvchi harakat sodir bo'ladi. Kasbiy yuksalish negizida mehnat faoliyatining talablari va vazifalari, shu bilan bir qatorda shaxs qobiliyatlarining rivojlanishi yotadi.

- shaxs o'z ustida ishlashi hamda shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatda o'zligini namoyon qiladi. Kasb potensial holatdagi shaxs qobiliyatlarini faollashtiradi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

- shaxsning o'zligini namoyon qilishi qobiliyatga, o'zini-o'zi nazorat qilish va o'zini-o'zi tahlil qilishga hamda ijodiy faollikni rejalashtirishga asoslaniladi: bu holatda shaxs kasbiy o'sish va rivojlanishga, qolaversa, shaxsiy qobiliyatlarini amalga oshirish maqsadida mehnat sharoitini qayta qurishga qodir bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, kasbiy sifatlarni o'rganishning qiyin tomoni, birinchidan, u shaxsning aynan o'ziga, ikkinchidan, esa muayyan bir guruh a'zolariga tegishlidir. Muayyan bir ijtimoiy kategoriyalarga shaxsiy dahldorlikni idrok qilishning identifikatsiya jarayoni shunga muvofiq qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan hamohang tarzda kechadi. Kasbiy shakllanish jarayonida subyekt o'zini o'z kasbi vakili, u yoki bu kasbiy sifat sohibi, yohud muayyan bir taraqqiyot bosqichidagi mutaxassis sifatida identifikatsiyalaydi. Shuning uchun ham «shaxsiy-ijtimoiy» tizimdagi kasbiy sifatlar baribir ijtimoiylikka va ijtimoiy xususiyatlarga ega.

Natijalar. Tadqiqotimiz davomidagi navbatdagi metodika E.D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi bo'lib, bunda biz asosan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog kasbiy kompetentligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar hisoblangan o'zini va boshqalarni emotsiyasini tushunish, o'z-o'zini va boshqalarning emotsiyasini boshqarish kabi darajalarining namoyon bo'lishini baholadik. Ushbu usul orqali qo'lga kiritilgan empirik natijalarda quyidagi ko'rsatkichlarni qayd qildi (1-jadval).

1-jadval.

D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi orqali qo'lga kiritilgan dastlabki empirik natijalar (n=260)

Shkala va subshkala	Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar				Statistik farq p
	Ayollarda N=70		Erkaklarda N=190		
	M	σ	M	σ	
Shaxslararo emotsional intellekt	44,1	6,97	42,9	6,72	0,053*
Ichki emotsional intellekt	46,1	8,00	42,2	8,24	- 0,001
Emotsiyalarni tushunish	44,3	6,91	43,1	7,13	0,045**
Emotsiyalarni boshqarish	45,8	7,94	42,0	7,62	- 0,001
Boshqalarni emotsiyasini tushunish	24,5	4,45	24,01	4,01	0,342
Boshqalarni emotsiyasini boshqarish	19,6	3,81	18,8	3,80	0,016
O'zini emotsiyasini tushunish	19,8	4,07	18,1	4,39	0,018
O'zini emotsiyasini boshqarish	14,1	3,05	12,4	3,01	0,001
Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati	9,1	3,12	12,7	3,18	- 0,001

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,*-p<0,001.**

M – o'rtacha qiymat

σ – Standard xatolik

p – ahamiyatlilik darajasi

Yuqoridagi 1-jadvalda biz D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi orqali sinflar kesimida o'rtacha dispersiya bo'yicha tahlil qildik va quyidagicha qiziqarli empirik natijalarni qo'lga kiritdik. Mazkur holatda biz respondentlarni 2 guruhga, ya'ni, ayol xodimlar va erkak xodimlarga ajratdik. Dispersion tahlil natijalariga ko'ra ular orasida “Ichki emotsional intellekt” (46,1 va 42,2 < 0,001) shkalasi bo'yicha sezilarli farqlar kuzatildi. Bundan tashqari “Emotsiyalarni boshqarish” (45,8 va 42,0 < 0,001) hamda “Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati” (12,1 va 9,07 < 0,001) mezonlarida ham farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Olingan tahlil natijalari asosida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayol xodimlarida “Ichki emotsional intellekt” hamda “Emotsiyalarni boshqarish” va erkak xodimlarga qaraganda yaxshi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holatni ayollarda shaxslararo munosabatlarda emotsional intellektning tayanch mezonlarini yaqqol namoyon bo'lishi, ya'ni erkaklarga nisbatan shaxslararo munosabatda samimiylilik, ijtimoiy talablarga erkin moslashish, empatik, ichki emotsiyalarini yashirmaslik, o'z emotsiyalarini boshqarishga urinish kabi jihatlarni ustuvorlik qilishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnikaning samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi v bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlik inspektor-psixologning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalari majmui sifatida sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

2. Inspektor-psixologning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

3. Inspektor-psixologning u yoki bu insonlar bilan o‘zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

4. Inspektor-psixologlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o‘ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog‘liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

5. Inspektor-psixolog ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kasbiy kompetentlik omillariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi kasbiy faoliyatni yuqori samaradorlik asosida tashkil qilish va uni o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, inspektor-psixolog ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida inspektor-psixolog kasbiy kompetentligini ta‘minlovchi sohaga tegishli bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar bo‘yicha savodxonligi, shuningdek, psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

Adabiyotlar:

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A.H., Sharipov P.A. Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. Between Parent and Children. – N.Y., 2003. P – 219.
4. Дубровина И.В. Практическая психология в образовании. – М.: Педагогика, 1998.
5. Дубровина И.В. Я работаю психологом. – М., 2001.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. – B.747.
7. Qurbonova Z.T., To‘lyaganova Sh.T., Abdiyev S. Psixodiagnostika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
8. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Qarshiyeva D.S., Atabaeva N.B. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
9. Под ред. А.А. Александров. Психодиагностика и психокоррекция. – Сб.: Питер, 2008.



Raxmatova Nodira Imamovna,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
n.i.raxmatova@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish masalasining zamonaviy talqini keltirilgan. Shuningdek, maqolada kreativ fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi qator psixologik xususiyatlar sanab o'tilgan va qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar kreativligi, psixologik ta'sir, kreativ fikrlash, psixologik xususiyat.

ЗНАЧЕНИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье представлена современная трактовка вопроса формирования креативного мышления у будущих учителей начальных классов. Также в статье перечислен ряд психологических особенностей, определяющих формирование творческого мышления, проведён сравнительный анализ.

Ключевые слова: начальный класс, креативность учащихся, психологическое воздействие, креативное мышление, психологическая характеристика.

THE IMPORTANCE OF CREATIVE THINKING IN THE TRAINING OF FUTURE PRIMARY TEACHERS

Abstract. This article presents a modern interpretation of the issue of the formation of creative thinking in future primary school teachers. Also, the article lists a number of psychological features that interpret the formation of creative thinking, and a comparative analysis is carried out.

Keywords: elementary grade, student creativity, psychological impact, creative thinking, psychological trait.

Kirish. Ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, asosli xulosa chiqara olish har bir o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri. Bu vazifalarni amalga oshirishda qiziqarli topshiriq, mantiqiy va nostandart masalalarning o'rni katta. Agar talabalarning yosh xususiyatiga moslab mantiqiy masalalar berilsa, ularda ijodkorlik, hayotiylik, maqsadga intilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Agar masalada gap borayotgan fikr yoki mulohaza chuqur mushohada qilinsa, o'quvchi masala yechimini to'g'ri aniqlaydi. Ya'ni u masalada fikri yuritilayotgan predmet hayotda qayerda ishlatiladi, qanday ishlaydi, qanaqa foyda va zarari bor hamda qanday tuzilganligini bilib, ular ustida erkin fikrlay olishi kerak. Oddiy ko'ringan bunday masalalar yechimi hech qachon birdaniga aniqlab bo'lmaydi. U o'zida sirli jumboqni yashiradi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o'zgartirishlar kiritildi. Bunga sabab bo'lgan eng katta omil shunda ediki, bizning milliy o'quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko'zga ko'ringan ta'lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Asosiy qism. Talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bo'glangan bo'ladi. Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biri. Mantiqiy masalalarni yechish o'quvchilarda uzviy ravishda mustaqillikni o'stirish bilan birga o'qitish jarayonida qiziqishlarini oshiradi. Bunda tavsiya etilayotgan savol va topshiriqlar talabalardan ma'lum darajada izlanish talab qilsa-da, u bola kuchi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Matematik mashg'ulotlarda bunday topshiriqlarni tanlash katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlar o'quvchilardan mustaqil kuzatishlar o'tkazishni, qaralayotgan hodisalar narsalar va shu kabilarni taqqoslash, solishtirishni talab qiladi.

Kreativ fikrlash – bu fikrlashning bir turi bo‘lib, uning mohiyati mantiq qonunlariga asoslangan tushunchalar, xulosalar, ularni solishtirish va muammoni o‘ziga xos harakatlar bilan taqqoslashdan iborat jarayondir. Misol uchun, bola atrof-muhitga qarab, ko‘rishni, taxmin qilishni o‘zida rivojlantiradi.

Hozirga qadar, fanda kreativ fikrlash masalalariga doir o‘ziga xos nazariy asoslar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati pedagogik -psixologik mazmundagi tadqiqotlar sanaladi. Mazkur tadqiqotlar turkumiga pedagog olimlardan A.Y.Komenskiy, I.A.Galkina, P.G.Lubochnikov, N.S.Omelchenko, A.Z.Zak, Y.M.Kolyagin, L.M.Lixtarnikov, L.G.Peterson, D.Poya, G.I.Saranshev, L.M. Fridmanlarning ilmiy izlanishlari tan olinsa, psixolog tadqiqotchilardan esa, L.S. Vigotskiy, P.Y. Galperin, V.V.Davidov, L.V.Zankov, N.B.Istomina, R.S.Nemov, L.Y.Ogerchuk, N.F.Talizina, O.K.Tixomirov, Y.N. Kulyutkina, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkina kabilarning izlanishlari ko‘proq e‘tirof etiladi. Shuning uchun ham, aksariyat tadqiqotlarda “kreativ fikrlash” muammosi, ikkala fan uchun muhim sanalgan yondashuvlar tizimida keng tadqiq etiladi.

Ta‘lim tizimini boshqaruvchi organlar ta‘lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta‘lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta‘lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta‘lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma‘noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik–shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”

Emebaylning yondashuvi nuqtayi nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydilar

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan‘anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e‘tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma‘noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”.

Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Mashhur rus psixologi S.L.Rubinshteyn ta’kidlagandek: “Inson tafakkur qilish orqali vaziyatlarni taqqoslaydi, o‘zaro munosabatlarni farqlaydi, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni anglaydi va shu orqali atrof-muhit hodisalarining mohiyatini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘ladi [1]. Demak, fikrlash jarayoni uzluksizdir. U inson muammoga duch kelganda, ilgari duch kelmagan vazifa shug‘ullanganda yuzaga keldi. Y.V.Evanovanning yozishicha, inson vazifalarni hal qilishda yetarlicha tajribaga ega bo‘lmasa, ilgari qo‘llanilgan vositalar va usullar yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun mos bo‘lmasa, avvalgilariga o‘xshamaydigan boshqa usullarni izlash, qo‘llash kerakligini tushunib yetadi [2]. Mazkur yondashuvga muvofiq, tajriba, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar kreativ fikrlashni ta’minlovchi shartlardan biridir.

Tadqiqotchi J.Dyuiga ko‘ra, xulosaga olib keladigan har qanday fikrlash jarayoni - mantiqiydir. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, xulosa bu shunchaki jarayon emas, xulosaga kelish uchun tushuncha aniqlanadi, uning xususiyatlari va o‘ziga xosliklari hukm asosida tasdiqlanadi va nihoyat xulosaga kelinadi [3]. Ushbu yondashuvga muvofiq, kreativ fikrlash - bu ongli ravishda ishlab chiqilgan va uning yordami bilan amalga oshiriladigan qoida va qonunlarga muvofiq tushunchalar, hukmlar va xulosalar ko‘rinishidagi fikrlash shaklidir. Boshqalar qatorida, P.G.Lyubochnikov ham kreativ fikrlashni mantiqiy qonunlarga asoslangan tushunchalar, mulohazalar, xulosalar sifatida ta’riflaydi.[4] Ya’ni qayta ishlash, solishtirish va ularni harakatlar bilan bog‘lash yoki sabab qonuniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy jarayonlar mantiqiy, ishonchli harakatlar yoki fikrlash operatsiyalari majmui sifatida tan olinadi.

Xuddi shunday ta’riflashni M.Y.Oleshkov va V.M.Varovlar tomonidan chop etilgan “Zamonaviy ta’lim jarayoni: asosiy tushunchalar va atamalar” nomli lug‘at kitobida uchratish mumkin. Mualliflarning ta’rifiga ko‘ra, mantiqiy tafakkur fikrlashning bir turi bo‘lib, u tushunchalar, mulohazalar va xulosalar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi va u faqat odamlarga xos bo‘lgan eng qiyin bilish jarayoni sanaladi. Kreativ fikrlash yoshlikdan asta-sekin rivojlanadi. Muammoni yechishda har bir inson, mulohazalar yordamida predmet yoki hodisa haqidagi ma’lumotlarga asoslanib xulosa qiladi. Shuningdek, muallif muammoni hal qilish yo‘lini to‘rt bosqichga ajratdi [5]:

1. Qiyinchilik, qarama-qarshilik, savol yoki muammoning paydo bo‘lishi;
2. Muammoni hal qilish uchun faraz, taklif yoki loyiha yaratish;
3. Muammoning yechimini amalga oshirish;
4. Qarorning muvaffaqiyatini tajriba orqali tekshirib ko‘rish, keyin esa, uni baholash va hokazo.

1-jadval.


Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi darajasi so‘rovnomasining pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan oldin va keyingi natijalari

Shkalalar	Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan oldin			Pedagogik texnologiyalarni qo‘llagandan so‘ng		
	Guruh	M	t-statistika ($p \leq 0,05$); ($p \leq 0,01$)	Guruh	M	t-statistika ($p \leq 0,05$); ($p \leq 0,01$)
Eksternal lokus nazorat	Yuqori bosqich talabalar	14	0,005*	Yuqori bosqich talabalar	12	0,09
	Quyi bosqich talabalar	17		Quyi bosqich talabalar	14	
Internal lokus nazorat	Yuqori bosqich talabalar	15	0,004*	Yuqori bosqich talabalar	22	0,003**
	Quyi bosqich talabalar	10		Quyi bosqich talabalar	16	
Tafakkur tezligi	Yuqori bosqich talabalar	17	0,004*	Yuqori bosqich talabalar	24	0,005*
	Quyi bosqich talabalar	12		Quyi bosqich talabalar	19	
Tafakkur egiluvchanligi	Yuqori bosqich talabalar	14	0,13	Yuqori bosqich talabalar	21	0,15
	Quyi bosqich talabalar	11		Quyi bosqich talabalar	18	

Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi darajasi so‘rovnomasining pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan oldin va keyingi natijalari eksternal lokus nazorat shkalasi bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qadar $\mu=14-17$ bo‘lib, ushbu shkala bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni qo‘llagandan so‘ng o‘zgarishlar $\mu=12-14$ ni tashkil qilgan. Internal lokus nazorat shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar pedagogik

texnologiyalarni qo'llashga qadar $\mu=15-10$ bo'lib, ushbu shkala bo'yicha pedagogik texnologiyalarni qo'llagandan so'ng o'zgarishlar $\mu=22-16$ ni ko'rsatdi. Tafakkur tezligi shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qadar $\mu=17-12$ bo'lib, ushbu shkala bo'yicha pedagogik texnologiyalarni qo'llagandan so'ng o'zgarishlar $\mu=24-19$ ni tashkil qilgan.

Tafakkur egiluvchanligi shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qadar $\mu=14-11$ bo'lib, ushbu shkala bo'yicha pedagogik texnologiyalarni qo'llagandan so'ng o'zgarishlar $\mu=21-18$ ni keltirib chiqargan.



1-rasm. Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi darajasi so'rovnomasining pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan oldin va keyingi natijalari

Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi darajasi so'rovnomasining pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan oldin va keyingi natijalari pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy o'zgarishlarga erishilgan. Shu boisdan, hozirda ta'lim, fan va innovatsiyalarga munosabatni o'zgartirish juda muhimdir. XXI asrda faqat ziyoli xalq minbarlarda ko'rinadi. Ana shunday an'analarga tayanib, muttasil takomillashib borsa, millat birligi porlaydi, millat ruhi mustahkamlanadi, ilmi yoshlar yuksak marralarni zabt eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu – bolalarga xulosalar chiqarish, o'z mulohazalarini asoslashga va vaziyatlarga to'g'ri baho berishga, o'zaro aloqadorliklarni taqqoslashga o'rgatishdan iboratdir. Shuningdek, kreativ fikrlash orqali kasbiy faoliyatning asosiy muammolari ham birgalikda hal qilib boriladi.

Adabiyotlar:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: учебное пособие / С.Л. Рубинштейн. – Санкт-Петербург : Питер, 2007. – С.324.
2. Иванова Е.В. Развитие логического мышления младших школьников на уроках математики /Е.В. Иванова // Начальная школа + До и после. - 2006. – №6 – С.59 - 60.
3. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления (Как мы мыслим): перевод с англ. Н.М. Никольский. - М.: Лабиринт, 1999. – С.66.
4. Лубочников П. Г. Развитие образно-логического мышления субъекта в процессе когнитивной деятельности : монография / П. Г. Лубочников, В. С. Нургалеев. Красноярск : СибГТУ, 2006. – С.56.
5. Олешков М.Ю., Уваров В.М. Современный образовательный процесс: основные понятия и термины. – М.: Компания Спутник, 2006. – С.92.

Ro'ziyev Umar Muzafarovich,
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti

O'SPIRINLARDA IJTIMOY FOBIYA HOLATLARINING DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. Bu maqolada o'spirinlarda xavotir bezovtalik hissi va ijtimoiy fobiya ko'rinishlari va ularni oldini olish, ijtimoiy fobiya belgilari, kimlarda ko'proq kuzatilishi, ijtimoiy fobiyaning sabablari. Ijtimoiy tashvish va fobiya bilan kasallangan bolalarda yolg'iz bo'lish istagi va nazorat kuchli bolalarga nisbatan do'stlikni shakllantirish va guruhlariga qo'shilish ko'proq qiyin bo'lishi, o'spirinlarda ijtimoiy fobiyaning differensial ifodalanishiga ko'ra xulq-atvorning motivatsion omillari ustuvor xarakterga ega ekanligi, o'spirinlik davridagi ijtimoiy fobiyaning mezonlarining shaxslilik sifatlariga bog'liq ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: agorafobiya, xavotir bezovtalik, fobiya zaifliklari, xulq-atvor, somatik kasalliklar, vahima, irratsional qo'rquv, chuqur depressiya, stereotip travmatik holat.

ДИАГНОСТИКА СОСТОЯНИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ФОБИИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В этой статье рассматриваются тревожные расстройства у подростков и проявления социальной фобии и их профилактика, симптомы социальной фобии, у кого они наблюдаются чаще, причины социальной фобии. Было высказано предположение, что у детей с социальной тревожностью и фобиями желание побыть в одиночестве и контроль более затрудняют формирование дружеских отношений и присоединение к группам, чем у детей с сильной фобией, что мотивационные факторы поведения по дифференциальному выражению социальной фобии у подростков имеют приоритетный характер, что критерии социальной фобии в подростковом возрасте зависят от личностных качеств.

Ключевые слова: агорафобия, тревога, тревожность, слабости фобии, поведение, соматические расстройства, паника, иррациональный страх, глубокая депрессия, стереотипное травмирующее состояние.

DIAGNOSIS OF SOCIAL PHOBIA IN ADOLESCENTS

Abstract. This article discusses anxiety disorders in adolescents and social phobia and their prevention, symptoms of social phobia, who is more likely to have social phobia, and causes of social phobia. It was suggested that in children with social anxiety and phobia the desire to be alone and control more difficult to form friendships and join groups than in children with strong phobia, that motivational factors of behavior on the differential expression of social phobia in adolescents have a priority character, that the criteria of social phobia in adolescence depend on personality traits.

Keywords: agoraphobia, anxiety disorder, vulnerabilities phobia, behavior, somatic disorders, panic, irrational fear, deep depression, stereotyped traumatic condition.

Kirish. Jahon ilmiy tadqiqot muassasalarida va oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fobiyaning umumiy va global darajada o'rganishning ahamiyati, dunyoning aksariyat mamlakatlarida ushbu muammoning sezilarli darajada ko'payishi, uning psixodiagnostika, psixokorreksiya yagona konseptual nuqtayi nazarining yo'qligi, shuningdek, bunday toifadagi shaxslarning ijtimoiy hayotdan butunlay ajratib qo'yish xavfi va o'z joniga qasd qilish ehtimoli juda katta ekanligi tadqiqotlarda aniqlanmoqda. Ijtimoiy fobiyaning psixologik jihatdan o'rganishning dolzarbligi ushbu masala bo'yicha metodik vositalarning sezilarli darajada yetishmasligidan namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy fobiya psixologik nuqtayi nazardan qarashlar va ushbu muammo bilan bog'liq bo'lgan omillarni empirik jihatdan tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tashvish va fobiya bilan kasallangan bolalarda yolg'iz bo'lish istagi va nazorat kuchli bolalarga nisbatan do'stlikni shakllantirish va guruhlariga qo'shilish ko'proq qiyin bo'lishi mumkin, deb aytgan (Inderbitzen-Pisaruk, Klark, va Solano, 1992; La Greca, 2001; Straus va Last, 1993). Inderbitzen, Uolters va Bukovskiy (1997), shuningdek, rad etilgan va e'tiborsiz qoldirilgan bolalar mashhur, o'rtacha yoki munozarali deb tasniflangan yoshlarga qaraganda ko'proq ijtimoiy tashvish haqida xabar berganligini aniqladilar. Agressiv va itoatkor rad etilgan ikkita kichik guruh ichida, ikkinchisi ijtimoiy tashvishlarning sezilarli darajada yuqori darajasi haqida xabar berdi. Xususan, itoatkor yoshlar

orasida salbiy baho berishdan qoʻrqish tengdoshlar tomonidan rad etish bilan bogʻliq edi. Ushbu maʼlumotlar ilgari beparvo qilingan bolalar boshqa maqom guruhlari bolalariga qaraganda koʻproq ijtimoiy tashvish haqida xabar bergan topilmalarni qoʻllab-quvvatladi (La Greca, Dandes, Vik, Shou va tosh, 1988; La Greca va Tosh, 1993). Biroq, boshqalar beparvo qilingan bolalarni oʻrtacha bolalarga qaraganda past darajadagi ijtimoiy tashvish haqida xabar berishlari uchun topdilar, bu esa baʼzi beparvo qilingan bolalar tengdosh munosabatlarning yetishmasligi bilan bezovta boʻlmasligi mumkin (Krik va Ladd, 1993).

Insonning xulq-atvori oʻzgaruvchan va rang-barang boʻlib, uning individual xususiyatlari, oʻziga xos «uslublari»ning mavjudligi hech qachon va hech kimda hech qanday shubha tugʻdirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning oʻzaro muloqoti, oʻzaro munosabati, xarakter xususiyatlari, tempramental sifatleri ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Qolaversa, har bir jamiyat oʻzining qatʼiy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, anʼanalar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan psixologik tuzilmalarga asoslanib, oʻz tadqiqotimizda oʻspirinlarda ijtimoiy fobiya xususiyatlarini tadqiq qilishning ijtimoiy-psixologik mezonlari tizimini ishlab chiqildi va shu tizim asosida oʻspirinlar orasida fobiya darajalarini oʻrgandik, tahlil qildik va tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Natijalar va muhokama. Biz ushbu ishimizda oʻspirinlardagi ijtimoiy fobiya holatlarini oʻrganishda dastlab ularni ijtimoiy munosabatlarda oʻzini oʻzini boshqarish masalalariga alohida eʼtibor qaratdik. Oʻz xulq-atvorini boshqarish va individual-psixologik holatlar orasidagi oʻzaro bogʻliqlikning ochib berishga harakat qildik. Psixologiya fanida emotsional holatlarning subyekt nazoratida boʻlishi oʻz tasdigʻini topgan. Emotsional holatlarning jadal taraqqiyoti oʻz xulq-atvorini boshqarishning kuchsizligi bilan kechadi. Emotsional holatlarda oʻzini oʻzi idora qila olmaslik turli koʻrinishdagi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Y.Shpranger fikricha, (yaʼni 14-22 yoshli oʻspirinlar) bu yosh davrida yuz beradigan asosiy oʻzgarishlar:

- a) shaxsiy «Men»ni kashf qilish;
- b) refleksiyaning (oʻzini oʻzi va oʻzgalarni anglash) oʻsishi;
- c) oʻzining individualligini anglash va shaxsiy xususiyatlarini eʼtirof qilish;
- d) hayotiy ezgu rejalarining paydo boʻlishi;
- e) oʻz shaxsiy turmushga jiddiy eʼtiborning kuchayishi.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va oʻz kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy mulohazalarimiz bugungi kunda oʻspirin-yoshlarning oʻz xulq-atvorini boshqarish muammosini ijtimoiy-psixologik omillarini atroflicha tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Tanlangan ishimizning obyekt sifatida biz Buxoro davlat universitetlari hamda Navoiy pedagogika institutida tahsil olayotgan oʻspirinlaridan jami 50 nafarni tanlab oldik. Jumladan, Buxoro davlat universiteti 1-4 bosqich oʻspirinlaridan 25 (10 nafar yigit, 15 nafar qiz) va Navoiy pedagogika institutidan 25 (15 nafar yigit, 10 nafar qiz) oʻspirinlar tadqiqotimizga jalb etildi. Jumladan 100 nafar tajriba guruhi va 110 nafar oʻspirin esa nazorat guruhida ishtirok etishdi. Tadqiqotimizda oʻspirinlardagi ijtimoiy fobiyaning gender farqlarni ham oʻrganib chiqdik.

Yana shuni alohida taʼkidlash joizki psixologik adabiyotlarda shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi oʻz xulq-atvorini boshqarish muammosini aniqlashga qaratilgan juda koʻplab usullar mavjud. Biz shular ichidan barchaga maʼlum boʻlgan A.V.Karpovning “Refleksivlik rivojlanish darajasi”ni diagnostika qilish metodikasi, V.Stefansonning “Guruhdagi xulq - atvor motivatsiyasini oʻrganish metodikasi”, Derogatisning “Psixologik salomatlik omillarining namoyon boʻlishi soʻrovnomasi hamda Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish soʻrovnomasidan foydalanildi.

Dastlabki metodikamiz bu - “Shaxsdagi refleksiya darajalarini oʻrganish metodikasi”ni diagnostika qilish metodikasi boʻlib, ushbu metodika rus psixologiya Anatoliy Viktorovich Karpov tomonidan ishlab chiqilgan.

Refleksiya (lotincha aks ettirish) - insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi. Kishini kishi tomonidan idrok qilinishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga oʻxshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga oʻzini ham aks ettiradi, agar kishi oʻzi muloqotga kirishadigan kishilar haqida toʻliq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega boʻlsa, ular bilan bexato aniqlikda oʻzaro taʼsir oʻrnatishi mumkin. Biroq subyekt hamma vaqt bunday aniq maʼlumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini oʻylab chiqishga majbur boʻladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuygʻular, intilish va fikrlashning oʻylab chiqarilishi *kauzal atributsiya* deb ataladi.

Refleksivlik - bu shaxsning o'z “men”ligidan tashqariga chiqish, fikrlash, o'rganish, “men” timsolini biron-bir voqea yoki hodisalar bilan taqqoslash, tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksivlik, impulsivlikdan farqli o'laroq, shaxslarning faoliyatga kirishishidan oldin ichki ravishda barcha gipotezalarni ko'rib chiqadigan, ularga noto'g'ri tuyulgan narsalarni tashlab, «muammoni» hal qilishning turli variantlarini hisobga olgan holda, ataylab, ehtiyotkorlik bilan qaror qabul qiladigan odamlarni xarakterlaydi. Ushbu metodika 27 ta savoldan iborat bo'lib, shulardan 15 tasi tasdiq, 12 tasi esa inkor shaklida tuzilgan. Natijalar uch asosiy kategoriyaga ajratilgan holda interpretatsiya qilinadi. Agar natija 7 ta tasdiqqa teng yoki undan katta bo'lsa usul natijalari yuqori darajada rivojlangan refleksivlikni ko'rsatadi.

Refleksiya - bu shaxsning o'z harakatlari va holatlarini tushunishga qaratilgan ichki aqliy faoliyati; insonning o'z ma'naviy dunyosini o'zi bilishi;

Refleksiya - bu shaxsning ichki dunyosi bilan o'zaro aloqasi jarayonida psixikaning turli darajalarida (ongli, ongsiz) amalga oshiriladigan aqliy faoliyati orqali o'zini o'zi tashkil etishdir.

Refleksivlik metodining umumiy talqini ushbu xususiyatning boshqa bir qator muhim xususiyatlarini belgilovchi nazariy materialga asoslanadi. Ushbu fikrlarni quyidagi bayonotlarda umumlashtirish mumkin:

Refleksivlik psixik xususiyat sifatida aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan integrativ ruhiy voqelikning asosiy qirralaridan biridir.

Natijalarni sharhlashda uchta toifaga asoslaniladi. 7-chegaradan yuqorisi refleksivlikning yuqoriligini, 4-7 chegaralar o'rtacha ko'rsatkichni, 1-4 chegaralar esa refleksivlikning past darajasini bildiradi.

1 jadval.

Javoblar ko'rinishi	To'g'ri tasdiq	Teskari tasdiq
Mutlaqo noto'g'ri	1 ball	7 ball
noto'g'ri	2 ball	6 ball
Noto'g'ri bo'lsa kerak	3 ball	5 ball
Bilmadim	4 ball	4 ball
to'g'ri bo'lsa kerak	5 ball	3 ball
to'g'ri	6 ball	2 ball
Mutlaqo to'g'ri	7 ball	1 ball

Ballar quyidagicha taqsimlanadi:

To'g'ri tasdiq - 1, 3, 4, 5, 9, 10, 11, 14, 15, 18, 19, 20, 22, 24, 25.

Teskari tasdiq - 2, 6, 7, 8, 12, 13, 16, 17, 21, 23.

Natijalar interpretatsiyasi:

Ballar oralig'i	80 gacha	100	101-107	108-113	114-122	123-130	131-139	140-147	148-156	157-171	172 va undan yuqori
Tasdiqlar	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

8 dan 10 gacha bo'lgan test bo'yicha yuqori natijalar, ya'ni 7 dan ortiq miqdor shuni ko'rsatadiki, bunday insonlar o'z faoliyati va boshqa kishilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga, ularning o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi harakatlarining sabab va oqibatlarini aniqlashga o'ta moyil bo'ladi. Bunday shaxslar asosan voqea va hodisalarning kichik detallarigacha batafsil o'ylash istagida bo'lishadi, ularni oqibatlarini oldindan tahlil qiladi hamda o'z xatti-harakatlarini doimiy tarzda diqqat bilan rejalashtirishadi.

Bunday odamlar asosan, boshqa shaxslarni tushunishi, o'zini uning o'rniga qo'yishi, uning xatti-harakatlarini oldindan tahmin qilishi va shaxslarning o'zi haqidagi tasavvurlarini bashorat qila olish layoqatiga ega bo'lishadi.

O'rtacha test natijalari 4 tadan 7 tagacha ustunlar oralig'ida bo'ladi.

1 dan 3 gacha bo'lgan test bo'yicha past natijalar, ya'ni 4 ta ustundan kam bo'lishi, shaxslardagi voqea hodisalar qanday yuz bergani, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan sabablar va ularning oqibatlari haqida ko'proq o'ylashi mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, A.Karpov tomonidan ishlab chiqilgan “Refleksiya darajalarini aniqlash” metodikasi orqali biz quyidagi xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin.

1. Vaziyatli refleksiya
2. Retrospektiv refleksiya
3. Perspektiv refleksiya

Vaziyatli refleksiya - vaziyatli aks ettirish, haqiqiy vaziyatda inson xulq-atvori bilan bog‘liq holatning namoyon etilishida bevosita o‘z xulq-atvorini boshqarish, uning tarkibiy qismlarini tushunish, tahlil qilish va subyektning o‘z harakatlarini vaziyatga bog‘lash, ularni o‘zgaruvchan sharoit va o‘z holatiga mos muvofiqlashtirish qobiliyatini ta‘minlaydi.

Retrospektiv refleksiya - o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish tendensiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda retrospektiv refleksiyaning predmeti sifatida shart-sharoit, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolari va motivlarini tashkil etadi.

Perspektiv refleksiya - kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalari bashoratlash va boshqa shunga o‘xshash funksiyasi bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Perspektiv refleksiya xulq-atvor xususiyatlari - o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirish, kelajakdagi hodisalarga bo‘lgan munosabat dinamikasining namoyon etilishini belgilaydi.

2 jadval.

O‘spirinlarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishining umumiy ko‘rsatkichlari (n=50)

O‘spirin-yoshlarda refleksiya darajalari	Respondentlar soni n=50	%
Yuqori	15	24,5
o‘rta	20	39,3
quyi	15	36,2

Refleksiya shaxsning o‘zini o‘zi anglashi bilan yaqin qo‘yiladi va o‘zining yaxlit - Men obrazini tuzish, ichki dunyosining tuzilishi va mazmunini ochishga yo‘naltirilgan subyektning o‘zini o‘zi bilish jarayonidir. Refleksiya meta kognitiv jarayon sifatida inson tafakkurining tamoyili bo‘lib shaxsiy shakl va imkoniyatlarini tushunish va anglash, uning mazmuni, metodi va bilish natijalarini tanqidiy tahlil qilishdan iborat yoki boshqacha qilib aytganda o‘z tafakkurining asosi haqida o‘ylash qobiliyatidir. Olingan ma‘lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, umumiy hisobda barcha respondentlardan olingan eng yuqori natija bu refleksiyaning o‘rta darajasi bo‘lib, o‘spirinlarning 39,3 % ushbu darajaga mansubligi aniqlandi. Eng quyi ko‘rsatkich esa 36,2 % ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘spirin-yoshlardagi refleksiya darajalari nisbatan korreksiya ishlarini olib borishni talab etadi.

Xulosa. Sotsiofobiya jarayoni shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi bilan bog‘liq ekanligi, ushbu holatni korreksiya qilishda ham shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosini ko‘tarish evaziga amalga oshirish mumkinligi statistik natijalar orqali izohlandi. Buning uchun o‘smirlarda o‘zini anglashga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga, o‘z-o‘ziga adekvat baho berishga hamda shaxslararo munosabatlarda muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi mashqlardan iborat trening mashg‘ulotidan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хрущ. – Мн. БГМУ, 2004.
2. Рузиев У.М. Симптомы социальной фобии человека. // Вестник интегративной психологии. - Ярославль: 2022, Выпуск 24, 289-292 стр.
4. Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии - Ярославль: 2022, Выпуск 26, стр. 192-197.
5. Ro‘ziyev U.M. Xavotirli bolalar, ijtimoiy fobiya namoyon etilishining o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 y №6) -Buxoro: B. 337-344.
6. Ro‘ziyev U.M. O‘spirinlarda ijtimoiy fobiya rivojlanishi bilan bog‘liq holatlarning diagnostikasi va psixokorreksiyasi. // № 4, 2022 “Psixologiya” ilmiy jurnali. – Buxoro: – B.125-132.

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich,

*Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori,
psixologiya fanlari nomzodi, professor*

O'ZBEKISTONDA AJRALISHNING IJTIMOIIY, ETNOPSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada notinch muammoli oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari va notinch muammoli oilalarning o'ziga xos jihatlarning aniqlangan. Bundan tashqari oila a'zolarida shakllangan nizolar to'g'risidagi tasavvurlarning konstruktiv xususiyatlari va destruktiv tasavvurlar esa notinch oilalardagi o'zaro munosabatlar jarayonida namoyon bo'luvchi qattiqqo'llilik, shafqatsizlik, tazyiq, avtoritarizm kabi holatlar o'rganilgan. Shuningdek, notinch muammoli oilalar bilan bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nizo, destruktiv, konstruktiv tip, psixologik xizmat, notinch oilalar, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy ustanovka, tafakkur, ijtimoiy sanksiyalar.

СОЦИАЛЬНЫЕ, ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Аннотация. В этой статье рассматриваются конкретные аспекты психологического обслуживания неблагополучных проблемных семей, и определены конкретные аспекты неблагополучных проблемных семей. Кроме того, были изучены конструктивные особенности представлений о конфликтах, сформировавшихся у членов семьи, и деструктивных представлений о таких ситуациях, как жестокость, жестокость, угнетение, авторитаризм, проявляющиеся в процессе взаимодействия в неблагополучных семьях. Также была проанализирована научная литература, связанная с проблемными семьями.

Ключевые слова: конфликт, деструктивный, конструктивный тип, психологическая служба, неблагополучные семьи, социально-психологические факторы, социальная установка, мышление, социальные санкции.

SOCIAL, ETHNOPSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF DIVORCE AND WAYS TO PREVENT THEM IN UZBEKISTAN

Abstract. This article identifies specific aspects of psychological care for troubled families and specific aspects of troubled families. Moreover, the constructive features of visions of conflicts formed in family members and destructive visions are studied, while situations such as harshness, cruelty, repression, authoritarianism, manifested in the process of interaction in troubled families. Also analyzed scientific literature related to troubled families.

Keywords: conflict, destructive, constructive type, psychological service, troubled families, socio-psychological factors, social installation, thinking, social sanctions.

Kirish. Oilaviy muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning xosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi

to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”, deb ta'kidlaganlar.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D.Mayers, V.Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasini mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarhim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzimiz xuddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

Muhokama. Ma'lumki, oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni va oilaviy o'zaro munosabat oqibatlarini masalasi psixolog hamda pedagog olimlarning diqqat markazida turgan muammolardan biridir. Bu muammoga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar esa, asosan, har bir millat mentaliteti, o'sha jamiyatda ustuvor bo'lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Zero, oilada kamol topayotgan yosh avlod dunyoqarashining to'g'ri shakllanishi oila a'zolari o'rtasida barqaror bo'lgan sog'lom munosabatlarning xarakteriga bog'liq. Bu esa, bola ongida ijobiy va salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlarini to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishiga zamin bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh muammolarining ortib borishi munosabati bilan, so'nggi yillarda oilaviy masalalar quyidagi ikki yo'nalishda o'rganilmoqda:

a) jamiyat tomonidan oilaga nisbatan alohida munosabatning shakllanayotganligi, ya'ni nasl qoldirish, bolalar tarbiyasi kabi qator ijtimoiy rollar ahamiyatining ortishi;

b) oilada sodir bo'layotgan ayrim salbiy hodisalar, jumladan, oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalar tarbiyasidagi kamchiliklar, o'zaro munosabatlardagi turli xil nizolar, er-xotin mojarolarini ortishi kabi holatlarning jamiyatga keltirayotgan zararining ortishi kabilar.

F.Bekon qarashlarida nizolarning oldini olish, uni bartaraf etishda siyosiy manyovr san'ati alohida xususiyat kasb etgan. U shunday yozgan: “Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga yetaklash norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda, ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni o'z vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero, shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariга ishonmasalarda, baribir, orzu-umidlar to'g'risida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar”.

XX asrning boshida Amerikada o'tkazilgan qator izlanishlar asosida, bola ijtimoiylashuvi jarayonida otaning o'rniga xos bo'lgan quyidagi umumiy sifatlar qayd etildi:

1. Otasiz bolalar sonining ortib borayotganligi, oilada otaning kam bo'lishi;
2. Ota bilan bola o'rtasidagi muloqotning onanikiga nisbatan sezilarli darajada kamligi;
3. Pedagogik nuqtai nazardan otalarning bilimsizligi, malakasizligi;
4. Bolaga, ayniqsa, kichik yoshlilarga g'amxo'rlik qilish malakasining otalarda kamligi va unga bo'lgan sovuqqon munosabat, layoqatsizlik.

Natijalar tahlili. Biz tadqiqotimizda ijtimoiy-psixologik so'rovnoma(Siz va farzandlaringiz)dan foydalandik. Ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlari – azaliy, avloddan-avlodga uzatilib kelinayotgan muammodir. Nima uchun bir oilada tinchlik va o'zaro tushunish hukm suradi-yu, boshqa bir oilada esa bolalar va ota-onalar tinimsiz nizolashadi? Farzandingiz sizni qanday odam deb hisoblaydi, o'smirlarda ijtimoiylashuv qanday shakllanadi? Bu masalani ushbu test yordamida aniqlab olishga urinib ko'ring.

Test javoblari uchun blanka

Test natijalari quyidagi kalit yordamida qayta ishlab chiqiladi

Savollar t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	2	2	2	3	1	2	3	3	4	3
B	3	3	4	1	3	4	1	4	3	2
V	1	4	3	0	2	3	2	1	2	4
G	4	1	1	2	4	1	4	2	1	1

Javoblaringizni baholab chiqing va ballar yig'indisini hisoblang.

Natijalar izohi.

10 dan 15 ballgacha: Loqayd. Siz bolalarni o'z hayotingizning qayoqdandir kelib qolgan qo'shimcha (ikkinchi darajali) mahsuloti deb hisoblaysiz. «O'zim uchun yashashni xohlayman!» shiori sizning farzandingiz bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlaringiz tuzilishining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Siz o'z hayotingiz bilan yashaysiz va unda farzandingizga joy topilmaydi. Siz tomoningizdan bolaga nisbatan bo'lgan sovuq munosabat, u tomonidan sizga nisbatan intilish hissini tug'dirmaydi. Yildan yilga sizlar bir-biringizdan uzoqlashib boraverasizlar. Odatdagi uchrashuvlaringiz muloqotdan iliqlik va quvonch bermaydi. Moddiylik – sizlarni bog'lab turgan yagona jihatdir. Hayotning bu jihatidan ajralib chiqqandan so'ng, sizlarni bog'lab turuvchi nozik iplar (rishtalar) butunlay uziladi. Aytish mumkinki, keyinchalik sizlarning uchrashuvingiz ikkala tomon uchun ham istalmagan bo'lib qoladi.

16 dan 25 ballgacha. Zolim. Siz oila boshlig'i ekanligingizga to'la ishongan holda yashaysiz. Shuning uchun bola sizga so'zsiz quloq solishi va sizning barcha talablaringizni so'zsiz bajarishi kerak, deb hisoblaysiz. Sizning fikringiz – eng so'nggi (hal qiluvchi) fikr hisoblanadi. Bolaning fikri, uning qiziqishlari va muammolari sizni qiziqitirmaydi. Sizning bolani tarbiyalash va o'qitish borasida aniq rejangiz mavjud. Bolani sizning shiddatli qat'iyiligingizga qarshiligi faqat olovga moy quygandek bo'ladi. Qarshi turishga o'z bola, doimiy nizodan qochish uchun chetga o'tishga, o'zi bilan o'zi ovora bo'lishga, jazavaga tushgan otananing pand-nasihatlarini jimgina tinglab turishga majbur. Kelajakda, sizning betinim nazoratingiz ostidan chiqqanidan so'ng, sizning «yuvvosh», «itoatkor» farzandingiz, siz uzoq yillar davomida betinim o'rgatganlaringizga, shunchaki o'chakishib, ularning teskarisini qilishi mumkin.

26 dan 34 ballgacha. O'rtoq. Siz bolangiz bilan ishonchli o'zaro munosabatdasiz. Siz uning barcha kichik baxtsizligi va quvonchlaridan boxabarsiz. Bola sizni eng yaqin o'rtoq deb hisoblaydi va sizni gapi bilan ham, xatti-harakati bilan ham ranjitmaslikka harakat qiladi. Lekin mabodo shunday holatlar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa, unda sizlar yarashish yo'llarini tezda topa olasizlar va nizo uzoq davom etadigan o'zaro urushga aylanmaydi. Siz bolangizning xatti-harakatlariga ishonasiz va uning u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutishini oldindan bila olasiz. Bola sizda ishonchli tayanch va himoyani ko'radi. Sizlar bir-birlaringiz bilan oddiy betakalluf (oshna-og'aynilik) munosabatlarga o'tib ketmay teng gaplashasizlar. Siz bolangizga nisbatan talabchan va me'yorli qattiqqo'lsiz. Sizlarning munosabatingiz ikki tomonlama hurmat asosida tuzilgan.

35 dan 40 ballgacha. Xizmatkor. Sizning farzandingiz sizni oshkora xo'rlaydi. Siz kichik yoshlaridan boshlab uning barcha injiqliklariga yo'l qo'yib beraverib, o'z xohishingiz bilan uning xizmatiga kirgansiz. U o'sib borgan cayin tobora ko'proq sizning fikringiz bilan hisoblashmaydigan bo'lib boradi. Siz pushaymon bo'lib (afsus bilan) «Mening avvalgi muloyim kichkintoyim bilan nima ro'y berdi?» deb o'ylaysiz. Siz u shunchaki, Ptolomeyning falsafiy pozitsiyasida turib olib butkul koinot mening atrofimda aylanadi, deb oshkora hisoblashini tushuna olmaysiz ham. Kopernik kelib olamning tuzilishini tushuntirib berib siz tarbiyalagan bola ongini boshidan oyog'iga ag'darib yuboradigan onlar hali oldinda. Faqat bu yordam berarmikin? Qanday bilish mumkin...

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so'rovnoma orqali olingan dastlabki natijalar (n=30)

Omil	Soni (erkak)	%	Soni (ayol)	%
Loqayd	10	32	7	22
Zolim	9	29	10	43
O'rtoq	3	14	5	13
Xizmatkor	8	25	8	26
Jami:	30	100	30	100

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so'rovnomalar natijalariga ko'ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko'rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko'chada mehnat faoliyati bilan band bo'lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo'lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo'ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko'radi, ehtiyojlarini bajarishga ko'maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo'lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg'ayib o'smir yoshga yetganda ham o'z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, ma'lum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o'qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko'proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo'l, talabchan) omili bo'yicha erkaklar 29% ni, ayollar esa 43%ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o'z-o'zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo'lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko'rishadi, his qilishadi va ma'lum o'rinda xurcand bo'lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo'llik, tanbeh berish manocida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo'ladiki, farzand ulg'aygan sari unga turli omillar ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko'rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto'g'ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibsizlik yoki noo'rin taassurotlar ota-onani, ko'proq onani jazo qo'llash yo'li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko'proq foydalanishadi.

3-omil «O'rtoq» omili bo'lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko'rsatgichdan ma'lumki, farzand bilan do'stona munosabatda bo'lishda ota-onalar qisman teng o'rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma'noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o'g'il bolalar bilan munosabat o'rnatish va uni caqlab qolishda otaning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do'stona munosabatlarni o'rnatish olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu o'rinda ota-onaning roli beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg'aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to'g'ri maslahat bera olish va yordam qo'lini cho'zish farzand va ota-ona o'rtasidagi do'stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Metod natijalari bo'yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko'z yumadigan ota-ona timsoli) omili bo'lib natijalarga ko'ra erkaklar, ya'ni ota obrazi 25% ni, ayol(ona)larimiz 26% ni egallashdi va erkaklardan ma'lum bir ustunlikni ko'rsatishdi. Buni izohlash uchun metoddan olingan natijalarga, jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoya. Ya'ni bola dunyoga keldiki, malum sabablarga ko'ra otaga nisbatan ona uning yonida ko'proq bo'ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi, mas'uliyat egaciga aylanadi. Otalar o'z-o'zidan mehnat faoliyati sababli biroz e'tiborsizdek namoyon bo'lishadi. Bola ulg'aygan sari injiqlik va kamchiliklari paydo bo'lsa ham otaga nisbatan ona qattiqqo'llik namoyon qilishadi. Chunki ayollar bolasining tug'ilgandan yo'l-yo'riqqa o'rgatib kelganliklari sabab bolaning yillar davomidagi yosh xususiyatlari tashqi omil ta'sirlari ham onaga tashvishli vaziyat tug'diradi. Shu bois tanbeh berish va jazolash usullarini ham qo'llashlari mumkin. O'rtoqdek munosabatlarda ham ota-ona birdek o'rinli, ammo farzand ulg'aydiki, otaning roli ham kuchaya boshlaydi. Ushbu ko'rsatgichlardan kelib chiqib 4-omilda ham ayolning ustunligiga guvoh bo'lishimiz tabiiy jarayon hisoblanadi. Bolalikdan bolaning xurcandchiligiga guvoh bo'lgan, kamchiliklariga ko'z yumgan ona farzandi ulg'aygandan so'ng ham u uchun barcha aytganlariga rozi bo'ladigan, kamchiliklarini unutadigan, nima desa ham ma'qullaydigan, ya'ni farzandga bo'ysunadigan ayol(ona) timsoliga aylanib qoladi. Ammo onalar o'zini bu timsolda shakllantirganini bilishmaydi, chunki doimo ularida ijobiy psixologik hislar ustunlik qiladi. Ko'pgina ota-onalar bolada kuzatiladigan yosh xususiyatlaridan xabardor bo'lmaganliklari bois hissiyotga tayanib bola tarbiyasi bilan shug'ullanishadi.

Xulosa va tavsiyalar. Oilaviy nizolar kecha paydo bo'lgan muammo emas. Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik va nikohning bekor qilinishi azaldan mavjud bo'lgan. Ammo so'nggi yillarda ajrimlar sonining keskin ortib borayotgani insoniyatni chuqurroq mushohada yuritishga undaydi. Bunga butun jamiyat tomonidan katta talofotdek qaralishi, oldini olish choralarini ko'rishga shoshilmoqlik lozimdir.

Yangi hayotga qadam qo'ygan har bir inson baxtli turmush, muhabbat va sadoqatni ko'ngliga tugadi. Kun kelib juftiga xiyonat qilish, mojaro va ajrimlar ularning hayoliga ham kelmaydi, albatta. Ammo muammolar go'zal turmushga chang solib, tomonlarning bir biriga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirgan, oilani barbod etgan holatlar barcha zamon va makonlarda uchraydi. Tavsiya sifatida "Oilada erkaklarning

burchi va vazifalari”, “Oilada ayollarning burchi va vazifalari” mavzularida boy merosimizga asoslanib, davra suhbatlarini tashkil etish va oʻtkazish va h.k.

Adabiyotlar:

1. Yunusov A.B. Oʻsmir yoshlarda ijtimoiy deviantlik ho-latlarining sotsiologik xususiyatlari. Sotsiologiya fanl. nomz. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. – T.: 2004. 24-b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilik. – Toshkent: Yulduzcha, 1990.-192 b.
3. Shoumarov Gʻ.B., Rasulova Z.A. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent, 2016. – 416-bet.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. - 180 b.
5. Bekmurodov M. Oʻzbekistonda jamoatchilik fikri.- Toshkent, 1999.-245 b.
6. Шоумаров Г.Б., Морщинина Е.А. Влияние психологических особенностей узбекской семьи на воспитание молодежи // Проблемы совершенствования нравственного воспитания студентов. Материалы конференции. – Сыктывкар: 1986. –С.161-169.
7. Шихирев П.Н. Современная социальная психология. М.: Академии-ческий Проект, 1999.– С. 95.

Rustamov Shavkat Shuxratovich,

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,
p.f.f.d (PhD)*

PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION JIHLTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion jihatlari va talabalarning muloqot qobiliyatlari ulardagi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Talabalarni innovatsion kompetentligi muammosining hozirgi holati tahlil qilinadi va innovatsiya samaradorligini ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va texnologiyalari, talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari va shart-sharoitlarini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: integrativ, personal, pedagogik amaliyot, ijtimoiy kompetentlik, innovatsion faoliyat, individuallik, metodologiya, xarakter, ijodkorlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, kasbiy faoliyat, global kompetentlik.

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные аспекты развития компетенций у студентов в процессе педагогического образования и коммуникативных навыков студентов по развитию у них профессиональных компетенций. Анализируется современное состояние проблемы инновационной компетентности студентов, и рассматриваются личностные качества, обеспечивающие эффективность инноваций. Речь идет также о содержании, формах, методах и технологиях развития социальной компетентности обучающихся, педагогико-психологических аспектах и условиях развития социальной компетентности обучающихся.

Ключевые слова: интегративная, кадровая, педагогическая практика, социальная компетентность, инновационная деятельность, индивидуальность, методология, характер, творчество, социально-психологические особенности, профессиональная деятельность, глобальная компетентность.

INNOVATIVE ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF COMPETENCE IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract. This article reflects on the innovative aspects of the development of competence in students in the process of pedagogical education and the communication skills of students on the development of professional competencies in them. The current state of the problem of innovative competency of students is analyzed and personal qualities that ensure the effectiveness of innovation are considered. It also talks about the content, form, methods and technologies of the development of social competence of students, pedagogical-psychological aspects and conditions of the development of social competence of students.

Keywords: integrative, personal, pedagogical practice, social competence, innovative activity, individuality, methodology, character, creativity, social psychological characteristics, professional activity, global competence.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik va axborot texnologiyalarining zamonaviy modellarini maqsadli hamda manzilli qo'llashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada talabalarning ijtimoiy faolligiga erishish, ularda o'zini o'zi tahlil qilish, samarali muloqot, mustaqil o'zini o'zi kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha ta'lim konsepsiyasida butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish vazifasi belgilangan. Bu, o'z navbatida, bo'lajak pedagoglar faoliyatiga qo'yiluvchi talablarni ijtimoiy buyurtmaga moslashtirishsiz amalga oshmaydi. Shu bois pedagogika yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini amaliy yo'nalgan tarzda

tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatli modellarini loyihalashning didaktik tamoyillarini aniqlashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Talabalarda ijtimoiy kompetensiyaning asosiy komponenti sifatida kreativ fikrlash, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish, innovatsion o'qitish texnologiyalari asosida ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyat, pedagogik mas'uliyatni tizimli shakllantirishsiz amalga oshmaydi. Shu jihatdan talabalarda ijtimoiy faollik, kommunikativlik, kasbiy madaniyatni integrativ rivojlantirish usul hamda vositalarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetensiyasi bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), Belfield pedagogical university (Germaniya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchester's university (Buyuk Britaniya); Shung'ung universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish, ta'lim oluvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari B.Mirzaxmedov, M.Djorayev, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, K.Nasriddinov, N.Azixodjayeva, Sh.Otajonov, M.Qurbonov, A.Xusanov, M.Matnazarovalar tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy va amaliy kompetensiyalar, talabalarining kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari hamda ularning rivojlanganlik monitoringiga oid mulohazalar J.Tolipova, U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo'ysinov, Y.Asadov, N.Turdiyev hamda D.M.Mamatqulov ishlarida o'z aksini topgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ijtimoiy kompetentlik tarkibini ifodalash va uni shakllantirish jarayoni muammosi xorijiy nazariya hamda amaliyotida A.Amutio, A.Smit, A.Yolanda, K.Franso, L.Breeman, R.Sears, R.O.Renye, A.Maslou, S.Sho, B.Oskarsson, A.Shelton, V.I.Baydenko, A.M.Novikov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Oliy ta'lim davrida talabalarni kasbiy-ijodiy muhitga erta tayyorlash maqsadida jamiyat talablari asosida harakatlanishga o'rgatish choralari ko'rish muhim masala hisoblanadi. Qanchalik bu choralar tizimli va samarali texnologiyalarga asoslansa, shunchalik talabalarining pedagogik jamoaga uyg'unlashib ketishi, ya'ni kasbiy amaliyotni qulay tashkil etishga, pirovardida ta'lim sifatiga erishiladi. Talabalarining nafaqat kasbiy faoliyat davrida, balki oliy ta'limda ham turli ijtimoiy munosabatlarda qaror qabul qilish, o'z fikrini etkazish, pedagogik nizolarda psixologik bosimsiz, qulay muvofiq yo'li bilan chiqib ketish kabi ijtimoiy ko'nikma va malakalarga ehtiyoj sezishi kuzatilmoqda. Aynan ijtimoiy ko'nikma va malakalar negizida ijtimoiy kompetentlik tarkib topadi.

Tahlil va amaliy natijalar. Rivojlangan mamlakatlardagi eng ilg'or ta'lim markazlari (Center for Creative Leadership Sources, IEDP, MOOS, SPS) da ijtimoiy kompetensiya, kreativ va kommunikativ qobiliyatlarni muhim sifatlar qatorida alohida e'tirof etilmoqda. Jumladan, zamonaviy shaxsda kreativlik, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativlik, o'zgaralar bilan muomala qilishning turli xil variantlari (verbal, written, nonverbal)ga tayyorlik kabi ijtimoiy ko'nikma va malakalar bo'lishi kerakligi aniqlangan. Bu esa, oliy-pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish, ularda moslashuvchanlik, dinamiklik, o'ziga xos ijodkorlik va ijtimoiy faollik hamda innovatsion faoliyatga yo'nalganlikni shakllantirishni taqozo etadi. YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida - sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini yuqori darajada egallashga imkon beruvchi qulay ta'lim muhitini yaratish ko'zda tutilgan. Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini oshirish, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini-o'zi baholash, o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oliy-pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish jarayonini tashkil etishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini aniqlash va joriy etish borasidagi ishlarni kushaytirish, avvalo, pedagogika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalarni va tavsiyalarning hayotiyligi hamda natijadorligiga ham bog'liqdir.

Oliy-pedagogik ta’lim jarayonida talabalarining ijtimoiy innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik mexanizmlari

Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish	
1	Kasbiy fanlar bloki mazmunini rivojlantirishda ish beruvchilar ehtiyojlariga e’tibor qaratish, ya’ni amaliy yo’nalgan kompetentli yondashuv
2	Mutaxassislik bo’yicha malaka talablari asosida o’qitishning mazmunini doimiy ravishda axborotli-didaktik tarzda takomillashtirib borish
3	O’quv fanlari integrasiyasini ta’minlash va kasbga yo’nalganligini nazorat qilishning innovatsion va shaxsga yo’nalgan instrumentlarini joriy etish
4	Bo’lajak mutaxassislarda zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan texnologiyalarni kasbiy amaliyot bilan bog’liq ravishda modellashtirish
5	Ehtiyojga asoslangan ta’limning turli shakllaridan samarali foydalanish

Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik tuzilishi bir nechta bosqichga ajratiladi:

• **Birinshi bosqich** – motivatsion reflektiv bosqich bo’lib, talabalar tomonidan o’zlashtirilayotgan bilimlar zaruriyatining ongli his qilinishi va maqsad, vazifalarni aniq ko’rsatishi lozim. Bunda talabalar ijtimoiy faoliyat, tashabbus va “Ijtimoiy kompetentlik”ning asosiy mazmuni bilan tanishadi va ular tomonidan o’zlashtirilayotgan fan sintez qilanadi. Bu bosqichning birinshi qadami – ta’lim oluvchilar motivatsiyasi. Bu maqsadda talabalarga ekologik jarayonlarni ongli anglashilishi uchun muhit yaratiladi. Bu bosqichdagi tahliliy pedagogik laboratoriyalar mazmuni shundan iboratki, hayotiy jarayonlarni loyihalash (hayotiy tajriba hosil qiluvchi hayotiy voqealar, jarayonni loyihalash – ta’lim beruvchi va tahsil oluvchi o’rtasidagi ta’limiy dialoglar, ta’limni kundalik hayotiy faoliyatga yaqinlashtirish orqali, o’rganilayotgan materialning hosil qilinayotgan madaniyat bosqichlari sifatida shakllanishi, hayotdagi qadriyatlarini anglash orqali o’z “meni”ning hosil bo’lishi va atrof- muhit bilan muvozanatli munosabatga kirisha olishi).


• **Ikkinchi bosqich** – reproduktiv – ta’limiy. Ilmiy ijtimoiy bilimlarni amaliy tajribalar orqali rivojlantirish. Ilmiy ijtimoiy bilimlar tajribada asoslanishi bilim, ko’nikma va malakalarni yanada mustahkamlab, kompetentlik darajasiga yo’naltiradi. Loyiha bilan ishlash algoritmini egallash jarayoni ijodkorlik faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, o’zgaruvchan dunyoda kerakli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Loyihalashning nazariy qismida quyidagilar qo’llaniladi.

• **Ushinchi bosqich** – konstruktiv. Bu bosqichda talabalar o’zlarining “metodlarini” namoyish etadi. Konstruktiv bosqichda shaxsning ijtimoiy psixologik - dunyosi yoritib beriladi. Taqdim etiladigan loyiha qaytadan ijodkorona ishlab chiqiladi. Talabalar guruhida mavzular turlicha bo’lishi mumkin, ammo tizim hosil qiluvchi asos yagona.

• **To’rtinchi bosqich** – talaba shaxsi ijtimoiy kompetentligini shakllanishi va rivojlanishi. Bu bosqichning o’ziga xosligi, talaba shaxsi o’z dunyoqarashida dunyo bilan yaxlitlikni his qila boshlaydi. Bu bosqichda talabalar tomonidan reflektiv texnologiyalar, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, fasilatsion texnologiyalarni amalda qo’llash va bu texnologiyalarning samarasini ko’rish imkonini beradi.

Bo’lajak kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma’naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o’ynaydi. Shu sababli kompetentli pedagog portreti qator sifatlarni o’zida mujassamlagan bo’lib, u asosan quyidagilarni o’z ichiga olishi mumkin: aniq fan va amaliyot sohasi bo’yicha bilimli va tajribaga ega bo’lishi; kasbiy faoliyat jarayonida ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi; kuzatuvchan – o’quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg’ab olish; tashqi va ichki muhit bilan aloqa o’rnata olish; ilmiy –tadqiqot sohasi faol; muloqotga kirishuvchan. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda OTM da bu yo’nalishda metodik ishlarning maqsadli yo’lga qo’yilishi, didaktik ta’minot darajasiga bog’liqdir.

Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning sifat tuzilmasi



Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. **Erkinlik va ijodiy barqarorlik.** Erkin shaxsni tarbiyalash: o'z-o'zini anglashning yuksak darajasi; fuqarolik, o'z qadr-qimmatini his qilish, o'zini hurmat qilish, intizomlilik, to'g'rilik; ma'naviy qadriyatlarga e'tibor; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va mas'uliyatni his qilish; hayotiy faoliyat mazmunini erkin tanlash.

2. **Tan olish va hurmat.** Tolerantlik, insonning mavjud noyobligini tan olish ham talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim omildir. Ayniqsa, insonparvar shaxs tarbiyasiga erishishda mehribonlik, yaxshilik, sabrlilik, chidamlilik, kamtarlik, tinchlik, yaxshi qo'shnichilik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar negiziga asoslangan tushunshalarning mohiyati talabalar tomonidan to'liq anglanishiga erishish lozim.

3. **Ma'naviyat va ma'rifatda qadriyatlilik.** Bilish va o'z-o'zini anglash, go'zallik, refleksiya, muloqot, hayot mazmunini chuqur tushunishga ehtiyojni talabalarda uyg'otishning pedagogik mexanizmlarining ommabopligi va foydalanishga qulayligini ta'minlash lozim.

4. **Yuksak professional shaxsni tarbiyalash:** eruditsiya, kompetentlilik; tadbirkorlik, raqobatbardoshlilik, boshqarish layoqati; kirishimlilik; ijodiy professional fikrlash qobiliyati, tarixni, xalqlar madaniyatini bilish va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy faollik keng ma'noda ifodalanib, bevosita tabiat va jamiyatni o'rab turgan muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Shaxs ijtimoiy faolligining rivojlanishida uning individualligi namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, mehnat, bilish jarayonlarida kundalik yurish turishi, muayyan bilimlar hajmi va jamiyatning odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirishi orqali takomillashib boriladi.

Xulosa. Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish muammosi holatini o'rganish quyidagi xulosalarni yasashga imkon berdi:

Mahalliy va xorijiy nazariy tadqiqot ishlari tahlili talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish o'qitish, o'rgatish, tarbiyalash jarayoniga pedagogik-psixologik, tashkiliy-motivatsion tayyorgarlikni ko'zda tutuvshi bosqichlardan tashkil topgan jarayon bo'lib, shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'zida

mujassamlaydi. Bunga nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini amaliy pedagogik faoliyat bilan bog'liq olib borilishi orqali erishish mumkinligi qator olimlarning tavsiyalarida keltirib o'tilgan. Ijtimoiy kompetentlik moslashuv va individuallashtirish jarayonlarini bog'laydi.

Mazkur jarayonlar ijtimoiy faollik amalga oshmaydi. Faollik shaxs-talabalarning yangi-transformatsion sharoitlarda muayyan ehtiyojlarga yo'nalgan harakatlar tizimini amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy passivlik talabalarning kasbiy ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni egallashlarida to'siq hisoblanib, uning ta'sirida pedagogik faoliyatga etarlicha tayyor bo'lmagan kadrlar etishib chiqadi. Shuning uchun aynan oliy pedagogik ta'limda talabalarning ijtimoiy kompetentligini maqsadli rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida dolzarbdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori //
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirotdan). – T.: Meros, 1991. – 47 b.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПУ, 2003. – 192 с.
6. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.
7. Djurayev R.X., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. – T.: Sharq, 2015. – 71 b.
8. Лузина Л.М. Философически-антропологический подход в современной методологии воспитания. Дис. докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 2008. – 46 с.

Sobirov Yangiboy Elmurot o'g'li,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
sobirovyangiboy@gmail.com

O'SMIRLARDA XAVOTIRLANISH HISSI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. O'smirlik davri o'zining betakrorligi, mustaqilligi, ijodiyligi, o'ziga va o'zgalarga nisbatan tanqidiylik va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aynan o'smir shaxsining shaxs sifatida shakllanishida emotsional jarayonlarning o'rni muhim hisoblanadi. Chunki har qanday shaxs taraqqiyotida emotsional jarayonlarning ro'y berishi hamda uni oqilona boshqarishni o'rganish hozirgi kun uchun dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan olganda, o'smirlik davrida xavotirlanish holatlarini o'rganish muammoga nisbatan o'ziga hos yondashuvni yuzaga keltiradi. Buni o'rta ta'lim tizimida tahsil oluvchi yoshlar misolida ko'rishimiz mumkin. Chunki eng ustuvor yo'nalish sifatida ta'lim tizimida bilimga intiluvchan, mustaqil fikrlovchi va ichki ehtiyojlari o'zining imkoniyatlari darajasida amalga oshadigan kadrlarni yetishtirish vazifasini o'z oldiga qo'yimoqda. Ayni vaqtda bolalar va o'smirlar xulqidagi og'ishlar, tajovuzkorlik, bezovtalik, emotsional beqarorlik, agressiya, hissiyotlarni boshqara bilmaslik kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: xavotir, emotsional beqarorlik, agressiya, emotsional diskomfort, nevrotik reaksiya, qo'rquv, jahl va g'amginlik kompleksi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ТРЕВОЖНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. Подростковый возраст характеризуется своей уникальностью, самостоятельностью, креативностью, критичностью к себе и другим и другими характеристиками. Важна роль эмоциональных процессов в становлении подростка как личности, потому что возникновение эмоциональных процессов в развитии любого человека и обучение ими рационально управлять является актуальной проблемой на сегодняшний день. С этой точки зрения изучение тревожности в подростковом возрасте создаёт уникальный подход к проблеме. Мы можем видеть это на примере молодёжи, обучающейся в системе среднего образования, потому что в качестве наиболее приоритетного направления система образования ставит задачу подготовки кадров, которые стремятся к знаниям, самостоятельно мыслят и в меру своих возможностей реализуют свои внутренние потребности. При этом актуальными проблемами считаются отклонения в поведении детей и подростков, агрессивность, беспокойство, эмоциональная неустойчивость, агрессия, неспособность контролировать эмоции.

Ключевые слова: тревога, эмоциональная нестабильность, агрессия, эмоциональный дискомфорт, невротические реакции, страх, комплекс гнева и печали.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ANXIETY IN ADOLESCENTS

Abstract. Adolescence is characterized by its uniqueness, independence, creativity, criticism of oneself and others, and other characteristics. The role of emotional processes in the development of a teenager as a person is important. Because the emergence of emotional processes in the development of any person and learning to manage them rationally is an urgent problem today. From this point of view, the study of anxiety in adolescence creates a unique approach to the problem. We can see this in the example of young people studying in the secondary education system. Because as the highest priority area, the education system sets the task of training personnel who strive for knowledge, think independently and, to the best of their abilities, realize their internal needs. At the same time, current problems are considered to be deviations in the behavior of children and adolescents, aggressiveness, anxiety, emotional instability, aggression, and inability to control emotions.

Keywords: anxiety, emotional instability, aggression, emotional discomfort, neurotic reactions, fear, complex of anger and sadness.

Kirish. Ijtimoiy obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhit voqea-hodisalari o'smirning ongi, xohishirodasi bo'ysunmagan holda ta'sir etadi va uning ongi, dunyoqarashi, shaxs sifatida shakllanishi va xulq-

atvori mazmunini belgilab beradi. Demak aytish mumkinki, shaxs xususiyatlarining shakllanishi nafaqat inson organizmining nasliy xususiyatlariga, balki eng avvalo u aloqada bo‘lgan ijtimoiy muhitga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. «Xavotir» tushunchasi ham, boshqa har qanday tushuncha kabi, bitta aniq va umumiy qabul qilingan ta‘rifga ega emas. Ushbu atamaning ta‘rifi bo‘yicha ko‘plab fikrlar va tushuntirishlar mavjud. V.V.Davidov tahriri ostida yozilgan psixologiya lug‘atida xavotir atamasi quyidagicha ochilgan: «Xavotir - bu odamning tez-tez va kuchli tashvishlanishga moyilligida, shuningdek, past darajada namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatdir. Ko‘pgina manbalar ko‘pincha «xavotir» va «xavotirlanish» kabi tushunchalarni chalkashtirib yuborishadi. Biroq, ular bir-biridan farq qiladi. Xavotir – bu xavotirlanish va hayajonning epizodik ko‘rinishi. Xavotirlanish hissiy holat sifatida barqaror xususiyat, shaxsiy xususiyat yoki temperament sifatida ajralib turadi.

Maqolaning dolzarbligi. O‘smirlarning ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida o‘zini to‘g‘ri baholash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko‘nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalar hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. O‘smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillarining o‘rnini o‘rganish. O‘smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo‘lishining o‘ziga xos jihatlarni yoritish va ijtimoiy omillarning o‘rnini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘smirlardagi emotsional hisslarning rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazuvchi xavotirlanish hissining sifat va xususiyatlari

Maqolaning ilmiy yangiligi. O‘smirlarda xavotirlanish hissi shakllanishiga ijtimoiy yo‘nalganlik xususiyatlarning ta‘siri aniqlangan, ularda xavotirlanish hissi namoyon bo‘lishining psixologik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi birliklar aniqlangan.

Tadqiqotda nazariy va uslubiy va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi.

R.S.Nemovaning ta‘rifiga ko‘ra, xavotir - bu odamning doimiy yoki situatsion ravishda namoyon bo‘ladigan, kuchaygan xavotirlanish holatiga tushishi, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo‘rquv va xavotirni boshdan kechirish xususiyatidir. Bizga ma‘lumki, kichik va katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga qaraganda o‘smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o‘smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo‘lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o‘zgarishi, hamda hayot sharoitining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bu davrda o‘smirlarning o‘z shaxsiy fikrlari paydo bo‘ladi. Ularda o‘z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo‘yicha o‘smirlarning psixik taraqqiyotini xarakteratga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug‘iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o‘tiladi. Mana shu nuqtayi nazardan o‘smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqish o‘rinli sanaladi. Bola boshlang‘ich sinfni tugatishi va o‘rta maktabda o‘qishga o‘tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O‘smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatini uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirlik yoshiga yetganda bolalarda burch va javobgarlik tuyg‘ulari yetarli darajada o‘sgan bo‘ladi. Mana shu davrda kattalar tomonidan bolalarga bemalol ish topshirishni ishonadilar o‘smirlarni oilada «kichkina» deb hisoblamay ulardan xo‘jalik ishlariga yordam berish, topshirilgan ishga javob berishni talab qiladilar. Ular bilan maslahatlashadilar ba‘zi o‘smirlar ayniqsa ular o‘rta maktab yoshining oxiriga borganda hatto o‘z yaqinlarining qo‘llovchi va tayanchi bo‘lib qoladilar. O‘smirlarda bu davrda psixologik jarayonlarining tezlashiga sabablardan biri bu albatta fiziologik holatining aktivlashish davriga to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi. Bu davrda ularda bosh miya po‘stining po‘stloq ostida qismlari ustidan kontrolligi ortib boradi, po‘st va po‘st ostida qismlari doimiy ravishda birga harakat qiladi. Ayrim hollarda po‘stloq osti qismining faoliyatini kontrol qilmay qoladi bu esa o‘smirning betayinligi, jizzakiligi va emotsional hisslariga berilganligidan dalolat beradi. Qo‘zg‘alish jarayonlari ba‘zan shu qadar kuchli bo‘ladiki, o‘smir yoqimsiz xarakterlarini tormozlay olmay o‘zini tuta olmay qoladi. Qo‘zg‘alish jarayonlari jo‘shqin va tez o‘sadi. Ikkinchi tomondan o‘smir kuchli hayajonlanish paytida ayniqsa tegishli ijtimoiy sabablari asosida hayajonlanganda o‘z xatti-harakatlarini idora eta olmaydi. O‘smirlik yoshida ikkinchi signal sitsemasining roli kuchaya boradi. Qo‘zg‘ovchi vazifasini bajaruvchi so‘z bilish jarayonida boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lishda va o‘z xatti-harakatlariga baho berishda ko‘proq rol o‘ynay boshlaydi. U uzoq vaqt davom etadigan kuchli qo‘zg‘aluvchiga bardosh bera olmaydi. Ba‘zan shu sababli ancha tez qo‘zg‘alish holatiga o‘tib ketadi. Bu esa o‘smir nerv sitsemasining ma‘lum darajada bo‘shligidan dalolat beradi. Bunday paytlarda o‘smirlarda emotsional hisslar uni ma‘lum bir ma‘noda qurshab olgan

bo‘ladi. Shulardan eng ko‘p xatti-harakatlariga tasir ko‘rsatadigani xavotirlanish hissining namoyon bo‘lishidir. Xavotirlanish muammosi zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Xavotirlanish- bu ichki psixik holatidagi xavotirni his qilishdagi taranglik;

- yomon hislar, xatarni kutishni subyektiv his qilish;
- emotsional diskomfortni his qilish;
- nevroitik reaksiya (avtonom nerv tizimini faolligini oshishi bilan kechuvchi emotsional reaksiya);
- salbiy emotsiyalar: qo‘rquv, jahl va g‘amginlik kompleksi (ba’zilar bunga qiziqishni ham kiritadi);
- murakkab psixik holat, kognitiv emotsional va operatsional tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi, emotsionalni dominantligida;
- shaxs tuzilishida deffektlarni paydo bo‘lishi ular turli kasalliklarning kelib chiqarishidir;
- xavotirlanish vaqtinchalik holat ma’lum vaziyat orqali kelib chiqqan “xavotir”, “xavotir holati”, “vaziyatli xavotir”, “reaktiv xavotir” atamalarini bilan ifodalanadi;
- xavotirlanish affektiv fenomenlar jarayoni sifatida, xavotirni kelib chiqishi va rivojlanishiga ko‘ra almashib turadi.

Xavotirlanish shaxsiy xususiyat sifatida- bu ko‘p qaytariladigan yoki haddan ziyod intensiv holat natijasida situativ xavotirlanishni saqlanib qolishi, va u o‘z navbatida ma’lum vaziyatda ushbu reaksiya uni harakteriga ta’sir etadi. Umumiy ko‘rinishda xavotirlanish keltirib chiqaruvchi sabab va mexanizmlarni ko‘pchilik tadqiqotchilar individni ichki nizolarida ko‘radilar, bir qancha tadqiqotlarda qandaydir yomon xatarni kutish natijasida kelib chiqadi deb qaraladi. Shu xususiyat asosida Ch.Spilberger “qo‘rquv” va “xavotir” atamalarini alohida ajratadi. Qo‘rquv atamasi emotsional reaksiyani qandaydir xatarli vaziyatda kelib chiqishini o‘z ichiga oladi. “Xavotir” atamasini esa “predmetsiz” emotsional reaksiya sifatida tavsiflaydi. E.P.Ilin xavotirni qo‘rquvdan quyidagicha ajratadi, ya’ni xavotir holati predmetsizdir, qo‘rquv esa uni keltirib chiqaruvchi obyektini talab etadi.

S.V.Bikov, F.B.Berezin, X.Xekxauzen nafaqat xavotir va qo‘rquv farqlarini balki xavotirni holat sifatida, xavotirlanishni shaxs xususiyati sifatida ham farqlaydilar. Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish qobiliyati xosdir, bu esa uning hayotga befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba’zida noadekvat shaklda bo‘ladi, ya’ni shaxs asoslanmagan holda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko‘p qirraliligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqotchilar “Xavotirlanish” tushunchasini turli ma’noda qo‘llaydilar. Ch.D.Spilberger fikriga ko‘ra, xavotirlanish konsepsiyasining noaniqligi va ko‘p qirraliligining asosiy sababi shundaki bu atama odamda ikki asosiy ma’noda foydalaniladi. Lekin ular bir-biri bilan bog‘liq. Shu bilan birga turlicha tushunchalar sifatida qo‘llanishadi. Ko‘pincha, “xavotir” terminini yoqimsiz ichki emotsional bezalgan holat sifatida qaraladi. Bu holat esa zo‘riqish, notinchlik, g‘amginlikni his qilish tariqasida fiziologik jihatdan avtonom nerv tizimining faollashuvi sifatida tavsiflanadi.

Xavotirlanish holatini inson vujudga kelishi mumkin bo‘lgan stress darajasi funksiyasidek vaqt va intevsiivligi bo‘yicha o‘zgarib boradi. Shuningdek, xavotirlanish atamasi insonning bu holatini boshdan o‘tkazish moyilligi kabi, nisbatan barqaror individual farqni ifoda etishi uchun ham ishlatiladi. Bunda xavotirlanish shaxs hislati ya’ni shaxs xavotirlanishi ko‘rinishida bo‘lib, u bevosita xulq-atvorida namoyon bo‘lmaydi. Shaxs hislati sifatidagi shaxsiy xavotirlanish holati qanchalik tez-tez va intensiv ravishda yuzaga kelishiga qarab aniqlash mumkin. Xavotirlanish holati yorqin ifodalangan shaxs atrofimizni o‘rab turgan dunyoni xavf-xatar, qo‘rqinch, tahlakali tarzda idrok qilishiga moyillik bo‘ladi. Ko‘pincha chet ellik psixolog olimlar xavotirlanishni shaxs holati sifatida qaraydilar va shu mazmunda bir qator nazariyalarni yaratganlar. Insonning salbiy tajribalari orasida xavotir alohida o‘rin tutadi, bu ko‘pincha ish qobiliyatini pasayishiga, ish samaradorligini va muloqotdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xavotiri kuchaygan odam keyinchalik turli xil somatik kasalliklarga duch kelishi mumkin. Xavotirlanish hodisasini va uning paydo bo‘lish sabablarini tushunish juda qiyin. Xavotirda biz, qoida tariqasida, bitta hissiyotni emas, balki har xil hissiyotlarning birlashuvini boshdan kechiramiz, ularning har biri bizning ijtimoiy munosabatlarimizga, somatik holatimizga, idrokimizga, fikrlashimizga, xatti-harakatlarimizga ta’sir qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, turli xil odamlarda xavotirlanish holati turli xil hissiyotlardan kelib chiqishi mumkin.

Xavotirning subyektiv tajribasidagi asosiy tuyg‘u qo‘rquvdir. Xavotir - bu yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan o‘ylab, muammolarni kutish bilan bog‘liq bo‘lgan hissiy noqulaylik. Xavotirni emotsional holat sifatida va barqaror xususiyat, shaxsiyat xususiyati yoki temperament sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. Rossiya psixologik adabiyotlarida bu farq, mos ravishda, «xavotirlanish» va «xavotir» tushunchalarida qayd etilgan. Oxirgi atama fenomeni bir butun sifatida ifodalash uchun ham ishlatiladi. Psixologik darajada tashvish ham taranglik, xavotir, bezovtalanish, asabiylashish kabi seziladi va noaniqlik, ojizlik, kuchsizlik, ishonchsizlik, yolg‘izlik, yaqinlashib kelayotgan muvaffaqiyatsizlik, qaror qabul qila olmaslik va hokazo tuyg‘ular shaklida kechadi. Xavotirlanish reaksiyalari yurak urishining tezlashishi, nafas

olishning ko‘payishi, qon aylanishining daqiqalik hajmining oshishi, qon bosimining ko‘tarilishi, umumiy qo‘zg‘aluvchanlikning oshishi, sezgirlik chegaralarining pasayishi, ilgari neytral stimullar salbiy emotsional rangga ega bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Xavotirlanish belgisi sifatida xavotir yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga, vaziyatdagi maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlarga e‘tiborni qaratadi, kuchlarni safarbar qilishga va shu bilan eng yaxshi natijaga erishishga imkon beradi. Shu sababli, xavotirning normal (optimal) darajasi haqiqatga samarali moslashish uchun zarur deb hisoblanadi (adaptiv xavotir). Haddan tashqari yuqori daraja, xulq-atvor va faoliyatning umumiy disorganizatsiyasida namoyon bo‘ladigan, moslashuvchan bo‘lmagan reaksiya sifatida qaraladi. Xavotirlanish muammolarini o‘rganishning asosiy oqimida xavotirning to‘liq yo‘qligi ham odatiy moslashishga xalaqit beradigan va doimiy tashvishga tushadigan, normal rivojlanish va ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan hodisa sifatida qaraladi. Oddiy xavotir, har qanday xavotir singari, shaxsning qadriyatlariga bo‘lgan munosabati, u shaxs sifatida uning mavjud bo‘lishi uchun yagona taqiy bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi.

Xavotirlikning fikrlash, idrok etish va o‘rganishga ta‘sirini hisobga olish kerak - bu nafaqat vaqt va makonni, balki odamlarni va hodisalarning ma‘nosini idrok qilishda chalkashlik va bezovtalikni keltirib chiqaradi. Bu o‘rganishga xalaqit berishi va diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytirishi, bir-birlari bilan (assotsiatsiyalar) bog‘liqlik qobiliyatini buzishi mumkin. Xavotirli fikrlashning muhim jihati uning tanlanganligi (selektivligi). Xavotirga tushgan bola atrofdagi hayotdan ma‘lum mavzularni tanlashga moyil bo‘ladi va boshqalarni e‘tiborsiz qoldirib, uning haqligini isbotlash uchun, vaziyatni qo‘rqituvchi va shunga yarasha munosabat bildiradi. Bola o‘z qo‘rquvini shu tarzda oqlaganida, uning xavotiri selektiv reaksiya bilan kuchayadi, bu esa tashvishning shafqatsiz doirasini yaratadi, idrok yetishmovchiligi va xavotirni kuchaytiradi.

Demak, xavotirlanish bolalarda kuzatila boshladimi unga jiddiy qarab tezda psixologik usullarini qo‘llash zarur. Hissiyotlar bola hayotida muhim rol o‘ynaydi, borliqni qabul qilish va unga munosabat bildirishga yordam beradi. Xavotirlanish bolalarda yuzaga kelishida kattalar ham sababchi bo‘lib qolishi mumkin, chunki ota-onalar bolalarga nisbatan katta talablarni qo‘yamiz, o‘z bolalarimizdan “sen shuni to‘g‘ri qilmading, seni deb boshim og‘riyapti, sen juda yomonsan, hech bir ishni eplolmaysan” deb tanqidlar ostida bolada o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, qo‘rquv va eng asosiysi doimiy xavotirli shaxsni yuzaga keltirib qo‘yamiz va natijada farzandimiz kelajagiga bilmagan holda bolta urishimiz mumkin. Natijada farzandlarimiz hamma narsadan qo‘rqadigan, mustaqil bir ishni bajarishga qo‘rqadigan bo‘lib qoladi, maktabga borganda ham bu o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu jarayon bolani ta‘lim olishiga hamda o‘z fikrini bildirishiga katta to‘sqinlik qilmasdan qolmaydi.

Psixolog V.R.Kislovskaya proyektiv test yordamida xavotirlanishning yosh bo‘yicha dinamikasini o‘rgandi. Uning ta‘kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda ota-onalarga nisbatan bog‘chadagi tarbiyachilar bilan muloqotda xavotirlanish ko‘proq namoyon bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tengdoshlari bilan bo‘ladigan muloqotga qaraganda notanish odamlar bilan muloqotda ko‘pincha xavotirlanish uchraydi. O‘smirlarda ota-onalari va sinfdoshlari bilan munosabatlarida xavotirlanish ko‘prok bo‘lsa, notanish katta yoshlilar va o‘qituvchilar bilan munosabatda kamroq uchraydi. Bolalikning turli bosqichlarida tashvishlanishni o‘rganish ushbu hodisaning mohiyatini ochib berish uchun ham, insonning hissiy sohasi rivojlanishining yoshga bog‘liq qonuniyatlarini tushunish, hissiy va shaxsiy shakllanishlarni shakllantirish uchun ham muhimdir.

Metodologik jihatdan xavotirlanishni amaliy o‘rganish psixologik hislarni tadqiq etish singari tadqiqotchilarga birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki bu xususiyatlar insonning e‘tiqodiga, emotsiyalariga, tempramentiga, individual harakter xususiyatlariga bog‘liq bo‘lganligi sababli insonlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan omillarni ko‘rinishlarini oshkor etishni xohlamasligi, metodika savollariga ochiq-oydin fikr bildirishdan bosh tortishlari kabi omillar tadqiqotchilar uchun birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu qiyinchiliklarni o‘z zimmamizga olib, biz ham ilmiy tadqiqot ishimizda o‘smirlarning xavotirlanish hissining turli xil ko‘rinishlarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun biz tadqiqot ishimizning metodikasi sifatida A.Fillipsning maktabdagi xavotirlanish darajasini diagnostika qilish metodikasi orqali aniqlashga harakat qildik. Ushbu metodika 58 ta savoldan iborat bo‘lib sinaluvchi berilgan savollarga o‘zining nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda (xa, yo‘q) javobini berish orqali javob beradi. Metodikaning maqsadi boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi bolalarda maktab bilan bog‘liq xavotirlanish darajasi va tabiatini o‘rganishdan iborat.

Dastlabki statistik tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, obyekt sifatida tanlab olingan 48 nafar o‘smir yoshidagi sinaluvchilarimiz sinflar miqyosida guruhlashtirib ular o‘rtasidagi xavotirlanish hissi namoyon bo‘lishi guruhlar o‘rtasida tavfovuti Mann-Uitni U mezoni bo‘yicha 5- va 6-sinf o‘quvchilari tahlil qilganda quyidagicha o‘ziga xos jihatlar qayd etildi.


1-jadval.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda xavotirlanish hissi namoyon bo‘lishining guruhlar o‘rtasida tafovuti (Mann-Uitni U mezonini bo‘yicha)

Shkalalar	Guruhlar		U	P
	5-sinf N=24	6-sinf N=24		
Maktabdagi umumiy xavotir	24.3	24.8	284.5	0.941
Ijtimoiy stressni boshdan kechirish	23.7	25.2	269.5	0.695
Muvaffaqiyatga erishish zaruratidan umidsizlik	22.6	26.3	244.5	0.360
O‘zini ifoda etishdan qo‘rqish	22.1	26.8	232.5	0.231
Bilim sinovi holatidan qo‘rqish	20.8	28.1	200.0	0.057*
Boshqalar umidlarini oqlamaslikdan qo‘rqish	22.5	26.4	242.0	0.314
Past fiziologik stressga chidamlilik	24.4	24.5	286.0	0.965
O‘qituvchilar bilan munosabat muammolar va qo‘rquvlar	25.1	23.8	273.0	0.745

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Ko‘rsatkichlarning taqqoslama tahlili xavotirlanish turlari bo‘yicha 5-sinf va 6-sinflar o‘rtasida guruhlashtirilganda U-mezonini ($p=0,05$; $0,01$; $0,001$) asosida sezilarli farqlar kuzatildi.



1-rasm. 5 va 6-sinf o‘quvchilar o‘rtasida xavotirlanish darajasi tiplari bo‘yicha aniqlangan tafovutlar

“Bilim sinovi holatidan qo‘rqish” bo‘yicha (o‘rtacha ranglar: 20.8 va 28.1) ishonch darajasidagi farqlar aniqlandi ($U=200.0$; $p \leq 0,05$). “Xavotirlanish darajasini diagnostika qilish” metodikasining qolgan shkalalari o‘rtasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 5- va 6-sinfdagi o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda “Bilim sinovi holatidan qo‘rqish” shkalasi bo‘yicha farqlilik jihati aniqlanib mazkur farqga ko‘ra 6-sinf o‘quvchilarida maktabda imtihon oldi xavotiri oshishi bilimlarni, yutuqlarni, imkoniyatlarni sinovdan o‘tkazish (ayniqsa, ommaviy) vaziyatlarda salbiy munosabat va xavotir hissini oshishi bilan farqlanadi. Bunga sabab ularda fanni o‘zlashtirishdagi muammolar va o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini kamligi bilan izohlashimiz mumkin. Bundan tashqari bu yoshdagi sinovchilarimizda o‘z holdiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lidagi birmuncha qiyinchiliklar borasida ko‘p o‘ylashi o‘zi xohlaganday kutilmalar bilan tugamaslik ehtimoli haqida fikr yuritishi ham ularning xavotirlanish hissini sezilarli darajada ko‘rsatib beradi.

Demak, bolalik davridagi ko‘plab psixologik qiyinchiliklar, shu jumladan ko‘plab rivojlanish buzilishlari asosida aynan tashvish yotadi degan fikrlarni keltirishimiz mumkin. Bolaning xavotirlanishi uning atrofidagi kattalar xavotirliligining darajasiga bog‘liq. Pedagog yoki ota-onaning yuqori xavotirliligi bolaga o‘tadi. Bolaga nisbatan xayrixoh munosabatda bo‘lgan oilalardagi bolalar tez-tez janjal bo‘ladigan oila bolalaridan ko‘ra kamroq xavotirlanadilar. Shunisi qiziqki, ota-onalar ajrashgach, oiladagi janjallar tugaganida ham bolaning xavotirlanish darajasi pasaymaydi, aksincha birdan oshib ketadi. Psixolog E.Y.Brel shunday qonuniyatni aniqladi: agar ota-onalar o‘z ishlari, yashash sharoitlari, moddiy ahvollaridan

qoniqmasalar bolalarning xavotirlanishi yanada ortar ekan. Ehtimol, shuning uchun ham bugun xavotirlanish darajasi yuqori bo‘lgan bolalar soni uzluksiz oshayotgandir.

Xulosa. O‘smirlik davrida muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi uning ishtirokchilari turli yosh guruhlariga mansubligiga ham bog‘liqdir. Natijada hayotiy tajribaning o‘zaro mos kelmasligi ular o‘rtasidagi muloqotga, uning samaradorligiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘smirlik davri haqida izlanishlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki bu davrda muloqot jarayonida ham xavotirlanish hissi namoyon bo‘ladi bu ota-ona va tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqatda yaqqolroq aks etishini ko‘ramiz. Chunki ularda muloqot jarayonida qandaydir sabablar ular bilan muloqatni cheklash, ichki dunyosini oshkor bo‘lib qolishdan xavotirlik tuyg‘usi ichki ruhiyatiga ta‘sir qilib turadi. O‘smir o‘z qiziqishlariga mos o‘rtoqlar davrasini qidiradi. Agar o‘smir o‘zini qoniqtirgan guruhni topolmasa juda qiynaladi, o‘z imkoniyatlariga nisbatan shubha paydo bo‘ladi, o‘zini yolg‘iz his eta boshlaydi.

Asosan o‘smirlik davrida uchraydigan xavotirlanish holati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlaridan yana biri bu- sotsiofobiya. Bu holat kichik guruh yoki chegaralangan muhitda atrofdagi odamlar tomonidan e‘tiborning qaratilishi natijasida xavotirlanishning vujudga kelishidir (masalan, maktab sinflarida). Sotsiofobiya bilan aziyat chekkan o‘smirlar bilimlari yetishmasligidan yoki o‘zlarining kamchiliklari boshqa odamlar guvohligida namoyon bo‘lib qolishidan cho‘chiydilar hamda uquvsiz hamkor bo‘lib qolishdan qo‘rqadilar. Shuning uchun ular ko‘pchilik orasida o‘zlarini ko‘rsatishdan, notanish odamlar bilan suhbat qurishdan va uchrashishdan qochadilar. Sotsiofobiya uchragan o‘smirlar darsda javob berishdan bosh tortadilar. Ular boshqa bolalarga nisbatan odamoviroq bo‘lib, tanqidni hamda ularni muhokama qilishlarini yoqtirmaydi. Ularga maktabga borish, jamoat ishlarida qatnashish yoqmaydi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ba‘zi malakalarni o‘zlashtirishlari qiyin kechadi. Oqib natijada bir necha xil tuyg‘ular birlashib o‘smirda xatorlanish hissini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Jumanazarov Y. Yosh davrlar psixologiyasi. – Namangan 2013. – B.75.;
2. Sirliyev B.N., Ismailova N., Xakimova N.M. Stress va Agressiya: O‘quv uslubiy qo‘llanma.- T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. - 120 b.
3. Прихожан А.М. Психология тревожности: дошкольный и школьный возраст. СПб., 2009. – В.65.
4. Старшина И.В. Феномен подростковой тревожности // Преподаватель XXI. 2007. № 1. – В.113.
5. Исаева Д.Н. Девиантное поведение детей и подростков. – М.: Академия, 2008. – 482 с.
6. Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002. – В.68-78.
7. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. - СПб: Питер, 2001. – С.104.
8. Rasulova F.F. O‘smirlarda agressiv xulq-atvorning empirik tahlili// Pedagogika. – Toshkent, 2017. – В.45.
9. Kamilova N.G. Muammoli o‘smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – T.: TDPU, 2004. – В.25.

Temirbekov Begdulla Orazimbetovich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

QORAQALPOQ OILALARINI MUSTAHKAMLASHDA ER-XOTIN MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Bu maqolada qoraqalpoq oilalarining mustahkamlanishida er-xotin munosabatlarining ahamiyati yoritilgan. Muallif bunday munosabatlar bir-biriga bo'lgan hurmat, e'tiqod va tayanch kabi munosabatlarga asoslanib, oilaning mustaqil, tinch va komil hayotiga asos bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, qoraqalpoq oilalarida er va xotin o'rtasidagi samarali muloqot oilada totuvlik va barqarorlikni ta'minlashda, kelajak rejalarini tuzishda, farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, oilaning ijtimoiy hayotida tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun er va xotin ijtimoiy muammolarni hal etishda, adolatsizlikka qarshi birgalikda kurashishi kerak. Muallif, shuningdek, bolalar ota-ona munosabatlaridan muhim qadriyatlarini o'rganishini, bu ularning kelajakdagi munosabatlari va ijtimoiy hayoti uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, muallif mustahkam va sog'lom qoraqalpoq oilalarini yaratishda er-xotin munosabatlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: hurmat, e'tiqod, munosabat, muloqot, uyg'unlik, barqarorlik, ijtimoiy muammolar, adolatsizlik, qadriyatlar, qoraqalpoq oilalari.

ЗНАЧЕНИЕ СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В УКРЕПЛЕНИИ КАРАКАЛПАКСКОЙ СЕМЬИ

Аннотация. В данной статье подчёркивается значение супружеских отношений в укреплении каракалпакской семьи. Автор подчёркивает, что такие отношения основаны на взаимном уважении, вере и поддержке и являются основой независимой, мирной и совершенной жизни семьи. Также в каракалпакских семьях эффективное общение между мужем и женой важно для обеспечения гармонии и стабильности в семье, построения планов на будущее, воспитания детей. Кроме того, чтобы сохранить мир и стабильность в общественной жизни семьи, муж и жена должны вместе бороться с несправедливостью в решении социальных проблем. Автор также подчёркивает, что дети усваивают важные ценности из отношений своих родителей, что необходимо для их будущих отношений и социальной жизни. По результатам исследования автор подчёркивает, что отношения между супругами играют важную роль в создании крепких и здоровых каракалпакских семей.

Ключевые слова: уважение, вера, отношение, общение, гармония, стабильность, социальные проблемы, несправедливость, ценности, каракалпакские семьи.

THE IMPORTANCE OF MARITAL RELATIONS IN STRENGTHENING KARAKALPAK FAMILIES

Abstract. This article emphasizes the importance of husband and wife relations in strengthening the Karakalpak family. The author considers that such relationships are based on mutual respect, faith and support and are the basis for an independent, peaceful and perfect family life. Also in Karakalpak families, effective communication between husband and wife is important to ensure harmony and stability in the family, to make plans for the future, and raise children. In addition, husband and wife must work together to fight injustice in solving social problems in order to maintain peace and stability in the social life of the family. The author also emphasizes that children learn important values from their parents' relationships, which are essential for their future relationships and social lives. Based on the results of the research, the author emphasizes that relationships between spouses play an important role in creating strong and healthy Karakalpak families.

Keywords: respect, faith, attitude, communication, harmony, stability, social problems, injustice, values, Karakalpak families.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 27 iyunda «O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori bilan konsepsiyaning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi [1]. Mazkur konsepsiyaning amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, unda oila institutini

mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, qiyin hayotiy sharoitga ega oilalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida olish maqsadida «Oila» markazining yagona idoralararo axborot bazasini yaratish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og‘ir turmush sharoitlarini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish ko‘zda tutilgan. Shu sababli, mazkur maqolaning asl maqsadi qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er va xotin munosabatlarini yaxshilash omillarini taqdim etishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va metodlari. Mazkur tadqiqotning obyektiga qoraqalpoq oilalaridagi er va xotin munosabatlari kiradi. Ushbu tadqiqotni olib borishda asosan kuzatish va so‘rov metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi: turmush qurgan er-xotinlarning e‘tiqodlari va qadriyatlarini qanday qo‘llashlarini va bir-birlari bilan qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganish uchun kuzatish usuli olib borildi. Kuzatish, shuningdek, mojaro holatlarini va ularni oilada hal qilishni kuzatish imkonini beradi. So‘rov usuli: So‘rovlar qoraqalpoqlarning oilaviy munosabatlariga oid ma‘lumotlarni yig‘ish maqsadida o‘tkaziladi. So‘rovlar nikoh munosabatlari oilaga qanday ta‘sir qilishi, qanday muammolar paydo bo‘lishi, ularni hal qilish uchun qanday strategiyalar qo‘llanilishi va boshqalar haqida umumiy ma‘lumot beradi.

Natija. Qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er-xotin munosabatlarining ahamiyati katta. Bu munosabatlar oilaning bir-biriga bo‘lgan hurmati, e‘tiqodi va munosabatlari asosida rivojlanadi. Oilaning mustaqil, osoyishta va mukammal hayotini ta‘minlashda er-xotin munosabatlari asos vazifasini bajaradi.

Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar oila a‘zolari o‘rtasidagi muloqotni, kelajak rejalarini va bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Er va xotin bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari va fikr almashishlari kerak. Bu oilada tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarurdir.

Bundan tashqari, oilaning ijtimoiy hayotida er-xotin munosabatlari ham muhim o‘rin tutadi. Er va xotin adolatsizlikka qarshi kurashib, ijtimoiy masalalarda bir-birlariga yordam berishlari kerak. Bu oilaning ijtimoiy hayotida barqarorlik va tinchlikni ta‘minlash uchun zarurdir [2, 728-732].

Xuddi shunday, er-xotin munosabatlari bolalarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Bolalar hurmat, mehr va oqibat kabi munosabatlarni ota-onalaridan o‘rganadilar. Bu ularning o‘z munosabatlarida va ijtimoiy hayotida tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarurdir.

Qoraqalpoq oilalari orasidan 100 nafar er va xotin o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnomaning asosiy maqsadi qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er va xotin munosabatlarining ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iborat edi.

1-diagramma. So‘rovnoma



Mazkur diagrammada ko‘rinib turganidek, qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er va xotin munosabatlarining ahamiyatini ko‘rsatib berishda qayd etilgan 100 nafar er va xotinlarning javoblaridan shuni ko‘rish mumkin, ya’ni er va xotinlarning 22% i qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er va xotin o‘rtasida ishonch ahamiyatligini ta’kidlasa, 28% er va xotinlar o‘zaro hurmat muhimligini aytib o‘tgan. Shuningdek, 18% er va xotin oila mustahkamligida mehr-muhabbat tamoyili kuchliligini ko‘rsatgan. Ammo qoraqalpoq oilalarining mustahkamligi er va xotinning totuvligida ekanligini ko‘rsatgan.

Tahlil. Shuni aytish mumkinki, qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er-xotin munosabatlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu munosabatlar mustahkam va barqaror oilaning asosini tashkil qiladi va oila a’zolarining umumiy farovonligi va baxtiga hissa qo‘shadi. Bir nechta sabablar bu munosabatlarning muhimligini ta’kidlaydi.

Birinchiidan, sog‘lom er va xotin munosabatlari oilada hamjihatlik va totuvlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Er va xotin o‘rtasida kuchli rishta bo‘lsa, ular uy vazifalarini boshqarishda va muhim qarorlar qabul qilishda bir jamoa bo‘lib ishlashlari mumkin. Ushbu jamoaviy ish er-xotin va ularning farzandlari uchun barqarorlik va xavfsizlik hissini rivojlantiradi.

Ikkinchiidan, er va xotin o‘rtasidagi qo‘llab-quvvatlovchi va mehrli munosabatlar ularning farzandlari uchun sog‘lom xulq-atvor namunasidir. Bolalar ota-onalarning o‘zaro munosabatlarini kuzatish orqali sevgi, hurmat va muloqot haqida bilib oladilar. Er-xotinlar ijobiy va hurmatli munosabatlarni saqlab qolishsa, ular o‘z farzandlariga kelajakdagi munosabatlarida bu fazilatlarining muhimligini namoyish etadilar [3, 45-48].

Bundan tashqari, kuchli er va xotin munosabatlari qiyin paytlarda ikkala sherikga ham hissiy yordam beradi. Hayotda moliyaviy stress, sog‘liq muammolari yoki katta oila a’zolari bilan nizolar kabi turli xil qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Tushunish va hamdardlik bildiradigan hamrohga ega bo‘lish bu yuklarni sezilarli darajada yengillashtirishi va er-xotin va ularning oilasining umumiy farovonligiga hissa qo‘shishi mumkin.

Shuningdek, sog‘lom er va xotin munosabatlari oilada samarali muloqotga yordam beradi. Yaxshi muloqot nizolarni hal qilish, birgalikda qarorlar qabul qilish va his-tuyg‘ularni samarali ifoda etish uchun zarurdir. Ochiq va halol muloqotda bo‘lgan er-xotinlar bir-birlarining ehtiyojlari, istaklari va tashvishlarini tushunish ehtimoli yuqori bo‘lib, oxir-oqibat o‘zaro rishtalarni va butun oilani mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, er va xotin munosabatlari ishonch va sadoqat tuyg‘usini kuchaytiradi. Ishonch har qanday muvaffaqiyatli munosabatlarning asosiy ustuni bo‘lib, o‘zaro hurmat, halollik va mas’uliyatga asoslanadi. Er-xotinlar bir-biriga ishonganda, ular o‘zlarini ochiq ifoda etishlari va chuqurroq aloqalarni rivojlantirishlari mumkin bo‘lgan xavfsiz muhitni yaratadi [4, 87-89].

Umuman olganda, qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning ahamiyatiga madaniy, iqtisodiy, shaxslararo va individual omillarning kombinatsiyasi ta’sir qiladi.

Qoraqalpoq oilalarini mustahkamlash va er-xotin munosabatlarini yaxshilashning bir qancha usullari mavjud.

Birinchiidan, turmush o‘rtoqlar o‘rtasida ochiq muloqotni targ‘ib qilish juda muhimdir. Er-xotinlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, ehtiyojlarini va tashvishlarini ochiq va hurmat bilan ifoda etishga undashlari kerak. Bunga nikoh bo‘yicha maslahatlar yoki samarali muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatadigan seminarlar orqali yordam berish mumkin.

Ikkinchiidan, o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish juda muhimdir. Er-xotinlar bir-birining farqlari va kuchli tomonlarini qadrlashga, tanqid yoki salbiy gaplardan qochishga undashlari kerak. Hurmat muhitini yaratish sog‘lom va mehrli munosabatlarga olib keladi.

Uchinchiidan, nikohda tenglikni targ‘ib qilish muhimdir. Ikkala turmush o‘rtog‘ini mas’uliyat va qaror qabul qilish jarayonlarini bo‘lishishga undash bir shaxsning yukini kamaytirishga va hamkorlik tuyg‘usini yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, nizolarni hal qilish bo‘yicha ta’lim va yordam berish foydalidir. Er-xotinlar kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda hal qilishni va murosaga kelishni o‘rganishlari kerak. Ularga muammoni samarali hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, muammolarning kuchayishini va munosabatlarga zarar yetkazishining oldini oladi.

Bundan tashqari, er-xotinlar uchun sifatli vaqtni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ularni birga vaqt o‘tkazishga, umumiy manfaatlar yoki faoliyatlar bilan shug‘ullanishga va o‘zaro munosabatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishga undash ularning rishtalarini mustahkamlashga va doimiy xotiralarni yaratishga yordam beradi [5, 1515-1521].

Nihoyat, munosabatlarida qiyinchiliklarga duch kelgan juftliklar uchun yordam va resurslarni ta’minlash juda muhimdir. Oiladagi zo‘ravonlik yoki giyohvandlik kabi masalalar bo‘yicha maslahat xizmatlari, qo‘llab-quvvatlash guruhlari yoki jamoat resurslariga kirishni taklif qilish qiyin paytlarda muhim yordam berishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu yondashuvlarni amalga oshirish va o‘zaro munosabatlarning turli jabhalarida yordam ko‘rsatish orqali qoraqalpoq oilalari er va xotin munosabatlarini mustahkamlashlari va o‘z xonadonlarida mustahkam totuvlikni mustahkamlashlari mumkin.

Xulosa. Qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er-xotin munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Ular sheriklar va ularning farzandlariga birdamlik, qo‘llab-quvvatlash, sevgi va yo‘l-yo‘riq beradi. Er-xotinlar sog‘lom munosabatlarni tarbiyalash orqali o‘z oilasining umumiy farovonligi va baxtiga hissa qo‘shishi, kelgusi avlodlar uchun mustahkam va uyg‘un muhitni ta‘minlashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.

3. Ramatov J., Umarova R., Baratov R., Sultanov S., Nazarova N., & Khasanov M. (2022). Ways of regulating family relations and preventing conflicts (in the example of the state of Uzbekistan). *Теория и практика современной науки*, (12 (90)), 45-48.

4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Москва. “Гайдарики” 2005. -310 с.

5. Nechayeva V.V., & Kurilovich M.A. (2016). Satisfaction with the marriage as a factor of tolerant consciousness of the marital relations. *Экономика и социум*, (3 (22)), 1515-1521.

6. Eshmurodov O. (2022). Ўзбек oilasi mustahkamligini ta‘minlashda milliy kadriyatlarнинг ўрни. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>

7. Bo‘riyeva M. (2023). Migrant oilalaridagi er-xotin munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari. *Academic Research in Educational Sciences*, 4 (6), 263-267.

8. Коноплёва Л.С. Анализ ригидности и удовлетворённости браком у семейных пар с разным социальным статусом детей в структуре семьи / Л.С. Коноплёва, М.А. Курилович // *Universum: Психология и образование: электрон. научн. журн.* 2014. № 3 (4). URL: <http://www.7universum.com/en/psy /archive /item/1089>.



Tovbaeva Mukaddam Safarovna,
Samarqand davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ZO'RAVONLIK XULQIDAGI SALBIY SIFATLARNING NAMOYON BO'LISHINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada zo'ravonlik xulqidagi salbiy sifatlarning nizolarga sabab bo'lishi, shaxsga bog'liq bo'lgan sifatlarga ta'sir ko'rsatishi, zo'ravonliklarni sodir etilishi oila a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklarni namoyon bo'lishi, psixologik xususiyatlari va xulq atvori shaxs ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi, xo'rlash, jabr-zulm qilish, zo'ravonlik qilish, o'ziga bo'ysundirish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, shaxs ruhiyati, xo'rlash, jabr-zulm qilish, zo'ravonlik qilish, o'ziga bo'ysundirish, qiynash, qo'rqitish, asabga tegish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ НЕГАТИВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРИ НАСИЛЬСТВЕННОМ ПОВЕДЕНИИ

Аннотация. В статье негативные качества агрессивного поведения являются причиной конфликтов, влияют на качества, которые зависят от личности, насилие - это проявление разногласий между членами семьи, психологическими особенностями и поведением, дана информация о том, как поведенческие стратегии влияют на психику, человека, унижать, притеснять, оскорблять, оставлять в беспомощном положении или подчинять.

Ключевые слова: поведение, личность, унижение, притеснение, насилие, безысходность, порабощение, пытки, запугивание, эмоциональное расстройство.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF NEGATIVE CHARACTERISTICS IN VIOLENT BEHAVIOR

Abstract. In the article, the negative qualities of aggressive behavior are the cause of conflicts, affect qualities that depend on the individual, violence is a manifestation of disagreements between family members, psychological characteristics and behavior, information is given on how behavioral strategies affect the psyche of a person, humiliate, oppress, insult, leave in a helpless position or subjugate.

Keywords: Behavior, personality, humiliation, oppression, violence, humiliation, enslavement, torture, intimidation, emotional distress.

Tadqiqotning dolzarbligi. Oilada zo'ravonlik yuzaga kelishida shaxsga bog'liq bo'lgan sifatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, salbiy xulq-atvor sifatlarini namoyon etish nafaqat nizolarni, balki zo'ravonlikni qo'zg'atishga va qo'llashga olib keladi. Nikoh va oiladagi destabillashuv munosabatlarida zo'riqishni keltirib chiqaradi, shuning uchun oiladagi destabillashuv manbaiga aylanishiga turtki bo'ladigan salbiy sifatlari olindi.

Aslida insonlarda uchraydigan axloqiy illatlar ko'pincha inson tarbiyaviy jarayonlariga e'tiborsizlik oqibatida, uning jamoasidagi (oila, bog'cha, maktab, mahalla) nosog'lom psixologik muhit ta'sirida, shuningdek, uning yashash jarayonida uning ko'z o'ngida yuzaga keladigan turli muammolar, qiyinchiliklar, kamchiliklar va boshqa sabablar asosida shakllanadi. Keyinchalik uning jamiyatda shaxslararo munosabatlari jarayonida unda yetarli darajada shakllanmagan imkoniyatlar, turlicha muammolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lib qoladi.

Er-xotin o'rtasidagi nizolar asosan, jinsga oid tafovutlarning borligi, doimiy hukmronlik yoki zo'ravonlikka intilish hislarining mavjudligidan kelib chiqadi. Bu holat oilada tarbiyalanayotgan farzandlar ongi va tasavvuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari shuni unutmazlik lozimki, inson xulq-atvorining shakllanishi, ko'p jihatdan oiladagi muhit ta'siriga bog'liq bo'lib, oiladagi bolalarning kattalarga taqlid qilishi asosida rivojlanib boradi. Shu nuqtayi nazardan, oilada nizoning mavjudligi, ya'ni ota-onalar tomonidan farzandlarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy munosabatda bo'lishi og'ir oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Bunday zo'ravonliklar voyaga yetmaganlarning ruhiy rivojlanishning yomonlashuvi, uzoq muddatli aqliy nosozlik va nosog'lomlik kabilardan iborat bo'lishi mumkin bo'lib, o'z navbatida jismoniy nosog'likka

ham olib kelishi mumkin. Shunday omillar mavjud bo'lgan oilalarga jamiyat tomonidan yetarlicha yordam berilmasa, unda yashayotgan bolalarning zo'rvonlikdan jabr ko'rish xatari yuqori bo'ladi.

Oiladagi nizolarning kelib chiqishida shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori sabab bo'ladi. S.M. Mirovich ba'zida bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi shaxsdagi salbiy xulq-atvor bilan bog'liq bo'ladi deb izohlaydi. Agar oilada nosog'lom muhit mavjud bo'lsa, salbiy xususiyatlarning shakllanish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bu shundan dalolat beradiki, nosog'lom oilada yashovchi shaxslar deyarli boshqalarga qaraganda o'zini tutishi va xulq-atvori bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida oilada zo'rvonlikning sodir etilishini ta'minlovchi vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Zo'rvonliklarni sodir etilishiga oila a'zolari o'rtasidagi uzoq davom etgan kelishmovchilik va nizolar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining o'rtasida zo'rvonlikning sodir etilishida birinchi o'rinda jabrlanuvchini kamsitish, haqorat qilish, g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarni sodir etilishi nizo ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qilmish sodir etish orqali hal etilishiga olib keladi. O'ch olish, qasos, oila a'zolarining bir-birini yoqtirmasligi, adovat, alam, kelishmovchilik va psixologik ziddiyatlar zo'rvonliklarning sodir etilishini taqozo etuvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ularning ta'siri natijasida munosib javob qaytarish, kuchi, jahli yoki nimaga qodir ekanligini ko'rsatish, xafa qilgan kishiga shikast yetkazish yo'li bilan boshidan kechirgan azob-uqubat va kechinmalar o'rni ruhan to'ldirishga intilish kabi psixologik vaziyatlar vujudga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, oila a'zolari o'rtasida vujudga kelgan nizolarni zo'rvonlik sodir etish orqali o'ziga yaqin bo'lgan kishilariga jabr yetkazishning viktimlik darajasining ko'p qismi ayollar hissasiga to'g'ri kelib, ya'ni 62,7% ni tashkil etdi. Bu qilmishlarning sodir etilishini oilada er-xotin o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning salbiy ekanligi, ularning bir-biriga g'amxo'r emasligi, munosabat jarayonida qo'pollikning majudligi, ayniqsa tarbiyaning zaifligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotning ko'rsatishicha, oilaviy munosabatlarda ayrim toifadagi ayollarning oilada o'z hukmronligi yoki o'z ta'sirini o'rnatishga intilishi ko'p hollarda salbiy oqibatlariga olib keladi. Ayniqsa, oila a'zolari o'rtasida turli asossiz bahonalarni qidirib janjallarning sodir etilishi zo'rvonlikning sodir etilishiga olib kelgan.

Agar ayol jamiyatda erkak bilan tenglashsa, u beixtiyor erkaklarga xos bo'lgan agressiv xulq-atvor tipini qabul qiladi, ayni shu holat ayolning o'zini agressiv tuta boshlashiga olib keladi.

Ayrim adabiyotlarda, erkaklarning yetakchilik mavqeyi ayollarni iqtisodiy va ruhiy qaramlikka tushirib, ularni erkak kishining shaxsiy mulkiga aylantiradi. ayollarga zo'rvonlik qilishni oddiy holat deb bayon etiladi. Ba'zida zo'rvonlikning sodir etilishida erkaklar o'z-o'zlariga nihoyatda baland baho berishi, ayollar mavqeyini pastga urishi, ularni kamsitishi kabi omillar ham mavjud.

Ba'zi bir oilalarda ayrim nomaqbul urf-odatlar va rasm-rusumlar borki, ular bu oilalar a'zolarining yurish-turishi normalarini belgilaydi. Urf-odatlar hamda ularga rioya etish talablari xususan ayolni erkaklar bilan teng bo'lmagan vaziyatga qo'yadi. Oilada qizlarni kattalarga va eriga itoatkorlik ruhida tarbiyalash hanuzgacha saqlanib qolgan va namoyon bo'ladi.

Shaxs ruhiy holatining buzilishi muhim rol o'ynaydi. Nizolar ba'zi hollarda qiziqqonlik, agressivlik, tajovuzkorlik, o'zini nazorat qila olmaslik kabi hayotiy vaziyatlarda vujudga kelishi ham tasdiqlangan. Oila a'zolarini o'ziga qaram bo'lgan shaxs sifatida qarash, ularga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, oiladagi barcha masalalar bo'yicha oilaning boshqa a'zolari fikrini eshitmaslik yoki umuman qabul qilmaslik, o'zi yakka qaror qabul qilish, o'z ta'siri va zulmini o'tkazishga harakat qilish bilan ifodalanadi.

Fikrimizcha, oilada sodir etiladigan zo'rvonlikning ijtimoiy munosabatlardagi rolini bir so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Chunki, bu zo'rvonliklar asosan o'zini ko'rsatish, boshqalar oldida obro' orttirishga intilish yoki o'zining nimaga qodir ekanligini ko'rsatish maqsadlarida ham sezilarli darajada sodir etiladi.

Oilada sodir etiladigan zo'rvonliklarning kelib chiqishiga ko'pgina holatlarda jabrlanuvchining xulqi ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bundaylarga muntazam ravishda dag-dag'a qilish, haqoratlash, nomaqbul laqablar bilan chaqirish va og'zaki zo'rvonlikning boshqa ko'rinishlari, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish, yakkalatib qo'yish va his-tuyg'ularni tan olmaslik kabilar sabab bo'ladi.

Shaxsdagi nomaqbul fe'l-atvor ko'pincha inson psixologiyasiga salbiy ta'sir etishda namoyon bo'lib zo'rvonlikning sodir etilishida muhim rol o'ynaydi. Shaxsning haqoratlanishi yoki uning kamsitilishi unga ruhiy ta'sir etish bilan bog'liq bo'lib, zo'rvonlikning sodir etilishini vujudga keltiradi.

Bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga ruhiy tazyiq o'tkazish, ya'ni unga laqab qo'yish, uni yakkalatib qo'yish, fikriga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish, uni rad etish yoki umuman e'tiborga olmaslik, do'q-po'pisa bilan qo'rqtirish, yerga urish, kamsitish, uning xatti-harakatlari ustidan kulish va asabni buzuvchi so'zlar bilan muomala qilish kabilar zo'rvonlikning sodir etilishida asosiy rol o'ynaydigan ma'naviy-ruhiy xususiyatlar hisoblanadi.

Zoʻrlik hukm suradigan oilaviy muhitda doimiy ravishda zoʻravonlik roʻy berishini kutish natijasidagi doimiy qoʻrquv va tashvish, u roʻy berayotganda esa ogʻriq, xoʻrlanish va qoʻrquv, nisbatan kattaroq yoshdagilar guruhlarida esa, ota-ona tomonidan inkor qilinganlik tufayli yolgʻizlik, ishonchsizlik va baʼzan oʻz-oʻzidan nafratlanish kabilar mavjud boʻladi. Afsuski, koʻp hollarda bolalardagi taʼlim tarbiyaning buzulishiga kattalarning oʻzi ham sababchi boʻlishi kuzatiladi. Oilada kattalarning ahloqqa zid koʻrinishidagi salbiy maʼnaviy-ruhiy xususiyatlari nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishga qulay vaziyat yaratadi. Bularning oqibatida nizolarni yanada kuchayishi, sonining ortishi kuzatiladi.

Baʼzida oilada kattalar tomonidan bolalarni kaltaklash kabi gʻayriijtimoiy salbiy xulq-atvor ham zoʻravonliklarning sodir etilishini keltirib chiqaradi. Bunday jismoniy jazolashning aksariyat qismi bolani urish (savallash, kaltaklash, shapalatish) orqali amalga oshiriladi.

Oilada shunday muhitning mavjudligi bolada nafaqat oila va ota-ona uchun, balki oʻzining kelajagi hayotini barbod boʻlishiga ham sabab boʻlishi mumkin.

Oʻsmirlarning spirtli ichimliklarga berilishi va zoʻravonlik bilan bogʻliqligi ham aniqlangan. Masalan, 12-18 yoshlilar tomonidan amalga oshirilgan zoʻravonlik holatlarining 45 % zoʻravon yoki jabrlanuvchi tomonidan spirtli ichimlik isteʼmol qilinishi bilan bogʻliq boʻlib, bunday zoʻravonlik bilan ichkilik oʻrtasida jiddiy bogʻliqlik boʻlgan.

Maʼlumki, spirtli ichimlik isteʼmol qilish odamning asabiga taʼsir koʻrsatib, ruhiy koʻtarilish va tormozlanish jarayonini oʻzgartirib yuboradi. Ichkilikning taʼsirida oilada bezorilikning sodir etilishi ehtimoli ham ancha yuqori boʻladi. Ushbu bezorilik harakatlarini sodir etayotgan shaxsning ongida «hech kimdan qoʻrqmayman» degan iborani notoʻgʻri tushinishi bilan oʻz xatti-harakatining oqibatini anglab yetolmaslik kabi xususiyatlar namoyon boʻladi. Shaxs mastlik holatida oʻzini idora qila olmaydigan ahvolga tushib qolishi oqibatida zoʻravonlikning vujudga kelishiga olib keluvchi xatti-harakatlar sodir etadi. 70% zoʻravonliklarning ichkilikbozlik oqibatida sodir etilishini ham eʼtiborga olish lozim.

Spirtli ichimlikning isteʼmol qilinishi natijasida shaxsda oʻz xatti-harakatining oqibatini anglab yetmaslik, ayniqsa, uning xulq-atvorida emotsional holatlarning salbiy tomonga oʻzgarishi kuzatiladi. Hayot tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, mast odamlarning aksariyat qismi jizzaki va qoʻpol boʻlib qoladi. Buning natijasida mast kishining ongida jamiyatda oʻrnatilgan ahloq-odob normalariga befarqlik va hurmatsizlik bilan qarash xususiyatlari paydo boʻladi. Ichkilikbozlikning ijtimoiy xavfli tomoni shundaki, ichkilikni isteʼmol qilgan vaqtda shaxsning ruhiyatida stressli holatlar yuqori boʻladi. Ogʻir hayotiy muammoga duchor boʻlganda (qasd, rashk, adovat, kelishmovchilik, mensimaslik, xiyonat, ishining yurishmasligi, oilada yetishmovchilik va qiyinchilik) shaxs oʻzini boshqara olmasligi natijasida oilada zoʻravonlikni oʻta vahshiylik bilan sodir etadi.

Ichkilikbozlikning salbiy tomoni shundaki, jamoat tinchligi va xavfsizligi, jamiyatda belgilangan normalarning buzulishiga, ayniqsa oilada oʻsib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga jiddiy salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Tahlillarga koʻra, ichkilikbozlik tufayli oilada er-xotinning oʻrtasidagi oʻzaro salbiy munosabatlar, farzandlarning ilk bolalik davridan kamsitilishi yoki kaltaklanishi, ruhan haqoratlanishi sababli yuzaga kelgan asoratlar, jarohatlar oqibatlari eng koʻp tarqalgan hodisadir.

Oiladagi despotizmning bir koʻrinishi sifatida zoʻravonlik muhim psixologik va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bunday ijtimoiy oqibatlarga alohida oilalarni qoralash, ijtimoiy izolyatsiya, oila aʼzolarining qoʻllab-quvvatlash guruhlariga yoki ijtimoiy taʼminot tizimiga vaqtincha yoki surunkali iqtisodiy va psixologik bogʻliqligi kiradi. Ayni paytda jinoyatchilikning koʻpayishi, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, mehnat bozoridagi yuqori raqobat, oilada ayollarga nisbatan zoʻravonlik harakatlarining namoyon boʻlishi bilan tavsiflangan hozirgi noqulay ijtimoiy sharoitlarda oilaviy munosabatlarda deyarli «norma» hisoblanadi. Shu bilan birga, koʻpincha zoʻravonlik harakatlarini targʻib qiluvchi ommaviy axborot vositalarining bosimiga eʼtibor qaratish lozim. Shu sababli, hozirgi vaziyatda erkaklar ayollariga nisbatan xatti-harakatlarida har xil ogʻishlarning paydo boʻlishi maʼlum umumiy andoza boʻlib qolayapti.

Tadqiqot ishimizda ishtirok etgan kontingent: 25-35 yoshdagi kishilar oʻrtasida “Oiladagi gender munosabatlarda zoʻravonlik deganda nimani tushunasiz?” savoli berildi. Oiladagi zulmkorlikning kelib chiqishining eng asosiy sabablari sifatida: oilada bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi, ruhiy jihatdan taʼsir etishga qaratilgan xatti-harakati, oʻz hukmronligini va taʼsirini oʻtkazish hamda bir-birini ruhiyatini ezish, his-tuygʻularini soʻndiruvchi soʻz aytish va shu kabilar koʻrsatildi.

“Oiladagi gender munosabatlarda zulmkorlik deganda nimani tushunasiz?” (% da)

Savol: Oiladagi gender munosabatlarda zulmkorlik deganda nimani tushunasiz? Javob variantlari:	Javoblar tanlanishi % da
oilada bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi	27,0
ruhiy jihatdan ta'sir etishga qaratilgan xatti-harakat	16,6
o'z hukmronligini va ta'sirini o'tkazish	5,5
his-tuyg'ularini so'ndiruvchi so'z aytish	11,6
bir-birini ruhiyatini ezish	8,3
shunchaki asabga tegish	7,1
ruhiy azob berish	7,4
qiynash	3,7
qo'rqitish	4,6

Olingan natijalariga ko'ra, oilada bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi, ruhiy jihatdan ta'sir etishga qaratilgan xatti-harakat, o'z hukmronligini va ta'sirini o'tkazish hamda bir-birini ruhiyatini ezish, his-tuyg'ularini so'ndiruvchi so'z aytish va shu kabilar gender munosabatlarda despotizmni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi.

Ekspiriment shuni ko'rsatdiki, oiladagi zulm va zo'rvonlik asosan er-xotinlar o'rtasida kelishuvining yo'qligi tufayli yuzaga keladi va oila muhitida bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq omillar orasida oiladagi moddiy yetishmovchilik; aka-ukaning yoki ularning turmush o'rtog'ining, farzandlarining va qaynona-kelinlarning o'rtasidagi turli kelishmovchiliklar; oilada erkakning spirtli ichimliklarni iste'mol qilib, mast holatda turli sabablarsiz nizolarni keltirib chiqarishi yoki ishsizligi; oilalarning, ayniqsa yosh oilalarning ishiga kattalarning yoki qarindosh urug'larning noo'rin aralashuvi; oilada erkak yoki ayolning bir-biriga nisbatan rashk va hiyonat qilishi, bir-biridan jinsiy qoniqish hissining yo'qligi yoxud er-xotin o'rtasida mehr-muhabbatning pastligi; yoshlarning erta turmush qurayotganligi ularning hayotiy tajribasi yo'qligi, uy-ro'zg'or ishlariga tayyor emasligi; oilada qaynona-kelin yoki erining oila a'zolari tomonidan kamsitilishi yoxud unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lmaslik holatining mavjudligi; oilalarda azaliy milliy urf-odat va qadriyatlarining e'tirof etilmasligi natijasida oila a'zolari o'rtasida bir-birlarini hurmat qilmaslik yoki tushunish kabi insoniy xislatlarning yo'qligi sabab bo'layotganligini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi zo'rvonliklarning vujudga kelishini taqozo etuvchi omillarni o'rganish muhim muammodir. Oilada zo'rvonlik erkakga, ayolga, bolaga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan zulmkorlik, tajovuzkorlik ko'rinishlardagi munosabatda bo'lishi achinarli holdir. Zulmning oldini olish uchun xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zulmkorlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zulmkorlikdan xoli bo'lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar:

1. Акрамова Ф.А. Психологическое здоровье как условие успешной социализации личности. / Этика ва эстетиканинг долзарб масалалари. Даврий тўплам № 4. 2020 йил февраль. - Б. 32-36.
2. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси. – Т., 2006. – 142 б.
3. Ташмухамедова Д.Г., Акрамова Ф.А. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш: “Бахтли оила сари”. – Тошкент: ООО “NORI” МЧЖ, 2019. – 47 б.
4. Лоиков П. Формирование межличностных отношений в семье. / Вестник Таджикского национального университета Издательство: Таджикский национальный университет (Душанбе) Том: 2 Номер: 3-7 (124) Год: 2013 Страницы: 290-291 ISSN: 2074-1847
5. Лысова А.В. Насилие в семье и межличностных отношениях в России: обзор основных исследований // Криминология: вчера, сегодня, завтра. Труды Санкт-Петербургского криминологического клуба. – СПб.: Астерион, № 2 (15), 2008. - 0,5 п.л.
6. Майерс Д. Социальная психология. – М., 2000, 688 с.



Toyirova Shahlo Izatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
toyirova@mail.ru

PSIXOLOGIYADA O'SMIR EGIZAKLARNI BIR-BIRIDAN FARQLASHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Monozigota va Dizigota egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi psixologik determinantlari ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan bo'lib, aynan egizaklarni psixologik farqlanish determinantlari amaliy tadqiqotlardan olingan natijalar asosida ochib berilgan. Egizaklarda bir-biridan farqlanuvchi psixologik xususiyatlarga ta'sir etuvchi omillar maqolaning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: egizak, determinant, farqlanish, omil, mexanizm, refleksiv xarakter, ochiqlik-oshkoralik, korrelyatsiya, gen, psixodiagnostik, tajovuzkorlik, ekstraversiya-intraversiya, monozigota, dizigota.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ БЛИЗНЕЦОВ-ПОДРОСТКОВ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье на основе научно-теоретических подходов анализируются психологические детерминанты монозиготных и дизиготных близнецов, отличающихся друг от друга, а также выявляются детерминанты психологической дифференциации близнецов на основе результатов, полученных в ходе практических исследований. Факторы, влияющие на психологические особенности близнецов, отличающиеся друг от друга, служат раскрытию сути содержания статьи.

Ключевое слово: близнец, детерминанта, дифференциация, фактор, механизм, рефлексивный характер, открытость, корреляция, ген, психодиагностика, агрессия, экстраверсия-интроверсия, монозигота, дизигота.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF DISTINGUISHING TEENAGE TWINS FROM EACH OTHER IN PSYCHOLOGY

Abstract. In this article, the psychological determinants of monozygotic and dizygotic twins, which differ from each other, are analyzed based on scientific and theoretical approaches, and the determinants of psychological differentiation of twins are revealed based on the results obtained from practical studies. Factors affecting the psychological characteristics of twins, which differ from each other, serve to reveal the essence of the content of the article.

Keywords: twin, determinant, differentiation, factor, mechanism, reflexive character, openness, correlation, gene, psychodiagnostic, aggression, extraversion-introversion, monozygote, dizygote.

Kirish. Zamonaviy psixologiyada Monozigota va Dizigota egizaklarni o'rganishga oid muammolar bevosita shaxs bilan shug'ullanuvchi fan mutaxassislarining nazariy va amaliy tadqiqotlarini amalga oshirishga undaydi. Egizaklar psixologiyasi sir-sinoatga boyligi bilan psixologiyasi fani nuqtayi nazardan ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu esa bizdek tadqiqotchilarning qiziqishini ortib borishiga olib keladi.

Xususan, egizaklarga bo'lgan qiziqish 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida fanda juda xarakterli hodisa edi. Tadqiqotchi olimlar egizaklarning biologiyasi, patologiyasi, kelib chiqishi va boshqalarni o'rgandilar. O'sha davrning ko'plab taniqli psixologlarining ilmiy-nazariy asarlarni uchratamiz; masalan, E.Torndik 15 juft egizak va ularning bir tug'ilgan aka-uka va opa-singillarini bir qancha testlar, jumladan, arifmetika, lug'at va boshqalar bo'yicha o'rgangan; bu testlar bo'yicha aka-uka korrelyatsiyasi 0,3-0,4, egizaklar -0,71-0,90. Tadqiqot natijalari Torndaykni irsiyatning ruhiy xususiyatlardagi aniq roli haqidagi fikrlari o'z ahamiyatlilik darajasida bo'lgan. Biroq bu holda, bir butun sifatida egizaklar guruhi bir tug'ilganlar guruhi bilan taqqoslanganda, zamonaviy shakldagi egizak usuli hali shakllanmagan edi. Tajribalar natijasida fransuz psixologi R.Zazzo ikki yoshli monozigot egizaklar oynadagi o'z aksini zo'rg'a tanib, boshqa egizakni ko'rishiga ishonishlarini aniqladi. Egizaklar usuli E. Torndayk, R. Zazzo tomonidan qo'llanilgan.[1] Egizaklar orasida monozigotik (bir tuxumdan rivojlanadi va shuning uchun bir xil genlar to'plamiga ega) va dizigotik (gen to'plamidagi oddiy aka-uka va opa-singillarga o'xshash, bir vaqtning o'zida tug'ilgan yagona farqi bilan) ajralib turadi.

Asosiy qism. XX asr laboratoriya tadqiqotlaridagi psixologik muammo o'zgaraga boshlaydi. Tadqiqotning asosiy predmeti kognitiv xususiyatlar - aql va kognitiv qobiliyatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib unda aynan o'smir egizaklarining rivojlanishini bevosiya langyuted metodini qo'llash asosida rivojlanish psixologiyasining asosiy savollaridan biri - qaysi omillar, genetik yoki ekologik va rivojlanishning uzluksizligini qay darajada ta'minlashi haqidagi savolni hal qilishga yondashishga urinish sifatida ishlab chiqilgan

Zamonaviy psixologiyada shunga o'xshagan tadqiqotlar ancha bo'lib aynan egizaklarning psixologik farqlash bo'yicha A.V Krelova, I.S.Navikov, A.G.Vilenskaya, kabi olimlarimizni ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. [3] Ammo shuni ta'kidlash kerakki, hozirda egizaklarning rivojlanishi va ularning o'smirlik davrida bir-birlari va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan juda kam tadqiqotlar olib borilmoqda.

Egizaklar, ayniqsa, tashqi o'xshashligi juda yuqori bo'lgan monozigotlar o'z sherigiga o'zlarining oyna tasviri sifatida qarashga shunchalik odatlanib qolishadiki, ular qo'sh egizakning nomiga xuddi o'zlari kabi oson va tez-tez javob berishadi. Ba'zan ular o'zlarini bitta umumiy nom bilan atashadi, ular o'zlarining shaxsiy xususiyatlari va xususiyatlarini egizak sherigiga bog'laydilar va o'ta og'ir holatlarda ular o'zlari va egizak sheriklari bilan sodir bo'lgan voqealarni aralashtirishlari mumkin. Bularning barchasi bitta tug'ilgan bolalar bilan solishtirganda egizaklarni individuallashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Maktabda o'quvchi o'smir yoshdagi egizaklar ko'pincha psixologik rivojlanish va shaxslararo muloqotlarga kirishish jarayonida «odatdagi» tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bu ularning umumiy intellektual rivojlanishida hamda ijtimoiylashuv jarayonining dinamiklik kasb etishini yanada ortda qolishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar juda erta egizaklarni to'laqonli muloqot hamkorlari sifatida ko'rishni boshlaydilar va ko'pincha ularni o'zlariga qoldiradilar. Bir-birlari bilan muloqot qilishda egizaklar faqat ikkalasi uchun tushunarli tilni rivojlantiradilar, bunda imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa og'zaki bo'lmagan muloqot vositalari ustunlik qiladi. Ko'pincha, hatto ota-onalar ham ularni tushunmaydilar. Egizaklar ko'p shu tarzda muloqot qilishsa, ular bir-biriga shunchalik bog'lanib qoladilar va go'yo boshqalardan o'ralib qolishadi. Keyinchalik, o'smirlik va ilk o'spirinlik davrida, egizaklar o'rtasidagi nizo munosabatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan bunday haddan tashqari o'ziga xosliklar destruktiv shaxslararo nizolarga zamin yaratishi mumkin.

O'smirlik davrini o'rganuvchi ko'pchilik olimlar agressiya, emotsional qo'zg'alishni, jahl chiqqan holatlarda balog'atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratadilar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo'lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo'lishga intiladilar. O'smirlik davri insonni bolalikdan -yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining yeng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri», kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8 sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil yertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o'smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17 yoshlargacha davom yetishi mumkin. O'smirlik davrning og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi.

O'smirlik davrida o'qish bilan bog'liq muammolar keyingi o'ringa tushadi, chunki bunday vaqt egizaklar o'rtasidagi munosabatlarning eng nozik payti hisoblanadi. O'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi har bir egizak juftining o'zi shaxs sifatida tushunish talabi vujudga keladi, egizagi va boshqa insonlardan farq qiluvchi sifatlarining borligidan. Juftlik ichida o'z sifatlarini ta'kidlash tendensiyasi paydo bo'ladi: urush, har xil kiyim, bir-biridan yuz o'girish. Ammo monozigota egizaklarida o'zaro bog'liqlik va to'satdan ayriliqda ko'rinadi.

Kundalik hayotimizda egizaklar va ularning tengdoshlari o'rtasidagi bog'liqlik tomonlarini tasniflab boramiz. Masalan: monozigota egizaklardagi faollik darajasi kattasiga nisbatan kichigida yuqori ko'rsatgichni, muloqatchanlik xususiyati esa dizigota egizaklarda bu holat qarama-qarshi ko'rsatgichni ko'rsatadi. Olib borilgan ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, o'smir egizaklarning tengquri bilan shaxslararo munosabatlari mazmuni o'smir egizak bo'lmaganlarning shaxslararo munosabatlaridan farq qiladi. Bu farqlar shunda ko'rinadiki, egizaklar uchun eng past ko'rsatgich ya'ni o'zini ichki nazorat qilish, o'zini qabul qilish darajasining pastligi, boshqalar boshqa o'smirlarga nisbatan pastdir. Ular uchun muammoga yo'naltirilgan shaxs va muammodan tezroq qochish va yuqori toifa o'zini emotsional diskomford his qilishga olib keladi. Bularning barchasi ularning tengqurlari bilan munosabatlarda kamroq moslashuvchan bo'lishadi,

bu shundan dalolat beradiki, ularga boshqalarga nisbatan ota-onalar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar tomonidan ko‘proq e‘tibor va yordamga muhtoj. Egizaklarda tengqurlari bilan munosabatlarda moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun, atrof muhit bilan yaxshi muloqot o‘rnatishi va barkamol rivojlanishi uchun alohida dasturlar ishlab chiqish kerak.

O‘smirlik davrida sevgi o‘rtasidagi muvozanat, intizom va bir tomondan doimiy bog‘liqlik darajasi va aksincha ajralish va boshqa tomondan mustaqillikni rag‘batlantirishning maqsadga muvofiqligi muhimdir. Ikki egizak o‘rtasidagi munosabatlar o‘ziga xosdir va bu mulohazalarning turli jihatlari, ular mavjud bo‘lganda ayniqsa dolzarb bo‘ladi, ikkalasining o‘sishi va rivojlanish vaqtidagi katta farqlar mavjud bo‘lib, ular o‘zlarining shaxsiy shaxsiyatlarini rivojlantirish ma‘nosida bir-biridan ajralib turishlari kerak, manfaatlar va mustaqillik, shu bilan birga bir-birining rishtalari va bilimlarini saqlab qolish qo‘llab-quvvatlash va albatta ishtirok etishda. Ushbu oxirgi jihat dizigotiklar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi balog‘atga yetish vaqtining nomutanosibligi tufayli jismoniy jihatdan bir-biridan ajralib turadigan egizak juftliklar. Yaxshiyamki, tashvishlarning aksariyati egizaklarning o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular tez-tez yetib boradi o‘smirlik ularning eng katta darajasi, o‘tkinchi bo‘ladi, pirovardida kattalar jismoniy hajmi va uchun ishlash qoniqarli ekanligini isbotlaydi. Biroq bu o‘tgan yillar xabardorlikni talab qiladi va hissiy stressni yengillashtirish va oldini olish uchun qo‘llab-quvvatlash va tushuntirish majburiyati vaqti-vaqti bilan doimiy psixologik oqibatlar [2].

Egizaklar juftligini ko‘pincha psixologlar 3 toifaga bo‘lishadi “jufti bir-biriga bog‘langan egizaklar”, “yorqin individ juftligi”, “bir-biridan ajralib turuvchi juftlik”.

O‘smirlik davri ko‘pchilik egizaklar uchun mojaroli o‘tadi, u ularning alohidaligini ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Psixologlar bir tuxumdonli egizaklarga 18-20 yoshlarda munosabatni yaxshilashi yoki kuchayishini aytishadi, har xil tuxumdonlar esa buning aksi.

Tadqiqot mazmuni. Odamlar bir-biridan ularning genetik xususiyatlari va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta‘sir tufayli farqlanadi. Genlar va atrof-muhit ta‘sirini alohida-alohida ajratib bo‘lmaydi, lekin ularni populyatsiya darajasida egizak tadqiqotlar orqali ajratish mumkin.

Ushbu tadqiqotimizdan maqsad aynan o‘smir yoshdagi egizaklarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tasniflash bilan birgalikda aynan Monozigota va Dizigotalik shakliga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi determinantlarini aniqlab olishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotimiz orqali nafaqat o‘smirlik davridagi regressiv rivojlanish jarayonlari balki egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi psixologik xususiyatlarini determinantlar sifatida tahlil etib borishimizni ifodalaydi.

Tadqiqotimizni o‘tkazish davomida o‘smir yoshdagi egizaklarning shaxsiylik xususiyatlarini o‘rganishni, ularning individual xususiyatlarini aniqlab olishga qaratilgan metodikalardan keng foydalanildi. Olingan natijalar asosida o‘smir yoshdagi egizaklarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etib va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Quyidagi o‘tkazilgan metodiklardan birini **Shaxs xususiyatlarini o‘rganuvchi FPI metodikasining egizaklar tipiga ko‘ra tahlili (Mann-Uittni – U mezoni)** orqali egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatib berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Monozigotali (n=84)	Dizigotali (n=64)	U	P
Asabiylashganlik	83,47	64,80	2067,000	0,008**
P-o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik	85,51	62,05	1891,000	0,001***
SH-ruhiy siqilish	86,34	60,93	1819,500	0,000****
U1-serjahllik, jizzakilik	63,33	91,86	1705,000	0,000****
U-muloqotchanlik	89,59	56,57	1540,500	0,000****
V1-og‘irlik, vazminlik	66,40	87,73	1969,500	0,003**
UP-o‘ta tajovuzkorlik	70,26	82,55	2301,000	0,083
USH-tortinchoqlik	80,11	69,30	2355,500	0,126
IX-ochiqlik, oshkoralik	84,41	63,53	1986,000	0,003**
X ekstraversiya-intraversiya	83,74	64,42	2043,000	0,006**
X1-ta‘sirchanlik, o‘zgaruvchanlik	86,98	60,08	1765,000	0,000****
XP-mardlik, nazokatlilik	79,72	69,83	2389,000	0,163

Izoh: ** $p \leq 0,01$, *** $p \leq 0,001$

O‘smir yoshidagi monozigotali va dizigotali egizaklarning shaxsiy xususiyatlari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni tadqiq etish maqsadida olingan navbatdagi psixodiagnostik vositalar tahliliga ko‘ra, asabiylashganlik shkalasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilgan bo‘lib ($U=2067,000$, $p < 0,01$), monozigotali egizak o‘smirlar, dizigotali o‘smir egizaklarga qaraganda emotsional-hissiy bo‘yoqdorligi yuqori bo‘lishi aniqlandi. Ushbu jihatni, ularning bir-biriga tashqi qiyofasi juda “ikki tomchi suvdek” o‘xshashligi, shuningdek, bir-birlarining va boshqalarning kamchiliklariga ayovsiz ravishda e‘tibor ko‘rsatishlarining oqibati deb baholashimiz mumkin. A.Gesell tadqiqotlariga ko‘ra, temperament belgilari kabi asosiy xususiyatlar tashqi muhit ta‘sirida o‘zgarishi mumkinligiga ishora bergan. Tarbiya va irsiyat shaxsga uning tuzilishida chuqur o‘zgarishlarsiz sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, tug‘ilishdan boshlab dizigotik egizaklar affektiv munosabatda farqlanadi: yig‘lashga moyillik, tinchlanish qobiliyati, tabassum qilishga tayyorlik va boshqalar. Bumsman va Van Baalning izlanishlariga asoslanib, go‘daklik davridagi bolalar o‘rtasidagi genetik farqlar axborotni qayta ishlash imkoniyatlari cheklanganligi sababli funksional farqlar bilan bog‘liq bo‘lib, bola ulg‘aygan sari yaqqol namoyon bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdilar.

O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha ham ahamiyatli farqlar kuzatilib ($U=1891,000$, $p < 0,01$), monozigotali egizaklarda agressiv xulq-atvoriga moyillik digizotali egizaklarga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi ma‘lum bo‘ladi. Tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish chog‘ida ham o‘smir yoshdagi egizaklarda bir-biridan uzoqlashish kuzatilib, mazkur hodisa ulardagi ichki agressivlik darajasini ortishiga olib keluvchi faktorlar biri bo‘lib rol o‘ynar ekan. Biz tarafdin olingan tadqiqot natijalari tahlilida esa, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik o‘smir egizaklarda ijtimoiy muhit ta‘sirida yuzaga keluvchi “men” komponentidagi “tan olish va tan oldirish” ehtiyojining ehtiyojlar iyerarxiyasida ustuvorlik kasb etganligi bilan ham izohlanadi.

Shuningdek, olingan psixodiagnostik metodikamizning deyarli 70% shkala ko‘rsatkichlari bo‘yicha ahamiyatli va ishonch darajasidagi farqlar aniqlanib, xususan, ruhiy siqilish ($U=1819,500$, $p < 0,001$), serjahllik ($U=1705,000$, $p < 0,001$), muloqotchanlik ($U=1540,500$, $p < 0,001$), og‘irlik, vazminlik ($U=1969,500$, $p < 0,001$), ochiqlik-oshkoralik ($U=1986,000$, $p < 0,01$), ekstraversiya-intraversiya ($U=2043,500$, $p < 0,01$), ta‘sirchanlik-o‘zgaruvchanlik ($U=1765,000$, $p < 0,001$) shular jumlasidandir.

Ruhiy siqilish shkalasi bo‘yicha monozigotali egizaklarda o‘rtacha ko‘rsatkich 86,34 ni, dizigotali egizaklarda 60,93 ni tashkil etib, bir xil tashqi ko‘rinish, bir xil jinsga mansub egizaklarda ruhiy siqilish, hodisalarni tez o‘ziga qabul qilish ko‘rsatkichi yuqoriroq bo‘lishi ma‘lum bo‘ladi. Mazkur farqni egizaklardagi himoya mexanizmlarining bir-biriga o‘ta bog‘langanligi ta‘sirida o‘zaro yuqish effekti ko‘pligidan bir xil ko‘rinish, bitta urug‘dondan hosil bo‘lgan egizak o‘smirlarda tashqi ta‘silarga tez beriluvchanlik oqibatida ruhiy tushkunlikka tushish ehtimolining ko‘pligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Ulardagi bir-biriga doimiy bog‘liqlik, hayotiy strategiyalarni ham birga qurish tamoyili bitta egizak hafa bo‘lsa, ikkinchiga ham hafa bo‘lishi kerakligini ta‘kidlovchi mexanizm sifatida reflektiv xarakter kasb etishi natijasida sodir bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash yuqorida o‘tkazilgan metodikadagi natijalarga muvofiq egizaklarning o‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlarning ta‘siri muammosi hamda ularning o‘zaro farqlanuvchi psixologik determinantlari biologik, ijtimoiy -madaniy rivojlanish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘smirlik davri regrissiv rivojlanishda bo‘lganligi sababli o‘smir egizaklardagi shaxsiylik xususiyatlarida o‘ziga xos tafavutlar namoyon bo‘ladi. O‘smir yoshidagi egizaklarning Monozigota va dizigotalik farqlanishiga ko‘ra psixologik determinantlar sifatida monozigotali egizaklarda tortinchoqlik, ochiqlik, ta‘sirchanlik, mardlik, nazokatlilik, muloqotchanlik, asabiylashganlik, dizigotali egizaklarda jizzakilik, vazminlik, serjahllik, emotsional barqarorlik ko‘lami kabi psixologik jarayonlar kuzatilgan. Maskur tadqiqotdan olingan natijalarga ko‘ra egizaklarning bir -biridan farqlanuvchi xususiyatlari ularning asosiy determinantlari sifatida farqlanish holatlarida yaqqol namoyon bo‘lgan. So‘nggi yillarda egizaklar genetiklar tomonidan irsiyat va atrof-muhitning turli belgilarning shakllanishiga ta‘siri masalasini hal qilish uchun faol ravishda o‘rganildi. Egizaklarni tarbiyalash muammolarini hal qilishda ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik jihatlarni hisobga olish kerakligi tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari asosida tasniflanib kelinmoqda. Egizaklar dunyosini ota-onalar va o‘qituvchilarning e‘tiborini kuchaytirishni talab qiladigan, ta‘limda alohida yondashuvni o‘z ichiga oladigan o‘ziga xos bolalar mikro-kollektivi sifatida ko‘rib chiqish zarur. Ayniqsa o‘smirlik davri o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammolardan biridir

Adabiyotlar:

1. Морозова Т.Б. Формирование направленности личности близнеца-подростка как социально-педагогическая проблема в системе дополнительного образования. – М., 2011.
2. Twin and Triplet Psychology A professional guide to working with multiples Edited by Audrey C.Sandbank London and New York First published 1999.
3. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. Психологические проблемы подростков-близнецов в учебном процессе обучения в школе // Негізі» атты халықаралық білім беру онлайн-конференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.
4. Тойирова Ш. Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.
5. Izatovna, T. L., & Izatovna, T. S. (2021, February). Psychodiagnostic bases of the study of twins in psychology. In E-Conference Globe (pp. 98-104).
6. Izatovna, T. S. (2021). The influence of psychogenetic factors on the upbringing of twins in uzbek families. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 297-303.
7. Izatovna, T. S. (2021). Psychological approaches of parents in the upbringing of twins in uzbek families. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 82-87.
8. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(2), 51-57.

Atamuratova Zamira Ikramovna,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
zamira.atamuratova@gmail.com

O‘SMIRLARDA AYBDORLIK HISSI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada J.Otterbaxer, D.Munslar tomonidan yaratilgan “Aybdorlik hissining idrok etilayotgan indeks tipi” metodikasi orqali o‘smirlarda aybdorlik hissi namoyon bo‘lishining ma’lum bir jihatlari, xususan aybdorlikning G-state, ya’ni holat sifatida izohlanishi hamda G-trate – xarakter xususiyati, unda shaxs “Men”ining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi degan qarash kichik tadqiqot doirasida tahlil qilingan. Unda tadqiqot natijalar tahlili keltirilib, shu asosda o‘smirlarda aybdorlik hissiy zo‘riqishni olib kelishi izohlangan. Sinaluvchilardagi mazkur holatni korreksiyalashda shaxsni barkamollashtiruvchi trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: aybdorlik, affektiv soha, o‘smir, begunoh, xotirjam, ko‘ngil qolishi, toqatlilik, tang holatda turish, jizzaki, boshqalarni ayblash, “Men” konsepsiyasi, yetuk shaxs, G-state, G-trate, trening, psixologik maslahat, mijoz, ekzistensial psixologiya, e’tiqod, o‘z o‘zini anglash, nevrotik, internal lokus nazorat, eksternal lokus nazorat, emotsional labillik, eksiztensial ayb.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ВИНЫ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье определённое состояние проявления чувства вины у подростков интерпретируется как G-состояние, то есть состояние вины, с использованием методики Дж. Оттербахера и Д. Мунса «Воспринимаемый индекс чувства вины». G- состояние – черта характера, при которой становится ясной характеристика личностного «Я». Приводится анализ результатов исследования, и на основании этого делается вывод, что чувство вины вызывает эмоциональное напряжение у подростков. Для исправления данной ситуации у испытуемых рекомендуется проводить тренинги по развитию личности.

Ключевые слова: вина, аффективная сфера, подросток, невиновность, спокойствие, депрессия, толерантность, дистресс, строптивный, обвинение других, консультация «Я», зрелая личность, G-состояние, G-оценка, тренинг, психологическое консультирование, клиент, экзистенциальная психология, вера, самосознание, невротическая вина, интернал локус контроль, экстернал локус контроль, эмоциональная лабильность, экзистенциальная вина.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF THE FEELING OF GUILT IN TEENAGERS

Abstract. In this article, a certain state of manifestation of the feeling of guilt in teenagers is corrected as a G-state, that is, a state of guilt, using the methodology of J. Otterbacher and D. Muns’s «The Perceived index of guilt». G-trate is a character trait, in which the characteristic of the personal «I» becomes clear. It provides an analysis of the research analysis, and on this basis, it is concluded that guilt causes emotional stress in adolescents. In order to correct this situation in the examinees, it is recommended to carry out personality development training.

Keywords: guilt, affective domain, adolescent, innocent, calm, depression, tolerance, distress, self-doubt, blaming others, self-consultation, mature personality, G-state, G-trate, training, psychological counseling, client, existential psychology, faith, self-awareness, neurotic guilt, internal locus of control, external locus of control, emotional lability, existential guilt.

Kirish. Shaxs psixik taraqqiyotida affektiv sohaning barqarorligini ta’minlash ulardagi ijtimoiylashuv va bilish jarayonlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Affektiv sohaga aybdorlik, uyat, vijdon, qo‘rquv, jahl, ajablanish, quvonch kabi emotsiyalar va kayfiyat, stress, affekt, frustratsiya, ehtiros singari emotsional holatlarni hamda yuksak hislarni kiritamiz [2]. Ularning har biri shaxs hayoti davomida xoh ijobiy, xoh salbiy holatda kishilik tajribalarini o‘zlashtirishda foydalaniladi. Aybdorlik hissi odatda tashvish, yolg‘izlik, erkinlik va mas’uliyat kabi tabiiy insoniy tajriba asosida kelib chiqadi. Ya’ni aybdorlik shaxsga kim ekanligi va kim bo‘lishi kerakligi o‘rtasidagi farqni tushunishga yordam

beradigan va jamiyat tomonidan oʻrnatilgan axloqiy qoidalar bilan bogʻliq holda kuzatiladigan psixologik fenomen hisoblanadi. Shu bois aybdorlik hissi shaxs oʻzi uchun va oʻzgalar uchun muhim boʻlgan axloqiy meʼyorlarni buzganida paydo boʻladi. Shu bilan birga, aybdorlik bir vaqning oʻzida inson zarur shaxsiy javobgarlikdan bosh tortgan holatlarida ham yuzaga keladi. L.Koʻlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga koʻra, aybdorlik hissi psixik rivojlanishning nisbatan kechki bosqichlarida shakllanadigan va xulq-atvor nazoratining yuksak darajada – oʻzini-oʻzi anglash darajasida, tashqi nazoratchi omillar rolining susayib borishini nazarda tutuvchi darajada tashkil etilishini taʼminlaydigan psixologik tuzulmadir.

Asosiy qism. Ayrimlarda aybdorlik hissi besabab va boʻrttirilgan holda boʻlib, odamga zarar yetkazadi: surunkali charchoq, frigidlik, oʻz hayotiga qasd qilish va jamiyatga muvofiq integratsiyasiga salbiy taʼsir qiladi.

Aybdorlik hissini toʻla tadqiq qilinmaganligi va mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi mavzuning dolzarbligini oshiradi va bugungi kundagi ahamiyatini belgilaydi.

Bu borada ekzistensial psixologiya yoʻnalishi vakillaridan biri R.Mey (1983) aybdorlik tushunchasini yoritib bogan. Uning fikriga koʻra aybdorlik ekzistensial va nevrotik aybdorlikka boʻlinadi. Nevrotika aybdorlik shaxsda turli psixosomatik ogʻishlarni keltirib chiqadigan aybdorlik boʻlsa, ekzistensial aybdorlikda esa shaxs oʻz-oʻzini anglashi sifatida koʻrib chiqiladi. R.Mey ekzistensial aybning uchta manbasini aniqlab izohlab oʻtgan:

1. Oʻz-oʻzini anglamaslik tufayli kelib chiqadigan aybdorlik.
2. Yaqin kishilari bilan cheklangan aloqalar tufayli yuzaga keladigan aybdorlik.
3. Eʼtiqod darajasi bilan bogʻliq aybdorlik (hayotiy vazifalarini bajarish tushunchasi bilan izohlanadi).

Ushbu munosabatlarda keltirilishicha inson har doim va soʻzsiz aybdor, chunki:

1. Shaxs hech qachon barcha imkoniyatlarini amalga oshira olmaydi, faqat baʼzi imkoniyatlarni tanlab, boshqalarni rad etishga majbur boʻlgani uchun - ular amalga oshmay qoladi;
2. Shaxs hech qachon yaqinlarini va ularning ehtiyojlarini toʻliq tushunmaydi va muqarrar individualizm tufayli boshqalarni oʻz shaxsiyati prizmasi orqali koʻrishga «mahkum»dir, shuning uchun uning bilimlari har doim subyektivdir va haqiqatga toʻliq mos kelmaydi.
3. Shaxs ilohiy rejaning bir qismi va uni hech qachon tushuna olmaydi; Paskal aytganidek, «shox daraxtning maqsadini bilish uchun moʻljallanmagan».

Muallif bu yerda aybdorlik hissining chuqur ekzistensial mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Unga koʻra ekzistensial aybdan qochib boʻlmaydi, shuning uchun uni tan olish muhimdir. Bu boshqalar bilan munosabatlarda insonparvarlik va sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi, odamlarni oʻz imkoniyatlarini ijodiy ravishda roʻyobga chiqarishga undaydi. Bizning tadqiqot ishimiz aybdorlik ekzistensial psixologik qarashning birinchi qismiga, yaʼni shaxs hech qachon barcha imkoniyatlarini amalga oshira olmaydi, faqat baʼzi imkoniyatlarni tanlab, boshqalarni rad etishga majbur boʻlgani uchun – ularda aybdorlik hissi paydo boʻladi, deya izohlangan qarashga asoslanadi.

Kats va Zigler fikricha, aybdorlikni his etish shaxsning umumiy ulgʻayishi va murakkab kognitiv fikr yuritish qobiliyati bilan uzviy aloqador. Mualliflar 5-, 8- va 11-sinf oʻquvchilaridan soʻrov oʻtkazganlar. Berilgan savollar real “Men”, ijtimoiy “Men” va ideal “Men”larning oʻzaro taʼsiri va darajasini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, real va ideal “Men” oʻrtasidagi oʻzaro murosallilik darajasi sinaluvchining Yoshi va intellekt koeffitsiyentiga bevosita aloqador ekan. Ularning fikricha, yosh oʻtgan sayin odam kognitiv differentsiatsiya va oʻzini-oʻzi tanqid qilish qobiliyatiga ega boʻladi, bu esa aybdorlikni his etish qobiliyatining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Mualliflar natijalarga tayangan holda, real va ideal “Men” konsepsiyalari oʻrtasidagi yanada yuqori murosallilik va aybdorlikni his etish qobiliyatining yanada rivojlanganlik darajasi shaxs yetukligini belgilaydi, deb taʼkidlaydilar. Yetuk inson oʻziga nisbatan koʻproq intilishlar qoʻyadi, shu orqali aybdorlikni his etishga moyilroq boʻladi [8].

E.Feyers internallar oʻz muvaffaqiyatsizliklarida oʻzlarini ayblashlari va eksternallarga qaraganda kuchliroq uyat va aybdorlik hissini his etishlarini aniqlagan. Bu esa, J. Rotter boʻyicha, internallar, yaʼni ichki lokus nazorat egalari, oʻz taqdirini oʻzlari boshqarishlariga ishonuvchi odamlar, eksternallar, yaʼni tashqi lokus nazorat egalari, ular bilan yuz berayotgan voqea-hodisalarga oʻz dahldorligini his etmaydigan odamlar ekanliklari bilan bogʻliq. [1] Bunda oʻsmirlik davridagi oʻquvchilarning eksternal nazorat darajasi internal lokus nazoratga qaraganda yuqori boʻlishi bilan ham izohlanadi.

O.S.Vasilyeva va E.V.Korotkovlar tadqiqotlariga koʻra, aybdorlikni his etish MMPI metodikasi boʻyicha emotsional labillik bilan aloqador, demak, bunday sifat egalari, taʼsirchan, koʻngilchan, empatiyaga moyil, muvaffaqiyatsizlik sohasida internal, oʻz-oʻzini boshqara olmaydigan boʻladilar [5]. Shaxsdagi individual xususiyatlar, xususan, internallik aybdorlik hissini kuchaytiradigan aspekt sifatida baholangan.

Shu bois tadqiqotda o‘smirlik davrida aybdorlik hissi paydo bo‘lishi va uning turli oqibatlari tahlil qilindi. O‘quv faoliyatida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishida, berilgan o‘quv topshiriqlarini mas’uliyat bilan yondashgan holda bajarishida yoxud dars jarayonida erkin, o‘z-o‘zini to‘laqonli namoyon eta olishida aybdorlik hissining o‘rganilishi o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minlashga qaratilgan omillardan biri bo‘la oladi.

Ushbu tadqiqot ishi orqali barcha odamlar aybdorlik hissi kuzatilishi va bu hissiyot shaxsga meyyor darajasida mas’uliyat, burch hissini berishi va aksincha, aybdorlikning ortib ketishi turli psixoemotsional buzilish, o‘quv faoliyatda faollikning pasayishiga olib kelishini izohlab o‘tamiz.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida biz tadqiqotimiz doirasida aybdorlik hissini o‘rganish va uning o‘smirlik davrida namoyon bo‘lishini tahlil qildik.

Mazkur tadqiqot ishida J.Otterbaxer, D.Munslarning “Aybdorlik hissining idrok etilayotgan indeks tipi” metodikasi asosiy metodika sifatida tanlab olindi.

“Aybdorlik hissining idrok etilayotgan indeks tipi” metodikasi ikkita shkaladan iborat. Bular:

1. Aybdorlik hissi holat sifatida (G-state).
2. Markazlashgan “Men” konsepsiyasi (G-trait) ya’ni xarakter xususiyati.

Aybdorlik hissi holat sifatida shaxsning turli hayotiy vaziyatlarga hissiy munosabatida aks etib, asosan tashqi ta’sirlovchi va undagi tasodifiy qarorlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda asosiy xarakterli belgi sifatida aybdorlikning vaqtinchalik anglanishi ajratib ko‘rsatiladi.

Markazlashgan “Men” konsepsiyasi (G-trait) ya’ni xarakter xususiyati esa aksincha, hissiy turg‘un holat bo‘lib, shaxsda turli vaziyatlarga va shaxslararo munosabatlarga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. Biz o‘z tadqiqotimizda aybdorlikning hissiy holat sifatida anglanishini axloqiy meyyor sifatida, aybdorlikning xarakter xususiyati sifatida namoyon bo‘lishini o‘quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hissiy zo‘riqish omili sifatida o‘rganib chiqdik. Tadqiqotimizda o‘smirlik yosh davridagi 63 nafar sinaluvchilar (Urganch shahar 10-maktab o‘quvchilari n=63) ishtirok etdi.

Metodikada K.Izard tasnifi asosida ishlab chiqilgan 11 ta emotsiya keltririlgan bo‘lib, unda sinaluvchilar o‘z holatlarini G-state va G-trate sifatida tanlab olishlari kerak [1].

Tadqiqotni o‘tkazish jarayoni ikki qismga bo‘linadi. 1-qismda sinaluvchilar berilgan 11 ta variantdan faqat bittasini tanlaydilar. Bunda ularning hozirgi vaziyatdagi holatini hisobga olgan holda tanlashlarini so‘raymiz. Keyin ikkinchi qismda ularning odatdagi holatda shunday vaziyatlarga duch kelsa, qaysi variantni tanlashlarini qayta so‘raladi. Variantlar “+” va “-” belgilari bilan belgilanadi. Chiqqan natijalarni tahlil qilishda turli chalkashliklarga uchramaslik uchun belgilar o‘rniga konstanta = 10 deb olinadi. Agar sinaluvchi javoblari 10 dan yuqori bo‘lsa, unda aybdorlikning chuqurlashgan ko‘rinishi, bordi-yu 10 dan quyi bo‘lsa, unda haqiqiy aybdorlik darajasida bo‘lmagan hissiy kechinma hisoblanadi va bu normal holat deya belgilanadi [3]. Ya’ni normada aybdorlik hissi namoyon bo‘lishi shaxsning axloqiy yetuklik belgisi, shaxsiy mas’uliyat, javobgarlikni his qilish xususiyatini bersa, meyyordan ortiq holda (yuqori ko‘rsatkichlarda) shaxsda hissiy zo‘riqishni olib keladi va kuchli charchoq, hissiy beqarorlik, o‘zini o‘zi namoyon etish xususiyati bilan kechadi. Aksincha, aybdorlik hissining yetishmasligi shaxsda egosentrik xulq rivojlanishiga zamin bo‘ladi.

“Aybdorlik hissining idrok etilayotgan indeks tipi” metodikasi tahlili quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

Shkalalar	1-qism	1-qism	1-qism	2-qism	2-qism	2-qism
	Yuqori	O‘rta	Quyi	Yuqori	O‘rta	Quyi
Boshqalarni ayblash			12.3%			26.3%
Begunoh		33%				0.3%
Xotirjam	36%			36%		
Ko‘ngil qolishi			1,7%			0.3%
Toqatlilik			1.2%			19.6%
Tang holatda turish			6.8%			
Jizzaki			9.9%			17.5%

J.Otterbaxer, D.Munslarning “Aybdorlik hissining idrok etilayotgan indeks tipi” metodikasi natijalari miqdoriy tahlilidan ko‘rinadiki, ezilgan, uyatga qolgan, noloyiq va kechirimga noloyiq shkalalari ko‘rsatkichlari 0% ga tengligi kuzatildi. Bunda o‘smirlik davridagi sinaluvchilarning ezilgan, uyatga qolgan, noloyiq va kechirimga noloyiq hissiy holatlari namoyon bo‘lmasligi aniqlandi. O‘smirlik davri shaxsning ayni hissiy qo‘zg‘aluvchan, ta’sirchan davri bo‘lishiga qaramasdan, ularning hissiy-emotsional olami

umumiy fonida negativ munosabatlarning kuzatilmasligi ta’lim-tarbiya va oilaviy munosabatlar yaxshi o’rnatilganligi belgisi izohi sifatida ham beriladi. Shuningdek, bashqalarni ayblash shkalasi birinchi qismda 12.3%ga, ikkinchi qismda 26.3%ga teng ekanligi kuzatildi. Ya’ni har ikkala qismdagi natijalarda ham quyi daraja aniqlangan. Bunda birinchi qism vaqtinchalik vaziyatli holat sifatida, ikkinchi qism xarakter xususiyati sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ko’ngil qolishi, jizzakilik, toqatlilik, tang holatda turish shkalalari bo’yicha ham quyi darajada ekanligi aniqlandi. Begunohlik koeffitsiyenti 1-qismda o’rta darajada 33% ga, 2-qismda esa quyi darajada 0.3%ga tengligi, eng yuqori ko’rsatkich sifatida xotirjamlik koeffitsiyenti har ikkala qismda ham 36%ga tengligi aniqlandi.

Xulosa. Umumiy tahlilga ko’ra, mazkur metodika yordamida sinaluvchilarda aybdorlik hissining holat va xarakter xususiyati sifatidagi ko’rsatkichlarini solishtirib, ularda aybdorlik hissida holat ustuni yuqori ekanligini ko’ramiz. Mazkur tahlilga ko’ra aybdorlik hissi o’smirlarda vaziyatli o’zgaruvchi sifat bo’lib, undagi salbiy hissiy kechinmalarning oshib ketishi, xususan, ko’ngil qolishi, toqatlilik, tang holatda turish va jizzakilik kabilar ularda ta’lim olish sifatining pasayib ketishi, o’z qobiliyatlarini erkin, to’laqonli namoyon eta olmaslik va o’ziga bo’lgan bahosining pasayishiga olib keladi. Shu bois, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar oldida turgan muhim vazifalarga psixologik maslahatlar va koreksion-rivojlantiruvchi mashg’ulotlar dasturini ishlab chiqish hamda ushbu dasturlar orqali o’quvchilardagi aybdorlik hissini kamaytirishga yordam berish, shaxsni barkamollashtiruvchi trening, konsultatsiya va o’quv seminarlarini o’tkazish kiradi.

Psixologik maslahatda qachon «aybdorlik» mijozga o’z xatti-harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikni anglash va xatti-harakatini ijobiy tomonga o’zgartirishga yordam beradi va aksincha, hayot muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga to’sqinlik qilishini psixolog bilishi kerak. Shuningdek, aybdorlik anglangan holda shaxsda burch, mas’uliyat hissini tarbiyalashi mumkin. Shuning uchun psixolog maslahatchi o’quvchilar bilan maslahat jarayonida ularni aybdorlikdan tezda xalos qilishga intilmasdan, balki uning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam berishi lozim.

Aybdorlik hissini korreksiyalashda keng ko’lamdagi psixotrening mashqlarga murojaat qilish mumkin: o’z-o’zini adekvat baholash, shaxsdagi hissiy emotsional zo’riqishni kamaytirish, ichki ruxiy holatni muvozanatlashtiriga qaratilgan kompleks mashg’ulotlar o’tkazish lozim. Tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilariga, xususan, ota-onalar, murabbiylar, pedagoglar va psixologlarga aybdorlik hissini kelib chiqish sabablari, namoyon bo’lishi, bartaraf qilinishi masalalariga bag’ishlangan seminar treninglar, davra suhbatlari va ma’ruzalar tashkil qilinishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Изард К.Э. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 369-409б.
2. Илин Е.П. Эмоции и чувства. - Санкт-Петербург. - 2001.
3. Kugler, K., & Jones, W. H. (1992). On conceptualizing and assessing guilt. *Journal of Personality and Social Psychology*, 62(2), 318–327.
4. Otterbacher, J. R., & Munz, D. C. (1973). State-trait measure of experiential guilt. *Journal of Counseling and Clinical Psychology*, 40(1), 115–121.
5. Persons R.W. Intermittent reinforcement, guilt and crime. - *Psychological Reports*, 1970, 26, 421-422(a).
6. Roseman, I. J. (1991). Appraisal determinants of discrete emotions. *Cognition and Emotion*, 5 (3), 161-200.
7. Кочюнас Р. Основы психологического консультирования. – М.: «Академический проект», 1999.
8. Zigler E., Levine L, Gould L. Cognitive challenge as a factor in children’s humor appreciation. - *Journal of Personality and Social Psychology*, 1967, 6, 332-336.

Кахарова Дилдора Сидиковна,
преподаватель Бухарского государственного университета,
директор 23-школы-интерната города Бухара
dildora.kaharova@mail.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются индивидуальные особенности учащихся с особыми потребностями, адаптивные способности, тесты и опросы, а также самооценка учащихся, вовлечённых в инклюзивное образование, социальная адаптация аудио, современные коммуникативные навыки. Инклюзивное образование – образовательная система, предоставляющая равные права и возможности всем детям, индивидуализированная и адаптированная к детям, нуждающимся в особом внимании, трудновоспитуемым по разным причинам детям, детям-сиротам. Раскрывая с научной точки зрения психологические, педагогические стороны инклюзивного образования учеников, нуждающихся в специальной помощи, с ограниченной возможностью, доказывается, что инклюзивное образование является важнейшим средством развития научных интересов учеников, любви к овладению профессией, воспитанию качеств человеколюбия.

Ключевые слова: инклюзивное образование, диагнозы и советы, ограниченная возможность социальные, политические, педагогико-психологические основы, культурные преобразования, интеграционное образование.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning individual xususiyatlarini, adaptiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda testlar va so'rovnomalarni o'tkazish hamda shu asosda, inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlarini, mavjud metodlar asosida ijtimoiy moslashganligi (adaptatsion)ni, ayni zamonda, muloqot-kirishuvchanlik darajasi aniqlangan. Inklyuziv ta'lim-barcha bolalarga teng huquq va imkoniyatlarni taqdim etadigan, alohida e'tiborga muhtoj, turli sabablarga ko'ra o'qitilishi qiyin bo'lgan bolalar, yetim bolalar uchun individuallashtirilgan va moslashtirilgan ta'lim tizimi. Cheklangan imkoniyatga ega bo'lgan maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarning inklyuziv ta'limning psixologik, pedagogik tomonlarini ilmiy nuqtayi nazardan ochib berish, inklyuziv ta'lim talabalarning ilmiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasbni egallashga bo'lgan muhabbat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalashning eng muhim vositasi ekanligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tashxislar va maslahatlar, cheklangan imkoniyatlar ijtimoiy, siyosiy, pedagogik-psixolog asoslari, madaniy o'zgarishlar, integratsiya ta'limi.

DEVELOPMENT OF THE READINESS OF FUTURE TEACHERS FOR INCLUSIVE EDUCATION ON THE BASIS OF A COMPETENCY APPROACH

Abstract. This article discusses the individual characteristics of students with special needs, adaptive abilities, tests and surveys, as well as the self-esteem of students involved in inclusive education, the social adaptation of audio, and modern communication skills. Inclusive education is an educational system that provides equal rights and opportunities to all children, individualized and adapted to children in need of special attention, children who are difficult to educate for various reasons, and orphans. Revealing from a scientific point of view the psychological and pedagogical aspects of inclusive education for students in need of special assistance, with limited opportunities, it is proved that inclusive education is the most important means of developing students' scientific interests, love of mastering a profession, and fostering the qualities of humanity.

Keywords: inclusive education, analysis of the opinions of scientists, education, children who need special attention, skills, defective children, ability, weak aspect, adaptation, pedagogical-psychological, mental knowledge, character, etiquette, psychocorrection exercises.

Введение. Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах обоснована важность инклюзивного образования для обучения детей,

нуждающихся в особом внимании, в равных условиях со своими сверстниками, налаживания с ними дружеских отношений и социальной адаптации. Понятие «инклюзивное образование» интерпретируется по-разному. По нашему мнению, больше подходит определение “инклюзивное образование” (англ. inclusive, inclusion – слияние, органичность, лат. includ – охват, привлечение), т.е. устранение преград между обычными детьми и детьми, нуждающимися в особом внимании.

Инклюзивное образование – вопрос на уровне государственной политики. Это система образования, направленная на привлечение к социальной жизни детей, подростков, нуждающихся в особом внимании, независимо от недостатков в их развитии или экономических трудностей.

Основная часть. Цель инклюзивного образования – предоставление детям, нуждающимся в особом внимании, особой помощи, возможности обучаться в равных со своими сверстниками условиях, с равными правами и возможностями, облегчение установления ими дружеских отношений со своими сверстниками, адаптации в обществе, создание психолого-педагогических и коррекционных условий, необходимых для их обучения. Средние общеобразовательные учреждения посещают все нормально развивающиеся дети, необходимо привлечь сюда детей, нуждающихся в особом внимании. Важно налаживание инклюзивного образования с семьями, с дошкольным образовательным учреждением. Это способствует общению детей, нуждающихся в особом внимании, с окружающими, раннему обретению ими навыков удовлетворения повседневных, бытовых потребностей, нужд, адаптации к социальной жизни, соответствию требованиям социальной среды, своевременному усвоению наравне со своими сверстниками знаний, выработке навыков ответственного отношения к порученным заданиям.

Инклюзивное образование – образовательная система, предоставляющая равные права и возможности всем детям, индивидуализированная и адаптированная к детям, нуждающимся в особом внимании, трудновоспитуемым по разным причинам детям, детям-сиротам. Также инклюзивное образование предполагает одинаково равное отношение к детям независимо от их национальности, расы, цвета кожи, социального происхождения, материального и духовного состояния, недостатков в физическом или духовном развитии, поддержку для развития их возможностей.

Инклюзивная школа, в которой организовано инклюзивное воспитание, защищает права детей на получение образования. Это школа, учащиеся которой – разные дети, здоровые и с легкой инвалидностью, которая создает равные условия для всех и каждого из них для реализации ими своих возможностей.

Программа деятельности по инклюзивному образованию принята на Всемирной конференции образования специальных потребностей при участии представителей 92 стран и 25 международных организаций в городе Саламанка (Испания). На этой конференции принято «Саламанкинское заявление» о признании необходимости и надобности предоставления образования детям, молодежи и взрослым, нуждающимся в особом внимании, в рамках обычного, традиционного образования, по принципам, реформам специального образования. В нем заключены призыв и обращение ко всем государствам принять принцип инклюзивного образования как закон или реформу[1]. Цель его – ознакомление всех государств, международных организаций, ассоциаций национальной помощи, негосударственных организаций и иных учреждений с реформами и деятельностью по внедрению в практику реформ и принципов образования для специальных потребностей. Программа разработана Организацией Объединенных Наций и на основе опыта государств, принявших участие на конференции, рукописей, консультаций и решений различного рода вопросов, в частности, стандартных правил по стабилизации возможностей людей с инвалидностью. Права каждого ребенка на образование закреплены во Всемирной Декларации «Прав человека», Всемирной декларации «Образование для каждого». При необходимости каждый человек с инвалидностью вправе усвоить образование по собственному желанию. Родители вправе получить консультации по выбору формы образования, соответствующей желанию, потребностям и состоянию своего ребенка.

Инклюзивное образование – это система образования, способная подходить к детям и молодежи, нуждающимся в особом внимании, на основе индивидуализации, меняться в зависимости от условий. Эта работа осуществляется в школах для обычных, нормально развивающихся детей. Для реализации данной работы необходимы индивидуальный подход к каждому ребенку исходя из его недостатков, создание для него благоприятных условий. Дети, нуждающиеся в особом внимании, посещают массовое дошкольное образовательное учреждение или расположенную к дому школу, удобную для себя. Основную работу здесь выполняет воспитатель или классный руководитель.

В каждом учреждении, где организовано инклюзивное образование, должны быть педагоги (ресурсы), прошедшие специальную подготовку. Престиж учреждения, в котором организовано инклюзивное образование, зависит от этих учителей со специальной подготовкой, так как они

консультируют воспитателя группы, помогают ему, обеспечивают средствами, учебным инвентарем, проводят разъяснительную работу с родителями и учителями, вносят изменения в расписание уроков, программу, когда это необходимо, обосновывают их.



Рисунок 1. Программа деятельности по инклюзивному образованию

Биринчи босқич стрессор биринчи марта пайдо бўлганда юзага келади ва ташвиш босқичи деб аталади. Ушбу босқич тананинг қаршилиқ даражасининг пасайиши, баъзи соматик ва автоном функцияларнинг бузилиши билан тавсифланади. Кейин тана захираларни сафарбар қилади ва ҳимоя жараёнларининг ўзини ўзи бошқариш механизмларини ишга туширади. Агар ҳимоя реакциялари самарали бўлса, ташвиш пасаяди ва тана нормал фаолиятга қайтади. Кўпгина стресслар ушбу босқичда ҳал қилинади. Бундай қисқа муддатли стрессларни ўткир стресс реакциялари деб аташ мумкин.

Иккинчи босқич, қаршилиқ (қаршилиқ) босқичи, организмнинг ҳимоя реакцияларини сақлаб қолиш зарурати туғилганда, стрессорга узоқ вақт таъсир қилиш билан юзага келади. Ташқи шароитларга мос келадиган функционал тизимлардаги кучланиш фонида мослашув захираларининг мувозанатли истеъмоли мавжуд.

Учинчи босқич – чарчоқ босқичи. Стресс омилларининг ҳаддан ташқари қизгин ва узоқ муддатли таъсири билан тананинг курашида ҳимоя ва адаптив механизмларнинг тартибга солиш механизмлари бузилганда пайдо бўлади. Мослашувчан захиралар сезиларли даражада камаяди. Тананинг қаршилиги пасаяди, бу нафақат функционал бузилишларга, балки организмдаги морфологик ўзгаришларга ҳам олиб келиши мумкин.

Хулоса. Стресснинг манбалари психикада эмас, балки инсон миясида бўлиб, у болалар ва катталарда бир хил даражада содир бўлади. Ноқулай вазиятга тушиб қолган одамда, бу ҳам унинг учун ёмон тугаши мумкин, инсоннинг ўзгарувчан шароитларга мослашиши содир бўлади. Бироқ, агар кучли ҳис-туйғулар узоқ вақт давомида ўтмаса, бу инсон учун психологик ва физиологик нохуш оқибатларга олиб келиши мумкин.

Стресс барча органлар ва тизимларнинг ишига салбий таъсир кўрсатиши мумкин, бу мураккаб биокимёвий ва физиологик касалликларга олиб келади, масалан, чарчокнинг кучайиши, иммунитетнинг пасайиши, тана вазнининг ўзгариши ва касалликларнинг тез-тез намоён бўлиши. Кўпинча бундай даврда одамларда нафас олиш қийинлишуви, юракдаги оғрик, мушакларнинг кучланиши, овқат ҳазм қилиш органларининг ишлаши пайтида ноқулайлик ва ҳоказо. Шу билан бирга, стресснинг ҳиссий кўринишлари айниқса хавфли эканлигини доимо ёдда тутишимиз керак, чунки улар психиканинг турли томонларига, ҳиссий фонга таъсир қилади ва пессимистик маъно беради. Стрессга узоқ вақт таъсир қилиш билан депрессия, асабийлашиш, тажовузкорлик, ғазаб ва аффектив ҳолатларнинг кўриниши ривожланиши мумкин

Стресснинг энг муҳим хусусияти у тўпланиб боради, чунки бу бизнинг ҳаётимиздаги доимий ўзгаришларга жавобдир. Бизнинг танамиз ва психикамиз мавжуд вазиятдаги ҳар қандай ўзгаришларга жисмоний ва ҳиссий жиҳатдан жавоб беради. Бундан ташқари, ўзгаришлар салбий бўлиши шарт эмас; ижобий ўзгаришлар ҳам жуда стрессли бўлиши мумкин. Баъзида яқинлашиб келаётган ўзгаришлар ҳақида ўйлаш стрессни келтириб чиқариши мумкин. Шунинг учун, хотиржам ва ўзини тутиб туришни ўрганиш жуда муҳимдир.

Адабиётлар:

1. Безруких М.М. Как помочь школьнику справиться со стрессом? Режим доступа: <https://zen.yandex.ru/media/family3/kak-pomoch-shkolniku-spravitsia-so-stressom-5dd264e1ca2a7e43a17da33a>
2. Бодров В.А. Психологический стресс: Развитие учения и современное состояние проблемы. – М.: Наука, 1995. – 288 с.
3. Бойко В.В. Трудные характеры подростков: развитие, выявление, помощь. – СПб.: Союз, 2002. – С. 35-154.
4. Бохан Т.Г. Стресс и стрессоустойчивость: опыт культурно-исторического исследования / Т. Г. Бохан. – Томск: Изд-во «Иван Федоров», 2008. – 267 с.
5. Молодцова Т.Д. Профилактика стрессов у подростков в условиях школьного социума / Вестник Таганрогского института имени А.П. Чехова. – 2017. – № 2. – 286 с. – С. 115-120.
6. Панченко Л.Л. Диагностика стресса: учебное пособие / Л.Л. Панченко. – Владивосток: Мор. гос. ун-т, 2005 – 35с.
7. Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме. Государственное издательство Медицинской Литературы. – М.: МЕДГИЗ, 1960. – 253 с.



Файзиев Зоҳиддин Ҳасанбоевич,

Қариши давлат университети Психология кафедраси доценти

РАҲБАР-ХОДИМЛАРДА ХАВОТИРЛАНИШ ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШ ВА УНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ

Аннотация. Мазкур мақолада раҳбар ва унинг қўл остидаги ходимларида намоён бўладиган хавотирланиш даражасини илмий-амалий жиҳатдан ўрганилиши батафсил ёритиб берилган. Шунингдек, раҳбар ва ходимларнинг бошқарув жараёнида вазиятли ва шахсий хавотирланиш даражаларини махсус методика орқали тадқиқ қилинган. Синалувчилар объектларидан олинган эмпирик натижалар махсус дастур орқали ҳисоб-китоб қилиниб, жадвалларда ифодаланган ва илмий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: стресс, стрессли кечинмалар, стрессор, хавотирланиш, вазиятли ва шахсий хавотирланиш, раҳбар-ходим.

ИЗУЧЕНИЕ УРОВНЯ ТРЕВОЖНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ И ЕГО ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье подробно описано исследование уровня тревожности, проявляемой руководителем и его подчинёнными, с практической точки зрения. Также по специальной методике исследовался уровень ситуативной и личностной тревожности руководителей и сотрудников в процессе управления. Эмпирические результаты, полученные от испытуемых, рассчитывались с помощью специальной программы, выражались в таблицах и подвергались научному анализу.

Ключевые слова: стресс, стрессовые переживания, стрессор, тревога, ситуативная и личностная тревожность, руководитель-работник.

STUDYING THE LEVEL OF ANXIETY OF MANAGERS AND ITS EMPIRICAL ANALYSIS

Abstract. This article describes in detail the study of the level of anxiety exhibited by the manager and his subordinates from a practical point of view. Also, using a special technique, the level of situational and personal anxiety of managers and employees in the management process was studied. The empirical results obtained from the subjects were calculated using a special program, expressed in tables and subjected to scientific analysis.

Keywords: stress, stressful experiences, stressor, anxiety, situational and personal anxiety, manager-employee.

Кириш. Замонавий психологияда шахснинг «эмоционал зўриқиш» феноменининг ўрнига бугунги кунда «стресс» терминини қўллаш илмий омма томонидан юксак қўллаб-қувватланмоқда. Шахс ҳаётида ва фаолияти учрайдиган микро ҳамда макро воқеликлар таъсирида намоён бўладиган психик ҳолатга стресс сифатида мурожаат қилиниши янги йўналишдаги тадқиқот объекти бўлиб хизмат қилмоқда. Ўз-ўзидан маълумки, психик ёки асабий зўриқишнинг тўғридан-тўғри стресс деб қабул қилиш илмий жамоатчилик томонидан янгича ёндашув деб қабул қилинган. Шундай экан, стресс ёки психик зўриқиш шахс фаолиятини мувозанатдан чиқарувчи асосий фактор сифатида қаралмоқда. Шахсда стресснинг даслабки босқичи сифатида хавотирланиш илмий тадқиқотларда ўз исботини топган. Шундай экан, стрессни ўрганишдан аввал шахдаги хавотирланиш даражасини ўрганиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бошқау фаолиятида вазиятли хавотирланиш ва шахсий хавотирланиш иш самарадорлигига ўзининг сезиларли таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Ушбу долзарб масалани ечимини топиш мақсадида, раҳбар-ходим шахсида вазият билан боғлиқ хавотирланувчанлик (ВХ) ва шахсий хавотирланувчанлик (ШХ), уларда иш жараёнидан олдин ва иш жараёнидан кейинги хавотирланиш даражаси ўзгарувчанлиги, хавотирланиш жараёнида ўзини-ўзи назорат қилиш, кучли хавотирланишдан узоклашиш, хавотир вақтида кучли қўрқув, хавотирланиш раҳбар шахсининг хатти-ҳаракатларида аномал ўзгаришларни келтириб чиқариши каби ҳолатларни ўрганишга мўлжалланган методлардан фойдаланилди. Шунингдек, раҳбар фаолиятида турли

мураккаб ва казусли вазиятлар кўп учраши, бундай вазиятларда ички дискомфорт бузилиши илмий тадқиқот давомида ўз исботини топганлигини инобатга олиб, вазият билан боғлиқ хавотирланувчанлик (ВХ) даражасини эмпирик тадқиқ қилиш муаммо объекти сифатида танланди. Шу билан бир қаторда, ҳар бир раҳбар ва ходим ўз зиммасидаги шахсий масъулиятдан келиб чиқиб, ўзига тегишли жамоа ва фаолият доирасида индивид билан боғлиқ хавотирланувчанлик (ШХ) ортиб бориш ҳолатига алоҳида эътибор қаратилди. Ушбу танланган методика меҳнат фаолиятини олиб борадиган ҳар бир раҳбар-ходимларнинг касби-лавозими юзасидан вужудга келаётган хавотирланиш ҳолатини реал баҳолаш ва тегишли тавсиялар бериш имконини беради. Муаллифлик тадқиқоти давомида хавотирланиш ҳолати стрессни келтириб чиқарувчи фактор ва унинг биринчи намоён бўлувчи босқичи сифатида баҳоланди. Шундай экан, стрессли кечинмаларни олдини олиш ва унга қарши курашиш учун дастлаб, хавотирланиш даражасини аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Шунингдек, шахсий ва вазиятли хавотирланиш раҳбар ва ходимнинг кундалик фаолиятида энг кўп кўзга ташланадиган ҳолат эканлиги тадқиқот давомида яна бир ўз исботини топди. Юқоридаги долзарб муаммони инобатга олиб, раҳбар ва ходимларда хавотирланиш даражаларини аниқлаш тадқиқотда биринчи босқичдаги масала сифатида ўрин олди.

Асосий қисм. Асосий тадқиқотнинг ташкил этиш дастурида белгиланган вазифалар, яъни раҳбар-ходимларда стрессли кечинмаларни аниқлашнинг эмпирик таҳлилин олиб бориш ва таҳрирлаш ва тадқиқот давомида олинган натижаларнинг қайта ишлаш ва ишончилигини далиллаш ҳамда аниқланган эмпирик натижалар бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш кўзда тутилган.

Шундан келиб чиқиб, олиб борилган асосий тадқиқот ва ундан олинган статистик маълумотлар таҳлили тўғрисида батафсил тўхталиб ўтсак. Дастлаб раҳбар-ходимларда стресснинг адаптация синдроми сифатида ажиратилган хавотирланиш даражасини ўрганиш мақсадида Ч.Д.Спилбергер-Ю.Л.Ханин томонидан ишлаб чиқилган, вазият билан боғлиқ хавотирланувчанлик (ВХ) ва шахс билан боғлиқ хавотирланувчанлик (ШХ) даражасини аниқлашга хизмат қиладиган методикадан фойдаланилди. Ушбу методикани қўлланишига асосий сабаб, бу стресс ҳолатини даслабки намоён бўлувчи белгиси сифатида хавотирланиш инобатга олинганлиги учун ҳам муҳим аҳамият касб этади. Энди синалувчилардан олинган натижалар таҳлиliga тўхталсак.

1-жадвал.

Ч.Д.Спилбергер-Ю.Л.Ханиннинг “Хавотирланиш даражасини аниқлаш” методикасидан олинган натижаларнинг умумий ўртача кўрсаткичлари (Студентнинг t-мезони бўйича (n=322))

Вазиятли хавотирланиш даражаси	Синалувчилар	n ₁ n ₂	Ўртача кўрсаткич (M)	Стандарт оғиш	t	p
Юқори даража	Раҳбарлар	142	58,2	4,8	2,8	0,005
	Ходимлар	180	49,3	4,1		
Ўрта даража	Раҳбарлар	142	23,8	2,4	2,9	0,005
	Ходимлар	180	34,5	2,0		
Паст даражада	Раҳбарлар	142	19,4	1,1	1,4	0,019
	Ходимлар	180	17,9	1,0		

Изоҳ: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001.

Дастлаб раҳбар-ходимларнинг вазиятлардан хавотирланиш даражасини ўрганиш мақсадида олиб борилган тадқиқотдан қуйидаги натижалар кўлга киритилди. Демак, вазиятли хавотирланишнинг паст даражаси бўйича синалувчи объектлар ўртасида ишончли фарқлар мавжуд эмаслиги аниқланди. Лекин вазиятдан хавотирланишнинг ўрта даражаси бўйича олинган маълумотларда фарқ мавжудлигига гувоҳ бўлинди (**p<0,001). Натижалар таҳлили шуни кўрсатдики, вазиятдан хавотирланишнинг ўртача миқдори раҳбар синалувчиларда (n₁=142) 23,9 баллни ташкил этган бўлса, ходим респондентларга (n₂=180) эса, ўртача 34,5 баллни ташкил этди. Бу ўз-ўзидан маълумки, вазиятли хавотирланишнинг ўрта даражаси ходимларда нисбатан юқори эканлигини билдиради. Натижаларни таҳлил қилинганида, кундалик фаолиятидаги турли мураккаб вазиятлар ва белгиланган вазифаларни ўз вақтида бажармаслик каби масъулият ходим синалувчиларда кучли ички хавотирни келтириб чиқариши, натижасида уларга асабий таранглик

хамда субъектив босимни келтириб чиқариши маълум бўлди.

Шунингдек, олиб борилган тадқиқот доирасида синалувчиларда вазиятли хавотирланишнинг юқори даражада таҳлил қилинганда синалувчилар ўртасида ишончли фарқлар мавжуд эканлиги кўзга ташланди (** $p < 0,001$). Натижалар таҳлили шуни кўрсатдики, раҳбар синалувчиларида ($n_1=142$) вазиятдан хавотирланиш ходимларга нисбатан бошқарув жараёнидаги вазиятларда кучли хавотирланиши бор эканлигини билдиради. Бу раҳбар респондентлар учун фаолиятларида хавотирланишлари уларда стресснинг дастлабки босқичи субъектив воқелик сифатида намоён бўлишидан далолат беради.

Вазиятли хавотирланиш фаолияти узвий боғлиқ бўлган раҳбар ва ходимларнинг кундалик иш жараёнида бевосита таъсир кўрсатиши билан муҳим аҳамият касб этади. Олиб борилган изланишларимиз шуни кўрсатдики, бажарилиши лозим бўлган турли мураккаб вазиятлар уларга кучли хавотирни уйғотиши, ички хавфни келтириб чиқариши, натижада ички диссонанс пайдо бўлиши каби кечинмаларни вужудга келтиради.

Методикадаги вазиятли хавотирланишнинг ҳудудий фарқларига ҳам эътибор қаратдик ва қуйидаги натижаларни қўлга киритдик.

2-жадвал.

Ч.Д.Спилбергер-Ю.Л.Ханиннинг "Хавотирланиш даражасини аниқлаш" методикасидан олинган натижаларнинг демографик кесимдаги умумий ўртача кўрсаткичлари (Студентнинг t-мезони бўйича ($n=322$))

Вазиятли хавотирланиш даражаси	Синалувчилар	n_1 n_2	Ўртача кўрсаткич (М)	Стандарт оғиш	t	p
Юқори даража	Қашқаларё вилояти	220	46,3	4,4	2,6	0,002
	Самарқанд вилояти	102	59,8	4,9		
Ўрта даража	Қашқаларё вилояти	220	41,4	2,2	2,8	0,011
	Самарқанд вилояти	102	43,9	2,5		
Паст даражада	Қашқаларё вилояти	220	23,1	1,0	1,2	0,038
	Самарқанд вилояти	102	25,3	1,2		

Изоҳ: *- $p < 0,05$, **- $p < 0,01$, ***- $p < 0,001$.

3-жадвал.

Ч.Д.Спилбергер-Ю.Л.Ханиннинг "Хавотирланиш даражасини аниқлаш" методикасидан олинган натижаларнинг умумий ўртача кўрсаткичлари (Студентнинг t-мезони бўйича ($n=322$))

Шахсий хавотирланиш даражаси	Синалувчилар	n_1 n_2	Ўртача кўрсаткич (М)	Стандарт оғиш	t	p
Юқори даража	Қашқаларё вилояти	220	55,6	5,2	2,4	0,006
	Самарқанд вилояти	102	44,1	4,8		
Ўрта даража	Қашқаларё вилояти	220	42,4	2,6	2,7	0,016
	Самарқанд вилояти	102	35,3	2,3		
Паст даражада	Қашқаларё вилояти	220	32,8	1,3	1,2	0,043
	Самарқанд вилояти	102	24,7	1,1		

Изоҳ: *- $p < 0,05$, **- $p < 0,01$, ***- $p < 0,001$.

Тадқиқот доирасида ҳудудий эмпирик таҳлил қилганимизда, вазиятдан хавотирланишнинг паст ва ўрта даражаларида айтарли фарқлар кўзга ташланмади. Лекин вазиятли хавотирнинг юқори даражаси бўйича кўрсаткичлар Самарқанд вилояти раҳбар-ходимларида ($n_2=102$) Қашқаларё вилоятидаги синалувчиларга ($n_1=220$) нисбатан бироз юқори эканлиги (** $p < 0,001$) тадқиқотда ўз исботини топди. Натижаларнинг таҳлил қилганимизда, Самарқанд вилояти синалувчиларида ($n_2=102$) вазиятдан хавотирланиш даражасининг умумий ўртача миқдори 59,8 баллини ташкил этган бўлса, Қашқаларё вилояти синалувчиларида ($n_1=220$) 46,3 баллдан иборатлиги аниқланди.

Самарқанд вилояти раҳбар-ходимларидаги кўрсаткичларни таҳлил қилганимизда, уларда бошқарув тизимининг масъулият кучи ўта юқори эканлиги, берилган топширқларни вақтидан кечиктирмаслик хавотири, ижро интизомига қатъий ривоя этилиши ва раҳбар зиммасидаги масъулият бир вақтнинг ўзида ходимга ҳам кучли брсим ўтказиши каби жиҳатлар устувор эканлиги аниқланди. Методиканинг иккинчи босқичидаги таъкидларга нисбатан синалувчиларнинг муносабатини таҳлил қилинганда, шахсий хавотирланиш даражаси бўйича ҳам керакли статистик маълумотлар аниқланди.

Синалувчиларда методиканинг шахсий хавотирланиш шкаласи эмпирик таҳлил қилинганда куйидаги натижалар олинди. Демак, шахсий хавотирланишнинг ўрта ва паст даражаси бўйича статистик маълумотларда ишончи фарқлар кўзга ташланмади (** $p < 0,05$). Лекин, синалувчиларда шахсий хавотирланишнинг юқори босқичига алоҳида эътибор қаратдик. Натижалар таҳлили шуни кўрсатдики, шахсий хавотирланиш раҳбар синалувчиларда ($n_1=142$) ўртача кўрсаткич 41,9 бални ташкил этган бўлса, ходимларда ($n_2=180$) эса, 54,2 бални ташкил этди (** $p < 0,001$). Олинган натижалардан маълум бўлдики, иш фаолиятида шахсий хавотирланиш раҳбарларга нисбатан ходимларда сезиларли даражада юқори бўлишининг асосий сабаблари ходимларга раҳбар томонидан бериладиган кундалик вазифани бажариш, тегишли камчиликларга йўл қўймаслик, шахсий жавобгарлик ҳисси, зиммасидаги ваколат, масъулият каби жабҳалар кучли шахсий хавотирни келтириб чиқариши тадқиқотда ўз исботини топди. Демак, хулоса қиладиган бўлсак, илмий ёндашувларга таяниб, психикада хавотирланишнинг кузатилиши стресснинг даслабки босқичи намоён бўлишидан далолат беради.

Ушбу шкала бўйича ҳам синалувчилардан олинган кўрсаткичларнинг ҳудудий маълумотлари таҳлил қилинганда куйидаги натижаларга эга бўлинди.

4-жадвал.

Ч.Д.Спилбергер-Ю.Л.Ханиннинг “Хавотирланиш даражасини аниқлаш” методикасидан олинган натижаларнинг демографик кесимдаги умумий ўртача кўрсаткичлари (Студентнинг t-мезони бўйича ($n=322$))

Шахсий хавотирланиш даражаси	Синалувчилар	n_1 n_2	Ўртача кўрсаткич (M)	Стандарт оғиш	t	p
Юқори даража	Раҳбарлар	142	41,9	4,2	2,4	0,005
	Ходимлар	180	54,2	4,4		
Ўрта даража	Раҳбарлар	142	34,6	2,4	1,8	0,020
	Ходимлар	180	30,8	2,2		
Паст даражада	Раҳбарлар	142	16,4	1,1	2,3	0,041
	Ходимлар	180	25,2	1,4		

Изоҳ: *- $p < 0,05$, **- $p < 0,01$, ***- $p < 0,001$.

Ўрганишлар шуни кўрсатдики, шахсий хавотирланиш шкаласи ўртача ва паст даражадаги хавотирланиш бўйича ҳар иккала объектлар ($n_1=220$ ва $n_2=102$) ўртасида ишончли фарқлар кўзга ташланмади. Натижалар таҳлил қилинганда, юқори даражадаги шахсий хавотирланиш Қашқадарё ва Самарқанд вилояти раҳбар-ходимларида ($n_1=220$) ўрача кўрсаткич 56,6 балл билан яққол намоён бўлди (** $p < 0,001$). Бу кўпроқ ходимлар улушига тўғри келганлиги тадқиқотда ўз исботини топди.

Декак, ўз-ўзидан маълумки, вазиятли ва шахсий хавотирланиш даражаси раҳбар ва ходимларда ўрта ёки юқори бўлиши бевосита ҳудудлардаги синалувчиларда ҳам шу каби намоён бўлишидан далолат беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, вазиятли ва шахсий хавотирланиш раҳбар ва ходимнинг кундалик фаолиятида намоён бўладиган ички психик ҳолат бўлиб, тадқиқот давомида олиб борган ўрганишлар шуни кўрсатдики, синалувчиларда иш фаолиятида хавотирланишнинг у ёки бу кўриниши ҳамда даражаси яққол ифодаланганлигини кўришимиз мумкин. Бу шундан далолат берадики, синалувчиларда олиб борилган тадқиқот натижалари ўзининг далилланганлиги билан долзарб аҳамият касб этади.

Адабиётлар:

1. Ханин Ю.Л., Буланова Г.В. Управление эмоциональным состоянием студентов средствами физического воспитания // Стресс и тревога в спорте. - М., 2015. - С. 261-267
2. Бодров В.А. Система психорегуляции стрессоустойчивость человека-оператора. /В.А.Бодров, А.А.Обознов // Психол.журн. 2000.- Т. 21. - № 4. – С. 32-44.
3. Бодров В.А. Когнитивные процессы и психологический стресс. // Психол. журн., 1996. -Т.17. №4. -С.32-42.
4. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие и преодоление /В. А. Бодров. – М.: Perse, 2006. – 528 с.
5. Варданян Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. –194 с.



Файзиёва Мавлуда Худаяровна,

Қарши давлат университети профессори, психология фанлари доктори

ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМИ ТИЗИМИНИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. Мазкур мақолада психологик экспериментлар ўтказилиши жараёнида психологик ҳимоя механизми тизимининг таҳлили хусусидаги фикрлар баён этилган. Шу билан бирга, мақолада шахснинг бузилишига олиб келадиган патологик ҳимояни бажарадиган нормал, доимий ҳаракатланадиган заруриятни фарқлаш борасидаги амалий тажрибалар очиб берилган.

Калит сўзлар: экспериментал тадқиқотлар, психологик эксперимент, психологик ҳимоя, шахс, ҳимоя механизми, патологик ҳимоя, амалий тажриба.

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗАЩИТНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. В данной статье представлены идеи об анализе системы механизма психологической защиты при проведении психологических экспериментов, в то же время в статье раскрывается практический опыт выделения нормальной, постоянно движущейся необходимости, осуществляющей патологическую защиту, приводящую к нарушению.

Ключевые слова: экспериментальное исследование, психологический эксперимент, психологическая защита, личность, механизм защиты, патологическая защита, практический опыт.

ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISM SYSTEM IN EXPERIMENTAL RESEARCH

Abstract. This article presents thoughts about the analysis of the system of the psychological defense mechanism when conducting psychological experiments, at the same time, the article reveals the practical experience of isolating a normal, constantly moving need, carrying out pathological protection, leading to a violation.

Keywords: Experimental research psychological experiment, psychological protection, personality, protection mechanism, pathological protection, practical experience.

Кириш. Экспериментал тадқиқотлар, психологик ҳимоя тизими ва унинг фаолият кўрсатиш хусусиятлари турли шахслар учун бир хил эмаслигини кўрсатади. Баъзиларда ҳимоя заиф бўлади ва керакли нарсалардан ҳимоя қилмайди, бошқаларда эса шахсни ривож топиши учун зарур бўлган маълумотларни идрок этмайдиган даражада шунчалик интенсив ҳимоя шаклланади.

Юқорида айтиб ўтилганлар профилактик функцияларни ва жамиятда шахснинг бузилишига олиб келадиган патологик ҳимояни бажарадиган нормал, доимий ҳаракатланадиган заруриятни фарқлаш талаб қилинади. Ҳимоя механизмларини нормал ва патологик таснифлашга ўринишлар замонавий психологияда тасвирланган (И.М.Грановская, Г.В.Грачев, Л.Р.Гребенников, Е.Л.Доценко, Б.В. Зейгарник, В.Г.Каменская, Ф.Кramer, В.Ф.Моргун, И.М.Николская, Е.С.Романова, Р.Плутчик, А. Freud, Т.С.Яценко, ва ҳоказо.). Ушбу тадқиқотларда психологик ҳимояни таснифлаш учун турли ёндашувлар қўлланилади: 1. Клиник-нейропсихик бузилишларнинг етакчи белгиларига асосланган; 2. Онтогенетик-алоҳида ҳимоя турлари шаклланишининг вақтига асосланган; 3. Эволюцион-эмоционал-мослашув табиатига эга бўлган алоҳида асосий ҳис-туйғуларни назорат қилиш тамойилига асосланган. Биринчи ёндашув патопсихологияда, тиббиётда ва психиатрияда кенг қўлланилади. Иккинчиси 4дан 3бгача бўлган ибтидоий (боланинг ақлий ва ижтимоий ривожланишида биринчи бўлиб шаклланган ва намоён бўлган) ва ундан юқори (ривожланиш жараёнида ибтидоий ўзгартирилади)га ажратилади. Учинчи ёндашув Р. Плутчик томонидан илгари сурилган ҳиссиётларнинг психозволюцион назариясига асосланган. Биринчи марта ҳимоя механизмларининг таснифи А. Фрейднинг монографиясида берилган. Муаллиф куйидаги мезонларни тақлиф қилади: "мен" таҳдидининг локализацияси, онтогенезда шаклланиш вақти. Бундан ташқари, А. Фрейд

ривожланиш жараёнларининг нормаллиги муайян ҳимоя жараёнлари ва тенденцияларнинг ҳукмронлигига боғлиқ эканлигини таъкидлаган. Агар шахс бир ҳимоя усулини кунт билан қўлласа ва бошқа одамларга бўлган муносабатлар ҳам шу ҳимояга асосланса, бу ҳодисани меъёрийми ёки патологик, қай даражада кўриб чиқилишини аниқлаш қийин. Кейинчалик, сўнгги мезон психологик ҳимоя механизмларининг замонавий бўлинмаларида бирламчи ва иккиламчи, ибтидоий ва ривожланган, адаптив ва мосланмайдиган, етарли ва кам, самарали ва самарасиз бўлган ҳолда ишлатилган.

А. Маслоу конструктив реакциялар мезонларини: ижтимоий муҳит талаблари билан шартлилик, муайян муаммоларни ҳал қилишга қаратилганлик, мотивацион йўналганлик ва ҳулқ-атворни англаш ва реакцияда ички ва шахсларо ўзгаришларнинг мавжудлигини қайд этган. Конструктив бўлмаган реакция белгилари, унинг нуқтаи назарига кўра, агрессия, регрессия, фиксация ва бошқалардир. Бу кўринишлар онгли эмас ва ҳақиқий мавжуд бўлган муаммони ҳал қилмай, руҳий ноқулайликни бартараф этишга қаратилган. **А.** Маслоу талқинида психологик ҳимоя механизмлари конструктив эмас, аммо бир қатор ҳолатларда (вақт ва маълумотларнинг етишмаслиги) белгиланади, улар ўз-ўзига ёрдам беришда ҳаракат механизми ролини ўйнайди.

Ф. Крамер психологик ҳимояларнинг онтогенезини ўрганиб, уларни ибтидоий ва юқори қисмларга ажратади. Ибтидоий ҳимоялар (инкор, репрессия, регрессия, алмаштириш) бола томонидан зиддиятли вазиятда ҳиссий ҳолатни енгиллаштириш учун инстинктив равишда ишлатиладиган восита ва ҳиссий механизмларнинг ишлаши билан боғлиқ. Ижтимоий ривожланиш ва ҳулқ-атвор нормаси низоли вазиятларни ўзлаштириш усулларида ибтидоий ҳимоя ўрнини босишга мўлжалланган юқори ҳимояларнинг ўз вақтида киритилишига боғлиқ. Психологик ҳимоянинг ривожланиш даражасини унинг деструктивлик ёки конструтивлик жиҳатлари белгилайди, деб ҳисоблаган **Б. В. Зейгарник**. Муаллиф невротик ва соматик касалликларнинг белгиларини онгсиз ҳимоя чоралари билан боғлиқлигини қайд этади. У бундай ҳимояларни деструктив деб атайди, чунки улардан фойдаланиш шахс ҳаракатларининг деформацияланишига, ҳулқ-атвор мақсадлари билан вазият ўртасидаги алоқанинг бузилишига олиб келади. Берилган механизмлар ёрдамида хатти-ҳаракатни тартибга солиш етарли эмас, чунки ҳимоя тизими инсоннинг онгига қўшимча равишда хатти-ҳаракатни юклайди. Конструктив ҳимоя анланган ва субъект томонидан тартибга солинади.

Асосий қисм. Тадқиқотчилар шахсларо психологик ҳимояларнинг қуйидаги хусусиятларини аниқладилар, уларни қўллаганда шахснинг ҳимоя ҳулқ-атворини баҳолаш учун асос сифатида қабул қилинган.


1. Адекватлик (бир хиллик)-таҳдид сабабига, безовталиқ манбаининг моҳиятига риоя қилиш.

2. Самарадорлик-таҳдидни бартараф этиш, ҳимоя мақсадига эришиш.

3. Спецификлик (Ўзига хослик) - психик шикастланиш ҳолатининг моҳияти ва мазмунининг долзарблиги.

4. Конструктивлик – "ҳимоя тизимини таъминловчи ҳаракатларни яратиш, такомиллаштириш, (муносабатлар, психологик фаровонлик, биргаликдаги фаолият самарадорлигининг) прогрессив ривожланишга қаратилиши". Бу ўзгарувчи психологик ҳимоянинг ўзига хослиги ва бир хиллиги билан белгиланади. Ушбу хусусиятларнинг ифодаланиши ва бирлиги ўзгарувчан бўлиши мумкин. Шахсларо муносабатларда қўлланиладиган психологик ҳимояларни турли коммуникатив вазиятларда ахборот-психологик таъсир ўтказётган шахс позицияси томонидан кўриб чиқайлик. Парвариш - контактнинг узилиши, хатти-ҳаракатларнинг таъсирларга эришиш доирасидан чиқиб кетиш. Сургун - масофани ошириш, тажовузкорни йўқ қилиш, таъсир манбаини жойидан қўзғатиш. Блокировкалаш-таъсир жараёнини назорат қилиш воситаси, шикастловчи ҳимоя предмети, тўсиқлар қўйиш, психикани ташқи таъсирлардан ҳимоя қилиш орқали амалга оширилади. Бошқариш-таъсир жараёнини назорат қилиш ва уни кенгайтишига таъсир кўрсатиш. Сўниш – ҳимоя субъекти ҳақидаги маълумотларни назорат қилиш, уни бузиш, яшириш ёки қисқартириш. Менсимаслик (эйтиборсизлик)-таъсир манбаи ҳақидаги маълумотлар миқдорини чеклаш, таҳдиднинг мавжудлиги, табиати ва бундай таҳдидни нотўғри тушуниш. Бундан ташқари, коммуникатив таъсирнинг асосий хусусиятларига мос келадиган муайян синфга тегишли бир қатор механизмлар аниқланган: манипуляторнинг ниятларини аниқлаш истаги, психологик босимга қарама-қаршилик ва психологик автоматизмга таянч. Сўнгги йиллардаги психологик ҳимоя бўйича тадқиқотларда, унинг ёрдамида эришилган ички мослашув ташқи ижтимоий-психологик мослашувнинг маълум даражасини таъминласагина, психологик ҳимоя тизимининг

фаолияти конструктив бўлади, деб белгиланган. Бунинг учун индивидуал ва вазиятли режанинг бир қатор шартлари зарур бўлади. Индивидуал-шахсий шартлар: 1. Психологик ҳимоядан фойдаланишнинг мослашувчанлиги (инсон, бир ёки икки механизмдан қаттиқ берилиб фойдаланмасдан психологик ҳимоянинг муайян тўпламига эга бўлиши керак); 2. Психологик ҳимоядан фойдаланишнинг мўътадил частотаси. Вазиятли шартлар: 1. Психологик ҳимоядан фойдаланиш ҳақиқатини англаш ва унинг ўз ҳатти-ҳаракатларини таҳлил қилиш орқали бартараф этиш; 2. Ҳимояланмаган характердаги адаптив ҳаракатларга ўтиш; 3. Вазиятни юмшатиш ҳисобидан ҳимояни қўллашни рад этиш. Психологик ҳимоя тизимининг ижтимоий-психологик мослашув воситаси сифатида фаолият кўрсатишини ҳисобга олиб, низони ҳал қилиш усули сифатида, шахсий ривожланиш кўрсаткичи сифатида ва бошқаларни кўриб чиқиб, биз, муқаррар ҳимоя механизмлари ва енгил хатти ҳаракатлари бир-бири билан боғлиқ, деган ҳулосага келамиз. Психология йўналиши 1-курс талабалари билан ўзаро ҳамкорликни шакллантиришдан олдин ва кейин ўтказилган синов натижаларини умумлаштириш ва таҳлил қилиш уларда психологик ҳимоянинг конструктивлик даражасини аниқлаш имконини берди (1-расм).




1-расм. Психология йўналиши 1–курс талабаларининг тажриба гуруҳида психологик ҳимоянинг конструктивлик даражасини фойдаланиши

Психологик ҳимоянинг конструктивлиги умумий кўрсаткичидаги ўзгаришлар фоиз нисбатида аниқланди: назарий даражадаги ўзгариш 17% дан 22% гача, эмпирик даражадаги 43% дан 60% гача, табиий даражада 40% дан 18% гача ўзгаришлар кузатилди. Психологик ҳимоя тизими таркибий қисмларининг ўзгаришларини статистик таҳлил қилиш ўзгаришларнинг ишончлилигини, шунингдек, қўлланилган методикалар таъсирнинг ишончлилиги, самарадорлиги ва етарлилигини тасдиқлаш имконини берди.

Шундай қилиб, конструктив психологик ҳимояни шакллантириш бўйича тажриба-эксперимент ишлари давомида биринчи курс талабаларида психологик ҳимоя механизмлари ва ўзлигини англаш стратегиялари муносабатларида ижобий ўзгаришлар юз берди. Психологик ҳимоянинг функционал жиҳатларида умумий зўриқиш кўрсаткичи сақланиб қолса-да, ибтидоий ҳимоя қийматларининг пасайиши кузатилди (ўрнини эгаллаш, орқага қайтиш, рад этиш) ва юксак ҳимоя механизмлари (компенсация, гиперкомпенсация) кучайганлиги аниқланди. Бундай ўзгариш талабаларнинг мақсадга эришишларида фаол бўлишга, шахс хусусиятларининг намунали ва меъёрий намоён бўлишини таъминлаўга имкон берди. Ушбу ўзгаришлар талабаларни психологик ҳимоя тизимининг самарадорлигини оширишга ва уларнинг янги фаолият даражасига осонлик билан ўтишига олиб келди.

Психология йўналиши 4-курс талабаларида конструктив психологик ҳимояни шакллантириш 2-Тг ва 3-Тг-ларида амалга оширилди. Тадқиқотда юзага келган ўзгаришларнинг натижалари куйида муҳокама қилинади.

2-тажриба гуруҳи (кейинги ўринларда 2-Тг деб юритилади) ҚаршиДУ ва СамарқандДУ психология йўналишининг 4-курс талабаларидан ташкил этилди. Ушбу гуруҳ талабалари билан тажриба-тадқиқот ишларида психологик-педагогик шарт-шароитлар ва шахс хусусиятларини ўрганишга алоҳида эътибор берилди.



2-расм. 4-курс психология йўналиши талабалари 2-Тг да психологик ҳимоянинг конструктивлик даражасининг ифодаланиши

Тадқиқот жараёнида психологик ҳимоя механизмлари, копинг-хатти-ҳаракатлар стратегияси ва талабаларнинг ўз-ўзини англаш хусусиятларининг ишлашидаги ўзгаришларни муҳокама қиламиз. Талабалар ўз фаолигида доимий фойдаланадиган ҳимоя механизмларининг ўрта гуруҳи фаолияти юкломларида ўзгаришлар аниқланди (5-расм). Жумладан, "ўрин алмаштириш" (тажрибагача- 36%, кейин-28%, фарқ-12%), "рационализация" (тажрибагача- 59%, кейин-68%, фарқ-9%), "рад этиш" (тажрибагача- 59%, кейин-53%, фарқ-6%), "орқага қайтиш" (тажрибагача- 40%, кейин-34%, фарқ-6%) ва "компенсация" (тажрибагача- 56%, кейин-62%, фарқ-6%) механизмларининг ишлашида аҳамиятли ўзгаришлар юз берди.

Психологик ҳимоянинг куйидаги таркибларида: "ўрнини эгаллаш" (тажрибагача- 42%; кейин-37%; фарқ-5%), "орқага қайтиш" (тажрибагача- 40%; кейин-34%; фарқ-6%), "ўрин алмаштириш" (тажрибагача- 36%, кейин-28%, фарқ-12%), "рад этиш" (тажрибагача- 59%; кейин-53%; фарқ-6%) пасайиш кузатилди (5-расм). Бу ҳолат, талабалар ўз фаолиятларида қийинчиликларни бошдан кечириш жараёни устидан онгли назоратни кучайтириб борганлигини ифодалайди.

Психологик ҳимоя қилишнинг юксак усуллари гуруҳида "компенсация" механизмларининг ифодаланиш кўрсаткичлари (тажрибагача- 56%, кейин-62%, фарқ-6%) ва "рационализация" (тажрибагача- 59%, кейин-68%, фарқ-9%), бу вазиятнинг моҳиятини таҳлил қилиш ва зиддиятли ҳолатни ўрганиб муросага келтиришга тайёргарлик кўриш усуллари кўллашга эътиборни ошиши билан боғлиқ.

Психологик ҳимоянинг умумий ифодаланиш кўрсаткичида сезиларли ўзгариш бўлмади, лекин содда табиий ҳамда юксак ҳимоя механизмлари ўртасидаги муносабатларда тажриба-тадқиқотлар натижаларига кўра фарқлар ва конструктив ўзгаришлар юзага келганлиги ҳақида ижобий хулосалар чиқариш мумкин.

Маълумотларнинг корреляцион таҳлили асосида психологик ҳимоя механизмлари, копинг хулқ-атвор стратегияси, ўз-ўзини англаш хусусиятлари, назорат қилиш имкониятлари, зиддиятга

йўналган хулқ-атвор усуллари, ижтимоий-психологик мослашув омиллари, шахсий хусусиятлар, психолог талабаларнинг психологик ҳимоясини ривожлантиришни белгилайдиган муҳим омиллар сифатида аниқланди.

Хулоса. Конструктив психологик ҳимояни шакллантириш бўйича тажриба-тадқиқот ишлари давомида психолого-педагогик зарур шарт-шароитлар амалга оширилди: психологик ҳимоя тизими ҳақидаги билимларни ўрганиш, шахсга хос хусусиятлардан хабардор бўлиш ва шахс психологик ҳимоя тизимининг амал қилиш қонуниятларини билиш муҳим аҳамият касб этади.

Экспериментал тадқиқотларни амалга ошириш шарт-шароитлари: психологик ҳимоя тизими ҳақидаги билимларни ассимиляция қилиш, айниқса, шахс ва психологик ҳимоя тизимининг ишлаш талабаларини психологик ҳимоя тизимининг куйидаги йўналишларда ўзгаришига олиб келди: содда-табiiй ва юксак ҳимоя механизмларининг кескинлиги нисбати психологик ҳимоянинг пастки қисмидир. Копинг ресурслар эса муаммоларни бартараф этишдан уларни ҳал қилишгача фаол ҳаракатларга айланди. Ўз-ўзини баҳолаш, шахс ҳис-туйғуларини бошқариш ва ўз-ўзини назорат қилиш уйғунлашган ҳолда психологик ҳимоянинг юқори даражаси бўлган конструктивликка ўтишини баҳолашга имкон берди.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -488 б.
2. Бассин Ф.В. Проблема психологической защиты // Психол. журнал. –1988. - №9. – С.79-86.
3. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: дис. ... доктора психол. наук. – М., – 456 с.
4. Жабборов Х.Х. Ўсмирларда мафкуравий иммунитет шаклланишининг психологик омиллари. Пс.ф.б.фал.док. (PhD) дисс... – Т., 2019, -160 б.
5. Файзиёва М. Шахснинг психологик ҳимоя механизлари. Монография. Қарши “Насаф” НМИУ-2021 йил. – 143 бет.

*Хайдарова Хилола Газикуловна,
Тошкент шаҳар 2-сонли руҳий асаб
касалликлари диспансери психологи*

АЁЛЛАР СУИЦИДАЛ ХУЛҚИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ КОНФОРМЛИЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақола конформлилик ва шахс акцентуациясининг аёллар суицидал хулқига ижтимоий-психологик омил сифатида таъсир этиши натижасида намоён бўлувчи шахсий хусусиятлари бўйича натижаларнинг корреляциявий боғлиқлигига бағишланган.

Калит сўзлар: конформлилик, шахс акцентуацияси, суицид, суицидал мойилликка таъсир этувчи шахс хусусиятлари, суицидал ниятлар, суицидал хулқ, инқироз ҳолатлари.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНФОРМНОСТИ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕНЩИН

Аннотация. Данная статья посвящена корреляционной связи результатов личностных особенностей, проявляющихся в результате влияния конформизма и акцентуации личности на суицидальное поведение женщин как социально-психологического фактора.

Ключевые слова: конформность, акцентуация характера, фактор, способствующий склонности к суициду, кризисная ситуация, суицид, суицидальные намерения, суицидальное поведение.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CONFORMITY AFFECTING WOMEN'S SUICIDAL BEHAVIOR

Abstract. This article is devoted to the correlative relationship of the results of personal characteristics manifested as a result of the influence of conformity and personality accentuation on women's suicidal behavior as a socio-psychological factor.

Keywords: factor contributing to suicidal tendencies, crisis situation, suicide, suicidal intentions, suicidal behavior.

Кириш. Эркин фуқаролик жамиятини ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш, инсон кадрлари-қиммати ва унинг қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган кенг кўламли ислохотларимиз янги поғонага кўтарилди. Халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодий шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш мақсадимиздир[2]. Ушбу мақсад ҳар бир жамият аъзосининг зиммасида эканлигига қарамасдан, давр талабидан келиб чиқувчи ҳаётнинг табиий кескинликларида шахсда, шахслараро ижтимоий муносабатларда глобал муаммолар таъсири юзага келмоқда.

Мавзу долзарблиги. Ҳозирги вақтда ўз жонига қасд қилиш, яъни суицид дунё миқёсида жамиятнинг глобал муаммосидир. Шунинг билан бирга олган ҳолда, 2023 йил ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш халқаро ассоциацияси томонидан Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) билан ҳамкорликда Бутунжаҳон ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш куни 10 сентябрь деб белгиланди. Ушбу лойиҳа 2021-2023 йиллик давр мобайнида ишлаб чиқилиб, "Ҳаракат орқали умид бериш" шиорига эга. Бу лойиҳа илмий изланишларимиз, ҳаракатларимиз орқали суицид ходисасининг олдини олишни кучайтиришимиз мумкинлигини, ўлим даражасини камайтириш учун шошилинич чоралар кўриш зарурлигини эслатиб туради. ЖССТ ушбу мақсадга эришиш учун аниқ ҳаракатларни амалга оширишда мамлакатларни қўллаб-қувватлаш учун ўз ҳамкорлари билан ишлашда давом этади. Жумладан, Республикамызда суицидология хизматини янада такомиллаштириш, аҳоли ўртасида ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш юзасидан чора-тадбирлар мунтазам равишда олиб борилмоқда.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотига кўра, дунёда ҳар 40 сонияда бир киши ўз жонига қасд қилар экан. Европа мамлакатлари бу борада олдинги ўринларда. Статистик маълумотга

тўхталадиган бўлса, Англия, АҚШ, Италия, Австрия, Исроил, Литва, Латвия, Россия, Беларус, Қозоғистон ва Украина каби давлатларда ушбу жараён ўртача кўрсаткичлардан анча кўплиги қайд қилинган. Сўнгги вақтларда нафақат хорижий мамлакатларда, балки Ўзбекистонда ҳам суицид ходисалари купаймоқда. “Ўзбекистон аҳолиси 33 млн эканини инобатга олсак ва фоизлар кесимида чамаласак, мамлакатимизда 700 дан ортиқ эркак ҳамда 600 га яқин аёл суиқасд қилаётгани маълум бўлади. Шунинг учун давлатимиз раҳбари бу муаммога жиддий эътибор бериш, унинг олдини олиш чоралари бўйича топшириқлар беришди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сонли “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорларида; Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Республика Президенти раҳбарлигида ишлаб чиқилган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг биринчи – инсон кадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш, тўртинчи – адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантиришга қаратилган[2] устувор йўналиш белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация иши муайян даражада хизмат қилади.

Мавзу бўйича илмий адабиётлар таҳлили. Психология фани соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бориш ва қайд этилган натижалар асосида илмий-амалий хулосалар чиқаришда муайян методологияга таяниш жуда муҳим аҳамиятга эгадир. Тадқиқотимизнинг назарий ва методологик асослари сифатида психология фанининг таълим-тарбия жараёнида шахсга йўналганлик тўғрисидаги концепциялар; Л.С.Выготский (1982), А.Н.Леонтьев (1984), Б.Г.Ананьев (1977), Л.И.Божович (1986), А.В.Петровский (1989), И.В.Дубровина, тизимлилик тамойили (Б.Ф. Ломов), шахслараро муносабатлар назарияси (В.В.Никандров (2008), детерминизм, тараққиёт тамойиллари ва ўзбек психология мактаби вакиллариининг шахснинг ижтимоий-психологик хусусиятларига бағишланган изланишлари асос сифатида хизмат қилди.

Чет эл олимлари суицидал хулқнинг шахс назарияларини (А. Адлер, К. Меннингер, К. Рогерс, Г. Салливан, З. Фрейд, К. Хорней, Г. Чхартишвили, К. Жунг ва бошқалар), индивидуал ва атроф-муҳит омилларининг ички хусусиятларини ўзида мужассам этган суициднинг умумий хусусиятларини, турлари, кўринишларини ёритишган (Ю. Вагин, Е. Дюркгейм, Л. Трегубов, Н. Фабероу, Е. Шнейдман ва бошқалар) суицидага феноменологик, экзистенциал ёндашув, индивидуал-психологик хусусиятлари, ҳаёт ва ўлимнинг маъноси (А.Камю, А.Шопенгауер, В.Франкл ва бошқалар) ўрганилган, (К.В.Акопян, В.М.Бехтерев ва бошқалар), суицидал хулқнинг мотивацияси ва сабабларини аниқлаш устида иш олиб боришган; (А.Г.Амбрумова, Н.А.Бердяев, Я.И.Гилинский, Н.В.Конанчук, Ю.И.Полишчук, Я.И.Юнатскевич ва бошқалар), суициднинг психологик жиҳатини очишга ҳисса қўшганлар; (А.Г. Амбр, М.В. Горская, В.А. Тихоненко ва бошқалар), ўлимга интилиш даражаси ва суициднинг психологик моҳияти устида илмий изланишлар олиб борганлар; (И. Бойко, С. Игошкина ва бошқалар), суицидал ҳаракатларининг дастлабки шартларини аниқлаш юзасидан тадқиқот олиб боришган; (М. Гернет, Д. Родин, Я. И. Гилинский, К. Горин, И. Краснополская, К. Лукас, И. Б. Орлова, И. П. Павлов, С. Пянков, Г. М. Сейхен, И. Хансваров ва бошқалар) суицидни ижтимоий ҳодиса сифатида таҳлил қилганлар; (Е.В. Змановская, В.Т. Кондрашенко, В.Д. Мендильевич, Е. Шир ва бошқалар), суицидни девиант хулқнинг бир тури сифатида ўрганишган; (А.С. Бондаренко, М.П. Соколов ва бошқалар), суицид ва суицидга мойилликни оптимал профилактикасини аниқлаш устида ишлаганлар;

Ўзбекистонлик олимлар А.С.Ахунжанова, Н.Согинов, Б.М.Умаров, Э.Ш.Усмонов, Н.А.Розикова, Т.Г.Сулейманова, Н.Тойлоков каби психологларимиз томонидан хотин-қизлар, вояга етмаганлар суицид ҳолатини олдини олиш юзасидан тадқиқот олиб боришган.

Тадқиқотнинг мақсади конформлилик ва шахс акцентуациясининг аёллар суицидал хулқига таъсирини аниқлаш ҳамда улардан самарали фойдаланиш юзасидан тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқотнинг объекти аёллар суицидал хулқига таъсир этувчи конформлилик ва шахс акцентуациясини ижтимоий психологик омил сифатида намоён бўлиш жараёни бўлиб, Тошкент шаҳридаги руҳий асаб касалликлари диспансерига мурожаат қилувчи суицидни амалга оширишдан кейин тирик қолган (суицидал хулқли) ва суицидга мойил, суицидал фикрли аёллар ташкил этади.

Тадқиқотнинг предмети конформлилик ва шахс акцентуациясининг хотин-қизлар суицидал хулқига таъсирини ўрганиш.

Эмпирик ўрганиш натижалари. Тадқиқот мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, суицидал хулқли, суицидал ниятли ва назорат гуруҳидаги аёллардан Р.Б.Кеттел тести ёрдамида[14] суицидга

мойил шахсларнинг ижтимоий хусусиятлари орасидаги боғланишларни ўргандик. Унга кўра, **суицидал ниятли** респондентлар хусусиятларининг ўзаро боғлиқлиги куйидагича акс этди:

(С) Ҳиссиётларини бошқаришга нисбатан қобиллик ва (Q3) ўзини тута билмасликка мойилликнинг ижобий ва (Q4) фрустрациялиликлка йўналганликнинг ($p < 0.001$) салбий алоқадорлиги;

(Е) бўйсунувчанлик, мустақил эмаслик билан (Q) ($p < 0.001$) натижаларга эмас, жараёнга йўналганликнинг сустигли, яъни кундалик ташвишларга берилиб, хавотирланмасдан ўз маънафатларини, қизиқишларини топишга интилмаслик, (Q4) ($p < 0.05$) фрустрациялиликлка мойиллик орасидаги салбий боғланиш;

(G) масъулиятсизликка мойиллик билан (M) ($p < 0.05$), тасаввурдан кўра ҳаётга, воқеликка реал қарашга, мантиқийликка йўналганлик салбий муносабати;

(Q) юзага келган муаммолардан хавотирланиб, (E) ($p < 0.001$), ўз қобиғига ўралмасликка интилиш билан бошқаларга боғлиқлик, мансублик (Q3) ($p < 0.05$), зиддиятли шароитда ортиқча фикр, ҳиссиётларни, хатти-ҳаракатларни онгли равишда тийиб тура олмасликка мойилликнинг салбий боғланиши;

(Q3) ўз ҳислари, хулқ-атворини бошқара олмасликка мойиллик билан (C; $p < 0.001$) ҳиссиётлиликлнинг нисбатан турғунлиги орасидаги ижобий ҳамда (O; $p < 0.05$) ўзини айблашга мойиллик ҳамда гуруҳ фикри билан ҳисоблашиш, ўз обрўси ҳақида қайғуриш билан боғлиқ салбий боғлиқлик;

(Q4) фрустрациялиликл, (C; $p < 0.001$) ҳиссиётларини бошқаришга интилиш, (E; $p < 0.05$) мустақил эмасликка мойилликларнинг ўзаро салбий боғланиши каби алоқадорликлар кузатилди.

Демак, респондентларнинг мустақиллигини рағбатлантириш, масъулиятлиликл, ўзига ишонч, босиқлик, сабрлилик, ҳиссиётлари, хатти-ҳаракатларини бошқариш хусусиятларини такомиллаштириш орқали беқарорлик, ўзини айблаш, вазиятни адекват баҳолаш, импульсивликни онгли равишда тийиб тура олиш, мустақил қарор қабул қила олиш каби хусусиятларни шакллантириш, мослашувни изга солиш мумкин. Шунингдек, респондентларнинг ички конформлиликка, шахснинг бошқаларга боғлиқликка, тобеликка, эрксизликка мойиллиги, унинг ўзига ишончсизлигида акс этиб, суицидал ниятларнинг юзага чиқишини кўрсатади.

Суицидга уринган респондентлар хусусиятларнинг ўзаро алоқадорлиги куйидагича ҳосил бўлди:

(A) ўртача мулоқатмандлик билан (I) қаҳри қаттиқликка йўналганликнинг ($p < 0.001$) алоқадорлиги; (B) интелект хусусиятининг, (G) масъулиятсизликка мойиллик ($p < 0.001$), (Q2) нонконформлиликка мойиллик ($p < 0.05$) билан боғлиқлиги;

(C) эмоционал етук эмаслик билан (I) юмшоқ кўнгиллилик, (Q2) нонконфоормлилик, (Q3) хулқ-атвордаги, фаолиядаги тартибсизликка мойилликнинг ($p < 0.001$) боғлиқлиги; (E) мустақилликка мойилликнинг – (M) тасаввурга берилишга ($p < 0.001$), (I) маънавий кадриятлар яратишга шубҳали ёндашувга, (L) ишонувчанликка, (O) хавотирланувчанлик, ўзига ишончсизлик ва фрустрациялиликлка (Q4) йўналганлик билан ($p < 0.05$) алоқадорлиги;

(F) ҳаётни енгил қабул қилиш, мулоқотда юзакилик, импульсивликка, бепарволикка йўналганлик билан (H) таваккалчилик, кучли ҳиссий кечинмаларга мойилликнинг ($p < 0.001$) боғлиқлиги;

(G) масъулиятсизликка мойилликнинг (B) мантиқийлик, (L) ишонувчанлик ($p < 0.001$), (H) таваккалчилик, (M) хаёлпарастлик, аутизм, (Q1) ригидлик кабилар билан ($p < 0.05$) боғлиқлиги;

(H) таваккалчилик, (F) ҳаётни енгил қабул қилиш, мулоқатда юзакилик, бепарволик, импульсивлик, (L) ишонувчанлик ($p < 0.001$), (G) масъулиятсизлик, эгоистлик ($p < 0.05$) билан алоқадорлиги; (I) ҳиссиётларга нисбатан совуққонликка интилиш, (A) мулоқотмандликнинг хусусиятларида, (C) ҳиссиётларга импульсив берилишларни бошқара олмаслик, (M) хаёлпарастлик ($p < 0.001$), (Q2) нонконформлилик ва (E) доминантликка мойилликка ($p < 0.05$) боғлиқлиги;

(L) ишонувчанлик, (G) масъулиятсизликка, (H) таваккалчилик ($p < 0.001$), (E) устунлик, мустақилликка интилиш каби мойилликларнинг ($p < 0.05$) боғлиқлиги; (M) тасаввурга берилишга ($p < 0.001$), (E) устунлик, (I) қаҳри қаттиқлик, (G) масъулиятсизликка ($p < 0.05$) мойилликларнинг боғлиқлиги;

(N) мулоқотда макр-ҳийла ишлатишга, сунъийликка мойилликнинг (Q3) ўзини тута билмаслик ва (Q4) фрустрациялиликлка йўналганлик билан ($p < 0.05$) алоқадорлиги; (O) айбдорликни ҳис этиш, хавотирлилик, (Q2) нонконформлилик хислатининг (C) эмоционал етук эмасликка, (Q3) ўзини тута билмасликка, (Q1) урф-одат ва принципларда ригидлик (L) ишонувчанлик ($p < 0.001$), (E) устунликка мойилликнинг ($p < 0.05$) алоқадорлиги;

(Q1) урф-одат ва принципларда ригидликнинг (M) тасаввурга берилишга, (O) айбдорликни ҳис этиш, хавотирлилик, (Q2) нонконформлилик ($p < 0.001$), (G) масъулиятсизликка мойиллик ($p < 0.05$) билан боғлиқлиги;

(Q2) нонконформлилик хислатининг (C) эмоционал етук эмасликка, (Q3) ўзини тута билмасликка: ортиқча фикр ҳис-туйғу, ҳатти-харакатларни мақсадга мувофиқ йўналтира олмаслик, (Q1) урф-одат ва принципларда ригидлик яъни, ўзи томонидан ўрнатилган меъёр ва қоидаларга содиқлик; (O) айбдорликни ҳис этиш, хавотирлилик ($p < 0.001$), ҳамда (B) интеллектнинг мантикийлиги, (I) қаҳрлиликка ($p < 0.05$) мойиллик билан алоқадорлиги;

(Q3) ўзини назорат этишнинг заифлиги, хулқдаги тартибсизликка мойиллик (C) эмоционал етук эмаслик, (Q2) нонконформлилик ($p < 0.001$) ҳамда (N) ўзини намоён этишга мойиллик билан ($p < 0.05$) боғлиқлиги;

(Q4) фрустрациялилик билан (E) мустақиллик, устунлик, намоёйишкороналикка мойилликка ($p < 0.05$) мойиллик кабиларнинг ўзаро ижобий алоқадорлиги ҳосил булди.

Демак, суицидга уринган респондентлар хусусиятларининг ушбу корреляцион алоқадорлик кўринишлари аксарият боғлиқликларда конформлилик-нонконформлиликнинг етакчилигини намоён этиб, улар билан ўзаро алоқадорликда келган жиҳатларнинг мажмуа сифатида ифодаланиши – конформлилик таъсирида юзага келувчи суицидал мойилликнинг ижтимоий психологик омилини акс эттиради деб хулоса қилишимизга асос бўлиши мумкин.

Шундай қилиб, тадқиқотимиз натижалари асосан уч типли суицидентлар гуруҳини ажратишга имкон берди:

Конформ-нонконформ типли суицидентлар – ўз камчиликларини англамаслиги, ўзлигини, имкониятларини адекват баҳолай олмаслик, зиддиятли вазиятни реал баҳолаш, таҳлил қилиш лаёқатининг етарли эмаслиги сабабли стрессли вазиятларда ва зиддиятли ҳолатда ўзини назорат қилиш малакаларига эга эмаслиги оқибатида конформлилик билан умумий хулққа мослашиб ёки нонконформлилик билан негативизмни намоён этган ҳолда суицидал ният, фикрларни ифодалаш, суицид қарорини юзага келтириши мумкин.

Вазиятга боғлиқ суицидентлар – атрофдагиларнинг (OAB, интернет сайтлари, воқеилик маълумотлари) хулқ-атвор моҳиятини адекват идрок этиш, тушунишга, таҳлил этишга нисбатан зид келувчи (каузал атрибуцияга асосланган) мотивларни реалликка номувофиқ тарзда тушунишга мойиллик – шахснинг ижтимоий мослашувининг издан чиқарганлиги туфайли, ҳаётий ҳодисаларни қадриятлилик ва аҳамиятлилик жиҳатдан даражаларга адекват ажрата олмаслик оқибатида соғлом мотивацияга асосланмаган негативизм, аутоагрессия куринишидаги суицидал мойилликлар юзага келиши мумкин.

Беқарор суицидентлар – шахс томонидан инқирозли ҳолат деб қабул қилинган вазиятда мослашиш, мулоқатмандлик учун зарур бўлган ижтимоий-психологик жиҳатларидан фойдаланиш ёки мос бўлмаганларини компенциялашга хизмат қилувчи тартибга солиш, созилаш лаёқати ва малакасининг етарли эмаслиги оқибатида инқирозли ҳолатларда хулқ атвор вариантларини қийслаб, уларнинг энг мақбулини танламай, оқибатларини тасаввур қилмай – импульсив куринишидаги суицидга уриниши мумкин.

Шунингдек, суицидал мойилликни чекланишига таъсир этувчи факторларни ажратиш, уларни қийсий таҳлил қилиш мақсадида назорат гуруҳидаги (умуман суицидга уринмаган, суицидал ниятга эга бўлмаган) синалувчиларнинг кўрсаткичларини келтирамыз:

(A) якқол мулоқатмандлик (F) ($p < 0.001$), ҳаётни енгил қабул қилиш, (H) ($p < 0.001$) таваккалчилик, ҳиссий кечинмаларга йўғрилганлик билан, (Q1 $p < 0.05$) урф-одат ва принципларда ригидликнинг сустиги билан алоқадорлиги намоён бўлди;

(C) эмоционал етуклик - етук эмаслик факторида билан (Q) ($p \leq 0,01$) ўзига ишонч-ишончсизлик, (L) ($p \leq 0,05$) ишонувчанлик-шубҳаланувчанликнинг меъёрийлиги, (Q3) ($p < 0.01$) хулқ-атвордаги, фаолиядаги тартиблиликка мойилликнинг ва (Q4) ($p \leq 0,05$) фрустрациялиликка йуналганликнинг сустиги аниқланди;

(F) босиқ (мулоҳазалилик)-таъсирчанлик (ҳаяжонлилик) (A) мулоқатмандлик-одамовилик ($p \leq 0,01$) билан ижобий алоқадорлиги кузатилди;

(H) тортинчоқлик (журъатсиз) – дадиллик (таваккалчилик) билан (A) ($p \leq 0,01$) мулоқатмандлик-одамовилик ва (Q3) ($p \leq 0,01$) импульсивлик-ўзини назорат қила олиш каби хусусиятлардан ҳосил бўлган.

(I) қаҳрлилик-юмшоқ кўнгиллилик билан (Q) ($p \leq 0,01$) ўзига ишонч-ишончсизликнинг ижобий устун алоқадорлиги;

(L) ишонувчанлик-шубхаланувчанлик билан (C) ($p \leq 0,01$) эмоционал етуклик-етук эмаслик факторининг ижобий устун боғликлиги;

(N) мулоқотда макр-ҳийла ишлатишга билан (Q4) ($p \leq 0,05$), кучсизлик-фрустрация факторини суицид ижобий алоқадорлиги;

(Q) ўзига ишонч-ишончсизлик фактори билан (I) ($p \leq 0,05$) қахрилилик-юмшоқ кўнгиллилик, (Q2) ($p \leq 0,05$) конформлилик-нонконформлилик, (Q4) ($p \leq 0,05$) кучсизлик-фрустрация факторларининг суицид ҳамда (C) ($p \leq 0,01$), эмоционал етуклик-етук эмасликнинг устун алоқадорлиги;

(Q1) ригидлик-мослашувчанлик ва (A) ($p \leq 0,01$) мулоқатмандлик-одамовилик факторининг устун алоқадорлиги;

(Q2) конформлилик-нонконформлилик ва (Q) ($p \leq 0,05$) ўзига ишонч-ишончсизлик факторларининг суицид алоқадорлиги;

(Q3) импульсивлик-ўзини назорат қила олиш фактори билан (H) ($p \leq 0,05$) тортинчоқлик (журъатсиз)-дадиллик (таваккалчилик) факторининг ижобий, (C) ($p \leq 0,05$) эмоционал етуклик-етук эмаслик факторининг салбий алоқадорлиги;

(Q4) кучсизлик-фрустрация фактори билан (C) ($p \leq 0,05$), эмоционал етуклик-етук эмаслик, (N) ($p \leq 0,05$), мулоқотда макр-ҳийла ишлатиш факторларининг ижобий ва (Q) ($p \leq 0,05$) ўзига ишонч-ишончсизлик факторларининг салбий алоқадорлиги намоён бўлди.

Ушбу эмпирик маълумотлар таҳлили асосида, қуйидаги аёллар хулқининг суицид билан боғлиқ бўлмаган шакллари, яъни антисуицидал ижтимоий-психологик хусусиятлар аниқланди:

- ҳаётни енгил қабул қилиш, таваккалчилик, ижобий ҳиссий кечинмаларга йўғрилганлиги, урф-одат ва принципларда ригидликнинг суицидлиги (креативлик) асосидаги мулоқатмандлик;

- ўзига ишонч, ижтимоийлашув жараёнида меъёрий эҳтиёткорлик, хулқ-атвор ва фаолиятдаги тартиблилик, фрустрациялиликка йўналганликни суицидлиги ташкил этувчи - эмоционал етуклик,;

- мулоқатмандликда меъёрий таъсирланиш, босиқлик, мулоҳазалилик;

- мулоқатмандлик, ўзини назорат қила олиш асосида ижтимоий фаолиятда журъатлилик, дадиллик;

- ўзига бўлган ишончнинг меҳрилилик, атроф-муҳитга, бошқаларга ғамхўрлик билан уйғунлиги;

- мулоқот жараёнида дипломатлилик, такаллуфлик, эҳтиёткорлик, ўзини назорат қилиш ёрдамида зўриқмаслик;

- ўзига бўлган ишончнинг эмоционал етуклик билан уйғунлиги орқали қахрилилик-юмшоқ кўнгиллилик, конформлилик-нонконформлилик, кучсизлик-фрустрация хусусиятларини меъёрлаштириш;

- мулоқатмандлик хусусиятларини такомиллаштириш асосидаги мослашувчанлик;

- мустақил фикрга эғалилик, ўзига ишонч асосида бошқаларга қарам бўлмаслик, таъсирга тушмаслик;

- дадиллик, эмоционал етуклик асосида, ўзини фаолиятини, яшаш тарзини, назорат қила олиш, тартибга солиш;

- дипломатлилик, эмоционал етуклик, ўзига ишонч орқали фрустрацияга берилмаслик.

Р.Б.Кеттел методикаси буйича турли гуруҳлардаги респондентларнинг факторлар орасидаги корреляцион муносабат

фактор	SU	SN	N
A	I,0,554**		F, 0,539**; H, 0,408**; Q1, 0,306*;
B	G,0,443**; Q2, 0,325*		
C	I, 0,524**; Q2,0,643**; Q3, 0,520**	Q3, 0,423**; Q4, -0,450**	L, 0,315*; Q, 0,413**; Q3, 0,321*; Q4, 0,386*
E	I, 0,380*; L, 0,328*; M, 0,391**; Q, 0,319*; Q4, 0,367*	Q, -0,412**; Q4, -0,318*	
F	H, 0,620**		A, 0,539**;
G	B, 0,443**; H, 0,343*; L, 0,411**; M, 0,302*; Q1, 0,335*	M, -0,342*	
H	F, 0,620**; G, 0,343*;		A, 0,408**;

	L, 0,552**;		Q3, 0,229*;
I	A, 0,554**; C, 0,524*; E, 0,380*; M, 0,547**; Q2, 0,310*		Q, 0,298*
L	E, 0,328*; G, 0,411**; H, 0,552**; Q, 0,448**		C, 0,315*
M	E, 0,391**; G, 0,302*; I, 0, 547**; Q1, 0,465**	M, 0,342*	
N	Q3, 0,371*; Q4, 0,348*;		Q4, 0,358*;
Q	E, 0,319*; L, 0,448**; Q1, 0,542**; Q2, 0,448**	E, -0,412**; Q3, -0,367*;	C, 0,413**; I, 0,298*; Q2, 0,331*; Q4, 0,319*
Q1	G, 0,335*; M, 0,465**; Q, 0,542**; Q2, 0,456**		A, 0,306*
Q2	B, 0,325*; C, 0,643**; Q3, 0,570**; I, 0,310**; Q, 0,448**; Q1, 0,458**		Q, 0,33*
Q3	C, 0,520**; N, 0,371*; Q2, 0,570**;	C, 0,423**; Q, -0,367*	C, -0,321*; H, 0,299*
Q4	E, 0,367*; N, 0,348*;	C, -0,450**; E, -0,318*	C, 0,386*; N, 0,358*; Q, -0,319*

Хулосалар.

1. Ижтимоийлашув жараёнида атрофдагилар, жамоа олдида ўз фикрини баён этиш малака ва кўникмаларини эркин эгалламаган, гуруҳнинг ҳайрихоҳлигига муҳтож, гуруҳ меъёрларига амал қилиш ва ўз шахсий чегараларини сақлаш нисбатини англамаган аёллар, кўпчилик, жамоатчилик нафрати, коралаш, гуруҳнинг рад этиш эҳтимоли юқори бўлган ҳолатда конформлилик таъсирида суицидал фикрларга берилишга мойил бўлишлари мумкин.

2. Авторитет ёки референт гуруҳ хулқида, диний ёки маълум ижтимоий гуруҳда суицид ҳолатинини ошқора намоёиш этиш, ифодаланишидан таъсирланган конформлилик хусусиятига эга бўлган аёлларнинг ушбу хулқни меъёр сифатида қабул қилиш ёки суицид ҳақида фикрлаш эҳтимоли юқори бўлиши мумкин.

3. Жамиятдаги мезонлар доирасида ўзига мослашиш меъёрларини белгилаб олмаган, шахс акцентуацияси мавжуд бўлган аёлларда конформлилик ёки нонконформлиликнинг чегара ҳолатлари билан боғлиқ бўлган суицидал мойилликлар юзага келиши мумкин. Гепертим ва демонстратив тип акцентуациясида мустақилликнинг ҳаддан ташқари ифодаланганлиги, яъни нонконформлилик хусусияти, тесқари конформлилик сифатида гуруҳга боғлиқликни, ўзига ёки бошқаларга таҳдид, ўзига нисбатан тажовузкорлик сифатида намоёишкорона-таҳдидли суицидал хулқни юзага келтиради.

4. Шахснинг ўз жонига қасд қилиш хатти-ҳаракати маълум хусусиятларга, ўтиш босқичларига, турларига, шунингдек, суицид ҳаракатининг турли даражаларига ва унинг турли хил намоён бўлиш шаклларига эга, шу сабабли биз "суицид хатти-ҳаракатларига мойил бўлган шахс" деган умумлаштирилган тушунчани шакллантирдик" бу ташқи суицидал хулқ (суицид ҳаракатлари) ва ички (суицид кечинмалари)ни ўз ичига олади. Суицид ҳолатида шахс когнитив, ҳиссий, аксиологик ва фаоллик каби таркибий қисмларда ўзгаришларга учрайди. Шу асосда "шахс хулқининг суицид билан боғлиқ бўлмаган шакллари" тушунчаси, антисуицидал ижтимоий-психологик хусусиятлар аниқланди.

5. Суицид ҳолати профилактикасини ташкиллиштиришда шахснинг индивидуал хусусиятлари, сабаб бўлувчи ва шароит яратувчи омилларга асосланиш кузатилди. Суицидга мойил аёллар билан коррекцион, тренинг тадбирлар ўтказишда улар шахсидаги суицидал мойиллигининг таркиби (ижтимоий-психологик хусусиятлар, шахс акцентуацияси таҳлили), хулқ-фаолияти (антисуицидал хулқ шакллари, ҳаётни тасдиқловчи кадрятларни шакллантириш), баҳолаб-йўналтирувчи (суицидга мойилликни когнитив, ҳиссий, фаолият таркиби бўйича сусайтириб бориш) тизими намоён бўлди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида” ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон. Б.53.
3. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Избранные психологические труды/Под ред. Д.И. Фельдштейна: Вступительная статья Д.И. Фельдштейна. -3-е изд. , -М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: НПО “МОДЭК”, 2001.-352. (Серия “Психологи отечества”.)
4. Выготский Л.С. Психология развития человека / Л.С. Выготский. – М.: Смысл; Эксмо, 2005. 11-34 с.
5. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг 2020 йил маълумотлари. “Саломатлик калити журнали” . – Тошкент. - 2020.
6. Леонтьев А.А. Психология общения. 2-е изд., испр. и доп. - М.: Смысл, 1997. - С. 22.
7. Ломов Б.Ф. Общение как проблема общей психологии. – в кн.: Методологические проблемы социальной психологии. – М.: 1975. С 124-135.
8. Никандров В.В. Методологические основы психологии. Учебное пособие. – СПб.: Речь, 2008. -235 с.
9. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Основы теоретической психологии. М.: Инфра-М, 1998. 525 с.
10. Практическая психология образования: учебное пособие / под ред. И.В. Дубровиной. – 4-е изд. – Санкт Петербург: Питер, 2004. – 592 с.
11. Райгародский [L1] Д.Я. (редактор-составитель). Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Учебное пособие. - Самара: Издательский Дом БАХРАХ, 1998. – 672 с.

Шамсиев Ўктам Бахриддинович,
Алфраганус университети
Uktamshams75@mail.ru

ОНА СИФАТ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ – ГЎДАК ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИ

Аннотация. Мазкур мақолада она сифатларини тадқиқ этиши жараёнида ота-она – бола ўзаро таъсир механизмларини тадқиқ этувчи интерактив методикаси тавсифланиб, она сифат ва функцияларининг гўдак шахси шаклланиши, ривожланишига таъсир жараёни таҳлил этилиб, она сифатлари она ва болани кенг мазмундаги ўзаро таъсирга жалб қилиши орқали аниқланган. Бола хулқини ҳисобга олиши боланинг ривожланиши даражаси, унинг асосий эҳтиёжларини эътиборга олиши зарурлиги илмий далилланиб, у ота-онанинг келажакдаги хулқига асосий омил эканлиги тасдиқланган. Мақолада таҳлилий маълумотлар ишончилиги ва маълумотларни кодлаштириши илмий-назарий таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар: она функциялари, фрейм, холдинг, муносабат (Handling), объект тасавури, индивидуал хулқи.

МАТЕРИНСКИЕ КАЧЕСТВА И ФУНКЦИИ - ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ МЛАДЕНЦА

Аннотация. В данной статье описывается интерактивная методология механизмов взаимодействия родителей и ребёнка в процессе исследования материнских качеств, анализируется процесс влияния материнских качеств и функций на формирование, развитие личности младенца, а также выявляются материнские качества путём вовлечения матери и ребёнка в широкий спектр взаимодействий. Принимая во внимание поведение ребёнка, научно доказано, что уровень развития ребёнка, необходимость учитывать его основные потребности, является основным фактором будущего поведения родителя. В статье проведён научно-теоретический анализ надёжности аналитических данных и кодирования данных.

Ключевые слова: материнские качества и функции, механизмы взаимодействия родителей и ребенка, фрейм, младенец, холдинг, отношение (хандлинг), восприятие объекта, индивидуальное поведение, совместная деятельность.

MATERNAL QUALITIES AND FUNCTIONS ARE THE BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF A BABY'S PERSONALITY

Abstract. This article describes an interactive methodology of the mechanisms of interaction between parents and a child in the process of researching maternal qualities, analyzes the process of influence of maternal qualities and functions on the formation and development of an infant's personality, and identifies maternal qualities by involving mother and child in a wide range of interactions. Taking into account the child's behavior, it has been scientifically proven that the child's level of development, the need to take into account his basic needs, is the main factor in the future behavior of a parent. The article provides a scientific and theoretical analysis of the reliability of analytical data and data encoding.

Keywords: maternal quality and functions, mechanisms of parent-child interaction, frame, infant, holding, attitude (handling), perception of the object, individual behavior, collaborative activity.

Кирриш. Ўзбекистонда кўплаб янги соҳалар қатори аҳолига психологик маслаҳатлар бериш ҳамда оилавий психотерапия соҳасини ривожлантиришга хизмат қиладиган тадқиқотларга бўлган муайян эҳтиёж тобора кўпроқ сезилмоқда. Хусусан, Муҳтарам Президентимиз томонидан 2024 йилни Ўзбекистонда “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”[10] деб эълон қилинишини ҳам олиб борилаётган ислохатларнинг мантикий давоми дейиш мумкин. Зеро, оилавий кадриятлар нафақат оиланинг маънавий-психологик муҳитига таъсир кўрсатиб, эр ва хотин ўртасидаги муносабатларнинг характерини белгилайди, балки бизнинг фикримизча, улар шу оилада вояга етаётган боланинг ижтимоий тасавурлари тизимини, жумладан, ўзига нисбатан шаклланадиган муносабатининг мазмунини ҳам белгилайди.

Мавзунинг долзарблигини ота-онанинг муҳим ижтимоий функцияси – авлодларга оилавий кадрятларни нафақат асраб қолиш, балки уни ривожлантириш мақсадида ҳам авлодлараро мулоқотни тадқиқ қилиш билан боғлиқ соҳаларни ривожлантиришга хизмат қиладиган тадқиқотларга бўлган муайян эҳтиёж белгилаб беради.

Тадқиқот натижалари таҳлили шуни кўрсатадики, оналик турли томондан ва турли назарий ёндашувлар доирасида ўрганилган, бироқ ажратилган жиҳатлар асосида бир бутунликни ташкил этадиган оналик модели яратилмаган.

Тадқиқотнинг мақсади ота-онанинг муҳим ижтимоий функцияси – авлодларга оилавий кадрятларни нафақат асраб қолиш, балки уни ривожлантириш мақсадида ҳам авлодлараро мулоқотни ўрганиш ҳисобланади.

Тадқиқотнинг объекти сифатида оилавий муносабатларнинг марказида турувчи она феноменининг сифат ва хусусиятлари танлаб олинди.

Мақоланинг илмий янгилиги оилавий ҳолдинг тажрибасини шакллантирувчи оналик сифатлари улар хусусиятларининг ҳаракат механизмлари – аффектив, когнитив, конатив, стеритотип, диспазицион, инкультурацив, адаптив, рефлексив ва операционал жабҳалари тасдиқланган.

Тадқиқотда назарий-услубий ва контент таҳлил методларидан фойдаланилди.

Она ҳолдинг тажрибаси сифат(ОХТС)ларини ўрганиш методикаларини ишлаб чиқиш ўзаро таъсир ва бу йўналишнинг таҳлилдаги изчил тимсоли, кодлаштириш, маълумотларнинг миқдорий тасаввурига боғлиқ бўлади. Мақоламизда она ва гўдакнинг ўзаро таъсири жараёнида она ва гўдакнинг ўзаро таъсири таҳлиliga турлича ёндашувларни кўриб чиқиш, ОХТС таҳлилининг минимал бирлигини аниқлаш, она сифатларининг миқдорий тасаввури, уларнинг хусусиятлари ва операционал мезонлари таҳлили, кодлаштиришини аниқлаш каби вазифалар кўйилди.

Индивидуал ёки реактив деб номлаш мумкин бўлган ёндашувда она ва гўдакнинг ҳаракатлари шеригининг ҳаракатларига жавоб, яъни индивидуал ҳаракат сифатида ўрганилади. Мазкур ёндашувга асосан, ўзаро таъсир ва коммуникация икки индивиднинг бир томонлама ёки ҳамкорликдаги таъсири сифатида тушунилади. Бундай ёндашувда она ва боланинг бир-бирига нисбатан индивидуал хулқи ёки ҳамкорликдаги фаолияти эҳтимоллиги ўрганилади. Ёндашув асосида олдинги хулқ унинг мазмуни ўрганилаётган хулққа таъсир қилмайди, яъни хулқ ижтимоий, маданий, хулқий мазмундан ажралиб чиқади. Ўзаро таъсир маълумотлар, ҳаракатлар, эмоцияларнинг дискрет қисм алмашинуви сифатида тушунилади[3]. Шу тариқа, бу ёндашувда ўзаро дўстлик ҳаракатлари кўрсаткичлари, мезонлари, натижалари алоҳида ажратилмайди ва қайд этилмайди.

Психологияда катталарнинг ҳамкорликдаги фаолиятида мослик ва мазмун, муҳимлик, эҳтиёжлар, шерикларнинг мақсадларини тушуниш доираси мавжуд. Ўзаро таъсирда гўдак ва катталар ҳаракатлари асимметриклигига қарамадан, катталар болага ташаббускорликни бериб, унинг фаоллигини пайқаб, қўллаб-қувватласа, ҳамкорликдаги тақсимотли ҳаракат юзага келади.

Она ва гўдакнинг ўзаро ҳамкорликдаги фаолият даражасини аниқлаш кетма-кетлиги ва қоидаларининг ишлаб чиқилмаганлиги сабабли А.Фогель томонидан ишлаб чиқилган динамик коммуникация концепциясига қизиқиш ортмоқда. Бу Л.С.Выготский ва М.Бахтиннинг индивидлар ҳаракатлари ва хусусиятларини аниқловчи таянч тушунчалар сифатидаги муносабатлар тўғрисидаги ғояларига асосланган.

А.Фогелнинг фикрича, муносабатлар бу – ноёб ярим барқарор жиҳатларга эга бўлган шахсларнинг жонли коммуникатив тизимидир. Индивидуал тажриба қисман диалогик ҳамкорликда яратилади. Коммуникациянинг асосий ташкил этувчилари фрейм, ҳамкорликдаги бошқарув, ҳамкорликдаги ҳаракат, ҳамкорликдаги воқеа-ҳодисалар ҳисобланади. Унинг фарқли хусусиятлари – ижодкорлик, детерминизм ва индетерминизмдир.

Фрейм бу – шахс хотирасидаги вазиятнинг маданий ва ижтимоий хусусияти ҳақида инсон хотирасидаги қомусий билимлардир, деб талқин қилинадиган когнитив тилшуносликдаги “рамкалар” ва нутқий акт назарияларидан фарқ қилувчи ярим барқарор ижтимоий структурадир. Фрейм ҳаракатларни ҳамкорликда бошқариш натижасида пайдо бўлади.

Ҳамкорликда бошқариш – мазкур шерик билан олдинги муносабатларга боғлиқ тарзда ўзгарган индивидуал ҳамкорликдаги ҳаракатларнинг “қурилиши”дир.

Шерикларнинг ҳамкорликдаги бошқарув битими орқали фреймда диққат объекти (ёки диққатсизлик), макон – шерикларнинг ўрни ва ҳолати, суҳбат мавзуси юзага келади. Бошқа ифода мазмунини ҳисобга олувчи ва ўз янги мазмунини иккала шерик ифодалари ичига олувчи бутун жараён шерикнинг жавобий коммуникация таҳлил бирлиги саналади. У қисқа ва узун бўлиши мумкин. Ўзаро таъсир ва ҳамкорликдаги бошқарув тушунчаларига асосланган бундай таҳлил

бирликларини биз В.М.Каримова, В. Бибе, Е.Троник, Дж. Бельски ва бқ.нинг она ва гўдак ўзаро таъсирини ўрганишга бағишланган ишларида учратамиз.

А. Фогелга мувофиқ, она ва гўдак ўртасидаги кўмак белгилари куйидагилардир: 1) боланинг ижобий эмоционал ҳолати; 2) болада янги хулқ тури, янги мавзу ва ўзаро таъсир натижасида ҳаракатларнинг пайдо бўлиши. Масалан, “дастлаб бола онасига хотиржам қарайди, сўнг ўзаро таъсир натижасида кула бошлайди, ўйинчоққа қараб кўлини силкитади, танаси билан ҳаракатланади” – “фаоллаштирилган” ҳолат пайдо бўлади (*бизнинг маълумотлар*).

А. Фогель ҳамкорликдаги бошқарувнинг куйидаги турларини ажратади: *симметрик* – шериклар ўзаро ўзгаришлар, янгилик, консенсус (якдиллик)га тайёр бўлади; *мажбурий* – шериклар бир-бирининг ҳаракатларига аралашади ва уларни бузади; *мавжуд эмаслик* – коммуникация мавжуд бўлмайди.

Шу тариқа, А.Фогель бўйича кўмак битимга олиб келадиган ҳаракатлар ҳамкорликда бошқаришда намоён бўлади; кўмак турлари – ҳамкорликдаги бошқарув турлари, ҳамкорликдаги бошқарув натижалари – шерикларнинг турли ўзгаришларидир.

Ушбу мавзу доирасида тадқиқотлар олиб борган тадқиқотчи Е.И. Исенинанинг фикрича, ўзаро таъсир тушунчаси доирасида она сифатлари – О/Слари таҳлилининг турли ёндашувлари ҳам ажратилади. О/Сга бағишланган қатор тадқиқотларда О/С бола ҳаракатларига индивидуал реакциялар тарзида ўрганилади. Демак, куюнчаклик боланинг ҳар қандай фаоллигига онанинг реакцияси ёки бола талаб қилганида онанинг болага эътибор бергунга қадар вақти каби бир қатор ҳолатларнинг ўртача секундлар миқдори тарзида ўлчанади.

Интерактив деб номлаш мумкин бўлган О/Сларини ўрганишнинг бошқа йўли – она ва гўдакнинг биргаликдаги ҳаракатларини ҳисобга оладиган психоаналитик йўналишдаги ишлардан бошланади. Бунда она сифатлари она ва болани кенг мазмундаги ўзаро таъсирга жалб қилиш орқали аниқланган. Бугунги кунда долзарблиги тобора ортиб бораётган ушбу масала кейинги тадқиқотларда куюнчаклик сифатининг мазмуний асосланганлиги, бола билан олдинги ўзаро таъсирларга боғлиқлиги янада аниқроқ белгиланмоқда. Бола хулқини ҳисобга олиш боланинг ривожланиш даражаси, унинг асосий эҳтиёжларини эътиборга олиш учун зарурдир, у ота-онанинг келажакдаги хулқига асос тайёрлайди.

Шундан келиб чиққан ҳолда Е.И. Исенина, О/Сни ўрганишда икки йўналишни ажратади: индивидуал-реактив ва интерактив. Интерактивлик ёки кўмак бу – шерикларнинг умумий мазмуний фонд асосида ўз ҳаракатларини мувофиқлаштириб, бир-бирларига мослашишидир. О/Сларини ажратишда кўмакни ҳисобга олиш зарурияти О/Сни ўзаро таъсир таҳлили билан бошланиб, маълумотларни миқдорий тақдим этиш билан тугатиш орқали барча босқич тавсифларига интерактив йўналиш нуқтаи назари билан таҳлил қилиш методикасини яратиш заруриятига олиб келди.


Она сифатлари таҳлил бирлиги, таҳлил кетма-кетлиги, маълумотларни кодлаш ва миқдорий тақдим этишни кўриб чиқамиз. Агар ҳамкорликдаги фаолият мазмуний тузилма ва мақсадларнинг умумий фонди билан характерланса, онанинг алоҳида ҳаракатлари (ёки она ва гўдак ҳаракатларининг бирлашуви) таҳлил бирлиги бўла олмайди, чунки бундай ҳолатда она ва гўдак ҳаракатлари мазмунини аниқлаб берувчи кенг ўзаро таъсир мазмуни ҳисобга олинмайди.

Она ҳаракатлари мазмуни фаолият вазифасида – мазкур вазиятда унинг ҳаракатлари функциясида амалга ошади. Масалан, гўдак ётганида, тинч ҳолатда нигоҳи адаштиради, ҳаракатлар функцияси вазифасида она болани фаоллаштириш учун уни силайди, кулади, бош иргатади. Шунинг учун Е.И. Исенинага мувофиқ, О/Слари таҳлилининг минимал бирлиги функционал формат – онанинг мақсад ва стратегияларни назорат қилиши орқали ўзаро таъсирнинг локал ёки умумий вазифасини ҳал қилишга ёрдам берувчи она ва гўдакнинг ярим барқарор ўзаро тизими ҳисобланади. Бу бирлик ўзаро таъсир учун зарур бўлган маълумотга боғлиқ равишда ўзгариши мумкин.

Бизнинг тадқиқотимизда оналарга “Бола билан суҳбатлашинг” ёки “Ўйинчоқларни кўлаб, бола билан ўйнанг” кўрсатмалари берилди. Мақсадларни амалга оширувчи мазкур кўрсатмалар она ҳаракатлари вазифасини белгилаб берди, булар ўз навбатида, унинг аниқ ҳаракат-операциялари мазмунини аниқлаб берди[6]. Масалан, гўдакни суҳбатга жалб қилиш мақсадида она ўз олдида гўдакни тинчлантириш, уни фаоллаштириш, турли нарсаларни кўлаб, ўзига жалб қилиш каби вазифаларни кўяди.

Она ва гўдакнинг ўзаро таъсири таҳлилида куйидаги она вазифаларини ажратдик: тинчлантириш, жалб қилиш, фаоллаштириш, эътиборни ўзига қаратиш ва диққатни жалб қилиш, эътиборни ўйинчоққа қаратиш ва диққатни шунга жалб қилиш, болани парваришлаш, янги функцияга ўтказиш (олдинги функцияни бажариб туриб, бир неча секундлар оралиғида янги функцияга ўтилади). Биз томонимиздан онанинг куйидаги функциялари ажратилди: диққатни

ўйинчоққа қаратиш, диққатни онага йўналтириш, диққатни онадан олиб қочиш, фаоллашган, ўйинчоқ билан ҳаракатланиш, ноқулайликни намоеън этиш, диққати беқарор (нигоҳи бир жойга қаратилмаган), узоклашиш (1 дақиқадан узокроқ кўзини юмади) (1-расм Ў.Б. Шамсиев).



1-расм. Нуклеар онла қуйи тизимлари структураси

Вазифалар тизими, она ҳаракатларининг интенционал ва динамик томони – мотив, мақсад, стратегиялари мазмуни, фаолият мазмуни орқали аниқланади. Шу билан бир вақтда, онанинг аниқ операциялари мазмуни гўдакнинг мувофиқ операциялар аҳамиятини белгиловчи ҳаракатларнинг мантигига кўпроқ урғу беради.

Она сифатлари ва унинг хусусиятлари таҳлили кетма-кетлиги она ва гўдакнинг ўзаро таъсири қандай намоеън бўлиши – у она ва гўдак ҳаракатлари изчиллиги ёки аҳамият ва мазмун структураси ҳисобланишига боғлиқ бўлади. Охиргисини ҳисобга олган ҳолда Е.И. Исенина видеотасвири мақсад, вазифа-функциялар ва операцияларнинг аниқ аҳамияти сифатида, яъни она ва гўдакнинг билими, ишончи, установакалари, мазмуни ишлайдиган когнитив қурилма тарзида ўрганади. Шу тариқа, она ва гўдакнинг ўзаро фаолияти видеотасвири видеоматн, дискурс сифатида ўрганилиши мумкин.

Биз томонимиздан операциононал мезонларни кодлаш ва ўзаро таъсирини ёзиб олиш учун танлаб олинган рамзлар орқали ҳаракатларнинг изчиллиги, вокализация ва нутқ, имо-ишоралар, она ва гўдакнинг нигоҳлари, гўдакнинг фаоллик даражаси, онанинг нутқи, она овози баландлигининг ўзгариши, она ёки гўдакнинг бир-бирига таъсир йўналиши белгиланди[4]. Шунга мувофиқ тарзда бола шахси ривожланиш жараёнида яхши онанинг асосий функцияларини уч классификацияга бўлиб ўрганиш мумкин:

1. холдинг;
2. муносабат (Handing);
3. объект ҳақидаги тасаввур

1. Холдинг (holding) онанинг бола бирлиги (идентлиги) ва онанинг болани туюши билан чамбарчас боғлиқ. Боланинг барча эҳтиёжларини қондирувчи холдинг – бу ғамхўрлиги (таважжух)нинг асосий таркибий қисми, бироқ холдинг тушунчасини онанинг ишончсиз ёки нотўғри ҳаракатларини таққослаш орқали тўғри англаб этиш мумкин. Бундай ҳолатларда у болада жуда ноқулай ҳис-туйғуларни вужудга келтириши мумкин:


- Сезги ва ҳисларининг тарқоқлиги;
- Ҳис-туйғуларининг доимий пасайиб бориши;
- Бешик ва ташки олам билан боғлиқ реал идрокидаги бузилишлар ва ишончсизлик ҳисларини уйғониши;
- Психологик оғишлар каби тавсифланадиган бошқа хавотирланиш ҳисларни юзага келтириши мумкин.

2. Муносабат (handing) – бу боланинг шерикликдаги психосоматик сезгилари шаклланишининг асосидир. У боланинг реал ҳолат билан нореал воқеялик ўртасидаги фарқларни англаб етишлари учун пойдевор яратади. Нотўғри муносабат муқулларнинг лозим бўлган даражадаги ривожланишлари учун тўсиқ бўлиб, ҳаракатлар номувоқлигини юзага келтиради[6]. Шунингдек, организм функциялари ва уларнинг ўзаро алоқаларига путур етказиши мумкин.

3. Объект ҳақидаги тасаввур ёки объект билан ўзаро (бола билан реал воқеялик ўртасидаги ижодий боғланишлардаги ўзгаришлар) муносабатлар ўрнатишда ўзини намоён қилиш. Объект ҳақидаги нотўғри тасаввурлар боланинг атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисалар билан бўладиган реал муносабатларининг ривожланишига тўсқинлик қилади.

Умуман олганда ривожланиш бу – вояга етиш жараёни бўлиб, ҳаётий тажрибаларни тўпланиб борилиши билан асосланади; бироқ бу ривожланиш унинг атрофидаги ижтимоий муҳитнинг қандайлиги билан белгиланади. Бола шахси ривожланишининг дастлабки онларида унинг атрофидаги ижтимоий муҳитнинг роли жуда муҳим ҳисобланади. Кейинчалик бир қадар ривожланиш жараёнида бола босқичма-босқич мустақил бўла боради.

Амалий ва назарий таҳлиллар, оналик психологияси ва ривожланиш психологияси бўйича адабиётлар таҳлили асосида оналикка хос бўлган “оналик”, “оналикка тайёрлик”, “она”, “она сифатлари” ва онанинг таянч сифатлари каби асосий тушунчаларни фарқлаш мумкин. Шунингдек, оналик сифатларининг ҳаракат механизмлари – аффектив, когнитив ва вазифавий таркибий қисмларга эга бўлган ижтимоий установақалардир. Шахснинг мазмуний доираси концепцияларига мувофиқ ижтимоий установақа шахс диспозицияси орқали амал қилади, бироқ унинг сўнги вазифавий бўғини – мазмуний хулқий установақа нафақат мазмуний диспозициялар билан, балки мавжуд мотивлар асосида ҳам таъминланади. Умуман олганда она таянч сифатларининг функционал табиати шундаки, якуний натижага эришиш, “она – бола” функция тизимини актуаллаштириш – болада насл сифатлари, тур ва индивидни ривожлантиришдир. Булар мазкур ёшда маданий тажрибани ўзлаштириш билан боғлиқ бўлган боланинг асосий фаолият турларида ўрганилиши лозим, натижада боланинг индивидли, субъектли ва шахсий ривожланиши юз беради (2-расм Ў.Б. Шамсиев).



2-расм. Ота-она мулоқоти таъсирида бола ўзини англашининг шаклланиш механизми

Хулоса. Келтирилган схема бизга мактабгача бўлган ёшдаги боланинг ота-она билан мулоқоти фаолияти таъсири остида боланинг ўзини англаши шаклланиш механизми ҳамда таянч таркибий қисмлардан таркиб топувчи тўлақонли “Мен” концепциясининг шаклланиш жараёни тизимини таҳлил қилишга имкон беради. Шунингдек, биз боланинг ота-онаси оиласида оиладаги ички муносабатлар, айниқса, она феномени нуқтаи назаридан бола шахсининг ўзини англаши ривожланишини ўрганиш ва тадқиқот гипотезасини белгилашда унга таянишни мақсадга мувофиқ деб топдик.

Демак, онанинг хиссий-эмоционал яқинлиги ўз боласини афзал сифатлар эгаси сифатида тасаввур қилишига имкон беради.

Адабиётлар:

1. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Дарслик. – Т.: ”Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2012.-172 б.
2. Шамсиев Ў.Б. “Она феномени бола ўзини-ўзи англаш омили сифатида”// Замоновий таълим/ современное образование 2022, 1 (110) <https://cyberleninka.ru/article/n/>
3. Шамсиев Ў.Б. Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини-ўзи англаш жараёни Ўқув-услубий қўлланма “Мумтоз сўз” нашриёти, 2012 йил, 52-бет./ <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/8875/6214>
4. Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нутқининг психолингвистик тадқиқи. Автореферат. Андижон 2022/<https://www.researchgate.net/publication/>
5. Шамсиев, Ў.Б. Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини-ўзи англаш жараёни. Ўқув-услубий қўлланма “Мумтоз сўз” нашриёти. (2012).
6. Шамсиев, Ў.Б. Оилавий холдинг – бола ижтимоийлашувининг психологик механизми”: Монография. Тошкент кимё-технология институти”. Ташкент: Наврўз. (2018).
7. Шамсиев, Ў. Оила – бола онгининг кўзгуси. Оила: ижтимоий ҳимоя омиллари. Илмий-оммапоб мақолалар тўплами. (Профессор В.М. Каримова таҳрир остида). – Т. (2007).
8. Шамсиев Ў., & Абдусаматов, Х. Дастилабки мулоқот – шахс шаклланишининг асоси. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), (2022). 202-207. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
9. Шамсиев, У.Б. Роль семьи в формирование личности. // чф: человеческий фактор социальный психолог, 450. (2019).

Юнусходжаев Зоир Шакирович,
Меҳнат ва ижтимоий муносабатлар академияси
Умумтаълим фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

ОИЛАЛАРДАГИ МУНОСАБАТЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДАГИ ТЕНДЕНЦИЯЛАР

Аннотация. Мақола замонавий оилавий муносабатларга, оила институтини сақлаш ва мустаҳкамлашда давлат органларининг ролли ҳамда аҳамиятига бағишланган. Дунёнинг ривожланган мамлакатларида жамиятнинг бир бўлаги сифатида оилага нисбатан давлат сиёсати азалий анъаналар, диний қарашлар, менталитет, қонунчилик базаси, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси ва оилавий ҳаёт тарзига хос бўлган муаммоларга қаратилган.

Калит сўзлар: оила, жамият, оилавий қадриятлар, оилавий анъаналар, маънавий асос.

СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. Статья посвящена современным семейным отношениям, роли и значимости государственных органов в сохранении и укреплении института семьи. В развитых странах мира государственная политика в отношении семьи как части общества направлена на проблемы, присущие низким традициям, религиозным взглядам, менталитету, законодательной базе, уровню социально-экономического развития и семейному образу жизни.

Ключевые слова: семья, общество, семейные ценности, семейные традиции, духовная основа.

FAMILY RELATIONS AND TENDENCIES IN MODERN SOCIETY

Abstract. The article is devoted modern domestic relations, role and meaningfulness of public organs in a maintenance and strengthening of institute of monogynopaedium. In the developed countries of the world public policy in regard to a monogynopaedium as directed to part of society on problems, inherent low traditions, religious looks, mentality, legislative base, level of socio-economic development and domestic way of life.

Keywords: monogynopaedium, society, domestic values, domestic traditions, spiritual basis.

Кириш. Жамиятнинг ажралмас бир хужайраси бўлган оила ва оилавий муносабатлар, шунингдек, шахснинг эркин ривожланиши замонавий жамиятнинг ўзига хос хусусияти ҳисобланади. Тарихан ривожланган оилавий анъаналар энди инсон онги ва хулқ-атворида аввалгидек таъсир қилмай қўйди. Бугунги кунда инсон ўзининг шахсий фазилатларини янада тўлиқ очиб беришга ёрдам берадиган маданиятни танлаб, ўз манфаатлари ва эҳтиёжларини амалга ошириш йўллари мустақил равишда аниқлашга интилоқди. Бир ярим аср олдин бошланган ушбу жараённинг ўзига хос долзарблиги замонавий шароитда амалга оширилмоқда. Унинг натижаси нафақат турли мамлакатлар ва халқларнинг сиёсий ва иқтисодий ҳаётида, балки жамиятнинг кичик бўлаги бўлган оила ҳаётида ҳам сифат жиҳатидан ўзгаришларга юз тутмоқда.

А.Г.Қурбонов фикрига кўра, оила инсон ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этишнинг энг барқарор шакли бўлиб, бу инсониятнинг минг йиллар давомида авлодлар давомийлигини таъминлаш имконини беради [1]. Бошқа томондан, жаҳон ҳамжамиятида содир бўлаётган инсон интенсив ривожланишининг барча соҳаларидаги чуқур ўзгаришларнинг натижаси нафақат бир бутун жамият, балки оилавий муносабатлар тизимини сезиларли даражада қайта қуриш муоммолари пайдо бўлди. Ривожланган дунёда сўнгги йилларда оиладаги шахслараро муносабатларга анъанавий равишда хос бўлган доимийлик ва оиладан ташқаридаги инсон фаолиятини белгилайдиган доимий ўзгарувчан ҳақиқатлар ўртасида кескин қарама-қаршилик пайдо бўлиши билан тавсифланади.

Маълумотларни янгиланишининг юқори суръатлари, билим, кўникмалар мазмуни, шунингдек, инсон ва унинг атрофидаги дунё ўртасида пайдо бўладиган муносабатлар беихтиёр замонавий оилавий муносабатларга ўз таъсирини ўтказмоқда. Натижада, оила кўп асрлар давомида унинг мавжудлигига асос бўлган алоқалар барқарорлигини йўқотмоқда.

Ҳозирги вақтда замонавий оила узоқ тарихий даврда жамиятда анъанавий равишда қўйилган позициясидан узоқлашмоқда, никоҳ муносабатлари, мавжудлик шакллари, шунингдек, оиланинг асосий функцияларини бажариши жамият томонидан қонунчилик ва таълим тизими орқали жамият

томонидан белгиланган. Замонавий оилалар ўзаро муносабатларни тартибга солишга, уларни қонуний рўйхатдан ўтказиш вақтига, болалар туғилиши билан боғлиқ масалаларга, уларнинг сони, кундалик масалаларда муносабатларнинг табиати, ёш авлодни тарбиялаш масалалари орқали мустақил равишда ҳал этишга интилишади. Ижтимоий-маданий ва ижтимоий таъсири остида оилани моддий қўллаб-қувватлаш, унинг аъзоларининг ўз фаолиятни ўзи белгилаш ва оилавий бизнесни ривожлантириш билан боғлиқ масалаларни мустақил равишда ҳал қилишади.

Асосий қисм. Ўзбекона жамиятдаги ўзгаришларнинг ўзига хос хусусияти оила аъзоларининг эркинликлари, шунингдек, ўз вазифаларини амалга оширишда ҳар бирининг эркинлигини тасдиқлашдир. Оила мустақил равишда, баъзи ҳолларда мажбурий шаклда, бошқаларида эса ихтиёрий равишда болалар туғилишининг сони ва вақтини, уларни тарбиялаш усуллари, турмуш ўртоклар ўртасида мажбуриятларни тақсимланиши кундалик ҳаёт, бўш вақтларини биргаликда ўтказишлари эр-хотининг олган таълим даражасини белгилайди. Замонавий рус жамиятининг хусусиятлари жамиятнинг табақаланиши ва кутбланиши, ажралишлар сонининг кўпайиши, тўлиқ бўлмаган оилалар ва етим болалар сони ортиши, бепарволик ва уйсизлик билан боғлиқ муаммоларнинг кучайишида намоён бўлмоқда.

Ўзбекистонда яшовчи кўплаб оилалар учун хос бўлган хусусиятлар оила аъзоларининг ўз бурчларини ва уй вазифаларини бажариш бурчининг талаблари, қариндошлар билан мулоқот қилиш қоидалари ва кичик гуруҳнинг барча аъзолари уларни бажариш истаги билан боғлиқ.

Шахсий оилавий, ота-она ва болаларнинг хоҳиш-истаклари ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда оилада ҳаётни ташкил этиш тенденцияси кучаймоқда. 2017 йилдан 2021 йилгача Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши мавжуд, унга кўра, БМТнинг барқарор ривожланиш мақсадлари доирасида, шунингдек, ҳаракатлар стратегияси доирасида ўзбек оиласининг ривожланиши глобал даражада кўриб чиқилди. [2]


Вазиятни яхшилаш учун оила институтини такомиллаштириш билан боғлиқ комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиши, фуқаролар, давлат идоралари ва фуқаролик жамияти институтларининг яқин ҳамкорлиги ва фаол роли таъминланиши керак. Қабул қилинган чора-тадбирлар Ўзбекистон Президентининг 2 йил 2018 февралдаги Фармонида мос келади. УП-5325" аёлларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида " [3]. "Ижтимоий фикр" сўрови давомида [4] оила ва никоҳ, болалар туғилиши ва тарбияси билан боғлиқ масалалар бўйича энг муҳим тенденциялар аниқланди. Ўзбекистонда ҳаракат стратегияси доирасида олиб борилаётган самарали давлат сиёсати оила институтини мустаҳкамлаш, маънавий-ахлоқий тамойил ва меъёрлар, оилалардаги низолар ва ажралишларнинг олдини олиш каби масалаларига тааллуқлидир. Замонавий ўзбек жамиятининг аксарияти оила асосий ҳаётни ифодалайди, деб ҳисоблайди.

Жамоатчилик фикрида устун бўлган ғоя оилани оилавий ришталар бирлаштирган одамлар бирлашмаси сифатида гапиради ва унинг асосини эркак ва аёл ўртасидаги никоҳ, шунингдек, болаларни биргаликда тарбиялаш ташкил этади. Фуқаролик жамияти вакилларининг кўпчилигининг фикрига кўра (81% дан ортиғи) оила давлат ва жамиятнинг асоси бўлиб, ижтимоий ва давлат барқарорлигини таъминлашга имкон берувчи асосий омиллардан биридир. Никоҳга кирган шахсларнинг ёши оилани яратишга таъсир қилувчи муҳим мезондир. Респондентларнинг фикрича, эркаклар учун 24-25 ёшда, аёллар учун эса 21-23 ёшда оила қуриш мақбулдир. Дарҳақиқат, бу ёшда ёшлар одатда ўқишни якунлаш, касб эгаллаш ва мустақил ва иқтисодий жиҳатдан мустақил бўлишга вақтлари бор.

Ўзбекистонликларнинг аксариятига (93% дан ортиғи) кўра, никоҳга кирган шахслар тиббий кўриқдан ўтишлари шарт, чунки бу соғлом оилани шакллантириш учун шароит яратишда муҳим омил бўлиб, ирсий генетик ва туғма касалликларга чалинган болалар туғилиши ҳақида огоҳлантиради. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, фуқароларнинг мутлақ кўпчилигига (деярли 95%) кўра, никоҳни тузишда рўйхатга олиш идорасида рўйхатдан ўтиш тартиби мажбурий деб ҳисоблайдилар. Бу кўрсаткич барқарор ва бир неча йиллардан бери шу даража кузатилмоқда. Бундан ташқари, респондентларнинг аксарияти никоҳдан кейин диний тўй маросимини мажбурий бажариш тарафдори "никоҳ" ёки черковда тўй маросимининг ўтишини эътироф этмоқдалар. Ўзбекларнинг никоҳ жараёнида ота-оналарнинг розилиги муҳимлиги ва зарурлиги ҳақидаги фикрлари бирлиги намоён бўлди. Ўзбекистон фуқароларининг мутлақ кўпчилиги (98% дан ортиғи) ёши, миллати, моддий фаровонлик даражаси каби мезонлардан қатъи назар, ота-онанинг дуосини оилавий бахт, турмуш қурган ёшлар фаровонлигининг шarti ва гарови деб биладилар. Фарзандли бўлиш кўпчилик фуқаролар учун асосий маъно ва оилавий қадриятдир. **Респондентларнинг 68% дан ортиғи** икки ёки уч фарзандли оила тўлақонли, ўзини

ўзи таъминлайдиган ва бахтли деб ҳисоблайди. Сўров натижаларига кўра, биринчи фарзандини дунёга келтирган аёл учун энг мақбул ёш 22-25 ёш деб фикр билдирганлар.

Тадқиқот иштирокчиларининг кўпчилигига кўра (**85% дан** ортиқ), туғилиш орасидаги минимал интервал икки йилдан уч йилгача бўлиши керак. Аёлларнинг 58% ва эркекларнинг деярли 48% га кўра, бу интервал уч йилдан ортиқ бўлиши керак [7, п. 113].



1-диаграмма.

Ўзбекистоннинг аксарият оилаларида бошқа бола туғилиши тўғрисида қарор одатда эр ва хотин томонидан қабул қилинади. Икки ёки ундан ортиқ фарзанд кўриш истаги, жинсидан қатъи назар, бошқа фарзанд кўриш қарорига таъсир қилувчи асосий омил бўлиб қолмоқда. Тадқиқот тасдиқлаганидек, расман турмуш қурган эр-хотиннинг биргаликда яшаши Ўзбекистонда никоҳ муносабатларининг анъанавий ва энг кенг тарқалган тамойили ҳисобланади: сўровда иштирок этган шахсларнинг **87%** дан ортиғи уларнинг турмуш қурганликларини қайд этишган.

Ўзбек оилаларининг қарийб ярми (**деярли 48%**) ядровий, яъни турмуш ўртоқлар ва болаларни ўз ичига олади. Кўп авлодли оилалар ҳам кенг тарқалгандир: ҳар учинчи респондент фикрига кўра унинг оиласига нафақат турмуш ўртоқлар ва уларнинг фарзандлари, балки бобоси ҳам қиради. Сўров натижаларига кўра, эр ҳар бир оила аъзосига ҳам, умуман оилага ҳам тегишли асосий масалалар бўйича якуний қарорлар қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган кўпчилик оилаларнинг бошлиғи вазифасини бажаради. Айнан эркек оила бюджетига асосий ҳисса кўшади ва барча молиявий масалаларни ҳамда оиладаги зиддиятли вазиятларни ҳал қилади.

Ўзбек оиласида масъулият ва функцияларни тақсимлаш анъанавий шаклда амалга оширилади: эркек оилани моддий қўллаб-қувватлаш учун, аёл болаларни тарбиялаш, ҳар иккаласи учун оила аъзолари учун қулай яшаш шароитларини таъминлаш учун жавобгардир. Тадқиқот натижасига кўра, ҳозирги кунда ўзбекларнинг оилавий муносабатлари демократлаштирилди, эр ва хотин ўртасидаги тенглик тамойилларига асосланган янги турдаги оиланинг пайдо бўлиши қайд этилмоқда. Тенг жавобгарлик нормаси эр-хотин ўртасида рол ва мажбуриятларни тақсимлаш учун асос бўлиб хизмат қилади. Ўз оилаларида аёл ва эркек бир хил даражада оилавий ҳаёт бўйича муҳим қарорлар қабул қилиши, оила бюджетига ҳисса кўшиши ва моддий ресурсларни тақсимлашда иштирок этиши кераклигини таъкидлайдиган респондентлар сони ортиб бормоқда.

Тадқиқот маълумотлари шуни кўрсатдики, оилаларнинг ярмидан бир оз камроқ (**43%**), низолар ва жанжалларнинг пайдо бўлишининг асосий сабаблари оила аъзолари ўртасида ўзаро тушунишнинг йўқлиги; молиявий қийинчиликлар; оила аъзоларининг ўз мажбуриятларига масъулиятли муносабат; эр ёки хотиннинг ўз хоҳиш-иродасини юклаш, юз фоиз бўйсунушга эришиш истаги; оила аъзоларининг бошқа иштирокчиларининг манфаатлари ва фикрларига эътибор бермаслик, оилавий муносабатлар; оила аъзолари ўртасидаги бефарқлик; турмуш ўртоқлардан бирининг эҳтирослари билан спиртли ичимликлар, гиёҳванд моддалар, кимор ўйинлари; оила аъзоларидан бирининг касаллиги каби муаммолардир. Кўпинча, оилавий муносабатлардаги зиддиятли вазиятлар дўстлар ёки танишлар туфайли пайдо бўлади.

Низоларнинг пайдо бўлиш частотаси бўйича иккинчи ўринни келин ва қайнона ўртасидаги муносабатлар эгаллайди. Иккинчи ҳолатда, низоларнинг сабаблари деспотизм, қайнонанинг ҳокимиятга интилиши, келиннинг оилавий ҳаётга тайёр эмаслиги, шунингдек, муайян масалаларда бир-бирига ён берилишни истамасликдир. Ўзбек оилаларида намоён бўладиган зўравонликка, шунингдек, унинг энг кенг тарқалган шакли - аёлга нисбатан зўравонликка нисбатан яхши шаклланган муросасизликка эга: сўров иштирокчиларининг **90%** дан ортиғи оиладаги зўравонликка салбий муносабат билдирган. Бироқ бу шармандали ҳодисани қоралаш билан бирга, одамлар

оилани сақлаш аёлнинг тенглик, кадр-қиммат ва хавфсизликка бўлган ҳуқуқига нисбатан устувор аҳамиятга эга деган фикрни билдирадilar. Фуқароларнинг аксарияти (74% дан ортиғи) ўз хатти-харакатлари, турмуш тарзи ва хулқ-атворини келишиб олишида маҳаллада қабул қилинган қоида ва нормалар муҳим омил бўлмоқда. Бу унинг ижтимоий аҳамиятга эга муассаса эканлигидан далолат беради.

Ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра мустаҳкам оилавий муносабатларни ўрнатиш аввало оила аъзолари ўртасида муносабатларни ҳурмат ва ишончни сақлаб қолиш билан боғлиқлигини кўрсатди. Оилавий ажралишлар республикада яшовчи кўпчилиги (80%) учун ўта салбий ҳис-туйғуларни келтириб чиқаради. Ўзбекистон аҳолиси учун оила ижтимоий-ахлоқий жиҳатдан жамият учун катта аҳамиятга эга, фуқаролик қадриятлари тизимида никоҳ ва оилавий алоқаларни устувор вазифа деб биладилар.



2-диаграмма.

Хулоса. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ўзбек оиласи ўз аъзолари ўртасидаги севги ва маънавий қариндошлик, ўзаро ҳурмат ва ўзаро тушуниш туйғуларига асосланган мустаҳкам ва дўстона иттифоқдир. Бахтли оиланинг хусусиятлари меҳмондўстлик, меҳнасеварлик, болаларга бўлган катта муҳаббат ва кекса авлодга бўлган юксак ҳурмат билан ифодаланади. Президентимиз ташаббуси билан амалга оширилган амалий чора-тадбирлар оила институтини мустаҳкамлаш, эр-хотин, ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларни тартибга солишни мақсад қилиб, ўзбек халқи томонидан ҳар томонлама қўллаб-қувватланди. Республика аҳолисининг мутлақ кўпчилиги Ўзбекистонда рўй бераётган ўзгаришлар оиланинг жамиятдаги ўрни ва аҳамиятини оширишга, шунингдек, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни мустаҳкамлаш ва соғломлаштиришга, уларда қулай ва уйғун муносабатлар ўрнатишга имкон беришига рози. Шунингдек, ушбу ўзгаришлар, сўровда иштирок этганларнинг фикрига кўра, оилаларнинг моддий аҳолини мустаҳкамлаш ва ёш авлодни умуминсоний ва миллий қадриятлар руҳида озиқлантиришда муҳим омил бўлмоқда.

Адабиётлар:

1. Шоумаров Ғ. Б. Оила психологияси. (Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма). Т.: Шарқ, 2008. – 296 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги ПФ-5325-сон Фармони.
4. Убайдуллаева Р. А. Семья в Узбекистане: Традиции и современные тенденции // Мониторинг общественного мнения. 2005. № 3 (75). С. 113–114.

*Mamajonova Shoxista Kamoldinovna,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
sh.mamajonova81@gmail.com*

O'SMIRLARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARINI EMPIRIK O'RGANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada, so'nggi yillarda O'zbekistonda addiktiv xulq borasida olib borilayotgan islohotlar, o'smirlarda addiktiv xulqning ko'rinishlari, psixologik sabablari, salbiy oqibatlar hamda o'smirlarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga ta'siri masalalari tahlil qilingan. O'tkazilgan test natijalarining psixologik tahlili bayon qilindi. O'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarga, spirtli ichimliklarga, televizorga, sevgiga, azart o'yinlarga, jinsiy munosabatlarga bog'liqlik, oziq-ovqatga, dinga, mehnatga, dori-darmonlarga, chekishga, sog'lom turmush tarziga, giyohvandlikka qaramlik sabablari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, tobelik turlari, diniy mutaasiblik, dori-darmonlarga qaramlik, oziq-ovqatga qaramlik, xulq, jinoyatchilik.

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, проводимые в Узбекистане в сфере аддиктивного поведения в последние годы, проявления аддиктивного поведения у подростков, психологические причины, негативные последствия, а также влияние подростков на поиск своего места в обществе. Описан психологический анализ результатов тестирования. Выделены причины зависимости подростков от социальных сетей, алкоголя, телевидения, любви, азартных игр, сексуальных отношений, еды, религии, работы, наркотиков, курения, здорового образа жизни, наркомании.

Ключевые слова: подросток, виды зависимости, религиозный фанатизм, наркомания, пищевая зависимость, поведение, преступность.

EMPIRICAL STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF ADDICTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Abstract. In this article, the reforms carried out in Uzbekistan regarding addictive behavior in recent years, the manifestations of addictive behavior in adolescents, psychological causes, negative consequences and the impact of adolescents on finding their place in society are analyzed. The psychological analysis of the test results was described. The causes of teenagers' addiction to social networks, alcohol, television, love, gambling, sexual relations, food, religion, work, drugs, smoking, healthy lifestyle, drug addiction are highlighted.

Keywords: adolescent, types of addiction, religious fanaticism, drug addiction, food addiction, behavior, criminality.

Kirish. Jahon aholisining ko'pgina qismini o'smirlar tashkil etib ularning ayrimlari o'rtasida o'g'rilik, talonchilik, qotillik, firibgarlik, transport vositasini olib qochish va boshqa holatlarning jamiyatga salbiy ta'sir etishi, yuz berishini oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization) tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Dunyo bo'yicha har yili 10 -17 yoshdagi yoshlar orasida 200 mingga yaqin qotillik, talonchilik jinoyati sodir etiladi va ushbu xulq sabablarini aniqlash butun dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganiladi». Bu borada o'smirlarda addiktiv xulq-atvorni shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning o'rnini aniqlash, ulardagi addiktiv xulqni kelib chiqish omillariga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va addiktiv xulq egalariidagi shaxsiy sifatlarni o'zgarishlari bilan bog'liq masalalar yechimini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[4]

Respublikamizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli yoshlar ta'lim va tarbiyasini uyg'un tarzda olib borishga oid strategik vazifalar belgilanib, zarur me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tarbiyasida muammolari bo'lgan o'quvchilarning ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borish...» masalasi ustuvor vazifalar etib belgilanganligi, o'smirlar orasidagi addiktiv xulqqa moyillikni psixodiagnostikasi, korreksiyasi, addiktiv xulq psixoprofilaktikasi

borasidagi psixologik ta'sir mexanizmlari va manzilli ijtimoiy-psixologik xizmat texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlarida psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda psixolog olimlar tomonidan o'smirlarda deviant xulqning ko'rinishlari, kompyuterga tobelik va addiktiv xulqning psixologik sabablari, salbiy oqibatlari hamda ularni jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga ta'siri masalalari bir qator psixologik tadqiqotlarda (D.Abdujabborova, M.X.Axmedova, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, N.G'.Kamilova, Z.T.Nishanova, G.Q.To'laganova, B.M.Umarov, E.G'.G'oziyevlar, I. I.Raximova) o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan S.A.Belicheva, V.I.Volkov, I.V.Vachkov, A.G.Gresov, M.I.Yenikeev, Ye.D.Zmanovskaya, Ya.N.Ivanov, R.Kochyuna, R.V.Ovcharova, V.F.Pirojkov, N.Yu.Sinyagina, L.M.Semenyuk, V.Fedosenko, Yu.I.Yurichkalar tomonidan deviant xulqli o'smirlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va ularning harakatlarini korreksiya qilish bilan bog'liq masalalari, Yu.L.Arzumanov, A.D.Glotochkin, A.I.Donsov, Yu.A.Kleyberg, M.V.Lvova, A.Ye.Lichko, A.A.Rean, R.V.Fomina va A.V.Shuvalovlar tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addektiv xulq shakllariga oid muammolar keng qamrovli tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Bandura, G.Bekker, E.Dyurkgeym, Dj.Kelli, E.Krechmer, Ch.Lomborzo, S.Miller, R.Merton, E.Saterland, N.Smelzer, Z.Freyd, K.Yung, E.Erikson, E.Fromm, G.Kayzer, B.Xolist, G.Shnayder, N.P.Dubinina, V.N.Kudryavsev, M.I.Buyanov, P.B.Ganushkin, U.Sheldonlar tomonidan deviansiya masalalari ilmiy tadqiq etilgan.[5 b.97–110.] Mazkur ishlarda O'smirlik yoshidagi o'g'il bolalar va qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, o'smirlik davri avtonomiyalari, subyektiv yolg'izligi, emotsional hayrixoxligi va addiktiv xulq o'rtasidagi o'zaro bog'liqligining psixologik mohiyati ilmiy tadqiqot predmeti sifatida etnopsixologik jihatdan alohida o'rganilmagan.

Natijalar. Bugungi kunda o'smirdagi addiktiv xulqni o'rganish, ushbu hulqni oldini olishni samarali usullarini ishlab chiqish, ruhiy salomatlik muammolarini hal qilish, uzoq muddatli salbiy oqibatlarni tushutirish, sog'liqni saqlashga oid ma'lumotlar bilan ota-onalar, pedagoglar hamda psixologlarni habardor qilish, zarurdir. Ushbu muammoga alohida e'tibor bergan holda, ilmiy jihatdan o'rganib, empirik tahlil qilish va tavsiyalar hamda korreksion dasturlar ishlab chiqish orqali biz yoshlarda addiktiv xulqning tarqalishi va ta'sirini kamaytirish imkoniga ega bo'lamiz. Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda tadqiqotimiz maqsadi sifatida o'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari aniqlashni belgilab oldik.

Ushbu maqsadga erishish uchun o'smirlardagi ushbu xulqiy og'ishlarning o'ziga xos mohiyatini aniqlashga qaratilgan V.G. Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan “Tobe xulqni aniqlash” testidan foydalandik. Metodika o'ziga xos test bo'lib, o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarga, spirtli ichimliklarga, televizorga, sevgiga, azart o'yinlarga, jinslararo unosabatlarga bog'liqlik, oziq-ovqatga, dinga, mehnatga, dori darmonlarga, chekishga, sog'lom turmush tarziga, giyohvandlikga, umumiy tobelikga qaramliklarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu uslub yordamida qo'lga kiritilgan natijalar 680 nafar o'smirlar misolida tahlili quyidagi 1-jadval orqali izohlab ko'rsatildi.[5. 97–b.]

1-jadval.

V.G. Lozovayaning “Tobe xulqni aniqlash” metodikasi bo'yicha jinslarning natijalar tahlili

Tobelik turlari	jins	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t
Spirtli ichimliklarga qaramlik:	erkak	216	6,75	2,98	2,24*
	ayol	464	6,27	2,38	
Televizorga qaramlik	erkak	216	11,72	3,90	-0,75
	ayol	464	11,98	4,49	
Sevib, sevilishga ehtiyoj	erkak	216	12,68	5,15	0,14
	ayol	464	12,62	4,91	
Azart o'yinlarga qaramlik:	erkak	216	7,46	2,96	2,20*
	ayol	464	6,93	2,89	
Jinsiy munosabatlarga ehtiyoj	erkak	216	7,20	2,87	0,22
	ayol	464	7,15	2,81	
Oziq-ovqatga qaramlik	erkak	216	12,31	4,86	-1,86
	ayol	464	13,09	5,24	
Diniy mutaassiblik	erkak	216	13,29	5,12	0,08
	ayol	464	13,25	5,46	
Mehnatga	erkak	216	13,70	3,47	-0,36

qaramlik(Trudogolizm)	ayol	464	13,80	3,43	
Dori vositalariga qaramlik:	erkak	216	8,16	3,11	-1,49
	ayol	464	8,61	3,91	
Kompyuterga qaramlik	erkak	216	9,42	3,79	2,62
	ayol	464	8,63	3,62	
Chekishga qaramlik:	erkak	216	6,60	2,89	0,80
	ayol	464	6,41	2,80	
Pedantizm	erkak	216	15,80	4,86	-2,00
	ayol	464	16,59	4,82	
Narkotobelik	erkak	216	6,52	3,19	1,03
	ayol	464	6,26	2,96	
Umumiy tobelik	erkak	216	11,00	4,49	-0,51
	ayol	464	11,19	4,50	

* $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$

Navbatdagi 1-jadvalda “Spirтли ichimliklarga qaramlik” shkalasi bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, erkak va ayollarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=2,24^*$; $p < 0,05$. Ushbu shkalada ayollarga nisbatan erkaklarda spirтли ichimliklarga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab jtimoiy omillar, madaniy me‘yorlar va gender rollari spirтли ichimliklarni iste‘mol qilishga moyillikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatimizda erkaklarning spirтли ichimliklarni iste‘mol qilishi mumkinligini me‘yor sifatida qabul qilish va ayollardagi spirтли ichimlik ichishga xohishning qattiq qoralanishi sabab, erkaklarda spirтли chimliklarga qaramlik ayollarga nisbatan yuqori darajada ekanligi izohlanadi.

Navbatdagi azart o‘yinlarga qaramlik shkalasi bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, erkak va ayollarda umumiy natijalarning o‘rta arifmeti qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=2,20^*$; $p < 0,05$. Ushbu shkalada ayollarga nisbatan erkaklarda azart o‘yinlarga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab ijtimoiy gender stereotiplar, jumladan an‘anaviy gender rollari ko‘pincha tavakkalchilik va raqobatbardoshlikni erkaklik bilan bog‘laydi. Erkaklar ayollardan farqli raqobatbardoshlik, maqom va muvaffaqiyatga alohida e‘tibor berishadi. Qimor o‘yinlarida katta g‘alabalarning jozibasini oson va qisqa vaqtda his qilish imkonini berganligi sababli erkaklarni qimor o‘yinlari bilan shug‘ullanish ehtimolini oshirishi aniqlandi.

Keyingi televizorga qaramlik bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki ($t=-0,75$) erkak va ayollarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Chunki televideniye ijtimoiy va iqtisodiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar, erkaklar ham, ayollar ham foydalanishi mumkin bo‘lgan ommaviy axborot vositalarining hamma joyda mavjud shakli bo‘lib, uning oson mavjudligi, ayniqsa, smartfonlar bilan bog‘lagan holda keng qo‘llanilishi, ikkala jins ham televizorga qaramlikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Maqsadli reklama va ommaviy axborot vositalarining ta‘siri, reklamachilar kengroq auditoriyani qamrab olish uchun turli usullardan, jumladan, gender-neytral dasturlardan foydalangan holda, o‘zlarining marketing strategiyalarini moslashtirganliklari sabab sifatida ko‘rsatiladi. Sevim, sevilishga ehtiyoj bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, ($t=0,14$) erkak va ayollarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. O‘smirlik - bu gormonal o‘zgarishlar va kuchli hissiy tajribalar davri. O‘smirlik shaxsiyatni shakllantirish uchun juda muhim davr bo‘lib, o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham boshqalar tomonidan tan olinish, tasdiqlash va qabul qilishga intiladi. Sevim, sevilishga ehtiyoj, o‘z-o‘zini hurmat qilish, bog‘lanish uslubi va shaxsiy ruhiy travma tarixi kabi har ikka jins uchun umumiy omillar asosida shakllanganligi sababli ahamiyatli farq aniqlanmadi. Oziq-ovqatga qaramlik bo‘yicha olingan natija ($t=-1,86$). O‘g‘il bolalar ham, qizlar ham o‘xshash ijtimoiy-madaniy omillarda yashayotganliklari, ikkala jinsdagi o‘smirlar stress, qayg‘u yoki yolg‘izlik bilan kurashish vositasi sifatida ovqatlanishdan foydalanishlari sababli o‘smir qiz va o‘g‘il bolalarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi.

Diniy mutaassiblik ($t=0,08$) bo‘yicha o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham o‘xshash psixologik ehtiyojlarga ega, aksariyat ijtimoiy munosabatlarda diniy e‘tiqodga kuchli urg‘u beriladi. O‘g‘il bolalar va qizlar ko‘pincha ushbu madaniy me‘yorlarga mos kelishi kutiladi, bu esa o‘xshash darajadagi diniy tobelikka olib keladi. Aynan shu sababli erkak va ayollarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi.

Mehnatga qaramlik (Trudogolizm) ($t=-0,36$) jadal suratda rivojlanayotgan davlatimizda ijtimoiy bosim o'smirlarning mehnatga qaramlini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jinsidan qat'iy nazar, o'smirlarga o'qishda, maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, keyin esa oliy ta'lim va mehnat faoliyatida raqobatbardosh bo'lishlari zarurligi tez-tez uqtirilganligi sababli, o'smir qizlar va o'g'il bolalarda umumiy ilmiy faoliyatda yuksalish, kasbiy muvaffaqiyat, moliyaviy barqarorlik va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intiladi. Ushbu umumiy vazifa sabab, mehnatga qaramlik shkalasida o'smir qizlar va o'g'il bolalarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi.

2-jadval.

V.G. Lozovayaning “Tobe xulqni aniqlash” metodikasi hududlar bo'yicha natijalar tahlili

Tobelik turlari	Hudud	n	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t
Spirtli ichimliklarga qaramlik:	shahar	340	6,46	2,85	0,37
	qishloq	340	6,39	2,31	
Televizorga qaramlik	shahar	340	12,31	4,44	2,47*
	qishloq	340	11,49	4,13	
Sevib, sevilishga ehtiyoj	shahar	340	11,64	4,16	-5,32***
	qishloq	340	13,64	5,52	
Azart o'yinlarga qaramlik:	shahar	340	6,87	3,15	-2,06*
	qishloq	340	7,33	2,66	
Jinsiy munosabatlarga ehtiyoj	shahar	340	7,51	3,23	3,19**
	qishloq	340	6,82	2,31	
Oziq-ovqatga qaramlik	shahar	340	13,39	4,96	2,79**
	qishloq	340	12,29	5,25	
Diniy mutaassiblik	shahar	340	13,78	5,18	2,53*
	qishloq	340	12,75	5,47	
Mehnatga qaramlik(Trudogolizm)	shahar	340	13,99	3,31	1,71
	qishloq	340	13,54	3,55	
Dori vositalariga qaramlik:	shahar	340	8,53	3,68	0,44
	qishloq	340	8,40	3,68	
Kompyuterga qaramlik	shahar	340	8,99	4,12	0,83
	qishloq	340	8,76	3,19	
Chekishga qaramlik:	shahar	340	6,12	2,88	-3,22**
	qishloq	340	6,82	2,73	
Pedantizm	shahar	340	16,55	4,80	1,12
	qishloq	340	16,14	4,88	
Narkotobelik	shahar	340	6,44	3,37	0,82
	qishloq	340	6,25	2,65	
Umumiy tobelik	shahar	340	11,06	4,45	-0,43
	qishloq	340	11,21	4,55	

* $p<0,05$; ** $p<0,01$; *** $p<0,001$

2-jadvaldan ko'rinib turibiki, “Tobe xulqni aniqlash” testining hududlar bo'yicha natijalari tahlil qilinganda, televizorga qaramlik shkalasi bo'yicha olingan natijalarda shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=2,47^*$; $p<0,05$. Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan shahar hududidagi o'smirlarda televizorga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Shaharlarda kamroq ochiq joylar, shahar sharoitidagi jismoniy faollik, qishloq sharoitidagi jismoniy faollikdan sust bo'lishi, televizor o'yin-kulgining harakatsiz shakli va vaqt o'tkazish usuli bo'lib xizmat qilishi, ko'p qavatli binolar va zich joylashgan turar-joylar odatda kabel yoki sun'iy yo'ldosh televideniyesi va yuqori tezlikdagi internet uchun yaxshi infratuzilmaga egaligi, shahar hududidagi o'smirlarda televizorga qaramlikka moyillikni kuchaytiruvchi sabab sifatida ko'rsatiladi. “Sevib, sevilishga ehtiyoj” shkalasi bo'yicha natijalar shahar va qishloq

hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=5,32^{***}$; $p<0,001$. Ushbu shkalada shahar hududidagi o'smirlarga nisbatan qishloq hududidagi o'smirlarda sevgiga qaramlik yuqori darajada ekanligi ko'rinib turibdi. Bu holatga bir necha omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, qishloq hududida yashovchi aholi, shahar hududida yashovchi aholiga nisbatan bir joyda doimiy va barqaror yashovchi hisoblanadi. Bu jarayon tabiatan yaqin insonlar o'rtasida iliq, doimiy, barqaror munosabatlarni shakllanishi, sevgi munosabatlarining kuchayishiga turtki bo'ladi. Ikkinchidan, o'smirlar uchun mazmunli vaqt o'tkazish maskanlari va tadbirlarining kamligi uchun xissiy to'yinish va ijtimoiy muloqot manbai sifatida sevgiga oid munosabatlardan foydalanadilar. Azart o'yinlarga qaramlik shkalasi bo'yicha natijalar shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=-2,06^*$; $p<0,05$. Ushbu shkalada shahar hududidagi o'smirlarda, qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan azart o'yinlarga qaramlik yuqori darajada, bunga sabab shahar hayotining tez sur'atda o'sishi natijasida ish bilan band ota-onalarning farzand tarbiyasiga kamroq ishtirok etayotganligi, bu esa o'smirlarga xavfli xatti-harakatlar, jumladan qimor o'yinlari bilan shug'ullanish uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etishi, shahar hududidagi o'smirlarda akademik bosim, tengdoshlar raqobati yoki shahar hayoti talablari tufayli yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishi oqibatida, qimor o'yinlari stress va salbiy his-tuyg'ulardan qochish yoki ularni yengish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi, bundan tashqari shahar muhiti ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning yuqori darajasini, kambag'allik darajasi yoki boylik nomutanosibligini ko'rsatadi. Moliyaviy cheklovlar yoki tez pul yutug'iga ega bo'lish istagi o'smirlarni o'zlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash yoki qiyin vaziyatlardan vaqtincha qochishning qulay usuli sifatida qimor o'ynashga undaydi.

“Jinsiy munosabatga ehtiyoj” shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=3,19^{**}$; $p<0,01$. Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan shahar hududidagi o'smirlarda jinsiy munosabatlarga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab shahar muhiti ko'pincha qishloq joylariga qaraganda munosabatlar va shaxsiy erkinlikka nisbatan ijobiy munosabatni namoyon qiladi, bu esa o'smirlarning ishqiy munosabatlarning ahamiyati haqidagi qarashlarini shakllantirishida kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shahar hududidagi o'smirlarda o'zini namoyon qilish shakli sifatida kognitiv avtonomiya va romantik munosabatlarni birinchi o'ringa qo'yadigan ijtimoiy qadriyatlar ustunligidir. Oziq-ovqatga qaramlik shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=2,79^{**}$; $p<0,01$. Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan shahar hududidagi o'smirlarda oziq-ovqatga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab shahar hududlari odatda oziq-ovqat kompaniyalari tomonidan reklama va marketing kompaniyalari uchun faol nuqta ekanligi, shahar hududlarida tez-tez tayyorlanadigan taomlar, oziq-ovqat do'konlarining zichligi yuqori bo'lib, ularda asosan qayta ishlangan va nosog'lom oziq-ovqatlar mavjud. Bu shaharlik o'smirlarga doimiy ta'sir qilishi va juda mazali, kaloriyali oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirib, o'smirlarda oziq-ovqatga nisbatan qaramlikni kuchaytiradi. “Diniy mutaasiblik” shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=2,53^*$; $p<0,05$. Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan shahar hududidagi o'smirlarda diniy qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab shahar hududidagi o'smirlarga ommaviy axborot vositalari, jumladan televidenie, filmlar va ijtimoiy tarmoqlar ko'proq ta'sir qiladi, bu ko'pincha ularning e'tiqodlari va qadriyatlarini shakllantiradi. Chekishga qaramlik shkalasi bo'yicha olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, shahar va qishloq hududidagi o'smirlarda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=-3,22^{**}$; $p<0,01$. Ushbu shkalada shahar hududidagi o'smirlarga nisbatan qishloq hududidagi o'smirlarda chekishga qaramlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab qishloq joylaridagi o'smirlar ko'pincha cheklangan munosabatlar doirasiga ega va kichikroq jamoalar va o'zi uchun tanish bo'lgan tengdoshlari tomonidan ko'proq ta'sirlanishi mumkin. Agar chekish ularning tengdoshlari orasida keng tarqalgan bo'lsa, o'smir chekishni boshlashi va bu tobek darajasining oshishiga olib keladi. Yana bir sabab, sog'liqni saqlash bo'yicha ta'lim targ'ibotlari va chekishga qarshi cheklangan resurs va dasturlar, aholi zichligi pastligi sababli qishloq joylariga shaharlardagi kabi samarali olib borilmasligidir.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Ta'lim muhitida addiktiv xulq sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarni ko'rib chiqib, ekspertlar o'rtasida “Additiv xulq” va “tobe xatti-harakat” atamalarini aniq farqlash yo'qligini kuzatish mumkin. O'smirlarning addiktiv xulqini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotning qiymatini yuqori baholovchi omillardan biri, muammoning ko'lami va ahamiyatini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarga

qo‘shimcha ravishda, mutaxassislar o‘smirlarni ushbu og‘ishlarga moyil bo‘lishiga turtki bo‘layotgan omillarni aniqlashga qaratilganligidir.

Xulosa. O‘smirlarda addiktiv xulqning shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganish, addiktiv xulqni oldini olish, erta choralar ko‘rish, salomatlik va farovonlikni mustahkamlash, uzoq muddatli oqibatlarni yumshatish, jamiyatga ta’sirni kamaytirish, salbiy ta’sir kuchiga ega tengdoshlar ta’sirini bartaraf etish uchun juda muhimdir. Ushbu omillar haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo‘lish orqali addiktiv xulq ehtimoli va u bilan bog‘liq salbiy natijalarni kamaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4201081>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilning 12-iyuldagi “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-uvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.

4. World Health Organization. Health Topics. Violence. Accessed, July 27, 2019 – P.87

5. Фестингер Л. Введение в теорию диссонанса. // Современная зарубежная социальная психология. М., 1984, с. 97–110.



*Nazarova Manzura Mustafo qizi,
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va
sotsiologiya kafedrasida tayanch doktoranti*

CHET ELLIK TALABALARNING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHISHDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonlarning boshqa ijtimoiy-madaniy muhitga psixologik moslashishi muammosi, bugungi zamonaviy dunyodagi global o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalar, ko'p sonli migratsiya va boshqa turdagi harakatlar (turizm, ish safari, xalqaro birjalar va boshqalar) ning shaxs psixologiyasiga ko'rsatadigan ta'siri, xorijiy madaniyat muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonini chuqurroq o'rganish ehtiyoji yuzaga kelishi, bu jarayonda psixologlar birinchi navbatda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan ko'plab psixologik muammolar o'rta qatlamga chiqqanligi, muhojirlarda yuzaga keladigan turli ruhiy zo'riqishlar, stresslar haqida so'z boradi. Shuningdek, yangi madaniyatga ijtimoiy-psixologik moslashish belgilari majmuasi, "madaniyat zarbasi" atamasi izohi, ushbu atamaning "madaniy shok" tushunchasi bilan aloqadorligi, notanish muhitda, begona odamlar bilan aloqa qilishda namoyon bo'ladigan psixologik alomatlar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: madaniy zarba, madaniy shok, akkulturatatsiya stressi, moslashuv egri chizig'i, adaptatsiya, rol diffuziyasi, psixosomatika, depressiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ НА ПУТИ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ К СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема психологической адаптации людей к другой социокультурной среде, явления, связанные с глобальными изменениями в современном мире, влияние многочисленных миграций и других видов деятельности (туризм, командировки, международные обмены и др.) на психологию личности, необходимость более глубокого изучения процесса социально-психологической адаптации к среде зарубежной культуры. Анализируется, что в процессе возникли многие психологические проблемы, на которые психологи должны обратить внимание в первую очередь, речь идет о различных психических напряжениях, стрессах, которые возникают у иммигрантов. Также указывается на комплекс признаков социально-психологической адаптации к новой культуре, объяснение термина «культурный шок», связь данного термина с понятием «культурный шок», психологические симптомы, проявляющиеся в незнакомой обстановке, при контакте с посторонними людьми.

Ключевые слова: культурный шок, аккультурационный стресс, кривая адаптации, адаптация, распространение ролей, психосоматика, депрессия.

PSYCHOLOGICAL BARRIERS TO ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS TO THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN

Abstract. This article reveals the problem of psychological adaptation of people to another socio-cultural environment, phenomena associated with global changes in today's modern world, the impact of a large number of migration and other types of actions (tourism, business trip, international exchanges, etc.) on personality psychology, the need to delve into the process of socio-psychological adaptation to the environment, it talks about various mental stresses, stresses that occur in immigrants. Also, the complex of signs of socio-psychological adaptation to a new culture, the explanation of the term "culture shock", the relevance of this term to the concept of "cultural shock", indicates psychological symptoms that manifest themselves in an unfamiliar environment, in contact with strangers.

Keywords: cultural shock, acculturation stress, adaptation curve, adaptation, role diffusion, psychosomatics, depression.

Kirish. So'nggi paytlarda insonlarni boshqa ijtimoiy-madaniy muhitga psixologik moslashishi muammosi ilm-fanda juda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'tkazilgan ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarning aks ettirishiga ko'ra, bunday jiddiy e'tiborning sababi, bugungi zamonaviy dunyodagi global o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ko'p sonli migratsiya va boshqa turdagi harakatlar (turizm, ish safari, xalqaro

birjalar va boshqalar) bugungi kunda odatiy holga aylandi. Buning natijasida esa, xorijiy madaniyat muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonini chuqurroq o'rganish ehtiyoji yuzaga keldi.

Bu jarayonda psixologlar birinchi navbatda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan ko'plab psixologik muammolar o'rta chiqdi. Bulardan biri muhojirlarda yuzaga keladigan turli ruhiy zo'riqishlar, stresslardir. Yangi madaniyatga ijtimoiy-psixologik moslashish belgilari majmuasini ko'rsatish uchun yangi "madaniyat zarbasi" atamasi joriy etildi. Madaniy zarba tushunchasi 70-yillarga qadar mashhur bo'lgan. Mazkur tushuncha 1960-yillardan boshlab qo'llanilib, yangi etnik-madaniy muhitga kirish jarayonini aks ettiradi. Ushbu atamani "madaniy shok" sifatida birinchi marta K.Oberg o'zining ilmiy qo'llanmasiga kiritgan. Muallif notanish muhitda, begona odamlar bilan aloqa qilishda namoyon bo'ladigan quyidagi psixologik alomatlarini ko'rsatib o'tadi:

- 1) ijtimoiy-psixologik moslashishga erishish uchun qilingan sa'y-harakatlarning zo'riqishi;
- 2) yo'qotish hissini ko'proq tuyish (kasb, maqom, tanish muhit);
- 3) boshqa madaniyat vakillari bilan aloqa qilishda rad etilish mumkinligi hissidan qo'rqish;
- 4) rol diffuziyasi;
- 5) madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishda tashvish, nafrat yoki norozilik;
- 6) pastlik hissi.

Madaniy shokning ko'rinishlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Jumladan, suv va oziq-ovqat sifati haqida haddan tashqari tashvishlanishdan tortib to psixosomatik kasalliklar, umumiy tashvish, uyqusizlik, qo'rquv kabi holatlargacha insonlarda depressiya, alkoholizm yoki giyohvandlikka va hatto o'z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin. Albatta, "madaniyat zarbasi" tushunchasini faqatgina salbiy oqibatlariga olib keladi, deb ayta olmaymiz. Zamonaviy tadqiqotchilar buni yangi sharoitlarga moslashish davomidagi odatiy jarayonining, reaksiyaning bir qismi sifatida bilishadi.

K.Oberg tomonidan ilgari surilgan "madaniy shok" gipotezasidan keyin o'zga mamlakatga birinchi marta tashrif buyuruvchilarning yangi madaniy muhitga ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasida yuzaga kelishi mumkin bo'gan qiyinchiliklarni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar paydo bo'ldi. So'nggi paytlarda "akkulturatsiya stressi" atamasi ham tobora keng tarqalib boqmoqda. "Akkulturatsiya stressi" atamasi "madaniy shok" tushunchasiga yaqin bo'lsa-da, ammo bunda salbiy alomatlar kamroq e'tiborga olinadi[1]. Ko'pincha bunda tashvish va depressiyaning yuqori darajasiga ko'proq urg'u beriladi. Bundan tashqari, ushbu jarayon davomida shaxs nafaqat yangi madaniyat va undagi xatti-harakatlar normalari to'g'risida bilimga ega bo'ladi, balki, garchi u stressni boshdan kechirsa ham madaniy jihatdan yanada rivojlangan bo'ladi.

Bugungi kunda ushbu hodisani tavsiflash uchun moslashuv egri chizig'i (C egri chizig'i) deb nomlangan model taklif qilingan bo'lib, unda ijtimoiy-psixologik moslashish bosqichlarining beshta davri ajratib ko'rsatilgan:

Birinchi davr "asal oyi" deb nomlanadi, chunki ko'pchilik muhojirlar chet elda o'qish yoki ishlashga intilishadi va u yerga dastlabki tashriflarida ishtiyoq va umidga to'la hissiyotlarni boshlaridan kechirishadi.. Bundan tashqari, ko'pincha ular boshqa davlatga borishga uzoq tayyorgarlik ko'rishadi, ularni begona mamlakatda kutib oladiganlar va dastlab ularga yordam ko'rsatadiganlar bo'lishi mumkin, shuningdek, ba'zi qo'shimcha imtiyozlarga ham ega bo'lishlari mumkin, ammo bu davr tezda o'tadi va g'ayrioddiy atrof-muhit va madaniyat ularga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Ikkinchi bosqichda mahalliy aholining tushunmovchiligidan kelib chiqqan psixologik omillar tobora muhim ahamiyat kasb etib boradi. Natijada umidsizlik, so'lg'inlik va hatto tushkunlik kabi holatlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, madaniy shokning barcha belgilari kuzatiladi. Shuning uchun bu davrda muhojirlar asosan iloji boricha o'z vatandoshlari bilan muloqot qilib, haqiqatdan qochishga harakat qilishadi.

Uchinchi bosqich juda muhim bo'ladi, chunki madaniyat zarbasi maksimal darajaga yetadi. Bu jismoniy va ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Muhojirlarning bir qismi taslim bo'lib, uyiga qaytadi. Ammo ko'pchilik madaniy tafovutlarni yengish uchun kuch topadi, u til o'rganadi, mahalliy madaniyat bilan tanishadi, mahalliy do'stlar orttiradi, ulardan kerakli yordamni oladi.

To'rtinchi bosqichda optimistik munosabat paydo bo'ladi, odam o'ziga ishonchliroq va o'z mavqeyidan mamnun bo'ladi.

Beshinchi bosqichda yangi madaniyatga moslashishga erishiladi. Moslashish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarga qarab, u bir necha oydan 4-5 yilgacha davom etishi mumkin.

Tadqiqot obyekti. 1950-yillardan boshlab psixologiyada chet ellik talabalarni moslashtirish muammosi ishlab chiqila boshlandi. Depressiyaga uchragan va "madaniy shokka tushgan" chet ellik talabalarining yangi muhitga tezroq va osonroq moslashishlari uchun psixologik ko'mak zarurligi muammosi o'rta chiqdi. Bu borada psixologlar bilan birgalikda talabaga dars beradigan o'qituvchining ham roli katta. Chet ellik talabalar bilan ishlaydigan o'qituvchi bir vaqtning o'zida tashkilotchi, psixolog va talabaga yangi

muhitga ijtimoiy-psixologik adaptatsiya hosil qilishida amaliy yordamchi bo'lishi lozim. O'qituvchining vazifalari talabani eng qulay va tezkor ravishda oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy davomiyligiga kiritish, unga ichki to'siqlarni yengishga yordam berish, uni o'quv mashg'ulotlariga va universitetning ijtimoiy hayotiga jalb qilishdir. Xalqaro talabalarning ta'lim sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvining eng muhim tarkibiy qismlari ularning kasbiy shakllanishi, kelajakdagi kasbiga, shuningdek, ta'lim olayotgan mamlakatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdir. Gumanistik mohiyati bilan ajralib turadigan ta'limning zamonaviy konsepsiyalarida "pedagogik qo'llab-quvvatlash" tushunchasi ajralib turadi, bu pedagogik hodisa bo'lib, unda eng ko'p ta'limni sotsializatsiya va individuallashtirish uyg'unligi sifatida demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlari aniq namoyon bo'ladi. Pedagogik yordam chet ellik talabaga nafaqat o'z madaniyati, balki mezbon jamiyat madaniyati to'g'risida ham yetarli g'oyalarni taqdim etadi. Bundan tashqari, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash xalqaro talabalarga moslashuv bo'yicha keyingi ish tizimini yaratish uchun asosdir. Bu borada chet ellik talabalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashning xalqaro tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'p madaniyatli ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u chet ellik talabalar tomonidan o'zlarining madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish va ijtimoiy-madaniy, ta'lim va tarbiyaviy talablarning yangilarini qabul qilishga qaratilgan

Qo'llanilgan metodlar. Chet ellik talabalarni samarali ijtimoiy-psixologik moslashtirish uchun eng muhim shartlar:

a) barcha ta'lim subyektlarining jamoaviy o'zaro ta'siri;
 b) ushbu talabalarni samarali moslashtirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy makon, jarayon;
 c) chet ellik talabalarning mezbon mamlakatning mavjud madaniy va tarixiy imkoniyatlaridan xabardorligi mezbon jamiyat vaqillari muvaffaqiyat sabablarini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ularga o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishga hamda talabaning shaxsiyatini rivojlantirishga ko'maklashadi.

d) chet ellik talabaning ijtimoiy-psixologik portretidan foydalanish bu ma'lum bir mintaqa vaqillariga xos bo'lgan fazilatlarini aks ettiradi, bu esa kelajakda ushbu mintaqa talabalarini tezroq va osonroq moslashtirish vositalari tizimi modelini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biz yuqoridagilarni hisobga olgan holda "Yolg'izlikni o'lchashning modifikatsiyalashtirilgan shkalasi" metodikasidan foydalangan holda chet ellik talabalarning ayni paytdagi ruhiy jarayonlarini o'rganishga harakat qildik. Xorijlik talabalarda ushbu metodikani o'tkazish orqali ularning atrofdagilar bilan munosabati, do'stona muloqotga muxtojlik, insonlar bilan qanchalik tez til topishib ketish, do'stlar guruhidagi o'rni, yolg'izlik hissini qanchalik tez-tez tuyish, faqat o'zining o'y-xayollari, ichki hissiyotlari va fikrlari bilan bandligi, ijtimoiy muhit bilan bo'lgan aloqalari haqidagi savollarga javob topish hamda ayni paytdagi ularida kechayotgan yolg'izlik darajalari o'rganilib, ularga amaliy yordam berish maqsad qilib qo'yilgandi.

Xalqaro talabalarni madaniy makonda ijtimoiy-psixologik moslashtirish samaradorligi kompleks asosida aniqlanadi va ularning asosiy vakolatlarini rivojlantirishni baholashning ko'p darajali tizimi, chet ellik talabalar tomonidan ularning rivojlanish darajasini baholashni o'z ichiga oladi. Asosiy vakolatlariga chet ellik talabalarni qabul qiluvchi jamiyat vaqillari tomonidan talabalar jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida qaralishi, shuningdek, o'qituvchilar va institut kuratorlari tomonidan chet ellik talaba o'quv jarayonining to'liq subyekti sifatida baholanishi kiradi. Lotin tilidan tarjima qilingan "kurator" so'zi "ishonchli" degan ma'noni anglatadi[2]. Bunday semantika kuratorlar faoliyatining asosiy maqsadlari, vazifalari va funksiyalari bilan to'liq mos keladi. Eng dolzarb bo'lgan muammolarning barchasini hal qilishda chet ellik talabalarga birinchi yili guruh ko'ratori yetakchi rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tushunchasi nafaqat ta'limni, balki, talabaning shaxsini, shu jumladan, chet el fuqarosini tarbiyalashni anglatadi. Shuning uchun o'qituvchi-ko'ratorlarning shaxsiy xususiyatlari chet ellik talabalarni moslashtirish jarayonining dinamikasi va muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro talabalarning o'quv jarayoniga moslashish darajasi bir qator savollar bilan belgilanadi:

- o'rganishdagi qiyinchiliklar;
- qiziqish va istak;
- xorijiy tilda o'qish;
- mos kasbiy yo'nalish tanlash.

Muvaffaqiyatli sotsializatsiyaga xalqaro talabalarning nafaqat ijtimoiy muhitning me'yorlari va qadriyatlarini qabul qilganlarida, balki, ularga asoslanganlarida ham erishiladi. Bunda odamlar bilan faoliyat va munosabatlar, ularning muloqot doirasi va qiziqishlari sezilarli darajada kengayadi. Fiziologik moslashuv jarayonida xorijiy talabalar iqlim sharoitining o'zgarishi, odatdagi turmush tarzining o'zgarishi, ovqatlanish (ayniqsa sifat) bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Iqlimlashtirish jarayonida sog'liqning

yomonlashishi va hatto xotiraning pasayishi jarayonlari kuzatiladi. Shaxsning noqulay ruhiy holatining sababi bundan tashqari, adolatsiz munosabat, hatto beixtiyor munosabat ham bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Biz o‘zimizning ilmiy tadqiqot ishimizning obyekt sifatida Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida ayni paytda tahsil olayotgan 100 nafar xorijlik talabalarni tanladik. Shundan 43 nafari qizlar, 57 nafari yigitlar. Notanish madaniyat, begona ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklar ularning yolg‘izlik hissini qanchalik chuqur tuyishlariga muayyan ta’siri bor yo‘qligini o‘rgandik. Natijalar esa quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

V.A.Soninning “Yolg‘izlikni o‘lchashning modifikatsiyalashtirilgan shkalasi” metodikasining natijalari tahlili

Yolg‘izlik hissi darajalari	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
Qizlar	27	10	6
Yigitlar	38	10	9
Jami	65	20	15

1- daraja – yolg‘izlik hissining yuqori darajasi, omillarning kamida bittasi bo‘yicha yolg‘izlik hissining o‘ta kuchayib ketganligi (54-80 ball).

2- daraja – yolg‘izlik hissining o‘rta darajasi, individ ijtimoiy-psixologik aloqalarining kamligini kompensatsiyalashga va yolg‘izlik hissini susaytirishga kodirli (28-54 ball).

3- daraja yolg‘izlik hissining past darajasi, og‘ir yolg‘izlik hissining yukligi (0-28 ball).

Natijalar sifat jihatidan tahlil qilinganda, atrofdagilar bilan psixologik aloqalar darajasiga e’tibor berish kerak. «Yolg‘izlik shkalasi»dan kelib chiqib, ushbu aloqaning uch o‘lchamini baholash mumkin:

«Yaxshi ko‘rishadi» - emotsional komponent

«Tushunishadi» - kognitiv komponent

«Qabul qilishadi» - ijtimoiy komponent

Har bir o‘lchamga mos keluvchi savollar miqdori va ballar yig‘indisi teng emasligini hisobga olib, natijalar xolisligini ta’minlash maqsadida barcha o‘lchamlar uchun o‘rtacha arifmetik qiymatni hisoblab topish (ballar yig‘indisini savollar – bandlar miqdoriga bulish) kerak.

Uchinchi o‘lcham bo‘yicha ballarning yuqoriligi «tashqi» psixologik aloqalar o‘ziga xosligini belgilaydi va tashqi begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi va ikkinchi o‘lcham buyicha ballarning yuqoriligi «ichki» psixologik aloqalar o‘ziga xosligini belgilaydi va ichki begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 2017-yil holatiga ko‘ra, atigi 709 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda bu ko‘rsatkich 7000 nafardan ortiqroqni tashkil etadi. Qo‘shni mamlakat – Qozog‘iston oliy ta’lim dargohlarida chet elliklarning salmog‘i qariyb 64 mingni tashkil etadi. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich yana yuqorilashi kutilmoqda. Buning ustiga, qo‘shni respublikada oliy ta’lim sifati nisbatan yuqori. Demak, har bir universitet obro‘cini, jumladan, unda tahsil olayotgan xalqaro talabalar soni ham omil sifatida belgilab beradi. Xo‘sh, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida nega bu ko‘rsatkich nisbatan past? Qidirsak, sabablar son mingta. To‘g‘ri, so‘nggi 2 yil ichida dunyo reytingiga kirishga harakatlar sezilyapti. Qabul kvotalarining erkinlashtirilishi, qo‘shma fakultetlar, iqtisodiy mustaqillik va boshqalar bunga misol bo‘la oladi. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xorijlik talabalar tahsil mobaynida duch keladigan muammolaridan dastlabkisi-bu iqtisodiy muammodir. Chet ellik talabalar bilan suhbatda bo‘lganimizda ularning aytishicha, xorij fuqarosi bo‘lganliklari uchun kontrakt to‘lovini mahalliy talabalar uchun belgilangan miqdordan deyarli 3 baravar ko‘p to‘lashadi. Shuningdek, ular barcha mahalliy talabalar singari stipendiya olishmaydi. Biz bu holatning sabablari bilan qiziqdik. Quyida O‘zbekiston Davlat jahon tillari universitetining sobiq rektori G‘anisher Rahimov mulohazalarini ham keltirib o‘tamiz: “Xorij talabalari uchun kontrakt to‘lovi miqdori Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan belgilangan. Bu summa xalqaro shartnomalarga muvofiq, 2000 – 4000 AQSh dollari deb tasdiqlangan. E’tibor bersangiz, hech qaysi davlatda xorij fuqarosiga oliy ta’lim muassasasida stipendiya berilmaydi, balki, o‘qishda yaxshi natija ko‘rsatgan iqtidorli talabalarga grant ajratib beriladi. Shu orqali universitetlar xorijliklarni o‘ziga jalb etadi. O‘zbekiston OTMlarida xorijliklar uchun kontrakt-to‘loviga keladigan bo‘lsak, bunda ularga yengilliklar berilgan. Xorij fuqarosini 2 xil: xorijda doimiy yashash pasportiga ega bo‘lgan va respublikada doimiy yashash uchun guvohnomasi bo‘lgan xorij fuqarosi toifasiga ajratiladi. Bunda ikkinchi toifadagi xorij fuqarosining kontrakt to‘lovi mahalliy summaga biroz yaqinroq bo‘ladi. Xorijda doimiy yashaydigan, O‘zbekistonga faqat o‘qish uchun kelganlar uchun esa yuqoridagi narx (yo‘nalishga qarab) belgilanadi. Stipendiya haqida to‘xtaladigan bo‘lsam, bu talabalarining

ijtimoiy himoyasi hisoblanadi va ayni paytda bu tizim ko‘p muammolarni ham keltirib chiqaryapti. Jumladan, talaba va o‘qituvchi munosabati keskinlashuviga, o‘qish sifatining tushishiga, yoshlarda boqimandalik kayfiyati kuchayishiga olib keldi. Taklifim shundan iboratki, xorijdagi oliy ta‘lim muassasalari kabi stipendiyalar faqat iqtidorli talabalar uchun ajratilsin. Shunda talabalar o‘rtasida raqobat kuchayadi, ta‘lim sifati birmuncha oshadi va stipendiyaga nisbatan ijtimoiy himoya emas, balki rag‘bat degan qarash yuzaga keladi”.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, chet ellik talabalar o‘zlari ta‘lim olayotgan oliy o‘quv yurtlaridan o‘zlashtirishida yuqori ko‘rsatkichga erishganlaridagina stipendiya olish masalasida ijobiy natijaga erishishlari mumkin. Biroq, ta‘lim olishning dastlabki davrlarida o‘zlashtirish statistikasini ishlab chiqish deyarli imkonsiz. Bu birmuncha vaqt talab qiladi Bu esa o‘z navbatida uylaridan uzoqda, hali o‘zlari uchun notanish bo‘lgan mamlakatda tahsil olayotgan xorijlik talabalarda iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida turli psixologik stresslarga olib keladi.

Vatanimiz ta‘limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Shuni e‘tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim sohasida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir davrda, bizda ta‘lim mazmunini yangilash, uni boshqarish, yangi pedagogik texnologiyani ta‘lim tizimiga tadbiiq etishda hamon kamchiliklar mavjud. Ta‘limda samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida chet ellik talabalarga muvaffaqqiyatli xizmat ko‘rsata oladigan tizim yaratish, ta‘limda tashabbuskorlik, ijodkorlikka keng yo‘l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalarning xavfsizligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida to‘liq himoyalanaadi va xorijiy talabalardan O‘zbekiston Respublikasi Konisitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qilishga majburdirlar. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta‘limning mamlakat ichki siyosatiga, iqtisodiyotiga faol ta‘sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi e‘tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda ta‘lim ehtiyojini iqtisodiy ta‘minlashga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Ta‘lim to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e‘tiborida bo‘lgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq Prezidenti R. Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M. Tetcherni, Fransiya Prezidenti F. Mitteranlarni ta‘lim islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik-psixologik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta‘lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta‘lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta‘lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo‘shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Jahonning ko‘zga ko‘ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta‘lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e‘tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o‘lkada ta‘lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo‘lamiz. Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo‘yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo‘nalishi to‘g‘ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rilsa, O‘zbekiston ta‘lim eksporti sezilarli darajada ortgan bo‘lardir. Chet ellik talabalar o‘zlari tahsil olishlari oliy ta‘lim muassasasini tanlov qilishganda, har tomonlama qulay bo‘lgan mamlakatni tanlashadi, albatta. Bu ularga ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham madaniy, ham ma‘rifiy foydali bo‘lishi kerakligini inobatga olishadi. Agar biz ta‘lim jarayoni ishtirokchilari-ректорlar, o‘qituvchi, kuratorlar, psixologlar chet ellik talabalar uchun har tomonlama qulay muhit yarata olsak, O‘zbekistonga xorijlik talabalar oqimining ko‘payishiga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Parigin B.D. Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории”. O‘quv qo‘llanma, M.:1999 yil.
2. Павлов И.Д. “Новые направления исследований в психологии речи и психолингвистике // Psixologiya jurnali. 2007yil. - 1. 2K, № 2.
3. Palkin A.D. Ассоциативный эксперимент как способ кросс-культурного исследования образов сознания. 2008 yil.
4. Panferov V.N. Психология общения. O‘quv qo‘llanma. 2004.

*Po'latova Madina Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI DIQQATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs bir butun shaklda rivojlanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining vazifalari, insonda nafaqat aqliy, balki layoqat va malakani ham shakllantirish masalasi bir butunlikda bo'ladigan jarayon ekanligi, o'quvchida qiziqish hissini tarkib toptirishda o'qituvchining vazifasi, shaxsni shakllantirishdagi vazifalarning o'zaro birligini ta'minlash, maqsad, vosita va kuzatilgan natijalarning birligini hisobga olish, kichik maktab o'quvchisining fikr doirasini kengaytirishda undagi bilish jarayonlarining qay darajada rivojlanganligining o'rni va ahamiyati, bola psixikasining rivojlanishi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan jarayon ekanligi, psixika rivojlanishining notekisligi hayotning hamma davrlarida sodir bo'lish mumkinligi, diqqatning bola hayotidagi o'rni, ahamiyati, kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat xususiyatlarini o'rganish haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: diqqat, bilish jarayonlari, layoqat, pedagogik qobiliyat, psixika, tafakkur, diqqat konsentratsiyasi.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ВНИМАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются задачи учебно-воспитательного процесса для развития личности в целом, то, что вопрос формирования у человека не только умственных, но и способностей и умений является процессом, находящимся в одном целом, задача педагога в формировании у ученика чувства интереса, обеспечение единства взаимодействия задач в формировании личности, учёт единства цели, средства и наблюдаемых результатов, роль и значение того, насколько развиты познавательные процессы в нём, в расширении кругозора мысли его ученика, говорят о том, что развитие психики ребенка - процесс чрезвычайно сложный и противоречивый, неравномерность развития психики может происходить во все периоды жизни, о роли внимания в жизни ребёнка, его значении, об изучении особенностей внимания детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: внимание, познавательные процессы, способности, педагогические способности, психика, мышление, концентрация внимания.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF THE ATTENTION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. In this article, the tasks of the educational process for the development of the individual in one whole form, the fact that the question of the formation in a person not only of mental, but also of competence is a process in one whole, the task of the teacher in structuring the feeling of interest in the student, ensuring the mutual unity of, it is said that the development of the child's psyche is a process that is extremely complex and has contradictions, the unevenness of the development of the psyche can occur at all periods of life, attention is paid to the study of the characteristics of attention in the life of the child, its role, importance, attention to children of small school age.

Keywords: attention, cognitive processes, competence, pedagogical ability, psyche, thinking, concentration of attention.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini yil sayin mustahkamlab borar ekan, shu yurtning tayanchi, kelajagi bugungi avlodning bilimli, o'qimishli sog'lom ma'naviyatli barkamol yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishiga bog'liqdir. Insonning ruhiyati, hissiyotlarini, ta'lim va tarbiya jarayonida mustaqil ishtiroki, ichki kechinmalarini, faol shaxs sifatidagi o'z-o'zini shakllantirish samaradorligini oshirishda psixologiya fani va uning metodlari muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va tarbiya jarayoni bolaga yoshlik chog'idan singdirilib borilar ekan, ulg'ayib kelayotgan kelajak avlodni ijtimoiy hayotning har jabhasida o'z o'rnini topa olmog'i uchun o'z xulqi va odobi ila yoinki, bilimi va kasbi ila mahallamiz, shahrimiz va yurtimizga foydasi tegadigan barkamol avlod bo'lmog'i uchun, ta'lim va tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari birgalikda astoydil harakat qilmoqlari lozim. O'qituvchi o'quv faoliyatini amalga oshirishda o'quvchilarning diqqatini

qarata olishi dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda o'qituvchi o'quvchilarga yaxshi bilim bera olishi, dars jarayonini yaxshi tashkil eta olishi va o'z vazifasini to'laqonli amalga oshira olishi uchun o'z kasbining bilimdoni bo'lishi va dars jarayonini tashkil eta olishi uchun faol ishtirokchi bo'lishi shart.

Mavzuning dolzarbli. Ma'lumki, shaxs bir butun shaklda rivojlanadi. Bir butun ta'lim-tarbiya jarayoniga xos vazifa insonda nafaqat aqliy, balki layoqat va malakani ham shakllantiradi. Bir butunlikda bo'lgan jarayon o'quvchida qiziqish hissini tarkib toptiradi. Shaxsni shakllantirishdagi vazifalarning o'zaro birligini ta'minlashda, avvalo, maqsad, vosita va kuzatilgan natijalarning birligi ham nazarda tutiladi. Kichik maktab o'quvchisini fikr doirasini kengaytirishda, undagi bilish jarayonlarining qay darajada rivojlanganligining o'rni va ahamiyati kattadir. Bola psixikasining rivojlanishi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan protsesdir, har qanday boshqa rivojlanishdagi kabi bunda ham miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga, o'tishlarga, "sakrashlar"ga olib keladi[1]. Masalan, bolada so'z boyligining asta-sekin ortib borishi tilning grammatik qurilishini egallashga, ayrim xatti-harakatlar va yurish-turishlarning ko'p marta takrorlanishi esa shaxsda muayyan ko'nikma, odat, qat'iy xususiyatlar kabilarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Bola psixikasi rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlariga, birinchidan izchillik integratsiyasini, ya'ni bolaning dastlabki tarqoq psixik holatlarini shaxsning barqaror psixik xislatlariga, muayyan hodisalarga nisbatan ayrim-ayrim qarashlarni yaxlit dunyoqarashga birlashtirish; ikkinchidan, bola shaxsidagi ayrim protseslar, funksiyalar va xislatlarning notekis rivojlanishining; uchinchidan, ba'zi funksiyalar kamchiliklarni boshqa funksiyalar bilan to'ldirilishini (kompensatsiya) ta'minlovchi plastiklikni kiritish mumkin. Bola psixikasining integratsiyasi, masalan, alohida predmet va hodisalarni to'liq idrok qilish asosida kuzatuvchanlikning, ayrim mehnat topshiriqlarini mehr-muhabbat bilan bajarish asosida mehnatsevarlikning shakllanishiga yaqqol namoyon bo'ladi.

Psixika rivojlanishining notekisligi hayotning hamma davrlarida sodir bo'lish mumkin. Masalan, maktabgacha yoshda, ayniqsa, nutq, o'smirlilik yoshida bilishga qiziqish, ilk yigitlik yoshlarda mantiqiy (logik) tafakkur va hokazolar jadallik bilan rivojlana boradi. Qator psixologlar aniqlashiga ko'ra, bola psixikasi rivojlanishida asosiy ichki harakatlantiruvchi kuchlar avvalo quyidagilar hisoblanadi:

- eski, ya'ni allaqachonlar erishilgan imkoniyatlar bilan yangi ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatlar;
- eski va yangi xulq shakllari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- real hayotning mazmuni va uning bola ongida aks etish shakllari o'rtasidagi ziddiyat[2].

Sanab o'tilgan ziddiyatlar ustida qisqacha to'xtalib, misollar keltiraylik.

Endigina tug'ilgan bola yangi qo'zg'atkichlarga nisbatan oriyentirovka reaksiyalariga ega bo'ladi. Mana shularning fiziologik asosida keyinchalik qiziquvchanlik, bilishga qiziqish, o'zi uchun ma'lum bo'lgan hamma narsalarni shaxsiy faoliyat doirasida qo'shishga intilish kabi xislatlar rivojlanib boradi. Bolaning yurish-turishlari va xatti-harakatlari, odatda dastlab taqlidiy xarakterda bo'ladi, ya'ni u kattalarning xatti-harakatlari va yurish-turishlaridan nusxa ko'chiradi.

Shunday qilib, bolaning psixik rivojlanishi-bu shaxsda mavjud bo'lgan protseslar va xususiyatlarning takomillashuvi. Shuningdek, ular asosida yangi, yanada yuksakroq sifatlar va xususiyatlarning shakllanishidir. Diqqat - kishi faoliyatining barcha turlari, eng avvalo mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur shartidir. O'quvchilarning diqqat-e'tibori o'quv tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir. Ta'lim olishda diqqatning roli haqida buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy «... diqqat aynan shunday bir eshikki, tashqi olamdan kishi qalbiga jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi», deb yozgan edi. Bolalarni bu eshikni ochiq saqlashga o'rgatish birinchi darajali ahamiyatga molik ish ekanligi tushunarli. Diqqatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: diqqatning barqarorligi, konsentratsiyasi, ishchanlik dinamikasi shular jumlasidan.

Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rinsa boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har turli kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar[3]. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p e'tibor beradi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtayi nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga

chalg'ib ketaveradi. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg'ib ketaveradi. Bola ko'z o'ngidagi narsaning o'zi bolaga juda qiziq tuyulgani sababli ham diqqati chalg'ib ketadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo'linuvchanligi juda zaif, ko'lami esa tor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo'lishdan tashqari, ularning ko'rsatmalarini bajarish imkoniyyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyyatlari boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonidil ado etadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo'jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma'lum darajada to'plash va muayyan bir maqsadga qarashishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularning ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi. Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartibga bo'ysunish, qoidalari o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi hollar bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki turli o'yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. O'yinlarning qanday qoidalar asosida yo'nalishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga intiladilar. Ana shunday o'yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi, binobarin, bolalarning o'yini uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog'liq, shuning uchun ham ko'pincha bolalar diqqatning bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan rivojlantirib borish kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan bilishimiz mumkin.

Metodika. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatlarini sinash uchun “Burdon” testidan foydalanish mumkin. Ushbu metodikaning maqsadi diqqatning konsentratsiyasini va barqarorligini o'lchash uchun qaratilgan. Tasodifiy (tartibsiz) tarzda qatorlarga terib qo'yilgan harflar (raqamlar, figuralar) dan iborat maxsus blanka sinaluvchilarga taqdim etiladi. Gazeta matnidan foydalanish mumkin. Kuzatuvchi matnni yoki blankani qatorma - qator ko'rib chiqib, instruktsiyada ko'rsatilgan harf yoki belgini ustidan chizib chiqish ko'rsatmasi beriladi. Kuzatuv natijalari tashlab ketilgan, ustidan yoki tagidan chizilmagan harflar, ko'rib chiqilgan belgilar soniga va sarflangan vaqtga ko'ra hisoblanadi. Muhim ko'rsatkich: vazifani bajarish sifati va tempi har 60 sekundlik intervalda ishlangan qatorlar va xatolar soni.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivini baholashga qaratilgan N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan metodika ham bolalarning o'quv motivatsiyasi, maktabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emotsional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan.

Ushbu metodikadan quyidagi savollar o'rin egallagan: Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi? Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi? Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding? Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi? Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding? Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding? Sen ota – onangga maktab haqida ko'p gapirib berasanmi? O'qituvching o'rniga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmiding? Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi? Senga sinfdoshlaring yoqadimi? Mazkur anketa individual tarzda hamda guruhda qo'llanilishi mumkin. Har bir metod, har bir didaktik o'yinlarning o'z o'rnini va samarasi bor, albatta. Farqatgina mahoratli pedagog o'z ishining ustasi bu metodlarni qachon va qaysi o'quvchilarga qo'llashini bilishi zarur.

Empirik tahlil. Biz tadqiqotimizning subyekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilaridan 60 nafarini tanlab oldik. Ularning 30 nafari 2-sinf o'quvchilari, qolgan yarmi esa 4-sinf o'quvchilari edi. Nega aynan 2 va 4-sinf o'quvchilarini tanlaganimizga izoh bersak, biz o'qish faoliyatiga biroz adaptatsiya hosil qilgan va maktabga ancha moslashgan bolalarning diqqatini va o'qish faoliyati bilan bog'liq boshqa jarayonlarni o'rganmoqchi edik. Natija esa quyidagi 1-jadvalda izohlangan:

Burdonning “Korrektor sinovi” metodikasidan olingan natijalar tahlili

Diqqat konsentratsiyasi	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Past	Juda past
2-sinflar	3 (10%)	8 (26,6%)	10 (33%)	4(13%)	5(16,6%)
4-sinflar	6(20%)	10 (33%)	8 (26,6%)	3(10%)	3(10%)

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatayotgani, 2-sinflarda diqqat xususiyatlari, ayniqsa, diqqat konsentratsiyasi 4-sinf o‘quvchilariga nisbatan biroz past ko‘rsatkichda. Buning asosiy sababi sifatida yosh xususiyati, hali 2-sinf o‘quvchilarida o‘qish faoliyati bilan yonma-yon holda o‘yin faoliyatining ham mavjudligi, shuningdek, maktabga yaxshiroq adaptatsiya hosil qilishlari uchun 4-sinf o‘quvchilariga nisbatan kam vaqt ko‘rsatkichi bo‘is ularda diqqat jarayoni biroz past natijani qayd etdi. O‘quvchilarda diqqatlarini rivojlantirish uchun biz quyidagilarni amaliy tavsiya sifatida keltirib o‘tmoqchimiz: “Diqqat mashqi” doska bilan ishlashdan avval o‘qituvchi o‘quvchilarga sinf jihozlarini birma-bir aytib chiqadi. Masalan: parta, jovon, gul, rasm, shift va shu kabilar oxirida baland ovozda DOSKA deydi-da o‘quvchilar diqqatini doskaga qaratadi. Fikrimizcha, mazkur metod juda ham samarali. Taqdiqotimiz natijasida shuni kuzatdikki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ovoz balandligi hamda talaffuzning qiziqarililigi ko‘proq e‘tibor qaratar ekanlar. Ushbu mashq o‘quvchilarni o‘qituvchidan yangi bir axborot qabul qilishga o‘zlarini tayyorlashlari uchun ko‘mak bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Shuningdek, “Farqini top” ko‘rgazmali usuli. Mazkur metod orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ushbu metodni bajarish davomida ham diqqat bilan 2 ta rasmning farqini topishga harakat qilishi hamda aqliy tomondan ham didaktik o‘yin sifatida bolaning aqliy faoliyati zo‘riqishiga olib kelmasligi aniqlandi. “Kuzatuvchanlik” metodi. Ushbu metodda bolalarga uyidan maktabgacha bo‘lgan yo‘lni eslab, to‘liq tasvirlab berish vazifasi beriladi. Bu vazifani kichik maktab yoshidagi bajaradi. Sinfdoshlari ishtirokchi bolaning kamchiliklarini to‘ldirib turadi. Bu o‘yinda bolaning ko‘rish xotirasi va diqqat uzviyligi aniqlanadi.

N.G.Luskanovning “O‘quv motivatsiyasini baholash” metodikasi natijalari tahlili

O‘quv motivatsiyasi	Yuqori	O‘rtacha	Maktabga ijobiy munosabat	Past	Maktabga salbiy munosabat
2-sinflar	11 (36,6%)	7 (23%)	6 (20%)	4(13%)	2(6,6%)
4-sinflar	11(36,6%)	9 (30%)	6 (20%)	3(10%)	1(3%)

O‘quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o‘zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi. O‘quv motivatsiyasi o‘rtacha. Bunday o‘quvchilar guruhi o‘quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko‘proq o‘qish bilan bog‘liq bo‘lmagan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o‘quvchilar maktabda o‘zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o‘rtoqlar, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, chiroyli o‘quv qurollariga ega bo‘lish uchun boradilar. O‘quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalar bilan shug‘ullanib, o‘ynab o‘tiradilar. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud. Bunday o‘quvchilar o‘quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan bo‘lgan munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv – psixik salomatlikning buzilishi kuzatiladi.

Anketani ikki usulda qo‘llash mumkin.

1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o‘qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o‘zi tanlagan javobni yozib qo‘yadi.

2 – usul. Savollar har bir bog‘ alohida – alohida yozma ko‘rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Demak, o‘quvchining diqqati undagi barcha aqliy faoliyatlarni boshqaradi va uni darsga jalb qilish o‘qituvchining vazifasidir. Ammo diqqatning kuchli konsentratsiyasini diqqatni ancha osonroq, ancha qiziqarliroq harakat turlariga o‘tkazish yo‘li bilan, kamroq zo‘riqishni talab qiladigan yoki zo‘r diqqat berilishini talab qiluvchi ishga o‘quvchilarda o‘ta qiziqish uyg‘otish bilan almashtirib turish foydalidir”. Ba’zi o‘quvchilarning darsdan orqada qolib ketishlari, dars mashg‘ulotlarini yaxshi o‘zlashtira olmasliklari ularning aqli yoki xotirasining sustligidan emas, balki diqqatining bo‘shligidan kelib chiqadi. Shu sababli o‘qituvchi darsda o‘quvchilarning diqqatini bir joyda turg‘un to‘plashni o‘ylashi zarur.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, diqqat ta‘lim-tarbiya sohasida juda katta ahamiyatga ega. Chunki fikr yuritish, xotirada saqlash, idrok etish kabi jarayonlarning barchasi diqqat tufayli sodir bo‘ladi. Darsda o‘qish materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, avvalo, diqqat bilan belgilanadi. Tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari diqqatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari va ularga ta‘sir etish usullari, shuningdek, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar guruhida diqqatni rivojlantirishda ilmiy metodikalarning o‘rni xususida atroflicha o‘rganiladi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari va ishlab chiqiladigan trening dasturi Buxoro davlat universitetining o‘quv jarayoniga hamda viloyat umumta‘lim maktablarining pedagogik-psixologik xizmat jarayoniga tadbiq etiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan ma‘lumotlardan umumiy o‘rta ta‘lim muassasida o‘quv jarayonini, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatini rivojlantirish jarayonida, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlashda, dars jarayonida bolaning diqqatini shakllantirish bo‘yicha ilmiy g‘oyalarni nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatlarini rivojlantirish uchun yuqorida keltirib o‘tilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashhis metodikalari to‘plami. – Toshkent, 2003.
2. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2004.

Rajabov Azamat Sharifovich,
Buxoro davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi
a.sh.rajabov@buxdu.uz

MUSIQACHI O'QITUVCHILARNING KASBIY VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Bo'lajak musiqachi-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini samarali amalga oshirish uchun o'qitishning maqbul shakllari va usullarini tanlash kerak. Hozirgi vaqtda o'qitish usullarining turli sabablarga ko'ra ko'plab tasniflari ma'lum: maqsadi bo'yicha, didaktik maqsadlar bo'yicha, ma'lumot uzatish manbai bo'yicha, yaxlit faoliyat yondashuvi asosida, o'qitish usullari va o'qitish usullarining kombinatsiyasi asosida va boshqalar. Muayyan tasnifni tanlash uning amaliyotga muvofiqligi va o'quv jarayonini optimallashtirish qobiliyatiga hamda ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qo'llaniladigan usullarning maqsadga muvofiqligiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar: bo'lajak musiqachi-o'qituvchi, o'qitish usullari, kognitiv, faoliyat, mantiqiy usullar, kasbiy bilim, faol usullar.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ-МУЗЫКАНТОВ

Аннотация. Чтобы эффективно реализовать профессиональную подготовку будущих музыкантов-педагогов, необходимо выбирать оптимальные формы и методы обучения. В настоящее время известно множество классификаций методов обучения по разным основаниям: по цели, по дидактическим целям, по источнику передачи информации, на основе целостно-деятельностного подхода, методов обучения и на основе сочетания методов обучения. Выбор той или иной классификации зависит от её совместимости с практикой и возможности оптимизировать учебный процесс. Успех обучения во многом зависит от правильности используемых методов.

Ключевые слова: будущий музыкант-педагог, методы обучения, познавательные, деятельностные, логические методы, профессиональные знания, активные методы.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL COMPETENCE OF MUSICIAN TEACHERS

Abstract. In order to effectively implement the professional training of future musician-teachers, it is necessary to choose the optimal forms and methods of teaching. Currently, many classifications of teaching methods are known for various reasons: according to the purpose, according to didactic goals, according to the source of information transfer, based on the holistic activity approach, teaching methods and on the basis of a combination of teaching methods, etc. the choice of a particular classification depends on its compatibility with practice and the ability to optimize the educational process. The success of education largely depends on the appropriateness of the methods used.

Keywords: future musician-teacher, teaching methods, cognitive, activity, logical methods, professional knowledge, active methods.

Kirish. Ushbu qoidalar talabalarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayonini amalga oshirish usullarini tanlashimizga ta'sir ko'rsatdi-musiqachilarning bo'lajak o'qituvchilari. Y.K. Babanskiyning ta'lim usullari tasnifiga asoslanib [1], shuningdek, oliy maktabda qo'llaniladigan ta'lim usullaridan foydalangan holda biz bir nechta guruhlarni ajratamiz: - o'qitish usullari-o'quv kognitiv faoliyatini tashkil etish va o'zini o'zi tashkil etish usullari (sezgi orqali o'quv va kasbiy ma'lumotlarni uzatish va idrok etishga qaratilgan idrok usullari (og'zaki, vizual, audiovizual, amaliy usullar); mantiqiy usullari (mantiqiy operatsiyalarni tashkil etish va amalga oshirish); gnostik usullar (aqliy operatsiyalarni tashkil etish va amalga oshirish) va o'quv va kognitiv harakatlar bilan o'zini o'zi boshqarish usullari); - ta'limni rag'batlantirish, rag'batlantirish va o'z-o'zini rag'batlantirish usullari (kognitiv qiziqishni shakllantirish usullari va o'quv va kasbiy burchni shakllantirish usullari); - ta'lim samaradorligini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish usullari (og'zaki, yozma va boshqalar); - ta'lim usullari-shaxs ongini shakllantirish usullari (hikoya, suhbat, bahs, ma'ruza, misol); - tashkilot usullari faoliyat va ijtimoiy xulq - atvor tajribasini

shakllantirish (mashq, talab, topshiriq); - xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish usullari (rag'batlantirish, jazolash, raqobat). Bo'lajak musiqachi-o'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati darajasining oshishi uning o'quv faoliyati sifatining yaxshilanishi, undagi eng istiqbolli, yuqori texnologiyalarning ahamiyati oshishi bilan bog'liq.

Asosiy qism. Kelajakdagi mutaxassisning rivojlangan kasbiy va pedagogik madaniyati mahorat bilan ajralib turadi, bu uning ijodiy fidoyiligining yuqori darajasi, keng kasbiy dunyoqarashi, katta miqdordagi maxsus bilim, ko'nikma va muammoli vaziyatlarni ijodiy tushunish bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda musiqachi-o'qituvchi nafaqat malakali mutaxassis, balki tashabbuskor ham bo'lishi kerak. Mutaxassisning ijodiy faoliyatining ahamiyatini oshirish talab etiladi. Mutaxassisning ijodiy faoliyati uning kreativ kompetentlikng yuqori darajadagi rivojlanishining natijasidir, bu maxsus kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligini, kasbiy faoliyatning maqsadlari va ijtimoiy ahamiyatini anglashni o'z ichiga oladi. Olimlar I.Y. Lerner, G.M. Murtazin, M.N. Skatkina o'quvchilarning kognitiv faolligi bilim olish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib, aqliy ishda maksimal kuch va kuch sarflashda o'rganish istagida namoyon bo'ladi. Bu nafaqat talabning tashqi faolligini, balki uning ichki, aqliy faoliyatini ham anglatadi [2]. Ushbu sifat doimiy emas, u dinamik ravishda rivojlanishi mumkin. Faoliyat darajasiga muassasaning ta'lim muhiti, o'qituvchilarning talabalar bilan munosabatlari, akademik ko'rsatkichlari va boshqalar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bir xil talaba turli xil ta'lim shakllari va usullaridan foydalanganda ijodiy va kognitiv faollik keskin o'zgaradi. Talabalarning faolligi darajasini oshirish uchun talabalarni o'qitish jarayonida reproduktiv va faol usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Reproductiv va faol (muammoli-qidiruv) o'qitish usullarining tavsifi asosan yangi tushunchalar, hodisalar, qonunlarni bilishdagi ijodiy faollikni baholashni o'z ichiga oladi [3]. Reproductiv o'qitish usullari odatdagi sharoitlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Usullarning asosi ilgari o'rganilgan bilimlar yoki ko'rsatilgan harakatlar usullari namunasi bo'yicha bilim olish va ko'nikmalarni qo'llash modelidir. Ushbu usul suhbatlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar, maslahat jarayonida qo'llaniladi. Faol usullar o'quvchilarning bilim faoliyatini rag'batlantiradi, bu esa faollikni, fikrlash moslashuvchanligini rivojlantirishni, mustaqillikka va faoliyatga ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. O'qitishning faol usullaridan foydalanish universitetning o'quv jarayonida Real faoliyat vaziyatlarini loyihalash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Faol usullarni qo'llash natijasida talabalarning bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv jarayonining kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan yaqinlashishini ta'minlaydi, kelajakdagi musiqachi-o'qituvchilarda nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Faol usullar muammoli ma'ruzalar, biznes o'yinlari, pedagogik ustaxonalar, "aqliy hujum" formatidagi o'quv o'yinlari, pedagogik studiyalar, guruh muhokamalari, ish bosqichlari texnologiyalari, turli psixologik va pedagogik muammolarni hal qilish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biz tanlagan o'qitish usullari to'plami "musiqachi-o'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati" maxsus kursining asosiy muammolarini hal qilishga imkon beradi. "Ta'limni tashkil etish shakllari" yoki "ta'limning tashkiliy shakli" tushunchasi usuldan farq qiladi. Lotincha "forma" so'zi tashqi ko'rinish, tashqi konturni anglatadi. Binobarin, didaktik kategoriya sifatida o'qitish shakli o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi tomonini anglatadi, bu talabalar soni, o'qish vaqti va joyi, shuningdek, uni amalga oshirish tartibi bilan bog'liq.

Biroq o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi tomoni bo'lgan holda, o'qitish shakli o'zining ichki, mazmunli va protsessual tomoni bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, bir xil ta'lim shakli o'quv ishining vazifalari va usullariga qarab turli xil tashqi modifikatsiya va tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Ta'lim shakllarini tanlash V.K. Dyachenkoning tasnifiga asoslanadi, chunki bizning fikrimizcha, bu eng mantiqiy asoslangan. V.K. Dyachenko ta'limning quyidagi tashkiliy shakllarini ajratib ko'rsatadi: individual, guruh, jamoaviy va alohida ajratilgan [4]. Shaxsiy shakl o'qituvchiga bitta talabani o'qitishdan iborat, bu holda ularning aloqasi juftlik sifatida qurilgan. Agar o'qituvchi bir vaqtning o'zida butun bir guruh talabalarni o'qitsa, u holda aloqa guruh tuzilishiga ega. O'quv faoliyatini tashkil etishning ushbu shakli frontal deb ataladi. Smena tarkibidagi juftlikdagi aloqa o'quv jarayonida tashkilotning jamoaviy shaklini, vositachilik aloqasini – individual ravishda alohida-alohida beradi. Madaniyat va san'at universitetining o'quv jarayonida qo'llaniladigan ta'lim shakllari orasida biz individual, guruh, frontal, juftlik va jamoani ajratamiz. Ta'limning individual shakllariga maslahat berish, kurs va bitiruv malakaviy ishlarini himoya qilish, talabalarning mustaqil ishi, yakka konsert chiqishlari, individual darslar kiradi. Guruh shakllari ansambl tarkibida seminar, amaliy mashg'ulotlar, maxsus kurslar, konsert chiqishlariga bo'linadi. Frontal shakllarga ma'ruzalar, pedagogik amaliyot, imtihonlar, ilmiy va amaliy konferensiyalar kiradi; juftliklar-maslahat va amaliy mashg'ulotlar; jamoaviy – seminarlar, maxsus kurslar, orkestr tarkibidagi konsert chiqishlari. Ta'limning ushbu shakllarini amalga oshirish har tomonlama amalga oshirilishi kerak, bu esa ta'lim aloqalarini shakllantirish va fanlararo aloqalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bo'lajak musiqachi-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shadigan ish yo'nalishlaridan biri bu darsdan

tashqari ishdir. Avvalo, bu o‘qituvchilar va talabalarning kontsert faoliyatini o‘z ichiga oladi. Professional dunyoqarashni kengaytirish va talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashini amalga oshirish konsertlar, spektakllar, seminarlar, master-klasslar va boshqalarga muntazam ravishda tashrif buyurishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarining sinfdan tashqari shakllarini ta’kidlash kerak, ular turli darajadagi konferensiyalarda qatnashish, ilmiy maqolalar nashr etish, kasbiy mahorat tanlovlarida, kontsertlarda va festivallarda qatnashishni o‘z ichiga oladi. Ilmiy va pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, tadqiqot muammosini tahlil qilish kelajakdagi musiqachi-o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlar to‘plamini aniqlash va nazariy jihatdan asoslashga imkon berdi. Taqdim etilgan pedagogik sharoitlarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish kelajakdagi musiqachi-o‘qituvchining kreativ kompetentlikini shakllantirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga imkon beradi. Shartlarni tanlashning to‘g‘riligi tadqiqotning uchinchi bobida o‘tkazgan tajribamiz natijalari bilan tasdiqlanadi.

1 – jadval.

Tajriba va nazorat obektlarida kasbiy kompetentlik omillari dinamikasi namoyon etilishining umumiy natijalari (ballarda n=325)

№	Omillar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		n ₁ =160				n ₂ =165			
		M1	M2	t	p	M1	M2	t	p
1	Ijodkorlik	16,9	13,3	5,4	0,00	12,6	11,2	4,8	0,97
	Mas’uliyatlilik	13,0	9,8	3,9	0,01	17,1	16,7	6,2	1,30
2	Kasbiy bilim	13,3	9,6	3,8	0,05	14,2	13,5	5,1	1,24
	Tashabbuskorlik	15,3	11,1	4,8	0,04	16,1	15,2	5,4	1,04

Korreksiyadan keyingi natijalar tahliliga o‘tamiz: Asosiy respondentlar orasidan korreksiyaga muhtoj bo‘lgan sinaluvchilarni tanlab olindi va ularning natijalarini korreksiyadan oldingi hamda korreksiyadan keyingi metodikalar tahlilini ishonch darajasidagi farqlar bilan solishtirildi.

Musiqachi o‘qituvchilarning trening dasturidan keyingi natijalari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi (1 - jadvalga qarang).

So‘rovnomaning psixotrening dasturiga va undan keyingi holatiga ko‘ra olingan natijalarning o‘rtacha miqdoriy qiymatlari taqqoslandi. Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida, kompetentlik ko‘rsatkichlarining qay darajada shakllanganligi tahlil qilingan edi. Bolajak o‘qituvchilarda kompetentlikni shakllantirish ushuni mo‘ljallangan psixologik xizmat dasturi bitta jamoa a‘zolari o‘rtasida tashkil etildi. Bu esa bolajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning muhim jihatlari o‘zida mujassamlashtirganligini ko‘rsatmoqda. Psixotrening dasturi bo‘lajak o‘qituvchilarning faqatgina individual rivojlanishini emas, balki jamoaviy va guruhij jipsligini ta’minlashda, o‘zaro hurmat va tushunish jarayonida, nizoga sabab bo‘luvchi holatlarning oldini olishda ham xizmat qiladi. Buni oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabarda psixotrening dasturini qo‘llashdan keyingi ko‘rsatkichlar ham tasdiqlaydi. Muayyan psixokorreksion va psixotrening usullar qo‘llanilganida, tajriba va nazorat guruhlaridan olingan empirik natijalarni SPSS.22 dasturi asosida qayta ishlangan qiyosiy tahlili o‘tkazilgandan so‘ng, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini ma’lum miqdorda rivojlanganligi kuzatildi.

Xulosa. Ta’lim shakllari, usullari va vositalarini tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan universitetning ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak musiqachi-o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirishda integrativ yondashuvni amalga oshirishning tarkibiy tarkibiy modelining tashkiliy va boshqaruv blokini ko‘rib chiqdik. Ushbu blokda, shuningdek, pedagogik sharoitlar to‘plami va kelajakdagi musiqachi-o‘qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish bosqichlari mavjud. Optimal shakllar, usullar va vositalarni tanlash vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlarini va material tarkibini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Talabalarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan asosiy usullar rovida o‘qitish usullari, ta’lim usullari, shuningdek 88 ta respondentlarda faol va reproduktiv usullar qo‘llanildi. Ushbu usullardan faqat yaxlit va maqbul foydalanish kelajakdagi musiqachi-o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini samarali shakllantirishni ta’minlaydi. O‘quv jarayonini tashkil etishning maqbul shakllari sinf (individual, guruh, frontal, juftlik, jamoaviy) va darsdan tashqari ish shakllari (konsertlar, tanlovlar, mahorat darslari va boshqalar). Ushbu shakllar kelajakdagi o‘qituvchilar-musiqachilar tomonidan o‘z harakatlarini tushunishni, o‘zlariga va boshqalarga nisbatan moslashuvchanlikni rivojlantirishni ta’minlaydi. Vositalarga umumiy pedagogik va texnik vositalar kiradi. Bir qator mualliflar

"pedagogik sharoitlar" deganda zarur tashqi talablar va ichki psixologik munosabat majmui tushuniladi, ularning qondirilishi istalgan natijaga erishishni ta'minlaydi. Tadqiqotimiz doirasida pedagogik sharoitlar deganda biz kelajakdagi o'qituvchi - musiqachilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuini tushunamiz. Biz quyidagi shartlarni ajratdik: - oliy maktabning tarkibiy qismlarini birlashtirish asosida ijodiy ta'lim muhitini loyihalash; - bo'lajak musiqachi-o'qituvchilarni psixologik, pedagogik va musiqiy ijrochilik ta'limi mazmunini birlashtirish; - o'quv jarayoniga "musiqachi-o'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati" maxsus kursini joriy etish; - bo'lajak musiqachi-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayonini amalga oshirishda o'qitishning faol shakllari va usullaridan foydalanish. Kasbiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda u o'quv faoliyati bilan belgilanadi, uning davomida talaba 89 ta kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, kasbiy faoliyatning ma'nosini anglab yetadi.

Adabiyotlar:

1. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. – T. Iqtisod moliya, 2008. – 103 bet.
2. Mirzahamdammovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. // European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(4),25-27.
3. Usmonbayeva M. Kreativ pedagogika. Darslik. – T., 2009
4. Боговявленская, Д.Б. Измерение креативности – описание индивидуальности: Психология индивидуальности: Материалы Всероссийской конференции. – М., 2006. С. 87–90.

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi, doktorant
sobirravshanov3@gmail.com

O'ZBEKISTON PSIXOLOGIYASIDA ILMYI MAKTABLARNING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya fanining rivojlanishi qator bosqichlarni o'z ichiga qamrab olib, bu davrlarda samarali tadqiqot ishlari olib borilganligi, aynan tadqiqot ishlarini samarali bo'lishi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish uchun zarurat sezila boshlaganligi, bu boradagi ishlar Amerika va boshqa chet el psixologiyasi yo'nalishlari namoyondalari tomonidan ilgari surilgan qarashlari haqida ham barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Shuningdek, maqolamizning asosiy obyekti yurtimizga psixologiya fanining kirib kelishi, ilk psixologik maktab yaratgan olimlar izlanishlari natijalarining qisqacha mohiyati hamda so'ngi yillarda psixologiya fanining jadallik bilan rivojlanish bosqichlari, ko'plab psixologiyaga doir bo'lgan darsliklar, o'quv-qo'llanmalar chop etilayotganligi haqida ham keng ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, fan, maktab, taraqqiyot, bilim, tarix, statistika, ong, psixik jarayon.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ НАУЧНЫХ ШКОЛ ПО ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье развитие науки психологии включает в себя ряд этапов, в эти периоды проводилась эффективная исследовательская работа, необходимость разработки принципов внутри науки, чтобы сделать исследовательскую работу эффективной, работы в этом направлении в Америке и других стран. Также рассмотрена информация о взглядах, высказанных представителями направлений психологии. Также основным объектом нашей статьи является внедрение науки психологии в нашей стране, краткое изложение результатов исследований учёных, создавших первую психологическую школу, и этапы бурного развития науки психологии. В последние годы опубликовано множество учебников и пособий по психологии, дана также обширная информация.

Ключевые слова: психология, наука, школа, развитие, познание, история, статистика, сознание, психический процесс.

HISTORY OF EMERGENCE AND FORMATION OF SCIENTIFIC SCHOOLS IN UZBEKISTAN PSYCHOLOGY

Abstract. In this article, the development of the science of psychology includes a number of stages, effective research work was carried out during these periods, the need to develop principles within the science to make research work effective, the work in this regard in America and other countries. You will also get all the information about the views put forward by the representatives of psychology directions. Also, the main object of our article is the introduction of the science of psychology to our country, a brief summary of the results of the research of scientists who created the first psychological school, and the stages of the rapid development of the science of psychology in recent years, and the publication of many textbooks and manuals on psychology extensive information is also provided.

Keywords: psychology, science, school, development, knowledge, history, statistics, consciousness, mental process.

Kirish. Psixologiya tarixi boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borishi tarixidir. Insonning o'zi haqidagi bilimlarni to'plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilish kishilar hayotini har-xil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan taqozo qilganligini, ba'zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz. Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo'lgani psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlari sistemasi darajasiga ko'tarilganligi haqida ham ma'lumot

beradi. Psixologiya tarixi psixikani yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko‘maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratish katta o‘rin tutadi.

Psixologiya ajoyib fan. Shu bilan birga, u ham yosh, ham eng qadimiy fanlardan biridir. “Psixologiya” atamasi tom ma’nodan ruh haqidagi fan degan ma’noni anglatadi (Psyche - ruh; logos - fan) Ilgari psixologiya metafizikaning bir qismi bo‘lib, ruhning tabiati, kelib chiqishi va taqdiri bilan shug‘ullangan. U ratsional psixologiya deb ataldi. Ammo zamonaviy psixologiya empirikdir va ruh bilan bog‘liq muammolar bilan shug‘ullanmaydi [6].

Allaqachon antik davr faylasuflari zamonaviy psixologiya uchun shaxsiy bo‘lgan muammolar haqida o‘ylangan. Ruh va o‘zaro bog‘liqligi, idrok, xotira va fikrlash masalalari; ta’lim va tarbiya, inson xulq-atvorining his-tuyg‘ulari va motivatsiyasi va boshqa ko‘plab savollar Yunonistonda birinchi falsafiy maktablar paydo bo‘lganidan keyin miloddan avvalgi 6-7-asrlarda olimlar tomonidan ilgari surilgan.

Psixologiya fanining ramziy tug‘ilgan kuni 1879-yil, Vilgelm Vundt tomonidan Germaniyaning Leyptsig shahrida birinchi eksperimental laboratoriya kashf etilgan yil. Shu vaqtgacha psixologiya spekulativ fan bo‘lib qoldi Va faqat V. Vundt psixologiya va eksperimentni birlashtirish erkinligini oldi. V.Vundt uchun psixologiya ong haqida fan edi. 1881-yilda laboratoriya negizida eksperimental psixologiya instituti ochildi (hali ham mavjud). U davlat ilmiy markaz, balki psixologlar xalqaro markaziga aylandi. [4]

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston psixologiyasida ilmiy maktablarning paydo bo‘lishi va shakllanish tarixini o‘rganish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. XXI asr bo‘lag‘asida juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohatlar boshlandi. Bu islohatlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi hususida qayg‘urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash lozimki, u oxirgi o‘n yilliklar mobaynida shakllanmoqda. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O‘zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o‘ziga xos tarzda shakllanib kelayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o‘z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o‘ziga xosligi kabi g‘oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo‘lmagan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70-yillarning oxiri 80-yillarning boshida I.Yoqubov tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta’minlovchi sotsial-psixologik omillarni o‘rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a’zolarining rollar borasidagi muvofiq o‘zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o‘zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda skilik sarqitlarining saqlanib qolganligidir. [2]

Daslabki pedagogik va psixologik fikr markazlari sifatida 1918-yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan, Pedagogik muzey va pedagogik laboratoriya universal o‘quv tarbiya muassasasi bo‘lib, ta’lim tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan hamma vazifalarni qamrab oladi. Bu yordam ta’lim metodlari ishlab chiqarilgan, shu yerning o‘zida sinalgan va respublikaning boshqa o‘quv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadbir qilishga imkon bergan. Pedagogik laboratoriya haqida nizomda ancha bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo‘lishi lozim. Shuning uchun bir tomondan pedagogik ishning har bir yangilik o‘qitishdagi laboratoriyada to‘plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilish kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga berilish kerakdir.

Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik muzeyda eksperimental psixologik laboratoriyani ham mavjud bo‘lib, bu yerda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan 1919-yili 1-aprelda Kavman Xorvat maorif komissariga xat yo‘llab, davlatning ko‘zi ojiz, gung, ruhiy kasal va psixologik taraqqiyoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o‘z tarbiyasiga olishi zarur va umumligini ta’kidlagan. Xuddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini tashkil etishni taklif etishni. Xorvatning taklifi bir necha yo‘nalish bo‘yicha diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu kompleks harakteridagi, ishi bo‘lib, biron bir psixonevrologik kasallik nazardan chetda qolmagan Ikkinchidan, bu rejada qattiq ketma-ketlikdan bir necha bosqich nazarda tutilgan.

1. Kasallik diagnostikasi (tadqiqot darajasi);
2. Kasallarni davolash (amaliy tibbiy darajasi);
3. Kasallarni tarbiyalash va ta’lim berish (amaliy ta’lim darajasi). [7]

Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani davolash maxsus muassasasi, uchinchi darajani maktablarda amalga oshirish koʻzda tutilgan. Turkistondagi muassasalardan biri “oʻzbek davlat ilmiy tadqiqot instituti”, Hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929-yili tashkil qilingan boʻlib, hozirgi kunga qadar bu institut oʻqitishning pedagogik kontseptsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida taʼlim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. 30-yillar boshlarida institut tarkibida quyidagi kabinetlar mavjud boʻlgan:

1. Sotsial gigiyena.
2. Iqtisod.
3. Pedagogika pedagogik.
4. Psixologik laboratoriya.

Institut tashkil boʻlgan vaqtdan boshlab yerli xalq hususiyatlar va ijtimoiy muhitini chuqur tadqiq qilish bolalarning psixologik ijtimoiy-madaniy xususiyatini hisobga olgan holda darslarni yaratish bilan shugʻullandi.

Institut faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat edi.

1. Ilmiy eskpeditsiyalar uyushtirish;
2. Bolalar harakterini oʻrganish;
3. Pedagogik kadrlar tayyorlash. [7]

Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Leventuert, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muxiddinov kabi olimlarning nomlari bilan chambarchas bogʻliq. 30-yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qoʻshgan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U oʻz institut doirasida oʻtkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik “Ob istoricheskome razvitiye poznavatelnykh protsessov” – “Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida” degan asarini nashr qildi. Oʻzbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qoʻshgan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi, 1927-yil Samarqanddagi oʻzbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940-yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi oʻquv qoʻllanmasini nashr qilgan.

Keyinchalik 1934-yili Samarqand pedagogika institutining oʻzbek davlat universitetiga aylantirilishi munosabati bilan Ivanov oʻz laboratoriyasi bilan Nizomiy Nomidagi Toshkent davlat universitetiga koʻchib oʻtadi. Pedagogika oʻquv muassasalarida ilmiy pedagogik potentsialning yetishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari ustida tarjimonlar yordamida olib borilgan keyinchalik bu tarjimonlarning oʻzlari mustaqil ravishda psixologiyadan oʻzbek tilida maʼruzalar oʻqiy boshlashgan. Aliaskar Usmonov, Toxiriyxon Askarxujayev, Bayburova, Raxmatova va boshqalar bir boʻlib oʻzbek tilida psixologiya oʻqituvchilari boʻlishgan Ivanov (1891-1968 yillar) psixologiyadan 75 yildan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan. Uning 1927-yilda nashr qilingan “Umumiy pedagogika” boʻyicha qisqa ocherk, “maktabshunoslik” tarbiyaning umumiy metodlari 40-yillar va 54-yillarda “Umumiy psixologiya”, 1962-yilda - “Taʼlimning psixologik asoslari” kabi asarlari Oʻzbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qoʻshdi. Sh.A. Boyburova, Usmonov kabidar bevosita uning rahbarligida faoliyat koʻrsatishdi. 1959-yil uning rahbarligida Davletshin, Bekboev, Moʻzaffarov, I.P. Ivanovlar nomzodlik disertatsiyalarni himoya qilishdi. 1963-yil Oʻzbekistonda psixologiyadan birinchi boʻlib, Krasnoboev Ilya Berovich (1896-1968) Toshkent davlat universiteti filologiya fakulteti logika va psixologi kafedrasini - mudiri “Yuqori sinf oʻquvchilarida eʼtiqod, axloqiy tushunchalarni shakllanishi” mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi. [4]

Oʻzbekistonda tadqiqotlar bilan bogʻliq uning rahbarligi ostida logika va psixologiya kafedrasini aʼzolari: Moʻminova, V.Ya. Maros, A. Abdusattorov, V.I. Sofer, A. Gulyamov, R.V. Gulyamov, A.A. Yerstifirovlar turli xil obyektlarda psixologiya va logika boʻyicha ilmiy tadqiqotlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlar Oʻzbekistonda xalq taʼlimi bilan bogʻliq muammolarni hal qilishga yordam berdi. M.Voxidov (1927-1989 yillar) 1955-yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan. M.Voxidov dastlab Andijon pedagogika institutida, soʻngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqotlar institutida ishlagan. 1966-yil Toshkent davlat universiteti psixologiya kafedrasini mudiri etib saylangan. 1973-yili Ministrlar Soveti topshirig M.Voxidov iga binoan tarix fakulteti tarkibida tashkil etgan, Zinin, L.I. Sofer, M.Mamatov ishtirokida va markazning istedadli olimlari yordamida bu yerda oʻquv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan. M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda Voxidov Petrovskiy tahriri ostidagi “Umumiy psixologiya” darsligi tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy hususiyatlarni hisobga olgan holda oʻzbek tilida darslik yaratish bilan mashhur boʻldi.

Davletshin Gabdulgalimovich 1923-yilda tugʻilgan. Toshkent Davlat universitetining psixologiya kafedra mudiri psixologiya fanlari doktori, 1957-yilda “5” va “7” sinf oʻquvchilarida texnik qiziqishlarini shakllanishi mavzusida 1971-yil oʻquvchilarni texnik qobiliyatlar psixologiyasi mavzusida doktorlik

dissertatsiyasini himoya qilgan. 1968-yildan beri psixologiya kafedrasida mudirlik qilmoqda, M.Davletshin rahbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O‘zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishini himoya qilgan. [2]

O‘zbekistonda har xil muammolar bo‘yicha umumiy, yosh pedagogika sotsial psixologiya bo‘yicha F.S. Ismoilova, D.Z.Zaynobiddinov, Majidov, B.Gagshirov, I.Maxmudov, L.K.Saytov, M.I.Musayeva, V.G. Gorobets, D.D.Sharipov, R.K.Shoxnazarov, J.U.Mavlonov, A.Epgptov, A.V.Majitova, M.I.Sagatov, D.Egamberdieva, G.Abdusamatov, K.Sobirov, A.Sindarov va boshqalar yetishib chiqdilar. Bundan tashqari har xil muammolar bo‘yicha 25 ta ish himoya qilindi.

Bulardan nutq psixologiyasi bo‘yicha 7 ta ish: (P.P Zamin, N.N. Nigmatov, A.I. Arjonova, X. Ochilova va boshqalar), xotira psixologiyasi bo‘yicha 4 ta ish: (P.I. Ivanov, M.V.Voxidov, X.M.Gafurova, V.P. Ivayova); diqqat bo‘yicha M.X. Raxmonova; Ta’lim tarbiya bo‘yicha 14 ta ish (G‘oziev, Qodirov, Rasulov, Usmonova, Krasnoboev, Tokareva va boshqalar); Mehnat psixologiyasi bo‘yicha 4 ta ish (Turgunov, Sotiboldiyev, Yeliseyev, Xolmatov); Shaxs bo‘yicha 3 ta ish (G‘ofurov, Saidullayev, Shapovolov); Differensial psixodiagnostika bo‘yicha 1 ta ish (Madmarov); Yuridik psixologiya bo‘yicha 2 ta ish (Ibragimova, Zapryagaev); Sport psixologiya bo‘yicha 3 ta ish (Gapparov, A.Gaynutdinov, R.Gaynutdinov); Neyropsixologiya bo‘yicha 1 ta ish (Bobojonova); psixologiya tarixi bo‘yicha (S.Raximov) sotsial psixologiya bo‘yicha 3 ta ish (Karimova, Abdumuminov, Tursunov) va boshqa turli psixologiya bo‘linmalari ko‘pgina olimlar ish olib borib, O‘zbekistonga psixologiya fanini, ya’ni psixologiya tushunchasini olib kirib, to‘laligicha ochib berdi [1].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham psixologiya tarmoqdari kuchayib unga e’tibor berilmoqda. Hozirgi yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O‘zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlari psixologiyasi kabi yuqori cho‘qqiga chiqishida katta hissa qo‘shib, intilmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya’ni milliylik ruhida tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani singdirmoqdalar. O‘zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgarigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o‘qitish muassasa tayyorlov qurollar va markazlar ochilib kishilar ongiga yetib bormoqda. Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo‘yicha turli xil muammolarni yechishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu fanni rivojlanishida o‘zbek psixologiyasi, ya’ni B.Qodirov, V.Karimova, M.Voxidov, M.Davletshin va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fani ham o‘z tarmoqlarini rivojlantirmoqda.

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash lozimki, u oxirgi o‘n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O‘zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o‘ziga xos tarzda shakllanganini ko‘rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o‘z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o‘ziga xosligi kabi g‘oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo‘lmagan. Mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishi E.G‘.G‘oziyev, M.Voxidov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov nomlari bilan bog‘liq. Sh.R.Baratov ma’lumotlariga ko‘ra (1997) O‘zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intixosi asrimizning 30-yillaridagi pedalogiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Toshkent davlat universiteti hozirgi O‘zMU psixologiya kafedrasida xodimlari E.G‘.G‘oziyev, Z.R.Dushabayev, V.Tokarevalar rahbarligida keng qamrovli ilmiy-amaliy va ijtimoiy psixologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Toshkent Davlat Pedagogika instituti hozirgi TDPU psixologiya kafedrasida mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin rahbarligidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham O‘zbekistonda psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, G‘.B.Shoumarov, N.A.Sog‘inov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova rahbarligida ham olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70-yillarning oxiri 80-yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta’minlovchi sotsial-psixologik omillarni o‘rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a’zolarining rollar borasidagi muvofiq o‘zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o‘zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir. [1].

G‘.B.Shoumarov va E.A. Morshinalarning (1986) tadqiqotlarida esa oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o‘rganildi, chunonchi, unda o‘ziga xos milliy va an’anaviy o‘zaro munosabat xususiyatlarining o‘rni belgilandi.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovanning o'zbek xotin-qizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1987), E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), E. No'monovanning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlariga bag'ishlangan, M.Zokirovanning erkak va ayollardagi rollar haqidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi [2].

Mahalliy psixologlarning nikohdan qoniqish va turmush o'rtoqlarning nikoh hayotining davomiyligi o'rtasidagi sababiy bog'liqlik bo'yicha ba'zi ishlari oilaning roli tarkibini shakllantirishni o'rganish natijalariga asoslanadi. Masalan, E.V.Antonyuk o'z izlanishlarida jins-rol farqlanishining ikki shaklini o'rganishni tasvirlaydi. Bu an'anaviy va teng shakl. An'anaviy shaklda oiladagi mas'uliyat jinsga qarab taqsimlanadi. Teng shaklda er-xotinlar o'rtasidagi majburiyatlar har bir tomonning xohish-istaklari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanadi va oilaviy rollarni amalga oshirish uchun javobgarlik er va xotinning zimmasiga tengdir. «Zamonaviy» oilalarda har ikkala turmush o'rtog'i uchun nikohdan qoniqishning yuqori darajasini saqlab qolish uchun, nizolarni erkin hamkorlik orqali muvaffaqiyatli hal qilish, bir-biriga nisbatan past bosim va uy ishlarida qoniqish muhim ahamiyatga ega. «An'anaviy» oilalarda - sevgi, muloyimlik, ishonch, bo'sh vaqt tashkilotchisi rovida xotinni qadrlash, oilada ijobiy hissiy muhitni yaratish, eriga bo'ysunishga tayyorlik ko'rsatish usullari. Xotinlar uchun erning xotinning avtonomiyasiga bag'rikengligi va erning boquvchi va jinsiy sherik rolidagi faolligi ham zarurdir. Mahalliy olimlar er-xotinning qoniqishiga ta'sir etuvchi yana bir omilni, ya'ni har ikkala turmush o'rtog'i ham professional ish bilan ta'minlanganda, uy-ro'zg'or majburiyatlarini taqsimlashda ishtirok etish darajasini o'rganib chiqdilar. Er va xotin o'rtasidagi nikohdan qoniqish, agar har ikkala turmush o'rtog'i uy vazifalarini bajarishda bir xil yuk bo'lsa, yuqoriroq bo'ladi, ko'proq yuk xotonga tushadigan oilalarda, har ikkala turmush o'rtog'ida ham nikohdan qoniqishning past darajasi kuzatiladi. V.P.Levkovichning tadbirkor erkak va ayol oilalaridagi nikoh munosabatlarining xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotini qiziqarli bo'lib, aniqlanishicha, erkak tadbirkorlar oilalarida, undan ham ko'proq tadbirkor ayol oilalarida er va xotinlar ishchi bo'lgan oilalarga nisbatan nikoh munosabatlaridagi o'zgarishlarning salbiy tendensiyasi kuzatiladi. Bu turmush o'rtoqlar o'rtasidagi nizolarning yuqori darajasida, nikohdan qoniqish darajasining pasayishida, barqaror oilalar sonining kamayishida va muammoli va beqaror oilalarning ko'payishida namoyon bo'ladi [6].


Ko'pgina omillar nikoh barqarorligiga va qoniqishning oshishiga ta'sir qiladi. Nikohdan oldin vujudga kelgan omillar: nikohning psixologik asosi, u kelib chiqishi, shaxsiy xususiyatlari, turmush o'rtog'i va nikoh ideali, nikoh motivlari kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Nikoh davrida yuzaga kelgan omillar: er-xotinning axloqiy va hissiy munosabatlari, turmush o'rtoqlarning psixofiziologik munosabatlari, bolalarni tarbiyalash bo'yicha qarashlarning birligi, uy-ro'zg'or va xo'jalik vazifalarini taqsimlash, bo'sh vaqt va uni qanday o'tkazish, turmush o'rtoqlarning ota-onalari va oilalari bilan munosabatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Nikohdan qoniqish erkaklar va ayollar uchun har xil bo‘lgan ijtimoiy-psixologik omillarga ta’sir qiladi. Masalan, oilada rollarning an’anaviy taqsimoti oilada turmush o‘rtoqlarga jinsiga qarab ma’lum rollar beriladi - xotin ona va uy bekasi rolini o‘ynaydi, er asosan moddiy yordam uchun javobgardir. Oila va jinsiy munosabatlar nikohdan qoniqish hosil qilmaydigan ayollarga, rollarning teng taqsimlanishi esa nikohlarini muvaffaqiyatli deb baholagan ayollarga xosdir. Erkaklarda turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlardagi jinsiy rollarning nomuvofiqligi nikohdan qoniqishga salbiy ta’sir qiladi. Ayollar va erkaklar uchun qadriyatlar tizimining o‘xshashligi nikohdan qoniqishga ta’sir qiladi. Binobarin, nikohdan ko‘proq qoniqish hosil qiladigan oilalar quyidagilardir: 1 yoshdan 4 yoshgacha turmush tajribasiga ega bo‘lgan bolalar (taxminan yosh yosh), hayotning barcha sohalarida rollarni taqsimlashda tenglik va ularni ikkalasiga ham taqsimlashda izchillik mavjud bo‘lgan turmush o‘rtoqlar ham shular jumlasidandir.

Nikoh sifatini o‘rganishga umumiy yondashuvning bir qismi sifatida ko‘p yillar davomida psixologiyada nikohdan qoniqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Turmush o‘rtoqlarning nikohdan qoniqish darajasiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar aniqlangan. Oila instituti doimiy ravishda o‘zgarib, o‘zgarishlarga duchor bo‘layotganligini hisobga olsak, ushbu mavzuni o‘rganish hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Oilaviy qoniqish omillari mavzusidagi ishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bu tadqiqotlar ikki turga bo‘lingan - bular individual omillarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bir yoki bir nechta omillarning nikohni qondirishga ta’siri o‘rganiladi va aniqlangan omillarni umumlashtirish va tasniflash bilan cheklanadi. Birinchidan, nikohning qoniqishiga ta’sir qiluvchi individual omillarni o‘rganuvchi tadqiqotlarni ko‘rib chiqish barobarida turmush o‘rtoqlarning birgalikda yashash muddatining ko‘payishi bilan nikohdan qoniqish darajasining o‘zgarishi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o‘rganilmoqda. Yu.A.Aleshina ushbu mavzu bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarning umumiy ko‘rinishini taqdim etdi. Ushbu muallifning sharhidan ko‘rinib turibdiki, nikohdan qoniqish darajasini o‘zgartirishning asosiy mezonlaridan biri bu nikoh muddati hisoblanadi [7].

Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi metodikasining turmush tajribasi bo‘yicha farqlarini o‘rganganimizda turmush o‘rtoqni boshqalar bilan solishtirish ko‘rsatkichida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($U=25198$; $p<0,01$). Turmush stajining ortib borishi bilan juftliklarda o‘z turmushini boshqalarning turmushi bilan solishtirish ehtimoli ortib borar ekan. Turmushni tashqaridan baholash bo‘yicha turmush tajribasi yuqori juftliklarda ustunliklar qayd etilib ($U=23026,5$; $p<0,05$), buni ko‘pincha ulardagi turmushdagi past-balandliklarning bir nechta pog‘onasidan o‘tganlik sababidan yangi tajribalar sinab ko‘rishga intilish motivining ichki ko‘rinishida namoyon bo‘layotgani bilan tushuntirishimiz mumkin.

Hozirgi yoki o‘tmishdagi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya ya’ni, o‘zining turmush yoki oilaviy hayot borasidagi tajribalarini real turmush sharoitiga ko‘chirish shkalasida ham ustunlik tajribali juftliklarning natijalarida qayd etildi ($U=21340$; $p<0,01$). Oilaviy hayotdan qoniqishning muhim psixologik elementi sifatida juftining his-tuyg‘ularini to‘g‘ri idrok etish hamda oldingi va hozirgi his qilayotgan hislari bilan solishtirish 6-11 yillik oila vakillarida yuqori bo‘lib, bu shaxslararo munosabatlar dinamikasining karakter xususiyatlari va orttirilgan tajribalar indeksi evaziga takomillashib borgani bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi metodikasining turmush tajribasi bo‘yicha farqlari

Turmush o‘rtog‘ining bir qator parametrlarini baholash ($U=23023$; $p<0,01$) 6-11 yillik turmushga ega juftliklarda yuqori ekani ma’lum bo‘ladi. Juftining karakter xususiyatlarini o‘rgangan, sinovli kunlarni boshdan kechirgan juftliklarda bemalol turmush o‘rtog‘i haqida fikr bildirish, uning ustunlik hamda kamchiliklarining bir qator parametrlar bilan baholash ko‘rsatkichi yuqori bo‘lar ekan. Turmush o‘rtog‘ining xarakterini o‘zgartirishga nisbatan ustanovka ham aynan ko‘p yillik turmush tajribasiga ega oilalarda qayd

etilganini biz bir tomondan ulardagi zerikish, hissiy tushunishning avj pallasiga chiqqani sababli turmush oʻrtogʻini oʻzining qiziqishlari, ideallariga moslashtirish orqali nikohdan qoniqishini mustahkamlashga intilishning yuqori darajada ekani bilan ham tushuntiramiz ($U=22800,5$; $p<0,01$).

Nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr shkalasida ham xuddi yuqorida boʻlgani kabi ahamiyatli natijalar kuzatildi ($U=22903,5$; $p<0,05$). Ballarning kam koʻrinish olishi sinaluvchilarda nikoh haqida ustanovkalarining salbiyligini ifodalasa, ballarning yuqoriroq koʻrinish olishi aksincha, nikoh haqida ustanovkalarining ijobiyligini taʼkidlaydi. 6-11 yillik turmush tajribasiga ega juftliklarda nikoh haqida ijobiy fikrlar ulardagi oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga bevosita bogʻliq boʻlib, oilaviy hayotga moslashish, turmush oʻrtogʻining xislatlarini persepsiya qilish evaziga ularda nikoh tasavvurlari ijobiy koʻrinish olgan boʻlishi mumkin. Yosh oilalarda esa, aksincha. Ularda oilaviy hayotga moslashuvning ikkilamchi bosqichi kechayotgani evaziga ham nikoh haqida tasavvurlar toʻliq, kompleks shakllanmaganligi hisobiga ham nikoh haqida fikr biroz salbiyroq koʻrinish olgan ehtimol.

Xulosa. Nikohning qoniqishiga bogʻliq boʻlgan omillarga bagʻishlangan koʻplab ishlarga qaramay, bu mavzu toʻliq oʻrganilmagan. Bundan tashqari, soʻnggi yillarda bu mavzu tadqiqot uchun juda qiziq boʻldi, chunki oila instituti juda muhim oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda. Nikohdan qoniqish fenomenining barcha tadqiqotlari, tadqiqotchilarning fikriga koʻra, nikohning qoniqishiga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan omillarga asoslanadi, masalan, oilaning hayot sikli yoki bolalarni tarbiyalashga boʻlgan munosabati yoki turmush oʻrtoqlarning nikohdagi ehtiyojlarini qondirish tabiati. Nikohning qoniqishiga taʼsir etuvchi omillarni oʻrganish oila tizimidagi muammolarni bashorat qilish va oldini olish hamda oilaviy maslahatlarda amaliy foydalanish uchun zarurdir [8].

Nazariy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, nikohdan qoniqishga turmush qurish motivlari, oilaviy rollarning taqsimlanishi, nikoh mosligi kabi omillar taʼsir qiladi; erkaklar oʻrtasida nikohdan qoniqish darajasi ayollarnikiga qaraganda yuqoriroq. Bolalarning mavjudligining qoniqish darajasiga taʼsiri ham kuzatiladi: agar bolalar boʻlsa, u kuchayadi. Nikoh munosabatlaridan qoniqish koʻp jihatdan har bir turmush oʻrtogʻi birgalikda yashashdan quvonch va zavqlanish hissini boshdan kechirish darajasiga bogʻliq. Agar shaxsning muayyan ehtiyojlari qondirilmasa yoki minimal darajada qondirilsa, shaxsning hayotiy faoliyati tizimida turli xil buzilishlar paydo boʻlishi mumkin. Birlamchi va ikkinchi darajali nikoh va oilaviy moslashuv muammosini oʻrganish, muayyan yosh oilada sodir boʻladigan oilaviy moslashuv jarayonlari turli xil oʻzgarishlarni boshdan kechiradi, bu esa yosh oila hayotida chuqur oʻzgarishlarga olib keladi, degan xulosaga keldi. Shuningdek, nikoh barqarorligi nikoh munosabatlari tizimi sifatida uning mustahkamligi va barqarorligini tavsiflovchi tushuncha ekanligi aniqlandi. Nikoh barqarorligining ijtimoiy ahamiyati shundaki, u nikohga asoslangan oilaning mustahkamligini belgilaydi. Nikohning mustahkamligi va barqarorligi turmush oʻrtoqlarni nikohda ushlab turuvchi omillarning uni buzuvchi omillardan ustunligining oʻlchovidir.

Empatiya darajasi ham turmush stajiga koʻra solishtirilganda deyarli barcha koʻrsatkichlar: ratsional empatiya kanali ($U=25077,5$; $p<0,05$), emotsional empatiya kanali ($U=23177,5$; $p>0,05$), intuitiv empatiya kanali ($U=22282,5$; $p<0,05$), empatiyaga xos ustanovkalar ($U=24855$; $p<0,01$), empatiyaning kirib borish qobiliyati ($U=24742$; $p<0,01$), empatiyadagi identifikatsiya ($U=24004,5$; $p<0,05$), umumiy empatiya koʻrsatkichi ($U=23995,5$; $p<0,05$) kabilarda ahamiyatli farqlar qayd etilganini kuzatish mumkin. Ratsional empatiya kanali boʻyicha 6-11 yillik turmush tajribasiga ega oilalarda ustunliklar kuzatilib, ularda bir-birini soʻzsiz his etish, ratsional bilish orqali his-tuygʻularini tushunish, ifodalash yuqori boʻlar ekan. Emotsional empatiya kanali boʻyicha ishonchli farqlarning qayd etilmaganini biz koʻpincha hozirgi kundagi yosh oilalarda ham hissiy bilish, hissiy tushunish hamda his-tuygʻularini erkin ifoda etish kabilarda turmush tajribasiga unchalik bogʻliq emas, degan xulosalar qilishga ham imkon beradi.

Intuitiv empatiya kanali boʻyicha ham ustunlik tajribali oila vakillarimizda boʻlib, bunda ular turmush borasidagi ustanovka, qarashlarning real hayotga mos kelish-kelmasligiga asoslanib, hodisalarni oldindan koʻra bilish, prognozlashtirish qobiliyati takomillashib borgani bilan tushuntirish mumkin. Empatiyaga mos ustanovkalar boʻyicha ham ustunliklar 6-11 yillik oilalarda qayd etildi. Emotiv-empatik komponent oilaviy munosabatlarning barcha darajalarida oʻzaro taʼsir sifatida mavjud; barcha shaxslararo munosabatlar hissiyotlar va empatiyaga asoslanadi. Birga hayotning past-balandlini bosib oʻtish hisobiga ham taxminimizcha turmushi koʻproq kechgan oilalarda oldindan tushunish, his qilish hamda hislarga nisbatan reaksiya bildirish darajasi biroz yuqoriroq.

Adabiyotlar:

1. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии / И.Н. Андреева. – Н.ПГУ, 2011. – 30 с.
2. Боʻrieva M. Sizningcha oilada nechta farzand boʻlgani maʼqul? - T.: Adolat, 1995. – 57 b.

3. Будинайте Г.Л. Теоретические основы системной семейной психотерапии / Г.Л.Будинайте, А.Я.Варга // Журнал практической психологии и психоанализа. - 2005. - № 4. - С. 88-111.
4. Булгаков А.В., Сыромятников И.В. Основы психологии семьи и семейного консультирования. – М.: Академия, 2008. - 204 с.
5. Гребенников И.В. Основы семейной жизни / учеб. пособие для студентов пед. ин-тов / И.В. Гребенников. - М.: Просвещение, - 2010. 140 с.
6. Гуров В.Н. Семья в системе формирования современной личности / В.Н. Гуров, А.Е. Шабалдас /У Педагогическое образование и наука: науч.-метод. журнал. - 2001. - №4. - С. 29-39.
7. Дементьева Э.В. Психологическая культура человека: современное состояние проблемы // Вестник Мордовского ун-та. – 2011. - №2. – С.12-17.
8. Эгорова О.В. Феномен удовлетворённости браком: основные направления исследований [Текст]/ О. В. Эгорова // Образ российской психологии в регионах страны и в мире. Материалы международного Форума и школы молодых ученых ИП РАН, 24–28 сентября 2006.

*Холиёрова Мадина Боймурод қизи,
Термиз давлат университети тадқиқотчиси*

ТАЛАБАЛАРДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК КОМПОНЕНТЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақола талабаларда коммуникатив компетенция шаклланишининг психологик компонентларини ўрганишга бағишланган бўлиб, унда бўлажак соҳа мутахассисларининг коммуникатив компетенцияларига қўйиладиган талаблар, талабаларда коммуникатив компетенция шаклланишнинг даражасини аниқлашнинг психологик усуллари келтирилган. Шунингдек, коммуникатив компетенцияларни шакллантиришининг зарурати тўғрисидаги психолог олимларнинг қараишлари ёритилиб, талабалар коммуникатив компетенцияси ва унинг соҳа фаолиятидаги зарурати таҳлил қилинган. Олий таълим муассасаси талабаларининг коммуникатив компетенциясини аниқлаш мақсадида олиб борган тадқиқотлар ва уларнинг натижалари ёритилган.

Калит сўзлар: компетенция, коммуникация, мулоқот, коммуникатив компетенция, касбий кўникма, ижтимоийлашув.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению психологических компонентов формирования коммуникативной компетентности студентов. Также освещены взгляды психологов относительно необходимости формирования коммуникативных компетенций, проанализированы коммуникативная компетентность студентов и её необходимость в данной сфере. Освещены исследования, проведённые с целью определения коммуникативной компетентности студентов высшего учебного заведения и их результаты.

Ключевые слова: компетенция, коммуникация, общение, коммуникативная компетентность, профессиональные навыки, социализация.

PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Abstract. This article is devoted to the study of the psychological components of the formation of communicative competence of students. The views of psychologists regarding the need to develop communicative competencies are also highlighted, the communicative competence of students and its need in this area are analyzed. The studies conducted to determine the communicative competence of students of a higher educational institution and their results are covered.

Keywords: competence, communication, communicative competence, professional skills, socialization.

Кириш. Замоनावий жамиятнинг ўзига хос хусусияти шундаки, шахс меҳнат бозорида рақобатбардош бўлиши учун етарли даражада кенг қамровли билим ва маълумотларга эга бўлиши керак. Бугунги кунда олий ўқув юртлари аналитик фикрлайдиган, мақсадли, қўйилган муаммоларнинг ечимини топишда мустақил бўладиган мутахассисларни тайёрламоқда. Жамият томонидан ҳурмат ва эътирофга бўлган эҳтиёжни қондириш орқали ўз-ўзини намоён қилишга эришиш самарали ўзаро таъсир қилиш қобилиятисиз мумкин эмас.

Жаҳонда коммуникатив компетенцияни ривожлантириш муаммоси психологик ва педагогик адабиётларда энг долзарб муаммолардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Чунки коммуникатив компетенция "инсон-инсон" тизими билан боғлиқ бўлган бир қатор касбларнинг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади ва олимларнинг коммуникатив компетенция масалаларига эътибори профессионал вазиятларда одамлар билан ўзаро муносабатлар сифати бўйича касбий вазифаларни муваффақиятли бажариш ўртасидаги бевосита боғлиқлик билан изоҳланмоқда.

Самарали мулоқот ва белгиланган вазифаларни бажариш учун касбий фаолият, одамлар билан мулоқот қилишда, ҳар бир мутахассис коммуникатив қобилиятга эга бўлиши зарур. Илмий жиҳатдан адабиётларда "мулоқот", "компетентлик" тушунчалари ва у билан боғлиқ "компетентлик" муаммоси кенг ўрганилган.

"Коммуникация" (юнунча: коинония; лотин соммунио) умумий, кўшма ишда иштирок этишни англатади, лекин асосан ва энг катта даражада - қандайдир сиёсий иттифокда жараёни акс эттиради. [18]. "Коммуникация" тушунчаси XX-асрда илмий муомалага киритилган, Мулоқот жараёни эса, маълумотни одамдан одамга узатишни назарда тутди ва мазкур жараён кишиларнинг ўзаро муносабатларининг ўзига хос шакли сифатида асосан тил ёрдамида (керак бўлганда, бошқа рамзий воситалар ёрдамида тизимлари) амалга ошириладиган когнитив меҳнат фаолияти ҳисобланади.

Талабалар коммуникатив компетенцияси таълим-тарбия жараёнида педагоглар, гуруҳдошлари ва бошқалар билан ўзаро муносабатларининг ижобийлиги, улар билан самарали ҳамкорлик қилиш қобилияти ҳамда мулоқотда суҳбатдошининг индивидуал психологик ва миллий хусусиятларини ҳисобга олиши тушунилади. Шунингдек, уларнинг уддабуронлиги, одоб-ахлоқ меъёрларидан фойдаланиши, ўзаро муносабатларда низоларни бошқариш ҳамда самарали ҳамкорлик қилиш қобилиятидан иборат.

Коммуникатив компетенция шахснинг асосий хусусиятлари сифатида Н.Б.Буртова, А.Н. Сухова, Ю.М.Жукова, О.В.Ванновской, Ю.Н.Эмелянова, И.В.Макаровская, Л.А.Петровская ва бошқалар томонидан ўрганилган, В.В.Волский, О.В.Веселова, Н.К.Золкиналар томонидан мулоқотни ўқитиш технологияси ва усулларини ишлаб чиқилган.

Тадқиқотчи Э.И.Литневская коммуникатив компетенцияни асосий "нутқ фаолиятининг барча турларидан оғзаки ва ёзма нутқ маданияти асосларини, маълум бир ёш учун муҳим бўлган соҳаларда ва турли мулоқот вазиятларда тилдан фойдаланиш қобилиятлари ва кўникмаларини ўзлаштиришни ўз ичига олади" – деб таъкидлайди. Шу ўринда талабаларнинг коммуникатив компетенцияси касбий билимларни, тилни билишни, бошқалар билан ўзаро муносабатда бўлиш усулларини, гуруҳда ишлаш кўникмаларини, касбий мулоқотни амалга ошириш учун ижтимоий ролларни ўзлаштиришни ўз ичига олади.

Аввало, мулоқот инсон ҳаётининг асосий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Шахснинг ижтимоийлашуви ва замонавий жамиятда ўзини ўзи англаши мулоқот орқали намоён бўлади. Айнан, талабалик йилларида таълим билан боғлиқ кўплаб масалаларни ўрганиш ва бошқа мақсадларда фойдаланиш зарур бўлади ҳамда бу ўзаро таъсир қоидаларини билмасдан мулоқот амалга оширилмайди. Талабалар ҳақида гапирганда, нафақат уларнинг олий таълим муассасасида ўқишлари учун зарур бўлган маълумотлар алмашинувида, балки талабанинг ҳиссий жиҳатдан ҳам ташкил этилган гуруҳдаги шахсларро мулоқотни ҳисобга олиш лозим. Талабалар ҳаёти модели гуруҳдошларининг доимий ва узлуксиз алоқаси ва ўзаро таъсирини назарда тутганлиги боис муносабатларда маълум бир боғлиқлик ва масъулият пайдо бўлади [1; 55].

Шунингдек, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнидан кўзланган асосий мақсад бўлажак турли соҳа мутахассисларнинг шахсий ва касбий қобилиятлари, билим, кўникма ва малакаларини ривожлантиришга қаратилган. Айниқса, олий таълим жараёнида талабаларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш, улар нафақат мутахассисликка оид билимларга, балки ўз соҳаларидаги фаолиятларидаги муаммоларни ижобий ҳал қилиш қобилиятига эга бўлиши зарурдир.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар. Бизнинг фикримизча, алоҳида касб соҳаларининг ўзига хос муаммолари мавжуд бўлиб, агарда бўлажак мутахассисларда мазкур муаммоларни ҳал этишга оид компетенциялар шаклланмаган бўлиши соҳада самарали фаолият юритишларини таъминлаш имкониятини бермайди. Шу нуқтаи назардан олий таълимла талабаларда умумий коммуникатив компетенцияни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилиши зарур.

Умумий коммуникатив компетенция шахснинг ижтимоий компетенциясининг бир қисми бўлиб, бу шахснинг турли вазиятларда оддий алоқалар даражасида, кундалик ҳаётда, касбий соҳада ахборот билан ўзаро таъсир қилишнинг кундалик амалиётлари даражасида амалга ошириладиган муносабатларга кириша олиш қобилиятини тавсифлайди.

Тадқиқотчиларнинг фикрича, "коммуникатив компетенция" - бу шахснинг маълумот узатиш, алмашиш, алоқаларни ўрнатиш, оғзаки нутқ ёрдамида ва оғзаки бўлмаган воситалар билан вазиятни бошқаришда самарали ижтимоий ўзаро таъсир қилиш учун зарур бўлган билим ва кўникмалардан иборат интеграциявий сифати бўлиб хизмат қилади.[3; С. 44-47.]

Талабаларнинг коммуникатив компетентсияси унинг келажакдаги муваффақиятнинг муҳим таркибий қисми сифатида ўзаро таъсир ҳолатидаги бошқа субъектлар билан профессионалик, мутахассис - бу билан самарали мулоқот қилиш қобилияти бўлганлиги туфайли алоҳида кизиқиш уйғотади

Я.В.Ведомская "инсон-инсон" тизими билан боғлиқ бўлган бир қатор касбларда ходимнинг коммуникатив компетенциясини қуйидаги тўрт даражада шаклланган ва намоён бўладиган асосий касбий ва шахсий сифат деб баҳолайди: кадрят, психологик, меъёрий ва технологик даражалар.[2;

194 с.] Унинг таъкидлашича, туристик дам олиш ташкилотчисида ушбу даражаларни ўқув жараёни ва ижтимоий-маданий соҳа доирасида мақсадли ва бир-бирини тўлдириш, ривожлантириш ресурслар билан таъминланган фазилатларни рағбатлантириш орқали мулоқот қилишдаги камчиликларни қоплаш ва юқори даражадаги коммуникатив маданиятни таъминлаш имконини беради.

Б.Г.Ананьев фаолият тахлилини амалга оширишда, унинг кўп босқичлилигини таъкидлайди: биринчидан, жамиятнинг моддий ва маънавий кадриятларини ишлаб чиқариш дастурлари, операциялари, воситаларининг тарихан ўрнатилган тизими сифатидаги яхлит фаолият; иккинчидан, алоҳида ҳаракат акти, жумладан мақсад, уни илгари суриш мотивлари ва унга эришиш усуллари сифатида; учинчидан, тарғибот ва дастур яратиш орқали ҳаракатлар қуриладиган микро ҳаракатлар сифатида; тўртинчидан, макро-ҳаракатлардан тузилган макро ҳаракатлар бўлиб, бунда дастлабки икки даража инсон фаолиятини субъект, ижтимоий борлиқ, шахс сифатида кўриб чиқишга тўғри келади, охириги даражалар эса табиий индивид сифатидаги инсон фаолиятини белгилайди.

И.В.Новгородцеванинг тадқиқотларида экстремал вазиятларда ёнғин хавфсизлиги хизмати мутахассисларининг шахслараро муносабатларни ривожлантириш ва оптималлаштиришда мутахассисларнинг ўзаро ҳамкорлигида бошқариладиган фаолиятда самарали ўзаро муносабатлар тахлили амалга оширилган ва вақт етишмаслиги ҳамда ёнғин хизмати мутахассисларининг ҳаётига таҳдид тўғридан-тўғри, қиска, асосли, адекват ҳаракатлар қилиш ва қарор қабул қилувчига нисбатан ҳаракатларнинг муваффақиятини оширишни таъминлаш стратегияси фаолият самарадорлигини таъминлаши асосланган.

Бизнинг назаримизда олий таълим муассасаси талабаларининг келгуси фаолиятларига касбий тайёрлашда ўз йўналишидан келиб чиқиб ёндошиши, энг муҳими уларда юқори коммуникатив компетенцияни шакллантириш ҳамда коммуникатив компетенциянинг ривожланиш даражаси юқори бўлган шунингдек, маълум шахсий фазилатлар: меъёрий хулқ-атвор, қобилият, ўзини тута билиш, хушмуомалалик кабиларни юксалтириш лозим бўлади. Шу муносабат билан аввало талабаларда коммуникатив қобилиятларининг шаклланганлик даражасини аниқлаш ва мазкур қобилиятдаги мавжуд муаммолар ва камчиликларни аниқланганидан сўнг улар билан ривожлантирувчи машғулотлар олиб бориш яхши натижаларни бериши мумкин.

Биз ўз тадқиқотларимизда олий таълим муассасаси филология таълим йўналиши талабалари билан олиб борилган тадқиқотлар давомида ҳозирги вақтда коммуникатив компетенцияда иккита ёндашув мавжуд назарий ва амалий компетенцияларнинг шаклланганлигига эътибор қаратдик.

1-жадвал.

Коммуникатив компетенцияга ёндашувлар

№	Ёндашув	Мазмуни
1	Назарий	"Турли соҳаларда коммуникатив компетенциянинг жараёнлари, шароитлар ва омиллар унинг ўзгаришини, моделлари, тушунчалар ва ролни белгилаш ва самарали таъсир ўтказиш жойлари, усуллари ишлаб чиқади.
2	Амалий	Бу ёндашув коммуникатив компетенцияни ривожлантириш ва такомиллаштириш, уларнинг ривожлантириш усуллари ишлаб чиқиш, коммуникатив маҳоратини ташхис қилиш ва тарғибот дастурларини ишлаб чиқиш жараёнларга эътибор қаратади. (Захарова В.Л. ва Петровская Л.А. Николаева Л.А., Горюнова Э.М., Гаврилова И.К.)

Биз тадқиқот ишимизда Л.А.Петровскаянинг коммуникатив компетенция тушунчасига таяндик. Л.А.Петровская "Коммуникатив компетенция" тушунчасини изохлашда самарали мулоқот учун зарур бўлган кўникма ва қобилиятларнинг умумийлигини тушунади. Коммуникатив компетенциянинг таркибий қисми бу бошқа одамлар билан коммуникация ўрнатиш ва сақлаш ҳамда мулоқот қилиш қобилиятдир. Шунингдек, Л.А.Петровская шахснинг ривожланиши кўп жиҳатдан унинг тегишли кадриятлари, мулоқот қилишга тайёрлигига боғлиқлигини эътироф этади.

Олинган натижалар ва уларнинг тахлили. Олий таълим муассасаси талабаларининг коммуникатив компетенциясини аниқлаш мақсадида олиб борган тадқиқотларимизда В.Ф.Ряховскийнинг "Мулоқотчиликнинг умумий даражасини аниқлаш сўровномаси" дан

фойдаландик. Мазкур сўровна мулоқатчанликнинг умумий даражасини аниқлаш мақсадида қўлланилди. Методикани қўллашда синалувчиларга куйидагича кўрсатма берилди: «Сизнинг эътиборингизга бир қатор оддий саволлар хавола этилади. Сиз уларга «ха», «йўқ» «баъзида» деб жавоб қайтаришингиз мумкин. Саволларга тез, кўп ўйламай жавоб беришингиз талаб этилади».

2-жадвал.

**В.Ф.Ряховскийнинг “Мулоқотчиликнинг умумий даражасини аниқлаш сўровномаси”
натижасининг жинс кесимидаги таҳлили**

		Жинси		Жами
		Қиз болалар	Ўғил болалар	
Мулоқотчанлик даражаси анча паст.	Сони	27	33	60
	Фоиизи	9,78%	12,74%	
Мулоқотчанлик даражаси паст.	Сони	39	48	87
	Фоиизи	10,76%	18,53%	
Мулоқотчанлик ўртача.	Сони	131	111	242
	Фоиизи	47,46%	42,85%	
Мулоқотчанлик даражаси юқори.	Сони	45	37	82
	Фоиизи	16,30%	14,28%	
Мулоқотчанлик даражаси жуда юқори.		34	30	64
		12,31%	11,58%	
Жами:	Сони	276	259	535

Сўровна натижалари бўйича мулоқотчанлик даражаси анча паст бўлган талабаларда коммуникатив компетенцияларида жиддий муаммолар мавжуд. Уларда ҳамкорлик фаолиятини ташкил этиш кўникмалари шаклланмаганлиги хосдир.

Мулоқотчанлик даражаси паст талабалар ёлғизликка мойил, дўстлари кам, нотаниш одамлар билан танишиш, нотаниш жойларга бориш зарурати ҳаловатини бузади.

Мулоқотчанлик ўртача талабаларда эса, маълум даражада мулоқотчанлик мавжуд ва нотаниш вазиятларда ўзини йўқотиб қўймайди. Уларни янги муаммолар кўрқитмайди, аммо нотаниш одамлар билан мулоқот қилишда анча эҳтиёткорлар.

Мулоқотчанлик даражаси юқори талабаларда етарлича мулоқотчанлик шаклланган бўлади. Улар қизиқувчан, яхши суҳбатдош ва яхши тингловчи бўладилар. Шунингдек, мулоқотда анча сабрли, ўз нуқтаи назарини ҳиссиётга берилмай ҳимоя қила оладилар.

Мулоқотчанлик даражаси жуда юқори талабалар жуда мулоқотчан, қизиқувчан, гапдон, ҳар хил масалалар бўйича ўз фикрини билдиришни яхши кўради, бу эса баъзида атрофдагиларнинг ғашига тегади.

Хулоса. Талабаларнинг бошқа сифатлари каби коммуникатив компетенцияларини меъёрида шакллантиришга таълим-тарбия жараёнида алоҳида эътибор қаратилиши зарур. Махсус психодиагностик тадқиқотлар ўтказиб талабаларда коммуникатив компетенциянинг шаклланганлик даражасини аниқлаш ва мулоқот кўникмалари етарли даражада шаклланмаган талабалар билан психокоррекцион машғулотлар олиб бориш талаб этилади. Акс ҳолда бўлсак, соҳа мутахассисларининг келгуси фаолиятлари самараси талаб даражасида бўлмайди.

Адабиётлар:

1. Белянская Т.Э. Социально-психологические характеристики студенческого возраста // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. 2020. № 3 (55).
2. Ведомская Я.В. Формирование коммуникативной компетентности организаторов туристского досуга в культурно-образовательном пространстве вуза [Текст]: дис. На соиск. учен. степ. канд. пед. наук : 13.00.05 / Ведомская, Я. В.; - Санкт-Петербург, 2006. - 194 с.
3. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб.пособие: В 2 кн. – 3 – е изд. – М.: Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 2000. – Кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приёмы и упражнение. 52 – 55 бетлар.
4. Ротова Н.А. Определение понятия «коммуникативная компетенция педагога / Ротова Н.А. / Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки. 2014. № 9-10. С. 44-47.

№		bet
		сmp
		pag e
1	Баратов Хумоюн Шарифович	3
	Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчилари касбий тайёргарлигини ошириш педагогик-психологик муаммо сифатида	
	Совершенствование профессиональной подготовки будущих учителей физической воспитания как педагогическая и психологическая проблема	
	Improving professional training of future physical education teachers as a pedagogical and psychological problem	
2	Abdurahmonova Zuhra Abdurahmon qizi	7
	Shaxs sanogen tafakkur xususiyatlarining namoyon bo'lishini o'rganish natijalari	
	Результаты изучения проявления характеристик саногенного мышления личности	
	The results of studying the appearance of characteristics of personal sanogenic thinking	
3	Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna	13
	Talabalarning o'quv faoliyatida stressga bardoshlilikning ijtimoiy-psixologik omillari	
	Социально-психологические факторы стрессоустойчивости в учебной деятельности студентов	
	Social-psychological factors of stress resistance in students' educational activity	
4	Abdurazzaqov Shuxratbek Zafarjon o'g'li	20
	Talabalar kreativ kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlari	
	Чувствительный период творческого формирования	
	Social-psychological determinants of creative competence of students	
5	Жумаев Улўзбек Сатторович	27
	Шахс психологиясида "детерминация" категориясининг ўрни ва ахамияти	
	Роль и значение категории «детерминация» в психологии личности	
	The role and meaning of the category "determination" in personality psychology	
6	Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li	32
	Talabalarda oilaviy baxt haqidagi tasavvurlarni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологическая характеристика проявления у студентов представлений о семейном счастье	
	Social-psychological characteristics of students' display of ideas about family happiness	
7	Aminova Dilnoza Orifjonovna	40
	Professional ta'lim o'quvchilarida kasbiy imijni shakllantirishning muhim psixologik jihatlari	
	Важные психологические аспекты формирования профессионального имиджа у студентов по профилю «Профессиональное образование»	
	Important aspects of professional image formation in professional education students	
8	Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna	44
	Oliy ta'lim chet tili fani o'qituvchilarida sotsial emotsional kompetentlikning namoyon bo'lishi	
	Демонстрация социально-эмоциональной компетентности у преподавателей иностранного языка в вузе	
	Demonstration of social-emotional competence in higher education foreign language teachers	

9	<i>Avlaev Orif Umirovich</i>	48
	Shaxsni kasbiy faoliyatida sotsial intellektning ta'siri jarayonini matematik modellashtirish	
	Математическое моделирование процесса влияния социального интеллекта в профессиональной деятельности личности	
	Mathematical modeling of the process of the influence of social intelligence in personal professional activity	
10	<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	53
	Nodavlat oliy ta'lim muassasalari talabalarida kognitiv jarayonlarining integratsiyalashgan ta'lim modellari	
	Интегрированные образовательные модели познавательных процессов у студентов негосударственных вузов	
	Integrated educational models of cognitive processes in students of non-state higher education institutions	
11	<i>Fayziyeva Umida Asadovna</i>	57
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish determinatlari	
	Детерминанты развития профессиональных качеств будущих учителей	
	Determinants of development of professional qualities of future teachers	
12	<i>Baxronova Dildora Esanovna</i>	61
	Bolalarning intellektual rivojlanish usullarini o'rganish mexanizmlari	
	Механизмы изучения методов интеллектуального развития детей	
	Mechanisms of learning methods of children's intellectual development	
13	<i>Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi</i>	66
	O'smirlarni kasbga yo'naltirish jarayonida mahallada psixologik xizmatni tashkil etilishining amaliy asoslari	
	Практические основы организации психологической службы в махалле в процессе профориентации подростков	
	Practical bases of organization of psychological service in makhalla in the process of career guidance of adolescents	
14	<i>Bilolova Zamira Baxtiyarovna</i>	73
	Yoshlarni ota-onalik mas'uliyatiga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологические особенности подготовки молодёжи к родительской ответственности	
	Socio-psychological characteristics of preparing young people for parental responsibility	
15	<i>Boltayev Sardor Ibodovich</i>	77
	Keksalik davrida empatiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari	
	Особенности проявления эмпатии в старческом периоде	
	Features of empathy in old age	
16	<i>Djalalova Mohinur Abdusattor qizi</i>	81
	Maktabgacha yosh davri bolalari ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari va psixodiagnostikasi	
	Социально-психологические факторы и психодиагностика психического здоровья детей дошкольного возраста	
	Social-psychological factors and psychodiagnostics of mental health of preschool children	
17	<i>Dosjanova Yulduzkhan Rahatovna</i>	85
	“Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik” so'rovnomasining metodologik asosi va birlamchi tahlil natijalari	
	Методологическая основа и результаты первичного анализа анкеты «Ориентация на религиозные ценности»	
	Methodological basis and primary analysis results of the “Orientation to religious values” questionnaire	

18	<i>Dursunov Sardor Axmat o'g'li</i>	89
	Irxondrial shaxslarning klinik psixologik va neyropsixologik xususiyatlari	
	Клинико-психологическая и нейropsихологическая характеристика ипохондриальных лиц	
	Clinical psychological and neuropsychological characteristics of hypochondriacs	
19	<i>Ikramov Amirbek Aminovich</i>	93
	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha o'qituvchi-murabbiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологические особенности деятельности учителя-тренера по физической культуре и спорту	
	Socio-psychological features of the activities of a teacher-coach in physical education and sports	
20	<i>Ismatova Dilafuz Tuymuratovna</i>	100
	Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik asoslari	
	Социально-психологические основы отношений между родителями и детьми	
	Socio-psychological foundations of relations between parents and children	
21	<i>Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna</i>	104
	Insult o'tkazgan bemorlarning emotsional holatlarining nazariy va amaliy tahlili	
	Теоретический и практический анализ эмоциональных состояний больных, перенёвших инсульт	
	Theoretical and practical analysis of emotional states of stroke patients	
22	<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	108
	Tug'ruqdan keyingi davrda ayollar bilan psixokorreksion ish olib borishning psixologik asoslari	
	Психологические основы психокоррекционной работы с женщинами в послеродовом периоде	
	Psychological basis of psychocorrection work with women in the postpartum period	
23	<i>Mamatova Nazira Djurakulovna</i>	112
	Nikoh va oila munosabatlarining psixoterapevtik usullari	
	Психотерапевтические методы брака и семейных отношений	
	Psychotherapeutic methods of marriage and family relations	
24	<i>Mirashirova Nargiza Anvarovna</i>	118
	Psixologning kasbiy shakllanishida "Men" konsepsiyasi muammosining nazariy yondashuvlari	
	Теоретические подходы к проблеме концепции «Я» в профессиональном формировании психолога	
	Theoretical approaches to the problem of the concept "I" in the professional formation of a psychologist	
25	<i>Narbasheva Mexri Achilovna</i>	122
	Xalq o'yinlarining rivojlantiruvchi funksiyalarini oshirishning pedagogik-psixologik asoslari	
	Педагогические и психологические принципы повышения развивающих функций народных игр	
	Pedagogical and psychological principles of enhancing the developmental functions of folk games	
26	<i>Narmuradova Rayhon Uktamovna</i>	128
	Oilaviy nizolar: kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish masalalari	
	Семейные конфликты: причины возникновения и проблемы устранения	
	Family conflicts: causes of origin and problems of elimination	
27	<i>Narzulloeva Salomatbonu Sunnatulloevna</i>	133
	Tibbiyot hamshiralari faoliyatida shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining psixologik determinantlari	
	Психологические детерминанты проявления особенностей личности в деятельности медсестёр	

	Psychological determinants of personality in the activity of a nurse	
	<i>Niyazova Nilufar Farhadovna</i>	137
28	SOS O'zbekiston bolalar mahallalari o'smir yoshidagi tarbiyalanuvchilarining psixologik tavsifi	
	Психологическое описание воспитуемых подросткового возраста детских махаллей в SOS Узбекистане	
	Psychological description of adolescents brought up in children's mahallas in SOS Uzbekistan	
	<i>Nurmatov G'ayrat Mustofoqulovich</i>	141
29	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy prognostik kompetensiyalarini rivojlantirish shart-sharoitlari	
	Условия развития профессиональных прогностических компетенций учителей начального образования	
	Conditions for development of professional prognostic competences of primary education teachers	
	<i>Olimov Laziz Yarashovich</i>	146
30	Sud-psixolog eksperti kompetentligining namoyon bo'lishi	
	Демонстрация компетентности судебного психолога-эксперта	
	Demonstration of competence of forensic psychologist expert	
	<i>Qodirova Odina Djurabaevna</i>	153
31	Talabalar emotsional intellektini rivojlanishiga oila va ta'limning psixologik ta'siri	
	Психологическое влияние семьи и образования на развитие эмоционального интеллекта студентов	
	The psychological impact of family and education on the development of students' emotional intelligence	
	<i>Qoryog'diyev Sherzod Shuxrat o'g'li</i>	157
32	Shaxs ehtiyojlarida kasbiy yo'nalganlik namoyon bo'lishining psixologik prediktorlari	
	Психологические предикторы проявления профессиональной направленности в личных потребностях	
	Psychological predictors of vocational orientation in personal needs	
	<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	164
33	Ta'lim jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirish dinamikasi	
	Динамика самоактивизации студентов в образовательном процессе	
	Dynamics of students' self-activation in the educational process	
	<i>Raxmanova Dilnoza Farmanovna</i>	168
34	Inspektor-psixolog faoliyati kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodologik manbalari	
	Методологические источники повышения профессиональной компетентности инспектора-психолога	
	Methodological sources for increasing the professional competence of inspector-psychologist	
	<i>Raxmatova Nodira Imamovna</i>	173
35	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlashning ahamiyati	
	Значение креативного мышления в подготовке будущих учителей начальных классов	
	The importance of creative thinking in the training of future primary teachers	
	<i>Ro'ziyev Umar Muzafarovich</i>	177
36	O'spirinlarda ijtimoiy fobiya holatlarining diagnostikasi	
	Диагностика состояний социальной фобии у подростков	
	Diagnosis of social phobia in adolescents	
	<i>Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich</i>	181
37	O'zbekistonda ajralishning ijtimoiy, etnopsixologik muammolari va ularni oldini	

	olish yo'llari	
	Социальные, этнопсихологические проблемы разводов в Узбекистане и пути их предотвращения	
	Social, ethnopsychological problems of divorce and ways to prevent them in Uzbekistan	
38	<i>Rustamov Shavkat Shuxratovich</i>	186
	Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion jihatlari	
	Инновационные аспекты развития компетентности у студентов в процессе педагогического образования	
	Innovative aspects of the development of competence in students in the process of pedagogical education	
39	<i>Sobirov Yangiboy Elmurot o'g'li</i>	191
	O'smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari	
	Социально-психологические факторы проявления чувства тревожности у подростков	
	Socio-psychological factors of anxiety in adolescents	
40	<i>Temirbekov Begdulla Orazimbetovich</i>	197
	Qoraqalpoq oilalarini mustahkamlashda er-xotin munosabatlarining psixologik ahamiyati	
	Значение супружеских отношений в укреплении каракалпакской семьи	
	The importance of marital relations in strengthening Karakalpak families	
41	<i>Tovbaeva Mukaddam Safarovna</i>	201
	Zo'rovonlik xulqidagi salbiy sifatlarning namoyon bo'lishini psixologik xususiyatlari	
	Психологические особенности проявления негативных характеристик при насильственном поведении	
	Psychological features of negative characteristics in violent behavior	
42	<i>Toyirova Shahlo Izatovna</i>	205
	Psixologiyada o'smir egizaklarni bir-biridan farqlashning psixologik determinantlari	
	Психологические детерминанты дифференциации близнецов-подростков в психологии	
	Psychological determinants of distinguishing teenage twins from each other in psychology	
43	<i>Atamuratova Zamira Ikramovna</i>	210
	O'smirlarda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari	
	Особенности проявления чувства вины у подростков	
	Specific characteristics of the manifestation of the feeling of guilt in teenagers	
44	<i>Kaxarova Dilдора Сидиковна</i>	214
	Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах	
	Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	
	Development of the readiness of future teachers for inclusive education on the basis of a competency approach	
45	<i>Нигматулина Лилия Алиевна, Жабарова Люция Алиевна</i>	221
	Психологические механизмы развода в семьях военнослужащих и методы коррекции	
	Psychological mechanisms of divorce in military families and methods of correction	
	Harbiy oilalarda ajrashishlarning psixologik mexanizmlari va tuzatish usullari	
46	<i>Самарова Шохиста Рабиджановна</i>	226
	Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслилик детерминантлари	
	Личностные детерминанты эффективности деятельности педагога	
	Personal determinants of teacher effectiveness	



47	<i>Тожибоева Гулхумор Рахмонжонова</i>	231
	Таълим тизимида низоларни конструктив бошқаришнинг психологик профилактикаси	
	Психологическая профилактика конструктивного управления конфликтами в системе образования	
	Psychological prevention of constructive conflict management in the educational system	
48	<i>Ахмедов Шавкат Асадиллойевич</i>	236
	Психоллингвистика замонавий фан сифатида	
	Психоллингвистика как современная наука	
	Psycholinguistics as a modern science	
49	<i>Тошева Моҳинур Юсуповна</i>	240
	Ўсмирларда стресс намоён бўлишининг назарий методологик асослари	
	Теоретико-методологические основы проявления стресса у подростков	
	Theoretical methodological basics of stress manifestation in teenagers	
50	<i>Файзиев Зоҳиддин Ҳасанбоевич</i>	246
	Раҳбар-ходимларда хавотирланиш даражасини ўрганиш ва унинг эмпирик таҳлили	
	Изучение уровня тревожности руководителей и его эмпирический анализ	
	Studying the level of anxiety of managers and its empirical analysis	
51	<i>Файзиева Мавлуда Худаяровна</i>	251
	Экспериментал тадқиқотларда психологик ҳимоя механизми тизимини таҳлили	
	Анализ системы психологического защитного механизма в экспериментальных исследованиях	
	Analysis of psychological defense mechanism system in experimental research	
52	<i>Хайдарова Хилола Газикуловна</i>	256
	Аёллар суицидал хулқида таъсир этувчи конформлиликнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	
	Социально-психологические характеристики конформности, влияющие на суицидальное поведение женщин	
	Social-psychological characteristics of conformity affecting women's suicidal behavior	
53	<i>Шамсиев Ўктам Бахриддинович</i>	263
	Она сифат ва функциялари – гўдак шахси ривожланишининг асоси	
	Материнские качества и функции - основа развития личности младенца	
	Maternal qualities and functions are the basis for the development of a baby's personality	
54	<i>Юнусходжаев Зоир Шакирович</i>	269
	Оилалардаги муносабатлар ва замонавий жамиятдаги тенденциялар	
	Семейные отношения и тенденции в современном обществе	
	Family relations and tendencies in modern society	
55	<i>Mamajonova Shoxista Kamoldinovna</i>	273
	O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	
	Эмпирическое исследование социально-психологических факторов формирования аддиктивного поведения у подростков	
	Empirical study of socio-psychological factors of the formation of addictive behavior in adolescents	
56	<i>Nazarova Manzura Mustafu qizi</i>	279
	Chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashishidagi psixologik to'siqlar	
	Психологические барьеры на пути адаптации иностранных студентов к системе образования Узбекистана	
	Psychological barriers to adaptation of foreign students to the educational system	

	of Uzbekistan	
57	Po'latova Madina Shavkatovna	284
	Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari	
	Педагогико-психологические детерминанты развития внимания учащихся начальных классов	
	Pedagogical and psychological determinants of the development of the attention of primary school students	
58	Rajabov Azamat Sharifovich	289
	Musiqachi o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik kompetentligini rivojlantirish	
	Развитие профессионально-педагогической компетентности педагогов-музыкантов	
	Development of professional and pedagogical competence of musician teachers	
59	Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li	293
	O'zbekiston psixologiyasida ilmiy maktablarning paydo bo'lishi va shakllanish tarixi	
	История возникновения и формирования в Узбекистане научных школ по психологии	
	History of emergence and formation of scientific schools in Uzbekistan psychology	
60	Sobirov Abdulaziz Abduroziqovich	298
	O'smirlar reproduktiv salomatligining ijtimoiy jihatlari	
	Социальные аспекты репродуктивного здоровья подростков	
	Social aspects of adolescent reproductive health	
61	Abayev Abduvohid Abdulxamidovich	302
	Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ijtimoiy salomatligining psixologik determinantlari	
	Психологические детерминанты социального здоровья педагогов высших учебных заведений	
	Psychological determinants of social health of teachers of higher educational institutions	
62	Аскарлова Гулрух Оринбосаровна	307
	Понятия и характеристика способов копинга	
	Koping usullarning tushunchalari va xususiyatlari	
	Concepts and characteristics of coping methods	
63	Садыкова Элеонора Искандаровна, Усманова Манзура Наимовна	312
	Экспериментальная программа регуляции эмоциональных состояний студентов (формирующий эксперимент)	
	Experimental program for the regulation of students' emotional states (formative experiment)	
	Talabalarning hissiy holatini tartibga solish bo'yicha eksperimental dastur (formativ eksperiment)	
64	Oymatova Dilorom Ruzimurotovna	321
	Turli turmush tajribasiga ega oilalarda nikohdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi psixoemotsional omillar	
	Психоэмоциональные факторы, влияющие на уровень удовлетворённости браком в семьях с разным брачным опытом	
	Psychoemotional factors affecting the level of marriage satisfaction in families with different marriage experiences	
65	Холиёрова Мадина Боймурод қизи	328
	Талабаларда коммуникатив компетенция шаклланишининг психологик компонентлари	
	Психологические компоненты формирования коммуникативной компетентности у студентов	
	Psychological components of formation of communicative competence in students	



Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring
BUXDU.UZ

Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab olishingiz mumkin



<p>PSIXOLOGIYA ilmiy jurnal 1-son (57) Buxoro – 2024. 338 b.</p> <p>PSIXOLOGIYA научный журнал. Выпуск 1. (57) Бухара – 2024. – 338 с.</p>	<p>Jurnal O`zbekiston psixologlarining BuxDU muassisligidagi nashri hisoblanadi.</p> <p>Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>OBUNA INDEKSI 3062</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi</p> <p>Qog`oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shatrlı bosma tabog`i - 28 Buyurtma №123. Adadi – 50 Bahosi kelishilgan narxda. “BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro sh. Q. Murtazoyev ko`chasi 344-uy.</p>
--	--	---

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291

